



**BUXORO
AGRO KLASTER**



QISHLOQ XO'JALIGIDA IXTISOSLASHGAN KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISH: TAJRIBALAR, NATIJALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani

2021 yil 30 noyabr



Buxoro – 2021

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI
“IQTISODIYOT” KAFEDRASI

QISHLOQ XO‘JALIGIDA IXTISOSLASHGAN KLASTERLARNI
SHAKLLANTIRISH: TAJRIBALAR, NATIJALAR VA INNOVATSION
YONDASHUVLAR
Respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLAR TO‘PLAMI
2021 yil 30 noyabr

"ФОРМИРОВАНИЕ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ КЛАСТЕРОВ В
СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ: ЭКСПЕРИМЕНТЫ, РЕЗУЛЬТАТЫ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ"
СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
Республиканской научно-практической конференции
30 ноября 2021 года

«Durdona» nashriyoti
Buxoro – 2021

УДК: 631.1:339.13(575.1)

Qishloq xo'jaligida ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish: tajribalar, natijalar va innovatsion yondashuvlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2021 yil 30 noyabr: - Buxoro : "Sadriiddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021.-272 b.

Dasturiy qo'mita: i.f.d. prof., O.X. Xamidov, DSc, dots, O.S. Qahhorov, i.f.d. prof, B.N. Navro'z-Zoda, i.f.n.,dots., D.Sh. Yavmutov, i.f.f.d. PhD, A.J. Abdulloyev i.f.n., dots. M.A. Oripov, i.f.n., dots., A.T. Jo'rayev, i.f.n., dots., N.S. Ibragimov, t.f.n. dots. G.Z. Zaripov

Tashkiliy qo'mita: DSc, dots, O.S. Qahhorov, i.f.f.d. PhD, A.J. Abdulloyev i.f.n., dots. M.A. Oripov, O',U, Rashidov, t.f.n. dots. G.Z. Zaripov, i.f.n.,dots., D.Sh. Yavmutov, katta o'qituvchilar: S.S. Davlatov, A.D. Qudratov, N.F. Odinayeva.

“Qishloq xo'jaligida klaster tizimini rivojlantirish: tajribalar, natijalar va innovatsion yunalishlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani to'plamiga yetakchi olimlar, professor-o'qituvchilar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil izlanuvchilar ilmiy tadqiqot ishlari doirasida ilmiy maqolalari va ma'ruza tezislari kiritilgan. Mazkur anjuman qishloq xo'jaligida klasterni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, klasterlar faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirishning huquqiy – me'yoriy asoslarini takomillashtirish, Klaster tizimida fermer xo'jaliklarini samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash yo'llarini aniqlash maqsadida Buxoro davlat universitetining Iqtisodiyot va turizm fakulteti “Iqtisodiyot” kafedrasida anjuman materiallari to'planib nashr etilgan.

To'plam i.f.f.d. PhD, A.J. Abdulloyev umumiy tahriri ostida chop etildi.

To'plam Buxoro davlat universiteti ilmiy-texnikaviy kengashi tomonidan chop etishga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

1. Azimov B – Buxoro muxandislik texnologiya instituti dotsenti, i.f.n.
2. Xo'jaqulov X.D. – Toshkent moliya instituti professori, i.f.d.

Mazkur to'plamga kiritilgan ilmiy ishlar va g'oyalar mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar, sanalarning aniqligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o'zlari mas'uldirlar.

ТАБРИК ВА КИРИШ СЎЗИ

Бухоро давлат университети ректори профессор Хамидов О.Х.

Қишлоқ хўжалиги мамлакатимиз иқтисодиётининг муҳим тармоқларидан саналади. Бугунги кунда республикада қишлоқ хўжалигининг асосий ишлаб чиқарувчилари – фермер ва деҳқон хўжаликлари, аҳолининг шахсий ёрдамчи хўжаликлари ҳамда қишлоқ хўжалиги фаолиятини амалга оширувчи ташкилотларидан иборат.

Аграр тармоққа инновацияларни кенг жорий қилиш, заминимизда етиштирилаётган хом ашёни ўзимизда қайта ишлашни чуқурлаштириш бугунги замон талаби ҳисобланади. Зеро, қишлоқ хўжалиги қанчалик саноатлашса, давлатнинг иқтисодий ва экспорт салоҳияти шунчалик ортади, аҳоли турмуш фаровонлиги юксалади. Шу боис, Ўзбекистонда кейинги йилларда илғор технологияларга асосланган инфратузилмани яратиш, қишлоқ хўжалигида кластер усулини жорий этишга жиддий эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 апрелдаги ПФ-5708 сонли «Қишлоқ хўжалиги соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони қабул қилинди. Мазкур Фармонда «агробизнеснинг кластер моделини кенг жорий этиш чора-тадбирларини амалга ошириш, кластерлаш жараёнининг ташкилий-ҳуқуқий ва иқтисодий асосларини такомиллаштириш, қишлоқ хўжалиги тармоқларида кластерларни ташкил этиш ва ривожлантириш бўйича инвестиция лойиҳаларини амалга оширишга кўмаклашиш» муҳим вазифалардан бири сифатида белгиланди.

Республикада қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва унинг рақобатбардошлигини оширишга қаратилган ислохотларни узоқ муддатли истиқболда янада чуқурлаштириш, уларни тизимли равишда амалга ошириш, жумладан, аграр соҳадаги мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланиш, қишлоқ хўжалиги тармоқларининг инвестицион самарадорлигини ошириш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг глобал рақобатбардошлиги кўрсаткичларини янада ошириш орқали жаҳон бозорларида муносиб ўрин эгаллаш, мамлакатнинг қишлоқ хўжалигини ривожлантириш салоҳиятидан тўлиқ фойдаланишга эришиш каби қатор муаммоларни ижобий ҳал этиш мақсадида “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегияси” қабул қилинди. Ушбу стратегияда қишлоқ хўжалигини кластер тизимида ривожлантириш устувор йўналиш сифатида белгиланган.

Умумий маънода, ишлаб чиқариш кластери иқтисодиётнинг бир хил ёки бир-бирига боғлиқ соҳаларида фаолият юритадиган ва географик жиҳатдан бир-бирига яқин бўлган корхоналар гуруҳидир. Бу корхоналарнинг технологик жиҳатдан ўзаро боғлиқ бўлиши жуда муҳимдир. Бундан ташқари, ушбу корхоналар битта умумий мақсад учун – рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқариш учун бирлашган. Кластер - бу қўшилган қиймат занжирининг барча иштирокчиларини (фермерлар, қайта ишловчи корхона, экспортёр) бир

мақсад сари жамлаган корхоналар гуруҳи. Кластерлар тизими – бу хом-ашё етиштиришдан бошлаб то қайта ишланган тайёр маҳсулотни истеъмолчига етказиб беришгача бўлган жараёларни қамраб олган бир бутун тизим. Бугунги кунда дунёнинг етакчи давлатлари ушбу тизимдан кенг фойдаланиб келмоқда.

Агрокластерларни шакллантириш ва улар фаолиятини ривожлантиришнинг тараққий этган мамлакатлар амалиёти таҳлили кўрсатишича, ушбу мамлакатларда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришда инновацион ишлаб чиқариш технологияларига асосланган, замонавий техника-технологиялар билан жиҳозланган агросаноат кластерлари фаолияти сезиларли даражадаги салмоққа эга ҳисобланади. Жумладан, АҚШнинг Калифорния, Вашингтон, Оклахома, Луизиана штатларида дунёдаги энг йирик ҳудудий агрокластерлар жойлашган бўлса, Европа Иттифоқи мамлакатларида (Германия, Франция, Италия, Болгария, Греция, Нидерландия, Дания ва бошқа мамлакатлар) юқори технологияли агрокластерларни ривожлантиришга устуворлик қаратилади. Сўнгги йилларда Жануби-Шарқий Осиё мамлакатлари – Хитой, Сингапур, Япония ва шу каби бошқа мамлакатлар амалиётида агрокластерлар фаолиятини ташкил этишнинг инновацион ва ҳудудий шаклланининг аралаш ҳолда қўллаш орқали қишлоқ хўжалигини ривожлантиришга қаратилган ислохотларга устуворлик берилмоқда.

Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги вазирлиги томонидан ташкил қилинган кластерлар умумий сони 463 тани, уларга бириктирилган ер майдонлари 2210385 гектарни ташкил этади. Шундан 282004 гектари кластерларнинг ўзида, 1930975 гектари 75283 та фермер хўжаликлари ихтиёрида.

Кластер тизимининг мақсади:

- Маҳсулот етиштиришда замонавий инновацион технологияларни жалб қилиш орқали агротехник тадбирларни янгилаш, ҳосилдорликни бир неча баробар ошириш;

- Маҳсулот етиштирувчилар томонидан қўшилган қиймат занжирини яратиш ва яқунда олинadиган тайёр маҳсулотларни экспортга йўналтириш;

- Кам харажат қилиб кўп даромад олиш. Маҳсулот етиштирувчиларнинг молиявий ҳолатини яхшилаш;

- Маҳсулот етиштирувчиларнинг моддий-техник базасини замонавий қишлоқ хўжалик техникалари ва ускуналари билан бойитиш.

Инфратузилма объектларини янгилашдан иборат.

Республикамизда фаолият юритаётган фермер хўжаликлари нафақат қишлоқ хўжалиги товар маҳсулоти ишлаб чиқариш билан шуғулланмоқда, балки, биринчи навбатда ўзлари томонидан етиштирилган деҳқончилик ва чорвачилик маҳсулотларини сақлаб, қайта ишлаб, қадоқлаб истеъмолчиларга тайёр ҳолда етказиб бериш ҳамда бозордаги талаб ва таклифдан келиб чиққан ҳолда қишлоқ ҳудудларида турли хилдаги хизматлар кўрсатиб, хўжаликнинг

молиявий барқарорлигини янада ошираётганлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим.

Бу эса кластерларни шакллантириш билан боғлиқ норматив-ҳуқуқий, ташкилий-технологик, молиявий-иқтисодий ва бошқа масалаларнинг замонавий илмий-услубий ечимларини топишнинг долзарблигидан далолат беради. Ушбу стратегик вазифаларни амалга оширишда Бухоро давлат университетида бугун ўтказилаётган **“Қишлоқ хўжалигида кластер тизимини ривожлантириш: тажрибалар, натижалар ва инновацион ёндошувлар”** мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани доирасида муҳокама қилинадиган ва олиб чиқиладиган таклиф-тавсиялар, янгиликлар муҳим ўрин тутди, анжуман якунида қабул қилинадиган қарор ва таклифлар пировардида Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини 2030 йилгача ривожлантириш стратегиясининг муҳим инновацион ёндошувлари қаторида соҳани ривожлантиришга хизмат қилади деб ўйлаймиз.

Анжуман бугун ялпи йиғилиш ва 4 та шўбада йўналишлар бўйича йиғилишлардан иборат тартибда, анъанавий ва онлайн тарзда ўтказилади. Бугунги тадбирда **республикамизнинг соҳа бўйича етакчи олимлари, соҳада фаолият юритаётган кластерлар вакиллари, вилоят ва туманлар ҳокимликлари вакиллари, йўналиш бўйича илмий тадқиқотлар олиб бораётган тадқиқотчилар, профессор-ўқитувчилар ва талабалар иштирок этишмоқда.** Тадбирда иштирок этаётган, таклиф қилинган меҳмонларга миннатдорчилик билдирган ҳолда, анжуман фаолиятига муваффақиятлар тилаймиз. **Илмий-амалий анжуманни очик деб эълон қиламан.**

I ШЎБА

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИДА КООПЕРАЦИЯ МУНОСАБАТЛАРИНИ УСТУВОР ЙЎНАЛИШ СИФАТИДА РИВОЖЛАНТИРИШ ТАЖРИБАЛАРИ

КЛАСТЕРЛАРНИ ШАҚЛЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Б.Н.Навруз-Зода
БухДУ профессори, и.ф.д.

Ўзбекистоннинг янги сайланган Президенти Шавкат Мирзиёевнинг инаугурация маросимидаги нутқида Ўзбекистонда миллий иқтисодий кластер асосида ривожлантириш зарурлигини таъкидлади. Жумладан, “хомашёдан – тайёр маҳсулотгача” деган тамойил асосида драйвер соҳаларда кластер тизимини ривожлантирамиз, деди Президент [1].

“Кластер” атамаси инглизча “*cluster*” сўздан олинган бўлиб, ўзбек тилида “қатор-қатор”, “тўплаш”, “тўда” каби маъноларини англатади. Азалдан “кластер” деганда “маълум хусусиятларга эга бўлган мустақил бирлик сифатида кўриб чиқилиши мумкин бўлган бир хил элементларнинг бирлашмасини” [2] назарда тутардики, бундай бирлашишнинг хусусиятлари унинг таркибидаги элементларидан анчагина фарқ қилади. Кластер умумий маънода – бу камдан-кам учрайдиган хоссаларга эга бўлган бир нечта ўхшаш элементларнинг ягона мустақил бирликка бирлашувидир.

1-жадвал.

Кластер ва кооперация ўртасидаги тафовутлар¹

Тўр	Мезонлар	Кластер	Кооперация
1	Хўжалик субъектлар ўртасидаги алоқалар	Вертикал интеграция	Горизонтал интеграция
2	Худудий бирлик	Худуд билан боғлиқ (мавжуд)	Худуд билан боғлиқ бўлмаслиги ҳам мумкин
3	Хўжалик юритиш шакли	Худудий-ишлаб чиқариш мажмуа (кластер) сифатида	Кооператив сифатида
4	Рақобат устунлиги	Ички рақобатнинг мавжудлиги	Ички рақобат мавжуд эмас
5	Қиймат ёндашуви	Қўшилган қиймат занжири яратилади	Қўшилган қиймат занжири яратилмайди

Иқтисодий кластерларини ривожлантириш назариясининг асосчиси, Гарвард университети бизнес мактаби профессори Майкл Портер “мамлакат рақобатбардошлигига унинг алоҳида фирмалари рақобатбардошлиги билан эмас, балки турли соҳалардаги фирмаларини бирлашмаси сифатидаги *кластерларнинг* халқаро рақобатбардошлиги нуқтаи назаридан қараш керак” [3], деб бежиз таъкидламаган. Чунки, бу фикрнинг амалий тасдиқи сифатида жаҳонда муваффақият билан фаолият кўрсатаётган кластерлар сони бўйича *энг ТОП бешталикка* кирадиган мамлакатлари илғор тажрибаларининг таҳлили шуни кўрсатадики, Франция - парфюмерия ва косметика ишлаб чиқаришга ихтисослашган 96 та кластерлари; Италия – сопол кафеллари ишлаб чиқаришига ихтисослашган 206 та кластерлари; АҚШ – дастурий таъминоти яратишга ихтисослашган 380 та кластерлари; Буюк Британия – биотехнологияларига ихтисослашган 168 та кластерлари ва Ҳиндистон –


¹ Манба: Муаллиф ишланмаси.

компьютер технологияларга ихтисослашган 106 та кластерлари билан тегишли маҳсулот турлари бўйича дунёда шухрат қозонганлигининг асосий сабаби, ушбу мамлакатларда ихтисослашган инновацион кластерларининг самарали амал қилиб келаётганлиги билан чамбарчас боғлиқлигидадир [4].

Кластерни кооперациядан фарқлаш лозим. “Кооперация – бу ишлаб чиқариш жараёнида узвий боғлиқ бўлган турли хилдаги хўжалик юритувчи субъектларнинг ўзаро ҳамкорликдаги фаолиятидир” [5]. Кластер эса эса “корхоналарни оддий бирлаштиришга нисбатан анчагина мураккаб ҳодиса бўлиб, қийматни жамғариш тизимларида иштирок этиш асосида чуқурроқ технологик кооперацияни назарда тутати” [6]. Улар ўртасидаги тафовутлар 1-жадвалда кўрсатилган.

Кластерни хўжалик юритишнинг самарали шакли сифатидаги мазмун-моҳиятини ёритиш учун унинг ички тузилишини аниқлаш муҳим аҳамият касб этади. Кластер мазмун-моҳиятига кўра “худуд ва тармоқ белгилари бўйича маҳаллилаштирилган ишлаб чиқариш тизимидир” [7]. Бундан келиб чиқиб, кластерларни шакллантирувчи иккита бош мезонни ажратиш мақсадга мувофиқ бўлади. Булар, агар биринчиси кластерларнинг “худудий кўлами” бўлса, иккинчиси – кластердаги хўжалик юритувчи субъектларининг “**қўшилган қиймат занжири**” билан боғланганлиги ҳисобланади (1-расм).

Худудий яқинлик билан корхоналарининг ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш технологияси занжирига қўшилиш аломатлари кластерни шакллантиришга олиб келади. Бундан кластерни шакллантиришнинг иккита кетма-кетлик даври: трансформацион ва интеграцион даврлари вужудга келади.



1-расм. Хўжалик юритиш шакли сифатидаги кластернинг органик тузилиши¹

Агар трансформацион даврида кластер шакллантирувчи хўжалик юритиш субъектларининг кластербоплиги оширилса, интеграцион даврида жозибадор худудлар сифатидаги хўжалик юритувчи субъектларда қўшилган қиймат занжири яратилади. Натижада синергетик самара келтиришга қодир бўлган кластер шаклидаги ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш ташкилоти шаклланади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистоннинг янги сайланган Президенти Шавкат Мирзиёевнинг инаугурация маросимидаги нутқи. <https://president.uz/uz/lists/view/4743>.
2. Кластер — Википедия. www.wikipedia.org [30.11.2019].
3. Майкл Портер. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость. <https://e-libra.ru/read/505455-konkurentnoe-preimuschestvo-kak-dostich-vysokogo-rezul-tata-i-obespechit-ego-ustoychivost.html> [15.01.2020].
4. Кластеры в современном мире: рейтинг самых развитых стран. <https://yandex.uz/turbo?text=https%20%2F%2Fppt.ru%2Fnews%2F134649> [15.02.2020].
5. Жумаев О. Кооперация истикболи. \ Ж. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. Т.: 2006. №11. 11-12 бб.
6. Туристские кластеры. <https://svastour.ru/articles/puteshestviya/vidy-turov/turistskie-klastery.html> 10.01.20 г.
7. Ульяновченко Л.А. Теория и методология реализации кластерного подхода в индустрии туризма (на примере Московской области). Автореферат дисс.. д.э.н. Санкт-Петербург. 2012. С. 50.

¹Манба: 1-расм муаллиф ишланмаси.

ИХТИСОСЛАШГАН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КЛАСТЕРЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Фарманов Тўлқин Хайитмуродович
ҚХООСИТИ лойиҳа раҳбари, и.ф.д., профессор
Абдуллоев Аслидин Жунайдуллоевич
Бух ДУ Иқтисодиёт кафедраси мудири и.ф.д., доцент

Мамлакатимиз иқтисодиётида амалга оширилаётган ислохотлар натижасида реал соҳаларни вертикал ва горизонтал институционал тузилмаларининг фаолияти такомиллаштирилиб, замонавий бозор тамойилларига мос янги маъмурий-бошқарув тузилмаси ва ижро-назорат аппарати шаклланди.

Қишлоқ хўжалиги соҳасида юзага келаётган янги тузилмалар таркибини кластерлар, логистика марказлари, консалтинг хизмати, ахборот-ресурс марказлари ташкил қилиб, уларнинг асосий фаолияти – соҳада бошқарув салоҳиятини мустаҳкамлаш, ишлаб чиқариш ва инфратузилма субъектлари ўртасида мустаҳкам иқтисодий муносабатларни ўрнатиш асосида ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш ҳисобланади.

Европа мамлакатлари, АҚШ, Канада, Жанубий Корея, Хитой каби давлатлар, шунингдек сўнгги йилларда МДХ давлатлари қишлоқ хўжалигида амалга оширилаётган илғор тажрибаларга кўра, алоҳида бир ҳудудда ёки чегарадош ҳудудларда аниқ бир турдаги қишлоқ хўжалиги товар маҳсулотларини етиштиришга ихтисослашган фермер хўжаликларини бозор муносабатларида самарали фаолиятини таъминлаш учун “қишлоқ хўжалиги, хизмат кўрсатиш, таъминот, иш бажариш, қайта ишлаш, тайёрлаш, сақлаш, сотиш ва бошқа йўналишда қатъий масъулият, замонавий бошқариш, ишлаб чиқариш ва истеъмол фаолиятларини мувофиқлаштириш, ўзаро амалий ёрдам, уйғунлашган ҳамкорлик тамойиллари ва демократик ижро тизими асосланган кластер тузилмалари” ташкил қилиниб, улар таркибидаги хўжалик субъектлари ўртасидаги алоқалар кооперация муносабатлари асосида йўлга қўйилмоқда.

Республикаимизда ушбу йирик тадбир бошлангандан сўнг ўтган икки йил ичида Ўзбекистон Республикаси Президенти ва ҳукуматининг махсус қарорларига мувофиқ, Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларда 76 та ихтисослашган пахта-тўқимачилик¹ ва 47 та мева-сабзавотчиликка кластерлари² фаолият кўрсатмоқда ҳамда уларга 60 фоиздан ортиқ қишлоқ хўжалиги майдонлари бириктирилган³.

Мева-сабзавот кластерларига 13,5 минг гектар ер майдони ажратиб берилиб, улар ихтиёрида 15,9 минг тонна сифимидаги музлаткич омборхоналар, 7810 тонна саралаш, 800 тонна калибрлаш, 4 та замонавий лаборатория, 119,8 минг тонна мева-сабзавот маҳсулотларини қайта ишлаш, 23201 тонна мева-сабзавотни саралаб-қадоқлаш цехлари мавжуд бўлиб, 1046 доимий, 1085 та мавсумий иш ўринлари ташкил этилган⁴.

Бундан ташқари бошоқли дон, экинлар уруғчилиги, пиллачилик, чорвачилик (гўшт, сут етиштиришга ихтисослашган) ва бошқа тармоқлар бўйича агрокластерлар ташкил қилинди ва бу жараён изчил давом этмоқда. Кластерлар таркибига қирадиган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришга ихтисослашган хўжалик субъектлари билан қўйидагича муносабат ўрнатилган: биринчи йўналиш бўйича – хусусий тадбиркорларга (хорижий ёки республикаимиз фуқароси) ер бериш, яъни тадбиркорларга йирик микдорда экин майдонлари ажратиб берилди; иккинчи йўналиш бўйича – кластер раҳбари ўз ерига

¹ «Маҳсулотларимиз ташқи бозорда рақобатлаша олмапти» — Қишлоқ хўжалигидаги камчиликлар таҳлил этилди. <http://www.uzfk.uz/news/view/380>

²Жамшид Ходжаев: 9 та устувор йўналишлар бўйича 30 дан ортиқ норматив ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилади. <http://www.agro.uz/uz/news/agro/zhamshid-khodzhaev-9-ta-ustuvor-y-nalishlar-b-yicha-30-dan-orti-normativ-u-u-iy-uzhzhatlar-ishlab-ch/>.

³Ақтам Хайитов кластер тизими ҳақида: «Бизда бу борада аниқ қонуннинг ўзи йўқ». <https://kun.uz/news/2019/09/11/aktam-xayitov-klaster-tizimi-haqida-bizda-bu-borada-aniq-qonunning-oz-i-yoq>

⁴Жамшид Ходжаев: 9 та устувор йўналишлар бўйича 30 дан ортиқ норматив ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилади. <http://www.agro.uz/uz/news/agro/zhamshid-khodzhaev-9-ta-ustuvor-y-nalishlar-b-yicha-30-dan-orti-normativ-u-u-iy-uzhzhatlar-ishlab-ch/>.


хам эга, шунингдек у атрофдаги фермерлар билан ҳамкорликда ишлайди ва учинчи йўналиш бўйича - ҳозирги пайтда энг кўп қўлланилаётган амалиёт – фермерлар билан фючерс шартномасини тузиб фаолият кўрсатаётган кластерлар.¹

Мамлакатимизнинг ҳар бир қишлоқ туманларида ташкил қилинаётган ихтисослашган кластерлар саноат корхоналарини сифатли қишлоқ хўжалиги хом ашё маҳсулотлари билан таъминлашда, мамлакатни экспорт салоҳиятини ошириш ва валюта тушумини кўпайтиришда муҳим ўринни эгаллайди.

Ихтисослашган қишлоқ хўжалиги кластерларни ташкил қилишдан асосий мақсад – кластер аъзолари фаолиятида юзага келаётган муаммоларни ҳамкорликда ва ўзаро келишилган ҳолда бартараф этиш, қишлоқ хўжалиги хом ашё маҳсулотларини ишлаб чиқаришини барқарор ўсишига эришиш, қишлоқ ҳудудларида кичик саноат корхоналарини ташкил қилиш ва қишлоқ хўжалиги хом ашё маҳсулотларини бирламчи қайта ишлаб, юқори қўшилган қийматли рақобатбардош тайёр маҳсулотларни ички ва ташқи бозорга сотиш, демократия тамойилларига асосланган шаффоф, ишончли ва адолатли муҳитни шакллантириш асосида кластерда юқори иш унумдорлигини ва ишчи-ходимлар меҳнатига ҳақ тўлаш даражасини оширишга эришиш ҳисобланади.

Кластер модели қишлоқ хўжалиги тармоқлари бўйича, масалан пахтачиликда тўлиқ ёпик ишлаб чиқаришни ўз ичига олади ва бу модель республикамизда биринчи марта қўлланилмоқда.

Бу борадаги илк йирик тадбирлардан бири Бухоро вилоятида замонавий пахта тўқимачилик кластери "Bukhara cotton textile cluster" МЧЖ қўшма корхонаси ташкил қилиниб,² кластер тасарруфига пахта хом ашёси ва бошқа қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш учун 8.0 минг гектар суғориладиган ер майдони ажратилган (1-расм).



1-расм. “BCT cluster” корхонаси таркибига кирувчи “BCT cluster agrokompleks” корхонасининг ташкилий тузилмаси³

Бухоро вилоятида пахтачилик кластерида замонавий ишлаб чиқариш - ижтимоий

¹Ақтам Хайитов кластер тизими ҳақида: «Бизда бу борада аниқ қонуннинг ўзи йўқ». <https://kun.uz/news/2019/09/11/aktam-xayitov-klaster-tizimi-haqida-bizda-bu-borada-aniq-qonunning-oz-i-yoq>

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 19 майдаги ПҚ-2978-сонли "Бухоро вилоятида замонавий пахта тўқимачилик кластерини тузиш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори. https://nrm.uz/contentf?doc=488639_2017_yil

³“BCT cluster” корхонаси маълумотлари асосида тадқиқотчи томонидан ишлаб чиқилган.

объектларини ишга туширилиши қишлоқ ҳудудларини ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга ва бу янги тузилмада 1000 нафардан кўп янги ишчи ўринлари яратилди.

Республикаимизда ихтисослашган қишлоқ хўжалиги кластерларни ташкил қилиниши:

- қишлоқ хўжалиги тармоқларига бозор иқтисодиёти тамойиллари ва замонавий шартнома муносабатларини жорий этилиши натижасида хом ашё ўрнига сифатли, замонавий ва рақобатбардош тайёр маҳсулотларни ишлаб чиқиб, ички ва ташқи бозорларга сотиш;

- пахтачилик ва бошқа қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришда инновацион ишланмалар ва ресурстежамкор технологияларни жорий қилишни иқтисодий рағбатлантириш ҳамда ҳуқуқий жиҳатдан манфаатларини ҳимоя қилиш;

- хорижий инвесторлар иштирокида замонавий ихтисослашган кластерлар мажмуасини шакллантириш асосида ҳудудий тайёрлов ва қайта ишлаш корхоналарини модернизация қилиш, қишлоқ хўжалигининг тайёр маҳсулотларини экспорт ҳажмини кўпайтириш;

- яқин истиқболда мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш ва уларни тўлиқ қайта ишлашни ривожлантириш натижасида тармоқларнинг самарадорлиги ва салоҳиятини янада ошириш;

- қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспортда замонавий брендни яратишда муҳим ўринларни эгаллайди.

Бухоро вилоятида ташкил қилиган пахтачилик кластери бир нечта туман ҳудудларида пахта хом ашёсини етиштиришга ихтисослашган фермер хўжаликлари, тайёрлов, қайта ишлаш ва сотиш тизимидаги корхоналар, инфратузилма хизмати субъектларини кооперация асосида бирлаштириб, уларни ишлаб чиқариш, тайёрлов, қайта ишлаш ва сотиш жараёнларидаги ўзаро ҳамкорлигини мувофиқлаштиради.

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОРОШАЕМОГО ЗЕМЛЕДЕЛИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ В ОТРАСЛИ

Явмутов Д.Ш.

доцент кафедры Экономика, БухГУ.

Б.М. Юлдошева

докторант кафедры Всемирной истории, БухГУ.

АПК – лидирующий комплекс народного хозяйства Узбекистана. Орошаемое земледелье – одна из важных и специализированных отраслей в составе АПК. Более 80% территории Узбекистана занимают пустыни и полупустыни. Не смотря на это, более 90 % продуктов земледелия и более 60 % продуктов сельскохозяйственного производства изготавливаются за счет орошаемых земель и на этих землях производится около 17 % ВВП страны.

Большинство населения Республики проживает в сельской местности и в основном занимается сельскохозяйственным производством. Поэтому от плодородия земли, от эффективности сельскохозяйственного производства и от уровня развития сельскохозяйственной инфраструктуры зависят условия жизни населения сельской местности. Орошаемое земледелье - основа продовольственной независимости и главный источник экспортной продукции республики.

Общая площадь орошаемых земель составляет 4302,1 тыс. га. Основная часть расположена в Ферганской, Зеравшанской, Кашкадарьинской, Сурхандарьинской долинах и в низовьях Амударьи. Огромными ресурсами орошаемых земель располагают: Кашкадарьинский вилоят – 512,6 тыс.га. и Ташкентский вилоят – 394,0 тыс.га., а также Республика Каракалпакстан – 500,2 тыс.га. Площадь земель в Узбекистане пригодных к орошению, по расчетам составляет приблизительно 12 млн. га.. Из-за ограниченности

лимита оросительной воды в Республике невозможно расширить площадь орошаемых земель от показателя – 4,0 – 4,3 млн.га.

На орошаемых землях Республики в стране за год производится сельскохозяйственной продукции в объеме среднем 3,0 – 3,5 трлн. сумов. По этому показателю лидируют Самаркандский, Ташкентский и Кашкадарьинские вилояты.

Но состояние, качество и уровень развития орошаемого земледелья в сельском хозяйстве страны не удовлетворительны. Развитию отрасли в этом препятствуют социально – экономические и природно – экологические проблемы. Рассмотрим некоторые из них:

- Использование земельных ресурсов научно необоснованно, практически не используется севооборот сельскохозяйственных культур;
- в использовании земельных ресурсов, особенно орошаемых земель, в организации сельскохозяйственных угодий, не учитываются требования ведения кадастровых документов (структура, мелиоративное состояние, степень засоленности, каменистости и эрозийности почвы, наличие водных ресурсов и геоморфология земель);
- не существует долгосрочных плановых мероприятий, предотвращающих последствия негативных сельскохозяйственных процессов, показывающих их время и количество;
- из-за нехватки полагаемой техники иногда межсезонные агротехнические и землеподготовительные мероприятия проводятся не в своё время и не соблюдается порядок проведения;
- не совершенствована организация инфраструктуры отрасли, помогающая сельскохозяйственному производству;
- некоторые «новые хозяева» земли не имеют знаний в земледелье и проводимые ими агрономические, агротехнические и мелиоративные работы неудовлетворительны;
- большое количество экономически ценных орошаемых земель необоснованно отводится под несельскохозяйственные нужды;
- в орошении мало используются современные, экономически эффективные и водосберегающие технологии (дождевания, капелярный и т.д.).

Из – за вышеуказанных проблем состояние орошаемых земель в стране с каждым годом ухудшается. Неправильное обращение приводит к непригодному состоянию земли. За последнее 15 лет в Республике 30 тыс. га. орошаемых земель из – за ухудшения состояния и сверхзасоленности, под воздействием эрозии вышли из сельскохозяйственного оборота и были включены в состав других видов земельного фонда.

Такие процессы в свою очередь негативно влияют на экономическое развитие всего АПК. Чтобы снизить уровень влияния этих проблем на землепользование и повысить эффективность производства всего АПК, рекомендую провести следующие мероприятия:

- для снижения уровня минерализации почв требуется повысить КПД и густоту коллекторов, провести в них своевременные реконструкции и очистительные работы, в основном использовать закрытые дренажи;
- повысить эффективность водопользования, усовершенствовать систему водоподачи;
- усовершенствовать систему штрафов, увеличить контроль над нерациональным использованием земельных и водных ресурсов;
- чтобы снизить ветровую и водную эрозию, научно обоснованно организовать контур посевов (учесть уклон рельефа, оградить поля лесозащитными полосами и т.д.);
- из – за быстрого роста населения и темпов промышленности пропорционально вводить в строй новые земли;
- усовершенствовать систему финансирования и смягчить условия кредитования для фермеров, одобрять инвестиционные проекты сельскохозяйственного назначения;

- организовывать образовательные мероприятия, посвященные повышению экономического, юридического, экологического и профессионального знания дехкан и фермеров на местах.

AGROKLASTERLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

A.J. Abdulloyev

BuxDU, Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.f.d.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, uzoq vaqt mobaynida sifatini buzmagani xolda saqlash va aholini ular bilan bir tekis ta`minlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu masala juda katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga egadir. O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo`njallangan Harakatlar strategiyasida ham bu masalaning dolzarbligi alohida ta`kidlangan.

Mamlakatimizda iqtisodiyot rivojining keyingi yillarida qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtirishni ko`paytirish bilan birgalikda ularni chuqur qayta ishlash va saqlash masalalariga e`tibor qaratilmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 yanvardagi "2017-2018 yillarda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashni yanada chuqurlashtirish va ularni saqlash bo`yicha quvvatlarni barpo etishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi PQ-2716 sonli qarorida mamlakatimizda meva-sabzavotchilik tarmog`ini yanada rivojlantirish yo`nalishidagi masalalar ko`rib chiqilib, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashni yanada chuqurlashtirish va ularni saqlash bo`yicha yangi quvvatlarni barpo etish hamda samaradorligini oshirish bo`yicha chora-tadbirlar belgilandi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 yanvardagi "Meva- sabzavot, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzumni xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi PQ-2717 sonli qarorida mamlakatimizda meva-sabzavot, kartoshka, poliz mahsulotlari va uzumni etishtirish yo`nalishi samaradorligini oshirish va ularni xarid qilish hamda foydalanish tizimini takomillashtirish bo`yicha chora- tadbirlar belgilangan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida"gi Farmonida qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtirish, saqlash va chuqur qayta ishlash masalalariga katta e`tibor qaratiladi. Hozirgi vaqtda yurtimizda 51 foizdan ziyod aholi qishloq joylarda yashaydi. Biroq qishloq xo`jaligi mahsulotlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 17 foizdan ortmasligini Prezidentimiz o`zlarining O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomalarida ta`kidlab o`tdilar. Ushbu murojaatnomada mamlakatimizda agrar soha mahsulotlarini qayta ishlash xajmi 10 foizga ham etmasligi, xolbuki, rivojlangan mamlakatlarda bu ko`rsatkich 50 foizdan ortiqroqni tashkil etishi ko`rsatib o`tildi. Bu borada mamlakatimizda meva-sabzavot etishtirish va ularni saqlashga ahamiyat qaratish zarurligi belgilandi. Tabiat tomonidan berilgan ne`matlarni saqlash muhim ahamiyatga egadir va barcha mutaxassislarning vazifasidir.

Qishloq xo`jaligini rivojlantirishning oldida turgan ushbu dolzarb masalaning echimi qishloq xo`jaligi mahsulotlari etishtirishni ko`paytirish bilan bir qatorda etishtirilgan hosilni saqlash va qayta ishlashni ham samarali tarzda rivojlantirishni talab etadi. Agroklasterlar huddi shu masala bilan shug`ullanadigan infratuzilmadir.

Agroklaster – qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonlarini yagona bir zanjirga birlashtiruvchi, yuqori texnologik innovatsiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, qishloq hududlarida infratuzilma majmuini shakllantirish va rivojlantirish, aholi bandligi darajasi va daromadlarini oshirish hamda kelajakda qishloq xo`jaligi mahsulotlari sifati va ekologik muxitni yaxshilashda faoliyat yuritadigan xo`jalik yuritish sub`ektlaridan tarkib topishi mumkin. Agroklasterlar qishloq xo`jaligida mahsulotlar etishtirish, qayta ishlash va sotishni shunchaki qo`shib olib borishnigina nazarda tutmaydi. Agroklasterlar bu ishlarni amalga oshirishda mutlaqo yangi turdagi tizim bo`lib, ularda yuqori texnologik innovatsiyalardan foydalanish bilan bir qatorda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ichki va tashqi

bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish hamda ushbu mahsulotlar etishtiriladigan va qayta ishlanadigan hududlarda ekologik muxitni yaxshilashga erishiladi. Agroklasterlarni joriy etish orqali qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtirish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarida ularning sifati buzilishining oldini olinadi. Qishloq xo`jaligida agroklasterlarni joriy etish orqali mahsulotlarni tashish va saqlash jarayonlariga xizmat qiladigan infratuzilma tizimi shakllanadi.

O`zbekiston iqtisodiyotining mustahkamligi ko`p jihatdan uning hududlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshlik qobiliyatiga bog`liq, ularni ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga yangicha yondashishiga bog`liqdir. Hududlarning raqobatbardoshligining oshishi ko`pgina davlatlar uchun iqtisodiy ustuvorlik kasb etadi, shu jumladan mamlakatimizda ham hududlarning rivojlanishiga, ularning raqobatbardoshligini orttirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Vaholanki, O`zbekistonda qishloq xo`jaligi mahsulotlari etishtirishda milliy an`analarni zamonaviylashtirgan holda davom ettirish, hududlarning tabiiy-joylashuvi bo`yicha o`ziga xos raqobatbardosh va ichki hamda tashqi bozorda yuqori talabga ega bo`lgan mahsulotlar etishtirishga ixtisoslashuvi(paxta xomashyosi, Quva anori, Oltiariq trufi, Baxmal va Jomboy olmasi, Farg`ona vodiysidagi etishtiriladigan meva-sabzavotlarva h.), qishloq xo`jaligining turli mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi mulkdorlarning mavjudligi (fermer va dehqon xo`jaliklari), qishloq xo`jaligiga ishlab chiqarish vositalari etkazib beruvchi, mahsulotlar ishlab chiqaruvchilari va ularning mahsulotlarini qayta ishlovchi, sotuvchi va turli yo`nalishda xizmat ko`rsatuvchi korxonalar o`rtasidagi o`zaro integratsion jarayonlar, qishloq xo`jaligiga xizmat ko`rsatuvchi yuqori innovatsion darajaga ega bo`lgan korxonalar, tarmoq bilan bog`liq bo`lgan korxonalarning o`zaro hamkorlik va raqobatga tayyorligi, qishloq xo`jaligini tartibga solishning bozor tamoyillariga mos huquqiy-me`yoriy asoslarining shakllanganligi,xizmat ko`rsatuvchi keng qamrovli infratuzilma va yuqori malakali mutaxassislarning mavjudligi ushbu nomutanosibliklarni hal qilishda muhim omil hisoblanadi.

O`zbekistonda agroklasterlarni barpo etish, avvalambor, huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslarining davlat tomonidan shakllantirilishi darkor. Ushbu yo`nalishda birinchidan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Agroklasterlarni tashkil etish to`g`risida”gi Qarori qabul qilinishi.

Ikkinchidan, agroklasterlar uchun qo`shimcha infratuzilma ob`ektlari ya`ni agroturizm, mehmonxona tashkil etish,

Uchinchidan, agroklasterlar faoliyatini o`rganish bo`yicha monitoring olib borish,

To`rtinchidan, respublikada agroklasterlar tashkil etish bo`yicha ishchi guruhini tuzish va ularning vazifalari belgilab olish lozim.

Hududlarning raqobatbardoshligini oshirishning muhim hamda zamonaviy yo`nalishlari ichida qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtirish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarini qamrab oluvchi agroklasterni tashkil etish va ularning samarali faoliyatini yo`lga qo`yish ham mavjud bo`lib, bu yo`nalish aholini qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan ta`minlashda hamda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini eksport qilishda yuqori samarali hisoblanadi.

ЎЗБЕКИСТОНДА БИОИҚТИСОДИЁТ СОҲАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЗАРУРАТ ВА ИМКОНИЯТЛАРИ

М.А.Орипов

БухДУ Иқтисодиёт ва туризм факультети
“Иқтисодиёт” кафедраси доценти, и.ф.н.

Дунё аҳолисининг ўсиши ва айрим мамалакатлар аҳолисининг ўртача даромадлари юқори ёки аҳолисининг алоҳида қатламларининг ўта катта даромадга эга бўлганлиги оқибатида истеъмолчиларнинг табақалашувининг кескинлашуви глобал товар ва хизмат бозорида талабнинг ҳам миқдор ва ҳам сифат жиҳатдан жуда юқори суръатлар билан ўсиши ва ўзгариш тенденциясига асос солди.Товар ва хизмат бозорида шаклланган

миқдоран катта талаб ўз навбатида товар таклифини ўсишига олиб келди. Пировардида хом-ашё ва материаллар ва ишлаб чиқаришнинг бошқа омилларига бўлган талаб ва таклиф ҳам ўсиш тенденциясига эга бўлди. Бозордаги таклифни ўсиш суръатларини юксалтиришда ишлаб чиқаришда янада кўпроқ ишлаб чиқариш омилларини жалб этиш билан бирга интенсив-инновацион- унумдорлиги юқорироқ технологияларини, ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва бошқарувини самарали усулларини қўллаш ҳам авж олди. Натижада инсоннинг табиатга таъсири янада ортиб, атроф муҳитга салбий таъсири янада кучайди. Гарчи, бозор иқтисодиёти дунёда етакчи хўжалик юритиш шаклига айланган бўлсада унинг очизликларидан бири-деб топилган атроф муҳитни асраш муаммоси (иқлим ўзгариши, чўллашиш, тупроқ деградацияси, сув танқислиги, зарарли газ ва моддаларни атроф муҳитга ташлаш, корхоналар ва ўй хўжалиги чиқиндиларини йўқ қилиш ҳамда камайтириш ...) кескинлашиб, инсониятга таҳдид солмоқда. Масалан, 2020 йилда Жаҳон банки маълумотларига кўра фақатгина бир- CO_2 атроф муҳитга ташлашни ўзи дунё бўйича 32284,1 млн.т ташкил этган. Мазкур кўрсаткич бўйича Хитой Халқ Республикаси дунё бўйича етакчи уринни эгаллаган (1-жадвал).

1-жадвал маълумотларидан кўришиб турибдики, дунёдаги CO_2 атроф муҳитга 2020 йилда ташланган умумий ҳажмининг 44,5 % Хитой ва АҚШ биргаликдаги улушига мос келмоқда. Албатта, бизнинг мамлакатимизнинг мазкур кўрсаткич бўйича 37 ўринда эканлиги ҳам яхши натижа эмас.

1-жадвал

Дунёнинг айрим мамлакатларида 2020 йилда CO_2 атроф муҳитга ташланишининг ҳажми ва шу кўрсаткич бўйича мамлактларнинг дунё миқёсидаги улуши ва эгаллаган ўрни¹

Мамлактнинг дунё миқёсидаги эгаллаган ўрни	Мамлакат номи	2020 йил млн.т	Мамлактнинг дунё миқёсидаги улуши, %
1	Хитой	9899,3	30,7
2	АҚШ	4457,2	13,8
3	Ҳиндистон	2302,3	7,1
4	Россия	1482,2	4,6
5	Япония	1027,0	3,2
6	Эрон	678,2	2,1
7	Германия	604,9	1,9
37	Ўзбекистон Республикаси	108,2	0,3

Таъкидлаш жоизки, корхона ва ўй хўжаликларининг фаолияти натижасида CO_2 билан бир қаторда турли чиқинди ва ахлатлар ҳам атроф муҳитга ташланадики, уларни утилизацияси ва қайта ишлаши катта харажатларга олиб келмоқда. Бундан ташқари чиқинди ва ахлатларни йўқ қилиш мақсадида кўмилиши оқибатида планетамизда минглаб гектар ер майдони улар остида қолиб кетиши давом этмоқда ва бундай мақсадда фойдаланилаётган ер майдони ҳали-ҳамон кенгайиб бормоқда.

Айрим ҳолларда эса, чиқинди ва ахлатларнинг сув ҳавзаларига оқизиши натижасида сув манбаларини ифлосланишига асос бўлиб, шусиз ҳам юзага келган сув танқислиги муаммосини янада кескинлашуви ва жамиятнинг атроф муҳитни асраш билан боғлиқ юқини янада ортишига сабаб бўлмоқда.

Хулоса сифатида айтиш лозимки, бугун жаҳон хўжалигида атроф муҳитни тозаллиги ва аҳоли учун хавфсизлигини таъминлаш жуда жиддий муаммога айланиб бормоқда.

¹ <https://www.bp.com/content/dam/bp/business-sites/en/global/corporate/pdfs/energy-economics/statistical-review/bp-stats-review-2021-full-report.pdf>

Мазкур муаммони юмшатишга қаратилган дунё миқёсида ҳам ва алоҳида минтақа ҳамда давлатларда ҳам турли даражадаги чора-тадбир, меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилиб, амалга тадбиқ этилмоқда.

Шуни ҳам алоҳида таъкидлаш жоизки, бугун жаҳон иқтисодиёти ва дунё ҳамжамиятининг олдида атроф муҳитни асраш, аҳолини соғлиги ва хавфсизлигини асраш билан бирга ўсиб бораётган аҳолини озик-овқат ва ичимлик суви билан таъминлаш орқали очлик ва тўйиб овқатланмаслик муаммосини бартараф этиш, ҳамда камбағалликни ва гендер тенгсизликни тугатиш каби муҳим вазифа турибди.

Шулардан келиб чиқиб, 2015 йил сентябрида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси Барқарор ривожланиш бўйича ўтказилган саммитида қабул қилинган 70-сон резолюциясида 2030 йилгача бўлган даврда БМТ Барқарор ривожланиш мақсадларини (БРМ) тасдиқлади ва уни изчил амалга ошириш бўйича қарор қилган эди. Мазкур ҳужжат БМТ барча аъзо мамлакатлар маъқуллаган, 17 ўзаро уйғун комплекс мақсадларни қамраб олган бўлиб, ҳозирги кундаги глобал муаммоларни 2030 йилгача бартараф этиш режасидир. БРМ доирасидаги чора тадбирлар доирасида “яшил энергетика” ва биоиқтисодиёт соҳаларини ривожлантиришга оид чора-тадбирларига алоҳида урғу берилган.

Бизнинг мамлакатимизда ҳам Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси Барқарор ривожланишга оид 70-сон резолюциясидаги БРМ амалга тадбиқ этиш бўйича кўплаб амалий ишлар амалга оширилмоқда. Масалан, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги Миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги (2018 йил 20 октябрь, 841-сон) Қарори доирасида ишлаб чиқилган чора-тадбирларни амалга оширилиши юртимизнинг янада ривожланиши учун алоҳида аҳамият касб этади. Мазкур дастурий ҳужжатларда кўзда тутилган чора-тадбирлар таркибида Ўзбекистон учун ноанъанавий бўлган, биоиқтисодиёт соҳалари ва “яшил” технологияларни кенг жорий қилиш ва “яшил” энергетика соҳасидаги лойиҳаларни амалга ошириш Ўзбекистонда яқин ўн йилда қайта тикланадиган энергия манбалари улушини 3 баробардан зиёдга кўпайтириш имконини бериши билан аҳамиятлидир¹.

Шу ўринда қайд этиш жоизки, юртимизда шамол ва қуёш энергиясидан фойданишнинг катта имкониятлари мавжуд. Шу асосда Республикаимизда 2022 йилда 5 та умумий қуввати 900 мегаватт бўлган қуёш электр станциялари Хоразм, Бухоро, Қашқадарё, Наманган ва Фарғона вилоятларида ишга туширилишини Президент Ш.М. Мирзиёев 2021 йил 22 ноябрда Янгиланадиган энергия манбаларидан фойдаланишни кенгайтириш ва ривожлантиришга оид ўтказилган мажлисида таъкидлаган.²

Қайд этиш жоизки, шамол ва қуёш энергиясини фойдаланишига асосланган станциялар ўз экологик тозалиги, бепул энергия манбаси эканлиги билан бирга улар табиий газ ва бошқа ресурсларни тежаш имконини ҳам беради. Масалан, “2021 йил Кармана туманида ишга туширилган қуёш электр станцияси 100 мегаватт бўлиб, у 80 млн. метр куб табиий газни тежайди”³. Яъни, газ билан ишлайдиган иссиқлик электр станцияси 100 мегаватт электр энергиясини шлаб чиқариши учун 80 млн. метр куб газ ёқиши мумкин. Бу ҳозирги жаҳон бозоридаги табиий газ нархларда (80млн. м³×0,179\$/ м³⁴) =14,35млн.АҚШ \$ ташкил этади. Лойиҳа қиймати 110млн.АҚШ \$ бўлганлигини инобатга олсак, у фақатгина тежаб қолинган ёқилғи ҳисобидан(110 млн.АҚШ \$:14,35млн.АҚШ \$)=7,67 йилда ўзини қоплайди.

¹ - <https://president.uz/uz/lists/view/4385>

² <https://uznews.uz/ru/article/>

³ <https://asiaplustj.info/ru/news/centralasia/20210827/v-uzbekistane-zapustili-pervuyu-solnechnuyu-elektrostantsiyu>

⁴ <https://markets.businessinsider.com/commodities/natural-gas-price>

Бизнингча, энергетиканинг бу тармоғини кенг ривожлантириш учун барча имконият ва қулай шароит яратиш мақсадга мувофиқдир. Масалан, тадбиркорларга шамол ва қуёш энергияси электр станцияларини куриш учуш ерни кўп йиллик бепул фойдаланишга бериш ҳамда ер солиғидан озод этиш, ишлаб чиқариладиган электр энергиясини истеъмолчиларга етказиб бериш тармоғини давлат томонидан шакллантириб бериш каби имтиёзларни берилиши мазкур тармоқни юқори суръатлар билан ривожини таъминлайди.

Шунингдек, мамлакатимизда яна бир янгиладиган ресурс -биомассадан самарали фойдаланишнинг бошқача айтганда биоиктисодиётни ривожлантиришнинг катта имкониятлари мавжуд. Чунки, биоиктисодиёт, қайта тикланадиган биологик ресурслардан маҳсулот ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишда биологик инновацион ва технологик билим ва жараёнларни тадбиқ этувчи барча саноат ва иқтисодий соҳаларни қамраб олганлиги¹, боис жуда истиқболли соҳадир. Мазкур соҳа глобал ривожланиш ва юзага келган муаммоларнинг юмшатиш ҳамда ечишда жуда муҳим аҳамият касб этади. Биоиктисодиёт тармоқларининг кенг ривожини:

- экологик тоза маҳсулот ишлаб чиқаришни;
- чиқиндиларни хавфсиз қайта ишлаш ва йўқ қилишни;
- аҳолини озиқ-овқат таъминоти ва хавфсизлигини яхшилашни;
- биохилма-хилликни яхшилаш ва асрашни;
- янги иш жойлари яратиш орқали ишсизликни камайтириш ва қабағалликни юмшатишни таъминлайди.

Шунинг учун ривожланган мамлакатлар биоиктисодиётни ривожлантиришга катта эътибор бермоқдалар. Масалан, Европа Иттифоқида(ЕИ) биоиктисодиёт соҳасида 2017 йилда 17,5 млн.нафар киши банд бўлган бўлиб, бу минтақа иқтисодиётида умумий бандларнинг 8,9 % ташкил этган. Шу йили соҳада 614 млрд.евролик қўшимча қиймат яратилган бўлиб, ЕИ ялпи ички маҳсулотининг 4,7 % ташкил қилган².

Ўзбекистонда ҳам биоиктисодиёт тармоқларини юқори суръатлар билан ривожлантирилиши аҳоли бандлигини ошириш ва даромадларини оширишига ижобий таъсир кўрсатиши мумкин. Бироқ, бунинг учун биоиктисодиётнинг таркибий тузилмасини аниқлаб, кадр билан таъминотини янада яхшилаб, уни ривожланишининг асосий йўналишларини белгилаш мақсадга мувофиқдир.

Бизнингча, мамлакатимизда биоиктисодиётни қуйидаги йўналишларини ривожлантириш истиқболлидир:

- ўсимликчилик, чорвачилик, балиқчилик ва сув ўтлари ишлаб чиқаришни самарали ташкил этиш ва бошқариш;
- соҳада янги технологиялар ва техник ечимларни жорий этиш, селекция ва уруғчиликни ривожлантириш, тупроқ унумдорлиги ва чорвачилик маҳсулдорлигини ошириш;
- қишлоқ хўжалигида биомасса ишлаб чиқариш ва биомасса ишлаб чиқаришда микроблардан кенг фойдаланиш ва биомассани қайта ишлашнинг ўсишини таъминлаш, шунингдек, маиший ва бошқа чиқиндиларни қайта ишлашни янада ривожлантириш;
- мамлакат аҳолисининг озиқ-овқат таъминоти ва хавфсизлигига эришиш мақсадида биоиктисодиётни жадал ўсишини таъминлаш учун циркуляр ишлаб чиқаришни кенг жорий этиш ва соҳада кластерларни ташкил этишни янада жонлантириш ва юқори қўшимча қийматга эга биомаҳсулотларни яратиш ва уларни экспортини кўпайтириш ва бошқалар.
- хорижий олий ўқув юртлари ва илмий тадқиқот ташкилотлари билан ҳамкорликда илмий тадқиқот ва кадр тайёрлаш ва қайта тайёрлашни кенг йўлга қўйиш кабилар.

Хулоса сифатида айтиш жоизки, мамлакатимизда биоиктисодиётни ривожлантириш учун етарлича имкониятлар яратиш ва соҳада мавжуд салоҳиятдан амалда кенгроқ фойдаланиш атроф муҳитни яхшиланиши, аҳолини озиқ-овқат таъминотини ва

¹ Bioeconomie.de/en/article/

² https://ec.europa.eu/info/index_en

хафвсизлиги даражасини юксалиши, ишсизликни юмшатиш, жамиятда кўшилган қиймат яратиш ҳамда товар сотуви ва экспортини кўпайтириш имконини беради.

BUXORO VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGIDA KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING IQTISODIY TAHLILI

Qayimova Z.A

«Iqtisodiyot» kafedrasida katta o'qituvchisi

Qosimova X. J.

BuxDU 2- kurs magistri

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, har bir sohani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa ko'p millionlik o'zbek halqini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun qishloq xo'jaligidagi kooperatsion munosabatlarni iqtisodiy jihatdan tadqiq etish hozirgi kunning muhim talabidir. Iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj faqat turdagina namoyon bo'lmay, balki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifat darajasi, iste'molchilarga yaqinligi narx ko'rsatkichlariga hududning ta'siri va eng muhimi bozor talabiga mosligi bilan tavsiflanadi.

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida qishloq xo'jaligida turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yuzaga kelib rivojlanmoqda. Agrar sektorda fermer va dehqon xo'jaliklarining miqdori va ishlab chiqarishdagi ulushlari ortib bormoqda. Ayniqsa, iste'mol bozorini kartoshka, sabzavot va turli xil mevalar bilan ta'minlashda ularning hissasi juda kattadir. Viloyatda tashkil etilgan 29 ta agrofimlar bilan fermer xo'jaliklari o'rtasida tuzilgan shartnomalarga asosan 12,3 mlrd.so'mlik 163,7 ming tonna maxsulot yetkazib berilib, shartnoma 100,2 foizga bajarildi. Fermerlarga oldindan 1115,4 mln. so'm (rejaga nisbatan 110,9 %) avans berildi. Agrofimlar faoliyatini yuritish, ularni aylanma mablag' bilan ta'minlash maqsadida 865,9 mln.so'm (100,9%) kredit mablag'lari ajratib berildi. Agrofimlar tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlari eksporti uchun 22,7 ming tonna, 3495,4 mln so'mlik shartnomalar tuzilgan bo'lib, Vazirlar Mahkamasining №145 sonli, Viloyat hokimining №140 sonli qaroriga asosan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish vazifasi «Buxoroulgurji-savdoinvest» MCHJ, «Buxorosavdo ulgurji baza» MCHJ hamda Matlubotsavdo tizimidagi «Matlubotsanoat» sho'ba korxonasi va «Agrolayfmatlubotsavdo» korxonalari zimmasiga yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo'yicha mas'uliyatini yanada oshirish to'g'risida» 2019 yil 24 avgustdagi PQ-4426-son qaroriga muvofiq hamda Vazirlar Mahkamasi qarorga asosan 2019 yilda ular tomonidan 15,0 ming tonnadan ziyod mevasabzavot, poliz va uzum mahsulotlari eksport qilindi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida nodavlat sektorining kuchayishi hamda rivojlanishiga chorvachilik va mevasabzavot mahsulotlarining ishlab chiqarishini mazkur sektorga ko'chganligi hamda bunday mahsulotlarga davlat buyurtmalarini bekor qilinishiga asos soldi.¹

Qishloq xo'jaligining ishlab chiqarishida yirik tovar xo'jaliklari qatorida ko'p miqdorli aholi, dehqon va fermer xo'jaliklarining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi sohada mahsulot tayyorlash tizimini ham tubdan yangilanishiga undamoqda. Chunki qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish bilan bir qatorda uni tayyorlash, saqlash, qadoqlash va iste'molchilarga talofatsiz yetkazib berish muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, tez buziladigan va transportda tashishi noqulay bo'lgan mahsulotlarning qishloq xo'jaligida yetishtirilishi mahsulot bozoriga xizmat ko'rsatish tizimida raqobat muhitini kuchayishini taqozo etadi. Chunki, hozirgi vaqtda respublikamizda yetishtirilayotgan meva sabzavotlarning bir qismi iste'molchilarga yetib bormayapti.

¹Узбекистан: десять лет по пути формирования рыночной экономики./колл.авт.:Р.А.Алимов, А.К.Бедринтсов, А.Ф.Расулов и др. Т.:Узбекистон, 2021.-(352с), 98-99 б.

Masalan, A.Ayupovning ma'lumotlariga qaraganda meva-sabzavotlarning 30 foiz iste'molchilarga yetib bormasdan nobud bo'larkan.⁴ Respublika meva-sabzavotchiligida yuzaga kelgan bunday noqulay sharoitni bartaraf etish, sohaning barcha infratuzilma tarmoqlari va mahsulot bozorini takomillashtirishni talab qiladi.¹

Ayni paytda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tayyorlov va sotuv kanallari quyidagilardir:

1. Ishlab chiqaruvchilar – Davlat – Iste'molchilar;
2. Ishlab chiqaruvchilar – Dehqon bozori – Iste'molchilar;
3. Ishlab chiqaruvchilar – Xususiy (kichik) olib sotarlar – Dehqon bozori Iste'molchilar;
4. Ishlab chiqaruvchilar – «O'zbekbirlashuv», «O'zbeksavdo» tashkilotlari
Chakana savdo – Iste'molchilar;
5. Ishlab chiqaruvchilar – Vositachilar – Tovar xom ashyo birjalari – Ulgurji (xususiy) tayyorlov tashkilotlari – CHakana savdo – Iste'molchilar;
6. Ishlab chiqaruvchilar – Qayta ishlash korxonalarini – Ulgurji savdo korxonalarini -
Chakana savdo – Iste'molchilar;
7. Ishlab chiqaruvchilar – Qayta ishlash korxonalarini – CHakana savdo –
Iste'molchilar;

Paxta xom ashyosi, don, tamaki asosan birinchi kanal orqali tayyorlanadi. Ikkinchi kanal an'anaviy bo'lib, istiqbollidir. Mazkur kanal orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sotuv hajmi 56 foiz va undan ortiqni oxirgi yillarda tashkil etmoqda. Dehqon bozorlarida xaridor va sotuvchilarning erkinliklarini ta'minlagan holda, o'z moddiy-texnika bazasi (shu jumladan o'z transporti saqlash omborxonalarini, muzlatgichlari, yopiq vitrinalari...)ga ega bo'lgan tayyorlov guruhlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Bu qilinadigan xarajatlar tez orada o'zini qoplaydi. Chunki ayni paytda ko'pchilik savdogarlar mahsulot qoldiqlarini kun yakunida uylariga olib borib, ertangi kunda qaytib bozorga olib keladilar. Yirik shaharlarda to'la infratuzilma xizmatlari majmuiga ega bo'lgan ulgurji qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bozorini tashkil etilishi va ularning o'zlari mahsulot tayyorlash, saqlash hamda ulgurji (yoki chakana) savdo bilash shug'ullanishlari yuqori samara berishi mumkin. Bunday bozorlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qadoqlash, navlarga ajratish va nostandart tovarlarni qayta ishlashini yo'lga qo'yishi ularning samaradorligini yanada oshiradi.

Bu bilan birga yangi ish joylari yaratilishi mumkin. Eng muhim qadoqlash natijasida mahsulotning qayta ishlash va saqlanishi qulaylashadi. Mazkur bozordagi mahsulotni qayta ishlash va boshqa chiqindilarni chorvachilik fermerlariga sotish yoki bozorning yonida o'z chorvachilik yordamchi xo'jaliklarini tashkil qilish ham ijobiy samara berishi muqarrardir. Dehqon bozorlarini o'zaro kooperatsiyalashuvlari asosida tez buziladigan mahsulotlarning qayta ishlash tseklarini va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining saqlash omborlarini qurish yoki ijaraga olishni yo'lga qo'yish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Chunki ayni paytda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash omborlaridan foydalanish darajasi juda pastdir. Viloyatda meva – sabzavot va kartoshka saqlash omborlarida sig'irish darajasida mahsulot zahira qilish katta ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Omborlarni meva – sabzavot, kartoshka saqlash uchun yaroqli holga keltirish;
2. Kartoshka, meva va sabzavotni yetishtiruvchilardan sotib olish uchun tayyorlov korxonalariga yetarli mablag'larni ega bo'lish uchun sharoit yaratish;
3. Mahsulotlarni saqlash uchun yetarli energiya manbai bilan ta'minlash;
4. Omborlarni xususiylashtirish va ishbilarmon va tadbirkorlarga berish;
5. Omborlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash uchun tara va konteynerlarning yetarli bo'lishini ta'minlash.

¹ Единая Холодильная Сеть Республика Узбекистан //Экспорт плодовоощной продукции дехканских и фермерских хозяйств в Узбекистане: достигнутые результаты и перспективы развития. Сб.науч.стат.Ташкент, 2019, с.128

Dunyo mamlakatlarining ilg'or tajribasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining realizatsiyasini ulgurji savdo birlarida tuziladigan fyuchers va boshqa shartnomalar orqali amalga oshirilishi samaraliroqligini ko'rsatmoqda. Bizning mamlakatimizda tovar xom ashyo birjalarida tuzilgan shartnomalar asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sotuv hajmlari yil sayin o'sib bormoqda. Umuman, respublikamizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash va sotish tizimida bozor unsurlari asta sekinlik bilan shakllanib rivoj topmoqda. Agrosanoat korxonalarining shakllanishi va rivojlanishi viloyatning ixtisoslashuvi, shuningdek, respublika mehnat taqsimotida tutgan o'rni bilan belgilanadi. Buxoro viloyati agrosanoat korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga viloyatda qishloq xo'jaligining mamlakatdagi an'anaviy tarmoqlaridan chorvachilik, mevachilik, sut-go'sht, donchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilik keng rivojlangan.

Viloyatda agrosanoat integratsiyasini samaradorligini quyidagilarda tumanlar kesimida bo'lib ajratish mumkin:

1. G'ijduvon, Qorovulbozor, Kogon, Vobkent tumanlarida bog'dorchilik, uzumchilik miqyosda rivojlangan, aholini asosiy qismi mazkur tarmoqlarda band;

2. Qorako'l, Olot, Buxoro tumanlarida don, dukkakli o'simliklar ko'p yetishtiriladi, ammo xom ashyo ko'rinishida bozorlarni to'ldiradi;

3. Peshku, Buxoro tumanlarining mahalliy xo'jaliklariga tayangan holda rivojlanadi. Buxoro shahar oziq-ovqat bozorini yangi turdagi mahsulotlar bilan to'ldiradi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda aholining hissasi ortib bormoqda.

Kartoshka va sabzavotlarning 81,5 go'shtning 97.0 foizdan ortiqrog'i, sutning deyarli 98 foizi dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarilmoqda. Buxoro viloyatining oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda muhim o'rinni eg'allaydigan go'sht va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibiga nazar tashlasak, dehqon xo'jaliklarining hissasi kattaroq ekanligini ko'ramiz.

Buxoro viloyatining sut mahsulotlarini hozirgi kunda sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va savdo strukturalari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar yoki vositalar orqali realizatsiya qilinmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida o'zaro aloqalarning bunday turining vujudga kelishi iqtisodiy jihatdan to'la o'zini oqlagan. Ammo ular faoliyatining harakat mexanizmi ishlab chiqilmagan hamda boshqarib bo'lmaydigan tovar oqimlari va oziq-ovqat bozorining yetishmasligi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlangan va imte'mol qilishda ma'lum nomutanosibliklarga olib keladi. Aynan shunday holat umuman oziq-ovqat mahsulotlari bilan hamda xususan sut mahsulotlari bilan sodir bo'ldi.

БОШҚАРУВ МЕХАНИЗМЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ – ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ

Д.Ш.Явмутов

БухДУ, Иқтисодиёт кафедраси доценти, и.ф.н.,

М.Д.Шоймардонкулов

ТДЮУ талабаси.

Қишлоқ хўжалигида ишлаб чиқариш ва ресурслардан оқилона ва самарали фойдаланишни ташкил этиш учун минтақаларда иқтисодий механизмларнинг қай даражада жорий этилганлиги муҳим аҳамиятга эга. Иқтисодий механизмлар орасида хўжаликнинг иқтисодий эркинлиги асосий элементлардандир. Чунки, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчилари мустақил қарор қабул қилиш, тадбиркорлик маҳоратларини эркин ишга солиш, хўжалигининг ички имкониятлари доирасида фаолият юритиш, молиявий – иқтисодий механизмлардан тўла ва самарали фойдаланиш имкониятига эга бўлмас экан қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши ҳам, хўжаликларнинг рентабеллиги ҳам оширилиши мумкин эмас. Шу сабаб, республикада қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг асосий субъекти бўлган фермер хўжаликлари ва қишлоқ хўжалик кластерларининг фаолияти доирасида барча молиявий – иқтисодий механизмлардан тўла фойдаланишлари учун давлат томонидан шарт – шароитларнинг яратилиши қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариш

самарадорлигининг ортишида, ресурслардан фойдаланишни яхшилашда муҳим аҳамиятли омиллардан деб ҳисоблаймиз.

Мамлакатда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг бош омили хўжаликлар фаолиятини эркинлаштиришдан иборат. Шу нуқтаи назардан ҳам ер ресурсларининг республика қишлоқ хўжалигида тутган ўрнидан келиб чиққан ҳолда эркинлаштириш жараёнининг ушбу соҳада амалга оширилишига кўп нарса боғлиқдир. Бугунги кунда қишлоқ хўжалиги иқтисодиётини эркинлаштириш борасида тажриба ва билимларнинг етарли эмаслиги, бу борада жаҳон тажрибасини чуқур ва ҳар тарафлама ўрганишни ҳамда, уларни ҳар бир минтақада тармоқнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда татбиқ этишини тақозо этади.

Албатта, эркинлаштириш жараёнини амалга оширишда Ўзбекистон иқтисодиёти ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари ҳисобга олинishi керак. Жумладан, ер ислоҳоти ва хўжаликларнинг шаклини ўзгартириш, давлат буюртмаси ва сотиб олиши, баҳо орқали тартибга солиш, моддий-техника ресурслари билан таъминланганлиги, қишлоқ хўжалигида молиялаштириш тизими, ирригация ҳамда мелиорация тизими, институционал ўзгаришларни айтишимиз мумкин.

Қишлоқ хўжалиги иқтисодиётини эркинлаштириш энг аввало ердан фойдаланишда соғлом муҳитнинг ривожланиши, иқтисодий самарадорликнинг ортиши, қишлоқда бандлик жараёнлари ва бошқа кўплаб муаммоларнинг ўз ечимини топиб боришида катта рол ўйнайди. Шуни ҳисобга олиб тармоқда эркинлаштириш жараёнларини қуйидаги йўналишларда тизимли равишда татбиқ қилиш лозим:

- бошқарув тизимини эркинлаштириш;
- ресурслар таъминоти ва сервис хизматларини эркинлаштириш;
- нарх-наво тизимини эркинлаштириш;
- ташкилий – агротехник жараёнларни эркинлаштириш.

Қишлоқ хўжалигида бошқарув тизимини эркинлаштириш борасида республика Президенти ва Ҳукумати томонидан бир қатор муҳим қарорлар қабул қилинган. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасининг 21 та қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29 та фармони ва 149 та қарори, Ҳукуматнинг 185 та қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва саноатдаги ислоҳотлар тўғрисидаги қарори қабул қилинди. 2019 йилда "Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалиги соҳасини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегияси" қабул қилинди.

Ўзбекистон Республикасининг "Уруғчилик тўғрисида", "Қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланган ерлардан ва ўрмон фонди ерларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида", "Дехқон хўжалиги тўғрисида", "Томорқа хўжалиги тўғрисида"ги Қонунлари қабул қилинди.

Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерларни юридик ва жисмоний шахсларга иккиламчи ижарага беришга рухсат берилди, шунингдек, томорқа хўжалигида ишлаб чиқарилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини эркин реализация қилиш ҳукуқи кафолатланди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг махсус қарорлари билан (2020 йил 6 мартдаги ПҚ-4633-сон ва ПҚ-4634-сон) давлат буюртмаси асосида пахта хом ашёси, ғалла ишлаб чиқариш амалиёти ва улар учун давлат томонидан харид нархларини белгилаш бекор қилинди.

Қишлоқ хўжалиги соҳасида давлат бошқарувини такомиллаштириш бўйича ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалиги вазирлигига қишлоқ хўжалиги ерлари ва экинлари мониторингини олиб бориш, қишлоқ хўжалиги экинларини жойлаштириш, қишлоқ хўжалиги ерларини муҳофаза қилиш устидан давлат назоратини амалга ошириш, республика озиқ-овқат саноатини жадал ривожлантириш ва аҳолини сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан тўлиқ таъминлаш вазифалари юклатилди.

Фармон ва қарорларга асосан бошқариш тизимидаги кўплаб вазифалар қуйи

бўғинларга, маҳаллий ҳокимиятларга берилиши, бошқаришдаги маъмурий-буйруқбозлик тизимидан аста-секин, босқичма-босқич иқтисодий механизмга ўтиб борилиши амалга ошмоқда. Аммо шуни таъкидлаш лозимки, бозор иқтисодиёти шароитида одамларни бошқаришдан иқтисодий жараёни бошқаришга ўтиш лозим. Бу бошқарув тизимини икки йўналишда давлат даражасида ва ердан фойдаланувчи(фермер)лар даражасида олиб бориш юқори натижаларни беради.

Давлатнинг бошқариш тизими кўпроқ макроиқтисодий ва истиқбол масалаларини ўзида мужассамлаштирадиган самарали аграр сиёсатни олиб боришдан иборат бўлиши лозим. Ердан фойдаланиш тадбирлари йўналишида бу қуйидагиларда намоён бўлади:

- мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш;

- кишлок хўжалиги экинлари таркибини деҳқончилик ва чорвачилик тармоқлари манфаатларига, ҳамда минтақа ерларининг ҳудудий хусусиятларига мос равишда ташкил этиш;

- ердан фойдаланишнинг кишлок ва бозор инфратузилмаларини ривожлантириш;

- ер муносабатлари доирасида инновацион лойиҳаларни жорий қилиш ва инвестициялар жалб қилинишига шароитлар яратиш бериш;

- нарх – наво динамикасини назоратга олиш;

- солиқ, суғурта ва молия-кредит тизимини такомиллаштириш;

- аграр фанини ривожлантиришни бошқариш ва фан-техника ютуқларини амалиётга жорий қилишни ташкил қилиш;

- кишлокда янги иш ўринлари яратиш, кадрлар малакасини ошириш;

Ердан фойдаланувчи хўжаликлар – фермерлар даражасида бошқариш қуйидагиларда намоён бўлади:

- ер, сув ва бошқа ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш;

- етиштирилган маҳсулотни эркин сотиш ва мустақил нарх белгилаш;

- ер муносабатларида технологик жараёнларни мустақил белгилаш ва амалга ошириш;

- ер ресурсларини муҳофазалаш ва бошқалар.

Жаҳон молиявий – иқтисодий инқирози даврида, ер ва сув ресурслари чекланган шароитда кишлок хўжалигини интенсиф ривожлантиришда фермер хўжаликларининг ички имкониятларидан тўла ва унумли фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади ва бунда уларнинг иқтисодий эркинлиги асосий омил бўлиб хизмат қилади. Шу сабабдан Ҳукуматимиз томонидан фермер хўжаликлари фаолиятини эркинлаштириш борасида қатор тадбирлар белгиланган ва улар босқичма – босқич жорий қилиб борилмоқда. Бу орқали хўжаликларнинг рентабеллиги ошишига, даромади кўпайишига, аҳолининг турмуш даражаси ортишига эришилмоқда.

Фойдаланилган манбалар рўйхати:

1. Бухоро вилоятида чорвачилик озуқа базаси ва маҳсулотлари ишлаб чиқаришни ривожлантириш. / Монография. Муаллифлар жамоаси. Бухоро. Дурдона, 2018. – 160 б.

2. Рахимов О.Х., Явмутов Д.Ш. Агросаноат мажмуаси иқтисодиёти: кишлок хўжалигида ер-сув фонди ва ундан самарали фойдаланиш. Ўқув қўлланма. Бухоро. Дурдона. 2019. – 140 б.

3. Экономическое обозрение журналы 2021, №8 (260).

4. Явмутов Д.Ш., Рахимов О.Х. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида суғориладиган ерлардан фойдаланишнинг ҳудудий хусусиятлари. Монография. Шарқ-Бухоро МЧЖ. – Бухоро; 2013, - 202 б.

Development OF AGRICULTURAL COOPERATION IN MODERN ECONOMIC CONDITIONS

Rakhmatullaeva Firuza Mubinovna
Associate Professor of Economics

Currently, the most acceptable form of production organization for agriculture is cooperation. Agricultural cooperatives of various types are currently successfully functioning all over the world and are one of the most important organizational and legal forms of economic relations in agricultural production.

Agricultural cooperation in Uzbekistan is considered today as the most important condition for the successful functioning of the agricultural sector of the economy, the preservation of rural areas and communities. However, as the results of theoretical and empirical analysis of the development of domestic cooperative practices demonstrate, cooperative activity is still characterized by low efficiency, despite significant efforts by the state to support cooperation. At the same time, one of the reasons for the current situation in the activities of agricultural consumer cooperatives is that their organizational model (traditional cooperatives) it is not able to realize its potential in the new rapidly changing economic environment (both global and national).

The term "cooperation" has become widespread because cooperation as an association of labor and means for joint activities is used very widely. On the basis of cooperation, enterprises and their associations are created; common tasks are solved at the national and international levels, for example, space exploration, environmental protection, etc.

The cooperative values and principles that were formulated in 1995 by the World Cooperative Congress are generally recognized in world practice:

- voluntary and open membership;
- democratic control exercised by members of the cooperative;
- economic participation of members of the cooperative;
- autonomy and independence;
- education, professional development and information;
- cooperation between cooperatives;
- concern for society.

In many western European countries, the high level of development of the food complex is largely due to the rational cooperative organization of agriculture, processing, transportation and marketing of agricultural products.

In the countries of the European Union, cooperatives produce up to 60% of food products, in the United States, cooperatives account for 30% of all commercial agricultural products sold. Cooperatives in Japan sell about 90% of all agricultural products and supply farmers with about 80% of the necessary means of production¹.

In the Netherlands, Ireland, Sweden, Denmark, Norway, Finland and Japan, almost all primary agricultural producers are covered by the cooperative movement. In France and Germany, cooperatives unite at least 80% of farms, In China — 85% of farms. A slightly smaller participation of farmers in agricultural cooperation is observed in the UK, USA, Italy, it accounts for 25-30% of the number of farms, Australia up to 80%².

Each agricultural enterprise is simultaneously connected with several cooperatives: the supply of means of production, the delivery of raw materials, its processing and the sale of finished products - without this, food production is not possible today.

In the UK, farmers' cooperation is coordinated by contract societies that operate between closely located farms. Agro-industrial associations are engaged in processing, storage, warehousing, packaging and delivery to trading firms.

¹ Гончарова И. В., Гаг А. В., Новик Я. В. Сельскохозяйственная кооперация — основа развития личных подсобных хозяйств // Молодой ученый. — 2016. — № 65. — С. 112–115.

² Поличкина Е. Н., Джаубаева Ф. Ю. Экстраполяция зарубежного опыта на современную практику функционирования агропромышленного комплекса России. Теория и практика общественного развития. — 2016. — № 10.

Now agricultural cooperation in many countries has turned into a complex socio-economic mechanism, whose activities cover not only many aspects of agricultural production, but also processing, storage and sale of agricultural products, production of tools and means of production for agriculture. Due to the circumstances, the traditional scheme of division of cooperatives (credit, sales, supply) does not fully cover the various functions that characterize the activities of cooperatives in modern conditions. Therefore, in the established agro-industrial complex in developed countries, farmer cooperation is a widespread form of integration connections of agricultural producers with all spheres and links in the agro-industrial complex. The diverse activities in cooperatives reflect the diversity of forms of vertical and horizontal economic and industrial relations.

Thus, summarizing the experience of foreign countries, it can be concluded that the world systems of agricultural cooperation are constantly improving and adapting to changes in economic conditions. Therefore, the development and improvement of cooperation in the agricultural sector and the agro-industrial sphere as a whole, taking into account the conditions of the ongoing economic reforms, the formation of a new, effective agrarian structure with the priority of modern forms of management becomes one of the priority directions of stabilization and improvement of national agricultural production.

Literature

1. Гончарова И. В., Гааг А. В., Новик Я. В. Сельскохозяйственная кооперация — основа развития личных подсобных хозяйств // Молодой ученый. — 2016. — № 65. — С. 112–115.
2. Поличкина Е. Н., Джаубаева Ф. Ю. Экстраполяция зарубежного опыта на современную практику функционирования агропромышленного комплекса России. Теория и практика общественного развития. — 2016. — № 10.

АГРОСАНОАТ МАЖМУИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Қурбонов Алишер Бобоқулович

“Инновацион иқтисодиёт” кафедраси доценти

Журақулов Азим

“Инновацион иқтисодиёт” кафедраси 1-курс магистри

Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти

Мамлакатларда олиб борилаётган иқтисодий ислохотларнинг асосий вазифаларидан бири аҳоли турмуш фаровонлигини ошириш ҳамда иқтисодий ўсишнинг моддий асоси ишлаб чиқариш бўлиб, бунда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик имкониятларидан кенг фойдаланиб уни самарали ташкил этишни таъминлашдан иборат. Бунинг учун зарур бўлган ташкилий, иқтисодий ва хусусий муносабатларни такомиллаштириш ҳамда мавжуд муаммоларини тўғри ҳал қилиш зарур. Бу эса тадбиркорликнинг ижтимоий – иқтисодий моҳиятини чуқур англашни тақозо қилади.

Тадбиркорлик муаммосига ҳозирги иқтисодчи олимларнинг ёндашишлари эътиборга лойиқ. Уларнинг тадқиқотлари асосида тадбиркорликнинг моҳиятини таҳлил қилган ҳолда қуйидаги йўналишларга бўлиш мумкин: Биринчи йўналиш- тадбиркорлик бу фойда олиш учун йўналтирилган мустақил иқтисодий фаолиятдир.

Иккинчи йўналиш – тадбиркорлик фаолиятининг мақсади фойда олишни инкор қилмай, балки тадбиркорлик моҳиятини аниқловчи сифатида, ресурсларнинг янги комбинацияларини амалга оширишда муносабатлар йиғиндисига асосланган ҳолда ишлаб чиқаришнинг юқори самарадорлигига эришиш [1].

Учинчи йўналиш – тадбиркорлик фаолиятини ресурсларнинг ҳаракатини бошқаришда ижодкорлик зарур, деб ҳисобланади. Бу олимларнинг тадқиқотларида тадбиркорлик оддий меҳнат фаолияти эмас, балки ижодий активлик сифатида акс

этирилган. Хулоса қилиб айтганда, ушбу муаллифлар тадбиркорликни уч узвий ўзаро боғлиқ компонент тарзида ажратганлар.

Юқоридаги айтиб ўтилган фикр ва мулоҳазалардан келиб чиқиб шуни айтиш мумкинки, тадбиркорлик фойда олиш мақсадида инновация ва таваккалчиликка асосланган ҳолда ресурсларни бирлаштириш ва ҳаракатга келтириш, бошқариш жараёнини ўз ичига олган ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш фаолиятидир.

Тадбиркорлик яратувчилик, яъни товар ва хизмат ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлгани учун ўзининг ёки ўзгаларнинг моддий ва пул маблағларини, яъни капитални амалда ишга солувчи фаолият ҳисобланади. Шу боисдан, тадбиркорлик капитал функцияси билан боғлиқ бўлади.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик бозор иқтисодиётининг муҳим таркибий қисми бўлиб хизмат қилади. У бозор рақобат механизмнинг оммавий асоси ва элементи ҳисобланади. Кичик бизнес, шу жумладан, тадбиркорликсиз бозор иқтисодиёти ривожланиши у ёқда турсин, ҳатто амал ҳам қила олмайди.

Тадбиркорлик уюшиш даражаси бўйича у ёки бу шаклда намоён бўлиши бир қанча омилларга боғлиқ бўлади. Тадбиркорлик фаолиятининг ташкилий, уюшиш шакли, биринчидан, тадбиркорнинг шахсий қизиқишига, ўзини намоён қилишга интилишига; иккинчидан, фаолият соҳасига; учинчидан, пул маблағларининг миқдорига; тўртинчидан, таваккал қилишга мойиллигига боғлиқ бўлади [7]..

Агросаноат мажмуида олиб борилаётган иқтисодий ислохотлар натижасида бозор иқтисодиётига мос турли мулкчилик шакллари асосланган тадбиркорлик субъектлари шаклланди. Айрим мулк субъектлари хусусийлаштирилиб, хусусий –якка, хусусий-коорпоратив тадбиркорлик шаклларига айланиб борди. Агросаноат мажмуининг қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқариш соҳасида аввал жамоа (ширкат) хўжаликлари, уларнинг таркибида фермер хўжаликлари, деҳқон хўжаликлари ташкил этилди.

Хизмат кўрсатиш соҳасидаги маданий –маиший, савдо объектлар хусусийлаштирилиб, хусусий тадбиркорлик субъектлари сифатида фаолият олиб борди, ишлаб чиқариш инфратузилмаси объектлари МТП, ММТП, ўғит билан таъминлаш, уруғлик билан таъминлаш, ёқилғи мойлаш материаллари билан таъминлаш корхоналарари ҳиссадорлик жамиятларига айлантирилди.

Қишлоқ хўжалигини маҳсулотларини қайта ишловчи корхоналар ишлаб чиқариш ҳажми ҳамда технологик жиҳатдан йирик бўлганлиги сабабли ҳиссадорлик жамиялартига айлантирилди. Мазкур соҳада фақат мева-сабзовот маҳсулотларини қайта ишловчи кичик тадбиркорлик субъектлари шаклланди.

Агросаноат мажмуи соҳаларидаги турли мулкчиликка асосланган тадбиркорлик субъектларининг бир-бирига боғлиқ ҳолдаги фаолияти аграр муносабатларни вужудга келтиради.

Аграр муносабатлар бу–қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш, қайта ишлаш, сотиш ва қишлоқ хўжалиги воситаларини ишлаб чиқариш билан боғлиқ бўлган турли-туман субъектлар ўртасидаги муносабатлардир.

Аграр соҳадаги барча иқтисодий субъектларнинг фаолияти аграртадбиркорликнинг шаклланишига олиб келади, зеро аграртадбиркорлик бошқа тармоқлардаги тадбиркорлик ҳаракатидан фарқ қилади. Чунки мазкур соҳанинг марказида ер муносабатлари билан боғлиқ ҳолда қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқариш ётади. Бу эса агросаноат мажмуида хусусий тадбиркорликни ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари мавжудлигини англатади.

Бугунги кунда агросаноат тармоқларида фаолият кўрсатаётган кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг ҳозирги ва келажакдаги фаолиятини самарали ташкил этиш, бошқариш учун ўзгармас харажатлар таркибига кирувчи ер ва ер билан боғлиқ харажатларни, техника воситаларини кўпайтириш ва такрор ҳосил қилиш харажатларини, шунингдек, бошқарув харажатларини кўпайтириш билан фойда ўртасидаги нисбатни таъминлаш лозим.

Бизнингча, агросаноат мажмуи тармоқлари бир-бирини тақозо қилганлиги учун соҳаларни ўзида бирлаштирган кооперацияни ташкил қилиш ҳамда ушбу кооперация йириклашган фермер хўжаликлари ва қайта ишловчи кичик корхонларнинг моддий базасида асосида инфратузилма корхоналари йуналишларида ташкил этилиши мақсадга мувофиқ. Ушбу кооперация агросаноат мажмуи корхоналарида молиявий бирлашуви асосида ташкил этилиб, қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилар ва қйта ишлаш корхоналарининг ривожланишига асос бўлади.

Кооперация аъзолари агросаноат мажмуи кичик корхоналари бўлиб, улар ишлаб чиқаришнинг функционал йўналишлари бўйича бирлашади. Ташкил этилган кооперация кенгаши қарори асосида амалга оширувчи тузулма томонидан ижро этилади. Масалан, қишлоқ хўжалигида 2500 га яқин қишлоқ хўжалиги машиналаридан фойдаланилиб, уларнинг барчасини бир кичик корхона томонидан сотиб олиш имкониятига эга эмас. ММТПларнинг қишлоқ хўжалиги машиналарини сотиб олишга имконияти етмайди. Давлат ҳам ҳар бир худудда комплекс қишлоқ хўжалиги машиналари билан таъминлаш имконияти етарли эмас. Чунки фақат қишлоқ хўжалигини ривожлантириш мамлакат барқарорлигини таъминламайди. Бошқа тармоқларни ҳам ривожлантириш лозим. Давлат томонидан фақат ташкилий, ҳуқуқий, иқтисодий ва молиявий имтиёзлар ёрдамида рағбатлантирилиб турилиши мумкин. Бундай вазиятда кичик корхоналар имкониятларини бирлаштириб, кооперация асосида ўзини-узи таъминлаш мумкин. Техника ва технология йуналишида бирлашган кооперация аъзолари ихтиёрий равишда қишлоқ хўжалик машиналари сотиб олиш бўйича, қайта ишлаш технологияларини сотиб олиш бўйича инфратузилма корхоналарига керакли воситаларни сотиб олиш бўйича молиявий маблағларини бирлаштириладилар. Тупланган молиявий маблағлар ҳисобига олинган техника ва технологиялардан фойдаланиш кооперация кенгаши қарори билан мулк эгалари томонидан тўла фойдаланилади, кооперация аъзоларига улар хизматида имтиёзлар берилди. Кооперацияга аъзо бўлмаган кичик корхонлардан эса тўлиқ хизмат ҳақи олинади. Ушбудан келиб тушган даромаддан кооперацияни ташкил этиш ва ижро этиш харажатлари олиб қолиниб, мулк эгалари ўртасида кўшган улушига кўра тақсимланади. Кооперациянинг бундай тартиби бошқа функционал бирлашувларда ҳам қўлланилиши мақсадга мувофиқ бўлади.

Адабиётлар

1. Экономика и организация рыночного хозяйства в России М.: Прогресс,1995.155 стр.
2. Герчикова.И.Н. Менеджмент.М.:ЮНИТИ,2007.418стр.
3. Русинов.Ф.М Возраждения предпринимательство в России. Майкоп:1999 27-28 стр.
4. Kurbonov A. B., Shoxo'jaeva Z. S. Sustainable development of the agrarian sector depends on the efficient use of water resources //International Journal of Engineering and Advanced Technology. – 2019. – Т. 8. – №. 6. – С. 5123-5126.
5. Турсунов Имамназар Эгамбердиевич, Курбанов Алишер Бобокулович Инновационные подходы развития предпринимательства // International Journal of Innovative Technologies in Economy. 2018. №5 (17). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnye-podhody-razvitiya-predprinimatelstva>

ЧОРВАЧИЛИК СОҲАСИНИ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ХИЗМАТ КЎРСАТУВЧИ ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

О.Дж.Хусаинов

ҚарМИИ мустақил изланувчиси

М.Қ.Мелсов

ҚарМИИ Иқтисодиёт факультети талабаси

Чорвачилик – қишлоқ хўжалигининг муҳим тармоқларидан бирidir. Тармоқда муҳим озуқа маҳсулотлари – сут, гўшт, тухум, асал, балиқ кабилар ишлаб чиқарилади. Чорвачиликдан олинадиган маҳсулотлар саноат ишлаб чиқариши, қайта ишловчи саноат учун хом-ашё (сут, гўшт, тери, жун, пилла ва бошқалар) ва ўсимликчилик учун юқори даражада комбинациялашган органик ўғитлар яратиш билан хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг мамлакатимиз парламенти – Олий Мажлисга тараққиётимизнинг янги босқичи бўлган 2019 йилда амалга оширилган асосий ишлар якуни ва Ўзбекистон Республикасини 2020 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг устувор йўналишларига бағишланган Мурожаатномасида таъкидлаганларидек, “Чорвачилик, қорақўлчилик, балиқчилик, паррандачилик каби соҳаларда наслчиликка алоҳида эътибор қаратилиб, уни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг янги механизмлари татбиқ этилади”¹.

Чорвачилик тармоғига хизмат кўрсатувчи инфратузилмани ривожлантириш ва унинг самарадорлигини ошириш ҳамда олинадиган маҳсулотларнинг сифатини яхшилашнинг асосий масалаларидан бири бу соҳага режа асосида ҳар бир соҳанинг ривожини эътиборга олган ҳолда ёндашиш ҳисобланади. Республикада чорвачилик тармоғини ривожлантиришнинг ҳаётий долзарблиги ортиб бормоқда. Республика аҳолисининг ўсиб бориши чорвачилик маҳсулотларига бўлган талабни янада оширади. Республика аҳолисининг турмуш даражаси, қолаверса умуман қишлоқ хўжалигининг ривожланиши кўп жиҳатдан чорвачилик тармоқларининг ривожига, унинг хизмат кўрсатиш тизимининг ҳолатига боғлиқ.

Чорвачилик маҳсулотлари етиштириш узлуксизлигини таъминлаш ва унинг маҳсулдорлигини оширишда хизмат кўрсатиш инфратузилмани инновацион ривожлантириш ва унинг самарадорлигини ошириш муҳим аҳамият касб этади. Қишлоқ хўжалигида хизмат кўрсатиш инфратузилма турларини кенгайтмасдан ва уларни замон талаблари асосида ривожлантирмасдан чорвачилик маҳсулотлари етиштириш самарадорлигига эришиб бўлмайди. Чорвачилик тармоғида ҳам маҳсулот етиштиришда, албатта, унга хизмат кўрсатувчи инфратузилма омилларини эътиборга олган ҳолда тизимли таҳлил этиш тақозо қилинади. Чорвачилик маҳсулотлари етиштиришда ушбу жараёнга хизмат кўрсатувчи инфратузилма фаолиятининг таъсирини ўрганиш ва уни такомиллаштириб бориш мақсадга мувофиқдир.

Инновацион иқтисодиёт шароитида чорвачилик тармоғига хизмат кўрсатувчи инфратузилма субъектларининг самарали фаолият кўрсатиши хизматларга талаб шаклланиши, таклиф хусусиятлари ва бозор баҳолари даражасининг ўзгариши каби қонуниятлар билан шаклланади. Айни пайтда таъкидлаш жоизки, аксарият ҳолларда хизмат кўрсатувчи субъектларнинг монопол вазияти ёки тармоқдаги рақобат муҳитининг етарли эмаслиги туфайли инфратузилма субъектларининг ривожланиши кўнгилдагидек юз бермайди.

Шунинг учун ҳам чорвачилик хўжаликлари учун кредит, солиқ, нарх-наво ҳамда инвестиция соҳаларида самарали иқтисодий йўналишларни белгилаб олиш асосида эркин бозор талабларига мос келадиган макроиқтисодий муҳитни шакллантириш орқали қишлоқ хўжалиги учун ишлаб чиқариш инфратузилма объектларини ривожлантириш йўлидан бориш лозим.

Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши ривожланишига ҳудудларнинг табиий-иқлим шароитлари, экин майдонларининг тупроқ унумдорлиги, агроресурслар билан таъминланганлик даражаси ва бошқа шу каби омиллар қандай таъсир кўрсатса, тармоққа хизмат кўрсатувчи инфратузилма субъектларининг ҳудудий жойлашуви ва хизмат кўрсатиш соҳаларини ривожлантириш масаласига ҳам шунчалик таъсир кўрсатади. Бундай таъсирлар бевосита ёки билвосита кўринишга эга бўлади.

Чорвачилик тармоғига хизмат кўрсатувчи инфратузилма субъектларини

¹ Ш.М.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, Халқ сўзи, 24.01.2020 йил.

ривожлантиришдаги юқорида тилга олинган хусусиятлар қатор омилларни ҳисобга олишни тақозо этади. Бундай омиллар сирасига қуйидагиларни киритиш мумкин: ҳудудларнинг табиий-иқтисодий шарт-шароити, қишлоқ хўжалиги тармоғининг ихтисослашув йўналишлари, чорвачилик тармоқларини жойлаштиришнинг аҳволи, ҳудуд аҳолисининг ўсиш суръатлари, аҳоли бандлиги даражасининг ўзгариши ва шу каби омилларини ҳисобга олган ҳолда инфратузилма субъектларини ташкил этиш ва ривожлантириш мақсадга мувофиқ.

Шу сабабдан ҳудудларнинг ва чорвачилик тармоғининг жойлашуви, фаолият юритиши борасидаги хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда чорвачилик тармоғига хизмат қилувчи инфратузилма субъектларини ташкил этиш ва ривожлантиришда қуйидаги омилларни ҳисобга олиш мақсадга мувофиқ:

- чорвачилик маҳсулотларини сотиш ва чорвачилик маҳсулотларига талабнинг шаклланиши ҳудудий хусусиятларга эга. Шунингдек, маҳаллий аҳолининг миллий таркиби ва анъаналари ҳам маҳсулот истеъмолига катта таъсир кўрсатади. Шунинг учун ҳам етиштирилган чорвачилик маҳсулотларини сотиш бозорларининг мавжудлиги ва бозорлар ҳажмини ҳисобга олган ҳолда ёндашиш лозим. Яъни, савдо-тижорат йўналишидаги хизматлар асосан сут ва гўшт қорамолчилиги ҳудудларида ривожлантирилиши ҳам инфратузилма объектларининг самарали фаолиятига ва шунингдек маҳсулот ишлаб чиқариш соҳасининг ривожланишига қулай шароит яратиб беради;

- чорвачилик тармоқларининг ихтисослашув йўналишлари ва чорва моллари бош сонининг ҳамда маҳсулот етиштириш ҳажмларининг ўсиш динамикасидаги ўзгаришлар ҳисобга олиниши лозим. Чунки чорвачилик соҳаси ихтисослашуви бўйича турлитуманлиги, маҳсулотлари таркиби ҳам бир-биридан фарқ қилиши боисдан турлича хизматларга талаб пайдо бўлади;

- чорвачилик ҳудудларида чорвачилик фермер хўжаликларининг тарқоқлиги ва географик жиҳатдан бозорларга нисбатан ва хизмат кўрсатиш марказларига нисбатан турли масофаларда жойлашганлиги ҳисобга олиниши лозим. Бу бир томондан фермер хўжаликларидаги чорвачилик тармоғига хизмат кўрсатувчи инфратузилмани ривожлантириш сифатига салбий таъсир кўрсатса, иккинчи томондан хизмат кўрсатувчи бўғинларнинг молиявий аҳволига салбий таъсир кўрсатади;

- чорвачилик ҳудудларида доимий равишда тармоқ учун зарур ресурсларни сотиб олиш, насли молларга эга бўлиш, хизматлардан фойдаланиш ва шунингдек етиштирилган маҳсулотларни энг кўп фойда олган ҳолда сотиш борасидаги ахборотлар етишмаслиги хизмат кўрсатиш соҳаларини ташкил этишда ҳисобга олиниши лозим. Чунки, бозор конъюнктураси ҳақида маълумотлар чорвачилик билан шуғулланувчи фермерга ҳам, хизмат кўрсатувчи соҳа субъектларига ҳам бирдай муҳим;

- маҳсулотларни сотиш тизимининг бозор талабларига ва чорвачилик маҳсулотлари етиштирувчи тармоқлар фаолияти хусусиятларига жавоб бермаслиги туфайли, фермернинг ишлаб чиқаришга жалб қилган инвестицияси қайтими таваккалчилиги хавфининг юқорилиги ҳисобга олиниши лозим. Бу вазият маҳсулот ишлаб чиқарувчига ҳам ва хизмат кўрсатувчига ҳам молиявий хавф-хатарлар пайдо қилиши боисдан инфратузилма субъектларини ривожлантиришда ҳисобга олиниши лозим;

- чорвачилик тармоғига хизматлар кўрсатувчи инфратузилма субъектларини ташкил этишда қишлоқ хўжалиги корхоналари учун эркин иқтисодий фаолият юритиши учун яратилган шарт-шароитлар ва маҳаллий бошқарув идораларининг, фермер хўжаликларининг ишлаб чиқариш фаолиятига маъмурий аралашувининг қандай даражада эканлиги ҳам эътиборга олиниши лозим. Чунки тажрибалар кўрсатишича, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёнида фойдаланиладиган ортикча маъмурий дастаклар бозор талаблари асосида фаолият олиб борувчи инфратузилма субъектлари фаолиятига ҳам салбий таъсир кўрсатади ва бу ўз навбатида кўрсатиладиган хизматлар сифати пасайишига ҳамда баҳолари ошишига олиб келувчи омил ҳисобланади.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT AGRICULTURE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Gafurova Sh.K., Odinayeva N.F.
Bukhara State University

Over the years of independence, the agriculture of Uzbekistan has carried out fundamental measures for economic reform aimed at introducing market relations and developing private ownership in the countryside. Based on the characteristics of the Republic and world experience, institutional reform of agriculture focused on dekhkans, farms and agricultural enterprises (shirkats). The main goal of all the reforms in the countryside was to educate the owner who is interested in his work and disposes of his results.

Agriculture in Uzbekistan is one of the leading sectors of the economy, providing more than 28% of the country's gross domestic product, almost 28% of employment and producing socially significant goods - food for the population and raw materials for industry. Development prospects, economic and financial condition of many industries of the republic directly depend on agriculture. Many researchers emphasize the importance of the development of this sector and its impact on socio-economic growth in general. For example, FAO researchers came to the conclusion that growth in agriculture, greater than in any other sector of the economy, can reduce poverty, playing the role of a multiplier [1].

World agriculture is becoming more and more dependent on market conditions, whereas earlier it developed mainly under the influence of protectionist policies. Thus, developing countries are now able to reap the benefits of investment and reap economic benefits, given the growing demand for food in these countries, the potential for growth in production and comparative advantages in many world markets. Accordingly, sustainable development and modernization of agriculture is a key priority of any macroeconomic development strategy of the country aimed at economic growth and improving the welfare of the population.

In 2017, a new direction appeared in the agriculture of Uzbekistan - a cluster system. Clusters of various directions are developing: cotton-textile, fruit and vegetable, seed-growing, grain, meat and dairy, etc. Of course, it is worth noting that this system is only getting better and there are problems in individual links of the chain, but the prospects for its further development will make it possible to most effectively use the production potential of Uzbekistan's agriculture.

Also, since 2017, the process of transforming farms into multidisciplinary ones began to take place.

A multidisciplinary farm is understood as a farm that, along with the production of agricultural products, is engaged in the processing, storage and sale of agricultural products, industrial production, performance of work, provision of services and other activities not prohibited by law.

In 2019, the "Strategy for the Development of Agriculture of the Republic of Uzbekistan for 2020 - 2030" was approved, which covers the following strategic priorities: ensuring food security of the population; creating a favorable agribusiness climate and value chains; reducing the role of the state in managing the sector and increasing investment attractiveness; ensuring the rational use of natural resources and environmental protection; development of modern systems of public administration; phased diversification of public spending in support of the sector; development of science, education, systems of information and consulting services in agriculture; rural development; development of a transparent system of industry statistics [2]. Within its framework, it is expected to achieve the following main indicators by 2030:

- development of 1.1 million hectares of agricultural land, increasing the efficiency of using 535.6 thousand hectares of rainfed, pasture and other lands;
- growth of average labor productivity in agriculture by 1.7 times (up to 6.5 thousand US dollars per employee per year);
- an increase in the index of processed products up to 30%;

- an increase in exports to \$ 20 billion.

The implementation of the Strategy is expected to achieve several overall targets in 2018-2030. In particular, the annual growth of added value in agriculture (including forestry and fish farming) is within 3-5 percent, while the share of agriculture in total GDP will decrease from 32 to 20 percent. The number of jobs in the food industry should grow by 3-5 percent annually, in the textile industry - by 3-4 percent annually. Average labor productivity in agriculture will more than double.

Within the framework of the Strategy for the Development of Agriculture in the agricultural sector, the process of liberalization is accelerating. On October 15, 2019, the state regulation of flour prices in Uzbekistan, which has been going on since 1994, has been terminated. Selling flour at market prices ensures efficient allocation of resources and competition in the markets, taking into account the interests of both producers and consumers. This mechanism has increased the interest of flour mills and provided them with financial opportunities to modernize production facilities, which serves to improve quality, increase production volumes and increase labor productivity.

Separately, it is worth dwelling on the process of reforming the liberalization of the export of fruit and vegetable products.

In June 2017, at the initiative of President Sh. M. Mirziyoyev, the company "Uzagroexport" lost its monopoly on the supply of fruits and vegetables abroad [3]. As a result, from July 1, 2017, business entities were allowed to export fresh fruits and vegetables, grapes and melons on the basis of direct contracts on the basis of 100% advance payment and mandatory sale of 25% of their foreign exchange earnings. The last requirement was canceled in July 2017 in order to further stimulate national exporters [4].

The next step to increase the efficiency of promoting fruit and vegetable products to foreign markets was the authorization of exports by legal entities in the absence of prepayment, opening a letter of credit, issuing a bank guarantee and an insurance policy against political and commercial risks under an export agreement, in accordance with the procedure established in October 2018 [5].

In the field of land relations, serious changes are also expected in the coming years. The first step towards reforming the rights to use agricultural land was made already in September 2020 by introducing a sublease mechanism in order to grow agricultural products, which will allow the most efficient use of valuable land resources. The sublease period is up to one year.

It is an integrated approach covering a wide range of tasks in agriculture: land management, access to credit and other financial resources, research, education, consulting, government services and support mechanisms, budgeting, international trade, food security, veterinary and phytosanitary control, as well as environmental protection and sustainable management of natural resources

Thus, in recent years, ambitious reforms have been carried out in the agriculture of Uzbekistan, the results of which have already made it possible to ensure sustainable growth of the industry and increase resource efficiency. In the long term, they will serve to the fullest use of the existing potential of the republic in agricultural development and bringing Uzbekistan into the ranks of the world leaders in the production and export of agricultural-food products.

References

1. FAO. Analytical report of The State of Food and Agriculture: Investing in Agriculture for a Better Future Food and Agriculture Organization of the United Nations, Rome, 2012
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 23, 2019 No.5853 "On approval of the Strategy for the Development of Agriculture of the Republic of Uzbekistan for 2020-2030"
3. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated June 21, 2017. No.3077 "On measures to further support of domestic exporting organizations and improvement of foreign economic activity"

4. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated July 28, 2017. No.3157 "On additional measures to stimulate domestic exporting enterprises"

5. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 17, 2018 No. PP-3978 "On additional measures to increase the efficiency of promoting fruit and vegetable products to foreign markets"

ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ҚОРХОНАДА ХАРАЖАТЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ БОШҚАРИШДА ТЕЖАМҚОРЛИК РЕЖИМИГА АМАЛ ҚИЛИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Ш.Ш.Болтаев

БухДУ мустақил изланувчиси

Бугунги кунда барча соҳаларда тежамкорлик масаласи мамлакатимизнинг иқтисодий-ижтимоий ҳаётида асосий устувор вазифалар-дан бири сифатида баҳоланмоқда. Зеро, тежамкорлик бўлмаган жойда кўзда тутилган самарадорликка ҳам, харажатларни оптимал бошқаришга ҳам, пировардида аҳолининг фаровонлигини оширишга ҳам эришиб бўлмайди. Тежамкорлик масаласи хизмат кўрсатиш соҳасида алоҳида аҳамиятга эга, чунки дунё микёсида ЯИИМда хизмат кўрсатиш соҳасининг улуши ўртача 70,0 %ни ташкил қилиб, жаҳон иқтисодиётининг асосий экспорт қилувчи соҳасига айланиб бормоқда. Хизмат кўрсатиш соҳаси меҳнатга қобилиятли аҳолининг 60,0 %дан ортигини иш билан таъминлаб келмоқда. Шундай қилиб, дунё мамлакатлари иқтисодиётида, айниқса ривож-ланган мамлакатларда хизмат кўрсатиш соҳаси етакчи тармоқлардан бири бўлиб ҳисобланади. Шу туфайли инновацион иқтисодиёт шароитида хизмат кўрсатиш соҳасида моддий ва меҳнат ресурслари тежамкорлиги ҳамда самарадорлигини ошириш, шунингдек, унинг истиқболли йўналишларини белгилаб олишга алоҳида аҳамият берилмоқда. Зеро, бизда ҳам хизмат кўрсатиш соҳасининг иқтисодиётдаги улуши келажакда ошиб бориши тайин.

Кўрсатилган хизматлар ҳажми мамлакатимизда 2010 йилда 27126,8 млрд. сўмни ташкил қилган бўлса, 2018 йилда бу кўрсаткич қарийиб 5,6 баробарга ошиб 150889,8 млрд. сўмни ташкил қилди. Ўзбекистон Республикаси бўйича хизмат кўрсатиш ҳажми аҳоли жон бошига 2010 йилда 949,7 минг сўмдан, 2018 йилга бу кўрсаткич қарийиб беш баробар ошиб 4578,5 минг сўмни ташкил қилган. Худди шундай ҳолат мамлакатимизнинг барча ҳудудларида ҳам рўй берган.


Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28-декабрдаги ва 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга қилган Мурожаатномасида ҳам мамлакатимизда инновацион иқтисоднинг ривожланиши, тежамкорлик тамой-илига амал қилиш бўйича бир қанча вазифаларни белгилаб берди. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрда “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-5544-сонли Фармони, 2018 йил

3 июлдаги “Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3832-сон қарори, 2018 йил 21 ноябрда “Рақамли иқтисодиётни ривожлантириш мақсадида рақамли инфратузилмани янада модернизация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4022-сонли қарори, 2018 йил 13 декабрда “Ўзбекистон Республикаси давлат бошқарувида рақамли иқтисодиёт, электрон ҳукумат ҳамда ахборот тизимларини жорий этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармонларини эълон қилинди. Мазкур фармонлар, қарорлар ва улар юзасидан қабул қилинган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар хизмат кўрсатиш соҳасини инновацион ривожлантиришда ва тежамкорлик асосида самарадорлигини оширишда мамлакатимизда ўта долзарб масалалардан бирига айланган. Шу жиҳатдан мазкур мақола долзарб масалаларнинг ечимларига бағишланган, деб баҳолаш мумкин.

Иқтисодиётни самарали ривожлантириш ва унинг тежамкорлигини такомиллаштиришга қаратилган илмий-назарий ва услубий тадқиқотлар билан жаҳон олимлари, МДХ ва мамлакатимиз олимлари ҳам шуғулланиб келмоқдалар. Хорижий

олимлардан Г.А.Аванесева, А.Я.Басс, А.Б.Балаева, В.Э.Гордин, В.В.Павлинко, И.А.Скрынникова, С.Н.Диянова, М.А.Морозов Т.А.Бурменк, Л.Демидово, Е.Н.Валединская, Ж.А.Раманович, кабларнинг ишларида тадқиқ қилинган. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва ушбу соҳани иқтисодийни модернизациялаш, диверсифицициялаш ва инновацион ривожлантириш шароитидаги муаммолар билан А.В.Вахобов, М.Э.Пўлатов, К.Б.Ўразов, Ш.Х.Хажикабиев, Н.Х.Жумаев, М.С.Қосимова, А.Н.Самадов, Б.Рўзметов, О.Муртазаев, Б.А.Абдукаримов, М.Қ.Пардаев, М.М.Мухаммедов, Ж.Р.Зайналов, И.С.Тухлиев, Б.И.Исроилов, А.Х.Пардаев, А.С.Солиев, Р.Х.Эргашев, Б.Наврўз-зода, М.Т.Алимова, Қ.Ж.Мирзаев, О.М.Пардаев Д.А.Таджибаева, Р.Ж.Қурбонова каби² мамлакатимиз иқтисодчи олимлари илмий ишларида ёритиб берилган. Аммо, ушбу муаллифлар ишларида хизмат кўрсатиш соҳасини инновацион ривожлантиришда алоҳида тежамкорликка амал қилиш масалалари атрофлича ўрганилмаган. Ушбу ҳолат мазкур тадқиқотнинг долзарблигини ифодалаш билан бирга, унинг мақсади ва вазифаларини аниқлаш имконини ҳам беради.

Инновацион иқтисодий шароитида корхонада ҳам ашё ва материаллар билан боғлиқ харажатлар самарадорлигини бошқаришда бугунги кун талабидан келиб чиқиб, тегишли тавсияларни ишлаб чиқиш жараёнида методологик асос сифатида мантиқий таҳлил, сабаб ва оқибат, анализ ва синтез, индукция ва дедукция усулларидан фойдаланилган. Шунингдек ишдаги асосий масалалар ва уларнинг йўналишлари амалий маълумотларни қўллаган ҳолда мантиқий таҳлил усуллари қўллаб тегишли бошқарув қарорларини қабул қилиш йўллари ёритилган.



1- расм. Корхоналарда ишлаб чиқариш харажатларини бошқаришда тежамкорлик режимининг асосий йўналишлари

Инновацион иқтисодий ривожланаётган шароитида корхонада харажатларни бошқаришнинг аҳамияти, самарадорликни оширишга қаратилганлиги билан муҳимдир. Бунга эришиш учун эса, тежамкорлик режимига амал қилиш лозим бўлади. Бунинг асосий йўналишлари қуйидагилардан иборат. Бу қуйидаги расмда ўз ифодасини топган (1-расм).

Мазкур расмда корхоналарда ишлаб чиқариш харажатларни бошқаришда тежамкорликнинг асосий йўналишлари қараб кўрсатиб берилган. Уларнинг ҳар бирига қисқача тўхталадиган бўлсак, булар қуйидагилардан иборат.

Биринчидан, меҳнат ресурсларини ишлатиш билан боғлиқ харажатларни бошқаришда тежамкорликка эришиш. Бунда меҳнат харажатларига иш кучининг тежамкорлиги, иш вақтининг тежамкорлиги ва иш ҳақи ва уни рағбатлантириш билан боғлиқ харажатларнинг тежамкорлиги киради.

Иккинчидан, асосий воситаларни, яъни техника ва технологияларни самарали ишлатиш билан боғлиқ харажатлар тежамкорлигини бошқариш масаласи ҳам муҳим йўналиш бўлиб ҳисобланади.

Учинчидан, хом ашё ва материаллар билан боғлиқ харажатлар тежамкорлиги ва уларни бошқариш масалалари ҳам муҳим йўналишлардан бири сифатида эътироф этиш мумкин. Бунда саноат, қишлоқ хўжалиги, қурилиш, хизмат кўрсатиш каби соҳалар борки, уларнинг барчасида харажатлар тежамкорлигини бошқариш масаласи ҳам ўзига хос ёндошувни талаб қилади.

Тўртинчидан, ишлаб чиқариш жараёнида ёқилга ва элект энергиясидан фойдаланиш билан боғлиқ харажатларни бошқариш ва шу жараёнда унинг тежамкорлигини таъминлаш ҳам бугунги кунда ҳам катта муаммоларни пайдо қилиши мумкин. Ушбу муаммоларнинг ечимлари ҳам ушбу йўналишдаги харажатларни тўғри бошқаришни тақозо қилади.

Бешинчидан, харажатларни бошқаришда тежамкорликка эришишнинг муҳим йўналишларидан бири, уларни сарфлашда ишлатиладиган ташкилий-иқтисодий механизмни такомиллаштириш билан боғлиқ. Бу ерда масаланинг кўлами жуда катта. Биз уларнинг харажатлар нуқтаи назаридан, айримларигагина тўхталишни мақсад қилиб олганмиз. Меҳнат ресурслари билан боғлиқ харажатларни ошқариш. Ушбу харажатларни тежашнинг пировар мақсади, шу ерда меҳнат қилаётган ходимларнинг меҳнат унумдорлигини оширишда намоён бўлади. Шу туфайли меҳнат билан боғлиқ харажатларни бошқаришда масалани шу корхонада меҳнат унумдорлигини аниқлашдан ва унинг ўзгаришини ўрганишдан бошлаш мақсадга мувофиқ.

Бунинг учун меҳнат унумдорлиги (M_y) кўрсаткичини аниқлаб олиш лозим бўлади. Ушбу кўрсаткични аниқлаш учун сотилган маҳсулот ҳажмини (C_m) ходимларнинг ўртача сонига (X_d) бўлиш кифоя.

Бунинг учун қуйидаги формуладан фойдаланилади:

$$M_y = X_d / C_m$$

Ушбу кўрсаткич биз таҳлил қилган корхонада 2015-2019 йиллар давомида қуйидагича бўлган (1-жадвал). Мазкур жадвал маълумотларидан ҳам кўришиб турибдики, таҳлил қилинаётган корхонанинг сотилган маҳсулот ҳажми 2015-2019 йилда давомида 123,5 % ўсишга эришган. Аммо шу даврда корхонада банд бўлган ходимлар сони 107,2 % ўсган. Бу мазкур корхонада меҳнат унумдорлигининг ўсишига олиб келган. Шу давр мобайнида ушбу кўрсаткичнинг миқдори 109,6 % ўсишга эришилган. Бундан кўришиб турибдики, корхонада банд бўлган ходимларга нисбатан солган маҳсулот ўсишининг юқорилиги меҳнат унумдорлигининг ходимлар сонига нисбатан юқорилигини таъминлаган. Меҳнатнинг қанчалик тежалганлигини билиш учун ҳар бир миллиард сўм сотилган маҳсулотга тўғри келадиган ходимлар сонинг (M_t) динамикасини ўрганиш мақсадга мувофиқ. Бунинг учун корхонада банд бўлган ходимлар сонини (X_d) сотилган маҳсулот ҳажмига (C_m) бўлинади. Бу қуйидагича ҳисобланади:

$$X_d = M_y / C_m$$

Ушбу формулага асосан неча фоиз меҳнат сарфи тежалганлигини ҳам аниқлаш мумкин. Бунинг учун ҳар бир миллиард сўм сотилган маҳсулотга тўғри келадиган ходимлар сонинг ҳақиқий миқдорини (M_{t_x}) 100,0 га кўпайтириб, ўша кўрсаткичнинг асос йилидаги миқдorigа ($M_{t_{ac}}$) бўлинади. Чикқан натижани 100,0 дан айрилади.

1-жадвал

**«AFROSIYOB JEANS» МЧЖда 2015-2019 йилларда меҳнат
унумдорлиги ўзгаришининг ҳисоб-китоби**

Йиллар	Сотилган маҳсулот ҳажми		Корхонада банд бўлган ходимлар		Меҳнат унумдорлиги	
	Суммаси, млн.сўм	Ўсиш суръати, %	Ўртача сони, киши	Ўсиш суръати, %	Суммаси, млн.сўм	Ўсиш суръати, %
2015	26245,3	100,0	908	100,0	28,9	100,0
2016	28187,4	107,4	930	102,4	30,3	104,9
2017	29289,7	111,6	954	105,1	30,7	106,2
2018	30549,3	116,4	970	106,8	31,5	109,0
2019	32409,3	123,5	1023	107,2	31,7	109,6

Кўриниб турибдики, «AFROSIYOV JEANS» МЧЖда меҳнатнинг тежалиш даражаси 2015-2019 йилларда 8,9 %ни ташкил қилган. Бу ижобий кўрсаткич, чунки 2015 йилда 1 млрд. сўм маҳсулот ишлаб чиқариб сотиш учун 34,7 нафар ходим керак бўлса, 2019 йилга келиб 31,6 нафар ходим етарли. Демак ушбу кўрсаткич орқали биз меҳнат тежамкорлигининг даражасини аниқлашга муваффақ бўлдик. Ушбу таҳлил натижасида меҳнат сарфини тажаш бўйича аниқ бошқарув қарорларини қабул қилиш мумкин бўлади. Бунда шунга аҳамият бериш лозимки, меҳнатнинг тежалиш даражаси тизимли равишда камайиб келган. Бу ижобий ҳолатнинг сабаблари ўрганилиб, тегишли бошқарув қарорлари қабул қилинади. Бунда эришилган ижобий натижаларни сусайтирмаслик чораларини кўришга тўғри келади.

ЎЗБЕКИСТОН ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ

Очиллов Назрилло Файзиллоевич,

Бухоро Давлат университети таянч докторанти

Сўнгги йилларда мамлакатимиз қишлоқ хўжалигини тубдан ислоҳ этиш, ушбу соҳада давлат бошқарувини тизимини такомиллаштириш, қишлоқ хўжалиги соҳасида вужудга келаётган ижтимоий-иқтисодий муносабатлар тизимига бозор механизмининг босқичма-босқич татбиқ этиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш, уларни қайта ишлаш, сотиш билан шуғулланувчи агробизнес вакилларининг иқтисодий муносабатлардаги иштироки бўйича ҳуқуқий асосни такомиллаштириш ва уларни янада мустаҳкамлаш, аграр соҳага жалб этилаётган инвестициялар ҳажмининг ошириш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёнларини жаҳондаги етакчи технологияларга асосланган ҳолда, замонавий техник воситалар билан қуролланган агрокластерларни шакллантириш ва уларнинг фаолиятини ривожлантиришга қаратилган амалий ишларга устуворлик қаратилмоқда. Республикада қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва унинг рақобатбардошлигини оширишга қаратилган ислохотларни узоқ муддатли истиқболда янада чуқурлаштириш, уларни тизимли равишда амалга ошириш, жумладан, аграр соҳадаги ер ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш, қишлоқ хўжалиги тармоқларининг инвестицион самарадорлигини ошириш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг глобал рақобатбардошлиги кўрсаткичларини янада ошириш орқали жаҳон бозорларида муносиб ўрин эгаллаш, мамлакатнинг қишлоқ хўжалигини ривожлантириш салоҳиятидан тўлиқ фойдаланишга эришиш, каби қатор муаммоларни ижобий ҳал этиш мақсадида “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегияси”¹ қабул қилинди.

Агрокластерларни шакллантириш ва улар фаолиятини ривожлантиришнинг тараққий этган мамлакатлар амалиёти таҳлили кўрсатишича, ушбу мамлакатларда қишлоқ

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5853-сонли Фармони, 23.10.2019 й. <https://www.lex.uz/docs/4567334>

хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришда инновацион ишлаб чиқариш технологияларига асосланган, замонавий техника-технологиялар билан жиҳозланган агросаноат кластерлари фаолияти сезиларли даражадаги салмоққа эга ҳисобланади. Жумладан, АҚШнинг Калифорния, Вашингтон, Ок-лахома, Луизана штатларида дунёдаги энг йирик ҳудудий агрокластерлар жойлашган бўлса, Европа Иттифоқи мамлакатларида (Германия, Франция, Италия, Болгария, Греция, Голландия, Англия, Швейцария, Дания ва бошқа мамлакатлар) юқори технологияли агрокластерларни ривожлантиришга устуворлик қаратилади. Сўнги йилларда Жануби-Шарқий Осиё мамлакатлари, Хитой, Сингапур, Япония ва шу каби бошқа мамлакатлар амалиётида агрокластерлар фаолиятини ташкил этишнинг инновацион ва ҳудудий шакллари арасида ҳолда қўллаш орқали қишлоқ хўжалигини ривожлантиришга қаратилган ислоҳотларга устуворлик қаратилиб келинмоқда.¹

1 даража

ҳудуднинг қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш бўйича ихтисослашув йўналишларини аниқлаш;

аниқланган юқори ихтисослашув даражасига эга бўлган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш йўналишларининг нисбий рақобат устунликларини қиёсий таққослаш;

ҳудудий агрокластернинг ресурс таъминоти бўйича тармоқларини аниқлаш;

ҳудудда агрокластернинг марказий бошқарув корхонасини белгилаш

2 даража

ҳудудий агрокластерлар фаолиятини ташкил этиш ва уни ривожлантириш бўйича молиявий ресурс таъминотини белгилаш

ҳудудий агрокластер фаолиятини инновацион ривожланиш бўйича маҳаллий ва хорижий олий ўқув юртлири, илмий тадқиқот институтлари билан инновацион ҳамкорлик шартномаларини тузишни рағбатлантириш;

ҳудудий агрокластерда инновацион лойиҳаларни амалга оширилишини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш;

ҳудудий агрокластернинг глобал рақобатбардошлик индексини оширишга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш

1-расм. Республика вилоятларининг қишлоқ хўжалиги тармоқларини кластеризациялашнинг икки даражали бозор механизми²

Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва унинг рақобатбардошлигини оширишнинг ҳуқуқий-институционал асослари, қишлоқ хўжалигини ривожланиш тенденцияларининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда, республика вилоятлари қишлоқ хўжалигини кластеризациялашнинг икки даражали бозор механизмининг тақлиф этамиз (1-расмга қаранг). Бунда биринчи даражадаги белгиланган устувор йўналишлар Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республика ҳудудларини қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришга ихтисослаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4709 сонли Қарорида³ ҳам белгиланган устувор вазифаларни самарали ҳал этиш имконини беради.

Шунингдек, ҳудудларда агронсаоат мажмуаларини кластерлаштириш борасида амалга оширилаётган ислоҳотларни ҳам ўз вақтида ва самарали бўлишини таъминлайди. 2

¹ Лисин М. Н. Создание инфраструктуры регионального кластера субъектов малого предпринимательства АПК в форме аграрного инфраструктурного парка // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. 2013. № 4. С. 83.

² Муаллиф томонидан тузилган

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республика ҳудудларини қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришга ихтисослаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4709 сонли Қарори, 11.05.2020 й. <https://lex.uz/docs/4810300>

даражадаги белгиланган устувор йўналишлар эса, мамлакатда “Ақлли қишлоқ хўжалиги” технологияларини ривожлантириш стратегиясида¹ ва 2021-2025 йилларда қишлоқ хўжалигида билим ва инновациялар тизимини устувор ривожлантириш концепциясида² белгиланган устувор вазифаларни амалга оширишда юқори самарадорликка эришиш имконини беради.



2-расм. Республика вилоятлари қишлоқ хўжалигини кластеризациялашнинг худудий-инновацион модели³

Таклиф этилаётган республика худудларини агрокластеризациялашнинг икки даражали бозор механизми асосида вилоятларда агрокластерлар фаолиятини ташкил этишнинг худудий-инновацион моделини ҳам таклиф этамиз (2-расмга қаранг). Бунда вилоятлар кесимида ишлаб чиқарилаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш жараёнларини инновацион ривожланиш йўлига ўтказиш, жумладан, уларни глобал даражадаги рақобатбардошлик индекси кўрсаткичларини ҳам мунтазам равишда такомиллаштириб бориш имконияти вужудга келади. Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва унинг рақобатбардошлигини оширишнинг тараққий этган мамлакатлар амалиёти таҳлили кўрсатишича, ушбу мамлакатларда қишлоқ хўжалиги муносабатларида

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси агросаноат мажмуи ва қишлоқ хўжалигида рақамлаштириш тизимини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 794-сон Қарорига 1-илова, 17.12.2020 й. <https://lex.uz/docs/5179198>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қишлоқ хўжалигида билим ва инновациялар тизими ҳамда замонавий хизматлар кўрсатишни янада ривожлантириш тўғрисида”ги ПФ-6159-сон Фармониغا 1-илова, 03.02.2021 й. <https://lex.uz/docs/5262596>

³ Муаллиф томонидан тузилган

бозор механизмининг амал қилишида давлат ва хусусий шериклик тамойилига устуворлик қаратилган ҳисобланади. Мазкур вазиятдан келиб чиққан ҳолда, таклиф этилаётган агрокластерлар фаолиятини ташкил этиш ва ривожлантиришнинг худудий-инновацион модели давлат ва хусусий шериклик тамойилига асосланиши лозим бўлади. Бу орқали қишлоқ хўжалигини инновацион ривожлантириш ва унинг рақобатбардошлигини оширишда давлат молиявий ресурсларидан фойдаланиш самарадорлиги ортади.

Фикримизча, кейинги йилларда мамлакатимиз қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва рақобатбардошлигини ошириш учун қуйидагиларни чора-тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ:

- мамлакатда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, жумладан, қишлоқ хўжалигида импорт ўрнини босувчи ва экспортга йўналтирилган ишлаб чиқариш жараёнларини такомиллаштириш;

- мамлакатда қулай агробизнес муҳитини шакллантириш, қишлоқ хўжалигида юқори қўшилган қиймат занжирини шакллантириш;

- табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш бўйича илмий тадқиқотлар ўтказиш ва уларнинг натижаларини коммерциализация қилинишини таъминлаш;

- қишлоқ хўжалигида фойдаланиладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаш, жумладан, суғориш технологияларини такомиллаштириш ва замонавий техникалар билан қуроллантириш;

- қишлоқ хўжалигида давлат бошқарувини босқичма-босқич камайитириш асосида бозор механизмини татбиқ этиш жараёнларини жадаллаштириш;

- қишлоқ хўжалаги тармоқлари, жумладан, тармоқни қўллаб-қувватлашга йўналтирилган давлат хизматларини диверсификациялаш жараёнларини чуқурлаштириш;

- қишлоқ хўжалигида илм-фан соҳасидаги ютуқларни амалиётга татбиқ этилишини рағбатлантириш;

- қишлоқ хўжалигининг инвестицион самарадорлигини ошириш бўйича узоқ муддатли истиболга мўлжалланган стратегик дастурни ишлаб чиқиш;

- бошоқли дон етиштиришда давлат интервенцион харидлар тизимини жорий қилиш, қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат маҳсулотлари нархларини давлат томонидан тартибга солиш механизмидан босқичма-босқич воз кечиш ҳамда бошоқли донни квота асосида бозор нархларида сотиб олиш механизмини жорий этиш;

- соғлом истеъмол маданиятини тарғиб қилиш бўйича узоқ муддатли дастур ишлаб чиқиш;

- халқаро даражада тан олинган услубиятлар ва илғор тажрибалар асосида озиқ-овқат хавфсизлигини баҳолаш тизимини жорий қилиш ҳамда доимий мониторинг қилиш;

- агрокомплексларнинг марказлашган бошқарувини бекор қилиш (бошқарув жараёнининг децентрализациялашуви);

- давлат ва хусусий шериклик асосида ташки этилган агрокластерларни босқичма-босқич хусусийлаштириш ва мустақил юридик шахсларга айлантириш;

- агрокластер иштирокчилари ўртасида ўзаро умумий иқтисодий манфаатдоликни шаклланишига эришиш;

- агрокластерларни шакллантиришга мавжуд имкониятларни тўлиқ йўналтириш. Масалан, ихтисослашган илмий-тадқиқот институтлари мавжуд бўлмаган ҳолда, олий ўқув юртларининг илмий салоҳиятидан фойдаланиш;

- агрокластерларни инновацион технологиялар асосида ташкил этиш;

- агрокластерларнинг узоқ муддатга мўлжалланган ривожланиш стратегияларини ишлаб чиқиш, уни амалга оширилиши бўйича мониторинг қилиш тизимини йўлга қўйиш ва ҳ.к.

QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O‘RNI

Taylakova Dilafro‘z Baymamatovna

QMII, Innovatsion iqtisodiyat kafedrasida asistenti

Jomurodova Charos Qahhor qizi

QMII, Iqtisodiyot fakulteti 3 bosqich talabasi

Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlari ichida jadal rivojlanishi bilan ajralib turibdi. Mamlakatimiz ishlab chiqarish va intellektual salohiyatining yarmidan ortig‘i muayyan tarzda bevosita qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liqdir. Qishloq xo‘jalik mahsuloti mamlakatga valyuta tushumlarining 55 foizidan ortig‘ini ta‘minlaydigan muhim eksport manbalaridan biri hisoblanadi. Bu masalaning iqtisodiy jihati xizmatlar sohasi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda xizmatlar sohasi samaradorligini oshirishning metodologik muammolarining ayrim nazariy va uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar – K.R.Makkonnell, S.L.Bryu,

F.Kotler, P.Samuelson, A.Xosking tomonidan izlanishlar olib borilgan va o‘rganilgan. Ushbu sohaning u yoki bu yo‘nalishlariga oid tadqiqotlarni Hamdo‘stlik mamlakatlari olimlari – L.I.Abalkin, I.N.Buzdalov, I.Y.Petrenko, P.I.Chujinov va boshqalarning asarlarida ham uchratish mumkin. Aynan shu soha bilan bog‘liq masalalar mamlakatimizning yetuk iqtisodchi A.K.Ismoilov, A.M.Jo‘rayev, P.R.Po‘latov, M.T.Rizayev, N.Tuxliyev, S.N.Usmonov, A.S.Samutali, Q.A.Choriyev, Q.A.Xasanjonov, R.H.Husanov, F.Q.Qayumov, A.A.Shokirov va boshqa olimlar tomonidan ham ilmiy asar va maqolalarida samarali izlanishlar olib borilgan va chuqur o‘rganilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, "Sanoat, qishloq xo‘jaligi, kapital qurilish, transport–kommunikatsiya, servis va xizmat ko‘rsatish sohaslarida salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritildi" shu boisdan barcha turli tashkilotlarda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish qolaversa, qishloq xo‘jaligida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash lozim. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining mutanosibligi va barqarorligini ta‘minlashda xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirish natijasida, mamlakatda qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi hamda aholining turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Xizmatlar sohasi aslida korxonalar, tashkilotlar hamda jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan jamlanma soha hisoblanadi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida xizmatlar sohasi juda katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Qishloq xo‘jaligi - bu inson hayoti uchun zarur bo‘lgan muhim tarmoq hisoblanadi. Chunki qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi qishloq joylarida istiqomat qiladigan aholi uchun turmush sharoitini yaxshilashni ta‘minlaydigan daromadlar manbai va tabiiy resurslarni boshqarishning asosi bo‘lib, qishloq turmush tarzini saqlab turishga o‘zining munosib hissasini qo‘shadi. Shuning uchun ham Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini yuksaltirish va aholi turmush darajasini oshirishda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ahamiyati katta. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyotga asoslanib, zamonaviy texnik – texnologiyalar va turli xildagi maishiy xizmatlar sohasidagi bir qancha muammolarni hal etish muhim masaladir.

Qishloq xo‘jaligi sharoitida iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining o‘rni juda katta va o‘z ahamiyatga egadir. Chunki ishlab chiqarishning murakkablashuvi, bozorni kunlik va shaxsiy talabdan kelib chiqqan holda tovarlar bilan to‘ldirish, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o‘sishi bilan bog‘liqdir. Bularning barchasini axborot, moliyaviy, transport, konsalting va boshqa xizmat turlarisiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

Bizga ma‘lumki, hozirgi vaqtda har birimiz deyarli har kuni xizmat ko‘rsatish sohasi bilan yuzlanamiz. Demak xizmatlar sohasini jadal rivojlantirmasdan turib, respublikamizning iqtisodiy taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun 2017–2021 yillarda O‘zbekiston

Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida bu masala ham alohida nazarda tutilgan.

Dastur doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlar esa ushbu sektorda biznes yuritish shart-sharoitlarini yanada qulaylashtirishga qaratilgan.

Xizmat ko‘rsatish sohasining yuqori darajada o‘rishini bir qator omillar ta‘hiri bilan izohlash mumkin, jumladan: mamlakatimizda zamonaviy yangi turdagi xizmatlarning paydo bo‘lishi ya‘ni bugungi kundagi raqamli iqtisodiyotdan foydalangan holda, kredit kartalari orqali uyali aloqa, internet, savdo, ko‘ngilochar markazlar, umumiy ovqatlanish joylari, go‘zallik salonlari, konsalting xizmati, tibbiy va o‘quv markazlari xizmatlaridan, turli transport vositalaridan foydalanib, elektron (onlayn ilova orqali) to‘lov xizmat turidan foydalanib kelmoqdamiz. Bu barcha xizmat turlari xizmatlar sohasi tushunchasini tashkil etadi. Xizmatlar sohasi insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida paydo bo‘lib, jamiyatning davlat tashkilotlari tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilishi kabi xizmat turlarini o‘z ichiga olgan.

1-jadval

Iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi *
(mlrd.so‘m hisobida)

Ko‘rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.
Xizmatlar – jami	97 050,0	118 811,0	150 889,8	193 697,8
Shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:				
axborot va aloqa sohasidagi xizmatlari	6 306,8	8 196,7	10 332,6	10 891,7
moliya xizmatlari	9 898,4	15 023,8	21 296,3	34 036,6
transport xizmatlari	30 617,8	36 217,2	44 159,4	54 473,5
shu jumladan: avtotrasport xizmati	19 216,7	20 232,9	21 786,8	25 527,5
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	3 038,7	3 649,6	4 673,3	5 933,6
savdo xizmatlari	27 368,2	32 006,9	39 743,4	48 748,2
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	3 405,1	4 026,5	4 949,2	5 950,7
ta‘lim sohasidagi xizmatlar	3 263,0	4 402,0	5 416,5	7 164,9
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 416,3	1 701,5	2 220,0	3 104,3
ijara va lizing bo‘yicha xizmatlar	2 270,1	2 589,2	3 297,4	3 733,5
kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	2 187,8	2 329,2	2 630,7	3 200,1
shaxsiy xizmatlar	2 915,5	3 134,4	3 700,6	4 575,6
me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1 132,6	1 611,7	2 953,6	4 543,1
boshqa xizmatlar	3 229,7	3 922,3	5 516,8	7 342,0

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi ma‘lumotlari

1-jadval ma‘lumotlaridan shuni ko‘rishimiz mumkinki, iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan jami xizmatlar hajmi 2017 yilda 97 050,0 mlrd.so‘m, 2018 yilda 118 811,0 mlrd.so‘m, 2019 yilda 150 889,8 ni tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilga kelib 193 697,8 mlrd.so‘m ga o‘sgan. mamlakatimizda transport (54 473,5 mlrd.so‘m) va savdo (48 748,2 mlrd.so‘m)

sohasida ko'rsatilgan xizmatlar eng yuqori ulushga ega. Eng past ulush esa sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (3 104,3 mlrd.so'm). Lekin 2020 yilda 2019 yilga nisbatan eng yuqori o'sishga erishgan xizmat turi sifatida moliya sohasida ko'rsatilgan xizmatlarni ko'rsatish mumkin (34 036,6 mlrd.so'm). Shu bilan bir qatorda eng past o'sish sur'ati savdo sohasida ko'rsatilgan xizmatlarda kuzatilgan (48 748,2 mlrd.so'm).

Xizmatlar ko'rsatish sohasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish va samaradorligi o'sishining muhim omili hisoblanadi. Xom-ashyo, material va tayyor mahsulotning o'z vaqtida va meyorida yetkazib berilishi, tezkorligi xo'jalik aylanmasida bo'lgan resurs hajmini belgilaydi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish hamda eksportni kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Kam ta'minlangan aholi qatlami va vaqtinchalik band bo'lmagan fuqarolarni ish bilan ta'minlashga va qo'shimcha daromad manbaini oshirishga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlabgina qolmay, ularning narxini pasaytirishda ham muhim omil bo'ladi.

Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar obyektlarining joylashganligi (asosan tuman markazlarida), qo'llaniladigan texnologiyalar, xizmat ko'rsatish tariflarining yuqoriligi, monopol xolati va boshqa sabablar natijasida fermerlar ularning xizmatidan to'liq foydalanmasliklariga sabab bo'lmoqda.

Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, bugungi kunda bozor iqtisodiyoti talab, taklif, raqobat va baho asosida xarakterga kelmoqda. Shuning uchun qishloq xo'jaligida ham dexqon va fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning tashkil topishi va joylashishi dexqon va fermer xo'jaliklarining talabi va taklifi asosida tashkil topadi. Hozirda mamlakatimizning ko'pgina tumanlarida dexqon va fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar ularning talablaridan kelib chiqib emas, balki aksincha yoki kerakli xududda joylashmagan yoki uzoqda joylashgan bo'lib, bu xolat dexqon va fermer xo'jaliklari bilan ularga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyati o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy, tashkiliy va xuquqiy munosabatlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Agar xududlarda xizmat ko'rsatish korxonalari talab va taklif asosida tashkil etilsa, ular o'rtasida raqobat shakllanadi va o'z-o'zidan ularning sifati va xizmat narxini arzonlashishiga erishish mumkin. Bu esa, dexqon va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish imkoniyatini beradi.

RAQAMLI IQTISODIYOTDA AGROSANOAT KLASTERLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

O.K. Xudayberdieva

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
"Iqtisodiyot" kafedrasida ass.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, globallashtirish sharoitida texnologiyalar jadal rivojlanayotgan va axborot roli o'zgargan bo'lsa, mamlakat uchun ham, muayyan mintaqalar uchun ham rivojlanishning muhim sharti ichki va tashqi bozor sharoitidagi o'zgarishlarga tezkor va samarali javob beradi. Bu borada viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish sifatini boshqarish muammolariga qiziqish sezilarli darajada ortmoqda. Hududlarning moddiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishning yengilroq yo'llarini izlab topish hamda ularda uzoq muddatga barqaror iqtisodiy o'sish uchun sharoit yaratish zarurligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu masalalarni muvaffaqiyatli hal yetish, shuningdek, iqtisodiyot faoliyatining muhim yo'nalishi, shu jumladan agrosanoat majmuasi (ASM) tarmoqlari iqtisodiy ishlab chiqarish klasterlaridir. Ular raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholining zarur ehtiyojlarini qondirishga ko'maklashadi. Hozirgi vaqtda odamlarning dolzarb ehtiyojlaridan biri, masalan, yekologik toza va yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojdir. Ushbu tadqiqot mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarining global raqobatbardoshligiga e'tibor qaratish uchun raqamli iqtisodiyot doirasida agrosanoat klasterlarini rivojlantirish yo'lini shakllantirishga qaratilgan.

Ushbu maqolaning maqsadi raqamli iqtisodiyotda agrosanoat klasterlarining shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlarini o'rganishdir.

Tadqiqot agrosanoat klasterlarini raqamli iqtisodiyot tamoyillariga muvofiq boshqarish metodologiyasini ishlab chiqish zarurligini asoslab beradi.

Tadqiqot gipotezasi agrosanoat klasterlari tizimiga raqamli iqtisodiyot vositalarini joriy yetish agrosanoat majmuasi samaradorligini oshirish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlashga yordam beradigan maxsus axborot tarmog'i makonini shakllantirishga imkon beradi, degan taxmin yedi.

Maqolada keltirilgan materialning yangiligi agrosanoat klasterida umumiy raqamli transformatsiya zarurligini nazariy va uslubiy jihatdan asoslash bo'lib, uning ishtirokchilari o'rtasida yangi munosabatlar madaniyatini, yuqori texnologiyalarga asoslangan ish uslubini shakllantiradi va yuqori darajadagi raqobatbardoshlikka yerishadi.

Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi sharoitida klasterlar agrosanoat majmuasini rivojlantirishning asosiy institutsional mexanizmi hisoblanadi. "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasi "Raqamli O'zbekiston-2030" uchun axborot hamjamiyatini rivojlantirish strategiyasida mustahkamlangan. Iqtisodiyot tarmoqlarining samaradorligini va shunga mos ravishda mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish vazifasi qo'yildi.

To'rtinchi sanoat inqilobi inson, tabiat va texnologik yechimlar o'rtasidagi chegaralarning "loyqalanishiga" olib keldi. Raqamli texnologiyalar hozirgi zamon dunyosida iqtisodiyotning barcha sohalarining ajralmas qismiga aylangan. Bundan tashqari, iqtisodiyotning bunday sohalarida yuqori texnologiyali loyihalar faol amalga oshirila boshlandi, unda yaqin-yaqingacha katta ma'naviy-texnik kechikish va kichik texnik salohiyat mavjud yedi. Yekspert salohiyati yuqori bo'lgan Uzbekiston uchun bunday strategik sanoat qishloq xo'jaligidir.




2020 yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 180,1 trln so'mni yoki 2019 yilning mos davriga nisbatan 103,4 foizni tashkil qildi. Jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar - 174,8 trln so'mni, o'rmon xo'jaligi - 4,5 trln so'mni, baliqchilik xo'jaligi - 0,8 trln so'mni tashkil qildi.

YaIM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 25,7 foizni tashkil yetdi.

Yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 97,1 foizi - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 2,5 foizi - o'rmon xo'jaligi, 0,4% foizi - baliq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi

Respublikaning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Samarqand viloyatining ulushi 12,9 foizni tashkil yetdi va hududlar bo'yicha yuqoriligicha qolmoqda, Toshkent va Andijon viloyatlari bir xil (10,1%) ulush bilan keyingi o'rinlarni yegallashdi. Yeng kam ulush yesa Sirdaryo viloyati (3,4%), Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,5%) va Navoiy viloyatida (4,6%) qayd etildi.



Ushbu davr mobaynida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 174 trln so'mni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 84,3 trln so'mni, chorvachilik mahsulotlari - 89,7 trln so'mni tashkil qildi.



48,4 %

Dehqonchilik mahsulotlari



51,6 %

Chorvachilik mahsulotlari

Foto: Statistika qo'mitasi

Xo'jalik toifalari bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 72,3 foizi - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 24,7 foizi - fermer xo'jaliklariga, 3 foizi - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Barcha hududlarda yeng yuqori ko'rsatkichlar dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatilyapti.



24,7%

**Fermer
xo'jaliklari**



72,3%

**Dehqon
(shaxsiy yordamchi)
xo'jaliklari**



3,0%

**Qishloq xo'jaligi
faoliyatini amalga
oshiruvchi tashkilotlar**

Foto: Statistika qo'mitasi

Bu yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 84,3 trln so'mni yoki 2019 yilning mos davriga nisbatan 104,3 foizni tashkil yetdi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 48,4 foizni tashkil qildi. Yanvar-sentyabr oylarida chorvachilik faoliyatining ko'rsatkichlari:

	Donli ekinlar	Sabzavotlar	Kartoshka	Poliz	Meva va rezavorlar	Uzum
Hajmi (ming t.)	6667,1	7630,4	2432,7	1399,1	2067,7	1275,3
O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi (%)	2,4	2,7	1,6	4,2	3,9	3,2

9 oy davomida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 89,7 trln so'mni yoki 2019 yilning mos davriga nisbatan 102,3 foizni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 51,6 foizga yetdi.

Yanvar-sentyabr oylarida dehqonchilik faoliyatining ko'rsatkichlari:

	Go'sht tirik vaznda	Sut	Tuxum (mln dona)	Baliq	Jun	Qorako'l teri (ming dona)
Hajmi (ming t.)	1839,5	7958,2	5458,7	59,9	30,1	1003,6
O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi (%)	2,2	2,9	0,8	9,8	0,3	0,1

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI RIVOJLANTIRISHNING HARAKATLAR STRATEGIYASI ASOSIDA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING USTUVOR VAZIFALARI

Isomov B.S.

BuxDU, Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti bir necha bosqichlarni bosib o'tdi, shu jumladan makroiqtisodiy barqarorlik bosqichini ham. Iqtisodiy rivojlanish sur'atlari jadalligi, aholini bandligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning o'rni

beqiyosdir. Bundan tashqari mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo'ygan hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu strategiya alohida bosqichlarga bo'linib jamiyat, jumladan iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda hayotga tadbiriq qilinmoqda. Uning har bir bosqichi uchun alohida maqsadli Davlat dasturi ishlab chiqarildi. Harakatlar strategiyasida mamlakatning zamonaviy iqtisodiy rivojlanish darajasi investitsiyaning faolligi sur'atlariga, bu esa investitsion muhitga bog'liq. Investitsion muhit iqtisodiyotimizga xorijiy sarmoyani yanada kengroq jalb etish uchun, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarida, jahon bozorida raqobat qila oladigan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishda xorijiy investorlar yanada faol ishtirok etishi uchun yaratilgan huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarni takomillashtirishni taqozo etadi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonalar, jumladan, qishloq xojaligi sohasidagi subektlar to'la iqtisodiy va huquqiy mustaqillikka ega bo'lganligi uchun asosiy maqsadi o'ziga birlashtirilgan resurslardan to'la va samarali foydalanish bo'lib, shu resurslar birligiga qancha ko'p daromad va foyda olsa, raqobat kurashida shuncha ustunlikka ega bo'ladi. O'sish mamlakatning o'zini-o'zi ta'minlash iqtisodiy strategiyasi, shuningdek davlat tomonidan nazorat qilinadigan rejali iqtisodiyot hisobiga erishilardi.

Har qanday agrar xo'jalik muayyan bir ijtimoiy- iqtisodiy tizimda vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy shartlaridan biri uning samaradorligi darajasi bilan belgilanadi. Samarali xo'jalik yuritish raqobatli bozor muhitida xo'jalikning yashovchanligi va taraqqiyotini belgilab beruvchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan iqtisodiy resurslar (yer, kapital, mehnat va boshqalar) cheklangan xarakterga ega bo'lib, bu holat ulardan imkoni boricha unumli, samarali foydalanishni talab etadi. O'zbekistonda islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsion jarayon, davlatning investitsion siyosati, uning ustuvor yo'nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsion faolligiga bog'liq.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotning liberallashtirish investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun YETTBning mahalliy rasmiylar bilan muvofiqlashtirilgan islohotlar yo'nalishlari tarkibiga moliyaviy institutlarning kreditlash imkoniyatlarini kuchaytirish ham ko'zda tutilgan.

Bunda inflyatsiyaning past va barqaror ko'rsatkichlari muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish raqobatbardoshligi va aholini yashash darajasini oshirishning muhim omili sanaladi. Shu nuqtai nazardan, narxlar o'sish sur'atlarining pasayishi va barqarorlashishi davlat investitsiya va iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi kerak.

"Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish" deb nomlangan yo'nalishda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish ifodalangan. Mazkur yo'nalishda eksportga mo'ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini takomillashtirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish muhim chora-tadbir sifatida ko'rsatilgan.

Mamlakatda ichki narxlar barqarorligi ta'minlanishi makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning kafolati bo'lib, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va rivojlantirish dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda zaruriy sharoit hisoblanadi. Shuning uchun harakatlar strategiyasida barcha investorlar va iqtisodiy sub'ektlar uchun qulay investitsion muhit yaratishga alohida e'tibor berilgan.

Yuqorida nombar qilingan chora-tadbirlar asosida quyidagi asosiy vazifalarni ajratish mumkin:

- iqtisodiyotni yanada rivojlantirish;
- liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash;
- yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish;
- milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish;
- qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va rivojlantirish;
- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish;
- xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish;
- hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish;
- investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish.

Albatta, iqtisodiyotni harakatlar strategiyasi rivojlantirish sharoitida investitsiya faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, ya'ni iqtisodiyotning rivojlanishi va iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan mamlakatdagi investitsion jarayonlarga bog'liq. Mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga erishish uchun investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, yangi O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr davrini ifodalovchi milliy dasturamal sifatida namoyon bo'lmoqda. Unda iqtisodiyotni rivojlantirish, shu jumladan investitsiyalarni jalb qilishning asosiy ustuvor yo'nalaishlari aks ettirilgan.

ҚОРАМОЛЧИЛИК МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИ
Балташев Журсинбай Муратбаевич
Қорақалпоқ Давлат Университети
«Иқтисодиёт» кафедраси таянч докторанти

Бугунги кунда қорамолчилик тармоғи ривожланишида бир қатор муам-молар мавжуд. Булар, йирик чорвачилик фермаларида чорва бош сонининг камлиги, чорва бош сони билан унга озуқа етиштиришдаги камчилик ва но-мутаносибликлар, тармоқнинг илмий-техник ривожланиш ва замонавий тех-ника воситалари билан таъминланишдан орқада қолиши, тармоқда ишлаб чи-қарилган маҳсулотлар ҳамда АСМнинг бошқа тармоқларидаги товарлар нархлари ўртасидаги тафовутлар ва бошқалар. Шунинг учун ҳам, бизнинг фикримизча, қорамолчиликни самарали ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш жараёнида истиқболда қуйидаги муаммоларни бартараф этишга устувор аҳамият қаратиш керак:

«Самарадорлик» умумлаштирувчи универсал тушунча бўлиб, биринчидан, ҳаракат ёки ишнинг натижавийлиги, иккинчидан, ушбу ҳаракатни ёки ишни бажариш якунида олинган натижани унга эришиш учун сарфланган харажатга нисбатан ўзгариш даражасини ифодалайди. Таъкидлаш лозимки, фақат натижавийлик самарадорликни ҳар томонлама характерлаш имконини бермайди, чунки эришилган натижа салбий бўлиши ҳам мумкин. Шунинг учун самарадорликка фақатгина, юқорида қайд этилганидек, иш ва ҳаракат натижаси ва харажати ўртасидаги фарқнинг ижобий ёки салбий миқдори (массаси)ни акс эттирувчи у ёки бу кўрсаткич ёрдамида баҳо бериш лозим.

Қишлоқ хўжалиги корхоналари фаолиятининг иқтисодий самарадорлиги деганда биринчи навбатда хўжалик юритувчи субъектлар томонидан олинаётган ижобий иқтисодий натижалар тушунилмоғи керак. Лекин, бу ерда даставвал «иқтисодий самарадорлик» ва «самарадорлик» тушунчалари ўртасидаги фарқли жиҳатларни ажратиб олиш муҳим ҳисобланади. Бизнинг фикримизча, «самарадорлик» «иқтисодий самарадорлик» тушунчасига нисбатан кенгроқ маъно ва таркибий тузилишга эга. Яъни, у

нафақат “иқтисодий самарадорлик”ни, балки маҳсулот(хизмат) ишлаб чиқариш жараёнида унинг пировард натижаларига таъсир кўрсатувчи барча омиллар, ресурслар, чора-тадбирлар самарадорлигини ҳам назарда тутати. Иқтисодий самардорлик эса ишлаб чиқариш воситалари ва жонли меҳнатни қўллашдан олинган пировард самарани, сарфланган жами маблағлар қайтишида кўрилади, яъни барча харажатлар билан олинган натижалар ўртасидаги фарқдан иборат бўлади.

Шунингдек, самарадорлик ва самара категорияларининг алоҳидалик ва ўзаро боғлиқлик тамойилларини ҳисобга олиш лозим бўлиб, бу ўз навбатида уларни ифодаловчи кўрсаткичларни ўзаро фарқлаш имкониятини беради. Маълумки, самарани аниқлашда мутлоқ кўрсаткичлар тизими, самарадорликни аниқлашда эса нисбий кўрсаткичлар тизими асос бўлиб хизмат қилади. Жумладан, самарани ишлаб чиқариш жараёнида амалга оширила-диган у ёки бу чора-тадбирлар натижаси, оқибати сифатида ҳам талқин қилиш мумкин. Масалан, “чорва моллари озукаси сифатини яхшилашдан олинган самара бир сигирдан соғиб олинган сутнинг ёки кўшимча вазнининг ортишидир” [1].

Иқтисодиётда иқтисодий самарадорлик билан иқтисодий ўсишни адаш-тириб юбормаслик керак, чунки иқтисодий ўсиш ишлаб чиқариш ва ишлаб чиқариш ресурслари ҳажмини ошириш тушунилади. Яъни, кенгроқ маънода иқтисодий ўсиш ижтимоий маҳсулот, миллий даромад ва инвестициялар ҳажмининг, меҳнат унумдорлиги даражаси, аҳоли даромадлари ва бошқаларнинг ўсишида ўз ифодасини топади.

Самарадорлик мезони хусусида ҳам ягона фикр мавжуд эмас. Масалан, аксарият иқтисодчи олимларнинг таъкидлашича, иқтисодий самарадорликни аниқлашда қайсидир битта мезондан эмас, балки мезон ва кўрсаткичлар тизимидан фойдаланиш зарур. Олиб борган таҳлилларимизга асосан, улар томонидан тақлиф этилган қуйидаги мезон ва кўрсаткичларни, яъни ишлаб чиқариш самарадорлиги мезонларига ялпи ички маҳсулотнинг харажатларга нисбати, миллий даромаднинг харажатларга нисбати, якуний маҳсулотнинг харажатларга нисбати, истеъмол фондининг харажатларга нисбати, миллий бойликнинг харажатларга нисбати, иш ҳақининг зарурий маҳсулотларга нисбати, ялпи ички маҳсулотнинг ишлаб чиқариш ресурсларига нисбати, миллий даромаднинг ресурсларга нисбати, якуний маҳсулотнинг ресурсларга нисбатини келтириб ўтиш мумкин. Бу ерда эътиборга молик жиҳати шундаки, иқтисодий самарадорликнинг асосий мезонларини аниқлашда иккита оқим мажуд бўлиб, уларнинг биринчиси “харажат”лар, иккинчиси эса “ресурс”лар концепсиясига мос келади.

А.Ўлмасов, А.Вахобовлар “самарадорлик ресурслар сарфлари билан ишлаб чиқаришдан олинган натижанинг таққосланишини билдиради, яъни бу нима сарфлаб нимага эришилганини кўрсатади” деб таъриф беришган ва уни қуйидаги формула ёрдамида ҳисоблашни тақлиф қилишган [2].

$$S = \frac{Mq}{Rs} (1)$$

Бу ерда, **S** –самарадорлик; **Mq** –маҳсулот ва хизматлар қиймати; **Rs** – ресурслар сарфи.

А. Бурхоновнинг таъкидлашича, “иқтисодий самарадорлик ишлаб чиқаришнинг барча жараёнларини ўз ичига олиб, инсонларнинг ишлаб чиқариш натижаларини ўзида акс эттиради ва соф даромад кўринишида шаклланиб, ишлаб чиқаришни кенгайтириш, ишчиларнинг моддий фаровонлигини ошириш, жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши учун молиявий асос бўлиб хизмат қилади”[3].

И.И. Сигов эса маҳсулот ишлаб чиқаришни кўпайтириш, меҳнат унумдорлигини ошириш, материаллар, энергия, ёқилғи сарфини камайтириш ва маҳсулот сифатини ошириш бу фан-техника тараққиёти иқтисодий самара-дорлигининг кўрсаткичидир деб ҳисоблайди ва уни аниқлаш учун

$$E = \frac{3}{3} (2)$$

формуласини таклиф қилади. Бунда: самарадорлик (Е) самара(Э)нинг сарфлар(З) га нисбатини ифодалайди.

Юқоридаги талабларни ҳисобга олган ҳолда шуни таъкидлаш лозимки, бизнингча, чорвачилик хўжаликлариди молларнинг зотдорлигини яхшилаб бориш, ҳар бир ҳудуд шароитига мос насли моллар гуруҳини шакллан-тириш ва кўпайтириш, ем-хашак таъминотини мустаҳкамлаш ва зооветери-нария хизмати тизимини ривожлантиришни ўз ичига олган ташкилий омил-лар; чорва маҳсулотларини ишлаб чиқариш, тайёрлаш, қайта ишлаш ва сотиш тизимидаги мавжуд ўзаро ишлаб чиқариш-шартномавий-молиявий муносабатлардан иборат иқтисодий ва ҳуқуқий омиллар; ер-сув ресурслари шўрланиш даражасининг кучайиши натижасида озуқа экинларининг таркиби ва сифати ёмонлашгани оқибатида юзага келаётган экологик омиллар; ишлаб чиқаришни механизациялаштириш ва қўл меҳнатини камайитириш ҳисобига соҳани интенсив ривожлантиришни ўз ичига олган техник-технологик тад-бирларнинг амалиётга етарли даражада қўлланилмаслиги; аҳолини тоза ичимлик суви, табиий газ, электр энергия ва бошқа йўналишлардаги истеъмол тизимини ўз ичига олган ижтимоий омиллардан тўлиқ фойда-ланмаслик, чорва молларини табиий ем-хашак билан таъминлашнинг кескин ёмонлашиб бораётганлиги каби долзарб масалалар юзага чиқмоқда.

Қорамолчиликни ривожлантиришда ташкилий – иқтисодий омиллар ҳам ўзига хос ўрин тутди. Чунки, ислоҳотлар аграр тармоқда иқтисодий шароит-ларнинг ўзгаришига олиб келади, бу эса шу шароитларга мос бошқаришнинг устувор йўналишларини амалга оширувчи ташкилий – иқтисодий омилларни яратишни ва улардан инновациялар асосида фойдаланишни тақозо қилади. Бу омиллар соҳа самарадорлигини оширишга тўғридан-тўғри бевосита таъ-сир этади. Бундан ташқари, чорвачилик тармоғи, шу жумладан қорамолчилик соҳасининг ривожланишига таъсир этадиган омилларни янада кенгроқ таҳ-лил қилиш зарурати туғилган ҳолларда, бизнингча улар таркибига, жумла-дан, чорва молларини даврий вакцинация ва диагностика қилиш тадбирлари-нинг самарали ташкил этилиш, табиий ва бошқа турли офатлардан суғурталан-ганлик даражаси, маҳсулот ишлаб чиқариш ва қайта ишлаш технология-ларини инновацион такомиллаштириш каби чора-тадбирларни киритиш лозим.

Қайд этилган омиллар ва чора-тадбирларни оқилона амалга ошириш ўз навбатида нафақат қорамолчилик маҳсулотларига бўлган талаб ва таклифни мувозанатлаштиришга, балки ҳаттоки чуқур ихтисослашган чорвачилик хўжалик юритиш субъектлари (тармоқлари) фаолиятини диверсификациялаш асосида тегишли бозор сигментларида мустаҳкам ўрин эгаллашларига кенг имкониятлар яратади. Бинобарин, бозор шароитида ихтисослаштириш дара-жасини белгиловчи шароит ва омилларнинг биронтасини эътиборга олмаслик самарали хўжалик юритишга имкон бермайди. Масалан, хўжаликнинг жой-лашиши билан боғлиқ табиий-иқлим омилларни инкор қилган тарзда респуб-ликамининг узок чўл минтақаларида сут йўналишидаги чорвачиликни ривожлантириб бўлмайди. Чунки, тез бузилувчи ва узок вақт сақлаб туриш мумкин бўлмаган сутни ўз вақтида истеъмолчиларга етказиб бериш имко-нияти бўлмайди, қолаверса тармоқни бундай самарасиз жойлаштириш барча харажатлар, жумладан транспорт харажатларининг кескин ошиб кетишига сабаб бўлади. Ёки бўлмаса, табиий ем-хашак ва сув ресурслари йўқ минтақаларда қўйчиликни ривожлантириб бўлмайди ва ҳ.к..

Бозор рақобатлари кучаяётган ҳозирги ва кейинги даврларда қорамол-чилик тармоғини ривожлантириш ва самарали ташкил этишда технологик омилларга алоҳида эътибор қаратиш шарт. Қорамолчилик маҳсулотлари етиштиришни кўпайтириш, моллар маҳсулдорлигини ошириш кўп жиҳатдан молларни парваришлаш технологиясининг энг муҳим ва ҳал қилувчи элементи ҳисобланган омихта ем билан таъминлашга боғлиқ. Шунинг учун ҳам, бизнинг фикримизча, вилоятларда хорижий сармоядорлар иштирокида чорва молларини етарли, меъёр даражасида омихта емлар билан таъминлайдиган қувватга эга заводлар қуриш мақсадга мувофиқ.

Маълумки, бозор муносабатлари шароитида маҳсулот ишлаб чиқариш, унинг турлари ва ҳажми бозордаги талаб ва таклифдан келиб чиққан ҳолда шаклланади. Шу нуқтаи назардан, маркетинг фаолиятини ривожлантириш қорамолчилик маҳсулотларини истеъмолчилар талабларига мос миқдор ва сифатда ишлаб чиқаришда муҳим ташкилий омиллардан бири сифатида қара-лиши ва амалга оширилиши лозим ҳисобланади. Қорамолчиликда маркетинг-ни ташкил қилиш бозордаги нарх-наво, маҳсулот тури ва истеъмолчиларнинг мақсад ва истаклари тўғрисидаги маълумотларни йиғиш, тайёр озик-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи қайта ишлаш корхоналарининг хом-ашёга бўлган талабини ўрганиш, маҳсулот стратегиясини ишлаб чиқиш, яъни маҳ-сулот турларини кўпайтириш, ишлаб чиқариш жараёнларига инновацияларни жорий қилиш, маҳсулот сотишни режалаштириш, башорат қилиш ва бошқа истеъмол бозори билан боғлиқ жараёнларни ўрганишга қаратилиши лозим. [4]

Тадқиқотларимизнинг кўрсатишича, ҳозирги пайтда чорвачилик маҳсу-лотларини қайта ишловчи корхоналарнинг чуқур ихтисослашган ва техник-муҳандислик соҳаларига боғлиқ малакали мутахассис ва ишчи ходимлар билан етарли даражада таъминланмаганлиги ҳам тармоқни ривожлантириш ва самара-дорлигини оширишдаги асосий муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Шу боисдан ҳам, улар лойиҳаларни амалга оширишда, сармоя киритишдан олдинги эксперт-тадқиқот ишларини олиб боришда ёки ишлаб чиқаришни бошқариш масалалари юзасидан консалтинг ўтказишда, маркетинг, лойиҳалаш ва қуриш, лаборатория синовлари, ҳисоб-китоб, банк хизмати, ҳуқуқий, техникавий хизматни назорат этишда информатика ва компьютер дастури, телекоммуникация борасидаги маълумотларни бошқариш билан боғлиқ қийинчиликларни бошдан кечиришмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. А.А.Абдуғаниев, М.А.Абдуғаниев Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти.- Олий ўқув юртлари учун дарслик. ТДИУ, 2005 й. 58 б.
2. А.Ўлмасов, А.Вахобов. Иқтисодиёт назарияси. Т.: “Иқтисод ва молия”, 2014. – 424 бет
3. А.Бурхонов. Турли мулкчилик шаклидаги қишлоқ хўжалик корхоналарида ишлаб чиқариш иқтисодий самарадорлигини ошириш. и.ф.н. дисс. автореферати.- 2000 й.
4. И.И.Сигов. Ишлаб чиқариш экономикаси ва уни бошқариш асослари. -Т.: “Ўзбекистон”, 1974. -360 б.

ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ ХАРАЖАТЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ БОШҚАРИШДА ТЕЖАМКОРЛИК РЕЖИМИНИГА АМАЛ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ

Ш.Ш.Болтаев

БухдУ мустақил изланувчиси

Бугунги кунда барча жабҳаларда тежамкорлик масаласи мамлакатимизнинг иқтисодий-ижтимоий ҳаётида асосий устувор вазифалар- дан бири сифатида баҳоланмоқда. Зеро, тежамкорлик бўлмаган жойда кўзда тутилган самарадорликка ҳам, харажатларни оптимал бошқаришга ҳам, пировардида аҳолининг фаровонлигини оширишга ҳам эришиб бўлмайди. Тежамкорлик масаласи хизмат кўрсатиш соҳасида алоҳида аҳамиятга эга, чунки дунё миқёсида ЯИМда хизмат кўрсатиш соҳасининг улуши ўртача 70,0 % ни ташкил қилиб, жаҳон иқтисодиётининг асосий экспорт қилувчи соҳасига айланиб бормоқда. Хизмат кўрсатиш соҳаси меҳнатга қобилиятли аҳолининг 60,0 %дан ортиғини иш билан таъминлаб келмоқда¹. Шундай қилиб, дунё мамлакатлари иқтисодиётида, айниқса ривожланган мамлакатларда хизмат кўрсатиш соҳаси етакчи тармоқлардан бири бўлиб ҳисобланади. Шу туфайли инновацион иқтисодиёт шароитида хизмат кўрсатиш соҳасида моддий ва меҳнат ресурслари тежамкорлиги ҳамда самарадорлигини ошириш, шунингдек, унинг истиқболли йўналишларини белгилаб

олишга алоҳида аҳамият берилмоқда. Зеро, бизда ҳам хизмат кўрсатиш соҳасининг иқтисодиётдаги улуши келажакда ошиб бориши тайин.

Кўрсатилган хизматлар ҳажми мамлакатимизда 2010 йилда 27126,8 млрд.сўмни ташкил қилган бўлса, 2018 йилда бу кўрсаткич қарийиб 5,6 баробарга ошиб 150889,8 млрд.сўмни ташкил қилди. Ўзбекистон Республикаси бўйича хизмат кўрсатиш ҳажми аҳоли жон бошига 2010 йилда 949,7 минг сўмдан, 2018 йилга бу кўрсаткич қарийиб беш баробар ошиб 4578,5 минг сўмни ташкил қилган. Худди шундай ҳолат мамлакатимизнинг барча ҳудудларида ҳам рўй берган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28-декабрдаги ва 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга қилган Мурожаатномасида ҳам мамлакатимизда инновацион иқтисоднинг ривожланиши, тежамкорлик тамойилига амал қилиш бўйича бир қанча вазифаларни белгилаб берди. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрда “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-5544-сонли Фармони, 2018 йил 3 июлдаги “Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3832-сон қарори, 2018 йил 21 ноябрда “Рақамли иқтисодиётни ривожлантириш мақсадида рақамли инфратузилмани янада модернизация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4022-сонли қарори, 2018 йил 13 декабрда “Ўзбекистон Республикаси давлат бошқарувида рақамли иқтисодиёт, электрон ҳукумат ҳамда ахборот тизимларини жорий этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармонларини эълон қилинди. Мазкур фармонлар, қарорлар ва улар юзасидан қабул қилинган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар хизмат кўрсатиш соҳасини инновацион ривожлантиришда ва тежамкорлик асосида самарадорлигини оширишда мамлакатимизда ўта долзарб масалалардан бирига айланган. Шу жиҳатдан мазкур мақола долзарб масалаларнинг ечимларига бағишланган, деб баҳолаш мумкин.

Иқтисодиётни самарали ривожлантириш ва унинг тежамкорлигини такомиллаштиришга қаратилган илмий-назарий ва услубий тадқиқотлар билан жаҳон олимлари, МДХ ва мамлакатимиз олимлари ҳам шуғулланиб келмоқдалар. Хорижий олимлардан Г.А.Аванесева, А.Я.Басс, А.Б.Балаева, В.Э.Гордин, В.В.Павлинко, И.А.Скрынникова, С.Н.Диянова, М.А.Морозов, Т.А.Бурменк, Л.Демидово, Е.Н.Валединская, Ж.А.Раманович, кабларнинг ишларида тадқиқ қилинган. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва ушбу соҳани иқтисодиётни модернизациялаш, диверсификувциялаш ва инновацион ривожлантириш шароитидаги муаммолар билан А.В.Вахобов, М.Э.Пўлатов, К.Б.Ўразов, Ш.Х.Ҳажигакиев, Н.Х.Жумаев, М.С.Қосимова, А.Н.Самадов, Б.Рўзметов, О.Муртазаев, Б.А.Абдукаримов, М.Қ.Пардаев, М.М.Мухаммедов, Ж.Р.Зайналов, И.С.Тухлиев, Б.И.Исроилов, А.Х.Пардаев, А.С.Солиев, Р.Х.Эргашев, Б.Наврўз-зода, М.Т.Алимова, Қ.Ж.Мирзаев, О.М.Пардаев, Д.А.Таджибаева, Р.Ж.Қурбонова каби ² мамлакатимиз иқтисодчи олимлари илмий ишларида ёритиб берилган. Аммо, ушбу муаллифлар ишларида хизмат кўрсатиш соҳасини инновацион ривожлантиришда алоҳида тежамкорликка амал қилиш масалалари атрофлича ўрганилмаган. Ушбу ҳолат мазкур тадқиқотнинг долзарблигини ифодалаш билан бирга, унинг мақсади ва вазифаларини аниқлаш имконини ҳам беради.

Инновацион иқтисодиёт шароитида корхонада хом ашё ва материаллар билан боғлиқ харажатлар самарадорлигини бошқаришда бугунги кун талабидан келиб чиқиб, тегишли тавсияларни ишлаб чиқиш жараёнида методологик асос сифатида мантикий таҳлил, сабаб ва оқибат, анализ ва синтез, индукция ва дедукция усулларидан фойдаланилган. Шунингдек ишдаги асосий масалалар ва уларнинг йўналишлари амалий маълумотларни қўллаган ҳолда мантикий таҳлил усулларини қўлаб тегишли бошқарув қарорларини қабул қилиш йўллари ёритилган.

Асосий воситаларни, яъни техника ва технологияларни самарали ишлатиш билан боғлиқ харажатлар тежамкорлигини бошқариш. Ушбу гуруҳ харажатларнинг ҳам тежамкорлигига эришиш учун, уларни ҳам оқилона бошқаришни тақозо қилади. Бунинг

учун бир канча кўрсаткичлардан фойдаланиш лозим бўлади. Буларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

-асосий воситалардан фойдаланиш коэффиценти;

-асосий воситалар самарадорлиги, яъни минг сўм асосий воситалар қийматига тўғри келадиган сотилган маҳсулот ҳажми;

-асосий воситаларнинг яроқлилиқ коэффицент.

Асосий воситалардан фойдаланиш билан боғлиқ харажатларни бошқариш учун юқорида келтирилган ҳар бир кўрсаткич таҳлил қилиб, уларнинг ҳолатига тегишли хулосаларни бериш лозим бўлади. Асосий воситалардан фойдаланиш коэффицентини (Кавф) аниқлаш учун корхонада қанча асосий воситалар мавжуд бўлса, уларнинг умумий қиймати олинади (Ав) ва уни бевосита ишлаб чиқаришда қанчаси фойдаланаётганлиги (Авф) билан қиёсланади. Бу кўрсаткич асосий воситаларнинг қанча қисми фаол асосий восита, қанчаси нофоал асосий восита эканлигидан далолат беради. Ушбу кўрсаткични таҳлил қилиш учун унинг миқдори аниқланади. Бунинг учун қуйидаги формуладан фойдаланилади:

$$\text{Кавф} = \frac{\text{Авф}}{\text{Ав}} ;$$

Ушбу кўрсаткич бўйича ҳам биз таҳлил қилган «AFROSIYOV JEANS» МЧЖда 2015-2019 йиллар давомида қуйидаги ҳолат рўй берган. Бунинг учун қуйидаги жадвални тузишни тавсия қиламиз (1-жадвал).

1-жадвал

«AFROSIYOV JEANS» МЧЖда 2015-2019 йилларда асосий воситалардан фойдаланиш коэффицентининг ҳисоб-китоби

Йиллар	Корхонанинг жами асосий воситалари умумий қиймати		Корхонада бевосита ишлаб чиқаришда ишлатилаётган асосий воситалар		Асосий воситалардан фойдаланиш коэффиценти	
	Суммаси, млн.сўм	Ўсиш суръати, %	Суммаси, млн.сўм	Ўсиш суръати, %	Коэффицентди	Ўсиш суръати, %
2015	7955,7	100,0	5969,8	100,0	0,750	100,0
2016	8197,5	103,0	6876,2	115,2	0,839	111,8
2017	9299,7	116,9	7148,6	119,7	0,769	102,5
2018	10589,4	133,1	7649,7	128,1	0,722	96,3
2019	12489,8	157,0	9017,8	151,1	0,722	96,3

Мазкур жадвал маълумотларидан кўришиб турибдики, асосий воситалардан фойдаланиш коэффиценти 2015 йилга нисбатан 2016 йилда 111,8 % га ошган. Аммо 2017 йилдан бошлаб пасайиш тенденциясига эга бўлган ва 2019 йилга келиб, асосий воситаларнинг 96,3 %ни ташкил қилган. Бундан кўришиб турибдики 2015 йилда жами асосий воситаларнинг 75,0 %и бевосита ишлаб чиқаришда иштирок этган бўлса, 2019 йилга келиб, унинг улуши 72,2 %ни ташкил қилган. Бугунги кунда корхоналарда модернизация жараёни давом этмоқда. Бундай шароитда асосий воситаларнинг фойдаланиш коэффиценти ошиб бориши керак. Аммо мазкур ташкилотда 2016 йилда ушбу корхонанинг маъмурий биноси реконструкция қилиниб, бирданига асосий воситаларнинг умумий қиймати ошган бир паллада ишлаб чиқаришдаги асосий воситаларда катта ўзгариш содир этилмаган. Бундан ташқари 2018 йилда хориждан олиб келинган асосий воситалар корхона ҳисобига қилинган, аммо ишлаб чиқаришга ҳали жалб қилиб улгурмаганлиги туфайли асосий воситаларнинг умумий қиймати, ишлатилаётган асосий воситалар қийматига нисбатан тез ўсиш тенденциясини сақлаб қолган.

Мазкур гуруҳга кирувчи яна бир кўрсаткич асосий воситалар самарадорлик коэффицентидир. Ушбу кўрсаткич минг сўм асосий воситалар қийматига тўғри

келадиган сотилган маҳсулот ҳажмини (Кавс) ифодалайди. Умумий тарзда олиб қаралса, мазкур кўрсаткич замирида техника ва технологияларни самарали ишлатиш билан боғлиқ харажатлар тежамкорлиги ётади. Буларни ҳам оқилона бошқариш учун унинг миқдорини таҳлил қилишни тақозо қилади. Ушбу кўрсаткични аниқлаш учун сотилган маҳсулот ҳажмини (См) асосий воситаларнинг ўртача қийматига (Ав) бўлинади. Бунинг учун қуйидаги формуладан фойдаланиш тавсия қилинади:

$$\text{Кавс} = \frac{\text{См}}{\text{Ав}};$$

Ушбу кўрсаткич бўйича харажатларни оптимал бошқаришни ташкил қилиш учун таҳлил қилган корхонада 2015-2019 йиллар давомида қандай ҳолат рўй берганлигини аниқлаш учун қуйидаги жадвални тузишни тавсия қиламиз (2-жадвал).

2-жадвал

«AFROSIYOB JEANS» МЧЖда асосий воситалар самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичнинг (коэффициентининг) 2015-2019 йиллар бўйича ҳисоб-китоби

Йиллар	Корхонада сотилган маҳсулот жами		Корхонанинг асосий воситалари умумий қиймати		Асосий воситалар самарадорлик коэффициенти	
	Суммаси, млн.сўм	Ўсиш суръати, %	Суммаси, млн.сўм	Ўсиш суръати%	Коэффициентди	Ўсиш суръати,%
2015	26245,3	100,0	7955,7	100,0	3,299	100,0
2016	28187,4	107,4	8197,5	103,0	3,439	104,2
2017	29289,7	111,6	9299,7	116,9	3,150	95,7
2018	30549,3	116,4	10589,4	133,1	2,885	87,4
2019	32409,3	123,5	12489,8	157,0	2,595	78,7

Мазкур жадвал маълумотларидан кўришиб турибдики, асосий воситалар самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичнинг (коэффициентининг) ўзгаришида ҳам пасайиш тенденцияси рўй берган. 2015 йилда ҳар минг сўм асосий воситага 3,30 сўм сотилган маҳсулот тўғри келган бўлса, 2019 йилга келиб, унинг миқдори 2,60 сўмга ёки 78,7 %гача камайган. Бунга жуда кўп омиллар таъсир қилган. Асосийларидан бири, шу йилларда асосий воситаларни реконструкция қилиш (2016 йил) билан бирга янги жиҳозларни харид қилиб (2018 йил охирида), уларни бирданига ишга туширишга имконият топмаган. Сабабини суриштирганимизда тегишли бутловчи материалларни тўлиқ харид қилиб улгурмаганликларини айтишган.

Таҳлил қилиниши лозим бўлган навбатдаги кўрсаткич, асосий воситаларнинг яроқлилик коэффициенти дир (Кавя). Ушбу кўрсаткич корхонада мавжуд асосий воситаларнинг қанча қисми ишлатилиб бўлинган ва қанча қолдиқ қиймати борлигидан далолат бериб турибди. Буни аниқлаш учун асосий воситалар эскириш қийматини (Авэқ) асосий воситаларнинг ўртача қийматига (Ав) бўлинади. Бунинг учун қуйидаги формуладан фойдаланилади:

$$\text{Кавя} = \frac{\text{Авэқ}}{\text{Ав}};$$

Мазкур кўрсаткични ҳам бошқариш учун таҳлил қилган корхонада 2015-2019 йиллар давомида қандай ўзгаришлар рўй берганлигини аниқлаш ва уларга баҳо бериш лозим. Бунинг учун қуйидаги жадвални тузишни тавсия қиламиз (3-жадвал).

3-жадвал**«AFROSIYOV JEANS» МЧЖда 2015-2019 йилларда асосий воситаларнинг яроқлилиқ коэффициентининг ҳисоб-китоби**

Йиллар	Корхонанинг асосий воситалари умумий қиймати		Асосий воситаларнинг эскириш суммаси		Асосий воситалар яроқлилиқ даражаси	
	Суммаси, млн.сўм	Ўсиш суръати,%	Суммаси, млн.сўм	Ўсиш суръати,%	Улушда, %	Ўсиш суръати,%
2015	26245,3	100,0	2845,2	100,0	10,84	100,0
2016	28187,4	107,4	3145,3	110,5	11,16	102,9
2017	29289,7	111,6	3245,6	114,1	11,08	102,2
2018	30549,3	116,4	3425,7	120,4	11,21	103,4
2019	32409,3	123,5	3649,4	128,2	11,26	103,9

Мазкур жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, асосий воситаларнинг яроқлилиқ даражаси шу таҳлил даврида ўсиш тенденциясига эга бўлган. 2015 йилда барча асосий воситаларнинг эскириш суммасининг улуши 10,84 %ни ташкил қилган бўлса, 2019 йилга келиб, 11,26 %га тенг бўлган. Бунинг ўсиш суръати 103,9 %ни ташкил қилади. Бу ижобий ҳолат, чунки мазкур корхонада асосий воситаларни модернизация қилиш жараёни инобатга олинган. Ушбу ҳолат бўйича корхонанинг асосий воситалари 2015 йилда ўзини 9,2 йил давомида (100,0 / 10,84) қоплаш имкониятига эга бўлган бўлса, 2019 йилга келиб ушбу кўрсаткич 8,9 йилни (100,0 / 11,26) ташкил қилади. Ушбу ҳолат ижобий бўлиб, асосий воситаларни янгилаш имкониятининг тезлашганлигини кўрсатади.

Хулоса қилиб айтганда, корхонада ишлаб чиқариш харажатлари самарадорлигини бошқаришда тежамкорликка эришишнинг бир қанча йўналишлари мавжуд эканлигига гувоҳ бўлдик. Аммо мазкур ишда унинг айрим йўналишлари, хусусан асосий воситалар билан боғлиқ бўлган харажатлар самарадорлигини бошқаришгагина тўхталдик. Келажақда замон талабидан ва ҳисоблаш имкониятларидан келиб чиқиб, йўналишларни кенгайтириш ва ҳисоб-китоб ишларини такомиллаштириш мумкин бўлади.

ТАРАҚҚИЙ ЭТГАН МАМЛАКАТЛАРДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ

Очилов Назрилло Файзиллоевич,

Бухоро Давлат университети таянч докторанти

Қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлиги даражасини оширишнинг жаҳон амалиёти таҳлили кўрсатишича, мамлакатларнинг халқаро савдо ташкилотига аъзо бўлишида уларнинг аграр соҳа тармоқларининг барқарорлиги, ички бозордаги мувозанатни таъминлаш билан бир қаторда, импорт ўрнини босувчи ва экспорт ҳажмини оширишда муҳим аҳамият касб этади. Жумладан, АҚШ, Канада, Бразилия, Россия, Хитой ва Европа иттифоқининг айрим мамлакатларида қишлоқ хўжалиги ривожланишини қўллаб-қувватлаш ва унинг рақобатбардошлигини оширишга қаратилган давлат дастурларига устуворлик қаратилиши натижасида ҳозирги кунда дунё бўйича қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг йирик экспортларига айландилар. Шунингдек, бозор иқтисодиёти шаклланаётган ва ривожланаётган мамлакатларда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришда 60 фоиз аҳоли банд ҳисобланса, ривожланган мамлакатларда ушбу кўрсаткич 10 фоизни ташкил этади.¹

¹ <https://www.agroprodmashe-expo.ru/ru/ui/17151/>

Жумладан, Европа иттифоқи (ЕИ) мамлакатларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг ички ва ташқи бозордаги рақобатбардошлигини ошириш давлат субсидияси механизмига асосланади. ЕИга эъзо мамлакатлар фермерлари томонидан ишлаб чиқарилган (етиштирилган) қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари умумий қийматининг ўрта ҳисобда 50 фоизи давлат субсидияси асосида қопланади. Шунингдек, ушбу мамлакатлар гуруҳида маҳаллий фермерлар учун ўз маҳсулотларини жаҳон бозоридаги ўртача нархдан юқорироқ нархда сотиш имконини берувчи компенсацион тўловлар ва тенглаштирилган солиқ сиёсати амал қилади. Амалга оширилган ислохотлар натижасида бугунги кунда ЕИга эъзо бўлган мамлакатларнинг озиқ-овқат хавфсизлиги таъминланиши билан бир қаторда, ички истеъмол бозорида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари билан тўлиқ ўзини-ўзи тўйинтира олиш имкониятига эга бўлди.

Жаҳон хўжалигида етакчи мамлакатлардан бири ҳисобланган АҚШ табиий-иқлимий шароит жиҳатидан қишлоқ хўжалигини ривожлантириш учун жуда қулай шарт-шароитга эга бўлган мамлакатлар қаторига киради. Бундай устунлик ҳисобига АҚШ фермерлари учун қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш (етиштириш) ЕИ мамлакатлари фермерларига нисбатан 1,6-1,7 марта кам харажат ҳисобига амалга оширилади. Шунингдек, ушбу кўрсаткич Россия фермерларига нисбатан 2,5 марта, Японияга нисбатан эса 3,0 марта арзон ҳисобланади. Ушбу вазиятдан келиб чиққан ҳолда, бошқа давлатлар АҚШ ҳукуматига нисбатан аграр соҳа рақобатбардошлигини ошириш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш (етиштириш) ва уларни сотиб олиш учун бир неча баравар кўп маблағ сарфлашади, деган хулосага келиш мумкин бўлади. масалан, Финляндия ҳукумати маҳаллий фермерлардан бир тонна буғдойни АҚШдаги нархга нисбатан тўрт баробар қимматига сотиб оладилар.¹

АҚШ қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва унинг рақобатбардошлигини оширишда жаҳон бўйича табиий-иқлимий шарт-шароитлар жиҳатдан бундай устунликка эга бўлишига қарамай, аграр соҳага йўналтирилаётган давлат харажатлари ҳажми бўйича дунёда етакчи ўринни эгаллайди. БМТнинг Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти экспертлари томонидан амалга оширилган ҳисоб китоб натижаларига кўра, 2001-2019 йилларда АҚШ қишлоқ хўжалигига йўналтирилган йиллик марказий ҳукумат харажатлари ҳажми ўрта ҳисобда 24,4 млрд. АҚШ долл.га² тенг бўлган.

Тараққий этган мамлакатларда аграр соҳанинг самарадорлиги ва унинг рақобатбардошлигини ошириш қишлоқ хўжалигида кооперациялашувнинг юқори даражаси (маҳсулотларни қайта ишлаш, сақлаш, етказиб бериш, сотиш, фермерларга моддий-техник ва молиявий хизматлар кўрсатиш) ва агросаноат интеграцияси ҳисобига амалга оширилади. Шунингдек, ушбу гуруҳ мамлакатларида қишлоқ хўжалигининг ҳосилдорлиги, ишлаб чиқариш муносабатларининг самарадорлиги, аграр соҳанинг рақобатбардошлигини ошириш, озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларни инновацион ривожлантириш, қишлоқ хўжалигида фаолият юритаётган иқтисодий субъектларнинг ривожланиш имкониятларини кенгайтириш ва қишлоқ жойларнинг барқарор ривожланишини таъминлашда агрокластеризациялашга муҳим эътибор қаратилади. Агрокластерларни шакллантириш ва уларни ривожлантириш орқали тараққий этган мамлакатлар халқаро рақобат муносабатларининг кучайиши шароитида қишлоқ хўжалиги, айниқса, озиқ-овқат хавфсизлиги соҳасида ҳимоявий чораларни ҳам амалга оширадилар.³

Жумладан, тараққий этган мамлакатларда ташкил этилган йирик интеграцион, кўп тармоқли агросаноат бирлашмалари илғор инновацион технологияларга асосланган ҳолда

¹ Швец Н. С. Концепция конкурентоспособности регионального агропромышленного комплекса: монография / Н. С. Швец, Ф. З. Мичурина; М-во с.-х. РФ, ФГБУ высшего образования «Пермская гос. с.-х. акад. им. акад. Д.Н. Прянишникова». – Пермь: ИПЦ «Прокрость», 2016. – 207 с.

² БМТнинг Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган <http://www.fao.org/faostat/ru/#data/IG/visualize>

³ Насруллаева Т. Д. Стратегические приоритеты развития кластеров в АПК региона / Т. Д. Насруллаев // Вопросы структуризации экономики. –2010. – № 1. – С. 174–177.

жаҳон кишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг ярмидан зиёд қисмини ишлаб чиқарадилар. Бу турдаги агрохўжалик юритувчи субъектларнинг меҳнат унумдорлиги бошқаларга нисбатан 1,5-2,0 баробар юқори ҳисобланиб, бир бирликдаги ер майдонида кишлоқ хўжалиги маҳсулоти етиштириш учун талаб этиладиган ресурслар ҳажми 2,0 марта кам бўлиб, улар томонидан ишлаб чиқарилаётган (етиштирилаётган) маҳсулотларнинг таннархи сезиларли даражада арзон ҳисобланади.¹

Европа Иттифоқи мамлакатлари агрокластеризациялаш чора-тадбирларини амалга ошириш орқали кишлоқ хўжалигида, хусусан, чорвачилик билан шуғулланувчи фермер хўжаликлари ўртасида кооперациялашувни ривожлантиришган. Масалан, Францияда бу турдаги кооперациялар 70 фоиз чўчка гўштини етиштирса, ушбу кўрсаткич Нидерландияда – 26,0 фоиз, Германияда эса 25 фоизни ташкил этади. Швецияда ҳам бу турдаги кооперацияларда кўплаб фермер хўжаликлари ўзаро бирлашган бўлиб, мамлакат худудида жами 18 та минтақавий кооперациялар ташкил этилган ҳисобланади. Шунингдек, фермерлар ҳақ-хуқуқларини ҳимоя қилиш ва уларни ривожланишини кўллаб-қувватлаш мақсадида “Миллий фермерлар кооперативлари бирлашмаси” ташкилоти тузилган.²

Жаҳон амалиётида кишлоқ хўжалиги рақобатбардошлигини оширишда агросаноат интеграцион бирлашмаларини ташкил этишнинг шартномавий шаклидан ҳам кенг фойдаланилади. Жумладан, АҚШда бу турдаги агросаноат интеграцион бирлашмаларида жами кишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг 30,0 фоизи ишлаб чиқарилади. Фермер хўжаликлари билан интеграцион ҳамкорлик тўғрисидаги шартномалар одатда йирик кишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишловчи саноат корхоналари ва савдо компаниялари ўртасида тузилади. Айниқса, қисқа муддатда истеъмолга яроқсиз ҳолатга тушиб қоладиган кишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш бўйича шартномалар тузиш кенг тарқалган ҳисобланади. Масалан, сут ва сут маҳсулотларини ишлаб чиқариш бўйича фермер хўжаликлари ва кишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишловчи йирик саноат корхоналари ўртасида шартномавий келишув асосида тузилган агро-интеграцион бирлашмалар томонидан 95 фоиз маҳсулот ишлаб чиқарилса, сабзавотларни қайта ишлашда ушбу кўрсаткич 83 фоизга тенг ҳисобланади.³

Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашуви шароитида кишлоқ хўжалигини техник ва технологик жиҳатдан қуроллантириш унинг глобал рақобатбардошлиги кўрсаткичинини оширишнинг муҳим шарти ҳисобланади. Жумладан, АҚШ аграр секторда илмий тадқиқотлар ўтказишда жаҳонда етакчи мамлакатлар қаторига кириб, ушбу соҳада амалга оширилаётган барча илмий тадқиқотлар давлат бюджети ҳисобидан молиялаштирилади. Шунингдек, давлат фермер хўжаликларини кишлоқ хўжалигига оид инновацион ишланмалар тўғрисида хабардор қилиш мажбуриятини ҳам ўз зиммасига олган. Инновацион ишланмалар ва лойиҳаларни амалиётга татбиқ этиш истагида бўлган фермер хўжаликлари учун имтиёзли кредитлаш дастурлари мавжуд. АҚШда давлатнинг кишлоқ хўжалигини ривожлантиришга сарфлаётган харажатлари ҳажми фермер хўжаликларининг хусусий сармояларидан 6,0 марта кўп бўлиб, ўрта ҳисобда ялпи кишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳажмининг 40,0 фоизига тенг ҳисобланади.

БМТнинг Озиқ-овқат ва кишлоқ хўжалиги ташкилоти экспертлари томонидан амалга оширилган ҳисоб-китоблар натижаларига кўра, 2001-2019 йилларда АҚШда кишлоқ хўжалигини ривожлантиришга ажратилган давлат субсидияларининг ЯИМдаги улуши 39,2 фоизга тенг бўлган ҳолда, жаҳонда етакчи ўринни эгаллайди. Шунингдек, ушбу кўрсаткич ЕИ мамлакатлари бўйича 25,9 фоизга тенг бўлиб, Норвегия (32,5 фоиз) ва

¹ Грей К. Роль государства в аграрном секторе США // Экономика сельского хозяйства России. – 1997. – № 4. – С. 31–32

² Милосердов В. В. Многоукладная экономика АПК: состояние и перспективы // АПК: экономика, управление. – 2012. – № 2. – С. 10–21

³ Абдиев М. Ж. Основные направления агропродовольственной политики Кыргызской Республики в условиях интеграции в Евразийский экономический союз // Общество и экономика. – 2017. – № 3, 4. – С. 136

Буюк Британия (27,2 фоиз) каби мамлакатларнинг кўрсаткичлари ЕИ бўйича ўртача кўрсаткичлан юқори ҳисобланади.¹

Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш, унинг рақобатбардошлигини ошириш бўйича тараққий этган мамлакатлар амалиётини тизимли таҳлил қилиш ва қиёсий таққослаш асосида мамлакатимиз амалиётида қуйидагилардан ижодий фойдаланиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

- аграр секторда илмий тадқиқот тажриба конструкторлик ишланмаларини амалга оширишни қўллаб-қувватлаш;

- инновацион ишланмаларни ва лойиҳаларни ишлаб чиқариш амалиётига татбиқ этган фермер хўжаликлари учун солиқ имтиёзлари жорий этиш, имтиёзли шартлар асосида кредитлар ажратиш;

- фермер хўжаликлари фаолиятини қўллаб-қувватлаш мақсадида улар зарар кўрган тақдирда давлат субсидияси ажратиш;

- аввало ички бозорни арзон нархлардаги қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари билан тўйинтириш ва экспортни давлат томонидан субсидиялаш;

- қишлоқ хўжаликлари маҳсулотларини етиштириш, қайта ишлаш, уларни сақлаш, етказиб бериш, сотиш бўйича агросаноат интеграцион бирлашмалари, жумладан, агрокластерларни ташкил этишни рағбатлантириш;

- қишлоқ хўжалигини ривожлантиришга инвестицияларни кенг жалб қилиш, жумладан, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ҳисобига агробизнес вакилларининг техник-технологик курулганини рағбатлантириш;

- фермер хўжаликлари жойлашган ҳудудларнинг табиий-иқлимий шарт-шароитларини ўрганиш ва уларнинг жойлашган ҳудудларидан келиб чиққан ҳолда давлат субсидияси ажратиш механизмини жорий этиш ва ҳ.к.

Фикримизча, юқорида билдирилган фикрларни инобатга олган ҳолда кейинги йилларда мамлакатимизда аграр секторни қўллаб-қувватлашга қаратилган давлат дастурларининг ишлаб чиқилиши узоқ муддатли истиқболда миллий қишлоқ хўжалигимизнинг глобал рақобатбардошлиги кўрсаткичини барқарор ошириб бориш ва жаҳонда етакчи ўринларни эгаллаш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Швец Н. С. Концепция конкурентоспособности регионального агропромышленного комплекса: монография / Н. С. Швец, Ф. З. Мичурина; М-во с.-х. РФ, ФГБУ высшего образования «Пермская гос. с.-х. акад. им. акад. Д.Н. Прянишникова». – Пермь: ИПЦ «Прокрость», 2016. – 207 с.
2. БМТнинг Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти маълумотлари <http://www.fao.org/faostat/ru/#data/IG/visualize>
3. Насруллаева Т. Д. Стратегические приоритеты развития кластеров в АПК региона / Т. Д. Насруллаев // Вопросы структуризации экономики. –2010. – № 1. – С. 174–177.
4. Грей К. Роль государства в аграрном секторе США // Экономика сельского хозяйства России. – 1997. – № 4. – С. 31–32
5. Милосердов В. В. Многоукладная экономика АПК: состояние и перспективы // АПК: экономика, управление. – 2012. – № 2. – С. 10–21
6. Абдиев М. Ж. Основные направления агропродовольственной политики Кыргызской Республики в условиях интеграции в Евразийский экономический союз // Общество и экономика. – 2017. – № 3, 4. – С. 136
7. <https://www.agroprodmash-expo.ru/ru/ui/17151/>

¹ БМТнинг Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган <http://www.fao.org/faostat/ru/#data>

НАПРАВЛЕНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ РЕФОРМ В УЗБЕКИСТАНЕ

Сайфуллаева М.И.

Бухарский государственный университет

Сельское хозяйство — отрасль экономики, направленная на обеспечение населения продовольствием и получение сырья для ряда отраслей промышленности. Отрасль является одной из важнейших, представленной практически во всех странах мира. В Узбекистане сельское хозяйство является одним из ведущих секторов народного хозяйства. За годы независимости оно полностью регулировалось со стороны государства, и сегодня созрела необходимость существенных реформ в данной сфере.

Следует напомнить, что в 2018 году вклад аграрного сектора в ВВП Узбекистана составил 28,8% [рис 1]. 53,2% стоимости сельскохозяйственной продукции 2018 года пришлось на растениеводство, 46,8% – на животноводство. В 2017 году в аграрном секторе работало 3,7 млн. человек (27,2% от общего числа занятых). Почти половина населения страны живет в сельской местности [2].



Рисунок 1. Доля секторов ВВП Узбекистана на 2018г.

Производство основных видов сельскохозяйственной продукции (кроме хлопка), в соответствии с официальными данными, из года в год возрастает. Особенно это касается плодоовощной продукции, вместе с производством которой растет ее переработка и экспорт. Несмотря на существенный рост производства и экспорта сельскохозяйственной продукции, существующая система государственного заказа и практика регулирования экспорта не позволяют сформироваться свободным рынкам сельскохозяйственной продукции.

Отсутствует свободный рынок хлопка, так как здесь действуют принципы рынка монополии, то есть государство является единолично заказчиком и покупателем этого вида сырья. Далее хлопок распределяется на экспорт и для внутренних потребителей. В настоящее время в качестве эксперимента внедряются «агропромышленные кластеры», в рамках которых фермеры должны будут продавать хлопок не государству, а напрямую перерабатывающим предприятиям, входящим в кластер.

В связи с необходимостью реформ указом Президента Республики Узбекистан №УП15853 от 23 октября 2019 года была утверждена Стратегия развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы и «Дорожная карта» по реализации. Одним из приоритетных направлений данной стратегии является постепенное уменьшение роли государства в агросекторе.

Основными направлениями и задачами развития сельского хозяйства до 2030 года определены [1]:

- обеспечение продовольственной безопасности населения, предусматривающей разработку и внедрение государственной политики по обеспечению продовольственной

безопасности на основе физической и экономической доступности, пищевой безопасности и улучшения рациона питания;

- создание благоприятного агробизнес-климата и цепочек добавленной стоимости, предусматривающего повышение конкурентоспособности агробизнеса за счет дальнейшей либерализации торговли, развития инфраструктуры контроля качества, снижения издержек торговых транзакций и стимулирования экспорта, производство агропродовольственных товаров с высокой добавленной стоимостью, способных конкурировать на целевых международных рынках;

- снижение роли государства и повышение инвестиционной привлекательности отрасли, предусматривающей увеличение потока частного инвестиционного капитала для поддержки модернизации, диверсификации и устойчивого роста агропродовольственного сектора;

- обеспечение рационального использования природных ресурсов и охраны окружающей среды, предусматривающей рациональное использование земельных и водных ресурсов, лесного фонда, а также защиту агроэкологии;

- развитие современных систем государственного управления, предусматривающих реструктуризацию и дальнейшее развитие эффективной структуры государственного управления с целью перехода от административной к рыночной экономике;

- диверсификацию государственных расходов в поддержку сектора, направленную на повышение эффективности использования государственных расходов на поддержку сельского хозяйства путем постепенного перераспределения бюджетных средств в соответствии с новыми приоритетами государственной политики, нацеленных на повышение производительности, качества продукции, а также увеличение добавленной стоимости;

- развитие системы сельскохозяйственной науки, образования, информационных и консультационных услуг, предусматривающих создание эффективной системы распространения сельскохозяйственных знаний и информации, интегрирующая исследовательские, образовательные и консультационные услуги с производством;

ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХОМ АШЁ ВА МАТЕРИАЛЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ ХАРАЖАТЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ БОШҚАРИШДА ТЕЖАМКОРЛИК РЕЖИМИНИГА АМАЛ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ

Ш.Ш.Болтаев

БухДУ мустақил изланувчиси

А.Д. Қудратов

БухДУ ўқитувчиси

Бугунги кунда барча жабҳаларда тежамкорлик масаласи мамлакатимизнинг иқтисодий-ижтимоий ҳаётида асосий устувор вазифалардан бири сифатида баҳоланмоқда. Зеро, тежамкорлик бўлмаган жойда кўзда тутилган самарадорликка ҳам, харажатларни оптимал бошқаришга ҳам, пировардида аҳолининг фаровонлигини оширишга ҳам эришиб бўлмайди. Тежамкорлик масаласи хизмат кўрсатиш соҳасида алоҳида аҳамиятга эга, чунки дунё миқёсида ЯИМда хизмат кўрсатиш соҳасининг улуши ўртача 70,0

%ни ташкил қилиб, жаҳон иқтисодиётининг асосий экспорт қилувчи соҳасига айланиб бормоқда. Хизмат кўрсатиш соҳаси меҳнатга қобилиятли 60,0 %дан ортиқ аҳолини иш билан таъминлаб келмоқда¹. Шундай қилиб, дунё мамлакатлари иқтисодиётида, айниқса ривожланган мамлакатларда хизмат кўрсатиш соҳаси етакчи тармоқлардан бири бўлиб ҳисобланади. Шу туфайли инновацион иқтисодиёт шароитида хизмат кўрсатиш соҳасида моддий ва меҳнат ресурслари тежамкорлиги ҳамда самарадорлигини ошириш, шунингдек, унинг истикболли йўналишларини белгилаб олишга алоҳида аҳамият берилмоқда. Зеро,

бизда ҳам хизмат кўрсатиш соҳасининг иқтисодиётдаги улуши ошиб бориши кузатилмоқда.

Сўнгги йилларда, жумладан, 2010 йилда мамлакатимизда кўрсатилган хизматлар ҳажми 27126,8 млрд.сўмни ташкил қилган бўлса, 2018 йилда бу кўрсаткич қарийиб 5,6 баробарга ошиб 150889,8 млрд.сўмни ташкил қилди. Ўзбекистон Республикаси бўйича хизмат кўрсатиш ҳажми аҳоли жон бошига 2010 йилда 949,7 минг сўмдан, 2018 йилга бу кўрсаткич қарийиб беш баробар ошиб 4578,5 минг сўмни ташкил қилган. Худди шундай ҳолат мамлакатимиз-нинг барча ҳудудларида ҳам рўй берган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28-декабрдаги ва 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга қилган Мурожаатномасида ҳам мамлакатимизда инновацион иқтисоднинг ривожланиши, тежамкорлик тамойилига амал қилиш бўйича бир қанча вазифаларни белгилаб берди. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрда “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-5544-сонли Фармони, 2018 йил 3 июлдаги “Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3832-сон қарори, 2018 йил 21 ноябрда “Рақамли иқтисодиётни ривожлантириш мақсадида рақамли инфратузилмани янада модернизация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4022-сонли қарори, 2018 йил 13 декабрда “Ўзбекистон Республикаси давлат бошқарувида рақамли иқтисодиёт, электрон ҳукумат ҳамда ахборот тизимларини жорий этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармонларини эълон қилинди. Мазкур фармонлар, қарорлар ва улар юзасидан қабул қилинган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар хизмат кўрсатиш соҳасини инновацион ривожлантиришда ва тежамкорлик асосида самарадорлигини оширишда мамлакатимизда ўта долзарб масалалардан бирига айланган. Шу жиҳатдан мазкур мақола долзарб масалаларнинг ечимларига бағишланган, деб баҳолаш мумкин.

Иқтисодиётни самарали ривожлантириш ва унинг тежамкорлигини такомиллаштиришга қаратилган илмий-назарий ва услубий тадқиқотлар билан жаҳон олимлари, МДХ ва мамлакатимиз олимлари ҳам шуғулланиб келмоқдалар. Хорижий олимлардан Г.А.Аванесева, А.Я.Басс, А.Б.Балаева, В.Э.Гордин, В.В.Павлинко, И.А.Скрынникова, С.Н.Диянова, М.А.Морозов Т.А.Бурменк, Л.Демидово, Е.Н.Валединская, Ж.А.Раманович, кабарнинг ишларида тадқиқ қилинган. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва ушбу соҳани иқтисодиётни модернизациялаш, диверсификувциялаш ва инновацион ривожлантириш шароитидаги муаммолар билан А.В.Вахобов, М.Э.Пўлатов, К.Б.Ўразов, Ш.Х.Ҳажибакиев, Н.Х.Жумаев, М.С.Қосимова, А.Н.Самадов, Б.Рўзметов, О.Муртазаев, Б.А.Абдукаримов, М.Қ.Пардаев, М.М.Мухаммедов, Ж.Р.Зайналов, И.С.Тухлиев, Б.И.Исроилов, А.Х.Пардаев, А.С.Солиев, Р.Х.Эргашев, Б.Наврўз-зода, М.Т.Алимова, Қ.Ж.Мирзаев, О.М.Пардаев Д.А.Таджибаева, Р.Ж.Қурбонова каби мамлакатимиз иқтисодчи олимлари илмий ишларида ёритиб берилган. Аммо, ушбу муаллифлар ишларида хизмат кўрсатиш соҳасини инновацион ривожлантиришда алоҳида тежамкорликка амал қилиш масалалари атрофича ўрганилмаган. Ушбу ҳолат мазкур тадқиқотнинг долзарблигини ифодалаш билан бирга, унинг мақсади ва вазифаларини аниқлаш имконини ҳам беради.

Инновацион иқтисодиёт шароитида корхонада хом ашё ва материаллар билан боғлиқ харажатлар самарадорлигини бошқаришда бугунги кун талабидан келиб чиқиб, тегишли тавсияларни ишлаб чиқиш жараёнида методологик асос сифатида мантиқий таҳлил, сабаб ва оқибат, анализ ва синтез, индукция ва дедукция усулларидан фойдаланилган. Шунингдек ишдаги асосий масалалар ва уларнинг йўналишлари амалий маълумотларни қўллаган ҳолда мантиқий таҳлил усуллари қўллаб тегишли бошқарув қарорларини қабул қилиш йўллари ёритилган.

Хом ашё ва материаллар билан боғлиқ харажатлар тежамкорлиги ва уларни бошқариш масалалари. Хом ашё ва материаллар ишлаб чиқаришнинг асосини ташкил қилади. Шу туфайли улар билан боғлиқ харажатларни бошқаришда асосий эътибор

уларнинг ҳам тежамкорлигига қаратилади. Чунки ушбу мақсадга эришилса ишлаб чиқариш самарадорлиги ва маҳсулотлар рақобатбардошлиги ошади. Тежамкорликдан эришилган самарадорлик ички имкониятлар ҳисобидан, ташқаридан ортиқча хом ашё ва материалларнинг исрофгарчилигига йўл қўймасдан эришиш тушунилади. Хом ашё ва материаллар билан боғлиқ харажатлар тежамкорлигини ифодаловчи кўрсаткич бўлиб, биринчи галда унинг самардорлиги (ХАс) тушунилади. Ушбу кўрсаткични аниқлаш учун барча сотилган маҳсулот умумий ҳажмини (См) уни ишлаб чиқариш учун сарф қилинган хом ашё ва материаллар қийматига (Хам) бўлиш йўли билан аниқлаш мумкин. Буни аниқлаш учун қуйидаги формуладан фойдаланилади:

$$Хас = См/Хам$$

Ушбу формулага асосан, хом ашё ва материаллар билан боғлиқ харажатлар тежамкорлигини оптимал бошқаришни ташкил қилиш учун таҳлил қилинаётган корхонада 2015-2019 йиллар давомида қандай ҳолат рўй берганлигига баҳо беришни тақозо қилади. Буни аниқлаш учун қуйидаги жадвални тузишни тавсия қиламиз (1-жадвал).

2-жадвал

«AFROSIYOV JEANS» МЧЖда хом ашё ва материаллар билан боғлиқ харажатлар тежамкорлигини ифодаловчи кўрсаткичнинг 2015-2019 йиллар бўйича ҳисоб-китоби

Йиллар	Корхонада сотилган маҳсулот жами		Ишлатилган хом ашё ва материалларнинг умумий қиймати		Хом ашё ва материаллар самарадорлиги	
	суммаси, млн.сўм	ўсиш суръати,%	суммаси, млн.сўм	ўсиш суръати,%	суммаси, млн. сўм	ўсиш суръати,%
2015	26245,3	100,0	14955,7	100,0	1,755	100,0
2016	28187,4	107,4	15583,8	104,2	1,809	103,1
2017	29289,7	111,6	16585,9	110,9	1,766	100,6
2018	30549,3	116,4	16677,1	115,1	1,832	104,4
2019	32409,3	123,5	18305,8	122,4	1,770	100,9

Мазкур жадвал маълумотларидан кўришиб турибдики, корхонада сотилган маҳсулот умумий ҳажми билан ишлатилган хом ашё ва материаллар ҳажмининг ўсиш даражаси шу таҳлил қилинган даврда деярли бир хил. Сотилган маҳсулот умумий ҳажми 123,5 %га ўсган бўлса, ишлатилган хом ашё ва материаллар ҳажмининг ўсиш суръати 122,4 %ни ташкил қилмоқда.Натижада шу таҳлил қилинган даврда деярли хом ашё ва материаллар самарадорлиги 100,9 %ни ташкил қилади халос. Фақат 2018 йилда сотилган маҳсулот ҳажми бошқа кўрсаткичларга нисбатаг бироз тезроқ ошган. Чунки шу йилда корхонанинг маҳсулоти хорижга кўпроқ экспорт қилинган бўлиб, бироз қимматроқ сотилган. Натижада хом ашё ва материаллар самарадорлиги ошишига эришилган. Ушбу кўрсаткич 2018 йилда 2015 йилга нисбатан 104,4 %ни ташкил қилмоқда. Ушбу йўналиш бўйича корхона раҳбарлари самарадорликни ошириш чораларини кўриш билан бирга, шу даражадан пасайтирмаслик тадбирларини ҳам ишлаб чиқишлари лозим.

Ишлаб чиқариш жараёнида ёқилга ва электр энергиясидан фойдаланиш билан боғлиқ харажатларни бошқариш. Мамлакатимиз электр энергияси ва ёқилги етиштириш бўйича ўзини-ўзи таъминлайдиган давлатларга киради. Бу жиҳатдан олиб қаралса бизни табиат “қисиб” қўйган эмас. Аммо ҳозирги пайтда мана шу иккита неъматга жуда ҳам эҳтиёж каттариб бормоқда. Буларсиз ҳозирги кунда нақақат иқтисодий, балки ижтимоий ҳаётимиз ҳам ҳаракатдан деярли тўхтади. Бундай шароитда ушбу неъматларни тежаб тергаб ишлатиш энг устувор вазифалар сирасига киради. Чунки,

буларнинг захираси чексиз эмас. Бундан ташқари, ёқилғи ва электр энергиясига бўлган эҳтиёжнинг ўсиши, уни тежашни ҳам тақозо қилмоқда. Зеро хорижий мамлакатларда бизга нисбатан ушбу неъматларнинг тежамкорлиги 1,5-2,0 баробар камлигига гувоҳ бўлмоқдамиз. Бу эса барча соҳаларда юқори самарадорликка эришиш имкони бермоқда. Бугунги кун талабидан келиб чиқиб, ишлаб чиқариш жараёнида ёқилга ва электр энергиясидан фойдаланишдаги харажатлар самарадорлигини ошириш билан бирга, унинг тежамкорлигини бошқариш масаласи ҳам долзарб аҳамият касб этмоқда.

Ишлаб чиқариш жараёнида ёқилга ва электр энергиясидан фойдаланиш билан боғлиқ харажатлар тежамкорлигини бошқариш учун уларни ифодаловчи кўрсаткичларни аниқлаб олишни тақозо қилади. Бунинг учун биз бир миллиард ишлаб чиқариб сотилган маҳсулотга тўғри келадиган ёқилга ва электр энергияси сарфини (СМээ) аниқлашни тавсия қиламиз. Ушбу кўрсаткични аниқлаш учун ёқилга ва электр энергиясидан фойдаланиш билан боғлиқ харажатлар суммасини (Ёээ) сотилган маҳсулот ҳажмига (См) бўлиш кифоя. Бунинг учун қуйидаги формуладан фойдаланиш тавсия қилинади:

$$СМээ = Ёээ/См$$

Ушбу формуладан фойдаланиб, унга амалий маълумотларни қўллаб таҳлил қилинса, ёқилга ва электр энергиясидан фойдаланиш билан боғлиқ харажатлар самарадорлигига баҳо бериш мумкин. Ушбу ҳисоб-китобни «AFROSIYOV JEANS»

МЧЖда 2015-2019 йиллар бўйича амалга оширилганда қуйидаги натижаларга эришилганлиги аниқланди (3-жадвал).

3- жадвал

«AFROSIYOV JEANS» МЧЖда ҳар бир миллиард сўм сотилган маҳсулот ҳажмига тўғри келадиган ходимлар сонинг 2015-2019 йилларда ҳолати ва меҳнат тежамкорлиги ўзгаришининг ҳисоб-китоби

Йиллар	Корхонада сарф қилинган ёқилғи ва электр энергиясидан фойдаланиш билан боғлиқ харажатлар		Сотилган маҳсулот ҳажми		Ҳар бир миллиард сўм сотилган маҳсу- лотга тўғри келади- ган ёқилғи ва электр энергиясидан фойдаланиш билан боғлиқ харажатлар	
	Суммаси, млн.сўм	Ўсиш суръати, %	Сумма- си, млрд.сўм	Ўсиш суръати, %	Суммаси, млн.сўм	Ўсиш суръати, %
2015	3151,2	100,0	26,2	100,0	120,3	100,0
2016	3345,3	109,3	28,2	107,4	118,6	98,6
2017	3548,7	112,6	29,3	111,6	121,1	100,7
2018	3712,8	117,8	30,6	116,4	121,3	100,8
2019	3885,2	122,3	32,4	123,5	119,9	99,6

Ушбу жадвалда келтирилган маълумотлардан кўриниб турибдики, таҳлил қилаётган «AFROSIYOV JEANS» МЧЖда ҳар бир миллиард сўм сотилган маҳсулотга тўғри келадиган ёқилғи ва электр энергиясидан фойдаланиш билан боғлиқ харажатлар таҳлил қилинаётган даврда уларнинг ҳажми деярли бир хил ҳажмда сақланиб қолган. Ҳар бир миллиард сўм сотилган маҳсулотга тўғри келадиган ёқилғи ва электр энергиясидан фойдаланиш билан боғлиқ харажатларнинг миқдори 2015 йилда 120,3 млн. сўмни ташкил қилади. 2016 йилда ушбу кўрсаткич 118,6 млн. сўмни ёки 98,6

%ни ташкил қилиб, бироз камайиш рўй берган. 2017 йилда харажатлар сарфи бироз ошган ва 2015 йилга нисбатан 100,7 %га тенг бўлган. Бу 121,1 млн. сўмни ташкил қилади. Ушбу кўрсаткич 2018 йилда деярли ўзгармасдан қолган ва унинг ҳажми 121,3 млн. сўм ёки 100,8 %га тенг бўлган. Аммо 2019 йилда ушбу кўрсаткич мунтазам камайиб борган,

яъни ушбу харажатларнинг сарфи 119,9 млн. сўмни ташкил қилади. Бу эса, 2015 йилга нисбатан 99,6 %га тенг бўлган.тежалган.

Юқоридаги таҳлил кўрсатиб турибдики, умуман олганда ҳар бир миллиард сўм сотилган маҳсулотга тўғри келадиган ёқилғи ва электр энергиясининг сарфи ёмон эмас. Пировардида 2019 йилда 2015 йилга нисбатан тежамкорликка эришган. Бироқ неъматлардан фойдаланиш билан боғлиқ харажатлар, юқрида таъкидланганидек, хорижий мамлкатларда анча паст шу туфайли мазкур йўналишда тежамкорликка эришиш бобида бошқарув қарорларини қабул қилишда анча ишлар қилишимизга тўғри келар экан.

Хулоса қилиб айтганда корхонада ишлаб чиқариш аражатлари самарадорлигини бошқаришда тежамкорликка эришишнинг бир қанча йўналишлари мавжуд экан. Аммо мазкур ишда унинг айрим йўналишларига- гина тўхталдик. Келажакда замон талабидан ва ҳисоблаш имкониятларидан келиб чиқиб, йўналишларни кенгайтириш ва ҳисоб-китоб ишларини такомиллаштириш мумкин бўлади.

Яна бир жиҳат, инновацион иқтисодиёт шароитида корхонада хом ашё ва материаллар билан боғлиқ харажатлар самарадорлигини бошқаришда тежамкорлик режимига амал қилишнинг асосий йўналишлари қараб чиқилди. Бунда асосий эътибор хом ашё ва материаллар, ёқилғи ва электр энергияси билан боғлиқ харажатларни бошқариш масалалаари амалий маълумотларни қўллаган ҳолда ёритиб берилди. Уларнинг динамикаси ўрганилиб, тегишли бошқарув қарорларини қабул қилиш масалаларига ҳам эътибор қаратилди.

II ШЎБА. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ИХТИСОСЛАШГАН КЛАСТЕРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ҲОЛАТИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

ҒАЛЛАЧИЛИК КЛАСТЕРИ ТИЗИМИДА ХАРАЖАТЛАР ҲИСОБИНИНГ ТАШКИЛИЙ –УСЛУБИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Дусмуратов Раджапбай Давлатбаевич

и.ф.д., профессор, «Ўзбекистон Республикаси олий таълими аълочиси», ТДАУ
Бухгалтерия ҳисоби, таҳлил ва аудит кафедраси мудири.

Бозорбоева Зарнигор Гулмирза қизи
ассистент

Маълумки, Президентимиз Ш.М. Мирзиёев раислигида 2021 йил 27 октябрь куни қишлоқ хўжалигида кластер тизимини ривожлантириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилишида, 2022 йилдан ғаллачилик кластерлари ва фермерларга буғдойни бозор нархида тўлиқ эркин сотиш ҳуқуқи берилишини маълум қилди¹. Шунингдек, кластер ва фермер хўжаликлари 3 йил давомида ҳар гектардан 2,5 тонна ғаллани биржа савдоларига чиқариши талаб этилади. Қолган ҳосилни эса тўғридан-тўғри сотиш ҳуқуқи берилиши² таъкидланди.

Бундай улкан, кенг қамровли ва масъулиятли вазифаларни рўёбга чиқариш улар ечимига илмий-услубий, норматив-ҳуқуқий ва ташкилий-иқтисодий ёндашувларни тақозо этади. Хусусан, ғаллачилик кластерлари таркибига кирувчи фермер хўжаликларида ишлаб чиқариш харажатларини режалаштириш, ҳисобга олиш ва маҳсулотлар таннархини ҳисоблаш муҳим аҳамият касб этмоқда. Мамлакатимизда бошқарув ҳисобининг илмий-услубий асосларини яратиш бўйича маълум ишлар амалга оширилган [3.4 ва б.]. Лекин, бевосита ғаллачилик кластери тизимидаги ва хусусан, ғалла уруғчилигида харажатлар ҳисоби масалалари ўрганилмаган.

Бу борада харажатлар ва маҳсулот олиншининг ҳисобини ташкил этиш хусусиятлари тадқиқ қилиниб, қуйидаги хулосалар шакллантирилди:

Ҳозирча, дон экинлари бўйича оммавий танлашда қуйидаги тартиб қўлланилмоқда:

- биринчи йилда кўпайтириш питомниги;
- иккинчи йилда кўпайтириш питомниги;
- суперэлита;
- элита.

Ғалла уруғчилигининг бирламчи звенolari бўйича барча харажатлар дала ишлари, илмий ходимлар, техниклар, лаборантлар ва бошқа ишчиларнинг иш ҳақи ва бошқа харажатларни ҳисобга олиш учун амалдаги счётлар режасига 2011 – «Ғаллачиликда инновацион фаолият харажатлари» счёти очишни таклиф қиламиз. Ушбу счётга ҳар бир нав бўйича «...навнинг селекция – тажриба харажатлари» аналитик счётларни очиш мақсадга мувофиқ.

Суперэлита ва кўпайтириш питомникларида етиштирилган уруғликлар таннархига уруғлик қиймати орқали бирламчи уруғлик звенolarининг дала ва лаборатория харажатлари ҳам қўшилиши керак. Ғаллачиликчилик кластери тизимидаги хўжаликларда харажатларни ҳисобга олишнинг амалдаги тартиби эса бундай талабга жавоб бермайди. Шу муносабат билан ғалла уруғчилиги харажатларини ҳисобга олиш ва таннарх ҳисоблаш учун саноат ишлаб чиқаришининг айрим тармоқларида қўлланилаётган харажатларни ҳисобга олишнинг «бўлимли усули»ни қўллаш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Ушбу усулни қўллаш биринчи йилда олинган авлодларни синаш питомниги бўйича қилинган ҳақиқий харажатлар уруғлик қиймати орқали иккинчи йил авлодларини синаш питомнигининг харажатларига олиб боришни таъминлайди.

¹ <https://daryo.uz/k/2021/10/27/>

² Шу манба

Ғалла уруғчилигида олинган элита уруғлар, репродуктив ва кўшимча маҳсулотларни қирим қилиш учун қуйидаги счётлар корреспонденциясини тузиш таклиф қилинади:

Дебет 1011 – «Уруғлик»

2811 – «Тайёр ўсимликчилик маҳсулоти»

Кредит 2011 – «Ўсимликчиликда инновацион фаолият харажатлари»

Дебет 1011 – «Уруғлик»

2811 – «Тайёр ўсимликчилик маҳсулоти»

Кредит 2011 – «Ўсимликчиликда инновацион фаолият харажатлари»

Бир вақтнинг ўзида шу миқдордаги олдин қирим қилинган дон сторно қилинади. Мос равишда фойдаланилмайдиган чиқитлар ҳам сторно қилинади. Шундай қилиб, 2011 – «Ўсимликчиликда инновацион фаолият харажатлари» счётининг кредити бўйича аналитик счётларда уларнинг сифати бўйича қирим қилиниши таъминланади;

Элита уруғчилигига ихтисослашган хўжаликлар учун айрим дастлабки ҳужжатларга махсус реквизитлар, кўшимча графалар ва сатрлар киритиб, такомиллаштирилиши зарур. Мавжуд дастлабки ҳужжатларнинг шакллари уруғчилик хўжаликларида харажатларни ва элита уруғлари, биринчи, иккинчи ва учинчи репродукция уруғлар, ёндаш ҳамда кўшимча маҳсулотларни акс эттирадиган тарзда такомиллаштирилиши лозим. Шунингдек, уларни расмийлаштиришда қуйидаги хусусиятлар инобатга олинади:

Элита уруғи, биринчи, иккинчи ва учинчи репродукция уруғлар етиштириш харажатларини ҳисобда акс эттиришда меҳнат ва моддий харажатлар ҳисобига доир барча дастлабки ҳужжатларда нафақат ўсимлик номларини, балки уруғчилик звенolari ҳам (суперэлита, элита, биринчи репродукция ва ҳ.к.) кўсатилиши зарур.

«Дала ишларини бажаришда тракторчи – машинистларнинг ҳисоб варақаси» ва «Меҳнатни ва бажарилган ишларни ҳисобга олиш варақаси»да ишлар қайси ўсимлик тури ва уруғчилик звеноси учун бажарилганлигини кўрсатиш зарур. Бу меҳнат харажатлари, ёқилғи – мойлаш материаллари ва бошқа харажатларни тегишли экин тури (экинлар гуруҳи) ва уруғчилик звеносига тўғридан – тўғри олиб боришга имкон яратади.

«Минерал, органик ва бактериологик ўғитлар, пестицидлар ва гербицидларнинг ишлатилиши тўғрисида далолатнома» (18 – қ/х шакл), «Моддий қийматликларни олиш учун лимит – забор карта» (19 – қ/х шакл)да ҳам харажатлар қайси экин тури ва уруғчилик звеносига олиб борилиши кўрсатилиши зарур.

Шундай қилиб, ғалла уруғчилигига қилинадиган харажатларни ҳисобга оладиган дастлабки ҳужжатларда экин тури (экинлар гуруҳи) ва уруғчилик звеноси кўрсатилиб, натижада барча асосий харажатларни экин тури (экинлар гуруҳи), уруғчилик звеноси ва репродуктив маҳсулотларга тўғридан – тўғри олиб бориш имкони яратилади;

Ғалла экинларининг навли уруғликларини ишлаб чиқаришда харажатлар ва олинган маҳсулотларни ҳисобга олиш учун «Ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш ведомости» номли машинаграмма тузилиши зарур. Ушбу машинаграмма 2011 – «Ўсимликчилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш» счёти бўйича аналитик ҳисоб регистри вазифасини бажаради. Фикримизча, «Ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш ведомости» машинаграммасини Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ва Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлигининг 2008 йил 21 – январдаги 1 – сон ва ½ - сон қарори билан тасдиқланган “Фермер хўжаликларида бухгалтерия ҳисобининг соддалаштирилган тизимини ташкил этиш тўғрисидаги Низом” нинг 18 – сон иловаси негизида тузиш мақсадга мувофиқ. Машинаграммани тузишда юқорида қайд этилган “Ғаллачилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш харажатлари ва маҳсулот чиқишини ҳисобга олиш қайдномаси” га “меъёр бўйича” ва “меъёрдан четга чиқиш” деган кўшимча графалар киритиш тавсия этилади.

Фойдаланилган манбалар

1. Президент Ш.М. Мирзиёев раислигида 27 октябрь кuni қишлоқ хўжалигида кластер тизимини ривожлантириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши, <https://daryo.uz/k/2021/10/27/>.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 24.09.2019 йил 806-сон Қарори “Бошоқли дон етиштиришда кластер тизимини босқичма-босқич жорий этиш орқали

юқори ҳосилдорликни таъминлашга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”.
<https://lex.uz/docs/4529920>.

3. Пардаев А. Бошқарув ҳисоби.-Т.: Академия, 2002.-176 б.

4. Хасанов Б.А. Бошқарув ҳисоби: назария ва услубиёт.-Т.: Молия нашриёти, 2003.-247 б.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК КЛАСТЕРЛАРИ – ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ШАКЛИ СИФАТИДА

и.ф.н. Д.Ш.Явмутов

БухДУ, “Иқтисодиёт” кафедраси доценти

Ўзбекистон Республикаси аграр соҳа давлат томонидан фаол қўллаб-қувватланадиган мамлакатлар қаторига киради. Шу сабабдан, бугунги кунда республикамизда мазкур соҳа давлат томонидан молиявий жиҳатдан қўллаб-қувватланиб, замонавий ислохотлар амалга ошириб келинмоқда.

Бугунги куннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш хусусиятлари, панемия шароити қишлоқ хўжалиги соҳасининг жаҳон иқтисодиётидаги ўрнини яна бир бор аҳамиятли ва муҳимлигини яққол кўрсатиб берди. Мавжуд ресурс ва имкониятлардан оқилона фойдаланиб, аҳолини қишлоқ хўжалик маҳсулотлари билан кафолатли таъминлаш, соҳада янги иш ўринларини яратиш, манфаатдорликни янада ошириш энг муҳим масалага айланмоқда.

Мамлакатимизда иқтисодиётни, жумладан, қишлоқ хўжалиги соҳасини модернизация ва диверсификация қилиш, озиқ-овқат маҳсулотлари хавфсизлигини таъминлаш, фермер, кластер ҳамда кооперацияларни молиявий қўллаб-қувватлаш масаласига ҳар доимгидан ҳам кўпроқ аҳамият берилаётганининг боиси ҳам шунда.

Бинобарин, мамлакатимизда кластер тизимини жорий этиш, замонавий иссиқхона хўжаликларини яратиш ва томорқа хўжалиги амалиётини кенгайтириш нафақат ҳосилдорликни, балки қишлоқда аҳоли турмуш даражасини сезиларли даражада ошириш имконини берди. Таъбир жоиз бўлса, ушбу янги тузилма ўтган жуда қисқа вақт ичида аграр соҳани ҳаракатлантирувчи етакчи куч — драйверига айланди.

Умумий маънода, ишлаб чиқариш кластери иқтисодиётнинг бир хил ёки бир-бирига боғлиқ соҳаларида фаолият юритадиган ва географик жиҳатдан бир-бирига яқин бўлган корхоналар гуруҳидир. Бу корхоналарнинг технологик жиҳатдан ўзаро боғлиқ бўлиши жуда муҳимдир. Бундан ташқари, ушбу корхоналар битта умумий мақсад учун – рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқариш учун бирлашган. Кластер - бу қўшилган қиймат занжирининг барча иштирокчиларини (фермерлар, қайта ишловчи корхона, экспортёр) бир мақсад сари жамлаган корхоналар гуруҳи.

Масалан, пахта-тўқимачилик кластерининг технологик занжири пахта хом-ашёсини ишлаб чиқариш, уни қайта ишлаш, пахта толасидан калава ип ишлаб чиқариш, газлама ишлаб чиқариш ва тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни ўз ичига қамраб олади. Шу билан бирга, фермерларни (пахта хомашёсини етиштирувчиларни), пахта тозалаш заводини, пахтани қайта ишлаш корхонасини, тўқимачилик фабрикасини ва кийим-кечак ишлаб чиқарувчи корхонани бирлаштиришнинг мақсади – ҳар бир ишлаб чиқарувчининг харажатларини камайтирадиган ва якуний маҳсулотнинг рақобатбардошлигини оширадиган ягона тузилма яратишдир.

“Кластер” французча сўз бўлиб, “боғлам”, “гуруҳ”, “тўпланиш”, деган маъноларни англатади. “Кластер” тушунчаси илк бор 1990 йилда Майкл Портер томонидан “Давлатларнинг рақобатдош афзаллиги” номли асарига келтирилган. 10 та саноат жиҳатдан ривожланган давлатларнинг ривожланиш тарихини таҳлил қилгач, Майкл Портер кластерларнинг пайдо бўлиши иқтисодий ривожланиш ва саноатлаштириш жараёни таркибининг ажралмас қисмидир деган фикрга келган. Шундай қилиб, кластер – ўзаро боғлиқ корхоналарни бирлаштиришнинг бир шакли бўлиб, бу ҳудуд

иктисодиётининг рақобатбардошлигини ошириш имконини беради. Ташкиллаштириш шакли жиҳатидан, кластер – вертикал равишда интеграцияланган тузилма дейиш мумкин.

Ўзбекистон республикасида кластерлар тизими 2017-йилда жорий этилган бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 19-майдаги “Бухоро вилоятида замонавий пахтачилик-тўқимачилик кластерини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2978-сон қарори асосида Бухоро вилоятида “ВСТ cluster” МЧЖ ҚҚ ҳамда 2017-йил 15-сентябрдаги “Сирдарё вилоятида замонавий пахтачилик-тўқимачилик кластерини барпо этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3279-сон қарори асосида “Век-cluster” МЧЖ ҚҚ пахта-тўқимачилик кластерлари тажриба-синов тариқасида ташкил этилди. Кластер тизими яхши натижа кўрсатганидан кейин, мамлакатимиз бўйлаб турли кластерлар ташкил этилди. Бугунги кунда республикада пахта-тўқимачилик, ғаллачилик ва мева-сабзавотчилик кластерлари фаолият олиб бормоқда.

Ҳозирда республикада бўйича жами ташкил этилган кластерлар умумий сони - 463 та. Уларга бириктирилган ер майдони - 2210385 га, шундан кластерлар ихтиёрида - 282004 га, 75283 та фермер хўжалигида - 1930975 га.

Мева сабзавотчилик кластерлари умумий сони - 146 та, бириктирилган ер майдони – 116 минг га. 10 минг нафар фермер хўжаликлари билан 85,5 минг гектар ер майдонларида мева-сабзавот маҳсулотлари етиштириш бўйича фючерс шартномаси асосида иш олиб борилмоқда. 48 та кластерларда қуввати 927,8 минг тонна бўлган қайта ишлаш заводлари, 27 та кластерларда қуввати 265,9 минг тонна бўлган маҳсулотни саралаш ва қадоқлаш, 18 та кластерларда қуввати 203,2 минг тонналик маҳсулотни қуритиш, 7 та кластерда 32,2 минг тонналик маҳсулотни шок усулида музлатиш ҳамда 126 та кластерларда қуввати 265,7 минг тонналик оддий ва музлаткичли омборхоналар мавжуд. Уларга 24,5 минг га маҳаллий, 10,8 минг га интенсив боғ ва 25,6 минг га тоқзорлар бириктирилган.

Пахта-тўқимачилик кластерлари сони ҳозирда – 122 та, уларга бириктирилган ер майдони – 1033 млн. гектар. 26,8 минг та фермер хўжаликлари билан бозор тамойиллари асосида, 864 минг гектар ер майдонида пахта етиштирилмоқда.

2018-2020-йилларда жами 1 млрд 411 млн АҚШ доллари миқдоридан, хусусан, пахтани дастлабки қайта ишлаш соҳасида 1169 минг тонна қувватга эга 27 та 115 млн. АҚШ доллари, 548 минг тонна қувватга эга 41 та ип-калава ишлаб чиқариш лойиҳаларига 831 млн. АҚШ доллари, 161 минг тонна қувватга эга 34 та мато ишлаб чиқариш ва бўйаш лойиҳаларига 231 млн. АҚШ доллари, 148 минг тонна қувватга эга 23 та трикотаж (тикув) маҳсулотлари лойиҳаларига 234 млн АҚШ доллари жалб килинди.

Кластерларнинг 14 тасида (14,4%) пахтани қайта ишлашнинг 5 та босқичи, 15 тасида (15%) 4 та босқич, 19 тасида (19,6%) 3 та босқич, 30 тасида (30%) 2 та босқич ва 8 тасида (8,2 %) 1 та босқич қамраб олинган. Бухоро вилоятида ҳозирда 10 та мазкур соҳадаги кластерлар фаолият юритади.

Ҳозирда республикада ғаллачилик кластерларининг умумий сони – 157 та бўлиб, уларга бириктирилган ер майдони – 1038 минг гектар. Мазкур кластерлар 36,0 минг та фермер хўжаликлари билан 957, минг га ер майдонида ғалла етиштириш бўйича ҳамкорлик олиб борилмоқда. Бухоро вилоятида мазкур йўналишдаги кластерлар сони 5 та.

Ҳозирда республикада кластерлар билан бир қаторда қишлоқ хўжалик кооперативлари ҳам фаолият олиб боришмоқда. Кооперациялар тизими (кооператив) – қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари томонидан биргаликда ишлаб чиқариш ёки бошқа хўжалик фаолиятини юритиш учун ўзларининг моддий ва бошқа эҳтиёжларини қондириш мақсадида, ихтиёрий равишда мулкый пай бадалларини бирлаштириш асосида ташкил этилган қишлоқ хўжалиги корхонасидир.

Кооперация тизимининг мақсади:

– Кам харажат килиб, кўп даромад олиш. Маҳсулот етиштирувчиларнинг молиявий ҳолатини яхшилаш;

– Маҳсулот етиштирувчилар моддий-техник базасини замонавий қишлоқ хўжалиги техникалари ва ускуналари билан бойитиш;

–Инфратузилма объектларини янгилашдан иборат.

Ушбу тизим деҳқонларимиз, аграр соҳа вакилларига янги замоний услубда ишлашни ўргатмоқда. Маҳсулот экишдан то тайёр маҳсулотгача бўлган жараёни ягона технологик тизимга бирлаштирган ишлаб чиқаришнинг янги мажмуаси илм-фан ютуқларини, янги инновацион технологияларни амалиётга жадал жорий этишга ҳам кенг йўл очиб беради.

Бугунги кунда Республикаимизнинг 5 та вилоятида жами 43 та мева-сабзавотчилик кооперациялари ташкил этилган. Уларга 1,4 минг нафар қишлоқ хўжалиги субъектлари таъсисчи сифатида аъзо бўлишган. Қўшимча аъзо бўлганлар – 18 та қайта ишлаш корхонаси, 15 та экспортёр корхоналар, 95 та маҳсулотни тайёрловчи ҳамда 358 та бошқа турдаги қишлоқ хўжалиги субъектлари.

Хулоса ўрнида айтганда, Ўзбекистон шароитида кластерларни ривожлантириш энг оқилона қарордир. Боиси, қишлоқ хўжалиги учун ноқулай келган йилларда ҳам кластернинг бошқа ташкилотлари ҳисобидан умумий иш ўрни ва иш ҳақи сақлаб қолинади. Асосийси, кластерлар ҳудудларнинг иқтисодий мустақиллигини мустаҳкамлашда катта роль ўйнаб, ушбу ёндашув иқтисодий жиҳатдан устувор тармоқлар ва лойиҳаларни аниқлаш имконини беради. Экин экишдан то тайёр маҳсулотгача бўлган жараёни ягона технологик тизимга бирлаштирган ишлаб чиқаришнинг янги мажмуаси илм-фан ютуқларини, янги инновацион технологияларни амалиётга жадал жорий этишга ҳам кенг йўл очиб беради.

О‘ЗБЕКISTONDA KLASTERLASH SIYOSATINING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI

Hamroyev Halim Roziqovich
BuxDU. prof. i.f.n.

Klaster bu – bir-biri bilan raqobatlashuvchi, lekin shu bilan birga, butun klasterning raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida o’zaro hamkorlikda faoliyat yurituvchi, geografik jihatdan yaqin joylashgan tashkilotlarning o’zaro bog’langan guruhleri, ular faoliyatiga ixtisoslashgan xizmat ko’rsatish tashkilotlari, jihozlar yetkazib beruvchi tashkilotlar, ularga hamroh tarmoq tashkilotlari, shuningdek, ularning faoliyati bilan bog’liq turli soha tashkilotlari (ilmiy-tadqiqot institutlari, OO’Yulari, standartlashtirish bo’yicha agentliklar, savdo uyushmalari va h.k.) va boshqa bir qator tashkilotlar guruhidir.

Davlat klaster siyosatining maqsadi rivojlanishning klasterli modelini joriy qilish vositasida iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshirish uchun sharoitlar yaratish hisoblanadi. Ushbu maqsadga muvofiq davlat klaster siyosatining quyidagi vazifalari belgilab berilishi lozim:

-klasterlarni rivojlantirish sohasidagi faoliyatni tartibga soladigan me’yoriy-huquqiy bazani shakllantirish;

-klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun ustuvor yo’nalishlarni belgilash va klasterli rivojlanish sohasida monitoringni amalga oshirish;

-klasterli tashabbuslar va loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish;

-iqtisodiyotni rivojlantirishning klasterli modelini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tizimini shakllantirish va uning faoliyat yuritishini ta’minlash.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshirish borasida jahon tajribasini hisobga olgan holda rivojlanishning klasterli modelini joriy qilish bo’yicha davlat harakatlarini markazlashtirish davlat klaster siyosatining quyidagi yo’nalishlarini nazarda tutadi:

-iqtisodiyotni klasterli rivojlantirish sohasidagi faoliyatni me’yoriy - huquqiy tartibga solish, jumladan, milliy iqtisodiyotning klasterli rivojlanishi ular doirasida amalga oshirilishi mumkin bo’lgan me’yoriy - huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish (milliy texnologik platformalar, innovatsion komplekslar, klaster qatnashchilari assotsiatsiyalari,

strategik ittifoqlar va boshqalar), shuningdek, klasterli loyihalarni amalga oshirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik negizida klasterlar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari doimiy monitoringini tashkil qilish va amalga oshirish, jumladan, mintaqaviy kesimda, ularni rivojlantirish uchun ustuvor yo'nalishlar belgilash. SHuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik negizida shakllanadigan klasterlarni identifikatsiya qilishni (aniqlashni) tashkil qilish va metodologiya masalalarini aks ettirgan holda iqtisodiyotni klasterli rivojlantirish ustidan monitoring tashkil qilish va amalga oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish talab etiladi;

-klasterli tashabbuslar va loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda tashkiliy-uslubiy ko'mak. Buning uchun Iqtisodiyot vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi va hokimiyatlar qoshida klasterli tashabbuslar va loyihalar amalga oshirilishidan manfaatdor bo'lgan biznes - hamjamiyati, fan va ta'lim vakillari qatoridan ijtimoiy-maslahat kengashlari va komissiyalar tashkil qilish ko'zda tutiladi; -kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning klasterlar shakllantirish bo'yicha o'zini-o'zi tashkil qilishini qo'llab-quvvatlash, jumladan, kelgusida klasterli loyihalarni amalga oshirgan holda klasterli tashabbuslar ishlab chiqish va ilgari surish.

So'nggi yillarda mamlakatimiz har bir sohada ilg'or o'zgarishlarga zamonaviy texnika texnologiyalar bilan boyitilib borilmoqda, xususan, olganda yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan olib borilayotga qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar ham bundan mustasno emas.

Mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, barcha sohalarda klaster tizimini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darhaqiqat neft, gaz, ximiya, biotexnologiya, farmatsiya, informatika, avtoqurilish, transport logistika, oziq-ovqat, ta'lim, baliqchilik, parrandachilik, asalarichilik, ipakchilik va boshqa soxalarda klaster tizimlarini yaratish ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirish hajmini ko'paytiradi, sifatini yaxshilaydi, ilmiy tadqiqot ishlarining texnik ta'minoti darajasini yuksaltiradi, investitsiyaviy tashqi loyihalarda ishtirok etish, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Bundan tashqari, klaster tizimida ta'lim va ilmiy-tadqiqot markazlari yangi ilmiy - uslubiy ishlanmalarni yaratish, ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazish, ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar hamda mutaxassislar mehnatlarini ko'proq rag'batlantirish, yangi tovarlarni O'zbekiston brendi bilan ixtiro qilish uchun keng imkoniyatlar va sharoit paydo bo'ladi.

Milliy hukumat va mintaqaviy hokimiyat etakchi rolni bajarishi kerak. O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligi klasterlarini yaratish quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak: texnik sharoitlarni yaratish haqiqatan ham ishlaydigan tijorat mexanizmlari asosida sanoatni qayta jihozlash va investitsiyalarni jalb qilish; texnologiyada ham, menejmentda ham yangiliklarni juda faol tatbiq etish, bu albatta klaster sub'ektlarining barqaror rivojlanishini va ularning mintaqaviy va milliy darajalarda raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Mintaqa biznes yuritish uchun qulay muhitga ega bo'lishi kerak - korruptsiya, iqtisodiy jinoyatlar yo'q, rasmiylarning "soya" sxemalarini qo'llamay, qonuniy ravishda biznes yuritishga qiziqishi.

2016 yildan hukumat klaster tashabbuslariga jiddiy e'tibor qarata boshladi. Davlat nafaqat mahalliy, balki boshqa manbalar hisobidan sanoat va ilmiy markazlar kuch - g'ayratini birlashtirishni ko'zda tutdi. Aynan olganda mamlakatimiz bo'ylab barcha viloyatlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish chora tadbirlari ilgari surildi. Buning natijasida esa mamlakatimizda qo'shimcha ish o'rinlari yaratildi va aholi orasida o'z tomarqasidan samarali foydalanish imkoniyatlari va yil davomida oilaviy biznesni yo'lga qo'yish orqali o'z oilasiga yuqori daromad olib keladigan oilalar soni ortdi.

O'zbekistonda klaster «Erkin ilmiy-texnikaviy hududlar» shaklida tashkil etilmoqda. Erkin ilmiy-texnikaviy hududlar alohida ajratilgan hududlardan iborat bo'lib, u yerda ilmiy- ishlab chiqarish va o'quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o'rnatiladi. Erkin ilmiy-texnikaviy hududlar yuksak texnologiyalar amal qiladigan hududlar, texnoparklar, mintaqaviy

innovatsiya markazlari — texnopolislar shaklida tashkil etiladi.

Texnoparklar ikkita asosiy komponentlar: ishlab chiqarish sanoatning ilg'or sohasidagi korxonalar va mutaxassislar (universitet, institut, ilmiy-tadqiqot instituti, laboratoriyalarning kuchli guruhlari) dan tarkib topadi va ularning faoliyati raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga yo'naltiriladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, barcha sohalarda klaster tizimini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darhaqiqat, neft, gaz, kimyoya, biotexnologiya, farmatsevtika, informatika, avtoqurilish, transport - logistika, rekreatsion-turistik, oziq-ovqat, ta'lim, baliqchilik, parrandachilik, asalarichilik, ipakchilik va boshqa sohalarda klaster tizimlarini yaratish ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirish hajmini ko'paytiradi, sifatini yaxshilaydi, ilmiy tadqiqot ishlarining texnik ta'minoti darajasini yuksaltiradi, investitsiyaviy tashqi loyihalarda ishtirok etish, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Bundan tashqari, klaster tizimida ta'lim ishlanmalari yaratish, ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazish, ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar hamda mutaxassislar mehnatlarini ko'proq rag'batlantirish, yangi tovarlarni O'zbekiston brendi bilan ixtiro qilish uchun keng imkoniyatlar va sharoit paydo bo'ladi.

Xullas, klasterlar hozirgi zamonning o'ziga xos erkin iqtisodiy hududi sifatida mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtiruvchi muhim qurol sanaladi va bu quroldan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

2. Мирзиёев Ш.М. Мева-сабзавотчилик тармоғини янада ривожлантириш ва экспортини ошириш, аҳоли томорқаларидан самарали фойдаланишни таъминлаш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши. 05.11.2019. www.xabar.uz.

3. Концепция формирования и развития инновационно-промышленных кластеров в Республике Узбекистан.

4. Балашов А.П. Теория организации и организационное поведение: учеб. пособие / А.П. Балашов. - М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2014. - 304 с

5. Йўлдошев Н.Қ., Казаков О.С. Иқтисодиёт ва менежмент асослари. Тошкент, “Иқтисодиёт”, 2017 йил.

6. Классификация туристических кластеров / «Все о туризме – туристическая библиотека». – Режим доступа: http://tourlib.net/statti_tourism/bakumenko.htm.

QISHLOQ XUJALIGIDA KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVASION OMILLARI.

A.J.Abdulloev

BuxDU “Iqtisodiyot” kafedrasini mudiri, dos., i.f.f.d (PhD)

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini samarali rivojlantirishda klasterli yondashuvlarni o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Klasterning shakllantirilishi, klasterning barcha ishtirokchilarining raqobatbardoshligini oshirishiga, yangi ish o'rinlarini yaratish va qishloq xo'jalik infratuzilmalarini takomillashtirishga yordam beradi. Mamlakatimizda, raqobatli iqtisodiyotga asoslangan, o'zaro bog'liq korxonalar guruhi doirasida klasterlashtirishga o'tish dunyo va MDH mamlakatlariga nisbatan ancha kechroq kirishildi.

O'zbekistonda dastlabki klasterlar «Paxta va to'qimachilik klasterlarini barpo etish 2017 yildan boshlandi [2,3]. Mamlakatimizda 2018 yildan boshlab joriy qilinadigan meva-sabzavotchilik klasterlari «meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishdan to sotishgacha bo'lgan belgilangan jarayonni mustaqil ravishda amalga oshiruvchi yagona yoki o'zaro bog'liq korxonalar guruhi doirasini qamrab oladi [1]. Birinchi ishlab chiqarish klasterlari sifatida faoliyat

ko'rsatishni boshlagan «Bek» korxonasi tarkibiga «Gul-ren-teks», «Tekstil market», «Davron SHavkat Savdo» mas'uliyati cheklangan jamiyatlari, «Guliston medtexnika», «Sarbonteks», «Orzu tekstil' SV», «Sirdarinskiy bereg» qo'shma korxonalari, paxtachilik, g'allachilik, chorvachilik, bog'dorchilik, uzumchilik, parrandachilik va yilqichilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini birlashtirgan (2017), so'ngra «Mirza obod universal trade cluster» xususiy korxonasining «TRONTEX LP» (Buyuk Britaniya) va «GRATUM 121 TRADING LP» (Buyuk Britaniya) xorijiy kompaniyalari (maussislar) ishtirokida «Bek cluster» MCHJ qo'shma korxonasini barpo etishni tajriba loyihasi tashkil etildi [2]. Klasterlarni shakllantirishda davlat-xususiy sektor hamkorligi mexanizmi yo'lga qo'yiladi.

Mintaqada innovatsion klasterlarni rivojlantirishda quyidagi omillar ta'siri ko'rsatadi:

- yirik korxonalar mavjud bo'lishi. Zero, shu korxonalar bazasida innovatsion loyihalar sinab ko'rilishi va sanoat miqyosida amalga oshirilishi mumkin;

- mintaqada barcha klaster ishtirokchilari innovatsion faolligining doimiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarning yaratilishi;

- kichik innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish hamda yirik korxonalar kichik biznes bilan hamkorligini ta'minlash uchun innovatsion infratuzilmalarning yaratilishi;

- innovatsion g'oyalarni va loyihalar ishlab chiqish uchun poydevor va ilmiy baza bo'lib xizmat qiluvchi ilmiy-tadqiqot markazlarining mavjud bo'lishi;

- klasterdagi innovatsion korxonalar uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni amalga oshiruvchi universitetning mavjudligi;

- barcha klaster ishtirokchilari o'rtasida aloqalar borishini ta'minlovchi mavjud innovatsion transport va logistika tizimini yaratish, shuningdek, bu borada mavjud tizimdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish;

- mintaqaviy innovatsion siyosatni amalga oshirish doirasida shartnoma munosabatlari asosida mintaqada hududidagi korxonalarda shakllangan biznes yuritish an'analari va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar amaliyotining mavjudligi;

- klaster korxonalarining innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talabini aniqlash, shuningdek, mintaqada va uning tashqarisida innovatsion mahsulotlar savdosini avj oldirish bo'yicha mintaqaviy innovatsion siyosatni belgilash;

- mavjud va potentsial klasterlarning bitta tizimga birlashishi uchun zamin yaratish, zero bu mintaqada iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlaydi (bu erda innovatsion klasterga katta tizim sifatida qaraladi).

Innovatsion klasterlarni tashkil etish uchun klasterlar asosida rivojlantirish vositalarini shakllantirish, qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini yaratish, klasterlar asosida rivojlanishni monitoring qilib borish metodikasini ishlab chiqish, klaster tarkibiga kiruvchi korxonalarining innovatsion faolligini rag'batlantirish tizimini belgilash zarur.

Agrar tarmoqqa innovatsiyalarni keng tatbiq qilish, zaminimizda etishtirilayotgan xom ashyoni o'zimizda qayta ishlashni chuqurlashtirish bugungi zamon talabi hisoblanadi. Zero, qishloq xo'jaligi qanchalik sanoatlashsa, davlatning iqtisodiy va eksport salohiyati shunchalik ortadi, aholi turmush farovonligi yuksaladi. SHu bois O'zbekistonda keyingi paytlarda ilg'or texnologiyalarga asoslangan infratuzilmani yaratish, qishloq xo'jaligida klaster usulini joriy etishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday innovatsion loyihalardan biri Buxoro viloyatida ro'yobga chiqarilmoqda.

Buxoro viloyatida 2019 yil yanvar holatida jami fermer xo'jaliklari soni 7666 tani tashkil etib, 2015 yilga nisbatan ularning miqdoriy o'sishi 159 foizni (2015 yilda 4822 ta) tashkil etdi.[1] Bu asosan, mamlakatimizda fermer xo'jaliklarini optimallashtirishga qaratilgan islohotlarning natijasi bilan bog'liq.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari nafaqat qishloq xo'jaligi tovar mahsuloti ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqda, balki, birinchi navbatda o'zlari tomonidan etishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini saqlab, qayta ishlab, qadoqlab iste'molchilarga tayyor holda etkazib berish hamda bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda qishloq hududlarida turli xildagi xizmatlar ko'rsatib, xo'jalikning moliyaviy barqarorligini yanada oshirayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Prezident SHavkat Mirziyoev 31 martda Buxoro viloyatiga tashrifi ushbu yo`nalishda olib borilayotgan ishlarni yuqori baholab, ularni yanada takomillashtirish bo`yicha qimmatli taklif va tavsiyalar berdi. Qayd etish lozimki, davlat rahbarining 2016 yil 21 dekabrda “2017- 2019 yillarda to`qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to`g`risida”gi qarori ijrosi doirasida aynan ushbu hududda “BCT Cluster” xorij korxonasi tashkil etildi. Buning uchun 123,1 million AQSH dollarilik investitsiya yo`naltirilib, dunyoning etakchi davlatlarida ishlab chiqarilgan zamonaviy, kalava, uni bo`yash va to`quv-trikotaj fabrikalari tashkil etiladi.[2]

CHunki loyihaga ko`ra, mazkur klaster tizimida jami sakkizta kompaniya faoliyati yo`lga qo`yiladi. Paxta ekish agrokompleksi, paxtani qayta ishlash va tozalash zavodi, beshta fabrikani o`z ichiga olgan to`qimachilik majmuasi, yog`- moy zavodi, 12 ming bosh qoramol parvarishlashga mo`ljallangan chorvachilik fermasi, biogaz ishlab chiqarish zavodi, tejamkor texnologiyalarga asoslangan 20 gektarlik issiqxonona, 25 turdan ortiq sut va go`sht mahsulotlari tayyorlanadigan korxonona shular jumlasidan. Matoni bo`yashda ishlatiluvchi qimmatbaho tabiiy bo`yoq olinadigan indigo-ferum o`simligi ham aynan klaster hududida ekilmoqda. Klasterning innovatsion to`qimachilik korxonalari uchun sanoatbop xom ashyoning bir qismi esa tomchilatib sug`oriladigan ekin maydonlarida etishtiriladi. YOg`-moy zavodida chigitni qayta ishlash hisobiga olingan yog` iste`molchilarga jo`natilsa, kunjara hamda sheluxa shu erdagi ferma ehtiyojlarini ta`minlashda qo`l keladi.

O`z navbatida, chorvachilik majmuasi va ishlab chiqarish jarayonida hosil bo`ladigan organik chiqindilar kelgusida bunyod etiladigan 20 gektarli issiqxonani isitish manbai bo`lgan biogaz hamda qimmatbaho o`g`it – biogumus ishlab chiqarishga yo`naltiriladi. endi bevosita paxta-to`qimachilik klasterining boshqa ishlab chiqarish tuzilmalaridan afzalliklariga to`xtaladigan bo`lsak, bu yagona texnologik zanjirga birlashtirilgan korxonalar majmui va aholi turli qatlamlarini o`zida jamlovchi bog`lam, ayni paytda sohada innovatsion iqtisodiyotga o`tishning muhim bosqichidir.

U ilm-fan, ta`lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, yangi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etishda dolzarb ahamiyatga ega. CHunki bu erda xom ashyo qayta ishlashning barcha bosqichidan o`tib, eksportbop tayyor mahsulotga aylanadi. SHunday ekan, klasterni yaratish olim va iqtisodchilar, qishloq xo`jaligi, sanoat xodimlari, dizaynerlar salohiyati, ilg`or tajribasini yagona maqsad yo`lida birlashtirishni taqozo qiladi. SHu bois yangi loyihani ishlab chiqishda nafaqat o`zbekistonlik, balki xorijlik etakchi olimlar, ilmiy- tadqiqot markazlari xodimlari, mutaxassislari hamda tadbirkorlar bilan maslahatlashildi. SHu erning o`zida ilmiy-texnik kengash, ilmiy markaz va kadrlar tayyorlash bo`yicha kengash tuzish belgilab olindi. Oddiy qilib aytganda, innovatsion klaster, bu – bir majmua doirasida bir jamoa bo`lib erlarni shudgorlash, chigit ekish, paxtani parvarishlashb, hosilini yig`ib-terib olish, xom ashyoni chuqur qayta ishlash bilan bog`liq korxonalarni birlashtiruvchi ishlab chiqarish uslubidir. Mazkur jarayonda hamma ishchilar manfaatlari uyg`unlashadi. YA`ni xom ashyo etishtiruvchidan tortib, uni qayta ishlovchilargacha bo`lgan barcha ishchi- xodim mahsulot sifatiga birdek javobgar bo`ladi.

CHunki shunga yarasha oxirgi tovarni sotishdan paydo bo`ladigan qo`shimcha qiymatning bir qismi shu ishga bosh qo`shgan ishchilarga taqsimlanadi. Bunday rag`bat ularni nomigagina emas, balki sidqidildan mehnat qilishga undaydi. Hayot haqiqati shuki, agar oxirgi mahsulot oluvchilar bilan erga ishlov beruvchilar manfaatlari bir-biriga bog`lanmas ekan, bundan nafaqat dehqon yoki investor, balki davlat ham yutqazadi. Ayni paytda klaster tizimimizga Romitan tumanidan 8000 gektar er ajratilgan. Ilgari shuncha maydonda atigi 436 kishi mehnat qilgan bo`lsa, hozirgi kunda ularning soni 2 mingdan oshdi. Kelajakda bu raqam yanada ortadi. Eng muhimi, ishchidan tortib, menejer-rahbarlargacha har tomonlama maqbul oylik ish haqlari belgilangan.

Bizning klaster tizimida dehqon ham, rahbar ham qishin-yozin ishlaydi. YA`ni ular yil davomida nafaqat maosh, balki yaxshi ishlasa, mukofot puli ham oladi. Qanday qilib dersiz? Misol uchun, bu yil qish mavsumida ishchilarimiz uch guruhga bo`linib, chorva chiqindilarini yig`ishdi. Har bir brigadaga 100 gektardan maydon ajratib berildi. Ularda qazilgan katta-katta handaqlarda biogumus tayyorlanmoqda. Mutaxassislar hisob- kitoblariga qaraganda,

chorvachilikda go`sht-sut mahsulotlaridan ko`ra, biogumus ikki barobar ko`p daromad keltirar ekan. Ayni paytda chorvachilikni rivojlantirish uchun Germaniyadan jihozlar olib kelinayapti.

SHuningdek, 230 ta zamonaviy traktor, qishloq xo`jaligi texnikasi xarid qilayapmiz. Buning natijasida muhandislar, haydovchilar, mexanizatorlar kabi mutaxassisliklar bo`yicha qo`shimcha 500 ta ish o`rni yaratiladi. Umuman, kelajakda klaster tizimi to`liq ishga tushirilsa, jami o`n mingga yaqin doimiy ish joylari paydo bo`ladi. Bunday yangilikni eshitib, hozir otanalar Rossiya yoki Qozog`istonga ketgan farzandlarini chaqirib olmoqda. Kelganlarini ishga qabul qilib, yangidan mehnat daftarchasi ochilmoqda. Agar bitta oilada uch- to`rt farzand bo`lsa, oyiga qariyb 6 million so`m kirib boradi. YAqin kunlarda qo`shimcha chorva majmuasi ham qurib bitkaziladi. Asosiysi, mavjud qoramollarning 2 ming boshidan olinadigan qatiq, go`sht, sariyog`, kolbasa singari sut-go`sht mahsulotlari ishchi-xodimlarga maoshlari hisobidan imtiyozli narxlarda beriladi. Xullas, go`shtni bozordagidan besh-olti barobar arzon narxda olishadi. SHunday qilib, jamoa a`zolari ham oylik ish haqi, ham sifatli mahsulotga ega bo`ladi. Hisoblansa, har bir xodim oilasiga haftasiga besh kilogrammdan go`sht, sut-qatiq to`g`ri kelar ekan. CHigitdan yog` olsa, ularni nafaqat ishchilarga, balki Mehribonlik uylari va bog`chalarga bepul topshirish mumkin.

Klaster tizimi ekin maydonlarining meliorativ holatini yaxshilashda ham juda qulay hisoblanadi. Tan olish kerak, ko`p erlar “charchagan”. SHuning uchun, eng avvalo, ekin maydonlarining unumdorligini oshirish kerak. SHu maqsadda erlarni 41-45 santimetr chuqurlikda haydaldi, sho`rini yuvib, ekish uchun taxt holga keltirildi. Bu yil 8 ming gektarning 700 gektariga beda urug`i sepiladi. Sababi, ushbu o`simlik havodan tabiiy azot, fosfor, kaliyni olib tuproqqa beradi. Ikkinchi, uchinchi, to`rtinchi yili ham 700 gektarga beda joylashtirilib, faqat birinchi yilgi beda ekilgan joyga chigit qadaladi. SHunda etti yil bir erga paxta, uch yil beda ekiladi. Ko`ribsizki, er ham “tiriladi”, quvvatga to`ladi, paxta hosili ham zo`r bo`ladi. SHuni alohida ta`kidlash lozimki, almashlab ekish sxemasini qo`llab, erlarning bir qismida paxta ekish qisqarishi 8000 ming gektardan olinadigan hosil miqdorini aslo kamaytirmaydi. Aksincha, hosildorlik oshishi hisobiga ko`payadi. Ayniqsa, Prezident SHavkat Mirziyoev ham klaster usuliga O`zbekiston paxtachiligining kelajagi sifatida qaramoqdamiz, deya e`tirof etgan edi. SHu ma`noda, yurtimizdagi klaster tizimidagi qaldirg`och majmua hudud iqtisodiyoti ravnaqida qanday rol` o`ynadi.

Muhimi, paxtachilik va to`qimachilik sanoati istiqboli klaster usuli bilan bog`liq. Sababi, ilgari birgina Romitan tumanida 8 ming gektar maydonga paxta ekilganda, qiymati qariyb 10 million AQSH dollarilik xom ashyo sotilgan, xolos. Klaster usuli yordamida bu ko`rsatkichni 15-25 barobar ko`paytirib, 150 million dollar, hatto undan ham oshirish mumkin.[4]

Klaster tizimidagi paxta-to`qimachilik korxonasi tarkibida beshta fabrika ochiladi. Ularga dunyoning eng ilg`or davlatlari kompaniyalaridan to`qimachilik asbob-uskunalari, texnologik liniyalarni olib kelinadi. Jumladan, ip yigirish fabrikasi Germaniyadan, bo`yash fabrikasi AQSHdan, mato to`qish fabrikasi Bel`giyadan, pardozlash fabrikasi SHveysariyadan, tikuvchilik fabrikasi esa YAponiyadan keltiriladi. Mazkur liniyalar uyg`unligida dunyoda eng qimmatbaho bo`lgan “Denim-indigo” jinsi matosi hamda boshqa xaridorgir mahsulotlar chiqariladi.

Dunyoda mana shunday texnologiyalar asosida jinsi tayyorlovchi fabrikalar sanoqli. Agar, o`zi paxta ekib, jahon brendlari darajasidagi mahsulotlar ishlab chiqaradigan kompleks esa dunyoda yagona bo`ladi. Bu mamlakat – O`zbekiston bo`ladi. Endi buning iqtisodiy jihatini ko`rib chiqamiz. Bir kilogramm tola ko`pi bilan 1,5 dollarga sotiladi. Klaster tizimida qayta ishlangan 1 kilogramm toladan to`qilgan mato bitta “Denim-indigo” jinsi shimini tikish uchun etarli. Bunday mahsulot dunyo bozorida 500-1000 dollargacha turadi. Agar buni minimal qiymatda 15-25 dollar, deb baholasak, 8 ming gektardan oladigan paxtadan 150-250 million dollarlik ana shunday mahsulot tayyorlanadi. Agar oddiy xom ashyo eksportidan 10 million kelib tushsa, bunda uning natijasini ko`z oldingizga keltiring. Bu esa nafaqat Romitan tumani, Buxoro viloyati, balki O`zbekiston iqtisodiyotiga munosib hissa bo`lib qo`shilishi, qishloq xo`jaligi mehnatkashlari turmush darajasini ko`tarishda asosiy omillardan biriga aylanadi.

Ayni paytda klaster tizimimizdagi qurilish-montaj ishlari qizg`in pallaga kirgan. Xususan, “Bukhara cotton textile” klaster korxonasi hududida mavjud ishlab chiqarish binolari qayta

tà'mirlanib, yangi inshootlar bunyod etilmoqda. Aniqsa, hozirga qadar 34 milliard so'mlik qurilish ishlari bajarilgan. Suv yo'llari va qishloqning yaxlitligi saqlagan holda, 5 ta hududdagi maydonlar 90-120 gektardan 77 ta uchastkaga bo'lindi. 2019 yil hosildan tayyorlangan mahsulotlar eksportini 45 million, 2020 yilda 100 million, 2021 yilda 150 million AQSH dollarigacha etkaziladi.[3] Agroklasterni tashkil etishda davlat – oliy o'quv yurtlari - ilmiy tadqiqot muassasalari – fermer xo'jaliklari – qayta ishlash korxonalari – tayyorlov va sotish tuzilmalarining hamkorlikdagi faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida ishlab chiqarishga yuqori unumli zamonaviy texnologiyalar hamda innovatsiyalarni joriy etish ishlari jadallashadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan hamkorlikda oliy o'quv yurtlari talabalari amaliyot o'tashlari uchun sharoit yaratish, kelgusida ularni ishga olish sharti bilan eng iqtidorli hamda alochilariga stipendiya joriy etish, shuningdek, Yaponiya, Italiya va boshqa chet davlatlarga malakasini oshirish uchun jo'natish chora-tadbirlari ko'rilmogda.

Zero, Buxorodagi klaster zanjirining uzilmas halqasi bu ilmiy, ta'lim hamda kadrlarni tayyorlash tizimi ham hisoblanadi. Bundan tashqari, dunyodagi mashhur kompaniyalar bilan hamkorlikda eng kuchli dizayner-model'erni olib kelish bo'yicha sa'y-harakatlar davom ettirilmoqda. Bularning barchasi insonlar va davlat manfaatlarini birlashtirib, pirovardida klaster – integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o'sish mezonini ekanligini amalda to'liq isbotlashi muqarrardir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 29.03.2018.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi, 23 dekabr' 2017 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti:www.stat.uz

4. Rahmatov M.A. Klaster – ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omilidir. "Qishloq xujaligida klaster tizimini rivojlantirish: tajribalar, natijalar va istikbolli yunalishlar." Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2019 yil 24 may: - Buxoro.

5. Mustafakulov SH.I. Klasterli yondashuv asosida hududiy infratuzilmani shakllantirishda ustuvor yo'nalishlari. //Biznes-Expert ilmiy jurnali.: №9(105)- 2016.14-15b.

6. Abdulloev A. Formation and development of cooperative relations in the cotton fabric cluster activity // "Economics and entrepreneurship " . - Moscow, 2019. - No.1. - p. 775-780.

7. Abdulloev A.Zh. Foreign experience of agricultural cooperatives development and the chance of its adaptation in the Republic of Uzbekistan. // " Economics and Education " , 2007. No. 2. - pp.140 - 143.

8. Abdulloev A.Zh. Agricultural cooperatives: experience and opportunities. // " Agriculture of Uzbekistan " , 2008. – No 7. - p. 33.

9. Abdulloev A.Zh. The stages and measures of agricultural cooperatives formation. // " Exchange Expert " , 2012. - №7 - 8. - B. 9 – 10.

10. Abdulloev A.Zh. Cooperation in the context of modernization of the economy. // " Agriculture of Uzbekistan " . 2013. - No. 1. – p. 30 - 31.

БУХОРО ВИЛОЯТИДА ПАХТА-ТЎҚИМАЧИЛИК КЛАСТЕРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

Бобожонов Дилшод Махмудович
Шофиркон туманидаги “Бухоро Зархал текс”
МЧЖ пахта-тўқимачилик кластери раҳбари

2010 йилда ташкил қилган “Бухоро Зархал текс” МЧЖ 2017 йилгача 35 нафар ишчи билан 700 минг АҚШ долларилек маҳсулот экспорт қилар эдик. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 19 сентябрдаги № 744 сонли қарорига асосан ташкил қилинган кластер тизимига 2018 йилда биз ҳам ўтдик ва ўтган йиллар давомида

кластеримиз экспорт кўрсаткичлари 2-3 баробар ўсиб, ходимларимиз сони 500 кишига етди.

Шунингдек, кластер тизими билан маҳсулотимизнинг таннархини арзонлаштиришга, ортиқча харажатларни қисқартиришга ва тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш учун яхлит бир бутун тизим, узлуксиз занжир яратишга эришдик.

Кластеримиз 4500 гектар майдонда деҳқончилик қилиб пахта ва ғалла етиштирадиган 100 га яқин фермерлар билан фьючерс шартномаси ва ҳамкорлик асосида фаолият юритиб, пахта чигити ва уруғлик дон ерга қадалишидан унга агротехник тадбирлар амалга оширилиши ва ҳосилни йиғиштириб олинишига қадар фермер хўжалиқларини молиялаштириб, хориждан (Россия, Қирғизистон, Туркменистон) арзон ва сифатли ўғит олиб келиб, ёқилғи ҳамда қишлоқ хўжалиқ техникалари билан таъминлаб келади. Бизга бириктирилган майдонларда илғор замонавий технологияларни қўллаган ҳолда деҳқончилик ишларини олиб бораёмиз. Хусусан дастлаб 2020 йилда 300 гектар майдонда сув тежамкор технология – томчилаб суғоришни ташкил қилдик. 2021 йилда 450 гектар майдонда томчилаб суғоришни жорий қилдик. 2022 йилда яна 500 гектар майдонда сув тежамкор технология ўрнатишни режалаштиряёмиз. Бу билан деҳқон фермерларимиз ерга қилинадиган харажатлари оширмаган ҳолда, пахта ҳосилдорлигини 1,5 баробарга оширишга эришмоқдалар. Ва ўз навбатида даромад ва фойдалари ҳам ортмоқда.

Кластер тизими йўлга қўйилиши билан корхоналаримизда пахта тўқимачилик йўналишида тўлиқ ягона цикл сифатида фаолият кўрсата бошлади. Яъни пахтани етиштиришдан бошлаб, уни қайта ишлаш натижасида пахта толаси олиб, сўнгра ип йигирув фабрикамизда қайта ишлаш орқали турли ўлчамдаги тўқув иплари ишлаб чиқариб, сўнг ундан тўқимачилик фабрикаларимизда мато ишлаб чиқариш ҳамда тикувчилик корхоналаримизда тайёр тикув маҳсулотлари ишлаб чиқарила бошланди.

Албатта ишлаб чиқаришни инвестициясиз ривожлантириб бўлмайди. 2018 йилда Бухоро шаҳридаги тўқимачилик корхонамизга Бельгия ва Хитой давлатларидан янги тўқув дастгоҳларини келтириб ўрнатдик. 2019 йилда қисқа муддат ичида (11 ой) Шофиркон тумани Дўрман МФЙ ҳудудида янги пахтани қайта ишлаш корхонаси қуриб ишга туширдик. Бу корхонамизнинг йиллик қуввати 13000 тонна пахта хом-ашёсини қайта ишлашга мўлжалланган. 2021 йилда Олот туманидаги ип йигирув фабрикамизни дастгоҳларини Хитой давлатидан келтирилган замонавий дастгоҳлар билан модернизация қилдик. Бу йигирув фабрикамиз йилига 3000 тонна ип-калава ишлаб чиқариш қувватига эга бўлди. 2022 йилда Хитой давлатидан яна кўшимча янги замонавий тўқув дастгоҳлари олиб келиб ўрнатамиз.

Бир ойда ўрта ҳисобда 1 (бир) миллион погон метр пахта ипли газлама матолари ишлаб чиқариш йўлга қўйилди.

Шунингдек Бухоро шаҳридаги яна бир корхонамиз ўзимизда ишлаб чиқарилган матолардан тайёр тикувчилик маҳсулотлари (эко сумка) тикиб, Европага экспорт қилади.

Экспорт географиямизга назар солсак, Россия, Азарбайжон, Туркия, Польша, Қазоқистон мамлакатларига ўз маҳсулотларимизни экспорт қиламиз.

Бутун дунёдаги пандемия шароити ва карантин чораларининг қўлланилиши оқибатида юзага келган иқтисодий инқироз шароити бўлишига қарамай, Президентимиз ва ҳукуратимиз томонидан қабул қилинган қарор ва фармонлар, айниқса биз тадбиркорларга берилаётган имтиёзлардан фойдаланиб, 2020 йил йилда 4,3 млн. АҚШ долларилек маҳсулот экспорт қилдик. 2021 йил якунигача бу кўрсаткични 5,0 млн. АҚШ долларига етказишни мўжаллаёмиз.

“BUXORO ZARHAL TEKS” МЧЖ пахта-тўқимачилик кластери негизида Шофиркон туманида аралаш толали ип-калава ишлаб чиқариш, трикотаж ва тайёр тикувчилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш лойиҳаларини 10,0 млн. АҚШ долларилек маблағлар эвазига амалга оширишни режалаштирганмиз. 400 та янги иш ўринлари яратилиб, асосан Шофиркон тумани ёшлари иш билан таъминланади. Бу лойиҳамизни 2025 йилга қадар амалга оширишни мўжаллаёмиз.

2022 йилда Шофиркон туманида лойиха қиймати 1,8 млн АҚШ долари бўлган 50000 тонна ёғ ишлаб чиқарадиган замонавий ёғ-экстракция заводини қуриб ишга туширишни режалаштиряпмиз. Бу корхонамизда 40 та янги иш ўрни яратилади.

Пахта-тўқимачилик кластерини ташкил қилиб ўтган 2-3 йил ичида экспорт кўрсаткичимизнинг кескин ошганлиги бу йўналишдаги ишларнинг нақадар тўғри ва пухта ўйланганлиги ҳамда келажакда шу кластер тизими билан чекка ҳудудларимиз, туманларимизни ҳам иқтисодий ҳам ижтимоий жиҳатдан ривожлантиришга мустаҳкам замин яратишини кўрсатиб бермоқда.

Келгусида бор эътиборимизни Шофиркон туманида янги замонавий технологиялар билан жиҳозланган ишлаб чиқаришларни ташкил қилиб, янги иш ўринларини яратиш, айниқса қишлоқ ёшларини иш билан банд қилишга қаратамиз. Бундан ташқари, жаҳон бозорида сифат ва нарх билан рақобатлаша оладиган маҳсулотларни ишлаб чиқариб, Европа, Америка, Шарқий Осиё бозорларидаги ўрнимизни ошириш ва мустаҳкамлашга ҳаракат қиламиз.

АГРАР СОҲАДА ИНСОН КАПИТАЛИНИ ШАКЛЛАНИШ ВА РИВОЖЛАНИШ АЛГОРИТМИ

Амиркулов Шухрат Олимович

Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти
“Инновацион иқтисодиёт” кафедраси катта ўқитувчиси

Ҳозирги кунда дунёда беш ёшгача бўлган болаларнинг қарийб тўртдан бири тўйиб овқатланмайди, 260 миллиондан зиёд бола мактабда ўқимайди, ривожланаётган мамлакатларда мактаб ёшидаги кичик болаларнинг 60 фоизи минимал таълим олиш имкониятига эга эмас.

Жаҳон банки таҳлилларига кўра “кам даромадли мамлакатларда туғилган чақалоқлар ўзининг 37 фоиз имкониятларини иқтисодий қиймат яратишда фойдаланаётган бўлса, юқори даромадли мамлакатларда ушбу кўрсаткич 70 фоизни, Ўзбекистонда эса ўртача 62 фоизни ташкил этмоқда” [1].

Инсон капитали бу инвестициялар натижасида вужудга келадиган ва шахснинг ўзига даромад келтирадиган инсоннинг сифат хусусиятлари (соғлиғи, қобилиятлари, маълумоти, касбий маҳорати, ҳаракатчанлиги, ваколатлари ва бошқалар) тушунилади.

Инсон капитали инсоннинг ўзига хос хусусиятлари ва қобилиятларининг йиғиндиси бўлиб, у даромад келтирадиган қиймат сифатида ўрганилади.

“Дунё тажрибаси шуни кўрсатадики, ёш авлодни ҳар томонлама баркамол этиб вояга етказиш учун сарфланган сармоя жамиятга ўн, юз баробар кўп фойда келтиради [2].

Инсон капиталининг ривожланиши давлат, жамият ва бутун иқтисодиётнинг барқарорлигини таъминлашнинг асосий шартидир. Аграр соҳада юқори сифатли инсон капиталини шакллантириш тармоқни ривожлантиришда муваффақият қозонишнинг асосий йўналишларидан бири ҳисобланади.

Инсон капиталининг аграр соҳадаги меҳнат фаолияти жараёнини икки ҳолатга бўлиш мумкин:

инсон ўзи бажарадиган меҳнат жараёнини ўзи белгилайди, бу ҳолат интеллектуал жараёнлар фаоллашишини таъминлайди ҳамда мотивация ва самарадорликни оширади;

меҳнат омили ишлаб чиқаришни интенсивлаштириш омили билан бирлаштирилганда, ижодий салоҳиятни қўллаш имкониятлари чекланган бўлса, инсон капитали билан ишлаб чиқаришни мақбул ривожлантириш зоналари бир бирига мос келмайди. Бу ерда қизиқишлар гуруҳининг мақсадлари бир-бирига зид бўлиши мумкин.

Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришни давлат томонидан тартибга солиш ва озиқ-овқат хавфсизлигини назорат қилиш, иқтисодиётнинг аграр соҳасида инсон капиталини шакллантиришнинг бир қатор хусусиятларини белгилаш билан муҳим аҳамият касб этади.

Тадқиқот натижалари, иқтисодиётнинг аграр соҳасида инсон капиталини шаклланишининг ўзига хослигини қуйидаги хусусиятлар билан ифодалаш имконини беради:

инсон капитали ташувчилари бўлган инсон ресурсларининг аграр соҳадан иқтисодиётнинг бошқа барқарор соҳаларига мунтазам равишда чиқиб кетиши;
иқтисодиётнинг аграр соҳаси ижтимоий-иқтисодий ва кўп укладли технологик хусусиятларга эгаллиги;

қишлоқ ҳудудларида инфратузилманинг етарли даражада ривожланмаганлиги;
қишлоқ турмуш тарзига хос бўлган қишлоқ аҳолисининг ижтимоий-иқтисодий консерватизми, маданий ва тарихий анъаналари;

хўжалик фаолиятининг иқтисодий натижаларини, айниқса, ўсимликчиликда олдиндан айтиб бўлмаслиги;

қишлоқ хўжалигини ривожлантиришни давлат томонидан тартибга солиш ва озиқ-овқат хавфсизлигини назорат қилиш.

Инсон капиталини ўлчаш услугиёти ўрганилаётган инсон капиталининг асосий элементларини миқдорий баҳосини ҳисоблашнинг илмий асосланган алгоритми ҳисобланади.

Аграр озиқ-овқат сиёсатини юритишга мувофиқ қишлоқ хўжалигини ривожлантиришни давлат томонидан тартибга солиш инсон капиталини шаклланиши ва ривожланишига комплекс таъсир қилади (1-расм).



1-расм. Аграр соҳада инсон капиталини шаклланиш алгоритми [3]

Аграр соҳада инсон капиталини шаклланиш алгоритми бевосита инсоннинг индивидуал хусусиятларига боғлиқ. Индивидуал хусусиятлар эса инсоннинг ёшига қараб ўзгариб туради. Шу сабабли инсон капиталини ҳаёт цикли моделида манфаатли ёндашув асосида баҳолаш мақсадга мувофиқдир.

Баҳолашнинг ҳаётий цикл моделидан фойдаланиш инсон капиталининг турли даражадаги инсон тараққиёти жараёнини тавсифлаш учун жуда самарали ҳисобланади.

Инсон капиталини шаклланиши ва ривожланишини ҳаёт цикли модели асосида бошқариш, корхонани ривожлантиришнинг стратегик йўналишларини ишлаб чиқиш,

ташқи муҳитнинг салбий таъсирини юмшатиш, даврий ривожланишнинг келажакдаги муаммолари ва қонуниятларини ҳисобга олган ҳолда корхонанинг ички ташкилий, технологик, кадрлар таркибини изчил ва мақсадли оптималлаштиришга имкон беради.

Аграр соҳада ҳаёт цикли модели асосида инсон капиталини ривожланишини бошқариш механизмини амалга ошириш стратегик бошқариш принципларига (хусусан, форсайт-технологияси)га асосланган ҳамда “мақсадлар дарахти”, экстраполяция ва эксперт баҳолаш усулларини ташкилот ичидаги ўзгаришларни бошқариш воситаси сифатида қўллашни ўз ичига олади. Механизмдан фойдаланиш экологик талабларнинг ўзгаришига мувофиқ қишлоқ хўжалигини ривожлантириш бўйича бошқарув қарорларини оқилона танлашга имкон беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- [1] Жаҳон банкининг инсон тараққиёти тўғрисидаги 2020 йил ҳисоботи. <https://strategy.uz/index>.
- [2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
- [3] Муаллиф тадқиқотлари асосида ишлаб чиқилди.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ МОҲИЯТИ ВА ЗАРУРИЯТИ

Давлатов Сухроб Сайитжонович

Бухоро Давлат университети катта ўқитувчиси

Жаҳон хўжалигининг глобаллашуви шароитида қишлоқ хўжалигидаги рақобат ҳар доим ҳам маҳаллий бозорларда ўз ўрнини эгаллаш ва мустақамлаш учун курашни англамайди. Қишлоқ хўжалигида фаолият юритувчи хўжалик субъектлари ўртасидаги ўзаро рақобат курашида асосан бошқа минтақаларда, жумладан қулай шарт-шароитлар яратилган, ернинг унумдорлиги юқори бўлган, ишчи кучи нисбатан арзон ва сув таъминотида муаммо бўлмаган ҳудудлардаги нисбатан арзон таннархдаги қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқарувчилар рақобат устунлигига эга бўладилар. Бу турдаги рақобат курашида устун келиш жуда қийин бўлиб, аксарият ҳолатларда рақобат устунлигига эга бўлишнинг имконияти бўлмайди. Шунингдек, айрим ҳолатларда қишлоқ хўжалиги субъектлари саноат тармоқлари субъектларидан фарқли ўларок, ўз хўжаликларини жойлаштириш учун ҳудудларни танлаш имкониятига эга бўлмайдилар. Бу эса аграр соҳа тармоқларида айрим хўжалик юритувчи субъектларнинг қулай ҳудуддан тегишли майдонга эга бўлганликлари ҳисобига рақобат курашида монополистик устунликка эга бўлишларини таъминлайди.

Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг “мукамал рақобат” шароитида хўжалик юритувчи субъектлар ўртасида бирон бир рақобат устунлигига эга бўлган фермер хўжалигининг мавжудлиги, бошқаларнинг рақобатбардошлик кўрсаткичини ташқи таъсир ҳисобига заифлашишига олиб келади. бозор иқтисодиёти муносабатларининг тобора ривожланиб бориши аграр соҳада фаолият юритаётган иқтисодий субъектлар ўртасидаги рақобат курашини горизонтал шаклини бир мунча заифлаштирган ҳолда, вертикал рақобат муносабатларини жадал ривожланишига олиб келди. Аграр соҳадаги рақобат курашининг яна бир ўзига хос жиҳати қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари маркетингини монополлаштириш хусусиятига эга эканлигида ўз аксини топади. Шунингдек, бир ҳудудда жойлашган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи иқтисодий субъектлар ўзаро интеграцион муносабатларга киришиш орқали ҳудудлараро ёки мамлакатлараро рақобатга киришган ҳолда, вертикал рақобат курашига киришадилар. Ушбу ҳолат маълум бир ҳудуд ичидаги ўзаро рақобат курашини интенсивлигини бироз сусайтирган ҳолда, ҳудудий кооперативлар ўртасидаги рақобатнинг ривожланишига олиб келади.

Иқтисодий адабиётда қишлоқ хўжалиги соҳасида рақобатнинг ўзига хос хусусиятларини белгиловчи бир қатор ҳолатлар мавжуд. Хусусан, “нарх қайчиси” ҳолати рақобатга киришувчи хўжалик субъектларининг молиявий ҳолатига салбий таъсир кўрсатувчи ҳолатлардан бири бўлиб, баъзи вазиятларда ишлаб чиқарувчилар қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш учун сарфлаган харажатларини тўлиқ қоплаш имкониятидан маҳрум бўладилар. Шунингдек, фермер хўжаликларида юқори маҳсулдорликка эришиш учун фақатгина меҳнат унумдорлигини ошириш ва ишлаб чиқариш жараёнларини технологик жиҳатдан такомиллаштириш талаб этилади. Фермер хўжаликларида ишлаб чиқариш жараёнларига турли комбайнлар, кўпфункционали тракторлар ва шу каби бошқа техникаларнинг жалб этилиши улар томонидан маҳсулот етиштириш сарф-ҳаражатларини минималлаштириш, ишлаб чиқариш ҳажми ва самарадорлигини ошириш учун хизмат қилади. Шунингдек, ушбу техник қуролланиш қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини, айниқса, ўсимликларни етиштириш, экинларни экиш ва ҳосилни йиғиш мавсумидаги меҳнат унумдорлигини ортишига бевосита таъсир кўрсатади.¹

Давлат томонидан амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳот чора-тадбирлари орқали қишлоқ хўжалиги корхоналарининг рақобатбардошлигини оширишда иқтисодий дастаклар бевосита ишлаб чиқарилаётган маҳсулот таклифини рағбатлантиришга қаратилганлиги билан характерланади. Шунингдек, иқтисодий дастакларнинг самарали амал қилишига қуйидаги омиллар ўз таъсирини ўтказди:²

- ички бозор сиғимкорлигининг чекланганлиги. Бунда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи субъект томонидан етиштирилган маҳсулотларни бошқа мамлакатларга экспорт қилиш, уларни ташиш ва сақлаш бўйича давлат томонидан етарли шарт-шароитларни яратилганлиги;

- маҳсулот етиштириш (ёки ишлаб чиқариш) харажатлари ҳажми. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш жараёнларини техник ва технологик жиҳатдан замонавий қуроллантириш орқали маҳсулот таннархини пасайтиришга эришишни давлат томонидан рағбатлантириш зарурияти;

- дастлабки харажатлар. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш бўйича янги хўжалик субъектларини очиш, уларнинг фаолиятини ривожлантиришнинг илк босқичларида уларни молиявий ресурслар билан таъминланганлиги ва давлат томонидан қўллаб-қувватланиши;

- давлатнинг иқтисодий сиёсати. Бунда давлат томонидан қишлоқ хўжалиги соҳасида қўлланилаётган протекционизм сиёсати, аграр соҳа тармоқларини молиявий қўллаб-қувватлаш, уларга яратилаётган шарт-шароитлар, соҳага давлат кафолати остида жалб этилаётган инвестициялар, аграр соҳада банд бўлган ёлланма ишчиларни ижтимоий ҳимоя қилинганлик ҳолатлари инобатга олинади;

- маҳсулотни тўлиқ ҳажмда сотиш (ёки реализация қилиш) имконияти.

Қишлоқ хўжалигининг рақобатбардошлик даражасини оширишга давлат томонидан таъсир кўрсатишнинг иккинчи дастаги ҳуқуқий дастак ҳисобланиб, унга қуйидаги омиллар таъсир кўрсатади:³

- бошқарув. Бунда мамлакатда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи корхоналар бошқарувининг анъанавий ёки инновацион шаклда ташкил этилганлиги назарда тутилади. Анъанавий бошқарувга асосланган иқтисодий субъектларда ишлаб чиқариш жараёнларида асосан инсонларнинг меҳнатида кенг фойдаланилса, инновацион бошқарувда илф-фан ютуқларини ишлаб чиқариш жараёнларига кенг татбиқ этган ҳолда, техник ва технологик жиҳатдан қуролланишга устуворлик қаратилади;

¹ Захаров А.Н. Экономическая сущность и механизмы повышения конкурентоспособности предприятия: [мировой опыт]/ А. Н. Захаров // Внешнеэкономический бюллетень. - 2004. - N 4. - С. 11-20.

² Каучуков Р., Савка А. Механизм государственного регулирования цен в аграрном секторе развитых стран. Экономист №6 2001. С. 24-25

³ Каучуков Р., Савка А. Механизм государственного регулирования цен в аграрном секторе развитых стран. Экономист №6 2001. С. 25-26.

- қонунчилик. Бунда аграр соҳада хўжалик фаолияти юритишга оид яратилган шарт-шароитлар, хўжалик юритувчи субъектларнинг ҳақ-ҳуқуқлари ва уларнинг мажбуриятлари бўйича мамлакатда амал қилаётган меъёрий-ҳуқуқий асослар назарда тутилади;

- криминоген омиллар. Аграр соҳа маҳсулотларини етиштириш, уларни сотиш, яратилаётган имкониятлардан фойдаланиш бўйича айрим хўжалик субъектларига асоссиз равишда (таниш билишчилик, коррупция асосида) имтиёзларнинг ажратилиши, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари контрабандаси ва шу каби қонунларнинг бузилиши ҳолатлари назарда тутилади. Амалиётда криминал омиллар ҳисобига айрим қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи субъектлар рақобат устунлигига эга бўлишга интилиши ҳолатлари учраб туради.

Қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлигини оширишга давлат томонидан таъсир кўрсатишнинг ташкилий дастакларининг самарали амал қилишига қуйидаги омиллар таъсир кўрсатади:¹

- бозор инфратузилмасининг ривожланганлик ҳолати. Бунда қишлоқ хўжалиги маҳсулотларни ишлаб чиқариш (етиштириш), жумладан, экинларни экиш, уларни парвариш қилиш, ҳосилни йиғиб олиш, маҳсулотларни етказиб бериш ва узоқ муддат сақлаш, шунингдек, етиштирилган маҳсулотларни тўлиқ сотиш имконини берувчи интитуционал бирлашмалар, логистик марказлар, техник хизмат кўрсатувчи ташкилотлар ва шу каби бошқа турдаги корхоналар фаолиятининг йўлга қўйилганлиги назарда тутилади;

- аграр соҳа тармоқларининг интеграцион стратегияси. Бунда мамлакат қишлоқ хўжалиги тармоқларини узоқ муддатли даврда рақобатбардошлиги кўрсаткичини оширишда агросаноат кластерларини ташкил этиш назарда тутилади. агросаноат кластерлари бугунги кунда қишлоқ хўжалигига сарфланаётган инвестицион лойиҳаларнинг самарадорлигини оширишга хизмат қилмоқда.

Амалга оширилган таҳлиллар натижалари кўрсатишича, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари рақобатбардошлиги рақобатчиларга нисбатан ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг нарх ва сифат жиҳатдан жозибадорлиги ва харидорғирлиги билан тавсифланади. Фикримизча, қишлоқ хўжалиги тармоқларида фаолият юритаётган иқтисодий субъектларнинг рақобатбардошлиги даражасини комплекс таҳлил қилишда улар томонидан ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг нарх ва сифат кўрсаткичлари билан бир қаторда ишлаб чиқариш ҳажми, маҳсулотларни етказиб бериш шартлари, уларни сақлаш шарт-шароитлари каби омилларни ҳам инобатга олиш зарур деб ҳисоблаймиз. Ушбу омиллар аграр соҳа тармоқларида хўжалик фаолияти юритувчи субъектларнинг ўзаро рақобат устунликларига эришишини таъминлайди. Шунингдек, ушбу омиллар ҳисобига рақобатбардошлик даражасини баҳолаш орқали хўжалик юритувчи субъектлар ишлаб

Қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлигини тушунчаси иқтисодий категория сифатида кўпдаражали характерга эга бўлган ҳолда, мураккаб таркибий тузилишли тушунча ҳисобланиб, унинг ташкилий ва функционал даражалари ўзаро фарқланади (1-жадвалга қarang). Ташкилий даражадаги рақобатбардошлик қишлоқ хўжалигининг мамлакат, тармоқ, тармоқлараро, қишлоқ хўжалиги фаолияти юритувчи иқтисодий субъектлар ва маҳсулот даражасидаги рақобатбардошлик кўрсаткичини англатади. Функционал даражадаги рақобатбардошлик даражаси эса қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлигини ошириш механизмининг амал қилишининг турли даражаларидаги, хусусан, рақобатбардошлик даражасига таъсир кўрсатувчи омиллар, маҳсулот ишлаб чиқариш (етиштириш) омилларининг детерминанти ва омиллар детерминантларининг амал қилиш шароитидаги рақобатбардошлик даражаларидан ташкил топади.

¹ Ўша манба

Қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлиги даражалари¹

Қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлиги даражаси ва унинг гуруҳланиши	
Ташкилий даражада	Функционал даражада
Мамлакат қишлоқ хўжалигининг рақобатбардошлиги	Қишлоқ хўжалигининг ишлаб чиқариш омиллари даражасидаги рақобатбардошлиги
Қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлиги	Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши омилларининг детерминанти даражасидаги рақобатбардошлиги
Қишлоқ хўжалиги тармоқларининг рақобатбардошлиги	
Қишлоқ хўжалиги тармоқларида фаолият юритувчи иқтисодий субъектлар рақобатбардошлиги	Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш омиллари детерминантларининг амал қилиши шароитидаги рақобатбардошлик даражаси
Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари рақобатбардошлиги	

Қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлигини оширишда унга таъсир кўрсатувчи ички ва ташқи омилларни ҳам инобатга олиш зарур бўлади. Қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлиги даражасини оширишга таъсир кўрсатувчи ички омиллар қаторига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- ишлаб чиқариш омиллари билан таъминланганлик даражаси;
- ишлаб чиқариш жараёнларининг техник ва технологик жиҳатдан қуролланганлиги;
- меҳнат ресурсларининг салоҳияти.

Қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлигини оширишга ташқи омилларнинг таъсири ички омилларга нисбатан сезиларли таъсир ўтказган ҳолда улар бозор, ташкилий, сиёсий ва географик омиллар гуруҳларига ажратилади. Қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлигини оширишга таъсир кўрсатувчи ташқи омилларнинг бу тардаги гуруҳланиши рақобат устунлигини тизимли таҳлил қилиш асосида аграр соҳа тармоқларининг самарали фаолият юритиши учун замин яратади.

Амалга оширилган тадқиқотларимиз натижаларига таянган ҳолда айтиш мумкинки, мамлакат қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлигини ошириш узоқ муддатли истиқболда миллий озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, жумладан қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг ҳажмини ошириш ва сифатини такомиллаштириш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Захаров А.Н. Экономическая сущность и механизмы повышения конкурентоспособности предприятия: [мировой опыт]/ А. Н. Захаров // Внешнеэкономический бюллетень. - 2004. - № 4. - С. 11-20.

2. Каучуков Р., Савка А. Механизм государственного регулирования цен в аграрном секторе развитых стран. Экономист №6 2001. С. 24-25

3. Качанов М.А. Экономические отношения в системе производственного обслуживания сельского хозяйства. - М.: ВНИЭТУСХ, 1998. - 226 с. (с. 30)

4. Конкурентоспособность сельскохозяйственных предприятий и фермерской деятельности в странах переходного периода / Под ред. П. Тиллака и В. Зиновчука. Труды ИАМО; Вып. 7, 2000. С. 35-42

5. Магомедов М.Д., Алексейчева Е.Ю. Способы оценки конкурентного потенциала предприятия и условия его повышения / М.Д. Магомедов, Е.Ю. Алексейчева // Экономические проблемы хранения и переработки сельхозпродукции. - 2001. - № 7. - С. 23-25.

¹ Качанов М.А. Экономические отношения в системе производственного обслуживания сельского хозяйства. - М.: ВНИЭТУСХ, 1998. - 226 с. (с. 30); Конкурентоспособность сельскохозяйственных предприятий и фермерской деятельности в странах переходного периода / Под ред. П. Тиллака и В. Зиновчука. Труды ИАМО; Вып. 7, 2000. С. 35-42; Магомедов М.Д., Алексейчева Е.Ю. Способы оценки конкурентного потенциала предприятия и условия его повышения / М.Д. Магомедов, Е.Ю. Алексейчева // Экономические проблемы хранения и переработки сельхозпродукции. - 2001. - № 7. - С. 23-25. Маълумотлари асосида тузилган

АГРОТУРИЗМ КЛАСТЕРЛАРИ - ҚИШЛОҚ ХУДУДЛАРИНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА

Сайфуллоев Ойбек Олимович

Бухоро давлат университети

Иқтисодиёт кафедраси таянч докторанти (PhD)

2019 йилда бошланган коронавирус пандемияси инсоният фаолиятига, турмуш даражасига, эҳтиёжларига ҳамда эҳтиёжларни қондириш воситалари таркибига ўз таъсирини ўтказди. Шу жумладан инсон фаолияти билан боғлиқ бўлган ҳордиқ чиқаришга бўлган эҳтиёжни қондириш борасида ўзгартиришлар киритиш ҳамда туризм ва дам олиш жойларини ривожлантиришнинг янги усуллари излаш зарурияти юзага келди. Урбанизация даражасининг ошиб бориши, экологиянинг ёмонлашуви ҳамда замонавий ҳаётнинг бошқа салбий омиллари шаҳар аҳолисида шаҳарнинг шовқин-суронидан узоқда дам олишга бўлган истагини шакллантиради. Ҳозирги вақтда шаҳар аҳолиси аҳолиси орасида очик ҳавода, табиат қўйнида дам олишга бўлган юқори талаб шаклланган. Бу талабни туризмнинг агротуризм йўналишини ўзининг барча шакллари орқали таъминлаши мумкин. Қишлоқ жойларида очик сайёҳлик жаҳон амалиётида узоқ вақтдан бери кенг тарқалган ва ваколатли давлат бошқаруви билан минтақаларнинг алоҳида қишлоқ жойлари учун ҳам, умуман давлат учун ҳам аниқ иқтисодий самара беради [2].

Асосий қисм. Ўзбекистонда агротуризм соҳаси ҳали шаклланиш босқичида. Қишлоқ жойларида инфратузилманинг яхши ривожланмаганлиги, агросаноат комплексининг аксарият корхоналари томонидан аҳолини иш таъминлаш даражаси юқори эмаслиги каби муаммолар мавжуд. Шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг доимий аҳолиси сони 2021 йил 1 июль ҳолатида 34 860,2 минг, шундан қишлоқ аҳолиси сони 17 195,4 минг кишини ташкил этади [3]. Ушбу муаммолар бизни қишлоқ аҳолисининг бандлигини таъминлаш, даромад манбаларини ҳамда ҳажмини кўпайтиришнинг янги усул ва механизмларни излашга мажбур қилади. Бу муаммоларнинг ечимларидан бири минтақаларда агротуризм соҳасини ривожлантириш бўлиши мумкин.

Туризмнинг агротуризм шакли, қишлоқ туризми, экотуризм, спорт туризми, тоғ ва экстремал туризм, этник туризм каби муваффақиятли туризм бизнесини юритишнинг бир шакли сифатида, атроф-муҳитга ғамхўрлик қилиш, қишлоқ жойларида ресурсларни тежаш ва кўпайтириш, сайёҳлик ҳудудларининг ижтимоий, маданий ва иқтисодий фаровонлиги таъминлашда ҳам устувор аҳамият касб этади.

Ўзбекистон шароитида агротуризм соҳасининг асосий муаммоларидан бири - туризм соҳасининг бу соҳасининг яхши тадқиқ қилинмаганлигидир. Туризм соҳасидаги фаолиятни тартибга солувчи давлат норматив-ҳуқуқий ҳужжатларида ва туризм соҳасидаги давлат дастури ҳужжатларида ҳали “агротуризм”, “қишлоқ туризми” тушунчаларининг аниқ таърифи келтирилмаган. Агротуризм фаолиятни ташкил этишнинг мавжуд реал мисолларига қарамасдан, Ўзбекистонда агротуризмни ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар тизими аниқ шакллантирилмаган ҳамда туризм саноатининг ўзига хос соҳаси сифатида агротуризм соҳасида қўлланиладиган стандарт ва қоидалар ишлаб чиқилмаган. Шунингдек, ушбу соҳада инвесторларнинг қизиқиши жуда паст ёки соҳанинг инвестицион жозибадорлиги етарли даражада тадқиқ қилинмаган. Аммо, бу ҳолатларни соҳага бўлган талабнинг мавжуд эмаслиги билан изоҳлаш ноўрин. Тадқиқотлар натижасида бемалол таъкидлаш мумкинки, Ўзбекистон шаҳар аҳолисида қишлоқ жойларида саёҳат қилишга бўлган жуда катта қондирилмаган яширин талаб мавжуд. Айнан ушбу омиллар агротуризм бизнес сифатида ҳам, ҳудудларни ривожлантириш воситаси сифатида ҳам катта салоҳиятга эга эканлигини кўрсатмоқда. Ҳар бир соҳа ривожини каби агротуризм соҳаси ривожини ҳам соҳага йўналтирилган инвестициялар ҳажмига боғлиқ ҳисобланади. Ўз навбатида соҳага инвестицияларни жалб қилиш инвесторлар учун маълум шарт-шароитлар ҳамда стандартларни ишлаб чиқишни талаб қилади.

Ўзбекистон шароитида агротуризм соҳасини ривожлантириш, соҳани туризмнинг асосий йўналишларидан бирига айлантириш учун қуйидаги тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

- Қишлоқ ҳудудларининг мавжуд туризм ресурслари негизида оилавий бизнес, кичик ва яқка тартибдаги тадбиркорликни ривожлантиришни рағбатлантириш, тадбиркорларни минтақавий даражада давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини ташкил этиш;

- Қишлоқ жойларда дам олишни ташкил этишга қаратилган маданий-тарихий мажмуалар ва агротуризмнинг йирик ва кичик ихтисослаштирилган объектларини яратиш;

- Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштирувчи, сайёҳлар учун турар жойларни ўз ичига олган, қишлоқ маданий ҳаётини акс эттирувчи, зарур инфратузилмага эга бўлган кўп функцияли "Агротуризм кластерлари" ни давлат, хусусий ва аралаш мулк шакллари негизида ташкил этиш. Ушбу шакл ҳозирги кунга қадар давлат томонидан зарур қўллаб-қувватлашга эга бўлмаган агротуризм соҳаси учун зарур ҳисобланиб, йирик инвесторларнинг катта қизиқишига сабаб бўлиши мумкин.

Маркетинг, брендинг, агротуризмни реклама қилиш ва унинг ривожланиши билан боғлиқ бошқа масалалар стратегиясини ишлаб чиқиш бўйича ҳар бир вилоятда (туманда) ваколатга эга бўлган агротуризм кластерларининг тузилиши агротуризм соҳаси ривожини хизмат қилади. Ушбу кластерлар ҳудудлардаги қишлоқ жойлари географик жойлашуви жиҳатидан маъқул ҳисобланган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқиш, маданият, илм-фан, таълим ва бошқа қишлоқ хўжалиги корхоналари ва унга алоқадор соҳаларнинг ўзаро ҳамкорлиги учун стратегик аҳамият касб этади.

Агротуризм кластерлари қуйидаги фаолият турларини амалга ошириши мумкин:

- Туризм операторлари билан ҳамкорликда қишлоқ туризми соҳасида сайёҳлик йўналишларини ишлаб чиқиш;

- Соҳага оид комплекс сайёҳлик маҳсулотини ишлаб чиқиш ва уни янада ривожлантириш;

- Тегишли ташкилотлар билан ҳамкорликда агротуризм соҳасини ривожлантиришнинг минтақавий ва маҳаллий дастурлари ишлаб чиқиш;

- Агротуризм соҳасида маркетинг, брендинг, реклама стратегияларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;

- Агротуризм фаолиятига оид кўرғазма-ярмаркалар, очик эшиклар куни ва бошқа сайёҳларни жалб этишга хизмат қиладиган тадбирларни амалга ошириш.

Хулоса. Хорижий тажриба шуни кўрсатадики, агротуризм кластери кичик ва ўрта бизнесни қўллаб-қувватлаш учун самарали механизм бўлиб хизмат қилиши мумкин. Кластерларда турли хилдаги агротуризм фаолияти билан шуғулланувчи корхоналарнинг бирлашуви мазкур корхоналарнинг бозор капиталлашувини ҳамда мавжуд ва потенциал бизнес ҳамкорлар томонидан кичик ва ўрта бизнес вакилларига бўлган қизиқишни оширишга ва ишончни кучайтиришга, натижада кластер иштирокчиларининг умумий рақобатдошлигини оширишга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Киянова Л. Д., Миронова О. А. Формирование региональных агротуристических кластеров как инструмент обеспечения устойчивого развития сельских территорий // Региональная экономика и управление: электронный научный журнал. – 2018. – №. 3 (55). – С. 6.

2. Косенчук, О. В., Блинов, О. А., Новиков, Ю. И., & Рабканова, М. А. Понятие агротуризма в теории и практике управления сельскими территориями // Современные проблемы науки и образования. – 2015 (2-2). – С. 387-387.

3. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотларидан фойдаланилди.

RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA AGROSANOAT KLASTERLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Niyozova I.N.

“Iqtisodiyot” kafedrası o'qituvchisi
Buxoro davlat universiteti

Toyirov N.

Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiyotning turli tuzilmalarning faol o'zaro aloqalaridan iborat tarmoq tizimiga aylanishiga olib keladi. Bunday tarmoqning bir misoli agrosanoat klasteridir.

Agrosanoat klasterlari doirasida ishlab chiqarish jarayonlari, boshqaruv tizimlari, logistika va Klaster ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar sohasiga ta'sir qiluvchi raqamli iqtisodiyotni shakllantirish uchun mumkin bo'lgan yo'nalishlar mavjud.

Agrosanoat klasterlari ichida ilg'or raqamli texnologiyalar orqali shakllangan yagona axborot maydoni, ayniqsa, kichik agrofirma vakillari uchun foydalidir.

"Raqamli texnologiyalarga kirish kichik fermerlarga va boshqa qishloq korxonalariga yetkazib beruvchilar va ma'lumotlarga ulanish orqali sezilarli foyda keltirishi mumkin. Bu foydalanuvchilarga ishchi kuchining iste'dodiga teging, strategik hamkorlik o'rnatish va xizmatlarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi." Shunday qilib, agrosanoat klasteridagi yagona axborot maydoni o'rta va kichik dehqon xo'jaliklarini raqamli agrosanoat tizimiga integratsiyalashning yeng yaxshi imkoniyatidir.

Hozirgi zamon agrar iqtisodiyoti sharoitida global qiymat zanjirlariga kiritilmasdan va universitetlar bilan hamkorlik qilmasdan turib raqobatbardosh bo'lib qolish mumkin yemas. Agrofirmaning yangi sohalarini rivojlantirish ilmiy va ta'lim muassasalari bilan faol hamkorlikni talab yetadi. Klaster yondashuvi bu talabni to'liq qondiradi.


Agrosanoat klasteridagi yirik loyihalarni amalga oshirishda ishtirok yetish kichik va o'rta korxonalariga raqamli transformatsiyaning zarur darajasini saqlab qolish va global qiymat zanjirlarida ishtirok yetish imkoniga yega bo'lish imkonini beradi.

Agrosanoat klasteri raqamli texnologiyalar sohasida fundamental va amaliy bilimlarni shakllantirishning tabiiy jarayoniga ham yega. Ularni rivojlantirish uchun mutaxassislar uchun tegishli murabbiylik va o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarur. Yuqoridagilarni hisobga olib, agrosanoat klasterlari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning haydovchilari sifatida harakat qilishlari mumkin.

Agrosanoat klasterlari doirasida bunday raqamli yekotizimlarning shakllanishi jamoaviy tarmoq vakolatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Agrosanoat klasterlari uchun raqamlashtirishning yuqoridagi afzalliklari agrosanoat majmuasida raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish uchun tegishli institutsional o'zgarishlar zarurligini tasdiqlaydi.

Agrosanoat klasterlari majmui



Agrosanoat ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari raqamli texnologiyalarni qo'llash va rivojlantirish uchun keng "maydon" ni tashkil yetadi. Xalq xo'jaligining boshqa sohalaridan farqli o'laroq, qishloq xo'jaligi tirik organizmlarni o'z ichiga olgan ko'plab murakkab ishlab

chiqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi; turli xil qishloq xo'jaligi yekinlari; mashina, o'simlik, hayvon va odamlar o'rtasidagi maxsus aloqalar; tasodifiy o'zgarishlarga bog'liq parametrlarni nazorat qilishni talab qiluvchi qishloq xo'jaligi ob'ektlari; o'lchov va hisob talab qiluvchi katta yer maydonlari.

Zamonaviy qishloq xo'jaligining asosi dalalarni yetishtirish bo'yicha aniq ma'lumotlar bo'lib, unga ishlov berish xarajatlarini hisoblash aniqligi bog'liq. Umumiy tushunchada raqamli transformatsiya ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning chuqur o'zgarishidir. Zamonaviy sharoitlarda agrofirma vakillarining butun yekotizimlari raqamli iqtisodiyot vositalaridan foydalanmasdan, balki yangi ish joylari va hamkorliklarni rivojlantirish uchun raqamli platformalar bilan hamkorlik qilganda, raqamlashtirishga bunday yondashuvni ishlab chiqish kerak.

Agrosanoat klasterlariga kelsak, ularni murakkab tuzilmalar sifatida raqamlashtirish jarayoni juda murakkab va ularni o'rganish va qo'llash uchun yetarli yondashuvni talab qiladi. Agrosanoat klasterlarining raqamli transformatsiyasi tabiatda tizimli bo'lishi va Klaster tuzilishining barcha ishtirokchilarini qamrab olishi kerak. Hozirgi inqiroz davrida klasterlar bozorda o'z mavqegini saqlab qolish uchun umumiy raqamli o'zgartirishlarsiz qila olmaydi. Bugungi kunda har qanday agrosanoat korxonasi raqobatbardosh bo'lishi uchun nafaqat yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish va iste'mol yehtiyolariga ye'tibor qaratish, balki mobil va bulutli texnologiyalardan faol foydalanishga imkon beruvchi raqamli yondashuvlar asosida o'z biznesini tashkil yetish, kundalik ishlarda mashinani o'rganish, mashinani ko'rish va virtual haqiqatni amalga oshirish kerak.

Agrosanoat majmuasidagi innovatsion jarayonlar raqamli iqtisodiyotning zamonaviy paradigmasini ham hisobga olishi kerak, bu holda rivojlanish mumkin yemas..Joriy yil 22 sentabr kuni tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo'yicha o'tgan videoselektor yig'ilishida prezident Shavkat Mirziyoev «Tarmoq va hudud rahbarlari raqamlashtirishsiz natija, rivojlanish bo'lmasligini tushunib yetishi shart. Barcha darajadagi rahbarlar buni o'ziga kundalik vazifa sifatida belgilab, raqamlashtirish sohasini alifbosidan boshlab chuqur o'rganishi kerak», - deya ta'kidlagan edi. John Deere kompaniyasi qishloq xo'jaligini raqamlashtirish bilan shug'ullanuvchi jahondagi birinchi raqamli kompaniya hisoblanadi. John Deere o'zining O'zbekistondagi dileri «Landtech» kompaniyasi yordamida Shavkat Mirziyoev tashabbusini qo'llab-quvvatlashga, mamlakat qishloq xo'jaligini raqamlashtirishga yordam berib kelmoqda. Shuningdek, tashkilot mamlakatdagi yosh kadrlarni qishloq xo'jaligini raqamlashtirish bo'yicha o'qitish dasturlarini ham amalga oshirmoqda.

Aqlli qishloq xo'jaligi fermer xo'jaliklarini yanada foydali, samarali, xavfsiz va yekologik xavfsiz bo'lishiga imkon beradigan sensorlar, qurilmalar, mashinalar va axborot texnologiyalari, robotlar, GPS texnologiyalari kabi ilg'or texnologiyalardan foydalanadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishni raqamlashtirish iste'molchiga mahsulotlarni blockchain texnologiyalari, yelektron birjalar orqali kuzatishdan iborat.

Raqamli iqtisodiyot vositalari tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi mumkin, moddiy va transport oqimlarining samaradorligini oshirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

«O'zbekistonda qishloq xo'jaligini raqamlashtirish juda yaxshi samara beradi. Buning bilan fermerlarda masofadan turib ish jarayonini boshqarish, ishlatiladigan o'g'itlarni, kimyoviy moddalarni tejash imkoni bo'ladi.

Shuni qo'shimcha qilish kerakki, raqamli transformatsiya hujjatlarni raqamlashtirishga qaraganda kengroq. Raqamli jamiyat insonning maxsus turmush tarzi va mehnatiga asoslangan bo'lib, yuqori texnologiyalar asosida shakllangan. Ish joyining madaniyati va mijoz bilan munosabatlar turi tubdan o'zgaradi. Qo'shimcha aloqa usullari mijozlar va iste'molchilar bilan ishlash xodimlari uchun mavjud bo'ladi.

Agrosanoat majmuasida Klaster-tarmoq hamkorligining rivojlanish tendensiyasi uni raqamlashtirishni jadallashtirishga yordam beradi. Agrosanoat klasterida innovatsion mahsulot va texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilishi uchun

uning ishtirokchilari o'rtasida ma'lum darajada ishonch bo'lishi zarur. Uni oshirishning muhim omili doimiy Klaster-tarmoqlararo o'zaro ta'sirlardir.

Agrosanoat klasterlarida ishlatiladigan muhim raqamli vositalar aloqa platformalari, korporativ ishlash ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazalari, Klaster loyihalarini moliyalashtirish uchun maxsus platformalar, ta'lim tadbirlari uchun turli xil axborot resurslari, Klaster ishtirokchilarining qo'shma tadbirlari uchun raqamli platformalar shaklida ishtirokchilarining samarali hamkorligi uchun tizimlardir. Mavjud bo'lgan bunday raqamli platformalarning misollari: Yevropa Klaster tashkiloti katalogi, Yevropa Klaster hamkorlik platformasi, Klaster xaritalash loyihasi va boshqalar. Ushbu vositalarning asosiy vazifasi agrosanoat majmui ishtirokchilarining qulay hamkorligi va qo'shma Klaster loyihalarini amalga oshirish uchun sharoit yaratishdan iborat.

Shunday qilib, agrosanoat majmuasi yuqori texnologiyali bo'lib bormoqda. Maydonlardan turli qurilmalar, datchiklar, sun'iy yo'ldoshlar yoki dronlar yordamida to'plangan ma'lumotlar yagona axborot maydonini tashkil yetadi. Ma'lumotlarni bir joyda to'plash qobiliyati risklarni minimallashtirish, agrosanoat ishlab chiqarish rentabelligini oshirish, qishloq xo'jaligi texnologiyalarida xatolarni osongina topish va ularni o'z vaqtida bartaraf yetish bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilish imkonini beradi.

МИНТАҚАМИЗДА ЁНҒОҚЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Рахмонова Барно Сохибжоновна

Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялари институти
«Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти» кафедраси катта ўқитувчиси

Жаҳон иқтисодиётида интеграция жараёнларини глобаллашуви ва чуқурлашуви аграр бизнесни ички кучли ва заиф томонларини ҳам, унинг бозордаги ташқи имкониятлари ва ҳавф-хатарларини ҳам ҳар томонлама чуқур ўрганишни тақозо этмоқда. Айнан ана шу имкониятлардан бири агросаноат гуруҳини кластер модели бўйича ташкил этишдир.

Кластер модели (ингл. kluster – “бирга ўсиш”) жаҳон амалиётида иқтисодий гуруҳни, минтақани, бутун мамлакатни рақобатбардошлилигини кўтариш инструменти сифатида кенг қўлланилади. Кластер моделининг асосий белгилари: гуруҳни ташқи бозордаги улушини ошириш имкониятига эгаллиги; жойлашган ҳудудда қулай шароитлар (хомашё, малакали персонал, инфраструктура, ўқув марказлар, илмий муассасалар ва б.)ни мавжудлиги; гуруҳни давлат томонидан кучли қўллаш эвазига қатнашувчиларнинг гуруҳда самарали иштирок этиш имкониятларини кенглиги ва б.

Кластер сўзини инглизчадан таржима қилганда "тўплам" деган маънони англатади. Иқтисодиётда кластер сўзи бирон маҳсулотни ишлаб чиқариш учун бир неча мустақил компаниялардан ихтиёрий равишда тузилган бирлашма сифатида тушунилади.

Аграр тармоққа инновацияларни кенг татбиқ қилиш, заминимизда етиштирилаётган хом ашёни ўзимизда қайта ишлашни чуқурлаштириш бугунги замон талабидир. Зеро, ёнғоқ ишлаб чиқариш хўжаликлари қанчалик саноатлашса, давлатнинг иқтисодий ва экспорт салоҳияти шунчалик ортади, халқнинг турмуш фаровонлиги юксалади. Шу боис Ўзбекистонда кейинги пайтда илғор технологияларга асосланган инфратузилмани яратиш, қишлоқ хўжалигида кластер усулини жорий этишга жиддий эътибор қаратилаёпти.

Бевосита ёнғоқ кластерининг бошқа ишлаб чиқариш тузилмаларидан афзалликларига тўхталадиган бўлсак, бу ягона технологик занжирга бирлаштирилган корхоналар мажмуи ва аҳоли турли қатламларини ўзида жамловчи боғлам, айни пайтда соҳада инновацион иқтисодиётга ўтишнинг муҳим босқичидир.

Кластер тизимида деҳқон ҳам, раҳбар ҳам қишин-ёзин ишлайди. Яъни улар йил давомида нафақат маош, балки яхши ишласа, мукофот пули ҳам олади.

Президент Ш.Мирзиёев ҳам кластер усулига биз Ўзбекистон келажаги сифатида қарамоқдамиз, дея эътироф этган. Шу маънода, юртимиздаги кластер тизимидаги қалдирғоч мажмуа ҳудуд иқтисодиёти равнақида қандай роль ўйнашига алоҳида тўхталиб ўтиш зарур. Бу эса Ўзбекистон иқтисодиётига муносиб ҳисса бўлиб қўшилиши, қишлоқ хўжалиги меҳнаткашлари турмуш даражасини кўтаришда асосий омиллардан бирига айланиши, шубҳасиз.

Буларнинг барчаси одамлар ва давлат манфаатларини бирлаштириб, пировардида кластер - интеграция, инновация ва иқтисодий ўсиш мезонига айланади.

Мамлакатимизда озик-овкат хавфсизлигини таъминлаш учун қишлоқ хўжалиги ва қайта ишлаш саноатини уйғунлашган ҳолда ривожлантириш масаласига алоҳида эътибор қаратиш талаб этилмоқда. Ушбу вазифаларни самарали ҳал қилиш учун ривожланган хорижий давлатлар тажрибасидан яъни, агросаноат мажмуасининг тармоқлари ўртасидаги кооперацион ва интеграциялашув тамойиллари асосида саноат кластерларини ташкил этиш ва ривожлантириш заруратини юзага келтирмоқда.

Ёнғоқ ишлаб чиқариш соҳасида бугунги кундаги мавжуд муаммолар, тўсиқлар ва қийинчиликлар қуйидагилар:

Ёнг аввало ёнғоқчиликни изчил ривожланишига тўсиқ бўлаётган қуйидаги қийинчиликлар, заиф томонлари ва муаммоларни айтиб ўтиш лозим:

- маҳсулотни ишлаб чиқарувчилар ва тайёрловчилар ўртасида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари бозорларида харидоргир экинлар ва уларнинг навларини жойлаштириш масалаларида ўзаро ҳамкорликнинг бозор механизмларидан тўлиқ фойдаланмаслик;

- кичик қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари томонидан шартнома интизомига риоя қилиш даражасининг пастлиги;

- қишлоқ хўжалигида замонавий технологияларни жорий қилиш, уларни сақлаш ва ташиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларининг мустақил равишда ташқи бозорга чиқиши учун молия ресурсларини жамғариш учун қулай имкониятларнинг йўқлиги;

- ёнғоқ бозорларида харидоргир бўлган юқори ҳосилдорликка эга ва сифатли навларнинг уруғи, кўчати билан қониқарли равишда таъминланмаганлигидир;

- замонавий ахборот-коммуникация технологиялари етарлича жорий қилинмаганлиги сабабли хом-ашёни қабул қилиш, ташиш ва қайта ишлаш ҳамда тайёр маҳсулотларни реализация қилиш жараёнлари устидан керакли даражада назорат тизимини мавжуд эмаслиги;

- хомашё ва ишлаб чиқариш ресурсларининг нооқилона тақсимланиши, логистика ва муҳандислик инфратузилмасини ташкил этишдаги камчиликлар ишлаб чиқариш қувватларининг анча қисмини тўхтаб қолишига, иқтисодий йўқотишлар оқибатида маҳсулотлар таннархини ошишига ва ишлаб чиқариш рентабеллигини пасайишига олиб келмоқда;

- соҳа корхоналарида ярим тайёр маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва экспорт қилишнинг барқарор устунлик қилиши, юқори қўшилган қийматли тайёр маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва жаҳон бозорларида муносиб рақобатлашишга қодир бўлган миллий брендларни шакллантиришнинг етарли даражада эмаслиги саноат корхоналари даромадларини ошириш имконини бермаяпти;

Вазиятни яхши томонга сезиларли ўзгантириши мумкин бўлган саноатлашган йирик ёнғоқ боғларини барча минтақаларда ташкил этилиб, унга фермер хўжаликлари, агрофирмалар, майда мулкдорлар кооперативларга уюшган ҳолда ташкил этиш мақсадга мувофиқ. Жаҳонда юқори талаб бўлган ва самарадорлиги баланд қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва экспорт қилиш қишлоқ хўжалиги тармоғида ердан унумли фойдаланиб янада ривожлантиришнинг муҳим йўналишларидан ҳисобланади. Агар бу кооперативлар уларнинг тасарруфига берилган ресурслардан фойдаланишнинг реал механизмларини олсалар, ёнғоқчиликдаги вазиятни тубдан яхшилашга имкон топилади.

Тайёрлаш ва экспортнинг шаффоф тизимида янги ташкил этиладиган тайёрлов пунктлари катта аҳамиятга эга бўлади. Улар хизмат кўрсатувчи кооператив шаклида фаолият кўрсатиб маҳсулотнинг улгуржи партияларини шакллантириш, уни ички бозорда реализация қилиш ёки экспортга жўнатиш имконига эга бўлади. Бу эса қишлоқларда янги иш ўринларини яратиш аҳоли турмуш фаровонлигини оширишга ёрдам беради.

Минтақаларда кластерларни фаолият юритишига кўмаклашишни асосий йўналишлари куйидагилардан иборат:

- корхоналарнинг инновацион фаолиятини кластер модели бўйича шакллантириш ва янги шароитга мослаштириш ва мувофиқлаштириш мақсадида гуруҳ қатнашувчиларини ўзаро муносабатларини ички ва ташқи меъерий ва ҳуқуқий тартиботини такомиллаштирган ҳолда кластер доирасида замонавий корпоратив бошқаруви механизмларига таяниб, қатнашувчиларнинг манфаатларини тўлалигича инобатга олиб ишлаб чиқиш талаб этилади;

- маҳаллий ҳокимият органларини кластерда қатнашувчи корхоналарни инновацион фаолиятига керакли даражада фойдали таъсирини ўтказиш механизмларини ишлаб чиқиш ва уларни ана шу ҳудуд шароитида амалга ошириш йўлларини белгилаш даркор;

- Кластерда қатнашувчилар фаолиятини керакли ахборотлар билан таъминлаш учун энг аввало айнан шу гуруҳ доирасида кластер билан қатнашувчи-фирмени ўзаро фойдали иш муносабатларини ўрнатиш учун самарали корпоратив бошқаруви тааллуқли рақамли ва идентификациялашган ягона маълумот базани шакллантириш лозим;

- кластерлар учун махсус ходимларни узлуксиз тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини ташкил этиш ва уни такомиллаштириш мақсадида кластер тизимига хизмат қилувчи илмий марказни ташкил этиш лозим.

Минтақа иқтисодиётида муҳим аҳамиятга эга бўлган корхоналар гуруҳига манзилли имтиёзлар бериш имконияти яратилади;

Кластерни барча корхоналарига инновация янгиликларини тез тарқатиш имконияти регионни инновацион салоҳиятини ривожлантириш учун ҳам аҳамиятлидир. Кластер тараққиёт модели давлатни, регионни ва хусусан гуруҳни ҳам рақобатбардошлик индексларини кўтаришга имкон беради. Натижада регионга хорижий инвестицияларни жалб қилиш имконияти ошади.

Кластерлар қишлоқни индустриал тараққиёт шаклида ривожланиш қиёфасига ўтишига ишончли омил яратади.

Фойдаланилган манба.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 июндаги “Ёнғоқ ишлаб чиқарувчилар ва экспорт қилувчилар уюшмасини тузиш ва унинг фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги Қарори. Халқ сўзи 2017 йил 17 январ.
2. Махмуд Бахшинежад. "Сравнительные преимущества культур семейства ореховых в Иране" диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. МГУ им М.Ломоносова (2012 г.).
3. H. Adem & Peter H. Jerie. «Walnut Industry. Research & Best Practice Implementation». A report for the Rural Industries Research and Development Corporation. 2004. Publication No. 04/032. Project No.Dav-164A.
4. Larry Harper, Dr. William Kurtz. “Economics of Eastern Black Walnut Agroforestry Systems”. School of Natural Resources, University of Missouri, USA. 2014.
5. Б.Рахмонова. Роль производства орехов в мировой экономике. Сборник научных трудов международной конференции молодых ученых “наука и инновации”, 01/11/2019, Ташкент. Министерство инновационного развития Республики Узбекистан. С. 353-355.

SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF AGRO-TOURISM IN FOREIGN COUNTRIES AND UZBEKISTAN.

Fuzaylova Nigina Khakimovna

International Joint Programs in field of Vatel
Tourism and Hotel Management
Bukhara State University

Agro-tourism considers that, people discovering farms or other agricultural organizations for the purpose of entertainment, education. Agro-tourism shows wide types of entertainments and provides means for farmers to diversify and supplement their income. Such activities may include wildlife discovery, horse riding, cannery tours, cooking classes, wine tasting, harvest festivals, barn dances, farm stays, guided tours, and petting zoos.

While many visitors will engage in agro-tourism for short periods of time, such as an afternoon of berry picking, others remain for days and, in some cases, work on the farm. Diversifying income is an important risk management strategy and organic farmers want to learn more about successful agro-tourism ventures. They also need a better understanding of risks and potential liabilities of having visitors on the farm.

Agro tourism in abroad mostly connects with tourists, and touristic areas such as Restaurants and Hotel F&B corners. The stocks they use for their food will be delivered from local farms. There is type of agro Tourism which benefits local agro business, by purchasing products from them.

Uzbekistan has Agro Tourism which attracts local and other tourists. It has winery and Grape gardens, some tourism students and tourists are interested to see process of making wine. There is different type of fruit gardens which attracts tourists to itself and brings profit by selling stocks wholesale.

Malaysia has a strawberry farm in Cameroon highlands, local and other tourists visit that area to pick their own strawberries and purchase them, and due to location, they have to stay in the hotels nearby, so by agro tourism not only farm itself, but hotels and restaurants and local people around having benefits, running their business.

In order to improve agro Tourism in Uzbekistan, there are so many start up projects, such as, farm which produces meat, such as chicken, lamb a beef, may create a barbeque area not far from the farm. It attracts tourists and they may do couple of activities at the same time and at the same area.

Uzbekistan has Apple, grape, milk, honey farms. There is might be a lot of project on these areas to attract tourists and to improve Agro Tourism.

Apple farm may have juice factory next to it, Cake shops and tea café.

So tourists can see apple garden and different type of apples and taste apple pies and juices.

Grape farm may have winery not far from the garden, Wine shops, restaurants where they can provide their wine too.

Milk farm may have all type of restaurants and pastries and coffee shops around it.

And the same things about honey farm, while tourists are interested in bee hives they may taste different type hive designed waffles. These all are startup projects.

These agro Tourism projects can bring huge amount to amount to local agro business.

Moreover, development and improving of Agro Tourism needs more new start up projects, to attract tourists. Furthermore, it can be profitable to society by having vacancy for local people around the area, benefits from the restaurants, hotels, shops and other touristic services. In addition, tourists will be busier with different activities at the same area. More entertainments for adults and children, for locals and foreign tourists

ESTABLISHMENT OF AGRITOURISM CLUSTERS IN UZBEKISTAN BASED ON THE PRINCIPLES OF SUSTAINABLE TOURISM

Sayfullayeva Madina Sirojiddinovna

Master's degree student

Faculty of Economics and Tourism

Today, scientific and practical work is being done on the areas of tourism that are not only economically beneficial, but also beneficial to the nature. Tourism has become a network that covers all sectors. Also in agriculture.

For many years, the tourism industry has played a significant role in the economies of various developed countries. At the same time, improperly organized tourism has had serious consequences for the nature of these developed countries. The predominance of economic benefits has led to a gradual loss of balance and stability.

In the near future, it will be the dream of many to travel only to fresh air and spectacular landscapes. The value of such destinations may increase, and not everyone can afford them. Mostly citizens of developed countries suffer from the contaminated nature of their country and are bored, so these green places will become an ideal place for them to relax and unwind. This will create a more favorable opportunity for developing countries. This is because the resources of developing countries are now being used for tourism purposes. This is a good time for them to develop tourism on the basis of sustainability.

Our country is also very rich in such green places, especially in the field of agriculture. The establishment of somewhat new tourism clusters in this area could also put the industry at some risk. However, agritourism clusters based on sustainable tourism criteria maintain a balance between environmental and economical aspects.

This thesis proposes a potential methodology on establishment of agritourism clusters in Uzbekistan based on the principles of sustainable tourism. The thesis consists of three parts, in which the principles of sustainable tourism, relationship between agritourism and sustainable rural development. and conclusion.

The development of sustainable tourism not only meets the needs of tourists, but also benefits the host communities, optimizing the use of resources for their future generation.

According to Richards, "Sustainable tourism is a type of tourism which its infrastructure based on environmental opportunities, population, and natural conditions. At the same time, all services must be integrated with the environment".

The Tourism Concern and the World Wide Fund for Nature (WWF) have jointly developed 10 guidelines for sustainable tourism. These are:

1. **Using resources sustainably.** Rational use of resources ensures long-term business and economic stability.

2. **Reducing over-consumption and waste.** Reducing over-consumption reduces the cost of environmental damage and affects the quality of services.

3. **Maintaining biodiversity.** Preserving and promoting natural, social and cultural diversity is essential for long-term sustainable tourism and provides a solid foundation for industry.

4. **Integrating tourism into planning.** The development of tourism, which works in conjunction with the national and local strategic planning system, as well as the implementation of environmental impact evaluation, will increase the long-term sustainability of tourism.

5. **Supporting local economies.** Tourism that supports local economy and which takes environmental costs into account, both preserves these economies and avoids environmental damage.

6. **Involving local communities.** The involvement of locals in the tourism sector not only brings them long-term benefit but also improves the quality of the tourism experience.

7. **Consulting stakeholders and the public.** Consulting between the tourism industry and local communities, organizations and institutions are essential if they are to work alongside each other and resolve potential conflicts of interest.

8. **Training staff.** Staff training and recruitment of professionals in their area, ensure the quality of the tourism product.

9. **Marketing tourism responsibly.** Marketing, which provides tourists with clear information, increases customer satisfaction and helps them to get knowledge while giving them the sense of responsibility.

10. **Undertaking research.** Ongoing research and studies are very important in this area. Research is also important in effective forecasting of the industry.




Figure 1 –The relationship between agritourism and sustainable rural development.

The development of agritourism is associated with changes in environmental management models. The protection of nature and culture serves the development of socio-economic fields. These elements interact with each other.

International experience shows that the agritourism cluster can be an effective mechanism which is designed to support small and medium-sized businesses, which often find it difficult to compete with large chain organizations operating in the tourism market.

In conclusion, the organization of tourist clusters in agriculture and the formation of agro-tourism clusters on the basis of sustainability criteria have a significant positive impact not only on the economy but also on the nature.

In particular, the employment of the local population, the emergence of various new industries, the flow of taxes for the country, the introduction of new innovative technologies will lead to lower productivity in agriculture at the expense of less resources. Cooperation between different sectors based on the criteria of sustainability leads to long-term sustainable economic benefits.

KLASTER-RAQOBATDA YUTIB CHIQUISHNING ENG OQILONA YO'LI

Qulliyev Oxunjon Anvar o'g'li

Buxoro davlat universiteti
iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

Ekspertlar hisob-kitoblariga ko'ra, bugungi kunda dunyodagi ilg'or davlatlar iqtisodiyotining qariyb 50 foizi klaster usuliga o'tgan. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2 mingdan ziyod klasterlar mavjud bo'lib, ularda ishchi kuchining 38 foizi qamrab olingan. Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiya sanoatida to'liq klaster usuli tatbiq qilingan. AQSHda esa mamlakatdagi mavjud korxonalarining yarmidan ziyodi shu tizimda ishlab, ular tomonidan tayyorlanayotgan tovarlar yalpi ichki mahsulotning 60 foizini tashkil qiladi.

Ularning eng mashhuri sizni bizga tanish bo'lgan "Silikon vodiysi"dir. 87 mingta kompaniya, 40 ta tadqiqot markazi va o'nlab universitetlar faoliyat yuritadigan mazkur innovatsion klaster infratuzilmasiga 180 ta venchur firmasi, 47 ta investitsiya va 700 ta tijorat banki xizmat ko'rsatib keladi. Xo'sh, nima uchun jahonning eng ilg'or iqtisodiyotlari aynan klasterlashtirish yo'lidan bormoqda?

Germaniyalik mutaxassislar fikricha, aynan klaster kelajakdagi kuchli, murosasiz raqobat muhitida yutib chiqishning eng oqilona yo'lidir. Zero, bunday mexanizm har qanday sharoitga moslasha oladi, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy muammolarni izchillik bilan samarali yechib beradi, nafaqat muayyan hudud, balki davlatning xalqaro maydondagi raqobatdoshligini mustahkamlaydi, nufuzini oshiradi. Qolaversa, innovatsion iqtisodiyotga o'tishning muhim bosqichi hisoblangan ushbu tizim ilm-fan, ta'lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, yangi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham mamlakat va jamiyatning mukammal innovatsion qiyofasini yaratishda klaster usulidan foydalanishga katta e'tibor qaratilyapti. Bunga agrar sohadagi sa'y-harakatlar yaqqol misol bo'la oladi. Ayni paytda paxta-to'qimachilik klasterlari soni ko'payib borayotgani, kelgusida paxta yetishtiruvchi 133 tumandan 70 tasi to'liq klaster tizimiga o'tishi, yangi tuzilayotgan klasterlar tomonidan 41 korxonalar tashkil etilib, 25 mingga yaqin ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilayotgani diqqatga sazovor.

O'zbekiston sharoitida agroklasterni rivojlantirish eng to'g'ri yo'ldir. Chunki qishloq xo'jaligi uchun noqulay kelgan yillarda ham klasterning boshqa tashkilotlari hisobidan umumiy ish o'rni va ish haqi saqlab qolinadi. Ya'ni tabiat inijligining biznesga, ishlovchilar daromadiga ta'siri kamayadi. Almashlab ekish imkoniyati paydo bo'ladi va tuproq unumdorligi qayta tiklanadi.

O'zbekiston Prezidentining 2017 yil 19 maydagi Buxoro viloyatida zamonaviy paxta-to'qimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori asosida tuzilgan "VST Cluster" xorijiy korxonamiz ham shunday mezonlar bo'yicha faoliyat yuritib kelmoqda. Mazkur klaster tizimida jami sakkizta kompaniya faoliyati yo'lga qo'yiladi.

O'zbekiston paxta-to'qimachilik sohasida klaster tizimini tanlab juda to'g'ri qildi. Masalan, Turkiya 20 — 25 yil ichida jahon to'qimachilik bozorida o'zining mustahkam o'rnini egallashga erishdi. Mamlakatingiz esa klaster sharofati bilan bunday natijaga kelgusi ikki-uch yilda muvaffaq bo'ladi, deb o'ylayman. Sababi yurtimizda kechayotgan jadal o'zgarishlar, ayniqsa, har bir hududning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib klaster sohasini rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor shunday deyimga asos bo'ladi.

Davlatimiz rahbari dunyoning ilg'or mamlakatlari qatoridan joy olish yo'li, bu — agrar sohada, ilm-fanda, ta'lim tizimida va boshqa sohalarda klaster tizimlari joriy etilishi hisoblanishini ko'p bor ta'kidlab kelyapti. Yengil sanoat, neft-gaz, kimyo, biotexnologiya, AKT, avtomobilsozlik, transport-logistika, rekreatsiya-turistik, oziq-ovqat, ta'lim, baliqchilik, parrandachilik, asalarichilik, ipakchilik shular jumlasidandir. Mazkur sohalarda klaster tizimlarini yaratish ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni moliyalashtirish hajmini ko'paytiradi, sifatini yaxshilaydi. Investitsiyaviy tashqi loyihalarda ishtirok etish, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

Bundan tashqari, klaster tizimida ta'lim ishlanmalarini yaratish, ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazish, ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar hamda mutaxassislar mehnatlarini ko'proq rag'batlantirish, yangi tovarlarni O'zbekiston brendi bilan ixtiro qilish uchun keng imkoniyatlar va sharoit paydo bo'ladi.

Klasterlarni shakllantirishdan maqsad shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo'lgan ta'lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg'unlashtirish – innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo'naltirishdan iborat. Bunda aholini ish bilan ta'minlashdek muhim jihat ham o'zini namoyon etadi.

O'zbekistonda paxta-to'qimachilik sanoatida klaster tizimini joriy qilish tashabbusi mamlakat qishloq xo'jaligini yaxlit bir tizim asosida rivojlantirish uchun muhim omil bo'ldi. Eng muhimi bu tizim asosida mamlakatimizning qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilayotgan olimlar birlashdi.

Davlatimiz rahbarining "Eng muhim vazifa – xalqimiz ongida innovatsion tafakkurni shakllantirish, innovatsiyalar bo'lmagan joyda rivojlanish va raqobat bo'lmaydi" degan g'oyaviy fikri zamirida katta hayotiy ma'no mujassam.

Shu ma'noda, qishloq xo'jaligi tizimida milliy boyligimiz hisoblangan paxta-to'qimachilik klasterida qo'llanilayotgan innovatsion g'oyalar nafaqat yengil sanoatni, balki o'z yo'lida qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish kabi o'nlab tarmoqlarni ham qamrab oladi.

O'zbekistonda paxta xomashyosining asosiy iste'molchisi to'qimachilik sanoati bo'lib, u respublikaning sanoat kompleksida muhim o'rin tutadi. Qishloq xo'jaligi sohasida ham amalga oshirilayotgan ishlar o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TURISTIK LOGISTIKA

Bababekova D. Sh.

Toshkent Moliya instituti dotsenti

Aminova N. B.

Toshkent Moliya instituti magistri

Turizm doimiy ravishda rivojlanib boruvchi tarmoq bo'lib, har bir turistik kompaniya o'z oldiga iqtisodiy foyda va raqobatbardosh ustunliklarga ega bo'lishni hamda turistik bozorda iste'molchilar talab qiladigan logistika xizmatlari sifatini muvofiqlashtirishga erishishni maqsad qilib qo'ygan. Shu sababli, hozirgi paytda ushbu sohada yuzaga keladigan muammolarni hal qilish va bozorda katta ulushni egallash orqali yuqori foydaga ega bo'lish uchun turli xil usullarini izlash ishlari olib borilmoqda.

Bugungi dunyo hamjamiyati hayotimizning barcha sohalariga axborot texnologiyalarining kirib borishi tufayli global o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Shu jumladan, O'zbekistonning aksariyat korxonalari, xoh u ishlab chiqarish sohasi bo'lsin, xoh turizm sohasi, o'zlarining biznes jarayonlarini birinchi navbatda innovatsion logistika kontsepsiyalariga asoslanib qurishning yuqori samarali usullarini talab qilmoqda. Buning asosiy sababi logistik xarajatlar korxonalar xarajatlarini 70-80%ini tashkil etilishi bo'lib hisoblanadi. Innovatsion logistika faqatgina ijobiy sinergetik ta'sirni kafolatlabgina qolmay, balki bozor munosabatlari va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning qat'iy talablariga javob beradigan eng yangi raqamli texnologiyalardan foydalanishga harakat qilmoqda.

Axborot texnologiyalari - bu kompyuterlar va kompyuter tarmoqlari orqali ma'lumotlarni yig'ish, tartibga solish, qayta ishlash va ta'minlash usullari to'plamidir. Evolyutsion va innovatsion rivojlanishning ancha uzoq yo'lini bosib o'tgan zamonaviy axborot jamiyati uchun xarakterli jihati shundaki, jamiyatning har bir a'zosiga tarmoq va shaxsiy kompyuterlardan foydalanish orqali butun dunyo bo'ylab axborot resurslaridan erkin foydalanish imkoniyatini

beruvchi global aloqa tizimlarini yaratilgan va bunday imkoniyat aksariyat dunyo aholisida mavjuddir.

Hozirgi rivojlanish bosqichida har bir sayyohlik kompaniyasining faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan va amalga oshirmasdan turistik biznesning faoliyati imkonsiz bo'lib qolgan. Axborot texnologiyalaridan foydalanish turizmni va xizmat ko'rsatish sohalari(mehmonxona, transport, axborot va boshqa kompaniyalar)ini yagona axborot makoniga qo'shishga va ushbu jarayonlarning barcha ishtirokchilarining birlashishini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Turistik logistikada axborotga alohida ahamiyat beriladi, uning maqsadi "turistik agentlik - turoperator - moddiy-texnika bazasi - rekreatsion va turistik resurslar" logistika zanjiridagi turistik oqimlar(turistik logistikada asosiy turist bo'lgan va unga xizmat qiluvchi moddiy, moliyaviy, kadrlar oqimlari turistlar oqimi)ga samarali xizmat ko'rsatishni ta'minlash va ikkalasini ham hisobga olishdir.

Xalqaro standartlar va rivojlanish darajalariga asoslanib, O'zbekistonning turistik salohiyati yetarlicha yuqori ekanligini ta'kidlash mumkin va turizm logistikasi sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ulardan oqilona foydalanish mamlakatning ushbu sohadagi salohiyatini yanada oshiradi .

Ilmiy va iqtisodiy amaliyotda "raqamli iqtisodiyot" va "raqamlashtirish" atamalaridan foydalanish 20 yillarcha oldin global Internet paydo bo'lishi bilan boshlangan. Bu esa jamiyat hayotining yangi virtual jihatdan birlashgan dunyosining paydo bo'lishiga, bu esa o'z navbatida iqtisodiyot va butun jamiyatni rivojlantirishning yangi raqamli modelini shakllanishiga olib keldi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning umumiy qabul qilingan yagona ta'rifi hali ham mavjud emas. Har bir mamlakatning qonunchilik doirasida va ilmiy adabiyotlarda mualliflar tomonidan ushbu konsepsiya va uning mohiyati har xil talqin etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ 4699-sonli "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida quyidagi ta'rif berilgan: "Raqamli iqtisodiyot - bu iqtisodiy faoliyatda raqamli ma'lumotlar ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va tahlil qilish natijalaridan foydalanish an'anaviy boshqaruv shakllari bilan taqqoslaganda har xil turdagi ishlab chiqarish vositalari, texnologiyalar, uskunalari, tovar va xizmatlarni yetkazib berish, saqlash, sotish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin".

Boshqa bir ta'rifga ko'ra, raqamli iqtisodiyot - bu yalpi ichki mahsulot ulushidagi tranzaksion sektorning o'sishi hisobiga hayotning barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan faol foydalanishga qaratilgan odamlarning iqtisodiy faoliyati hisoblangan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot bu virtual va real dunyoda tovarlar va xizmatlarning ishlab chiqarilishi va iste'mol qilinishini o'rganadigan fan deb ham ta'riflangan.

Raqamli iqtisodiyot "iqtisodiy ishlab chiqarish va iste'molning barcha sohalarida raqamli kompyuter texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan iqtisodiyot" deb hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot - bu raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlarning ma'lum tizimi. Umuman olganda, mualliflarning fikriga ko'ra, raqamli iqtisodiyot - bu raqamli texnologiyalar va raqamli shaklda katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish sharoitida odamlarning iqtisodiy faoliyati.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot davlat rivojlanishining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Sh.Sh. Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 28-aprelda "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror ma'qullandi, unga muvofiq davlat-xususiy sheriklik asosida, IT-mahsulotlar, IOT, yuqori eksport salohiyatiga ega xizmatlar, Big Data kabi sohalarga investitsiyalarni ko'paytirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yo'nalishdagi faoliyatni faollashtirish raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 6 foizgacha yoki undan ko'progacha oshirish uchun sharoit va

imkoniyatlar yaratadi, shuningdek, real qo'shilgan qiymat bo'lgan tarmoqlarning multiplikatsion rivojlanishini ta'minlaydi.

So'nggi paytlarda zamonaviy axborot texnologiyalarining zamonaviy jamiyatning barcha sohalariga, shu jumladan O'zbekistonda hozirgi kunda eng tez rivojlanayotgan va istiqbolli sohalardan biri bo'lgan turizmga tobora kirib kelayotganini kuzatish mumkin. Raqamli logistika xizmatlari va Internetning mavjudligi va ish onchiligi turistik xizmatlar samaradorligining oshishi bilan chambarchas bog'liq. Turizm sohasining bugungi kundagi eng dolzarb vazifasi avtomatlashtirilgan texnologiyalarni joriy etish va keng qo'llashdir.

Turizmdagi raqamlashtirish sayyohlik biznesini nafaqat moslashuvchan, balki rivojlanayotgan "raqamli dunyo"dagi zamon haqiqatlariga mos keladigan raqobatbardosh qilishga qaratilgan.

Raqamli texnologiyalar juda katta imkoniyatlar yaratib, turli iqtisodiy sohalarda qat'iy joriy etilmoqda va qo'llanilayotgan tarmoqlar sezilarli darajada rivojlanmoqda. Zamonaviy jamiyat hozirda davom etayotgan global o'zgarishlar bosqichida. Kelajak dunyosining asosiy tendentsiyasi raqamli texnologiyalarni bizning hayotimizga yanada kirib borish va raqamlashtirish muqarrar va ob'ektiv jarayonga aylanishini bildirmoqda.

Turistik logistikani raqamlashtirish tendentsiyasining yangiligiga qaramay, O'zbekistonda ham, xalqaro amaliyotda ham uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ushbu tendentsiyani raqamli texnologiyalar turistik korxonalarining biznes modellarini tubdan o'zgartirishi, vositachilar sonini kamaytirish va turistik xizmatlar ko'rsatishda logistika xizmatlarini optimallashtirish orqali ularning samaradorligini oshirishi bilan izohlash mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, turizm sohasi haqiqatan ham Internet texnologiyalaridan onlayn foydalanishga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, Internet tomonidan taqdim etiladigan vositalar bilan saytlarni bron qilishdan tortib, yo'nalishlarni tavsiflashga va foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentning amaliy tajribalariga qadar sayyohlikdagi sayohat tanlovlari endi taniqli brendlar yoki o'ziga xos yo'nalishlar bilan chegaralanmaydi. Bu esa sayohat qilishni yoqtiradiganlarga va hali o'z brendini yaratishga ulgurmagani, yangi xizmat ko'rsatuvchilarga yengillik yaratadi.

Jahon miqyosida Internet-texnologiyalaridan foydalanishga bo'lgan sayyohlik ehtiyojlari oshganligini tasdiqlash uchun aksariyat mamlakatlarda sayyohlarning onlayn savdosi har yili barqaror o'sib borishini misol qilib keltirish mumkin.

Shuningdek, statistik ma'lumotlarga ko'ra, foydalanuvchilar sayohatlarni rejalashtirish paytida Internetda 400 ga yaqin qidiruvlarni amalga oshirmoqdalar, mahalliy sayohatchilarning 74% o'zlarining sayohatlarini onlayn tarzda rejalashtirishmoqda, bu esa turizm sohasidagi onlayn xizmatlar bozorining istiqbollarni belgilab beradi. Shu bilan birga, sayohat uchun so'rovlarning katta qismi mobil qurilmalar orqali amalga oshiriladi. Uyali telefon yoki planshet yordamida qidiruv olib boradigan foydalanuvchilar band qilish ishlarini amalga oshiradilar va turli xil raqamli xizmatlardan foydalangan holda bitta qurilmadan xizmatlar uchun haq to'laydilar. Xulosa qilish mumkinki, Internet-resurs endi nafaqat sayyohlik xizmatlarini onlayn sotishning faol vositasi, balki iste'molchi uchun kurashda eng muhim raqobatdosh ustunliklardan biri hisoblanadi.

QISHLOQ XO'JALIGINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISH

Kamolov X.Z.
BuxDU magistranti

Dam olish vaqti har qanday shaharlik uchun qishloqdami yoki dala hovlidami juda ham maroqlidir. Bu hayot talabi bo'lib, doimo dala hovlilarini yoki boshqa joylarni ko'p yillar davomida sinalgan va tekshirilgan joylarda dam olish uchun ijaraga olinadi. Hozirgi vaqtda

qishloq turizmi alohida daromad keltiradigan tur hisoblanib, dunyo turizm xizmat bozorida alohida o‘rin tutadi.

Qishloq turizmi dengiz kurortlari kabi katta hajmlar bilan raqobatlasha olmasa ham, shunga qaramay turizm ishlarida alohida o‘rin tutib, uni o‘rganib rivojlantirish alohida e‘tiborga loyiq. Respublikamizda qishloq turizmi yo‘q darajada. Qishloqlardagi aholinig samimiyligi, tabiatning tozaligi, ekologik jihatdan qulayligi tufayli uning kelajagi bor. Lekin, shunga qaramay, xorijiy turoperatorlarning fidoyiligi, turistlarni o‘z qishloqlariga tortishi, turistlarni o‘z xalqining va davlatining rivojlanishi uchun olib kelishi, ish joylarini tashkil etishlari, o‘z yurtining turistik resurslarini mustahkamlab, davlatga valyuta olib kirishlari va shu daromadlaridan soliqlar to‘lab xazinani to‘ldirishlari tahsinga loyiq. Umuman qishloqlarda turist bo‘lib turish, sanatoriy-kurort zonalarida yoki mashhur turistik markazlarga nisbatan ancha arzon. Hamma ham qimmatbaho turistik markazlarda dam ololmaydi, shu jihatdan qishloq turizmini rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

Qishloqda dam olish - bu tabiat qo‘ynida bo‘lish, yillar davomida shahar sharoitida yig‘ilib qolgan charchoqlarni chiqarish, toza havo, ekologik toza bo‘lgan oziq-ovqatlar, iqlim sharoitlarini o‘zgartirish, aholi sonining kamligi, boshqa tartib-qoida va yashash madaniyati, qishloq xo‘jalik ishlarida ishtirok etish, bog‘dorchilik, chorvachilik, tabiat bergan in‘omlarni to‘plash va qolaversa, dam olishning arzonligidan iborat. Shulardan kelib chiqib, bu turizm turi o‘z xarakteriga ko‘ra ekologik turizmning bir ko‘rinishiga kiradi.

Bugungi kunda qishloqda turizm juda tez rivojlanmoqda va ba‘zi mamlakatlarda xorijiy sayyohlarning katta qismi jalb etilmoqda. Bunga Italiya, Irlandiya, Fransiya, Shvetsariya, Skandinaviya mamlakatlari, Ispaniya misol bo‘la oladi - bu mamlakatlar yuzlab millionlab foyda keltiradigan Yevropada qishloq turizmida tan olingan yetakchi davlatlardir.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, sayyohlikning ushbu turiga yillik ehtiyoj 600 ming kishini tashkil qiladi. Jahon amaliyotida qishloq joylarida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bilan bir qatorda, qishloq xo‘jaligidan tashqari bandlik, xususan qishloq turizmi qo‘shimcha daromad manbai bo‘lib qolmoqda. 1972 yildan boshlab qishloq turizmi iqtisodiyotning alohida tarmog‘i sifatida ajralib chiqdi. G‘arbiy Yevropada qishloq turizmi 1960 yillarning boshlaridan beri barqaror rivojlanish bilan ajralib turadi¹.

Shahar aholisining yozgi issiq kunlardagi va qishki qorli kunlardagi hordiq olishlarini to‘g‘ri tashkil etish imkoniyati mavjudligini e‘tiborga olib, qishloq turizmini respublikamiz hududida quyidagi tarzda tashkil etish tavsiya etiladi:

- qishloq hayotining muntazamligi va sukunati;
- sabzavotlar, rezavorlar, o‘tlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘dan terish;
- ochiq havoda sayr qilish;
- tabiiy manbalardan suv ichish qobiliyati;
- tabiiy suv havzalarida suzish;
- yerda ishlash;
- hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish;
- yangi sut va go‘sh;
- har bir mehmonga individual yondashuv;
- uy hayvonlari bilan dam olish imkoniyati;
- xalq sayllari va o‘yin-kulgilarida ishtirok etish;
- bevosita ovqat pishirish jarayonida ishtirok etish;
- non yopish jarayoni;
- sandalida oyoqlarni isitish;
- uy muhiti va tabiatning hech qanday cheklovlarsiz beradigan boshqa ko‘p narsalar.

Turistlar qishloqdagi fermerning uyida oilasini joylashtirishi maqsadga muvofiqdir, bu - turistlarni qishloq hayoti va u yerdagi yangi insonlar bilan yaqindan tanishtirishga, ularning urf-odatlarini va qishloq xo‘jalik ishlari bilan kuchi yetgan darajada ishlashga imkon beradi. Shubhasiz, bu uy egalari uchun noqulayliklar yaratadi, lekin fermerlar uchun qo‘shimcha pul va

1 SHARPLEY R. and SHARPLEY J. (1997), Rural Tourism: An Introduction, Oxford: International Thomson Business Press

yangilik olib keladi. Bunda turistlar uchun maxsus bir yoki bir necha xona ajratilib, barcha zaruriy narsalar yetkazib beriladi. Bunday turizmdan davlat ham, fermerlar ham daromad ko'radi. Shu jihatdan qishloq turizmini qulay va kam xarajat turizm turi deyish mumkin.

Qishloq turizmi tarkibidagi kichik va o'рта korxonalar ulushini oshirish va qishloq joylarini kompleks rivojlantirish natijasida qishloqning turistik infratuzilmasini mustahkamlashga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rish zarur. Qishloq joylarda turizmni rivojlantirish uchun strategik rejalashtirish tizimini yaratish kerak. Gap nafaqat qishloq turizmini rivojlantirish bo'yicha, balki uni diversifikatsiya qilish orqali maqsadli dasturni ishlab chiqish, ya'ni barcha darajadagi qishloq aholi punktidan tuman va shahar tumanigacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish kerak. Belgilangan amalga oshirish mexanizmi bilan yurtimizda qishloq turizmini rivojlantirish bo'yicha kompleks strategiyani yaratish uchun turistik bozorning ushbu segmentining holati va rivojlanish istiqbollari ishonchli aniqlash kerak. Bundan tashqari molivaviy rag'batlantiruvchi dasturlarni taklif qilish, bunda an'anaviy mulk egalari o'z yerlarini rekonstruksiya qilish va uni turizm manzilgohlariga aylantirish maqsadida olgan kredit foizlarining bir qismi subsidiyalashtirish maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo'jaligida qo'llanuvchi texnikani targ'ib qilish-qishloq joylarida turizmni rivojlantirish va yangi texnologiyalarni joriy qilish orqali turizm sanoatini rivojlantirish mumkin.

Demak, qishloq turizmi shunchaki shahar atrofidagi hududga sayohat emas, balki boshqa mamlakatlarga borish, boshqa xalqlarning turmush tarzi va turmush tarzi bilan tanishish imkoniyatidir. Bu dam olishning boshqa turlaridan shahar aholisi uchun imkoni bo'lmagan hayot tarziga to'liq sho'ng'ish, o'zini qishloqning to'laqonli aholisidek his qilish imkoniyati bilan ajralib turadi.

JONDOR TUMANIDA PAXTACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS YO'LLARI

Dilmonov Q.B.

Hakimova Sh.

Buxoro davlat universiteti

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5853-son Farmoni ijrosini ta'minlash, jumladan qishloq xo'jaligida erkin raqobatni ta'minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish, paxta va g'alla yetishtirishda davlat buyurtmasini bekor qilish, ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini va mahsulot ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligini oshirish, investitsiyalarni keng jalb qilish hisobiga qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, «O'zpxatasanoat» AJ, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2020 yil hosilidan boshlab paxta xom ashyosini yetishtirishda davlat buyurtmasini bekor qilish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi.

Ekspertlar hisob-kitoblariga ko'ra, bugungi kunda dunyodagi ilg'or davlatlar iqtisodiyotining qariyb 50 foizi klaster usuliga o'tgan. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2 mingdan ziyod klasterlar mavjud bo'lib, ularda ishchi kuchining 38 foizi qamrab olingan. Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiya sanoatida to'liq klaster usuli tatbiq qilingan. AQSHda esa mamlakatdagi mavjud korxonalarining yarmidan ziyodi shu tizimda ishlab, ular tomonidan tayyorlanayotgan tovarlar yalpi ichki mahsulotning 60 foizini tashkil qiladi.

Ularning eng mashhuri sizni bizga tanish bo'lgan "Silikon vodiysi"dir. 87 mingta kompaniya, 40 ta tadqiqot markazi va o'nlab universitetlar faoliyat yuritadigan mazkur innovatsion klaster infratuzilmasiga 180 ta venchur firmasi, 47 ta investitsiya va 700 ta tijorat banki xizmat ko'rsatib keladi. Xo'sh, nima uchun jahonning eng ilg'or iqtisodiyotlari aynan klasterlashtirish yo'lidan bormoqda?

Germaniyalik mutaxassislar fikricha, aynan klaster kelajakdagi kuchli, murosasiz raqobat muhitida yutib chiqishning eng oqilona yo‘lidir. Zero, bunday mexanizm har qanday sharoitga moslasha oladi, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy muammolarni izchillik bilan samarali yechib beradi, nafaqat muayyan hudud, balki davlatning xalqaro maydondagi raqobatdoshligini mustahkamlaydi, nufuzini oshiradi. Qolaversa, innovatsion iqtisodiyotga o‘tishning muhim bosqichi hisoblangan ushbu tizim ilm-fan, ta‘lim hamda ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, yangi innovatsion texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etishga xizmat qiladi.

Paxtachilik klasterlari tuzishda davlat tomonidan quyidagi imtiyozlar beriladi:

1. Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) imtiyozli kredit resurslari hisobidan tijorat banklari tomonidan fermer xo‘jaliklari va urug‘chilikni rivojlantirish markazi tarkibidagi elita urug‘chilik xo‘jaliklariga paxta xom ashyosini yetishtirish xarajatlari uchun 14 oy muddat bilan paxta xom ashyosi qiymatining 50 foizigacha yillik 8 foiz, 60 foizigacha yillik 10 foiz stavkadan oshmagan miqdorda;

2. Paxta-to‘qimachilik klasterlari va kooperatsiyalarga paxta xom ashyosini yetishtirish xarajatlari umumiy foydalanish muddati 22 oygacha bo‘lgan davr bilan paxta xom ashyosi qiymatining 50 foizigacha yillik 8 foiz, 60 foizigacha yillik 10 foiz stavkadan oshmagan miqdorda (shundan, bank marjasi 2 foiz) kreditlar beriladi.

3. Paxta-to‘qimachilik klasterlari va kooperatsiyalarga berilgan kreditlar faqat 11 oy o‘tganidan so‘ng keyingi oyning birinchi sanasigacha qaytarilishi shart. Kreditni qaytarish muddatini hisoblash esa har bir transh uchun kredit mablag‘i paxta-to‘qimachilik klasteri va kooperatsiyaga kelib tushgan kundan boshlanadi.

2019 yilda 77 ta paxta-to‘qimachilik klasteri tomonidan 677,4 ming gektar maydonda 2 million tonnadan ortiq paxta xom ashyosini yetishtirish belgilandi. Klasterlarning o‘zlariga 125 ming gektar yer maydonlari birlashtirib berilgan bo‘lsa, 552 ming gektarda 16 mingta fermer xo‘jaliklari bilan fyuchers shartnomalari asosida sanoat xom ashyosi yetishtirildi. Buning uchun klasterlarga qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasidan 4 trillion 114 milliard so‘m imtiyozli kreditlar ajratildi. Shuningdek, klasterlarning o‘z mablag‘lari hisobidan 2,1 trillion so‘m yo‘naltirilib, paxta xom ashyosi yetishtirishga jami 6,2 trillion so‘m mablag‘ sarflandi.

Jadval-1

Tumanlar kesimida qishloq xo‘jaligi mahsuloti

Ko‘rsatkichlar	2021 yil yanvar-mart ²⁾	2021 yil yanvar-iyun ²⁾	2021 yil yanvar-sentabr ²⁾
Buxoro viloyati	2 590,2	10 882,4	20 822,4
Buxoro sh.	49,1	123,3	245,8
Kogon sh.	3,5	6,2	9,4
<i>tumanlar:</i>			
Olot	196,6	832,3	1439,3
Buxoro	326,8	1340,1	2450,5
Vobkent	209,1	973,9	2075,6
G‘ijduvon	253,5	1186,2	2293,9
Kogon	241,5	718,7	1361,3
Qorako‘l	233,8	1186,5	2173,8
Qorovulbozor	57,5	265,1	605,4
Peshku	180,3	977,0	1890,1
Romitan	254,5	858,9	1884,8
Jondor	320,7	1470,5	2488,7
Shofirkon	263,3	943,7	1903,8

Paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan joylarda bosqichma-bosqich zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari parkini yaratish, sohani mexanizatsiya darajasini oshirish, yetishtirilgan hosilni chuqur qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish, mahsulot yetishtirishda band bo‘lgan aholini

sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga o'tkazish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan qishloq xo'jaligida ish samaradorligini oshirish maqsadida texnikalar bilan ta'minlanganlik darajasini yaxshilash bo'yicha jami qiymati 1 trillion 900 milliard so'mlik 16 mingdan ziyod, shundan 2019 yilning o'zida 1 trillion 200 milliard so'mlik 14 mingga yaqin qishloq xo'jalik texnikalari xarid qilindi.

Suv resurlaridan oqilona foydalanish, paxtachilikda suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish borasida ham keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 dekabrda "Paxta xom ashyosini yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyalaridan keng foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4087-son qarori ijrosi yuzasidan 13 ta paxta to'qimachilik klasteri tomonidan 2753 gektar maydonda tomchilatib sug'orish tizimlarini joriy etildi. Natijada sug'orish uchun suv sarfi 40-50 foizga, yonilg'i-moylash mahsulotlari 30-35 foizga kamayib, mehnat unumdorligini 20-25 foizga oshirishga erishildi.

Buxoro viloyati tumanlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki Jondor tumani barcha muddatlar bo'yicha yetakchilik qilyapti.

Jadval-2

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan klasterlar

Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarish va klasterlari	Tumanlar nomi	Paxta maydoni, gektar, ga
Jami paxta-to'qimachilik ishlab chiqarish va klasterlari yer maydoni		907 783,0
Buxoro viloyati misolida		
"WBM Romiteks" MCHJ	Buxoro, Jondor, Romitan	23 270,0
"Bahor Chance Textile" MCHJ	Kogon	1 501,0
"Merganteks" MCHJ	Qorako'l	6 130,0
"Qorakul Kumush Kalava" MCHJ	Qorako'l	1 837,0
"Parvoz Xumo Ravnaq trans" MCHJ	Olot	7 915,0
"BCT Cluster Agrokompleks" MCHJ	Romitan	7 303,0
"Buxoro Zarxal Teks" MCHJ	Shofirkon	2 680,0
"Buxoro Agroklastar" MCHJ	Qorako'l, Vobkent, G'ijduvon, Qorovulbozor, Peshku, Kogon, Shofirkon, Buxoro sh.	47 264,0
Jami		97 900,0

Jondor tumani azal-azaldan paxta yetishtirish bo'yicha nafaqat viloyatda balki Respublikadahan yetakchi tumanlardan biri hisoblanadi. Bunga asosiy sabab viloyatning 365 kuni quyushli bo'lishi, yer maydonining cho'l zonalaridan tashkil topganligi, paxta maydonlarining ko'plab yerlarni egallaganligi, hozirda ham aholining asosiy qismi dehqonchilik bilan shug'ullanishiga sabab bo'lmoqda. Natijada bu tumanda paxta to'qimachilik klasterlarini yaratish zarurati tug'ilmoqda.

Bu yil Jondor tumanida paxtachilikka ixtisoslashgan 396 ta fermer xo'jaligi mirishkorlari ham 11 ming 680 gektar yerga chigit ekib, kech kuzga borib 38 ming 200 tonnalik "oq oltin" xirmoni bunyod etish maqsadida erta bahordan dala-dehqonchilik ishlarini boshlab yuborganlar. Bu borada "Romitex" MCHJ klaster korxonasi bilan davlat shartnomalari tuzilgan. Agrotexnik tadbirlar obi-tobida olib borilsa, pirovardida paxtachilikda har gektaridan olinadigan hosil salmog'i 33 sentnerga yetkazilishi kutilmoqda. Shuningdek, boshoqli don yetishtirish bo'yicha hududda 54 ta fermer xo'jaligi bilan 806,5 gektar maydonda jami 5 ming 646 tonna g'alla xirmoni yaratish yuzasidan davlat shartnomalari tuzilgan. Har bir gektar hosildorligini 70 sentnerga yetkazish talabi qo'yilgan.

Klasterlar tomonidan mineral o'g'itlarni o'z vaqtida yetkazib berilishi natijasida fermer xo'jaliklariga talab qilinadigan me'yordagi o'g'itlar bilan ta'minlanishiga imkoniyat yaratildi. Jumladan, joriy yilda g'ozani mineral o'g'itlar bilan oziqlantirishda sof holda azotli o'g'itlar 275 ming 85 tonna, fosforli o'g'itlar 85 ming 45 tonna va kaliyli o'g'itlar 33 ming 19 tonnaga ta'minlandi. Paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan 110 ming 259 tonna azotli, 26 ming 446 tonna fosforli va 13 ming 468 tonna kaliyli o'g'itlar "O'zagrokimyohimoya" AJ korxonalaridan xarid qilindi va 7 ming 261 tonna azotli, 13 ming 340 tonna fosforli va 2 ming 52 tonna kaliyli o'g'itlar chetdan olib kelindi. Yuqorida ta'kidlanganidek, natijadan ko'ngil to'ladi. Bugungi kunga qadar paxta to'qimachilik klasterlari tomonidan 2 million 36 ming tonna paxta xom ashyosi yetishtirildi, yilning o'tgan 10 oyi davomida qiymati 2,3 trillion so'mlik investitsiya loyihalari amalga oshirilib, 13,5 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi.

2020 yildan boshlab respublikamizda paxta xom ashyosi yetishtirish to'liq klaster tizimida amalga oshirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Paxta to'qimachilik klasterlari tomonidan 2020-2021 yillarda jami 4,8 trillion so'mlik loyihalar amalga oshirilishi hisobiga 19 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilmoqda

QISHLOQ XO'JALIGIDA IXTISOSLASHGAN KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISH HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Yuldasheva Komila
TIQXMMI 301-guruh talabasi

Klasterlar faoliyatini yo'lga qo'yishdan asosiy maqsad – eksport hajmini oshirish. Buning uchun esa yangi bozorlarni topish kerak. Bozor bo'lmasa, eksport ham bo'lmaydi, klaster tizimi ham yurmaydi. Shuning uchun chet ellardagi talabni muntazam o'rganib, imkoniyatlardan samarali foydalanish, eksportda izchillikni ta'minlash kerak – deb ta'kidlab o'tadilar mamlakatimiz raxbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

Klasterlar tizimi - bu xom-ashyo yetishtirishdan boshlab to qayta ishlangan tayyor mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab olgan bir butun tizim. Bugun dunyoning ko'plab davlatlarida bu tizim qo'llaniladi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan respublika bo'yicha tashkil etilgan klasterlar umumiy soni: 463 ta tashkil etib, birlashtirilgan yer maydoni 2210385 ga. iborat. Shundan klasterlarda 282004 ga, 75283 ta fermer xo'jaligida 1930975 ga hisoblanadi.

Klaster tizimining maqsadi:

- Mahsulot yetishtirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni jalb qilish orqali agrotexnik tadbirlarni yangilash, hosildorlikni bir necha barobar oshirish.
- Mahsulot yetishtiruvchilar tomonidan qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish va yakunda olinadigan tayyor mahsulotlarni eksportga yo'naltirish.
- Kam xarajat qilib, ko'p daromad olish. Mahsulot yetishtiruvchilarning moliyaviy xolatini yaxshilash.
- Mahsulot yetishtiruvchilar moddiy-texnik bazasini zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari va uskunalari bilan boyitish. Infratuzilma obyektlarini yangilashdan iborat.

Klaster tizimining qisqacha tarixi:

“Klaster” fransuzcha soʻz boʻlib, “bogʻlam”, “guruh”, “toʻplanish”, degan maʼnolarni anglatadi. “Klaster” tushunchasi ilk bor 1990-yilda Maykl Porter tomonidan “Davlatlarning raqobatdosh afzalligi” nomli asarida keltirilgan. Oʻzbekiston respublikasida klasterlar tizimi 2017-yilda joriy etilgan boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi “Buxoro viloyatida zamonaviy paxtachilik-toʻqimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-2978-son qarori asosida Buxoro viloyatida “VST cluster” MCHJ QK hamda 2017-yil 15-sentyabrdagi “Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxtachilik-toʻqimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3279-son qarori asosida “Bek cluster” MCHJ QK paxta-toʻqimachilik klasterlari tajriba-sinov tariqasida tashkil etildi. Klaster tizimi yaxshi natija koʻrsatganidan keyin, mamlakatimiz boʻylab turli klasterlar tashkil etildi. Bugungi kunda respublikada paxta-toʻqimachilik, gʻallachilik va meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyat olib bormoqda.

Klaster va klasterlash jarayonida hozirgi sharoitimizda muammolar koʻp, chunki Oʻzbekiston uchun bu yangi tizim hisoblanadi shuning uchun, koʻpchilik fermer va dehqonlarimiz bu tizimdan foydalanishdan bosh tortishlariga sabab boʻlmoqda. Ammo biz oldimizga yangi va farovon, barqaror va mustaqil, oʻz xalqini bemalol oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlay oladigan va boshqa chet el davlatlariga ham bemalol eksport qila oladigan iqtisodiy jihatdan yetuk davlatni qurmoqchi ekanmiz, bu ishda avvalo yangiliklarni, innovatsiyalarni va ilm-fan yutuqlarini qabul qilishimiz va jamiyatimizga tatbiq etishimiz kerak.

Qayd etilishicha, mamlakatda agrar sohani isloh qilish, unga bozor mexanizmlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, klaster usuli yoʻlga qoʻyildi, ekin turlari zamon talabidan kelib chiqib oʻzgartirildi. Natijada, hosildorlik ham, daromad ham oshmoqda. Respublikada yetishtirilayotgan 80 turdan ortiq qishloq xoʻjaligi mahsulotlari 66ta mamlakatga eksport qilinmoqda.

Davlat rahbarining 2019-yil 23-oktyabrdagi farmoni bilani Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga moʻljallangan strategiyasi qabul qilindi. Unga muvofiq, yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida meva-sabzavot klasterlari tashkil etilmoqda. 2019-yil 11-dekabrda bu borada prezident qarori qabul qilinib, barcha tashkiliy-huquqiy asoslar yaratib berildi. Oʻtgan qisqa vaqtda hokimliklar tomonidan 86ta shunday klaster tashkil etish boʻyicha takliflar shakllantirildi.

“Davlat rahbari bu haqda joriy yil 24 yanvardagi Murojaatnomasida aytgan edi. «Paxta va gʻalla yetishtirishga davlat buyurtmasini bekor qilib, ushbu mahsulotlarni bozor tamoyillari asosida xarid qilish tizimiga bosqichma-bosqich oʻtamiz. Agar bu yoʻldan bormasak, fermer va dehqonlarimiz mahsulot yetishtirishda erkin boʻlmaydi, ular oʻzlari kutganlaridek manfaat koʻrmaydi, hokimlarning esa ish uslubi oʻzgarmaydi», — degan edi Shavkat Mirziyoyev.

Paxta yetishtirishni moliyalashtirishning amaldagi tizimi klasterlar bilan ishlashga moslashmagani koʻrsatib oʻtildi. Shu bois klasterlar va fermerlarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish boʻyicha topshiriqlar berildi.

Paxta va gʻalla boʻyicha davlat rejasini bekor qilish, ekinlarni majburiy joylashtirish tartibidan 2023 yilgacha bosqichma-bosqich voz kechish boʻyicha joriy va kelgusi yilda amalga oshiriladigan tadbirlar atroflicha koʻrib chiqildi.”

Soʻnggi yillarda bu yoʻnalishda amalga oshirilayotgan salmoqli ishlar tufayli klaster usulida mahsulot yetishtiruvchi va uni qayta ishlovchilar manfaatlarining mushtarakligi taʼminlanyapti. Klaster ishtirokchilari qishloq joylarga sanoatni olib kirish evaziga sohada yigʻilib qolgan muammolarni hal etishda tashabbuskor boʻlyapti. Eng asosiysi, klasterlarda odamlarning bandlegi taʼminlanib, ular qishin-yozin mehnat qilyapti, oylik maosh olyapti.

Boshqacha aytganda, bu tizim dehqonlarimiz, agrar soha vakillariga yangicha zamonaviy uslubda ishlashni oʻrgatdi. Hosildorlik, daromadni oshirdi. Tan olishimiz kerakki, har bir insonni, avvalo, manfaat boshqaradi. Har bir inson yaxshi yashashni, farovon turmush kechirishni istaydi. Buning uchun, albatta, oʻzi va yurti manfaati yoʻlida tinmay mehnat qiladi. Klaster bizga mana shu manfaatni koʻrsatdi.

E'tibor bering, 2020 yilda 97 ta paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan jami 2 mln 794 ming tonna paxta xom ashyosi yetishtirilgan bo'lib, o'rtacha hosildorlik 30,1 s/ga ni tashkil etgan. Qolaversa, 78 ta paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan shartnomada belgilangan hosil to'liq yetishtirilib, shundan 11 tasida yuqori ko'rsatkichlarga erishilgan yoki o'rtacha 3-8 s/ga qo'shimcha hosil olingan.

Shu jihatdan, bugun qishloq xo'jaligida ish yuritishning yangicha shakli — klaster usuli tobora ommalashmoqda. Negaki, bunday mexanizm har qanday sharoitga moslasha oladi, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy muammolarni izchillik bilan samarali yechib beradi. Chunki klaster usuli to'qimachilik sanoati rivojida muhim ahamiyatga ega va bu usulni hayotga tatbiq etish uchun yurtimizda barcha imkoniyatlar yetarli.

Mubolag'asiz aytamanki, klaster tushunchasi, bugun hamma uchun bo'lmasa-da, shu tizimda ishlayotgan fermerlarga yaxshi tanish bo'lib qoldi. Paxta ekishdan to tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayonni yagona texnologik tizimga birlashtirgan ishlab chiqarishning yangi majmuasi ilm-fan yutuqlarini, yangi innovasion texnologiyalarni amaliyotga jadal joriy etishga ham keng yo'l ochib berdi.

Shu nuqtai nazardan O'zbekiston sharoitida klasterlarni rivojlantirish eng oqilona qarordir. Boisi qishloq xo'jaligi uchun noqulay kelgan yillarda ham klasterning boshqa tashkilotlari hisobidan umumiy ish o'rni va ish haqi saqlab qolinadi. Asosiysi, klasterlar hududlarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda katta rol o'ynab, ushbu yondashuv iqtisodiy jihatdan ustuvor tarmoqlar va loyihalarni aniqlash imkonini beradi.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamanki, klasterlar iqtisodiyotimiz uchun naqadar kerakli va foydali bo'lsa, jamiyatimizning rivojlanishi uchun shunchalik muhim omillardan biri hisoblanadi.

ЎЗБЕКИСТОНДА АГРОКЛАСТЕРЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЗАРУРАТИ

Гиязов Б. Б.

БухДУ, Иқтисодиёт кафедраси ўқитувчиси

Ўзбекистоннинг барча тармоқлари каби, қишлоқ хўжалигида ҳам чуқур таркибий ислохотлар амалга оширилмоқда. Айни вақтда, ҳозирги мураккаб ва қалтис давр дунё миқёсида аграр соҳанинг ҳал қилувчи ўрни ва аҳамиятини яна бир бор яққол кўрсатиб бермоқда. Мавжуд ресурс ва имкониятлардан оқилона фойдаланиб, аҳолини қишлоқ хўжалик маҳсулотлари билан кафолатли таъминлаш, соҳада янги иш ўринлари яратиш, манфаатдорликни янада ошириш энг муҳим масалага айланмоқда.

Бугунги кунда қишлоқ хўжалигини жадал ривожлантириш, унинг иқтисодий самарадорлигини ошириш, қишлоқ аҳлининг турмуш шароитини янада яхшилаш, манфаатдорлигини таъминлаш масалалари бевосита қишлоқ хўжалигини бошқаришнинг замонавий усули — кластерлар тизими билан боғиқ. Таъбир жоиз бўлса, ушбу янги тузилма ўтган жуда қисқа вақт ичида аграр соҳани ҳаракатлантирувчи етакчи куч — драйверига айланди.

Сўнги йилларда аграр соҳани модернизация ва диверсификация қилишга устувор аҳамият берилмоқда. Эътироф этиш жоиз, давлатимиз раҳбари ғояси асосида сўнги йилларда қишлоқ хўжалигида маҳсулот етиштириш ва уни қайта ишлашнинг занжирли усулига асосланган кластер тизими пайдо бўлди.

Кластер — бу хом ашё етиштиришдан бошлаб то қайта ишланган тайёр маҳсулотни истеъмолчига етказиб беришгача бўлган жараёнларни камраб олган бир бутун тизим. Кластер — бу қўшилган қиймат занжирининг барча иштирокчилари (фермерлар, қайта ишловчи корхона, экспортёр)ни бир мақсад сари жамлаган корхоналар гуруҳидир.

Кластерларнинг мақсади:

- маҳсулот етиштиришдан бошлаб тайёр истеъмолга қадар қайта ишлаш жараёнларини камраб олиш, қўшилган қиймат занжирини яратиш ва якунида олинадиган тайёр маҳсулотларни ички ва ташқи бозорларга йўналтириш;

- маҳсулот етиштиришда замонавий инновацион технологияларни жалб қилиш орқали агротехник тадбирларни янгилаш, ҳосилдорликни бир неча баробарга ошириш;
- оптимал харажат қилиб, кўп даромад олиш, маҳсулот етиштирувчиларнинг молиявий ҳолатини яхшилаш;
- маҳсулот етиштирувчилар моддий-техник базасини замонавий қишлоқ хўжалиги техникалари ва ускуналари билан бойитиш, уларга хизмат кўрсатишни ва инфратузилма объектларини янгилашдан иборат.

Бу тизим деҳқонлар, аграр соҳа вакилларига янги замонавий услубда ишлашни ўргатади. Маҳсулот экишдан то тайёр маҳсулотгача бўлган жараённи ягона технологик тизимга бирлаштирган ишлаб чиқаришнинг янги мажмуаси илм-фан ютуқларини, янги инновацион технологияларни амалиётга жорий этишга ҳам кенг йўл очиб беради.

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда кластерлар бўйича Президент ва Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари қабул қилинган бўлиб, муайян кластерларни ташкил этиш ва уларга ер ажратишни назарда тутати. Амалда фаолият юритаётган кластерларнинг таҳлили соҳада қуйидаги тизимли муаммолар мавжудлигини кўрсатади:

- соҳани тартибга солувчи ягона норматив-ҳуқуқий ҳужжат мавжуд эмас;
- кластерларнинг ҳуқуқий мақоми норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда назарда тутилмаган;
- кластерларни ташкил этиш, уларни танлаб олиш мезонлари, шунингдек, уларга ерларни ажратишнинг ягона ва шаффоф механизмлари мавжуд эмас;
- Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги кооперацияларни шакллантириш тизимининг мавжуд эмаслиги;
- қишлоқ хўжалиги кооперацияси соҳасида ахборот-маслаҳат хизматлари тизимининг кенг тарқалмаганлиги, соҳанинг ривожланишини мустаҳкамлашга лаёқатли ҳамда малакали мутахассисларнинг етишмаслиги;
- қишлоқ аҳолисининг кооперацияси тўғрисидаги билим даражасининг етарли эмаслиги;
- ўзаро ҳамкорлик муносабатларини ўрнатиш ва эркин бирлашишга руҳий (психологик) жиҳатдан тайёр эмаслик, хўжалик юритишда ўз-ўзини бошқариш кўникмаларининг етишмаслиги;
- кооперация тузилмаларини ташкил этишга агробизнеснинг ҳиссадорлик корхоналари, хусусий тадбиркорлари ва воситачилари томонидан қарши таъсир ва рақобатнинг мавжудлиги.

Шундан келиб чиққан ҳолда, «Қишлоқ хўжалиги кооперацияси тўғрисида»ги қонун ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг «Агросаноат кластерлари мақоми ва уларнинг фаолиятини ташкил этиш тартиби тўғрисида»ги қарори лойиҳалари ишлаб чиқилди.

«Қишлоқ хўжалигида кооперация тўғрисида»ги қонуннинг қабул қилиниши қишлоқ хўжалигида кооперация муносабатларни шакллантиришнинг ҳуқуқий асосини яратиш, кооперативлар фаолиятини ривожлантириш, шунингдек, хўжалик субъектлари учун муносабатларни муфассал ҳуқуқий тартибга солишга ёрдам беради.

Қишлоқ хўжалигида кооперация муносабатларини ташкил топиши умумманфаатлар, муаммолар, мақсадлар ёки вазифалар тамойили бўйича жисмоний ёки юридик шахсларнинг бирлашиши алоҳида долзарблик касб этади.

Қишлоқ хўжалик кооперативи аграр секторда тадбиркорлик фаолияти, шу жумладан, ишлаб чиқарувчидан якуний истеъмолчигача бўлган тизимни такомиллаштириш учун дастак ҳисобланади.

Мазкур қонун лойиҳасининг қабул қилиниши орқали қишлоқ хўжалигида кооперация муносабатларини тартибга солувчи нормаларни ягона ҳужжатда унификация қилиш ва тизимлаштириш, ушбу соҳасидаги муносабатларни комплекс ҳуқуқий тартибга солиш, қонун ҳужжатларидаги зиддиятлар ва бўшлиқларни бартараф этишга эришилади.

Қонун лойиҳаси йирик кооперацияларни ташкил этиш, улар фаолиятини мувофиқлаштириш, давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, молиялаштириш бўйича рағбатлантирувчи чора-тадбирларни қўллаш масалаларини кўзда тутди.

Шунингдек, «Агросаноат кластерлари мақоми ва уларнинг фаолиятини ташкил этиш тартиби тўғрисида»ги қарор лойиҳасида агросаноат кластерлари мақоми ва уларнинг фаолиятини ташкил этиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш назарда тутилмоқда. Унда:

- агросаноат кластерининг ҳуқуқий мақоми белгиланмоқда;
- агросаноат кластери фаолияти учун ер участкалари 30 йилдан 50 йилгача муддатга ижара ҳуқуқи асосида захира ерлар, бўш турган қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар, қайта тикланадиган ва фойдаланишга киритиладиган қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан қонунчиликда белгиланган тартибда ажратилиши назарда тутилмоқда;
- қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчиларини агросаноат кластерларига мажбурий тартибда бириктириш амалиёти бекор қилинмоқда;
- қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчиларига республиканинг исталган ҳудудидаги агросаноат кластерлари билан шартнома тузиш ва уларга маҳсулот етказиб бериш ҳуқуқи берилмоқда;
- агросаноат кластерларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш шаклларини белгиланмоқда;
- агросаноат кластерлари фаолиятини мониторинг қилиш Қишлоқ хўжалиги вазирлиги зиммасига юкланган ҳолда, унинг механизмлари белгиланмоқда;
- агросаноат кластери мақоми бекор қилиш, ерга ижара ҳуқуқини бекор қилиш фақат суд қарори асосида амалга оширилиши назарда тутилмоқда.

Мазкур қарорнинг қабул қилиниши орқали агросаноат кластерларини ташкил этиш ва уларнинг фаолият юритишини таъминлашнинг ҳуқуқий асосларини яратишга, кластерларини ташкил этишда ваколатли давлат ва маҳаллий ҳокимият органларини ҳамда кластерларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини аниқ белгиланишига ҳамда агросаноат кластерларини фаолиятини самарали йўлга қўйишда давлат ва маҳаллий ҳокимият органлари томонидан ер ажратиш, молиялаштириш масалаларида кўмаклашишни таъминлашнинг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлашга эришилади.

Давлат раҳбари «Кластер ва манфаатдорлик — Ўзбекистон қишлоқ хўжалигининг келажаги. Илм-фан ва инновацияларни жорий этмай туриб, бу соҳани рақобатбардош қилиб бўлмади» деб бежизга таъкидламаган. Бинобарин, бундан кейин кластернинг аҳоли даромадларини ошириш, ишчи ўринларини яратиш, иқтисодиёт, жумладан, қишлоқ хўжалиги соҳасини модернизация ва диверсификация қилиш, озиқ-овқат маҳсулотлари етиштиришдаги аҳамияти ортиб бораверади, асло камаймайди.

ҚОРАҚЎЛЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ ТАШКИЛИЙ, ИҚТИСОДИЙ, ҲУҚУҚИЙ, ИЖТИМОЙ ВА ЭКОЛОГИК ЖИҲАТДАН УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ

Шодиев Бекзод Тўлқинович,

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти, “Инновацион иқтисодиёт” кафедраси
доценти, и.ф.ф.д. (PhD)

Бугунги кунда мамлакатимиз аграр соҳаси иқтисодиётини модернизациялаш ва диверсификациялаш, тармоқда қўшилган қиймат занжирини яратиш ва кўпайтиришнинг бозор тамойилларига мос тузилмаларини шакллантириш мақсадида ихтисослашган кластерларни ташкил қилишга устувор йўналиш сифатида эътибор қаратила бошланди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти ва ҳукуматининг сўнгги тўрт йил ичида маҳсус қарорларига мувофиқ, Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларда 2020 йил

якуни бўйича жами 96 та ихтисослашган пахта-тўқимачилик¹, 47 та мева-сабзавотчилик кластерлари² фаолият кўрсатмоқда ва уларга 60 фоиздан ортиқ қишлоқ хўжалиги майдонлари бириктирилган³.

Пахта-тўқимачилик ишлаб чиқариш ва кластерлари томонидан 2020 йилда 906313 гектар ер майдонига пахта хом ашёси етиштирилди ёки бу Республикадаги пахта хом ашёси етиштирадиган умумий ер майдонининг 87,7 фоизини ташкил этди.

Пахта-тўқимачилик ишлаб чиқариш ва кластерлари пахта хом ашёси етиштириш даврида илғор замонавий инновацион технологияларни жалб этган ҳолда пахта ҳосилдорлигини қўшимча 10 центнерга оширишга эришилмоқда.

Пахта-тўқимачилик кластерларида юқори сифатли пахта ҳосилини олиш мақсадида: чигит экиладиган ер майдонларини сифатли ва самарали озиклантириш учун хориждан (Россия, Қозоғистон) фосфорли ўғитлар, экинларни парваришлаш вақтида зараркундаларга қарши курашда кимёвий препаратлар Хитой, Туркия, Россия, АҚШ, Австралия, Швеция ва бошқа давлатлардан харид қилинмоқда;

чигит экиш учун Хитой, АҚШ, Туркия, Франция, Германия, Швеция давлатларида ишлаб чиқарилган ва харид қилинган замонавий (6, 8, 10, 12 қаторли) пневматик чигит экиш сеялкалари ёрдамида амалга оширилмоқда;

суғорилиши қийин бўлган ғўза экилган ер майдонларида замонавий томчилатиб суғориш технологиялари ёрдамида амалга оширилиб, гектаридан 50-60 центнердан пахта етиштиришга эришилмоқда;

етиштирилган пахта ҳосили АҚШ (John Deere), Германия (Case), Хитой ва бошқа давлатларда ишлаб чиқарилган замонавий пахта териш машиналарида териб олиниши йўлга қўйилмоқда.

Мева-сабзавот кластерларига 13,5 минг гектар ер майдони ажратиб берилиб, улар ихтиёрида 15,9 минг тонна сигимидаги музлаткич омборхоналар, 7810 тонна саралаш, 800 тонна калибрлаш, 4 та замонавий лаборатория, 119,8 минг тонна мева-сабзавот маҳсулотларини қайта ишлаш, 23201 тонна мева-сабзавотни саралаб-қадоқлаш цехлари мавжуд бўлиб, 1046 доимий, 1085 та мавсумий иш ўринлари ташкил этилган⁴.

Қишлоқ хўжалиги соҳасида самарали бошқарув тизимини шакллантириш борасида тизимли ислохотлар амалга оширилаётган вақтда чорвачилик соҳасининг энг йирик ва мураккаб тармоғи ҳисобланадиган қорақўлчилик тармоғида бозор муносабатлари ва тамойилларига мос бўлган кластерлар тузилмалари ташкил қилинмоқда.

Қорақўлчилик кластерларининг фаолияти ташкилий, иқтисодий, ҳуқуқий, ижтимоий ва экологик жиҳатдан устувор йўналишлардан ташкил топиши зарур.

Қорақўлчилик кластерларининг ташкилий йўналиши қуйидагиларни ўз ичига олиши зарур:

қорақўлчилик йўналишидаги йирик наслчилик масъулияти чекланган жамиятлари, фермер ва деҳқон хўжаликлари, шунингдек чорвачилик билан шуғулланиб, қишлоқлар атрофидаги яйлов ерларидан фойдаланадиган томорқа ер эгалари чорвачилик йўналишидаги фаолиятларини ихтиёрийлик ва тенг манфаатларда бирлаштириш;

кластерга аъзо хўжалик субъектлари томонидан яйловларнинг табиий ресурсларидан, жумладан ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, ер ости ва усти сувларидан уйғунлашган ҳолда самарали фойдаланиш ва келишилган режаларни ишлаб чиқиш;

¹ Пахта-тўқимачилик кластерлари. <https://uzts.uz/uz/pahta-toqimachilik-klasterlari/>

² Ходжаев Ж. 9 та устувор йўналишлар бўйича 30 дан ортиқ норматив ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилади. <http://www.agro.uz/uz/news/agro/zhamshid-khodzhaev-9-ta-ustuvor-y-nalishlar-b-yicha-30-dan-orti-normativ-u-u-iy-uzhzhatlar-ishlab-ch/>.

³ Хайитов А. кластер тизими ҳақида: «Бизда бу борада аниқ қонуннинг ўзи йўқ». <https://kun.uz/news/2019/09/11/aktam-hayitov-klaster-tizimi-haqida-bizda-bu-borada-aniq-qonunning-oz-i-yoq>

⁴ Ходжаев Ж. 9 та устувор йўналишлар бўйича 30 дан ортиқ норматив ҳуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилади. <http://www.agro.uz/uz/news/agro/zhamshid-khodzhaev-9-ta-ustuvor-y-nalishlar-b-yicha-30-dan-orti-normativ-u-u-iy-uzhzhatlar-ishlab-ch/>.

кластер фаолиятининг пировард натижалари бўйича аъзо хўжалик субъектларининг вазифалари ва мажбуриятлари, пировард натижа бўйича манфаатдорликни таъминлаш механизмлари ва бошқалар.

Қорақўлчилик кластерларининг иқтисодий йўналиши қуйидагиларни ўз ичига олиши зарур:

наслчилик қорақўлчилик хўжаликлари, фермер ва деҳқон хўжаликлари фаолиятини ўзаро ҳамкорлик асосида бирлаштирган ҳолда сифатли ва рақобатбардош товар маҳсулот ишлаб чиқариш ва сотиш жараёнларида мустақил бўлиш;

қорақўлчилик тармоғида товар маҳсулот етиштириш (хизмат кўрсатиш, иш бажариш, сотиш ва бошқалар) жараёнларида “муваффақиятлар учун иқтисодий рағбатлантириш ва аксинча, муваффақиятсизлик учун иқтисодий жавобгарлик” тамойилини жорий қилиш;

қорақўлчилик тармоғида қўшилган қиймат занжирини шакллантириш ва ривожлантиришга эришиш, бунинг учун “ишлаб чиқариш – тайёрлаш – саралаш – қайта ишлаш – сотиш” ва бошқа йўналишларни самарали йўлга қўйиш;

фаолият давомида ташқи иқтисодий алоқани ҳамкорликда тиклаш ва ривожлантиришга устувор ҳамда стратегик барқарор йўналиш сифатида эътиборни қаратиш;

қорақўлчиликда инновацион ишланмалар ва ресурстежамкор технологияларни уйғунлашган ҳолда жорий қилиш, чет эл инвестициясини жалб этиш учун шаффоф ва жозибадор муҳитни яратиш, тармоқда иқтисодий барқарор ўсишни таъминлашга қаратилган самарали хўжалик юритиш сиёсатини изчил жорий қилиш;

кластерларга аъзо бўлган хўжалик субъектларида якуний пировард натижалар учун кучли моддий манфаатдорлик ва ўзаро ҳамкорлик муносабатларини ривожлантириш ва бошқа иқтисодий масалалар.

Қорақўлчилик кластерларининг ҳуқуқий йўналиши қуйидагиларни ўз ичига олиши зарур:

муайян яйлов ерлари, тасарруфидаги мулк, етиштириладиган хом ашё маҳсулоти, уларни сақлаш, тайёрлаш, қайта ишлаш ва сотиш тизимида ҳуқуқий манфаатдорликни мустаҳкамлаш;

кластерга аъзо хўжалик субъектларини (юримдик ва жисмоний шахслар) ҳуқуқий жиҳатдан тенг шароитларда фаолият кўрсатишини таъминлаш;

хўжалик субъектларидаги ишчи-ходимлар, мутахассис кадрлар меҳнатини ҳуқуқий жиҳатдан ҳимоя қилиш;

Қорақўлчилик кластерларининг экологик йўналиши қуйидагиларни ўз ичига олиши зарур:

яйловларни ҳамкорликда тиклаш ва таназзулга учраган майдонлар ҳажмини камайтириш, биохилма-хиллигини сақлаш ва экотизимни яхшилаш;

кластер балансидаги ер майдонларидан, жумладан яйлов ерлари, ер ости ва усти сув манбаларидан фойдаланишда ҳар бир хўжалик субъектининг жавобгарлиги, масъулияти ва вазифаларини ҳуқуқий жиҳатдан аниқ белгилаш;

кластер аъзоларида табиий ресурслардан фойдаланишни ҳуқуқий асосларга мос равишда тизимли ва тартиб асосида фойдаланишни йўлга қўйиш;

Қорақўлчилик кластерларининг ижтимоий йўналиши қуйидагиларни ўз ичига олиши зарур:

аъзо хўжалик субъектларининг ишчи ходимлари ва мутахассислар учун замонавий янги иш жойлари, дам олиш ва соғлиқни тиклаш учун тегишли шароитларни яратиш;

меҳнат қилиш қобилиятига эга қишлоқ фуқаролари учун мақбул янги иш жойларини ташкил қилиш;

ўз аъзолари учун ижтимоий аҳамиятга эга бўлган объектларни қуриш ва ишга тушириш;

кластерларда ишлаб чиқариладиган товарлар (маҳсулотлар) ни сотиш учун савдо шохобчаларини ишга тушириш ва бошқалар.

Қоракўлчилик хўжаликларида маҳсулот ишлаб чиқаришни барақарор ўсишини таъминлаш, соҳани техник ва технологик жиҳатдан модернизациялаш ва энг асосийси, қоракўлчилик соҳасида меҳант қилаётган чорвадорлар, мутахассис-ишчиларнинг даромадларини кўпайтириш ҳамда улар яшаётган худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришга муҳим пойдевор ҳисобланади.

QISHLOQ XO'JALIGIDA IXTISOSLASHGAN KLASSTERLARNI SHAKLLANTIRISH HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.

Bakayeva M.A.

Abdullayeva H. N.

Buxoro Davlat Universiteti

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lib, YaIMning 28,5 foizini tashkil etadi. Unda qariyb 4,2 mln. kishi mehnat qiladi, bu esa mamlakatdagi umumiy bandlikning 30% dan ortig'ini tashkil etadi. Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari - paxta va g'alla, lekin 2020-2021 yillarda kvotalar va narx nazoratining bekor qilinishi ekinlarni diversifikatsiyalashga, boshqa ekinlar, meva va sabzavotlarni yetishtirishga bosqichma-bosqich o'tishga hissa qo'shmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish 2019 yilda O'zbekiston tashqi daromadining taxminan 9,8 foizini tashkil etdi.

O'zbekiston dinamik islohotlar va iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, bu esa qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatini yanada kengaytirish va diversifikatsiyalash uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining muhim o'rni respublikaning iqtisodiy muvaffaqiyatida qishloq xo'jaligi islohotlarining muhim rolini ham belgilab beradi. Shunday qilib, O'zbekiston pandemiyaga qaramasdan 2020 yilda ijobiy iqtisodiy o'sishni saqlab qolgan Yevropa va Markaziy Osiyo (YeMO) mintaqasidagi uch mamlakatdan biri edi.

Hukumat amalga oshirilayotgan islohotlar mahalliy va eksport mahsulotlarining qiymatini oshirish maqsadida yangi texnologiyalarni, shu jumladan, resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta ishlash va qadoqlashni yanada rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligi samaradorligini oshiradi, deb hisoblaydi. Mamlakatning to'qimachilik sektorini rivojlantirish, qo'shimcha qiymat zanjirini yaxshilash rejalashtirilgan.

Biz Yevropa Ittifoqi, JB, FAO, shuningdek boshqa xalqaro tashkilotlar va ekspertlar ko'magida O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan 10 yillik qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi doirasida harakat qilamiz. "2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi"ga muvofiq to'qqiz yo'nalish ustuvor hisoblanadi.

1. Aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash. Qisqa muddat ichida O'zbekistonda "to'yib ovqatlanmaslik indeksi" 15% dan 2,4% ga tushib, mintaqadagi eng yaxshi natijalardan biriga aylandi.

2. Agrobiznes muhitini yaxshilash va qiymat zanjirlarini yaratish.

3. Sanoatda davlat ishtirokini qisqartirish va investitsion jozibadorlikni oshirish.

4. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash.

5. Davlat boshqaruvini zamonaviy tizimini rivojlantirish.

6. Sektorni qo'llab-quvvatlash uchun davlat xarajatlarini diversifikatsiya qilish.

7. Agrar fani, ta'lim, axborot-konsalting xizmati tizimini rivojlantirish.

8. Qishloq hududlarini rivojlantirish.

9. Sanoat statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish.

2022-2026 yillarda barcha viloyatlar va yirik tumanlarda markazlar tashkil etilib, 100 dan ortiq qishloq xo'jaligi xizmatlari ko'rsatiladi.

Qishloq xo'jaligini raqamlashtirishga, shuningdek, "aqli qishloq xo'jaligi" dasturi doirasida suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish texnologiyalarini keng joriy etishga, shuningdek, turli imtiyozlar, subsidiyalar va kreditlar berishga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, guruch kabi namsevar ekin 2026 yilda barcha takroriy maydonlarda urug'chilik usulida yetishtiriladi. Bu yildan boshlab tajriba sifatida bu ekinni sug'orish va tomchilatib sug'orish yo'lga qo'yildi, guruch ko'chatlarini mashinada ekish tashkil etildi.

Zamonaviy infratuzilma va ilg'or texnologiyalar bilan Klaster va kooperatsiya tizimini rivojlantirish qishloq xo'jaligida islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu tizim to'liq ishlab chiqarish zanjirini ta'minlaydi: maydondan iste'molchiga. "Daladan stolgacha" ishlab chiqarish zanjiri Klaster ishlab chiqarish ob'yektlari, agrologistik markazlar va kooperativlar asosida qurilmoqda, eksportni oshirishning yangi imkoniyatlari yaratilmoqda.

Klasterlarda hosildorlikning yuqori bo'lishi hisobiga ishlab chiqaruvchilar daromadlarini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2016-2020 yillarda ilmiy-innovatsion yutuqlar va ilg'or texnologiyalar klasterlari joriy etilishi natijasida paxta hosildorligini 26,4 s/ga dan 30 s/ga, g'alla hosildorligini 57,8 s/ga dan 63,5 s/ga oshirildi. Ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatlari 1,5 barobar oshdi, bir xodimning o'rtacha oylik maoshi 2018 yilga nisbatan 2,4 barobar oshdi. Keyingi 3 yilda klasterlar negizida hududlarda 152 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratildi.

2018-2020 yilda klasterlarga qo'shimcha qiymat zanjiri yaratish uchun 1,4 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb qilindi. 2019-2020 yillarda 10,8 ming gektar maydonda intensiv mevali bog'lar va 19,7 ming gektar maydonda tokzorlar tashkil etildi. 250 ming gektar yerda suvni tejaydigan texnologiyalar va 1,5 trln so'mlik resurs tejaydigan zamonaviy uskunalar joriy etildi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligining barcha yo'nalishlari bo'yicha 463 ta agroklaster faoliyati yo'lga qo'yilgan (paxta-to'qimachilik yo'nalishi, g'allachilik, meva-sabzavotchilik, guruch yetishtirish va h.k.). Klasterlar 2,2 million gektar qishloq xo'jaligi yerlarini qamrab oldi. Joriy yilda paxtani chuqur qayta ishlashni tashkil etish bo'yicha umumiy qiymati 25,5 trillion so'mlik 270 investitsiya loyiha, 589 mlrd. so'm miqdorida meva-sabzavotchilik bo'yicha 63 ta loyiha, g'alla yetishtirish uchun qiymati 1 trln. 164 mlrd. so'mlik 122 ta loyiha amalga oshiriladi.

Yana bir muhim loyiha-qishloq xo'jaligi sohasida subsidiyalar ajratish bo'yicha yagona davlat axborot tizimini yaratishdir. Tizim modullari bosqichma-bosqich ishga tushirilar ekan, fermerlarga 18 turdagi subsidiyalar olish, shuningdek, ulardan maqsadli foydalanishni kuzatish mumkin bo'ladi. Davlat tomonidan fermerlarni qishloq xo'jaligi texnikasini sotib olish, suvni tejaydigan texnologiyalardan foydalanish, uzum plantatsiyalari va intensiv bog'lar yetishtirish, chorvachilikni rivojlantirish va boshqa ko'plab sohalarda fermerlarni qo'llab-quvvatlash uchun subsidiyalar ajratiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish salohiyati an'anaviy ravishda ekinlarni yetishtirish va yangi innovatsion format va texnologiyalarni qo'llash borasida juda yuqori ekanligini yana bir bor ta'kidlashni istardim. Va amalga oshirilayotgan islohotlar mavjud salohiyatni to'laqonli rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va butun agrosanoat kompleksining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА МЕВА-САБЗАВОТ КЛАСТЕРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАРИ

Қосимов Жаҳонгир

Қарши давлат университети

“Туризм ва маркетинг” кафедраси катта ўқитувчиси,
мустақил тадқиқотчи

Бозор муносабатлари шароитида мева—сабзавотчилик мажмуида ислохотларнинг навбатдаги босқичларида мамлакатимиз раҳбарияти томонидан белгилаб берилган йўналишларда ва ривожланган хорижий давлатлар тажрибасидан келиб чиққан ҳолда интеграцион жараёнларни сифат жиҳатидан янги ташкилий иқтисодий алоқалар ва бозор

субъектларини ташкил этиш хусусий ҳолатда агросаноат кластерларни ташкил этиш ва ривожлантириш масаласига жиддий эътибор қаратиш лозим. Жаҳон иқтисодиётида интеграция жараёнларини глобаллашуви ва чуқурлашуви мева-сабзавотчилик бизнесининг ички кучли ва заиф томонларини ҳам, унинг бозордаги ташқи имкониятлари ҳамда ҳавф-хатарларини ҳам ҳартомонлама чуқур ўрганишни тақозо этмоқда. Айнан ана шу имкониятлардан бири мева-сабзавотчилик кластерини ташкил этишдир. Мева-сабзавотчиликни ривожлантиришда юқори даромадли рақоботбардош маҳсулотлар ишлаб чиқаришни ташкил қилиш айти заруратдир. Бу соҳадаги кооперация занжирини шакллантириш қуйидагича бўлиши лозим: уруғликлар, кўчатлар, мева-сабзавот маҳсулотлари етиштириш, уларни тайёрлаш, сақлаш, қайта ишлаш, транспортировкаси ва бозорга етказиш. Аммо юртимизда мева-сабзавот маҳсулотларини ишлаб чиқарувчилар айрим муаммоларга дуч келаётгани ҳам сир эмас.

Мева-сабзавотчиликни самарали ривожлантиришни таъминлаш, юқори сифатли ва рақобатбардош тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришни кенгайтириш, уни йирик хорижий бозорларга чиқариш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 мартда “Ўзбекистон Республикасида мева-сабзавотчиликни жадал ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПФ-5388 сонли Фармони билан мева-сабзавот маҳсулотлари йўналишларида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида кластер усулини яратишни қўллаб-қувватлаш бўйича кенг қамровли тажриба йўлга қўйилмоқда.

Мамлакатимиз мева-сабзавотчилик соҳасининг экспорт салоҳиятини кенгайтириш, янги бозорларни ўзлаштириш натижасида мева-сабзавот маҳсулотлари, узум, полиз, дуккакли экинлар, шунингдек, қуритилган сабзавот ва меваларни экспорт қилиш йўналишлари амалга оширилмоқда.

Республикада ишлаб чиқаришни кенгайтириш, мева-сабзавот маҳсулотларини сақлаш, қайта ишлаш ва экспорт қилишга қаратилган комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги «Ўзстандарт» агентлиги билан ҳамкорликда агрологистика комплекслари ва марказларида халқаро савдо операторлари томонидан халқаро стандартлар талабларига жавоб берувчи қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат маҳсулотларини сотишда комплекс хизмат кўрсатиш мақсадида «Global GAP», «Organic», «Halal», «НАССР», «ISO 22000» халқаро стандартлар талабларини кооперация иштирокчилари, деҳқон ва фермер хўжаликлари ҳамда агрокластерларда жорий қилиш бўйича муайян амалий ишларни олиб борди. Бундан ташқари, кластерлар томонидан замонавий агротехнологияларни жорий этишга ҳам алоҳида эътибор қаратилиб, Андижон, Наманган, Навоий, Самарқанд, Қашқадарё, Сурхондарё вилоятларидаги бир қатор фермер хўжаликларида томчилатиб суғориш орқали мева-сабзавот маҳсулотларини етиштириш йўлга қўйилиши натижасида ўсимликнинг ўсиши учун етарли миқдордаги сув бир меъёردа етказилишига, меҳнат сарфи уч мартагача, минерал ўғитлар 40 фоизгача тежалишига, ҳосилдорлик 70 центнергача ошишига эришилмоқда.

Ўзбекистон Республикасида мева-сабзавотчилик тармоғидаги барча йўналишлар фаолиятини уйғунлаштириш яъни бир мақсадга йўналтиришда муаммоларни ҳал қилиш, аввало маҳсулот етиштирувчи ва қайта ишловчи корхоналар ўртасида ўзаро манфаатли иқтисодий муносабатлар тизимини агробизнесни ташкил этишнинг янги замонавий усуллари яъни қайта ишлаш саноати корхоналари билан бирга кластерли ёндашув асосида ривожлантириш зарурати юзага келди. Чунки агросаноат интеграциясининг кластер усулидаги кўриниши мева-сабзавотчилик тармоқлари ўртасидаги ўзаро ташкилдий ва иқтисодий алоқаларни бирмунча соддалашуви ва ўзаро манфаатдорлик асосида ташкил этишни таъминлайди, яъни ташқи ва ички алоқаларнинг боғлиқлиги кучаяди.

Мева-сабзавотчиликни интенсив ривожлантиришга доир лойиҳаларни амалга ошириш учун экин майдонлари сезиларли равишда кенгайтирилди, мева-сабзавот маҳсулотларини сақлаш ва қайта ишлаш бўйича қувватлар ишга туширилди, молиявий ресурслар, жумладан, халқаро молия институтлари маблағлари фаол равишда жалб этилмоқда.

Шу билан бирга хорижий мева-сабзавот маҳсулотлари бозорларидаги юқори даражадаги рақобат агротехниканинг ҳамда ишлаб чиқариш ва маҳсулот етказиб бериш жараёнларини бошқаришнинг замонавий услубларини жадал равишда жорий этишни талаб қилмоқда. Республикада ишлаб чиқаришни кенгайтириш, мева-сабзавот маҳсулотларини сақлаш, қайта ишлаш ва экспорт қилишга қаратилган комплекс чоратadbирлар амалга оширилмоқда:

- мева-сабзавот маҳсулоти ишлаб чиқарувчилари ва тайёрловчилари ўртасида мева-сабзавот экинлари бозорида харидоргир экинлар ва уларнинг навларини жойлаштириш масалаларида ўзаро ҳамкорликнинг бозор механизмларидан тўлиқ фойдаланмаслик;

- тузилган шартномаларни ўз вақтида, сифатли, тўлиқ ёки мутлақо бажармаслик каби ҳаракатларда намоён бўлувчи кичик қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари томонидан шартнома интизомига риоя қилиш даражасининг пастлиги;

- қишлоқ хўжалиги меҳнатини механизациялаштириш, замонавий интенсив, аввало, сувни тежовчи технологияларни жорий қилиш, уларни сақлаш ва транспортировка қилиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларининг мустақил равишда ташқи бозорга чиқиши учун молия ресурсларини жамғариш учун қулай имкониятларнинг йўқлиги;

- қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ишлаб чиқарувчиларининг бозорларда харидоргир бўлган юқори ҳосилдорликка эга ва сифатли навларнинг уруғи, кўчати билан қониқарли равишда таъминланмаганлиги;

- қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ишлаб чиқарувчиларининг реал эҳтиёжларига жавоб бермайдиган кадрлар тайёрлаш тизимининг паст даражаси, жумладан, замонавий билимларга эга ўрта ва олий бўғиннинг юқори малакали мутахассисларини тайёрлаш бўйича халқаро ҳамкорлик йўлга қўйилмаганлиги;

- логистика ва транспорт инфратузилмаси ривожланмаганлиги ҳосилнинг бир қисми нобуд бўлиши, шунингдек, етиштирилган маҳсулотни арзон нархларда сотиш ва натижада қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ишлаб чиқарувчиларининг қониқарсиз молиявий кўрсаткичларига сабаб бўлмоқда;

- турли экинлар агротехнологияларининг долзарб масалалари ва уларни амалиётга жорий этиш бўйича чуқур илмий тадқиқотларнинг йўқлиги, илмий институтлар ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчилари ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг паст даражаси.

Мева-сабзавот кластерларини ривожлантириш йўллари қўйидагилардан иборат:

- Мева-сабзавот кластерларига ички ҳамда ташқи бозордаги эҳтиёж ва тупроқ-иклим шароитларини ҳисобга олган ҳолда қишлоқ хўжалиги экинларини экиш, маҳсулот етиштириш ҳажми, уларнинг нави ва турини белгилаш, шунингдек, фермер ва деҳқон хўжаликлари билан улар томонидан тайёрланаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сотиб олиш юзасидан шартномалар тузиш бўйича мустақил қарор қабул қилиш ҳуқуқи тақдим этилиши;

- Мева-сабзавот кластерларига кўчатзорлар, жумладан логистика марказлари (музлатгич, омбор, қайта ишлаш қувватлари, лаборатория, машина-техник станциялари учун инфратузилма бинолари)ни ташкил қилиш учун ер майдонлари ажратиш;

- Халқаро молия ташкилотлари ва институтлари кредит линияларини, жумладан мева-сабзавот кластерлари устав капиталига кейинчалик ушбу ҳиссаларни муассислар — Ўзбекистон Республикаси резидентлари томонидан сотиб олиш ҳуқуқи билан жалб этиш;

- Мева-сабзавот кластерларини, бошқа мева-сабзавот маҳсулотлари ишлаб чиқарувчилари ва экспортчиларини экспортди молиялаштириш учун тижорат банкларида кредит линияларини очиш;

- Кўчатзорларни ташкил қилиш, мева-сабзавот кластерлари логистика марказлари, иссиқхоналар қуриш ва интенсив боғлар барпо этиш бўйича лойиҳаларни молиялаштириш учун халқаро молия институтлари кредит линиялари ҳажмини кенгайтириш;

➤ Агрономлар ва мева-сабзавот кластерлари, замонавий интенсив боғлар ва иссиқхона хўжалиklarининг бошқа ходимларини бир йилгача бўлган муддатга етакчи ихтисослашган хорижий компанияларга таълим олиш ва стажировка ўташга юбориш учун грант маблағлари ва халқаро ташкилотларнинг техник кўмак маблағларини жалб этиш амалга ошириш;

➤ Мева-сабзавот кластерларига ички ҳамда ташқи бозордаги эҳтиёж ва тупроқ-иқлим шароитларини ҳисобга олган ҳолда қишлоқ хўжалиги экинларини экиш, маҳсулот етиштириш ҳажми, уларнинг нави ва турини белгилаш, шунингдек, фермер ва деҳқон хўжалиklари билан улар томонидан тайёрланаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сотиб олиш юзасидан шартноалар тузиш бўйича мустақил қарор қабул қилиш ҳуқуқи тақдим этиш;

➤ Мева-сабзавот кластерларига кўчатзорлар, жумладан логистика марказлари (музлатгич, омбор, қайта ишлаш қувватлари, лаборатория, машина-техник станциялари учун инфратузилма бинолари)ни ташкил қилиш учун ер майдонлари ажратиш ва ҳ.к.

Мақоланинг амалий аҳамияти мева-сабзавотчиликка ихтисослашган кластерлар ва кооперацияларни модернизациялаш ҳамда уларнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлашда ўз ифодасини топади.

KLASTER NAZARIYASI VA ULARNING FAOLIYATI

Boltayeva Sh.B

«Iqtisodiyot» kafedrasida katta o'qituvchisi

Mardonova Ozoda

BuxDU talabasi

Klaster nazariyasi XIX asrda dastlab nemis iqtisodchisi Iogan Genrix fon Tyunen va uning izdoshlari V.Launxard hamda A.Veberlar tomonidan ilgari surilgan. A.Marshall o'zining "Iqtisodiyot fani printsiplari" ishida tadqiqot ob'ekti tarzida shahar aglomeratsiyasi va industrial hududlarni tanlab, o'tkazgan tadqiqotlarida samaradorlik va ishlab chiqarish geografik lokalizatsiyasi o'zaro bog'liqligini bayon etgan. U korxonalar va tashkilotlar samaradorligi ularning iqtisodiy zonalar yaqinida geografik joylashuviga bog'liqligini isbotlagan. B.Lundval va B.Yonsonlar esa klaster nazariyasi bilan bog'liq "rivojlanish bloklari" kontseptsiyasini taklif etganlar hamda soha yoki hududiy ishlab chiqarish birlashmalari, butun mamlakat aholisini uzluksiz o'qitish jarayoni milliy iqtisodiy yuksalish va raqobatbardoshlik manbai ekanligini ta'kidlaganlar.

Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari turli tarmoqlarida klasterlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Masalan, Rossiya Federatsiyasida tegishli davlat tuzilmalari 2011 yilda hukumat topshirig'iga ko'ra jamoaviy uyg'unlashuv asosida hududiy innovatsion klasterlarni rivojlantirish dasturiga kiritish uchun loyihalarning ikki bosqichli tanlovini o'tkazgan. Davlat va xo'jalik organlari, etakchi fan va oliy ta'lim muassasalari hamda biznes jamoatchiligining 100 dan ortiq mutaxassislarini jamlagan maxsus ishchi guruh loyihalarni saralashga jalb etilgan. Natijada davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan, jahonda raqobatbardosh, o'zida ilmiy-tadqiqot va ta'lim salohiyatini mujassamlashtirgan, ishlab chiqarish samaradorligi yuqoriligi bilan ajralib turadigan, mulkchilik turidan qat'iy nazar sohadosh kichik korxonalarining kooperatsiyalashuvini ta'minlagan (birinchi bosqichda 37 ta, ikkinchi bosqichda 25 ta) hududiy klaster loyihalarini joriy etilishiga erishib, hududlarning tezkor yuksalishiga zamin yaratgan.

Mamlakatimizda klasterlar bilan bog'liq ilmiy izlanishlar boshlanishi 2000 yillarga to'g'ri keladi, bu boradagi ilmiy-amaliy ishlar esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, etakchi tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish asosida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish borasida barcha sohalarda keng

ko'lamli islohotlar olib borish bilan boshlandi. Mazkur jarayonlar bilan bog'liq texnopolis, texnopark, klaster kabi qator tushunchalar turmush tarzimizga kirib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi "Buxoro viloyatida zamonaviy paxta-to'qimachilik klasterini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2978-son qarorida¹ yuklatilgan vazifalarga javoban Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, aholi turli qatlamlarining bandligini va real daromadlarini izchil oshiruvchi, milliy boyligimiz paxtani ekishdan boshlab chuqur qayta ishlashgacha bo'lgan tizimni o'zida qamrab olgan, to'qimachilik va engil sanoatni yanada rivojlantiruvchi, turli fan, ta'lim sohalari olimlari, ishlab chiqarish mutaxassislari, iqtisodchilar hayotiy tajriba, malaka va bilimlarini mujassamlashtiruvchi "Bukhara Cotton Textile" O'zbekiston-Britaniya QK, "ParaglideLTD" QK va "Petromaruz" (Rossiya) kompaniyasining 123,1 mln. AQSH dollari hajmidagi xorijiy sarmoyalarni kiritish bilan dastlabki innovatsion "Paxta - to'qimachilik klasteri" majmuasi faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi "Buxoro viloyatida zamonaviy paxta-to'qimachilik klasterini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2978-son qarorida¹ yuklatilgan vazifalarga javoban Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, aholi turli qatlamlarining bandligini va real daromadlarini izchil oshiruvchi, milliy boyligimiz paxtani ekishdan boshlab chuqur qayta ishlashgacha bo'lgan tizimni o'zida qamrab olgan, to'qimachilik va engil sanoatni yanada rivojlantiruvchi, turli fan, ta'lim sohalari olimlari, ishlab chiqarish mutaxassislari, iqtisodchilar hayotiy tajriba, malaka va bilimlarini mujassamlashtiruvchi "Bukhara Cotton Textile" O'zbekiston-Britaniya QK, "ParaglideLTD" QK va "Petromaruz" (Rossiya) kompaniyasining 123,1 mln. AQSH dollari hajmidagi xorijiy sarmoyalarni kiritish bilan dastlabki innovatsion "Paxta - to'qimachilik klasteri" majmuasi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Xulosa qilib aytganda, klasterlar innovatsion, raqobatbardosh va samarali iqtisodiyotning shakllantirilishi zamonaviy iqtisodiy vositachisi, yaratilgan tayyor mahsulotlarning iste'molchigacha etib borishini, ishlab chiqarish kuchlarining yuksalishini, ishlab chiqarish hajmining o'sishini, sog'lom ishlab chiqarish munosabatlari hamda samaradorlikni ta'minlovchidir. YAngilanishlar "inson kapitali", ya'ni soha va sohalararo faoliyatni o'zida mujassamlashtirgan klasterlardagi tashabbuskor mutaxassislarning tafakkuri bilan bog'liq. Mazkur klasterlarda sohalarining ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi bilan bir qatorda, soha kichik korxonalarining manfaatli kooperatsiyasi, sohalararo ichki va tashqi integratsiya elementlari ham yuksalishiga zamin yaratadi.

QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDA KLASTER MODELI VA UNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI

Normamatov I.B

katta o'qituvchi,

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Pardayeva M.U

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish mamlakat aholisining 60 foizidan ortiq qismi yashayotgan qishloqlarning farovonlik darajasini yuksaltirishda muhim omil bo'lmoqda.

Shu munosabat bilan so'nggi yillarda qishloq xo'jaligini boshqarish tizimida institusional islohotlar amalga oshirildi, paxta xomashyosi va boshqoqli don mahsulotlarini davlat tomonidan kafolatlangan xarid narxlarini sezilarli darajada ko'paytirish hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy barqarorligi oshirildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster modeli keng joriy etilmoqda, natijada

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi "Buxoro viloyatida zamonaviy paxta-to'qimachilik klasterini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2978-son qaror.

oxirgi yillarda paxta-to‘qimachilik klasterlariga ajratilgan yer maydonlari hajmi mazkur ekin turi uchun ajratilgan qishloq xo‘jaligi yerlarining 52 foizini tashkil etdi.

Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda samarali bozor mexanizmlarining mavjud emasligi tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish imkonini bermayapti.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-aprel, “Qishloq xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5708- sonli qarori chiqqan edi. Shunga muvofiq qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan boshqarishning yaxlit tizimini shakllantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini davlat tomonidan xarid qilishning bozor mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqligi qayd etib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari bu haqda joriy yil 24-yanvardagi Murojaatnomasida aytgan edi. “Paxta va g‘alla yetishtirishga davlat buyurtmasini bekor qilib, ushbu mahsulotlarni bozor tamoyillari asosida xarid qilish tizimiga bosqichma-bosqich o‘tamiz. Agar bu yo‘ldan bormasak, fermer va dehqonlarimiz mahsulot yetishtirishda erkin bo‘lmaydi, ular o‘zlari kutganlaridek manfaat ko‘rmaydi, hokimlarning esa ish uslubi o‘zgarmaydi”, degan edi Shavkat Mirziyoyev.¹

Klasterlar orqali O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining eng yangi texnika-texnologiyalari kirib kelmoqda, bu yerda katta manfaat bor. Qishloq xo‘jaligi katta daromadli sohaga aylanadi. Tizimga yomon degan ta‘rifni ehtiyotkorlik bilan ishlatish kerak. Qolaversa, to‘qimachilikda bizga nisbatan yillar davomida majburiy mehnat borasida e‘tiroz bo‘lib keldi. Klaster tizimi majburiy mehnat borasida e‘tirozlarni olib tashlaydi.

Yurtimizda yetishtirilayotgan 80 turdan ortiq qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 66 ta mamlakatga eksport qilinmoqda. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 23-oktabrdagi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi qabul qilindi. Unga muvofiq, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida meva-sabzavot klasterlari tashkil etilmoqda. 2019-yil 11-dekabrda bu borada Prezident qarori qabul qilinib, barcha tashkiliy-huquqiy asoslar yaratib berildi. O‘tgan qisqa vaqtda hokimliklar tomonidan 86 ta shunday klaster tashkil etish bo‘yicha takliflar shakllantirildi.

Qayd etilganidek, klasterlar tomonidan qayta ishlash, saqlash va quritish bo‘yicha 430 ming tonna qo‘shimcha quvvatlarni ishga tushirish yuzasidan 96 ta loyiha rejalashtirilgan. Shuningdek, 6 ming gektarda intensiv bog‘ va 8 ming gektarga yaqin maydonda uzumzor barpo qilish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqilgan. Joriy yilda 410 million dollarlik mahsulotlar eksporti mo‘ljallangan.

Prezidentimiz Qishloq xo‘jaligi vazirligiga klasterlar faoliyatini tashkil qilish, xorijiy ekspertlar xulosasi asosida ekinlarni samarali joylashtirish, zarur urug‘lik va ko‘chatlarni hozirdan tayyorlash, Moliya vazirligiga klasterlarni aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlash bo‘yicha topshiriqlar berdi.

“O‘zbekoziqovqatxolding” kompaniyasi klasterlarga yangi bozorlar topish va eksport qilishda doimiy ravishda amaliy yordam berib borishi kerakligi ko‘rsatib o‘tildi.

O‘zbekistonda aholining ko‘plab noroziliklariga qaramasdan hamon saqlanib qolayotgan monopoliyalar bor. Jumladan, soha ichidagi ayrim kishilar butun bir tuman qishloq xo‘jaligining bir shaxs, bir korxonaga to‘planishi monopoliyaning yaqqol ko‘rinishi ekanligini aytishadi. Klasterlarga nisbatan bunday xulosa berish mutlaqo notug‘ridir. Chunki har bir tumanda paxtadan tashqari g‘alla, meva va sabzavot mahsulotlari bor. Qishloq xo‘jaligida yo‘nalishlar ko‘p. Avval sohada davlat monopoliyasi bor edi. Hozir bu holatni bir tuman misoliga kelganda monopoliya deb aytish ham juda to‘g‘ri bo‘lmaydi. Lekin to‘g‘ri, fermer yoki uyushgan fermerlarda klaster bilan ishlashda tanlov imkoniyati bo‘lishi kerak. Shu boisdan prezident so‘nggi vaqtlarda bir tashabbusni ilgari suryaptiki, fermerlarni kooperatsiya shaklida ishlatish.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. 04.02.2020. Klasterlar faoliyatini rivojlantirish masalari. <https://president.uz/oz/3342>

Misol uchun: Qoraqalpog'istonning Shumanay tumanidagi iqtisodiy mustahkam fermerlar hozir kooperatsiya shaklida ishlayapti. Ular paxtani tolaga aylantirish orqali foyda ko'rishyapti. Kelgusida ular to'qimachilik sanoatiga ham o'tishi mumkin. YA'ni to'qimachilik sanoati paxta yetishtirishda monopoliya bo'lib qoladi, degan fikrdan yiroq bo'lish kerak.

Shu bilan bir qatorda O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi eng katta muammolardan biri bu – suv muammosi. klasterlar orqali bu muammo bir oz bo'lsada o'z yechimini topib kelmoqda. Klasterlarni bitta yutuq tarafi bor: ular moliyaviy tomondan barqaror. Ular dunyoda bor yangiliklarni juda tez qabul qila oladi.

O'zbekistonda bor suv imkoniyatlari bilan ikki hosil miqdorida mahsulot olish sharoiti bor. Masalan, Avstraliyada ham suv tanqisligi bor, lekin ular har gektar yerdan o'rtacha 80 sentner hosil olishyapti.

Biz bor suv imkoniyatimiz bilan ham yetarli hosil ololmayapmiz.

Sug'orishning yangi usullari bo'yicha hozirda 20-30 foiz suv tejalib boshlandi, hosildorlik ham oshyapti. Albatta, davlat subsidiyalari bo'lmaganda buni klasterlarning o'zi ham qila olmasdi.

Yaqin yillarda bizda suvni tejash borasida katta o'zgarishlar bo'ladi.

Paxtachilikda davlat rejasi bekor bo'ldi. Endilikda fermerlar klasterlar bilan erkin shartnoma tuzishi mumkinligi aytilyapti. Ammo qo'limizdagi faktlarga ko'ra, ayrim joylarda, masalan. Farg'onada fermerlar hamon paxta zavodlar bilan shartnoma tuzishga majbur qilinyapti. YA'ni, biz aytdik, klaster – shakllanayotgan tizim. Endilikda fermer va klaster orasidagi munosabatlarni to'g'ri va shaffof jarayonga olib kelishimiz kerak.

Bu yerda klaster joriy etilmagan tumanlar haqida gap ketayotgan bo'lishi mumkin. Farg'ona viloyatida hozirda 6ta ilg'or klaster faoliyat yuritmoqda va ularda faoliyatni yanada kengaytirish imkoniyati bor.

To'g'ri, ularning hammasi ham teng ishlayotgani yo'q. Bu yerda yomon, o'rta va yaxshi ishlayotgan klasterlar ham bor. Bizda hattoki klasterlarni almashtirish talabi ham yuzaga keldi va barcha mahalliy hokimliklar shu tizimdan manfaat ko'rayotgan fermerlarni qo'llab-quvvatlashsin. YA'ni, fermer shu klaster bilan ishlashdan manfaat ko'ryapman, desa, hokimlik unga sharoit yaratib berishi kerak.

Ma'lumotlarga ko'ra, 90 foiz fermerlar klaster tizimidan rozi va manfaatdor. Bu – taxminiy raqamlar. Bundan ham katta bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida Prezidentning 27 martdagi PQ-5041-son qarori 5-bandida Moliya vazirligiga mazkur qaror 4-bandiga asosida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan ajratiladigan 1,5 trln so'm kredit resurslarining tijorat banklari tomonidan qaytarilmagan qismida respublika byudjeti hisobidan 2026 yilda qoplanishini ta'minlash topshirildi. Bunda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga qoplanmagan mablag'lar miqdoridagi vakolatli banklarning majburiyatlari Moliya vazirligi foydasiga qayta rasmiylashtiriladi.

Bu esa sohasini har tomonlama rivojlantirishda muhim huquqiy va iqtisodiy xujjatlardan biri bo'lib hizmat qiladi. Bundan ko'rinib turidiki, agar mingta fermerdan bittasi ham men pulimni ololmadim desa, biz shu holatga e'tibor qaratishimiz kerak. Sababi – biz ham, butun dunyoda ham yongan, kuygan narsaga e'tibor kuchli bo'ladi. Bu tizimni bir holatga qiyoslasak, birinchi marta kosmosga raketa uchirilganda bu katta revolyusion tadbir bo'lgan. To'g'ri, klaster bu kosmosga raketa uchirish emas, lekin bu ham katta bir islohot.

Hozirda Klasterlar mustaqil MCHJ shaklida tashkil qilinyapti. Lekin Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan 7ta klaster faoliyati bir yilni o'zida tugatilgan. Davlat tomonidan tugatilyapti, degan so'z unchalik to'g'ri bo'lmasa kerak. Nima uchun? Bizda boshida 1ta klaster ishladi, keyingi 15ta bo'ldi va o'tgan yili 75ta.

Klaster biror joyda 40-50 yil ishlash uchun ishonchni, kelajakni ko'rsa, unda ishlashga ishtiyoq boshqacha bo'ladi. Nafaqat klaster, balki fermerning ham munosabati boshqacha bo'ladi. Mamlakatimizda agrar sohani isloh qilish, unga bozor mexanizmlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, klaster usuli yo'lga qo'yildi, ekin turlari zamon talabidan kelib chiqib o'zgartirildi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda klasterlarning o‘rni ahamiyatlidir. Natijada hosildorlik ham, daromad ham oshmoqda.

МАМЛАКАТИМИЗДА ЯЙЛОВ ЧОРВАЧИЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЗАРУРИЯТИ ВА УНДА ҚОРАҚЎЛЧИЛИКНИНГ ЎРНИ

М.М.Яхяев
ТИҚХММИ доктаранти

Чорвачилик қишлоқ хўжалигининг энг йирик тармоқларидан бири бўлиб, у мамлакатимиз шароитида ялпи қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг ўртача 48 фоизини ташкил этади. Чорвачилик маҳсулотлари етиштириш миқдорини ошириш, маҳсулотлар сифатини яхшилаш, бугунги кунда мамлакат аҳолисини озиқ-овқат маҳсулотлари билан узлуксиз таъминлашдаги долзарб масалалардан бирига айланиб бормоқда. Чорва моллари бош сони ортиб бораётган бир пайтда маҳсулот етиштириш ҳажми ўсиши суръати пастлиги бу биринчи навбатда чорва моллари маҳсулдорлиги пастлиги билан изоҳланади. Чорва моллари маҳсулдорлигини ошириш эса хорижий тажрибаларнинг кўрсатишича, тармоқда тизимли ва узоқ муддатли даврга мўлжалланган тадбирларни амалга оширишни талаб этади.

Маълумки, чорвачилик маҳсулотларини етиштиришни ташкил этишда турли адабиётларда чорвачилик тизимларига ажратилган ҳолда талқин этилади. Хусусан, ФАО чорвачилик маҳсулотларини ишлаб чиқаришда тизимли ёндашувга асосланган тадқиқотларни олиб борган. Унга қўра чорвачилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва атроф муҳит ўртасидаги ўзаро боғлиқликни ўзида ифода этган ёндашув орқали чорвачиликни бир қатор тизимларга ажратиш чикқан¹. Жумладан,

- чорвачилик маҳсулотларини ёпиқ тизимда етиштириш, унда 10 фоиздан кам озукани хўжалик ўзининг ер майдонида етиштиради, қолган қисми харид қилинади;

- чорвачилик маҳсулотларини суғориладиган ёпиқ тизимда етиштириш, бунда 50 фоиздан ортик озукка ўз хўжалигидаги суғориладиган майдонларга етиштирилади;

- яйлов чорвачилиги, унда 90 фоиз озукка ёмғир ҳисобига табиий униб чикқан ерларда етиштирилади;

- аралаш тизимли чорвачилик, бунда озукка ўзида етиштирилади, бази мавсумларда четдан харид қилинади ва яйловларда хайдаб боқилади.

Ундан ташқари бир қатор илмий адабиётларда чорвачилик маҳсулотларини ишлаб чиқаришни тизимларга ажратган ҳолда ўрганилганлини кузатишимиз мумкин. Улар орасида кенг тарқалган тизимларда қуйидаги 4 та шаклда ажратилган. Жумладан, кўчмачи чорвачилик, ярим кўчмачи чорвачилик, яйлов чорвачилиги ва турғун боқилувчи чорвачилик².

Сайёрамизда мавжуд қишлоқ хўжалиги ерларининг учдан бир қисми яйловлардан иборат бўлиб, ундан бир неча юз миллион аҳоли чорва молларини парваришлашда фойдаланади. Яйловлар қишлоқ хўжалиги ерларининг энг оғир қисмларидан бири саналиб, у ёғингарчилик миқдори кам бўлган, маданий экинларни экиш ва ундириш имконияти қийин бўлган шароитда чўл яйлов ўсимликлари ҳисобига чорвачилик маҳсулотларини етиштириш имкониятини берувчи ҳудудлардир. Яйловлар қийин шароитда чорвачилик фаолияти билан шуғулланувчи аҳолини озиқ-овқат, дарomad ва иш билан таъминлайдиган энг яхши хаёт манбаи ҳисобланади.


Шу боис, хар қандай мамлакат учун яйловлардан самарали фойдаланиш масаласи нафақат табиий-экологик, балки аҳолини озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, бандлик каби ижтимоий масалаларни ҳам қамраб олганлиги сабабли долзарблик касб этади.

Мамлакатимизда яйлов чорвачилигини ривожлантиришда қорақўлчилик тармоғининг ўрни бекиёс. Сабаби, мамлакатимизда мавжуд яйлов ҳудудлари табиий ва

¹ H. Steinfeld is Senior Officer (Programme, Policy & Planning) and J. Mäki-Hokkonen is Senior Officer (Livestock Production Systems), Animal Production and Health Division, FAO, Rome, Italy. <http://www.fao.org/3/v8180t/v8180t0y.htm>

² Отрасли животноводства. <https://geographyofrussia.com/otrasli-zhivotnovodstva/>

иклим шароитлари турлича бўлиб, улар денгиз сатҳидан турли баландликларда жойлашганлиги сабабли, ўзининг табиий-географик ва яйлов-озуқа шароитлари турли-тумандир. Ўзбекистон худудидаги (чўл, ярим чўл, адир (тоғолди) ва тоғ яйловлари) яйловлар 21 млн 100 минг гектарни ташкил қилади. Республикамиз яйловларининг асосий қисми чўл ва ярим (чала) чўл яйловларидан иборат бўлиб, иқлими кескин континенталь, ҳаво ҳароратининг кунлик ва мавсумий ўзгаришлари катта миқдорда фарқланади (1-расм).



1-расм. Яйлов майдонларининг таркиби, фоизда¹

Мамлакатимизда қорақўлчилик тармоғида иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш, наслчилик ишларини такомиллаштириш орқали сифатли қорақўл тери етиштириш, чўл озубоп экинлар уруғчилиги майдонларини ташкил этиш ва яйловлар ҳосилдорлигини ошириш ҳамда қорақўлчилик субъектларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш борасида сўнгги йилларда бир қатор ижобий ишлар амалга оширилди. Шу билан биргаликда, бугунги кунда соҳада мавжуд ички имкониятлардан тўлиқ фойдаланилмаяпти.

Хусусан, наслчилик ишларини янада такомиллаштириш, чўл яйлов озубоп ўсимликлар уруғчилиги майдонларини кенгайтириш, соҳада экспортбоп қорақўл ва қорақўлча тери етиштириш, маҳсулотларни чуқур қайта ишлаш ва хом ашёлардан тиббиёт мақсадлари учун фойдаланиш аҳволи бугунги кун талабига жавоб бермайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Н. Steinfeld is Senior Officer (Programme, Policy & Planning) and J. Mäki-Hokkonen is Senior Officer (Livestock Production Systems), Animal Production and Health Division, FAO, Rome, Italy. <http://www.fao.org/3/v8180t/v8180t0y.htm>

2. Отрасли животноводства. <https://geographyofrussia.com/otrasli-zhivotnovodstva/>

3. Н.Р. Рўзиев. Яйловларда чорвачиликни ташкил этиш. 75-китоб. “Агробанк”

АТБ

4. Республика Қорақўлчилик уюшмаси маълумотлари. www.qorako1.uz

5. Пиллачилик ва қорақўлчиликни ривожлантириш қўмитасининг маълумотлари.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикасида пиллачилик ва қорақўлчиликни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6059-сонли Фармони

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 16 августдаги “Қорақўлчилик тармоғини комплекс ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-4420-сонли қарори

8. Юсупов С. Ю., Муқимов Т. Х. и др. Рекомендации по управлению пастбищным животноводством, Ташкент, 2007 – 24 с.

¹ Н.Р. Рўзиев. Яйловларда чорвачиликни ташкил этиш. 75-китоб. “Агробанк” АТБ

ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЕ КЛАСТЕРОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

С. Ф. Салимова.

Преподаватель кафедры «Туризма и гостиничного хозяйства»

Создание кластеров может способствовать производству товаров (в частности продуктов питания) с новыми свойствами. Следует отметить, что малые и средние предприятия, объединенные в кластер, усиливают свою конкурентоспособность и положение на товарном рынке.

Для этого необходимо соблюдение двух главных условий: во-первых, в основу реформ должны быть положены принципы и механизмы, доминирующие в мировом экономическом сообществе; во-вторых, при проведении реформ должны быть учтены особенности предшествующего развития и современного состояния экономики страны, национальная культура и поведенческие характеристики населения, продолжительность периода преобразований и другие факторы и условия, формирующие развитие страны. Указанные принципы должны внедряться и при создании новой системы управления сельского хозяйства.

Децентрализация системы управления, проводимая в процессе реформирования, не предполагает полного отказа от государственного регулирования социально-экономических процессов. Необходимость такого подхода вызывается тем, что движение к рынку – это сложный процесс, неизменно и активным участником которого должно быть государство. Известно, что рынок не способен решить многие проблемы, связанные с нуждами всего общества, социальным единством страны, проведением фундаментальных научных исследований, долгосрочных программ и, прежде всего, развития АПК регионов. Роль государства состоит в том, что оно должно устанавливать и охранять общие правила функционирования рынка, используя такие формы вмешательства, как законодательство, государственные заказы, лицензирование экспорта и импорта, установление кредитных ставок, различные формы стимулирования и контроля рационального использования природных ресурсов и т. д.

На государство возлагается и задача заполнения вне рыночных зон хозяйствования, к которым относятся: экологическая безопасность, социально-экономические права человека, институты гражданского общества, перераспределение доходов, научнотехнический прогресс, ликвидация структурных и региональных диспропорций, развитие эффективных международных экономических отношений. Выполняя эти функции, государство регулирует спрос и предложение на макроуровне, не вмешиваясь и не ограничивая действие механизма саморегулирования на уровне организаций, между которыми осуществляется товарно-денежный обмен. Различными должны быть и формы государственного воздействия, которые, по мере развития рыночных отношений, будут все в большей степени превращаться в «мягкие» инструменты регулирования (налоговая, кредитная, тарифная политика и т. д.). В развитых рыночных странах кластеры создавались в целях повышения конкурентоспособности предприятий с однородным видом производств на товарных рынках, на основе совпадения экономических интересов этих предприятий. В своем фундаментальном труде «Конкуренция» М. Э. Портер представляет кластер как «группу географически соседствующих взаимосвязанных компаний и связанных с ними организаций, действующих в определенной сфере и характеризующихся общностью деятельности и взаимодополняющих друг друга».

Следует отметить, что «общность деятельности» обуславливается совпадением экономических интересов предприятий. В этой связи под кластером предприятий следует понимать ассоциацию предприятий, создаваемую в целях интеграции производственных и коммерческих процессов в целях обеспечения конкурентоспособности бизнеса и максимального получения прибыли. Одним из ведущих товарных рынков любой страны является рынок продуктов питания, что обуславливает активное развитие сельскохозяйственных кластеров. Кластеры малого и среднего бизнеса в сфере

сельскохозяйственного производства могут образовываться на основе самоорганизации в результате естественной интеграции и кооперации производства или при помощи региональных и муниципальных властей (искусственно).

Самоорганизация предпринимателей, как правило, осуществляется по инициативе предпринимателя-лидера. Необходимо иметь в виду, что предприятия – потенциальные участники возможного кластера, как правило, Практика кластеризации бизнеса производят сходные виды товаров (услуг) и являются конкурентами по отношению друг к другу на товарных рынках. В этой связи у предпринимателей вполне обоснованно возникает опасение при вхождении в кластер по поводу потери собственного бизнеса (за счет поглощения предприятием-лидером). Первичные сельхозпроизводители не заинтересованы в высоких наценках посредников и торговых накидках на реализуемую продукцию по следующим причинам: 1) повышение цены на продукцию приводит к снижению ее спроса на рынке, что рано или поздно может привести к перепроизводству; 2) высокие посреднические наценки и торговые накладки изымают прибыль первичных сельхозпроизводителей за счет перераспределительных процессов.

Для регионального управления как социальноэкономической системы необходимо учитывать социальную, экологическую и экономическую составляющие, определяющей из которых является последняя. Она складывается из результатов деятельности комплекса региональных производственных систем отдельных предприятий, а также механизма управления региональными ресурсами в соответствии с заданными целями. При этом только средствами стратегического управления, предлагающего последовательность действий по использованию ресурсов конкретного региона, направляемых на достижение поставленных целей, наиболее предпочтительных для каждого региона, можно обеспечить стабилизацию и устойчивое развитие экономики региона.

При формировании системы регионального стратегического управления первостепенное значение имеет проблема выявления целесообразной степени воздействия на объект управления, которая реализуется в рамках полномочий органов власти и управления, определяется общими условиями функционирования экономики, а также объемом ресурсов, задействованных в процессе воздействия на управляемый объект.

Первичные сельхозпроизводители не заинтересованы в высоких наценках посредников и торговых накидках на реализуемую продукцию по следующим причинам: 1) повышение цены на продукцию приводит к снижению ее спроса на рынке, что рано или поздно может привести к перепроизводству; 2) высокие посреднические наценки и торговые накладки изымают прибыль первичных сельхозпроизводителей за счет перераспределительных процессов. Перечисленные факторы усиливают мотивацию вхождения сельхозпредприятий в кластеры. В то же время опыт экономически развитых стран подтверждает, что развитие аграрного производства не обеспечит высокий уровень потребности населения в продовольственных товарах без четко реализуемых мер государственной помощи по многим направлениям деятельности. При этом четко обозначилась необходимость создания агропромышленных формирований кластерного типа, в которых снижается риск инвесторов и могут применяться новые формы страхования. Создание кластеров сулит выгоды как для первичных сельхозпроизводителей, так и для перерабатывающих, торговых и сервисных предприятий, создает условия для выстраивания маркетинговой политики в стратегическом плане.

ПУТИ РАЗВИТИЯ КЛАСТЕРОВ В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ

Аминов Ф.Б.

доцент кафедры Инновационная экономика
Каршинского инженерно экономического института

Производственные кластеры прочно обосновались во многих отраслях экономики разных стран, причем вне зависимости от уровня их экономического развития. Зачастую они становятся главным двигателем отраслей экономики и экспорта. Только в странах Европы действует свыше 240 кластеров в сельскохозяйственной сфере. Больше всего в Греции, Испании, Болгарии, Франции, Польше, Нидерландах. Среди государств Евросоюза Дания считается наиболее передовой по агропромышленной кластеризации. Она еще 30 лет назад разработала унифицированный подход к межфирменному сотрудничеству. Одним из известных является молочно-продуктовый кластер «Молочная вертикаль».

Ключевые участники кластера объединяются в законченную цепочку: сельскохозяйственное производство, переработка продуктов питания, упаковка и системы мониторинга качества, проведение исследований, лабораторных диагностик, оптовая и розничная торговля пищевой продукцией. Они нацелены на производство продуктов растениеводства и животноводства с меньшими издержками при более бережном отношении к окружающей среде, здоровью человека и стремлении к биологическому разнообразию.

В результате последовательных реформ последних лет, направленных на модернизацию и диверсификацию сельскохозяйственного производства, на развитие перерабатывающей промышленности, в Узбекистане внедрена новая система деятельности в аграрном секторе - кластерный метод.

Для развития и всесторонней поддержки агропромышленных кластеров Кабинет Министров Республики Узбекистан принял постановление № 397 от 22.06.2020 года «О мерах по дальнейшему развитию хлопкового и текстильного производства».

В Узбекистане кластерный подход уже зарекомендовал себя в текстильной промышленности. Республика постепенно переходит от экспорта хлопка-сырца к экспорту готовой продукции, то есть на полную переработку хлопкового волокна по цепочке от хлопка-сырца до готовой одежды.

Большая часть добавленной стоимости остается внутри кластера, что содействует росту местной налогооблагаемой базы. Организации - участники кластера, как правило, это инновационно-активные предприятия, ориентированные на применение самых современных технологий и форм организации производства и труда. Опыт освоения инноваций в одной организации довольно быстро передается другим участникам кластера, способствуя росту эффективности производства в кластере в целом. Создаются новые рабочие места, активизируется развитие сельских территорий.

Наиболее важными инфраструктурными объектами с позиции бизнеса являются транспортно-логистические узлы, специализированные объекты инфраструктуры, необходимые для функционирования кластера в соответствии с его спецификой, а также энергетические мощности.

Нельзя недооценивать транспортные проблемы, поскольку удаленность производителей от автотрасс, складских мощностей, предприятий переработки и хранения, а также конечного потребителя значительно увеличивает денежные и трудозатраты, а следовательно, себестоимость продукции, делая ее менее конкурентоспособной.

В настоящее время развитие агропромышленной науки связано с деятельностью научно-исследовательских институтов, с невысоким уровнем коммерциализации научных исследований, которыми малый и средний бизнес не в состоянии заниматься самостоятельно, как, например, селекционная работа, разработка новых удобрений,

поиски способов повышения производительности в растениеводстве, животноводстве. Такая работа должна проводиться специализированными организациями, ее результаты должны быть доступны участникам кластеров, поскольку именно быстрое распространение инноваций внутри кластера помогает компаниям быстро наращивать производительность, повышать эффективность работы и усиливать конкурентоспособность.

Инвестиционная привлекательность определяется не только численностью трудоспособного населения, но и уровнем квалификации сотрудников, поскольку агропромышленный бизнес, как никакой другой, требует специальных знаний и опыта.

Отсутствие квалифицированного персонала или возможностей для повышения квалификации сотрудников, несомненно, является серьезным барьером на пути развития компаний-участников кластерных структур. Данное обстоятельство следует учитывать и государственным структурам, проводящим реформирование аграрного образования, и участникам кластера с точки зрения доступа к источникам квалифицированного персонала, т.е. наличия в регионе курсов повышения квалификации, программ тренинга персонала.

Кластеры обладают существенным потенциалом вовлечения малого и среднего бизнеса в процессы обеспечения продуктовой безопасности страны, для чего необходимо создание и совершенствование механизмов повышения инвестиционной привлекательности кластерных структур, ухода от инвестиций только в аграрный сектор экономики и точечного вкрапления перерабатывающих и пищевых производств в структуру сельскохозяйственных организаций. Не исключая многовариантности в подходах к инвестиционной политике, особое внимание следует уделить интеграции малого и среднего бизнеса, его внедрению в систему движения и прироста капитала в агропромышленном секторе, развитию и совершенствованию инвестиционных институтов.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА АГРОКЛАСТЕРЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Файзиёва Ширин Шодмоновна

ҚарМИИ “Инновацион иқтисодиёт” кафедраси доценти, и.ф.н.

Маматов Абдувайт Олимжон ўғли, Ибрагимов Иброҳим Ҳамро ўғли

ҚарМИИ-1-курс талабалари

Маълумки, бугунги кунда коронавирус пандемияси инсонлар ҳаётига хавф солиш билан бир қаторда бутун дунёни иқтисодий инқирозга олиб келаётгани тобора аниқ бўлиб бормоқда. Халқаро ташкилотлар таҳлилларига кўра, пандемиянинг жаҳон иқтисодиётига зарари камида 5 триллион долларни ташкил қилади. Хусусан, юқори даромад берадиган халқаро туризм, транспорт ва логистика соҳаларида тушумлар 2 баробаргача камайиши кутилмоқда. Саноатнинг кўплаб тармоқларида ишлаб чиқариш занжири бузилиши ҳисобига ҳам зарар катта бўлиши тахмин қилинмоқда. Шу ўринда барча имкониятлардан ва инновацион жараёнлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Мамлакатимиз қишлоқ хўжалигида ғоят кенг қамровли ва жиддий ислохотлар олиб борилмоқда. Хусусан, пахта ва ғаллага давлат буюртмасидан воз кечилиб, нарх белгилаш эркинлаштирилди. Маҳсулот ишлаб чиқаришда кластер тизимига ўтилди ва уларнинг ривожланиши учун барча шароитлар яратилди. Бундан мақсад – маҳсулот ҳажмини кескин ошириш, юқори қўшилган қиймат ва янги иш ўринлари яратиш, энг асосийси – даромад ва манфаатдорликни оширишдан иборат.

Кластерлар қишлоқ хўжалигида инновацион ғоялар ва тежамкор технологияларни жорий қилиб, иқтисодий самарадорликни таъминламоқда. Мисол учун, ўтган йили Қуйичирчиқ туманидаги “ТСТ кластер”, Дўстлик туманидаги “Санзор текстиль” кластери пахтадан гектаридан ўртача 30-35 центнер хирмон кўтариб, ҳосилдорликни ундан олдинги йилга нисбатан қарийб 2 баробарга оширди. Қўрғонтепа туманидаги

“Хантекс” кластери томчилатиб суғориш жорий қилинган пахта майдонларида ўртача 70 центнергача ҳосил олди.

Бундай натижалар пахтачиликда ҳали резерв қўплигини яққол кўрсатиб турибди. Кластерлар бу имкониятлардан тўлиқ фойдаланиб, ўзи фаолият юритаётган туманнинг ижтимоий-иқтисодий ривожига ҳисса қўшиши, одамларнинг онги ва турмуш тарзини ижобий томонга ўзгартириш кераклиги лозим.

Бунинг учун зарур қулайликлар яратилмоқда, яъни пандемия таъсирини юмшатиш бўйича қабул қилинган фармонларга мувофиқ, кредитларни қайтариш муддати узайтирилди, солиқ бўйича қатор енгилликлар жорий қилинди.

Буни тўғри баҳолаган, юртини севган кластерлар раҳбарлари пахта ҳосилдорлигини 10 центнерга ва ғалла бўйича 20 центнерга ошириш бўйича ташаббус билан чиқмоқда. Президентимиз таъкидлаганидек, бугунги оғир шароитда барча раҳбарлар ва фермерлар бир бўлиб, маҳсулот ишлаб чиқаришни кўпайтириш билан шуғулланиши зарур.

Кластерлар фаолиятини мувофиқлаштириш, илғор тажрибаларни кенг жорий қилиш мақсадида пахта етиштирувчи ва қайта ишловчи кластерлар уюшмасини ташкил қилиш ташаббуси маъқулланди. Мутахассисларнинг фикрига кўра, бу йил сув таъминоти жуда оғир бўлади. Шунинг учун сув ресурсларини тежаб ишлатиш ғоят муҳим, сувни 2 баробар иқтисод қилиш чораларини кўриш зарур. Сув хўжалиги вазирлигига ушбу ҳаётий ресурсларнинг аниқ ҳисоб-китоблар асосида ажратилишини таъминлаш, бу йил 150 минг гектар майдонда сув тежовчи, шу жумладан, 44 минг гектарда томчилатиб суғориш технологияларини жорий қилиш вазифаси юклатилган ҳолда амалга оширилмоқда.

Пандемия натижасида охириги уч ойда мамлакатимизга кириб келаётган ун ҳажми ўтган йилнинг шу даврига нисбатан қарийб 50 фоизга, дон 31 фоизга камайди. Бугунги эпидемиологик вазият ҳар қандай шароитга тайёр бўлиш даркорлигини, озиқ-овқат аҳолининг талаби даражасида заҳира қилиниши зарурлигини кўрсатмоқда.

Ўтган йили ғалланинг давлат харид нархлари оширилиб, деҳқонларнинг манфаатдорлиги таъминлангани ва қўшимча дон етиштирилгани учун ички бозордаги нархлар барқарор сақланиб турибди. Бу мавсумда эса қўшимча агротехник тадбирларни бажариб, ғалла ҳосилдорлигини 20 центнер кўпайтириш, гектаридан камида 70 центнердан ҳосил олиш чораларини кўриш зарур ҳисобланмоқда.

Мамлакатимизда жорий йилда ташкил қилинган 102 та ғаллачилик кластери фермерларга намуна бўлиб, олинган қўшимча дон ҳисобидан аҳолига арзон гўшт, балиқ ва паррандачилик маҳсулотлари етказиб бериши мақсадга мувофиқ.

Пандемия даврида барча давлатлар озиқ-овқат маҳсулотлари танқислиги юзага келишининг олдини олишга қаратилган жиддий чораларни кўрмоқда. Ўтган йили май-декабрь ойларида юртимизга 116 минг тонна кунгабоқар, 7 минг тонна соя, 15 минг тонна гуруч, 2,6 минг тонна дуккакли экин ёрмалари импорт қилинган. Бу озиқ-овқат маҳсулотлари турлари ва ҳажмини кўпайтириш устида жиддий ишлаш кераклигини англатади. Нафақат импорт ўрнини тўлдириш, балки янги экспорт бозорларида мамлакатимиз ўрин топиш зарур. Шундагина ҳозирги глобал инқироздан кучли давлат бўлиб чиқиш мумкин.

Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ҳажмини кўпайтириш мақсадида 10 минг гектар янги боғ ва 9 минг гектар тоқзорлар орасига картошка, сабзи, пиёз, саримсоқпиёз, кўкат, нўхат, мош, ловия, помидор, бодринг, булғор қалампери ва полиз экинлари экиш бўйича кўрсатма берилди.

Бахмал, Янгиобод, Фориш ва Қўшработ туманларида юзлаб қудуқлар қазилиб, 10 минг гектар лалми ер майдонларида узумзорлар барпо этилган эди. Ушбу тажрибани барча вилоятларда жорий қилиш, лалми ерли туманларга бурғулаш техникалари етказиб бериш зарур эканлиги, барча сектор раҳбарлари ўз ҳудудида озиқ-овқат заҳирасини ҳисоб-китоб қилиб, ички имкониятларини кенгайтириб бориши кераклиги мақсадга мувофиқ деб топилди.

Кейинги йилларда амалга оширилаётган ислохотлар иқтисодиётнинг барча тармоқларини, жумладан, озиқ-овқат саноатини ривожлантириш, хусусий сектор фаолиятини кўллаб-қувватлаш, қўшимча қийматга эга маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажмини кўпайтиришга қаратилгани билан ҳам аҳамиятли бўлмоқда. Албатта, ушбу соҳаларда салмоқли ютуқларга эришиш билан биргаликда камчиликлар ҳам кўзга ташланмоқда. Хусусан, мамлакатда йилига ўртача 16 миллион тоннадан ортиқ мева-сабзавот, полиз ва дуккакли маҳсулотлар, 1,5 миллион тоннага яқин гўшт, 10 миллион тоннага яқин сут ишлаб чиқарилса-да, уларни саноат усулида қайта ишлаш даражаси ўртача 15-20 фоизни ташкил қилмоқда. Агрологистика тизими яхши ривожланмаган, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва саралаш хизматлари талаб даражасида эмаслиги ҳосилнинг қарийб 30 фоизи исроф бўлишига олиб келмоқда. Етиштирилган маҳсулотларни халқаро стандартларга мос лаборатория текширувидан ўтказишда ҳам муаммолар кўзга ташланади.

Маълумотларга кўра, мамлакатимизда етиштирилаётган сабзавот маҳсулотларининг бор-йўғи 3-4 фоизи, меванинг 11 фоизи экспорт қилинмоқда. Демак, бу борада ҳам ҳали ўрганилиши, жорий этилиши зарур бўлган жиҳатлар бор.

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 2019 йил 29 июлдаги “Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини чуқур қайта ишлаш ва озиқ-овқат саноатини янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори шу каби муаммоларга тезкор ечим топиш, соҳага янги механизмларни жорий этиш мақсадида қабул қилинган эди. Қарорга асосан, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш бўйича 174 ва озиқ-овқат соҳасида импорт ўрнини босувчи маҳсулотлар ишлаб чиқариш бўйича 24 йирик инвестиция лойиҳаси амалга оширилиши белгиланган, мева-сабзавотчиликка ихтисослашган туманларда мавжуд самарасиз боғлар ўрнида 36 минг гектар интенсив боғлар ташкил этилиши кўзда тутилган. Ана шу вазифалар ижросини таъминлаш, қарор мазмун-моҳиятини мамлакатимизнинг барча ҳудудларидан келган қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчилари, тадбиркорлар ва фермерларга янада кенгроқ тушунтириш мақсадида ташкил этилган семинарда соҳага доир янгиликлар, мавжуд муаммолар атрофида муҳокама қилинди. Тегишли дастурларда белгиланган лойиҳаларни ўз вақтида ва самарали татбиқ этиш юзасидан фикр алмашилди.

Таъкидланганидек, озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ва экспортини кўпайтириш борасида муҳим масалаларни ҳал қилишга киришилган. Жумладан, жаҳон бозоридаги талаблардан келиб чиққан ҳолда экспортбоп қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришга асосий устувор вазифа сифатида қаралмоқда. Жойлардаги ҳолат таҳлил қилинганда, бугунги кунда мева-сабзавотчиликка ихтисослашган 55 тумандаги аҳвол кўнгилдагидек эмаслиги, боғдорчилик ва узумчиликдаги аҳволни тубдан яхшилаш мақсадида Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳузурида Боғдорчилик ва иссиқхона хўжалигини ривожлантириш, Узумчилик ва виночиликни ривожлантириш агентликлари ташкил қилинди. Бу тизимдаги лойиҳаларни имтиёзли молиялаштириш учун ҳар икки агентликда маҳсус жамғарма ташкил қилинди. Бу эса тадбиркорлар ва фермерлар учун янги имкониятлар яратади.

Интенсив боғдорчиликда биринчи мартаба бир қатор имтиёзлар жорий қилинди. Жумладан, интенсив боғларда сув тежовчи технологияларни жорий қилиш бўйича 1 гектарга қилинган харажатнинг 6 миллион сўми давлат бюджетидан қопланади. Шунингдек, умумий майдони 35 гектардан кўп бўлган интенсив боғларга сув чиқариш мақсадидаги 120 миллион сўмгача бўлган харажатлар учун давлат томонидан субсидия ажратилади.

Бугунги кунда кўп тадбиркорларимизни тижорат кредити олишда кафилик масаласи қийнаб келаётгани сир эмас. Эндиликда интенсив боғ барпо этиш учун олинган кредитнинг 50 фоизигача бўлган қисми Тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришни кўллаб-қувватлаш давлат жамғармаси томонидан кафилик асосида берилиши белгиланмоқда. Шунингдек, замонавий логистика марказлари, иссиқхоналар ва

музлаткичли омборхоналар куришга ҳам алоҳида эътибор қаратилади. Бугунги кунда юртимизда атиги 31 агрологистика маркази фаолият юритмоқда. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлайдиган 760 минг тонна сиғимга эга 1500 та музлаткичли омборхона мавжуд. Улар жами етиштирилган мева-сабзавотларнинг 4,5-5 фоизини қамраб олади, холос.

2019-2021 йилларда Андижон, Бухоро, Жиззах, Самарқанд, Сурхондарё, Тошкент, Фарғона ва Хоразм вилоятларида халқаро молия институтлари маблағлари ҳисобидан 3 миллион тонна сиғимга эга, шунингдек, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида сиғими 360 минг тонна бўлган жами 37 замонавий агрологистика марказлари ташкил этилади.

Президентимиз таъкидлаганидек: “Қишлоқ хўжалигидаги ислохотлар, ер майдонлари тўлиқ хусусий кластер ва кооперацияларга берилгани пахтачиликда ҳосилдорликни бир йилда ўртача 10 фоизга ошириш имконини яратди. Мева-сабзавотчилик, ғаллачилик ва чорвачиликда ҳам 500 га яқин кластер ва кооперациялар фаолияти йўлга қўйилди. Бунинг натижасида, пандемиянинг салбий таъсирига қарамасдан, 1 миллиард долларлик мева-сабзавот экспорт қилинди. Бу йил 91 минг гектар ер майдони қайтадан фойдаланишга киритилди. 133 минг гектар ёки ўтган йилга нисбатан 2 баробар кўп майдонда сувни тежайдиган технологиялар жорий этилди.”¹

Агрокластерларни тартибга солишда муаммолар мавжудлиги сезилмоқда. Қишлоқ хўжалигини жадал ривожлантириш, унинг иқтисодий самарадорлигини ошириш, қишлоқ аҳлининг турмуш шароитини яхшилаш, манфаатдорлигини таъминлаш масалалари соҳада ишлаб чиқаришнинг замонавий усули - кластерлар тизими билан боғлиқ. Бироқ ўтган даврдаги тажриба кластерларни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш борасида қатор муаммолар борлигини кўрсатмоқда. Жумладан:

- агросаноат кластерининг ҳуқуқий мақоми белгиланмаган, яъни норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда агросаноат кластерининг мақоми, унинг мезонлари ва тугатиш асослари мавжуд эмас;

- агросаноат кластерларини ташкил этиш юзасидан ягона ёндашув мавжуд эмас. Мева-сабзавот кластерлари фаолияти ташаббускор, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ва Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ўртасида тузиладиган уч томонлама келишув асосида, шолчилик кластерлари ташаббускор ва маҳаллий давлат ҳокимияти органлар билан тузиладиган икки томонлама битим асосида йўлга қўйилади;

- агросаноат кластерлари ва давлат ўртасидаги муносабатлар тартибга солинмаган;
- фермер хўжаликларини агросаноат кластерларига мажбурий тартибда бириктирилиши амалиёти мавжуд;

- агросаноат кластерларига ер участкаларини ажратишда ягона ёндашув мавжуд эмас;

- агросаноат кластерларининг ер участкаларини олиб қўйиш ва фермерлар хўжаликлари билан шартномаларини бекор қилишда маъмурий аралашувлар мавжуд;

- агрокластерларнинг ривожланишига асосий туртки бўладиган қишлоқ хўжалиги кооперацияларини шакллантириш тизими мавжуд эмас;

- ўзаро ҳамкорлик муносабатларини ўрнатиш ва эркин бирлашишга руҳий (психологик) жиҳатдан тайёр эмаслик, хўжалик юритишда ўз-ўзини бошқариш кўникмаларининг етишмаслиги;

- кооперация тузилмаларини ташкил этишга агробизнеснинг ҳиссадорлик корхоналари, хусусий тадбиркорлари ва воситачилари томонидан қарши таъсир ва рақобатнинг мавжудлиги таъсир кўрсатмоқда. Демак, инновацион иқтисодиёт имкониятларидан фойдаланган ҳолда иқтисодий самарадорликни оширишда қишлоқ хўжалиги агрокластерларининг аҳамиятини янада оширишимиз зарур.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, Халқ сўзи, 29.12.2020 йил

ЎЗБЕКИСТОН ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИДА КЛАСТЕРЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Гиязова Нозима Баязовна

БухДУ, Иқтисодиёт кафедраси катта ўқитувчиси

Ўзбекистоннинг тўқимачилик саноати маҳаллий хомашёни қайта ишлашга асосланган кўп асрлик тарихга эга: пахта толаси, ипак, теричилик, каолин кабилар мамлакатнинг миллий бойлиги ҳисобланади. Буюк ипак йўлининг Ўзбекистон орқали ўтиши, бу ерда ишланган пахта ва ипакли матолар хунармандчилиги, ўзига хос хушбичим миллий уст бош ва оёқ кийимлар, суратлар чизилган сопол идишлар дунёнинг кўплаб давлатларига машхур бўлган.

“Пахта - тўқимачилик кластери” – улкан лойиҳа иқтисодий тараққиётнинг шартларидан бири. У билан яқиндан танишиш, моҳиятини чуқурроқ англаш нафақат соҳа ходимлари, мутахассислари, иқтисодчилар учун, балки кенг омма учун аҳамиятлидир. Зеро, барчамизнинг тақдиримиз шу заминга боғланган. Тараққиёт – инновацияни талаб этади. Улардан қанчалик хабардор бўлсак, ривожланишда ҳам шунчалик ҳиссамиз ошади.

Интеграциялашувнинг кичик даражаси мамлакатлар иқтисодиётида янги хўжалик юритиш тизимини шакллантириш йўли ҳисобланиб, ўзаро пировард маҳсулот ишлаб чиқарадиган ва географик яқин бўлган корхона ва ташкилотларни ўз ичига олган “Кластер”лар яратишдир.

Кластерларни шакллантиришдан мақсад – шаҳар, туман ва вилоят ичида жойлашган бир хил соҳа кохоналарини ва улар билан ягона технологик занжирда бўлган таълим, илмий, инжиниринг, консалтинг, стандартлаштириш, сертификатлаштириш, ва бошқа хизматларни уйғунлаштириш - инновацион ишлаб чиқаришни ташкил этиш асосида рақобатбардош товарлар яратишга йўналтиришдан иборатдир. Бунда аҳолини иш билан таъминлашдек муҳим жиҳат ҳам ўзини намоён этади.

Мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганларидек, барча соҳаларда кластер тизимини яратиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Дарҳақиқат нефть, газ, химия, биотехнология, фармацевтика, информатика, автоқурилиш, транспорт логистика, озиқ-овқат, таълим, балиқчилик, паррандачилик, асаларичилик, ипакчилик ва бошқа соҳаларда кластер тизимларини яратиш илмий тадқиқотлар ва ишланмаларни молиялаштириш ҳажминини кўпайтиради, сифатини яхшилайти, илмий тадқиқот ишларининг техник таъминоти даражасини юксалтиради, инвестициявий ташқи лойиҳаларда иштирок этиш, илмий-педагог кадрлар тайёрлаш ва малакасини оширишнинг янги имкониятларини яратади. Бундан ташқари, кластер тизимида таълим ва илмий-тадқиқот марказлари янги илмий - услубий ишланмаларни яратиш, уларни қисқа муддатда синовдан ўтказиш, ишлаб чиқариш ва илмий изланишлардаги ходимлар ҳамда мутахассислар меҳнатларини кўпроқ рағбатлантириш, янги товарларни Ўзбекистон бренди билан ихтиро қилиш учун кенг имкониятлар ва шароит пайдо бўлади.

Шунингдек, мамлакатимизда халқаро кластер координаторларини тайёрлаш илмий марказлари ва кластер проектлари бўйича Кенгашлар пайдо бўлади.

Ўзбекистон тўқимачилик ва енгил саноати тизимида кластерларни шакллантириш масаласи мамлакат миқёсида эмас, балки минтақалар – вилоятлардаги аниқ иқтисодий – ижтимоий шарт - шароитлар асосида, кластер назариясининг моҳиятидан келиб чиққан ҳолда амалга оширилаётгани энг оқилона йўллардан биридир.

Пахта – тўқимачилик кластери нафақат енгил саноатни, балки ўз йўлида қишлоқ хўжалиги, озиқ – овқат саноати, фармацевтика, қурилиш маҳсулотлари ишлаб чиқариш каби ўнлаб тармоқларни ҳам қамраб олади.

Пахта хомашёсини ишлаб чиқаришнинг самарадор усулларини излаш зарурати яна шу билан изоҳланадики, Ўзбекистон шароитида ернинг маҳсулдорлиги имкониятларидан тўлиқ фойдаланмаган.

Ўзбекистонда пахта хомашёсининг асосий истеъмолчиси тўқимачилик саноати бўлиб, у республиканинг саноат комплексида муҳим ўрин тутади. Тўқимачиликнинг ривожланиши ҳам пахтачилик соҳасининг ҳолатига бевосита боғлиқ.

Жаҳон тажрибасидан маълумки, тўқимачилик саноатида вертикал интеграциялашган тизим самарали ва рақобатбардош бўла олади, бу тизим пахта хомашёсини етиштириш ва дастлабки ишлов беришдан бошлаб, то уни пахта заводларида кейинги қайта ишлаш ва тайёр маҳсулотга (яъни ип-калава, трикотаж, газлама ва кийим- кечакка) айлантиришгача бўлган жараёнларни ўз ичига олади.

Иқтисодиётда янги, замонавий ёндашувларни жорий этмасдан туриб, юқори қўшимча қийматга эга рақобатбардош маҳсулот яратишни тасаввур қилиб бўлмайди.

Қабул қилинган қарорларда ўз моҳиятига кўра, миллий иқтисодиётимиз учун янги бўлган, саноатнинг илгор тури кластер схемасини яратиш ва жорий этиш асосида “пахта хомашёсини етиштириш – қайта ишлаш – тайёр маҳсулот” шаклидаги ёпиқ занжирдан иборат, юз фоиз чиқитсиз ишлаб чиқариш объектини ташкил этиш кўзда тутилган эди.

Бу ерда сўз нафақат пахтакор хўжаликлар тамонидан анъанавий тарзда хомашё етиштириш ҳақида, балки пахтани қайта ишловчи, ёғ-экстракция ва бошқа корхоналарда бирламчи пахта хомашёси ҳамда ғўзапояни қайта ишлаб, юқори қўшимча қийматга эга маҳсулотлар яратиш ҳақида бормоқда. Бунда пахтани қайта ишловчи ва ёғ-экстракция корхоналарида ҳосил бўладиган иккиламчи маҳсулот (пахтани йигиришдаги қолдиқлар, шрот, шелуха каби) кейинчалик чорвачилик комплексида ишлатилади, чорвачилик комплексининг чиқитлари эса – биогаз қурилмасида иссиқлик ва электр энергияси ишлаб чиқаришга сарфланиб, кейинчалик сабзавот ва кўкатлар етиштиришга мўлжалланган замонавий иссиқхоналарга узатилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг юқорида қайд этилган Қарори билан илк тажрибавий саноат кластерининг яратилиши қуйидаги мақсадларга қаратилган эди:

- таркибий ўзгартиришларни янада чуқурлаштириш ва давлатнинг қишлоқ хўжалигидаги иштирокини камайтириш;
- агросаноат комплексини инновацион усулда ривожлантиришнинг интеграциялашган кластер тизимини яратиш учун хорижий инвестицияларни жалб этишни рағбатлантириш;
- пахта хомашёсини етиштиришга самарали усулларни жорий этиш ва қишлоқ хўжалик хомашёсини чуқур қайта ишлашни ташкил этиш;
- Аграр соҳада ишлаб чиқариш самарадорлиги ва меҳнатга ҳақ тўлашни яхшилаш.

Ушбу тажрибавий саноат кластерининг пировард мақсади – юқори қўшимча қийматга эга, рақобатбардош ҳудудий маҳсулот ишлаб чиқариш ва шу асосида ҳудудларга кўпгина муаммолар, яъни меҳнат ва моддий ресурслардан самарали фойдаланиш, бюджетни тўлдириш, экспорт имкониятларини кенгайтириш, ижтимоий масалаларни ҳал этишдан иборат эди.

Пахта-тўқимачилик кластери бу ягона технологик занжирга бирлаштирилган корхоналар мажмуи бўлиб, у илм-фан, таълим ҳамда ишлаб чиқариш интеграциясини чуқурлаштириш, янги технологияларни амалиётга жадал жорий этиш имконини беради.

Муҳтарам Президентимиз хомашёни сотиб эмас, хомашёни тайёр маҳсулотга айлантириб, моддий манфаатдор бўлиш зарурлиги ҳақида кўп бора гапириб, бунга эришишнинг йўлларига алоҳида эътибор қаратиб келмоқда. Зотан, бу йўл билан ҳозиргидан кўра ўн мартагача кўпроқ моддий бойликка эга бўлиш мумкин. Бу борада таълим ва ишлаб чиқариш интеграциялашувини чуқурлаштиришнинг аҳамияти, янги технологияларни жорий этишнинг ўта муҳимлиги ҳам алоҳида эътироф этилмоқда.

Кластери “ягона занжирда айланадиган тараққиёт”, деб таърифлаш мумкин. Бу жараённинг тўрт босқичдан иборат бўлиши эътироф этилди:

Биринчи босқич агар тармоқ юмушлари – саноатбоп хомашё етиштирувчи жабҳа бўлиб, ерни экинга тайёрлашдан, то ҳосилни йиғиштириб олгунча бўлган жараённи ўзи ичига олади.

Иккинчи босқич хомашёни бирламчи қайта ишлаш – ҳосилни тола, уруғ, чигит каби маҳсулотларга айлантиришни ўз ичига олади. Шунингдек, қурилиш соҳаси учун ғўзапоядан қурилиш товарларини тайёрлаш.

Учинчи босқич чуқур қайта ишлаш жараёнини ўзига олиши билан аҳамиятлидир. Бунда пахта хомашёсидан олинган бирламчи маҳсулотлар истеъмол учун тайёр

маҳсулотга айланади. Жумладан, толадан ип-калава ва ундан мато, тайёр кийим-кечаклар, чигитдан ўсимлик мойи, хўжалик совуни, чорва учин озуқа, фармацевтика учун кераклик маҳсулотлар олинади. Ғўзапоя қайта ишланиб ундан иссиқхона учун биогаз тайёрланади.

Тўртинчи босқич. Бунда биринчи босқич билан тўртинчи босқич ўзаро боғланади – ҳақиқий занжир юзага келади. Яъни, олинган озуқа ҳисобига чорвачилик мажмуи ташкил этилиб, ундан олинган маҳсулотларни қайта ишлаш орқали озиқ-овқат саноати учун гўшт-сут етиштириш, уни қайта ишлаш натижасида эса бозорга 30дан зиёд турдаги тайёр маҳсулот чиқариш мумкин. Чорвачилик тармоғи бевосита аграр тармоқни – етарли табиий ўғит билан бойитиш имконини беради. Бундан ташқари, биогаз олиш, у орқали кластердаги яна бир тармоқ - иссиқхона хўжалигини ривожлантириш имкони юзага келади.

Мамлакатимиз тараққиётининг бугунги босқичида пахта-тўқимачилик кластерларини фаолиятини янада кенгроқ ва самаралироқ ташкил этиш лойиҳаларни амалга ошириш ҳисобига, юртимизни равақ топтириш ва халқимизни фаровонлигини ошириш бўйича янги-янги ютуқларга эришишимиз мумкин.

ПАРРАНДАЧИЛИК КЛАСТЕРИ ТИЗИМИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ БОШҚАРИШНИНГ АХБОРОТ ТАЪМИНОТИ

Хужамуродова Сурайё Ибрагимовна

ТДАУ Бухгалтерия ҳисоби, таҳлил ва аудит кафедраси
ассистенти

Озиқ-овқат хавфсизлигини барқарор таъминлашда паррандачиликни ривожлантириш алоҳида аҳамиятга эга. Паррандачилик чорвачиликнинг тез етилувчан соҳаларидан бири бўлиб, аҳолини парҳез гўшти ва тухум маҳсулотлари билан таъминлаш имконини беради. Паррандалар нафақат гўшти, тухуми балки пати учун ҳам боқилади. Бугунги кунда паррандачилик истиқболли ва чорвачиликдаги асосий йўналиш экани тан олинади. Мамлакатимизда паррандачилик соҳасини ривожлантириш бўйича бир қатор ислохотлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарорлари қабул қилинди [1. 2 ва б.]. Хусусан, эндиликда хорижий давлатлар тажрибасидан фойдаланиб барча ҳудудда парранда етиштириш, уни қайта ишлаш ва яқуний маҳсулот тайёрлаш ва уни истеъмолчига етказишни қамраб олган паррандачилик кластерлари ташкил этилмоқда. Шунингдек, 2021 йилда парранда маҳсулотлари етиштириш: инкубацион тухум 268,7 млн дона, 1 кунли жўжа 215,3 млн бош, бройлер гўшт 383,3 минг тонна, бошқа турдаги парранда гўшти 66,6 минг тонна, жами парранда гўшти 450,0 минг тонна¹ прогноз қилинган.

Паррандачилик кластери тизимидаги корхоналарда ишлаб чиқаришни самарали бошқариш, хусусан маҳсулотлари етиштириш учун сарфланадиган харажатларни камайтириш, уларни тўғридан-тўғри маҳсулот таннархига қўшилишини назорат қилиш ва таннархни аниқ ҳисоблаш олдидаги муҳим вазифаларни ҳал этиш кўп жиҳатдан уларнинг ахборот таъминотига боғлиқ.

Харажатлар ҳисоби ва маҳсулотлар таннархини ҳисоблаш тизимини такомиллаштириш масалаларининг илмий-услубий асослари хорижлик [3.4.5 ва б.] ва республикамизда иқтисодчи-олимлари томонидан тадқиқ қилинган [6.7 ва б.]. Лекин уларнинг ишларида паррандачилик кластерлари тизимида харажатлар ҳисоби, таннарх ҳисоблаш ва таҳлил услубларини такомиллаштириш масалалари комплекс ўрганилмаган. Шу боис, паррандачиликда харажатлар ҳисобини тўғри ташкил этиш, маҳсулот бирлиги таннархи, харажатларнинг шаклланишини назорат ва таҳлил қилиш, ҳақиқий таннархни тўғри ҳисоблаш ҳамда таннархни пасайтириш долзарб масалалардан ҳисобланади.

Изланишлар шуни тасдиқладики, паррандачиликка ихтисослашган агрокластер тизимидаги корхоналарда харажатлар ҳисоби ва маҳсулотлар таннархини ҳисоблаш

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 14 июндаги ПҚ-5146-сон “Паррандачиликни ривожлантириш ва тармоқ озуқа базасини мустаҳкамлашга қаратилган кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” [карори](https://lex.uz/docs/5457613), <https://lex.uz/docs/5457613>

услугларини такомиллаштириш алоҳида аҳамият касб этмоқда. Фикримизча, мазкур масалани илмий-услубий ва ташкилий жиҳатдан амалга ошириш учун қуйидаги вазифаларни ҳал этиш зарур:

- озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда паррандачилик кластерларининг ўрни, аҳамиятини ва ривожлантириш истиқболларини асослаш;
- паррандачиликни кластерлаш шароитида ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва харажатлар ҳисобининг ташкилий-иқтисодий масалалари
- паррандачилик кластери тизимида бошқарувнинг ахборот таъминотидаги муаммоларни рақамли технологиялар асосида ҳал этиш;
- паррандачилик харажатлари ҳисоби ва маҳсулотлар таннархини ҳисоблашнинг ташкилий-услубий асосларини ривожлантириш;
- паррандачилик харажатлари ва маҳсулотлар чиқишининг дастлабки, аналитик ва синтетик ҳисобини такомиллаштириш;
- паррандачилик маҳсулотлари таннархини ҳисоблашнинг услубий таъминоти ва уни такомиллаштириш;
- паррандачилик харажатларини таҳлил қилишнинг услубий асослари ва уни такомиллаштириш;
- паррандачиликда асосий маҳсулот турлари таннархини таҳлил қилишнинг услубий жиҳатларини ривожлантириш ва таннархни пасайтириш имкониятларини аниқлаш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 13 ноябрда ПҚ-4015-сон “Паррандачиликни янада ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори, <https://lex.uz/docs/4058735>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 14 июндаги ПҚ-5146-сон “Паррандачиликни ривожлантириш ва тармоқ озуқа базасини мустаҳкамлашга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” қарори, <https://lex.uz/docs/5457613>
3. Нидлз Б., Андерсон Х., Нолдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учета, -М.: Финансы и статистика, 1997.-496с;
4. Р.Энтони, Дж.Рис. Учет: ситуации и примера, -М.: Финансы и статистика, 1993.-560с;
5. Пизенгольц М.З. Бухгалтерский учет в сельском хозяйстве.-М.: Финансы и статистика, 2001.-400с.
6. Абдуғаниев А.А. Бошқарув ҳисобини ташкил этиш муаммолари, уларнинг ечимлари. Т.: ТМИ, 2003.-275б;
7. Дўсмуратов Р.Д., Мамадияров Д.Ў. Қишлоқ хўжалигида бошқарув ҳисоби: услубиёт ва амалиёт. Т.: «Молия» нашриёти, 2008.-148 б.

BUXORO VILOYATIDA TURISTIK KLASSTERLARNI TASHKIL ETISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Saidova Feruza Kamolovna

Buxoro davlat universiteti “Servis sohasi iqtisodiyoti”
kafedrası o’qıtuvchisi

Buranov Daler

3 -1bux-20 guruhi talabasi

О‘zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risi”dagi Qonuniga muvofiq Erkin iqtisodiy zona — mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma‘muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir. Erkin iqtisodiy zona hududida yuridik shaxslar va fuqarolar (jismoniy shaxslar) xo‘jalik, moliyaviy va boshqa faoliyatning istalgan turlari bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yiladi.

Erkin iqtisodiy zona O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tashkil etiladi. Erkin iqtisodiy zonaning maqomi, shuningdek uning qancha muddatga tashkil etilishi mazkur zonani tashkil etish to‘g‘risidagi qaror bilan belgilanadi.

Erkin ishlab chiqarish zonalarini eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish zonalarini, agropolislarini, tadbirkorlik zonalarini, industrial-iqtisodiy zonalarini va boshqa zonalarini o'z ichiga oladi.

Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar alohida ajratilgan hududlardan iborat bo'lib, u yerda ilmiy-ishlab chiqarish va o'quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o'rnatiladi.

Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar yuksak texnologiyalar amal qiladigan zonalar, texnoparklar, mintaqaviy innovatsiya markazlari—texnopolislar shaklida tashkil etiladi.

Erkin iqtisodiy zona O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan dasturga muvofiq rivojlantiriladi.

Erkin iqtisodiy zonalarda loyihalar aniq hisob-kitoblarsiz joylashtirilishi oqibatida ayrim faoliyat turlari uchun sun'iy imtiyoz berilishiga va bu, o'z navbatida, bozordagi raqobat muhitining buzilishiga olib kelmoqda.

1-jadval

O'zbekistonda tashkil etilishi rejalashtirilgan erkin turistik hududlar tavsifi

Erkin turistik hududlar	Joylashgan hududi	Yer maydoni	Homiy davlat yoki kompaniya	Ajratilishi mo'ljallangan mablag' miqdori
“Chorvoq” erkin turistik zonasi	Toshkent viloyati	334,8 km ² .	Fransiya kompaniyalari konsorsiumi Fransiya taraqqiyot agentligi	750 ming yevro
“Zomin” turistik-rekreasion zonasi	Jizzax viloyati	2,87 ming km ²	Turkiya Respublikasining “IDEALIST” kompaniyasi	250 million AQSh dollari
“Shovot” kichik turizm zonasi	Xorazm viloyati	0,46 ming km ²	Fransiya taraqqiyot agentligi	250 ming yevro
“G'ovuk ko'l” kichik turizm zonasi	Xorazm viloyati	0,1 ming km ²	Fransiya taraqqiyot agentligi	250 ming yevro

Umuman, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda asosiy e'tibor hududlar tabiiy resurslari hamda industrial salohiyatidan foydalanish va eksport tizimini kuchaytirishga qaratilmog'i lozim. Aynan shu o'rinda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning unumli shakli bo'lgan zamonaviy erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu yo'nalishda jahon tajribasida keng qo'llanilayotgan va o'z samarasini berayotgan bir qator iqtisodiy chora-tadbirlarni qayd etish joiz.

Jahon iqtisodiyotidagi ilg'or tajribalarga ko'ra hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 23 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat olib borayotgan bo'lsa, ularning 20 tasi 2016 yildan keyin tashkil etildi. Bunda umumiy erkin iqtisodiy zonalaridan tashqari alohida sohalar, jumladan turizm, farmatsevtika kabi muhim sohalarda erkin iqtisodiy zonalar faoliyati yo'lga qo'yilganligini alohida qayd etib o'tish zarur.

Respublikamizda erkin turistik hududlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Respublikamizda erkin turistik hududlarni tashkil etishdagi mavjud imkoniyatlar	Respublikamizda erkin turistik hududlarni tashkil etishdagi muammolar
Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Xorazm viloyatlarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatlari yuqori darajadagi mavjudligi	ayrim erkin iqtisodiy zonalarda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish va ishlab chiqarish infratuzilma obektlarini qurish bilan bog'liq masalalar haligacha oxiriga yetkazilmagan. Bu investorlarni jalb qilishda qiyinchiliklar tug'diryapti.
Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Xorazm viloyatlarining turistik salohiyatining yuqori darajadagi mavjudligi	erkin iqtisodiy zonalar direksiyalari tomonidan tijorat banklariga yangi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish yuzasidan taklif kiritish bo'yicha yetarlicha tashabbus ko'rsatilmayapti.
xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakat investitsiya salohiyatining yuqori darajadagi mavjudligi	ba'zi viloyatlar hokimliklari tomonidan erkin iqtisodiy zonalarda loyihalar aniq hisob-kitoblarsiz joylashtirilishi oqibatida ayrim faoliyat turlari uchun sun'iy imtiyoz berilishiga va bu, o'z navbatida, bozordagi raqobat muhitining buzilishiga olib kelmoqda.
mahalliy xomashyo va materiallar negizida mustahkam kooperatsiya aloqalarini o'rnatish hamda erkin iqtisodiy zonalar korxonalarini o'rtasida va umuman respublikada sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirishning mavjudligi	mavjud erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat, shuningdek, farmatsevtika zonalarida faoliyat yuritayotgan, eksportga mahsulot chiqarayotgan, innovatsion, yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni tashkil qilgan biznes subektlari va tadbirkorlarga berilayotgan qo'shimcha imkoniyatlar, imtiyoz va preferensiyalarning tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash ham muammolardan biridir.

Faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini faoliyatini umumiy tartibga solish nuqtai nazaridan 2020 yil 17 fevralda O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. 2016 yil 26 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PF-4853-sonli farmoni asosida barcha erkin iqtisodiy zonalar maqomi, imtiyozlari tenglashtirildi.^[2]

Shuningdek, tumanlarni ham kompleks iqtisodiy rivojlantirish maqsadida bugungi kunga qadar 348 ta kichik sanoat zonasi tashkil etilib, o'z faoliyatini davom ettirmoqda. Natijada erkin iqtisodiy zonalarda umumiy qiymati 2,6 milliard dollarlik 453 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida 36 mingga yaqin ish o'rni yaratilgan. Kichik sanoat zonalarida esa 5 trillion so'mlik 1 ming 497 ta loyiha ishga tushirilib, 36 mingdan ziyod kishining bandligi ta'minlangan.

Respublikamizdagi har bir hudud o'ziga xos turistik imkoniyatlarga ega va bu jihat xalqaro keng jamoatchilik tomonidan ham muntazam e'tirof etilib kelinmoqda. Mavjud yuqori turizm imkoniyatlari va undan har tomonlama samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-sonli, «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» 2018 yil 3 fevralda PF-5326-sonli, «O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2019 yil 5 yanvarda PF-5611-sonli, "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 9 fevralda PF-

6165-sonli “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 6 apreldagi PF–6199-sonli Farmonlari, shuningdek «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 6 fevraldagi PQ-3509-sonli, «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-son qarorlari qabul qilindi.

Ayniqsa, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakat investitsiya salohiyatini jahon biznes hamjamiyatiga to‘la namoyon etishga qaratilgan, sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo‘yicha investitsiya loyihalarini shakllantirishda kompleks yondashuvlarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishga e‘tibor qaratilishi zarur. Shu bilan birga, “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonunni bugungi kun talablari asosida qayta ko‘rib chiqish, uni davr ruhiga uyg‘un holda yanada takomillashtirish lozim.

Prezident "Urgut", "G‘ijduvon", "Qo‘qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risidagi farmonni imzoladi.

Turizm rivojlanishining ushbu bosqichida infratuzilmasining ozgina qismi etib borish va ularning yashash vaqtiga bog‘liq. Ammo asta-sekin sifatli xizmat va diqqatga sazovor joylar taqsimlanadi, bu sayyohlar oqimining ko‘payishiga hissa qo‘shadi. Ixtisoslashgan turistik korxonalar darhol reaktiviyaga kirishmoqda xizmat xizmatlari Tashrif buyuruvchilar uchun.

Dunyoning yetakchi axborot manbalaridan biri bo‘lgan Si-En-En telekanali saytida e‘lon qilingan “Why Uzbekistan is said to be a top travel destination for 2020” maqolasida aksariyat g‘arbliklar uchun uzoq vaqtdan beri noma‘lum bo‘lib kelgan O‘zbekiston 2020 yilda sayyohlarning eng yoqtirgan manzillaridan biri bo‘layotgani aytiladi.

“Lonely Planet sayyohlik vebsayti ushbu madaniyati boy va tarixan jozibali mamlakatni Markaziy Osiyoning qolgan qismi bilan birga yetib borish oson va vizasiz sayohat qilish mumkin bo‘lgani uchun 1-raqamli sayyohlik mintaqasi deb atadi”, deyiladi maqolada.

Economist jurnali ham O‘zbekistonni hukumatining so‘nggi yilda jadallashib ketgan jiddiy islohotlari uchun 2019 yilda eng yaxshi mamlakat deb atadi. Bular barchasi, dunyo endi-endi kashf qilayotgan tarixi va ajoyib taomlari bilan mashhur O‘zbekistonni mashhur sayyohlik manziliga aylantirmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoev O‘zbekistonni sayyohlar uchun jozibali manzilga aylantirish uchun katta islohotlar boshlaganini, 65 ta mamlakat vatandoshlariga 30 kunlik vizasiz kelib-ketish, 77 ta mamlakat vatandoshlariga esa soddalashtirilgan elektron viza olish imkoniyati yaratilgani ta‘kidlanadi.

Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi 10 yanvar kuni brifingda e‘lon qilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2019 yil davomida O‘zbekistonga 6 748 500 nafar sayyoh tashrif buyurgan, 2018 yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 26 foizga oshgan. Bu haqda sof.uz nashri xabar berdi.

Sayyohlarning aksariyat qismi, ya‘ni 85,4 foizi Markaziy Osiyo mintaqasidan tashrif buyurgan, boshqa mamlakatlardan kelganlar esa 14,6 foizni tashkil qildi. O‘zbekistonga tashrif buyurganlar orasida qarindosh-urug‘ va do‘stlarini ko‘rishga kelganlar soni 81,8 foizdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, dam olish uchun kelganlar 15,5 foizni tashkil etgan. Boshqa sabablar, jumladan davolanish, xaridlar, biznes uchrashuvlarda ishtirok etish hamda ta‘lim olish maqsadida kelgan xorijliklar soni 2,7 foizni qayd etdi.

Tabiat himoyachilarining loyahasiga shubha qilishining sabablaridan biri, tadbirkorlar ekologik zonalarda sayyohlik ob‘ektlarini bartaraf etish huquqiga ega bo‘lishlari kerakligi haqida shubha bor. Bu ekspertning ekstatistlari bo‘lishi mumkin, ular mavjud standartlar va qoidalarni buzishda amalga oshiriladi.

Shuning uchun ekologik tashkilotlarning noyob qo‘riqlanadigan hududlarda sayyohlik majmualarini qurishni taqiqlashni talab qiladi. Bu turdagi baxtsizlikni oldini olish usullarini izlashdan ko‘ra, bunday baxtsizlikni oldini olish osonroq. Ayniqsa ular mavjud emasligi sababli.

Hujjatda tushuncha apparati kengaytirildi: “gid (gid-tarjimon)”, “yo‘riqchi-yo‘l boshlovchi”, “ekskursant”, “mustaqil turizm” va boshqa atamalar kiritildi.

Turizmning tasnifi paydo bo'ldi:

- shakliga ko'ra – xalqaro (kirish va chiqish) va ichki;
- turlariga ko'ra - madaniy-tarixiy, ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, ishbilarmonlik, ijtimoiy, sport, tibbiy, yoshlar turizmi, agroturizm va boshqa turlari.

Qonunda Davlat turizm qo'mitasining hududiy bo'linmalari va Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashning vakolatlari belgilangan, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va NNTning soha tadbirlaridagi ishtiroki bayon etilgan.

Joylashtirish vositalari, transport, umumiy ovqatlanish ob'ektlari va ko'ngilochar, ma'rifiy, ishbilarmonlik, davolash-sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya-sport hamda boshqa maqsadga mo'ljallangan ob'ektlar, turistik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar, ekskursiya xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar majmui, shuningdek ekskursiya yetakchilarining, gidlar (gid-tarjimonlar) hamda yo'riqchi-yo'l boshlovchilarning xizmatlari majmui turistik industriya etib belgilangan. Turindustriya ob'ektlarini tasniflash va ularga toifalar berish ixtiyoriy asosda Davlat turizm qo'mitasi huzuridagi akkreditatsiya qilingan tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarni turistik resurslar hamda turistik industriya ob'ektlari to'g'risida xabardor qilish, shuningdek turistik bozorlarda turistik mahsulotlarni targ'ib qilish uchun shu jumladan DXSh asosida turistik axborot markazlari tashkil etilishi mumkin. Ularning loyihalari hamda ularda realizatsiya qilinadigan tovarlarning (ishlar va xizmatlarning) ro'yxati Davlat turizm qo'mitasi bilan kelishiladi.

Buxoro shahrining tarixiy qismida ("Shahriston" bozori hududida) ikki qavatli uylardan iborat hunarmandlar dahasi va yopiq bozor yaratiladi. Shuningdek, ushbu dahada an'anaviy ustaxonalar, milliy suvenirilar, zardo'zlik mahsulotlari, kitoblar, meva va sabzavotlar, shirinlik va sayyohlarni jalb etuvchi boshqa mahsulotlar sotiluvchi do'konlar ochiladi.

«Buxoro-Agro» erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi Prezident qarori qabul qilindi. Bu haqda «Huquqiy axborot» kanalida xabar berildi.

Qarorga muvofiq Buxoro viloyatida «Buxoro-agro» erkin iqtisodiy zonasi tashkil etildi.

«Buxoro-agro» EIZning faoliyat ko'rsatish muddati u tashkil etilgan kundan boshlab, mazkur muddatni keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan 30 yilni tashkil qiladi.

«Buxoro-agro» EIZning asosiy vazifasi etib, shu jumladan issiqxonalar qurish uchun konstruksiyalar, jihozlar va boshqa butlovchi buyumlar ishlab chiqarishni tashkil etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va ularning eksport hajmini oshirish belgilandi.

Eslatib o'tamiz, shu kunga qadar mamlakatimizda 16 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritib kelayotgan edi. Bular «Navoiy», «Angren», «Jizzax», «Urgut», «G'ijduvon», «Qo'qon», «Hazorasp», «Sirdaryo», farmatsevtika sohasiga ixtisoslashgan «Nukus-farm», «Zomin-farm», «Kosonsoy-farm», «Sirdaryo-farm», «Boysun-farm», «Bo'stonliq-farm», «Parkent-farm» erkin iqtisodiy zonalarini shuningdek, turizmga ixtisoslashgan «Chorvoq» erkin turistik zonasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017—2019 yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyati sayyohlik imkoniyatlarini jadallik bilan rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori loyihasi taqdim etildi. Loyihaga binoan shaharda «Boqiy Buxoro» nomli erkin turistik zona yaratiladi. Ushbu zona va shaharning tarixiy qismida aholi uchun bepul Wi-Fi tizimi yaratiladi.

Sayyohlik mavsumida Toshkent—Buxoro—Toshkent yo'nalishida harakatlanuvchi poezdlar reyklarining hamda «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi tashqi va ichki reyklarining soni oshirilishi taklif etilmoqda.

Buxoroni «Tabarruk Buxoro — muqaddas Islom markazi» shiori ostida noyob shahar-muzey, Sharq marvaridi sifatida targ'ib qilish rejalashtirilmoqda. Yilda bir marotaba Buxoroda Ibn Sino merosiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya o'tkazilib, unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tibbiyot sohasidagi eng yaxshi ilmiy ish

uchun Ibn Sino mukofoti topshiriladi. Bundan tashqari, har yili «Buxoro kuni», «Ipak va ziravorlar», «Buxoro qovunlari» festivallari tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "2017-2019 yillarda Buxoro viloyati va Buxoro shahrining turizm salohiyatini tezkorlik bilan rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaroriga muvofiq mazkur hududda erkin sayyohlik zonasi (ESZ)ni yaratish ko‘zda tutilmoqda.

"Boqiy Buxoro" erkin sayyohlik zonasida turli xizmat toifali mehmonxonalar, ko‘ngilochar va savdo inshootlari, shu jumladan 500 o‘ringa mo‘ljallangan amfiteatr, bouling-klublar, diskoteka, karaoke-barlar, kafe va restoranlar qurilishi rejalashtirilmoqda. Ushbu inshootlar bu qadimiy zaminga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarga kunu tun xizmat ko‘rsatadi. Mehmonlar bu erda milliy va dunyo taomlarini tatib ko‘rishlari, do‘konlardan suvenirlar va boshqa mahsulotlarni xarid qilishlari, ko‘ngilochar maskanlarda dam olishlari mumkin bo‘ladi.

Loyihada "Boqiy Buxoro" ESZ ishtirokchilari Prezidentning 2016 yil 26 oktabrdagi 4853-sonli PQda ko‘zda tutilgan barcha imtiyozlar va preferensiyalardan foydalanishi qayd etilgan.

Shuningdek Buxoroning tarixiy qismida ("Shahriston" bozori hududida) hunarmandlar dahasi va yopiq bozor bunyod etiladi. Bu maskan 2 qavatli uylar, an‘anaviy hunarmandchilik ustaxonalari, milliy suvenir mahsulotlari, zardo‘zlik buyumlari, kitoblar, meva va sabzavotlar, shirinliklar va sayyohlar orasida talabgor boshqa tovarlar sotiladigan do‘konlardan iborat bo‘ladi.

Yuqorida qayd etilgan loyihalarni amalga oshirish ishlari taxminan joriy yilning 1 iyulidan boshlanadi va 2018 yilning mart oyidan loyihaning birinchi bosqichi ishga tushishi ta‘minlanadi.

Xulosa: Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib Buxoro erkin iqtisodiy hududlari kesimida turistik zonalarini tashkil etish bo‘yicha quyidagi takliflarni kiritmoqchimiz:

1. Buxoro viloyati qadimiy tarixga ega bo‘lgan viloyat bo‘lganligi sababli, uning Yetti pirlari joylashgan barcha hududlarida "Erkin turistik zonalar" ni tashkil etish

2. "Boqiy Buxoro" erkin sayyohlik zonasida turli xizmat toifali mehmonxonalar, ko‘ngilochar va savdo inshootlari, shu jumladan 500 o‘ringa mo‘ljallangan amfiteatr, bouling-klublar, diskoteka, karaoke-barlar, kafe va restoranlar qurilishi jarayonlarini belgilangan tartibda amalga oshirish kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. "O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-sonli Farmoni

2. "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2021 yil 6 apreldagi PF-6199-sonli Farmoni

3. «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 6 fevraldagi PQ-3509-sonli qarori

4. «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi

6. <https://uzbekistan.travel/uz/turizm-qonunlari/>

7. <https://lex.uz/ru/docs/5283956?ONDATE=10.02.2021%2000>

8. <https://lex.uz/ru/>

MAMLAKAT ERKIN IQTISODIY HUDUDLARI KESIMIDA TURISTIK ZONALARNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI

I.G.Djabborov

Buxoro davlat universiteti

"Servis sohasi iqtisodiyoti" kafedrası

o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida man etilgan faoliyat turlari bundan mustasno. Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Erkin iqtisodiy zona O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tashkil etiladi. Erkin iqtisodiy zonaning maqomi, shuningdek uning qancha muddatga tashkil etilishi mazkur zonani tashkil etish to'g'risidagi qaror bilan belgilanadi.

Erkin iqtisodiy zonaning chegaralari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Erkin iqtisodiy zonaning faoliyat ko'rsatish muddatini uzaytirish belgilangan muddat tugashidan kamida uch yil oldin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan amalga oshiriladi.

Erkin iqtisodiy zonalarining turlari

- ✓ erkin iqtisodiy zonalar;
- ✓ erkin savdo zonalarini;
- ✓ erkin ishlab chiqarish zonalarini;
- ✓ erkin ilmiy-texnikaviy va boshqa zonalar tarzida tuzilishi mumkin.

Erkin savdo zonalarini konsignatsiya omborlarini, erkin bojxona zonalarini, shuningdek tovarlarga ishlov berish, ularni o'rash-joylash, saralash, saqlash zonalarini o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda ham mazkur sohada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 14 ta erkin iqtisodiy zona mavjud bo'lib, ulardan ayrimlarining faoliyati ancha jadallashgan. Xususan, "Navoiy", "Angren", "Jizzax", "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarida umumiy qiymati 486 million dollarga teng 62 loyiha amaliyotga tatbiq etilgan, qolaversa, 4 ming 600 dan ortiq ish o'rni yaratilgan.

Shuningdek, "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm", "Parkent-farm" singari farmatsevtika sohasiga ixtisoslashgan 7 yangi erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish bo'yicha ham barcha chora-tadbirlar ko'rilyapti.

Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zonalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, xorijdan yuqori texnologik uskunalarni xarid qilish uchun O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'i hisobidan 100 million \$ miqdorida chet el valyutasidagi kredit liniyasi ochilgan.

Bundan tashqari, kichik sanoat zonalaridagi direksiyalar kredit olish va bank xizmatlaridan foydalanishda har bir zonaga birlashtirilgan tijorat banklari bilan hamkorlikda ish olib borayotganligi ham muammolarni bartaraf etishda ayni muddatda bo'lmoqda. Bozor talablari va import nomenklaturasini o'rganish asosida tadbirkorlar uchun takliflar, istiqbolli loyihalar ro'yxati shakllantirilgan. Imtiyozlardan yana biri shuki, kichik sanoat zonasida ishlaydigan subektlar 2 yil barcha soliqlardan ozod etilgan.

Shuningdek, bo'sh turgan yoki samarasiz faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish binolaridan unumli foydalanish, yangi korxonalar tashkil etishni rag'batlantirish maqsadida mazkur binolar negizida kichik sanoat zonalarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytgacha mamlakatimizda ularning soni 96 taga yetdi.

Hozirgacha ushbu zonalarida umumiy qiymati 535 milliard so'mga teng 1021 loyiha amalga oshirilgan, 9 ming 600 dan ziyod ish o'rni yaratilgan. Loyihalar doirasida nafaqat ichki,

balki tashqi bozorda ham xaridorgir bo'lgan yengil sanoat, kimyo, oziq-ovqat mahsulotlari, elektr texnikasi buyumlari, zamonaviy qurilish materiallari, mebel va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari, kelgusida 248 loyihani amaliyotga tatbiq etilishi natijasida 11 ming yangi ish o'rnini yaratish rejalashtirilmoqda.

Lekin shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: mazkur yo'nalishda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanilyaptimi? Agar kichik sanoat zonalarining sarmoyalarni jalb qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishdagi o'rnini tahlil qiladigan bo'lsak, ularda hamon tashabbuskorlik yetishmasligi, faoliyatni rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish darajasi sustligi ko'zga tashlanadi.

Masalan, mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan loyihalarni ko'rib chiqish hamda muvofiqlashtirish jarayoni hamon murakkabligicha qolib, rasmiy xarakter kasb etmoqda. Afsuski, erkin iqtisodiy zona qatnashchilariga yer uchastkalari ajratish masalalarini hal etishda hanuz byurokratizm asoratlari saqlanib qolmoqda.

Ayniqsa, "Urgut", "Qo'qon", "G'ijduvon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini, shuningdek, farmatsevtika yo'nalishidagi erkin iqtisodiy hududlarda yangi korxonalar tashkil etish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish ishlari sust. Elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv va boshqa kommunikatsiya tarmoqlari bilan barqaror ta'minlashda ham muammolar kuzatilmoqda.

Vaholanki, mazkur hududlarda investor va tadbirkorlarga yanada keng imkoniyatlar yaratishga oid kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqishni davr taqozo qilmoqda. Avvalo, ushbu zonalar faoliyatiga doir me'yoriy-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish, zarur bo'lsa davr talablariga moslashtirish, barcha uchun ochiq va tushunarli mexanizm yaratish zarur.

Qolaversa, yer uchastkalari, bo'sh turgan binolarni ajratish tartibini ham soddalashtirish lozim. Masalan, erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshiriladigan loyihalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ma'muriy kengash tomonidan ko'rib chiqiladi. Shu paytgacha bu kengash 17 vazirlik va idoradan iborat edi. Prezident ko'rsatmasiga muvofiq, ularning soni 4 ta etib belgilandi. Shu bilan birga, yangi tizim — hududiy komissiyalar tashkil etilib, ularning loyihalarni ko'rib chiqish va ruxsat berish huquqlari kengaytirildi.

Bundan tashqari, hukumat tomonidan imtiyozlar yaratiladi. Iqtisodiy zonalarda joylashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish mezonini qayta ko'rib chiqilib, ishtirokchilarga kredit ajratishni yaxshilash hamda muhandislik ta'minoti vositalari bilan ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinadi.

2016 yil 2 dekabr oyida turizm sohasini har tomonlama rivojlantirishga mas'ul O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi. Turizm industriyasi mehmonxona biznesini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Respublikada turizm va sport sohasini yanada rivojlantirish, aholini jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, infratuzilmani yaxshilash, turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlash orqali turistlar sayohati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, madaniy merosni muhofaza qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligidan kelib chiqqan holda 2021 yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi tashkil etildi.

2016 yildanoq mamlakatimizda turizm sohasi iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida belgilandi. Qabul qilingan farmon va qarorlar asosida sohadagi imkoniyatlar kengaytirildi. "Fuqarolaridan yurtimizga viza talab etilmaydigan mamlakatlar soni 9 tadan 86 taga yetkazildi, 53 ta davlat uchun "elektron viza" tizimi joriy etildi". Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida davlat budjetidan subsidiyalar ajratish amaliyotlari yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimiz turizm salohiyatidan samarali foydalanish, milliy madaniy merosni milliy va xalqaro jamoatchilikka keng targ'ib qilish, ziyorat turizmi, ekologik turizm, gastronomik turizmni hamda ularning infratuzilmasini rivojlantirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilib

kelinmoqda. 2021 yilda hududlar miqyosida turizm infratuzilmasi dasturi uchun ajratilgan mablag'lar quyidagicha bo'lgan.

2021 yilda turizm infratuzilmasi dasturi uchun hududlar kesimida ajratilgan mablag'lar, mlrd so'mda.

2-jadval

Viloyatlar	mlrd so'm
Andijon	29,9
Buxoro	82,9
Jizzax	91,5
Qashqadaryo	85
Navoiy	54,7
Namangan	37,5
Samarqand	135,1
Surxondaryo	57,1
Sirdaryo	4,5
Toshkent	48,4
Farg'ona	33,8
Xorazm	238,4
Toshkent shahri	16,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	84,9

Faqatgina davlat budjeti mablag'lari yoki bank kreditlari hisobidan moliyalashtirish orqali hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini moliyalashtirish asosida mintaqalar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish imkonsiz. Bu borada xususiy sektorning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish, davlat va xususiy sektor hamkorligi (sherikligi) asosida loyihalarni amalga oshirish ham oldimizdagi strategik vazifalar ijrosida muhim o'ringa ega. Ayni imkoniyatlardan foydalangan holda energetika, kommunal xizmatlar, sog'liqni saqlash, suv xo'jaligi, ta'lim, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi sohalarda hududlar kesimida qariyb 2,2 milliard AQSh dollariga teng qator loyihalar amalga oshirilmoqda

Samarqand viloyatining Urgut tumani, Buxoro viloyatining G'ijduvon tumani, Farg'ona viloyatining Qo'qon shahri va Xorazm viloyatining Hazorasp tumanlarida "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalari tashkil etiladi. Farmon O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 12-yanvarda imzolandi.

"Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" EIZ faoliyat ko'rsatish muddati, keyinchalik uni uzaytirish imkoniyati bilan 30 yilni tashkil qiladi. Bu davr mobaynida mazkur EIZlar hududlarida alohida soliq, bojxona va valyuta rejimi amal qiladi EIZ hududlarida logistika markazlari va bojxona postlari tashkil etiladi.

Tashkil etiladigan erkin iqtisodiy zonalari direksiyalari erkin iqtisodiy zonalarning butun faoliyat ko'rsatish davrida soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilinadi.

Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Xorazm viloyatlari hokimliklari O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi bilan birgalikda bir oy muddatda "Urgut" EIZ, "G'ijduvon" EIZ, "Qo'qon" EIZ va "Hazorasp" EIZ tarkibiga kiritish uchun yer uchastkalari chegaralarini o'rnatish va ularning belgilangan tartibda ajratilishini ta'minlash taklif etildi.

Quyidagilar "Urgut" EIZ, "G'ijduvon" EIZ, "Qo'qon" EIZ va "Hazorasp" EIZning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgilandi.

✓ tashqi bozorlarda talab katta bo'lgan va importning o'rnini bosuvchi, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investorlarning to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarini jalb etish;

✓ Samarqand, Buxoro, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatlaridan kompleks hamda samarali foydalanishni ta‘minlash;

✓ meva-sabzavot va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash va qadoqlash, to‘qimachilik, gilam to‘qish, poyabzal va charm-galantereya, ekologik jihatdan xavfsiz kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa yo‘nalishlarda yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish;

✓ mahalliy xomashyo va materiallar negizida mustahkam kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish hamda erkin iqtisodiy zonalar korxonalari o‘rtasida va umuman respublikada sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

✓ ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni standartlashtirish, sertifikatlashtirish va markirovka qilish bo‘yicha xalqaro standartlarga muvofiq ilmiy-ishlab chiqarish markazlari tashkil etish va ularning qarorlari xalqaro darajada e‘tirof etilishini ta‘minlash chora-tadbirlarini ko‘rish.

“Urgut” EIZ, “G‘ijduvon” EIZ, “Qo‘qon” EIZ va “Hazorasp” EIZning faoliyat ko‘rsatish muddati, keyinchalik uni uzaytirish imkoniyati bilan 30 yilni tashkil qiladi, faoliyat ko‘rsatish muddati mobaynida “Urgut” EIZ, “G‘ijduvon” EIZ, “Qo‘qon” EIZ va “Hazorasp” EIZ hududlarida alohida soliq, bojxona va valyuta rejimi amal qiladi.

“Urgut” EIZ, “G‘ijduvon” EIZ, “Qo‘qon” EIZ va “Hazorasp” EIZ direksiyalari erkin iqtisodiy zonalarining butun faoliyat ko‘rsatish davrida soliqlar va davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar to‘lashdan ozod qilindi.

Hududning sayyohlik rayonlari juda muhim vazifadir, chunki uning yechimi katta samaradorlikka, shuningdek, odamlarni dam olish va ularning madaniyatini rivojlantirish uchun minimal darajada ta‘sir qilish. Turistik rayonlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va ularni yanada rivojlantirish hali ham rivojlanmagan joylarda turizmni rivojlantirish uchun yangi sayyohlik resurslari va turizmni rivojlantirish uchun yangi turistik manbalar va boshqa shartlarni aniqlash imkonini beradi; turli buyurtmalardagi yangi sayyohlik yo‘nalishlarini ajratish va yaratish; ularning sayyohlik ixtisosligini to‘g‘ri aniqlang; ba‘zi joylardan sayyohlikni rivojlantirish tajribasiga dosh berish, shunga o‘xshash sharoitlar bilan boshqa joylargacha; Turistik hududlar sharoitida turli xil darajada.

Turistik rayonlashtirish - hududlar maxsus belgilari bilan aniqlangan va bir-biridan farq qiladigan turistik tumanlar va alomatlarining og‘irligi darajasiga ajratilgan hududga a‘zolik jarayoni. JST dunyoning beshta yirik sayyohlik mintaqasini ajratadi: Yevropa, Amerika, Janubiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo Okeaniya, Afrika, o‘rta va Yaqin Sharq.

Aholining sayyohlik shirkatining uy sharoitida rayonlashtirish tizimining quyidagi tizimi qo‘llaniladi: zona, maydon, er, mikrodiqa, mikrodiqa, ob‘ekti, ob‘ekt. Bu tushuniladi: sayyohlarni jalb qilish, boshqa sayyohlik ob‘ektlari (mehmonxonalar, sanatoriya, sayyohlarni o‘z ichiga olgan hududning ikki yoki undan ortiq markazi mavjud bo‘lgan milliy hududning bir qismi uylar va boshqalar). Geografik fanda "Turistik zonasi" tushunchasi turizm sohasidagi hududiy buxgalteriya hisobini keng qamrovga ega va aks ettiradi.

Darvozalarning navbatdagi bosqichida ustunlik, diqqatga sazovor bo‘lib, turistik korxonalarining yetakchi funksiyalariga e‘tibor qaratildi: terapevtik, quduq, sayyohlik, ekskursiya. Ushbu shakllar joylashtirilgan. Xoliy hudud tushuniladi, ular sayyohlik infratuzilmasi va ixtisoslashuv ob‘ektlariga ega tabiiy va tarixiy va madaniy resurslar kombinatsiyasi bilan ajralib turadi.

Tumanlar davomida ajratish turistik hudud geografik joylashuvi, bir hil turistik resurslar va sayyohlik muassasalariga ixtisoslash uchun bir xil turistik manbalar va tor imkoniyatlar bilan tavsiflanadi. Sayyalistlar erida dam olish maskanlari, dam olish maskanlari va turizmga asoslangan zaruriy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu turistik institutlar va ixcham hududda joylashgan turli turistik institutlar va aloqa bo‘limlarining markazlashtirish va hamkorligi bilan o‘zaro bog‘langan muhandislik va ichki tizimlarning kombinatsiyasi sifatida tushuniladi.^[4]

Ko'pincha turistik zonalar turistik atamalar va turistik resurslarga boy ajratilgan. Ushbu atama turizm yaxshi rivojlangan joylar uchun ishlatiladi, ya'ni hududning aksariyati sayyohlar tomonidan jadal tashrif buyuradi. Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotning individual hududlari va butun mamlakatlar, shuningdek ularning landshaftlari, aholining hayoti, aholining hayoti, iste'mol resurslarini, iste'mol resurslarini va boshqalarga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu hududlarning qiyofasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, ko'pincha ularning ixtisosligini o'zgartiradi, bu esa muhim hududni shakllantiruvchi omil sifatida harakat qiladi.

Dam olish joyiga, shuningdek xalqaro turizm sohasida ushbu sohani rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan eng birlashtirilgan talablar: 1) tabiiy-iqlim jozibadorlik; 2) madaniy va tarixiy resurslar; 3) yuqori sifatli mehmonxonalar va turistik turar joy, ovqatlanish, sayyohlik infratuzilmasida mavjud bo'lgan jahon standartlari, madaniy va ekskursiya dasturlari mavjudligi; 4) operatsion transport va ma'lumotlar mavjudligi; 5) mintaqadagi siyosiy barqarorlik va shaxsiy xavfsizlik kafolati; 6) xalqaro shuhrat va saytning obro'si.

Bizlar majmui taklif etadigan tizim har doim ham aniq chegaralar mavjud emas. Bu mintaqaning bir qismi va sayyohlarni joylashtirishni tashkil etish uchun barcha zarur moddiy bazaga ega bo'lgan sayyohlik markazi bo'lishi mumkin. Bunday hudud har qanday sohani, mamlakat va hatto bir guruh mamlakatlarni, sayyoh sayohat maqsadida sayyoh tanlaydi.

"Turistik mintaqa" tushunchasida biz asosiy nuqtai nazarni ko'rib chiqamiz va biz uni konsepsiyasiz deb ta'riflaymiz. JSTni aniqlaydi sayyohlik mintaqasi Dam olish yoki tiklanishni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan maxsus tuzilmalar va xizmatlarning katta tarmog'i bo'lgan hudud sifatida. Turistik mintaqa, sayyohlar tomonidan, turistlar tomonidan turistik mintaqada bo'lish uchun barcha zarur sharoitlarga ega bo'lishi kerak, bu turistik mintaqa sayyoh tanlaydi yoki sayyohlar guruhi yoki bir guruh sayyohlar va xizmat ko'rsatadigan joy sifatida belgilanishi kerak. Xizmatlar ishlab chiqaruvchisi tomonidan sotiladi. Shunday qilib, turistik mintaqa sayohatning maqsadi va turistik mahsulot Xuddi shu paytni o'zida.^[5]

Turistik yo'nalishlar quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi: a) shaklning vaqti, shakllanishning tarixiy xususiyatlari; b) tabiiy, tarixiy va madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va aholi shart-sharoitlarini v) turistik infratuzilmani rivojlantirish darajasi; d) turistik mutaxassislik.

Biroq, hech qanday mintaqa sayyohga aylana olmaydi, faqat turistlar (pul o'tkazma, turar joy va ovqatlanish darajasi tegishli xizmat ko'rsatish darajasi bilan jihozlangan xizmat ko'rsatish) kerak. b) odamlarning qiziqishini bilgan sayyohlarni jalb qilish uchun jalb qilish bu mintaqa va boshqalar bilan raqobat yaratish; v) turistik bozorda ishlashning muhim vositasidir.

Muvaffaqiyatli rivojlanish jarayonida har qanday sayyohlik mintaqasi ma'lum bir rivojlanish davridir. Dastlab, odamlar mintaqasiga kelishning asosiy sabablari qarindoshlari va do'stlariga, shuningdek xizmat safarlariga tashrif buyurishdir. Keyin tashrif buyuradigan mintaqaning tabiiy va madaniy diqqatga sazovor joylariga qiziqish bor. Ushbu ehtiyojlar mavjud xizmat ko'rsatish sektori bilan osongina qondiriladi va tashrif buyuruvchilar yaxshi taassurotlar bilan ketishmoqda.

Yangi qonunning alohida bobi turistik zonalar va klasterlarga bag'ishlangan. Birinchisi uchta turga bo'linadi: erkin turistik zona kichik turistik zona va maxsus turistik zona. Turistik klaster - kompleks turistik xizmatlar hamda turistning va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan boshqa qo'shimcha xizmatlar ko'rsatuvchi mustaqil tashkilotlar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar majmui.

Quyidagilar tarmoqni davlat tomonidan tartibga solish dastaklari hisoblanadi:

- turoperatorlar va turagentlarni litsenziyalash (*ekskursiya xizmatlari ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga litsenziya talab qilinmaydi*).

- turoperator xizmati, joylashtirish vositalari, tog' chang'isi trassalari va plyajlar, shuningdek gidlar (gid-tarjimonlar), ekskursiya yetakchilari va yo'riqchi-yo'l boshlovchilarni majburiy ravishda sertifikatlashtirish;

- turoperatorlik, turagentlik faoliyatini va turistik industriya ob'ektlarini standartlashtirish.

Bundan tashqari, qonunda turistik mahsulotni shakllantirish, targ'ib etish va realizatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari, soha sub'ektlarining huquq va majburiyatlari, ularni birlashtirish tartibi, shuningdek turistlar va ekskursantlarning xavfsizligi kafolatlari aks etgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017—2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyati sayyohlik imkoniyatlarini jadallik bilan rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida Buxoroda hududi 10 gektardan kam bo'lmagan "Boqiy Buxoro" nomli erkin turistik zona yaratiladi. Bu haqda Norma axborot-huquq portali [xabar bermoqda](#).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017—2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyati sayyohlik imkoniyatlarini jadallik bilan rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida Buxoroda hududi 10 gektardan kam bo'lmagan "Boqiy Buxoro" nomli erkin turistik zona yaratiladi.

Xorijiy sayyohlarga to'liq dam olish imkoniyatini yaratish maqsadida ETZ hududida turli darajada xizmat ko'rsatish qulayliklariga ega mehmonxonalar, ko'ngilochar va savdo muassasalari, xususan, 500 kishilik amfiteatr, bouling-klublar, raqs maydonlari va karaoke, milliy taomlar va dunyoning mashhur oshxonalarini taqdim etuvchi bar, kafe, restoranlar, suvenirlar va boshqa mahsulotlar do'konlari qurilishi ko'zda tutilmoqda.

Mamlakat erkin iqtisodiy hududlari kesimida turistik zonalarni tashkil etish jarayonini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari tavsiflangan va tahlil qilingan. O'zbekiston erkin iqtisodiy hududlar, ularning qonuniy tashkil etilishi, uning tor doiradagi va keng doiradagi tahlili amalga oshirilgan. O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risi"dagi Qonuniga muvofiq Erkin iqtisodiy zona — mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududlar bo'yicha talablar tartibi ko'rsatilgan. Mamlakat erkin iqtisodiy hududlari kesimida turistik zonalarni tashkil etish jarayonini takomillashtirishga doir takliflar keltirilgan.

1. Har yili mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun mavjud infratutilmalarni rekonstruktsiya qilish

2. Buxoroni «Tabarruk Buxoro — muqaddas Islom markazi» shiori ostida noyob shahar-muzey, Sharq marvaridi sifatida targ'ib qilishni qonuniy tartibda yo'lga qo'yish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 17 fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PF-4853-sonli farmoni. 2016 yil 26 oktabr
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-sonli Farmoni
4. «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-sonli Farmoni
5. «O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sonli
6. <https://tohostel.ru/uz/shengen/osobye-turisticheskie-zony-turistskie-regiony-i-zony-gornolyzhnyi-kurort-v/>
7. <https://btet.ru/uz/citizenship-of-the-russian-federation/osobye-turisticheskie-zony-turistskie-regiony-i-zony-prirodoohranye-funkcii-rekreacionnyh-zon/>

МЕВА-САБЗАВОТЧИЛИК ТАРМОҒИ РИВОЖИДА КЛАСТЕРЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Собир Хасанов
ТИҚХММИ мустақил изланувчиси

Маълумки мамлакатимиздаги мавжуд табиий-иқлим шароити қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини, хусусан мева-сабзавотчиликни барқарор ривожлантириш имконини беради. Шу боис, мустақилликка эришилгандан сўнг ушбу тармокни ривожлантиришга катта эътибор берилмоқда. Яъни Ўзбекистон Республикаси Президенти ва ҳукумати томонидан соҳани бозор муносабатларига ўтиш жараёнида мева-сабзавотчиликни ривожлантиришга устувор йўналишлар сифатида катта эътибор қаратилди.

Жорий йилнинг октябрь ойига келиб дунё аҳолиси 7,9 млрд.га етди¹. Статистик маълумотларга кўра, 2030 йилга бориб улар сони 8,5 млрд.га етиши кутилмоқда. Шу даврда Ўзбекистон аҳолиси 14 % га ошиб 39 млн кишини ташкил этади². Бундай ҳол инсон эҳтиёжи учун зарур бўлган маҳсулотларга бўлган талабнинг ошиб боришига сабаб бўлади. Ўз навбатида юртимизда мева-сабзавотчилик маҳсулотларининг юқори ҳосилдор янги навлари яратишни тақозо этади. Жумладан, мамлакатимизда қишлоқ хўжалигини барқарор суръатлар билан ривожланиб бориши мева-сабзавотчилик тармоғида ҳам ўз аксини топмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29.03.2018 йилдаги “Ўзбекистон Республикасида мева-сабзавотчиликни жадал ривожлантиришга доир кўшимча чоратadbирлар тўғрисида”ги ПФ-5388-сон фармонида – “...хорижий мева-сабзавот маҳсулотлари бозорларидаги юқори даражадаги рақобат агротехниканинг ҳамда ишлаб чиқариш ва маҳсулот етказиб бериш жараёнларини бошқаришнинг замонавий услубларини жадал равишда жорий этишни талаб қилмоқда”, бунинг учун, “мева-сабзавот кластерларига ички ҳамда ташқи бозордаги эҳтиёж ва тупроқ-иқлим шароитларини ҳисобга олган ҳолда қишлоқ хўжалиги экинларини экиш, маҳсулот етиштириш ҳажми, уларнинг нави ва турини белгилаш, шунингдек, фермер ва деҳқон хўжаликлари билан улар томонидан тайёрланаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сотиб олиш юзасидан шартномалар тузиш бўйича мустақил қарор қабул қилиш ҳуқуқи тақдим этилсин”, - деб қайд этилган.

Таҳлилларимиз шуни кўрсатмоқдаки, мева-сабзавотчилик фермер хўжаликлари, кластер ва кооперациялари учун кўшимча имтиёз ҳамда имкониятлар: айланма маблағлар учун паст фоизли кредит ресурслари ажратилиши, экспорт шартномаси бўлган кластер ва фермерларга суғурта мукофотининг ҳамда техника сотиб олиш бўйича кредитларнинг маълум бир қисмини давлат томонидан қоплаб берилиши, импорт қилинадиган техника ва эҳтиёт қисмлар божхона тўловларидан озод этилиши соҳани барқарор ривожланишига сезиларли туртки беради.

Мева-сабзавотчилик соҳасини иқтисодий томондан ўсиши мавжуд ички ресурслардан фойдаланишни янада кенгайтириш ҳисобига бўлиши керак эмас, балки маҳсулотларни сифат жиҳатидан замон талабларига жавоб берадиган рақобатбардош ишлаб чиқариш кооперацияси ва кластерлар тизимини жорий этиш ҳисобига эришиш мумкин.

Мева-сабзавотчилик тармоғидаги кластерлар бу маълум бир йўналишдаги маҳсулотларни ишлаб чиқаришда қиймат яратиш занжирининг бўғинларини бир бири билан бирлаштирувчи ва умумий имкониятлар яратувчи ишлаб чиқарувчилар мажмуасидир. Кўпгина мамлакатларда мева-сабзавотчилик тармоғидаги кластерларни ривожлантириш қишлоқ аҳолиси фаровонлигини ошириш, экспорт потенциалини ривожлантиришда муҳим қадам ҳисобланади.

¹ <https://countrymeters.info/ru/World>

² <https://parliament.gov.uz/uz/events/committee/31987/>

1970 йилларда швед иқтисодчилари К.Фредриксон ва Л.Линдмарклар чегараланган ҳудудда корхоналарни тўпланишини белгилашда кластер атамасидан фойдаланган¹. Илмий жараёнга XX асрнинг 80 йилларидан сўнг М.Портер томонидан “кластер” атамаси иқтисодий категория сифатида киритилди².

Мева-сабзавотчилик тармоғини кластерлар ёрдамида ривожлантириш бошқа ривожланиш моделларига нисбатан афзалликларга эга. Кластерларда ҳар бир ишлаб чиқариш занжиридаги иштирокчилар иқтисодий алоқаларга киришганда инновацион усулларни қўллашни талаб қилади. Кластерларни ташкил қилишда қатнашувчиларнинг асосий вазифаси бу ишлаб чиқарувчиларни горизонтал ва вертикал интеграциясини самарали ташкил этиб улар орасида инновацияни тарқалишини таъминлашдир. Энг муҳими, кластерлар ташқи ижобий эффектлар (*externalities*) яратади ва янги бозорларни кашф этиш ва маълумотларни тарқалишига ижобий таъсир кўрсатади.

Bosworth and Broun (1996) фикрича кластерлар бу бир географик манзилда жойлашган ишлаб чиқарувчиларни биргаликда ўз манфаатларини оширишидир. Porter (1998) эса бу таърифни кенгайтирган ҳолда “маълум бир соҳада бир бири билан боғланган иштирокчиларни географик концентрацияси” деб атайди.

Умуман олганда, кластерлар ривожини доимо рақобатбардошлик ва инновация тушунчалари билан чамбарчас боғлиқдир. Кластерлар аввало инновациялар асосий кадрият ҳисобланган секторларда ривожланади. *АКТ, электроника, автомобил саноати, биотехнология, нефт-газ* саноатларида кластерлар ривожини узоқ тарихга эга.

Жаҳон тажрибасига эътибор қаратадиган бўлсак, барча ҳудудларда кластерларнинг маълум бир турлари ривожлантирилган. Улар ушбу ҳудудларнинг иқлими ва асосий ташқи савдо ҳамкорларининг талабидан келиб чиққан ҳолда ривожланиб келган. Кластерларни самарали ташкил қилишда ҳар бир мамлакатнинг ўз тажрибаси ва алоҳида сиёсати мавжуд. Масалан Лотин Америка мамлакатларига эътибор қиладиган бўлсак, уларда асосан вино, балиқ, мевалар, гуллар ва кофе ишлаб чиқаришга мослашган йирик кластерлар муваффақиятли ривожланган. Осиё мамлакатларини қарайдиган бўлсак, уларда турли илдизлар, балиқ, узум ва уй ҳайвонларини ишлаб чиқариш алоҳида эътиборга молик. Африка мамлакатларида асосан балиқ, гул, вино ва кофега ихтисослашган кластерлар кенг ривожланган.

Барча ҳудудлар тажрибасини умумлаштирадиган бўлсак, кластерлар асосан жаҳон савдосида доминант позицияга эга бўлган маҳсулотларни ишлаб чиқаришда алоҳида сезиларли натижаларга эга бўлади. Экспортга асосланган кластерлар ички бозорга ихтисослашган кластерларга нисбатан кўпроқ натижаларга эришади. Экспортга асосланган кластерларда бир бири билан муносабатларга киришишдан келадиган манфаатлар юқори бўлади. Бунга асосан талаб эгри чизигининг эластиклигининг юқорилиги, кластер ичидаги рақобатнинг чекланганлиги, иштирокчилар ўртасидаги муносабатлар рискларини камайтириши ва сифат ҳамда хавфсизлик стандартларини таъминлаш харажатларига таъсири юқорилиги сабаб бўлади.

Кластерлар ривожини ушбу секторларга киритилган хорижий инвестициялар муҳим роль ўйнаган. Хорижий инвестициялар орқали бу секторлар янги технологияларга эга бўлиб ўзларининг рақобатбардошлигини оширишга эришилган. 1998-2000 йилларда Лотин Америка мамлакатларининг вино кластерларига 600 миллион доллардан ортиқ хорижий инвестициялар киритилган. Бунинг натижасида Уругвайда вино экспорти 700 фоизга ва Аргентинада 200 фоизга ошган.

Ҳар бир мамлакатда кластерлар ривожининг ўзаги сифатида кластерлар аъзоларини жамоавий ҳаракати қаралади. Мувофиқлаштирилган жамоавий ҳаракатларсиз кластерларни ривожлантиришни фараз қилиб ҳам бўлмайди. Кластер муносабатларининг

¹ Spatial analysis, industry and the industrial environment. Progress in research and applications. Vol. 1. Industrialsystems / Edited by F. E. I. Hamilton and Linge G. J. R. Chichester, N. Y, Brisbane, Toronto: Wiley, 1979.

² Porter, M. 1998. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review. Available at: <http://hbr.org/product/clusters-and-the-new-economics-of-competition/an/98609-PDF-ENG>

асл маъноси ҳам ўзаро ҳаракат орқали манфаатни оширишдир. Рақобатбардошликни ошириш учун кластерлар ичида ўзаро қуйидаги жамоавий ҳаракатлар амалга оширилиши лозим:

- логистика, хом ашё ва керакли ишлаб чиқариш омилларини етказиш, молиявий масалаларини мувофиқлаштириш;
- инфратузилма, илмий ишланмалар каби жамоавий хизмат ва товарларни яратиш масалаларини ҳал этиш;
- кластернинг ишлаб чиқариш, логистика ва режалаштириш ҳамда мониторинг масалаларини ҳал этиш;
- мамлакат-махсулот брендларини ривожлантириш, бизнес стратегияларни ишлаб чиқиш ва имплементация қилиш, бозор бўйича тадқиқотлар ўтказиш ва маркетинг стратегияларини амалга ошириш;
- жамоа сифатида технологик жараёнларни танлаш ва сифат, хавфсизлик, экологик ҳамда ижтимоий стандартларни таъминлаш.

Мева-сабзавотчиликка ихтисослашган кластерларда соҳани замонавий-инновацион техникалар билан таъминлашга муҳим эътибор қаратилиши лозим. Бу эса ўз навбатида соҳанинг механизация даражасини ошириш, агротехник тадбирларни ўз вақтида бажариш ҳисобига харажатлар камайиб ҳосилдорликни сезиларли ошириш имкониятини беради. Бундан ташқари кластерлар фаолиятининг ҳуқуқий кафолатларини янада кучайтириш бўйича тизимли ишлар амалга оширилишини талаб этмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг ҳозирги босқичида ушбу чора-тадбирларни амалга ошириш мева-сабзавотчиликни узок муддат барқарор ривожланишини таъминлаб, тармоқ самарадорлигини ошириш орқали Республикада озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талабни узлуксиз қондириш, унинг хавфсизлигини таъминлаш, экспорт географиясини кенгайтириш ҳамда аҳолининг турмуш шароитини янада ошириш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида мева-сабзавотчиликни жадал ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 29 март 2018 йил, ПФ-5388-сон фармони.
2. “Мева-сабзавотчилик ва узумчилик тармоғини янада ривожлантириш, соҳада қўшилган қиймат занжирини яратишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2019 йил 11 декабрь, ПҚ-4549-сон қарори
3. “Узумчиликни ривожлантиришда кластер тизимини жорий этиш, соҳага илғор технологияларни жалб қилишни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2021 йил 28 июнь, ПҚ-5200-сон қарори.
4. “Боғдорчилик ва иссиқхона хўжалиklarини ҳамда мева-сабзавот кластерларини қўшимча молиявий қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 19 февраль, ВМҚ-102-сон қарори.
5. <https://countrymeters.info/ru/World>
6. <https://parliament.gov.uz/uz/events/committee/31987/>

III ШЎБА. ПАНДЕМИЯДАН КЕЙИНГИ ДАВРДА ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИ ВА ИНФРАТУЗИЛМА СУБЪЕКТЛАРИ ЎРТАСИДА КООПЕРАТСИЯГА АСОСЛАНГАН ЛОГИСТИКА ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

ҚАЙТА ИШЛАШ БОЖХОНА РЕЖИМИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТОВАРЛАРИНИ РАСМИЙЛАШТИРИШ ТАЛАБЛАРИНИ СОДДАЛАШТИРИШ

А.Кучаров ТДИУ профессори

Ҳозирги жаҳон иқтисодиётига интеграллашув жараёнида Ўзбекистонда олиб борилаётган бозор ислохотлари тадбиркорлик субъектларининг ташқи иқтисодий фаолиятни амалга ошириш механизмида туб ўзгаришлар қилинишини талаб этмоқда. Ушбу жараёни амалга ошириш божхона органларига уларнинг ваколатларидан келиб чиққан ҳолатда бир қанча вазифаларни юклайди.

Интеграцион жараёнлар, кооперация ва ишлаб чиқаришни ихтисослашуви натижасида ташқи иқтисодий битимларнинг ўсиши билан иқтисодий режимлар пайдо бўлди, улар орасида Ўзбекистон Республикасига олиб кириладиган ёки ундан олиб чиқилаётган товарларга нисбатан божхона тўловлари бўйича муайян имтиёзлар бериш имконияти мавжуд қайта ишлаш божхона режимларининг ўрни алоҳида. Қайта ишлаш божхона режимларининг мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришдаги асосий ўрни, корхоналарнинг ишлаб чиқариш қувватларини максимал сарфлаган ҳолда янги иш ўринлари яратиш ва аҳолини иш билан таъминлашда намоён бўлади.

Бугунги кунда мамлакатимизда олиб борилаётган иқтисодий ислохотлар Аҳоли бандлиги ва даромадларини оширишга ҳар томонлама қўмаклашиш ва уларнинг турмуш тарзини яхшилашга қаратилмоқда. Чунончи, мухтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев 2020 йил 24 январдаги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига қилган Мурожаатномасида таъкидлаганидек: “...биз янги иш ўринларини яратадиган тадбиркорларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлашимиз, таъбир жоиз бўлса, уларни елкамизда кўтаришимиз керак. Очiq бозор маҳсулот сифатини ошириш, таннархни пасайтириш, янги технологиялар олиб келишга мажбур қилади, бозор ислохотларини жадал ривожлантиради. Содда қилиб айтсак, жаҳон ишлаб чиқариш тизимида, дунё бозори талабларига ва иқтисодий интеграция жараёнларига ҳамоҳанг бўлишимиз лозим”.

Қайта ишлаш режимлари талабларини соддалаштириш ва оптималлаштиришни тадқиқ этишда жаҳон тажрибаси муҳим аҳамият касб этади. Қайта ишлаш режимларини қўллаш механизмини қиёслаш методи орқали тадқиқ қилиш ушбу режимлар ривожланишининг замонавий тенденцияларига объектив баҳо бериш имкониятини юзага келтиради.

Божхона ҳудудида қайта ишлаш божхона режими ўз маҳсулотини экспорт қилувчи корхоналарга, четдан божхона тўловларисиз маҳсулот хомашёсини ёки таркибий қисмларидан бирини олиб кириш имкониятини яратади. Ушбу жараён юқори иқтисодий наф келтиришига қарамадан Ўзбекистон тадбиркорлари томонидан жуда ҳам кам ҳолатларда қўлланилмоқда. Бунинг сабабларидан бири бу тадбиркорларимизда уни қўллаш хусусиятлари тўғрисида етарлича маълумотлар йўқлиги бўлса, бошқа сабаблардан бири эса амалиётда ушбу режимни қўллайдиган корхоналар томонидан божхона расмийлаштируви жараёнида турли-туман тўсиқларга дуч келишларида деб ҳисоблаймиз.

2017-2019 йиллар давомида Божхона ҳудудидан ташқарида қайта ишлаш божхона режимини 115 та (2019 йилда 73 та) корхоналар ўз фаолиятларида қўллашган. Қайта ишлаш учун олиб чиқилган товарларнинг умумий божхона қиймати 458,7 млн. АҚШ долларини (2019 йилда 185,8 млн. АҚШ доллари) ташкил қилган. Божхона ҳудудидан ташқарида қайта ишлаш божхона режимини қўллашда асосий ҳамкор давлатлар сифатида Россия, Сингапур, АҚШ, Швейцария, Украина, Италия ва Канада иштирок этишди (1-жадвал).

**Божхона ҳудудидан ташқарида қайта ишлаш божхона режимини қўллашда
Ўзбекистон корхоналари асосий ҳамкорлик қилувчи ҳамкор давлатлар (2017-2019
йилларда)**

1-жадвал

Давлатлар	Қиймати, млн. АҚШ доллари	Улуши, %
РОССИЯ	83,1	29,0%
СИНГАПУР	62,8	21,9%
АҚШ	44,9	15,6%
ШВЕЙЦАРИЯ	38,9	13,6%
УКРАИНА	15,4	5,4%
ИТАЛИЯ	12,8	4,4%
КАНАДА	10,9	3,8%

Юқоридаги жадвалда номи қайд этилган мамлакатлар иқтисодий жиҳатдан ривожланган мамлакатлар бўлиб, божхона ҳудудидан ташқарида қайта ишлаш божхона режими асосан шундай мамлакатлар билан ҳамкорлик қилишни тақозо этиши тўғрисида хулоса қилишимиз мумкин.

Шунга кўра қайта ишланган маҳсулотларни ёки таъмирланган товарларни импорт қилишда берилган имтиёзларни ҳам алоҳида таҳлил қилишимиз келгусида режимдан фойдаланишни оптималлаштиришга таъсирини кўрсатмай қолмайди. Қуйидаги расмда сўнгги уч йилда режимдан фойдаланиш доирасида қўлланилган имтиёзлар товарларни олиб чиқиш мақсадига кўра таҳлил қилинган.

Ўзбекистон Республикасида ҳам божхона ҳудудида қайта ишлаш божхона режимидан фойдаланишни ривожлантирган ҳолда **божхонани иқтисодиётнинг таянчига айлантириш** учун барча имкониятлар мавжудлигини қуйидаги таҳлиллардан кузатиш мумкин:

биринчидан, Ўзбекистоннинг Марказий Осиё давлатлари ўртасида аҳоли сони жиҳатидан энг кўп (35 млн.) эканлиги унда арзон ишчи кучини таъминлаб беради;

иккинчидан, 2017-2019 йилларда мамлакатимизга хориждан қиймати 11 миллиард 38 миллион АҚШ долларига тенг бўлган технологик асбоб ускуна келтирилган;

учинчидан, минтақадаги бошқа давлатларда Ўзбекистон Республикасидаги каби ишлаб чиқариш имкониятлари яхши ривожланмаган.

Мамлакатимиз иқтисодиёти индустриал-аграр яъни саноатлашган тузилишга эга иқтисодиётлардан бири ҳисобланади. Бунда саноатнинг ишлаб чиқариш (қайта ишлаш) тармоғи салмоқли ўринга эга бўлиб, бу кўрсаткич 2019 йилда 79,9% ни ташкил этди. Иқтисодиётнинг қайта ишлаш саноати ҳақида гап кетганда кўз олдимизга юқори қўшилган қийматга эга товарлар келади. Бундай қийматни яратишда маҳаллий хомашёни қайта ишлаш билан бир қаторда четдан хомашёни олиб келиб қайта ишлаш айти муддаодир. Қайта ишлаш саноатини таҳлил қилиш 2 томонлама ёндашувни тақозо этади. Биринчи ёндашувда асосий кўрсаткич мамлакатда яратилаётган маҳсулотларнинг қайта ишланганлик даражаси ҳисобланса, ташқи иқтисодий фаолиятга боғлаган ҳолда таҳлил қилинганда эса экспортда қайта ишлаш саноатининг улуши, яъни экспорт қилинаётган товарлар таркибида вақтинчалик товарлар асосий мезон сифатида намоён бўлади. Бунга биргина мисол сифатида Туркия давлати статистик кўрсаткичларига назар ташласак 2020 апрель ойида экспорт қарийб 9 млрд. АШҚ долларини, шундан қайта ишлаш саноати 92,7% ни, вақтинчалик товарлар эса 73,8% ни ташкил этди.

Давлат божхона кўмитаси, Савдо саноат палатаси, Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги, Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги, «Ўзсаноатэкспорт» АЖ ҳамда экспортёр корхона вакиллари иштирокида айнан қайта

ишлаш божхона режимларига бағишланган семинарларнинг мунтазам равишда ташкил қилиниши орқали, тадбиркорлар ва давлат органлари ўртасида мулоқотнинг йўлга қўйилишига, режимдан фойдаланишда юзага келаётган тўсиқларнинг бартараф этилишига эришилади.

Президентимиз фармонлари билан тадбиркорларга енгиллик яратиш, божхона ҳудудида қайта ишлаш божхона режими шартларини соддалаштириш мақсадида «божхона ҳудудида қайта ишлаш» божхона режимида қайта ишлаш маҳсулотларининг чиқиш нормаси ва идентификациялаш услубияти тадбиркорлик субъекти томонидан ишлаб чиқилиши белгиланди. Фармон билан Ўзбекистон Республикаси Давлат божхона кўмитасига қўшимча вазифаси сифатида ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштиришни чуқурлаштириш ва саноат кооперациясини кенгайтириш масалалари бўйича манфаатдор идоралар билан ҳамкорлик ўрнатиш юклатилди. Эндиликда тадбиркорлар томонидан ишлаб чиқилган қайта ишлаш маҳсулотларининг чиқиш нормаларини ҳаққонийлиги ва амалдаги чиқиш нормасига мувофиқ эканлигини назорат қилиш масаласи муҳим аҳамият касб этмоқда. Бунинг ечими сифатида, божхона органлари ўзларига маълум бўлган чиқиш нормаларини мақсадга мувофиқ эканлигини кўриб чиқиш ва хулоса бериш учун ваколатли давлат органларига жўнатиш амалиётини жорий этиш керак. Бунда корхоналарнинг фаолият туридан келиб чиқиб ваколатли давлат органларини белгилаш: масалан, “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси ўз таркибида Ўзбекистон тўқимачилик бозоридаги 1 800 дан зиёд ишлаб чиқариш корхоналарини бирлаштиради. “Ўзчармсаноат” уюшмаси таркибидаги 300 га яқин корхоналардан 50 га яқини айнан чармни қайта ишловчи корхоналардир. Шунга ўхшаш “Ўздонмаҳсулот” АЖ, “Ўзбекнефтгаз” АЖ, “Ўзбекизоқовкатхолдинг” холдинг компанияси, “Ўзёғмойсаноат” уюшмаси ҳамда “Фармацевтика тармоғини ривожлантириш агентлиги” кабиларни мисол қилиб келтиришимиз мумкин.

Амалдаги тартибда божхона ҳудудида қайта ишлаш божхона режими доирасида товарларни, шу жумладан хомашё ва материалларни олиб кириш ва қайта ишланган маҳсулотларни олиб чиқиш талаблари ва шартлари мураккаб жараённи қамраб олади. Шу муносабат билан концепция лойиҳасида мавжуд талабларни соддалаштириш таклиф этилмоқда.

ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА МИНТАҚА ЧОРВАЧИЛИГИДА КИЧИК БИЗНЕСНИНГ РИВОЖЛАНИШ МУАММОЛАРИ

**Садуллаев Аминбой, и.ф.н., доц.
Вайсов Дилшод, Мадраимов Ҳабибулла
УрДУ, Туризм ва иқтисодиёт факультети**

Чорвачилик соҳаси Хоразм вилояти иқтисодиётида муҳим аҳамиятга эга булиб, ушбу соҳа минтақа аҳолисини озиқ-овқат маҳсулотлари, саноат корхоналарини хом-ашё билан таъминлашда катта аҳамият касб этмоқда. Статистик маълумотларга кўра¹ 2021 йил январь июнь ойларида Хоразм вилоятида тирик вазнда 88,5 минг тонна гўшт ва 556,7 минг тонна сут ишлаб чиқарилган, аҳоли жон бошига ҳисоблаганда (вилоят аҳолиси сони 2021 йил 1 – ярмида 1904,3 минг кишини ташкил қилди²) тирик вазндаги гўшт 46,5 кг ни, сут эса 292,3 литрни ташкил қилмоқда.

Хозирги замонавий рақамлашган иқтисодиётда барча иқтисодиёт соҳалари каби чорвачиликда ҳам юқори кўшилган қийматга эга бўлиш учун соҳада кичик бизнесни ривожлантириш, кластерлар, кооперациялар ташкил қилиниши зарур бўлиб ҳисобланади. Кластерлар ва кооперациялар, фермер хўжаликлари каби юридик шахслар таркибига киришини ҳисобга олган ҳолда минтақада чорвачилик соҳаси ривожидида бошқа вилоятларга нисбатан анча яхши кўрсаткичлар мавжуд бўлсада, кичик бизнеснинг умумий

¹ 2021 йил 1 ярим йиллик статистик маълумотлар: Қишлоқ хўжалиги

² 2021 йил 1-ярим йиллик статистик маълумотлар : Демографик ҳолат

чорвачилик махсулотлари ишлаб чиқаришидаги улуши анча паст. Кичик бизнеснинг умумий махсулот ишлаб чиқаришидаги улушини сон ва сифат жиҳатидан орттириш ушбу соҳа ривожини учун бугунги кундаги энг устувор вазифа бўлиб ҳисобланади. Ҳукуматимиз томонидан ушбу вазифани амалга ошириш мақсадида тизимли тарзда ислохотлар амалга оширилаётган бўлиб, улар мамлакатимиз иқтисодиётини ривожлантириш стратегиясидаги амалга оширилаётган барча ислохотлар билан ҳамбарчас боғлиқ бўлиб, улар комплекс ва ҳамбарчас тарзда амалга оширилмоқда. Хусусан, янги солиқ Кодексига мувофиқ, гўшт ва сутни ишлаб чиқариш, қайта ишлаш ва истеъмол қилишда тўлиқ ҚҚС қайтиши замирида йўлга қўйилишини рағбатлантириш, мамлакатда насли чорва қорамолларини кўпайтириш, замонавий гўшт ва сутни қайта ишлаш корхоналарини ташкил қилишни рағбатлантириш бўйича кўплаб солиқ ва божхона имтиёзларини берилиши шу қабилардан бўлиб ҳисобланади. Чорвачиликни ривожлантиришдаги хориж тажрибасини ўрганган ҳолда, камбағалчилиكنи камайтириш, ҳамда энг асосийси, чорвачилик соҳасидаги кичик бизнес субъектларини қўллаб-қувватлаш мақсадида жорий йил 1 июндан бошлаб чорвачилик соҳасида махсулотлар тури бўйича субсидиялаш амалиёти қўлланила бошланди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 03.03.2021 йилдаги ПҚ 5017-сонли **“Чорвачилик тармоқларини давлат томонидан янада қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”**ги қарорига мувофиқ: қўшилган қиймат солиғи тўловчиси бўлган чорвачилик хўжаликларига — ўз хўжаликларида етиштирилиб, гўшт учун реализация қилинган йирик ва майда шохли қорамоллар тирик вазнининг ҳар бир килограмми учун 2 000 сўм ҳамда сутининг ҳар бир литри учун 200 сўм миқдорида субсидия берилади. Бунда, субсидиялар қўшилган қиймат солиғидан қарздорлиги мавжуд бўлмаган, шунингдек, контрагентларни танлашда лозим даражада эҳтиёткор бўлган корхоналарга уларнинг субсидиялар олиш тўғрисидаги аризаларига асосан кейинги ойнинг 25 санасигача ажратилади.

Етиштирилган гўшт ва сутни субсидиялаш бўйича статистик маълумот билан боғлаган ҳолда тахлилий прогноз қиладиган бўлсак, у ҳолда 2021 йилнинг 2-ярмида 1-ярим йиллик натижалари ўзгармасдан қолиб, яъни Хоразм вилоятида тирик вазнда 162 минг тонна гўшт ва 1054 минг тонна сут ишлаб чиқарилиб, ишлаб чиқариш ҳажмининг 10 фоизи кичик бизнес улушига тўғри келса, ҳамда кичик бизнес улушининг тенг ярми ҚҚС тўловчилар бўлиб ҳисобланса ва улар барча критериялар бўйича субсидиялашга мос келса, у ҳолда 162 минг тонна гўшт учун 8 910 млн сўмлик, ва 1054 минг тонна сут учун 10 537 млн сумлик, жами 19 447 млн сўмлик субсидия минтақадаги чорвачилик соҳасидаги кичик бизнес субъектларига ажратилиши мумкин. Ушбу маблағларни соҳани янада ривожлантириш учун қайта йўналтириш янада ижобий самаралар келтириши мумкин бўлади.

Минтақа иқтисодиётида чорвачилик соҳасининг аҳамиятини аниқлаган ҳолда ҳамда соҳа ривожини учун давлат томонидан яратилаётган имконият, шарт шaroитларни ўрганган ҳолда ҳозирги кунда чорвачилик йўналишида фаолият юритаётган кичик бизнес субъектлари ҳолати, улардаги мавжуд ривожланиш муаммолари тахлил қилиш мақсадида Хоразм вилояти Шовот туманида жойлашган “Зоиршоҳ Шовот” фермер хўжалиги маълумотларини ўрганиб чиқдик. Фермер хўжалиги 2011 йилда “Уста Юсуф” фермер хўжалиги негизда ташкил қилинган, асосий фаолияти чорвачилик соҳаси бўлиб, наслилик хўжалиги мақомига эга. Фермер хўжалиги 2020 йилги Давлат Инвестиция дастури доираси Ҳалк банки Урганч бўлими билан ҳамкорликда қарийб 3 млрд сўмга Украинадан 138 бош насли қорамолларни олиб келган, йил якунида қорамоллар сони 220 бошни, 2021 йил 1 октябр ҳолатига 182 бошни ташкил қилмоқда. Инвестиция натижасида 2020 йилда товар айланмаси 2019 йилга нисбатан қарийб 10 баробар ошган (2019 йилда 42 млн сўм, 2020 йилда 385 млн сўм). 2021 йил 1 октябр ҳолатига 354 млн сўмни ташкил қилаётган бўлиб, гўшт ва сут ишлаб чиқариш ҳажмлари мос равишда 2019 йил ва 2020 йилга нисбатан 8 ва 15 баравар ошган. 2021 йилда ҳам барқарор ўсиш тенденциялари сақлаб қолинган бўлиб, озуқа майдонлари миқдори 2019 йилдаги 20,6 гектардан 2021 йил

1 март холатига 67,2 гектарга ошган. Ишчи ходимлар сони ўртача 3 кишидан 10 кишигача кўпайган. Асосий фондлар киймати ҳам 2019 йилдаги 551 млн сўмдан 1254 млн сўмга ошган. Чорвачилик фермасининг умумий қуввати 300 бошга мўлжалланган.

Юқоридаги кўрсаткичлар билан бир қаторда фермер хўжалиги олдида кўплаб ривожланиш муаммолари мавжуд бўлиб уларни икки гуруҳга жамлаштириш мумкин: яъни молиявий ресурслар етишмовчилиги ҳамда кадрлар етишмовчилиги муаммолари. Молиявий ресурслар етишмовчилиги муаммолари сифатида, чорва молларини рацион асосида озуклантириш, чорва молларига ветеринария ва эпизоотик ишлов бериш учун лаборатория ва зарурий ускуналар келтириш, мавжуд озуқа бирлигидан унумли фойдаланиш учун автомат озуқа аралаштиргичлар, ўт ва дон майдалагичлар етишмаслиги, мавжуд ер майдонидан сифатли озуқа базасини яратиш учун иқлимга мослаштирилган уруғликлар харид килиш ва уларни парваришlash, сут соғиш жараёни сифати ва маҳсулдорлигини ошириш учун автоматик сут соғиш заллари ҳамда сигирларни кўшимча парваришlash ускуна ва мосламалари етишмовчилиги ҳамда чорва комплексининг қувватидан самарали фойдаланишни ташкил килишни келтириш мумкин. Молиявий ресурслар етишмаслиги билан боғлиқ муаммоларни ечишда шундай хусусият борки, тижорат банклари томонидан имтиёзли кредитlash токи кредит тўлиқ узилгунга қадар бир маротаба қўллашинилиши бўлиб, агар фермер хўжалигида қайтарилмаган кредит қарзи бўлса, банklar томонидан қайта молияlashтириш имкони йўқ, шунингдек минтакада ҳам иккиламчи ҳисобда чорвачилик йўналиши учун йил давомида имтиёзли кредитлар таклиф киладиган молиявий муассасалар йўқ. Чорвачилик соҳасини ўз оталигига олиб келаётган Халқ банкида ҳам айнан мазкур йўналишда шубхали кредитлар кўпайганлиги учун банк кредитlash амалиётини қисқа муддатга тўхтатиб қўйган. Шу сабабли чорвачилик соҳасини молияlashтириш тизимини қайтадан кўриб чиқиб оптималlashтириш мақсадга мувофиқ бўлади деб таклиф берган бўлар эдик. Бунда кредитни ажратишда фақат хориждан қорамолни келтиришга асосий урғу бермасдан, қўшимча чорвачилик ускуналарини ҳам олиб келтириш, чорва озуқасига ишлов бериш, ҳамда уни ишлаб чиқариш ускуналарини биргаликда молияlashтиришга, ҳамда паст фоизда қисқа муддатли айланма маблағлар учун кредит амалиётини жорий килишни зарур деб ҳисоблаймиз.

Иккинчи гуруҳга қирувчи муаммолар таркибига эса чорва молларига ветеринария ва эпизоотик ишлов бериш учун ветеринар, зоотехник ходимлар етишмовчилиги, ҳамда сифатли озуқа базасини яратиш учун иқлимга мослаштирилган ўсимликларни парваришловчи агроном мутахассислар етишмовчилиги каби муаммоларни киритиш лозим деб топдик. Кадрлар етишмовчилиги масаласини манфаатдор ташкилотлар билан ҳамкорликда вилоятдаги мавжуд ўрта махсус билим юртиларидан бирини чорвачилик ва ветеринарияга ихтисосlashтириш орқали ечиш мумкин. Бунда ветеринар, зоотехниклар билан бир қаторда чорвачилик учун озуқа ўсимликларини парваришlash бўйича агрономия мутахассисларини ҳам етиштириш мақсадга мувофиқ бўлиб ҳисобланади. Шунингдек, бугунги рақамlashтириш даврига мос бошқарув ходимлари: таъминотчилар, маркетинглар, ҳисобчиларни ҳам юқори малакага эга бўлиши, замонавий бозор талабларига мосlash олиши ҳам чорва бизнеси ривожда муҳим роль ўйнашини ҳисобга олиш лозим бўлади. Қўшимча равишда чорвачилик соҳаси учун зарурий ускуна, озуқа рационини учун зарурий препарат ва материаллар, чорва озуқаси ўсимлик уруғларини минтакага келтириш ва сотишга ихтисосlashтирилган марказ ва тадбиркорлик субъектларини мақсадли равишда ташкил килиш лозим бўлади.

Юқорида келтирилган муаммолар нафақат ушбу соҳада фаолият кўрсатувчи кичик бизнес вакиллари, балки чорвачиликни қўшимча даромадга айлантирган, ҳамда ушбу бизнес билан қаттароқ миқёсда шуғулланмокчи бўлганлар учун ҳам муҳим деб ҳисоблаймиз. Чунки бизнесни бошlashдан ёки уни кенгайтиришдан олдин унинг ривожланиш стратегиясини белгилashда мазкур муаммоларга олдиндан тайёргарлик кўриш муваффақият келтиришига ишонамиз. Чорвачилик, қишлоқ хўжалиги ва умуман иктисодиёт, жамиятнинг барча соҳаларида фаол ислохотларни амалга ошираётган, ҳамда

мамлакатимизни дунё иқтисодиёти ва ҳаётига трансформациясини ташкил қилаётган давлат сиёсати фақат ва фақат энг асосий ундовчи, умидбахш омил бўлиб қолаверади.

QISHLOQ XO'JALIGIDA LOGISTIKA INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.

Xodjayev Anvar Rasulovich
Amonov Mirzohid To'yurodovich
Buxoro davlat universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası o'qıtuvchilari

Mamlakatimizning ichki transport tizimi qishloq xo'jaligida muhim ahamiyat kasb etib, mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonini davom ettiruvchi, nihoyasiga yetkazuvchi, ya'ni iste'molchiga yetkazuvchi sohaga aylangan. Transport sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi etkazib beruvchi bo'g'in sifatida rivojlanmoqda. Chunki yuk tashish va yuk oqimlarining hajmi, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdori, ularni ishlab chiqarish va iste'mol qilish punktlariga, Respublika xududining har qanday joylariga, mavjud yo'llar orqali etkazilib berilishi transportning rivojlanishiga bog'liq. Shuningdek, transport tovar ishlab chiqarish sohalarining ulkan iste'molchisi bo'lib, ishlab chiqariladigan mahsulotlar strukturasi va hajmiga bog'liq holda tovar aylanmasini tezlashtirish, bozor iqtisodiyotini jadallashtirishda juda katta ahamiyatga egadir. Transport jahon moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining uchinchi muhim tarmog'idir. U sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlaridan farqli ravishda biron-bir xil mahsulot ishlab chiqarmasada, ishlab chiqarishning rivojlanishida juda katta o'rin tutadi. Logistika – mahsulotlar oqimini boshqarish, xomashyo bilan ta'minlashdan boshlab, to oxirgi iste'molchiga tayyor mahsulot yetkazib berilguncha, shu bilan birga, materiallar harakatiga yordam qiluvchi moliyaviy va axborot oqimigacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligida logistika murakkab tizim bo'lib, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish, transport, saqlash, tashish va axborot ta'minoti jarayonlarini o'z ichiga oladi. Har bir turdagi transportdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Transportni yuk tashish imkoniyati, ya'ni sig'imi. Bu xususiyat ma'lum darajada transport xarajatlarini belgilaydi.
2. Transportning harakatlanish tezligi, mahsulotlarni buyurtmachilarga yetkazib berish vaqti.
3. Uzoq muddat saqlash qiyin bo'lgan mahsulotlarni temir yo'l orqali tashishning murakkabligi.
4. Tashish borasida qo'shimcha xarajatlarni talab qilinishi.

Ushbu omillar logistika tizimini jadallik bilan rivojlantirish, shu jumladan, transportda yo'lovchi va yuk tashish sifatini oshirish, 10 ming kilometrlik respublika va mahalliy yo'llarni qurish va ta'mirlash, xalqaro yuk tashishlarga ixtisoslashgan transport-logistika qo'shma korxonalarini tuzish, Buxoro, Qarshi, Nukus va Termiz xalqaro aeroportlarini “ochiq osmon” rejimiga o'tkazish, “Navoiy quruqlik porti”ni tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratish zaruratini keltirib chiqaradi. Holbuki, respublikaning mavjud salmoqli tranzit salohiyati to'liq darajada ishga tushirilmagan. Vujudga kelgan tranzit va tarif siyosatidagi nomaqbullik qo'shimcha ravishda tranzit yuk oqimini jalb etishga to'sqinlik qilmoqda.

Logistika markazlari va TIR-parklar tarmog'ini tubdan rivojlantirish, avtotransport vositalari va havo kemalari parkini kengaytirish hamda ularni sifatli yonilg'i-moylash materiallari bilan o'z vaqtida va to'liq hajmda ta'minlash talab etiladi. Tashqi savdo transport yo'laklarini yanada diversifikatsiyalash uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlarni yaratish, mamlakatimizning tranzit salohiyatini oshirish, shuningdek, mahalliy transport-logistika kompaniyalarini rivojlantirish hamda ularning tashqi va ichki bozorlardagi raqobatdoshligini yuksaltirish maqsadida respublika hukumati tomonidan 2015-2020 yillarda muhandislik-

kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda modernizatsiyalash dasturi amalga oshirilmoqda.

Dasturda yuksak xalqaro talablar va standartlarga mos keladigan milliy transport tarmog'ini rivojlantirish sohasida yagona kompleks strategiyani ishlab chiqish, respublika mahsulot ishlab chiqaruvchilarining o'z mahsulotini mintaqa va jahon bozorlariga istiqbolda olib chiqish talab-ehtiyojlarini hisobga olgan holda uning xalqaro transport kommunikatsiyalariga keng miqyosda integratsiyalashuvini ta'minlash nazarda tutiladi.

Bu dastur doirasida umumiy qiymati 1580 million AQSh dollaridan oshadigan temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirish va aviatransport sohasida bir qator loyihalar amalga oshirildi, shuningdek, umumiy uzunligi 695 kilometrli avtomobil yo'llari barpo etildi va rekonstruktsiya qilindi.

Shu bois bu borada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va tashish xizmatlari yuzasidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi:

- mahalliy va magistral yo'llarni qurish, joriy va kapital ta'mirlash ishlarini me'yoriylashtirish hamda mazkur me'yorlarga bosqichma-bosqich amal qilish;
- avtomobil yo'llariga qo'yiladigan talablarni bosqichma-bosqich jahon standartlariga moslashtirish;
- xususiy sektor va davlat xususiy sherikchilik asosida shaharlararo yuqori tezlikdagi pullik avtomobil yo'llarini tashkil etish;
- tashish xizmatlari bozorida xususiy sektori ulushini oshirish yo'llarini ishlab chiqish;
- tashish xizmatlari standartlarini ishlab chiqish;
- tashish xizmatlariga qo'yiladigan standartlarni xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich o'tkazish yo'llarini ishlab chiqish;
- xalqaro darajadagi bir yo'l bir makon loyihasida O'zbekiston faol qatnashishi uchun barcha zarur shart-sharoitni yaratish;

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki qishloq xo'jaligi logistik infratuzilmalarining umumiy ko'rinishi yaxshilashda ushbu tadbirlar yaqin kelajakda mamlakat logistika tizimini jahon andozalari darajasiga ko'tarish va xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishga hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirishda logistika infratuzilmalari faoliyatini samarali tashkil etish va samaradorligini oshirish uchun axborot to'plash va ulardan samarali foydalanish, omborxonalar, transport va ularning ta'minoti, logistik faoliyatni rivojlantirish hamda xalqaro logistik raqobatga bardosh beruvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

АРХИТЕКТУРА ВА ҚУРИЛИШ СОҲАСИНИ ИННАВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

**И. Х. Собиров (и. ф. н. СамДАҚИ)
Б.Асқаров (магистрант, СамДАҚИ)**

Архитектура ва қурилиш соҳасини инновацион ривожлантиришнинг самарали механизмларини ишлаб чиқиш, жорий этиш ҳудудларнинг замонавий қиёфасини шакллантириш, шаҳарсозлик фаолиятини сифат жиҳатидан янги даражага кўтариш уни меъерий-ҳуқуқий жиҳатдан такомиллаштириб боришни тақозо этади. Ушбу мақолада Архитектура ва қурилиш соҳасини инновацион ривожлантиришнинг долзарб масалалари таҳлил қилинган.

Разработка эффективных механизмов инновационного развития в области архитектуры и строительства, внедрение которых требует формирования современного имиджа регионов, поднятия уровня градостроительства на качественно новый уровень требует его нормативного совершенствования. В статье анализируются актуальные вопросы инновационного развития архитектуры и строительства.

The development of effective mechanisms for innovative development in the field of architecture and construction, the introduction of which requires the formation of a modern image of the regions, raising the level of urban planning to a qualitatively new level requires its

regulatory improvement. The article analyzes topical issues of innovative development of architecture and construction.

Архитектура-қурилиш соҳасини бошқаришнинг шаҳарсозлик фаолиятига инновацион ғоялар, ишланмалар ва илғор ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш имконини берувчи замонавий тизимни яратиш, кўрсатилаётган хизматларнинг шаффофлигини таъминлаш мақсадида, шунингдек, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси ва Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислохотлар концепциясиг амувофиқ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 апрельдаги фармонида асосан Ўзбекистон Республикасида архитектура ва қурилиш соҳасини инновацион ривожлантиришнинг истиқбол йўналишлари белгилаб олинди.

Ўзбекистоннинг инновацион ривожланиши асосий йўналишлари сифатида қуйидагилар белгиланган:

- иқтисодиёт тармоқлари ва соҳаларини устувор ривожлантиришнинг инновацион моделини шакллантириш имконини берувчи стратегик режалаштириш тизимини яратиш;
- давлат бошқаруви органлари фаолияти самарадорлигини оширишни таъминлашнинг инновацион шакллари жорий қилиш;
- фан ва инновацион фаолиятни ривожлантиришнинг замонавий инфратузилмасини шакллантириш;
- инновацион ғоя ва технологияларни ишлаб чиқиш ва жорий этишга инвестицияларни кенг жалб этиш;
- илмий тадқиқот ва инновацион фаолиятни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш, энг аввало, ёш авлоднинг ғоя ва ишланмаларини қўллаб-қувватлаш.

Шу билан бир қаторда стратегия йўналишларида таълим тизимини такомиллаштириш, соғлиқни сақлаш, АКТни ривожлантириш, саноат ва аграр соҳада, архитектура ва қурилиш соҳасини инновацион ривожлантиришнинг самарали янги инновацион технологияларни яратиш ва жорий этиш кўзда тутилган. Ўзбекистон иқтисодиётининг инновацион ривожланиш йўлига ўтишнинг энг биринчи масаласи мамлакатда муносиб инновацион муҳитни яратиш, у бундай муҳитда фан ва техника ютуқлари униб-ўсиш имкони яратилиши лозим ҳисобланади. Бунинг учун мамлакатимизда рағбатлантирувчи инновацион муҳитни шакллантириш бўйича ташкилий институтлар ҳамда ҳуқуқий-институционал меъёрлар яратилди.

Архитектура ва қурилиш соҳасини бошқаришнинг самарали механизмларини жорий этиш ҳудудларнинг замонавий қиёфасини шакллантириш, ҳаёт ва тадбиркорлик учун қулай шарт-шароитларни яратишга қаратилган шаҳарсозлик фаолиятини сифат жиҳатидан янги даражага кўтаришнинг муҳим шарти ҳисобланади.

Архитектура ва қурилиш соҳасида давлат бошқарувини ташкил этишда замонавий шаҳарсозлик услублари, нормалари ва қоидаларини кенг жорий қилиш, рақобатни ривожлантириш, янги субъектларнинг инновацион ғоялар, ишланмалар ва технологиялар билан бозорга кириб келишини рағбатлантириш Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 13 мартдаги ПФ-5963-сон “Ўзбекистон Республикасининг қурилиш соҳасида ислохотларни чуқурлаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” Фармонида ҳам таъкидлаб ўтилган.

Олиб борилган илмий тадқиқотлар ва изланишлар натижасида Ўзбекистонда архитектура ва қурилиш соҳасини инновацион ривожлантиришга тўсқинлик қилаётган қуйдаги муаммоларни кўрсатиб ўтиш лозим деб ҳисоблаймиз:

биринчидан, шаҳарсозлик фаолияти, лойиҳа ва пудрат хизматлари бозори, шунингдек, қурилиш материаллари ишлаб чиқаришнинг ҳолати ҳамда ривожланиш тенденциялари комплекс таҳлил қилинмаган, оқибатда ҳудудларни шаҳарсозлик жиҳатидан ривожлантиришнинг ўрта муддатли ва Истиқболли йўналишлари белгиланмаган;

иккинчидан, архитектура ва қурилиш органларининг ташкилий-штат тузилмаси қурилиш ва реконструкция жараёнларини тўлиқ қузатиб боришни таъминлаш, шунингдек, қурилиш-монтаж ишлари сифатини самарали назорат қилиш учун мавжуд ресурсларни сафарбар этишга имкон бермаяпти;

учинчидан, архитектура ва қурилиш органлари функцияларининг тарқоқлиги ҳамда улар фаолиятига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш даражасининг пастлиги шаҳарсозлик соҳасида давлат хизматларини кўрсатишнинг максимал шаффофлиги ва самарадорлигини таъминламаяпти;

тўртинчидан, кўпчилик аҳоли пунктларининг бош режалари мавжуд эмаслиги худудларни комплекс қуришга, ишлаб чиқариш ва инфратузилма объектларини жойлаштиришга, тадбиркорлик ва ишбилармонлик фаоллигини ривожлантиришга салбий таъсир кўрсатмоқда, шунингдек, қурилиш жараёнида пухта ўйланмаган қарорларни қабул қилишга сабаб бўлмоқда;

бешинчидан, техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатлар анча эскирган ҳамда уларда архитектура-қурилиш ишларини олиб боришнинг инновацион услубларини, энергия самарадор ва энергия тежайдиган технологияларни кенг қўллаш эътиборга олинмаган, бу эса лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш ва объектларни қуриш сифатига салбий таъсир кўрсатмоқда;

олтинчидан, қурилиш ишларини ташкил этиш, инновацион ғоялар ва ишланмаларни жорий қилишда айрим ҳолларда тор идоравий манфаатнинг устунлик қилиши бюджет маблағларидан оқилона фойдаланмасликнинг сабабларидан бири ҳисобланади;

еттинчидан, қурилиш соҳаси ва қурилиш материаллари саноатида истиқболли инвестицион лойиҳаларни, инновацион ғоялар, ишланмалар ва технологияларни илгари суриш ва амалга оширишда, шунингдек, инновацион маҳсулотларни жорий этиш учун инфратузилмани такомиллаштиришда давлат-хусусий шериклигидан фойдаланишга етарлича эътибор берилмаяпти;

саккизинчидан, кадрлар тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишнинг амалдаги тизими архитектура-қурилиш соҳасини жадал ривожлантириш вазифаларини самарали рўёбга чиқаришга имкон бермаяпти, кадрларни моддий рағбатлантириш даражасининг пастлиги эса малакали мутахассисларнинг тизимдан кетиб қолишига олиб келмоқда.

AHOLINING UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARI KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Xushvaqtova Zarnigor Anvar qizi

2-kurs magistrant,

QarMII

Aholining barcha qatlamlari turmush darajasi va jamiyatimizdagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan uy-joy kommunal sohasining samarali faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kommunal xizmatlar ko'rsatish bo'yicha zamonaviy bozorni shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Yaratilgan mustahkam me'yoriy-huquqiy bazaga muvofiq tarkibiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanishning mutlaqo yangi tizimini shakllantirish imkonini berdi.

Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish maqsadida markazlashtirilgan davlat kapital qo'yilmalarini yo'naltirish va xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan taqdim etilayotgan xorijiy investitsiyalarini jalb etish orqali suv ta'minoti, kanalizatsiya va issiqlik ta'minoti tizimlarini rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, uy-joy kommunal sohasining bugungi holatini tahlil qilish asosida zudlik bilan hal etilishi lozim bo'lgan qator muammolar aniqlandi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar bugungi kunda davlatimiz ijtimoiy va iqtisodiy siyosatining ustuvor yonalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Uy-joy kommunal xizmatlari ko'rsatishni tubdan yaxshilash, uy-joy fondi va ijtimoiy obyektlardan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining ish sifatini yuksaltirish va moliyaviy- iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 2017-2020 yillar davomida me'yoriy-huquqiy jihatdan va xo'jalik yuritishning yangi mexanizmlarini sinovdan o'tkazish bo'yicha yetarli darajada katta hajmdagi ishlar bajarildi.

Iqtisodiyotning ushbu sohasidagi o'zgarishlarning asosiy maqsadlari sohada uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish borasida muayyan ishlarni amalga oshirishdir. Iste'molchi va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida shartnomaviy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan. Kommunal xizmatlar qiymatini sohada ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini kafolatlangan holda ular tannarxini tashkil etuvchi real sarf-xarajatlar asosida shakllanishiga erishish soha oldida turgan muhim iqtisodiy vazifa hisoblanadi.

Ushbu vazifani amalga oshirishda mamlakatimizda ijtimoiy himoya tamoyillariga amal qilgan holda, kommunal to'lovlar miqdorini aniqlashda fuqarolarning kam daromadli toifalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va real xarajatlar jamlanmasidan iborat bo'lgan, har tomonlama mukammal me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan bahoni shakllantirish mexanizmini yaratish quyidagilarni ta'minlaydi:[2]

- fuqarolarga ularning ehtiyojlari va moliyaviy imkoniyatlariga ko'ra uy-joy qurish, uni xususiy mulk qilib sotib olish, ijaraga olish (aholiga kelgusi sarf- xarajatlarini inobatga olgan holda uy-joy qurish, uy-joyni sotib olish, aholining kam ta'minlangan qatlamlariga ijara shartnomalari asosida uy- joyni ijaraga olish va hokazo);

- fuqarolarning uy-joy fondiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini kafolatlash (uy-joy fondlari texnik holatlariga xizmat ko'rsatishning davlat standartlarini belgilash, sanitariya, ekologik va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash hamda ularni nazorat qilish);

- kommunal xizmatlarga bo'lgan zarur ehtiyojlarning qondirilishi va ularni iste'mol qilish xavfsizligi (kommunal xizmatlarni iste'mol qilish me'yorlarini, ular sifati andozalarini va foydalanish qoidalarini belgilash);

- kam daromadli oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;

- uy-joy, kommunal xizmatlar bozorining rivojlanishi va erkin shartnomaviy munosabatlarni joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- kommunal xo'jaligi sohasidagi tabiiy monopoliyalar xizmatlari narxlarini tartibga solish va narx-navoni asossiz o'sib ketishining oldini olish va boshqalar.

Kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlarini ishlab chiqish aholining ehtiyojlarini qondirish uchun ularga ko'rsatilayotgan kommunal xizmatlar hajmini belgilash va ko'rsatilayotgan xizmatlar bahosini shakllantirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amaliyotda qo'llanilayotgan aholining kommunal xizmatlardan foydalanish me'yorlarini hisoblashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017- yil 18-apreldagi «Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi "*Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi*" tuzildi.[1]

Mazkur ko'rsatmalar asosida ishlab chiqilgan me'yorlar sovuq suv ta'minoti, uy-joyni isitish, issiq suv bilan ta'minlashda ishlatiladigan sarf-xarajatlar miqdori o'lchovi, (asosan issiqlik energiyasini, tabiiy gazni hisobga olish asboblari bo'lmaganda) aholining kommunal xizmatlardan foydalanish (iste'mol) me'yorlarini ishlab chiqish va to'lov qiymatini belgilash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Me'yorlar aholini xizmatlardan foydalanishning eng kam, ammo hayot faoliyatini ta'minlashga yetarli miqdordagi hajmidan tashkil topadi va ular minimal talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan tegishli sifatidagi xizmatlarning moddiy manbai quyida keltirilgan miqdorlari bilan o'lchanadi:

- isitish - $1m^2$ turar joy maydoniga sarflanadigan G_{kal} hisobidagi issiqlik energiyasi;
- sovuq va issiq suv - bir sutkada (oyda) 1 kishi hisobiga sarflangan suv, litr hisobida;
- tabiiy gaz - bir oyda 1 kishi hisobiga sarflangan gaz m^3 hisobida;
- tabiiy gaz bilan ichki tartibda isitish - isitiladigan xonaning 1 m^3 hajmiga m^3 hisobida;
- ovqat tayyorlash uchun suyultirilgan gaz - bir oyda 1 kishiga kg hisobida o'lchanadi

Turar joy xonasi umumiy maydonining 1 m^2 ini saqlash va ta'mirlash tariflarini hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Turar joy fondini saqlash va ta'mirlash tarifini aniqlash uchun foydalanish xizmatlarining me'yoriy tannarxi boshlang'ich asos sifatida olinadi.

Ta'rif miqdorini belgilash uchun xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati muayyan hisobot davrida uy-joy fondining foydalaniladigan jami maydoni bo'yicha oladigan daromadlarini aniqlashi lozim. Bu daromadlar tarkibi xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxi (energiya manbalari, materiallarning narxi, lavozim maoshlari va shu kabilar o'zgarishi inobatga olinadi) hamda rejalashtirilgan foydadan tashkil topadi. Bunda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining xarajatlarini qoplash uchun belgilangan tartibda yo'naltiriladigan boshqa daromad manbalari chiqarib tashlanadi. Ta'rif miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$T = \frac{(S + F) - Q}{N}$$

Bunda: T - turar joy xonasi umumiy maydonining 1 m^2 ini saqlash ta'mirlash haqi (ta'rif);
 S - xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxi;

F - uy-joy fondidan foydalanish korxonasi (xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati) foyda ko'rib ishlashi uchun zarur bo'lgan foyda (davr xarajatlari va moliyaviy faoliyatga doir xarajatlari);

Q - uy-joy fondidan foydalanish tashkilotlarining xarajatlarini qoplash uchun belgilangan tartibda yo'naltiriladigan boshqa daromad manbalari. Mazkur daromad tarkibiga uy-joy fondiga xizmat ko'rsatish uchun fuqarolar tomonidan to'lanadigan mablag'lar hisobga olinmaydi.

Aholiga T vaqt oralig'idagi jami xizmat ko'rsatish sohasining umumiy hajmini aniqlashda quyidagi integrallash formulasidan foydalanamiz.[3]

$$Xk_T = \int_{t_0}^{t_0+T} Xk(t) dt$$

Bu modelni qo'llash xizmat ko'rsatish darajasini T vaqt oralig'ida aholiga jami xizmat ko'rsatish samaradorlik ko'rsatkichini aniqlash va shu asosda kelgusi holatini prognoz qilish imkonini beradi.

Ko'rib turganimizdek, integrativ xususiyatlarning mavjudligi tizim uchun xarakterlidir, tizimda mavjud bo'lgan, ammo uning alohida elementlaridan hech biriga xos bo'lmagan yoki ularning yig'indisidan iborat. Bu modelning vazifasi tizim osti emas, butun bir xizmat ko'rsatish sohalari tizimi samaradorligini hisoblaydi. Bundan kelib chiqadiki, har bir xizmat ko'rsatish tarmog'i uchun ushbu modeldan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa:

Aholiga xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtirish ko'plab ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab kategoriyadir. Shu jumladan aholiga uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanishi uchun yangi yondashuvlarni, model va usullarini izlash hamda joriy etish lozim. Aholiga uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan yaqin hamkorlik asosida ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, ko'p xonadonli uylarni saqlash qoidalariga rioya etilishini texnik nazorat qilish bo'yicha samarali tizimni shakllantirish, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi uchun kadrlash tayyorlash bo'yicha takliflar kiritish, zamonaviy axborot- kommunikatsiya

texnologiyalari, dasturiy mahsulotlar, idoraviy axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 апрелдаги “Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш тизимини бошқаришни янада такомиллаштириш чора тadbирлари туғрисида”ги фармони. www.president.uz.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 апрелдаги “ПФ-6218-сонли” фармони. www.lex.uz.

3. Рахимов А.Н. Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳасининг ривожланишини эконометрик моделлаштириш (Қашқадарё вилояти мисолида): иқт. фан. фал. док. дисс. – Т.: ТДИУ, 2020. –165 б.

ПАНДЕМИЯДАН КЕЙИНГИ ДАВРДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ

Нарзиев Мирфайз Махмуджонович

Бухоро давлат университети таянч докторанти

Туризм сектори пандемиядан энг кўп зарар кўрган иқтисодиётнинг сегментларидан бири бўлиб ҳисобланади. Ривожланган давлатларда туризм соҳаси ЯИМнинг 10 фоизгача ва кичик орол давлатларида унинг ҳиссасига бутун иқтисодиётнинг учдан бир қисми тўғри келади. Бир қатор мамлакатларда макроиқтисодий барқарорлик ҳам жиддий равишда ушбу соҳанинг ҳолатига боғлиқ бўлиб, халқаро туристик оқим туризм соҳасидаги барча экспорт даромадларининг 40%-50%ни ташкил қилади (Греция ва Черногория мисолида).

Бутунжаҳон туристик ташкилотининг маълумотларига кўра, 2020 йилда 2019 йилга қараганда халқаро сайёҳлик оқими 2-5 баравар камайган. Энг кўп зарар кўрган давлатларга Черногория, Хорватия, Кипр, Греция, Австрия ҳисобланиб, бу давлатлардаги халқаро туристлар оқими 70%-90%ни ташкил этади. Испания, Италия, Туркия ва Болгариянинг туристик сектори ҳам пандемиядан катта зарар кўрган бўлиб, бу давлатлардаги халқаро туристлар оқими 50%га яқиндир.

Ривожланган мамлакатларда туризм соҳаси ялпи ички маҳсулотга қўшган ҳиссасининг 10%ни, бутун иқтисодиётда банд бўлган аҳолининг ҳам тахминан 10%ни ташкил қилади (Жадвал-1).

Жадвал-1.

Туризм соҳасининг ЯИМ ва аҳоли бандлигидаги ҳиссаси

№	Давлатлар	Туризмнинг ЯИМдаги ҳиссаси	Туризмнинг аҳоли бандлигидаги ҳиссаси
1.	Малдив ороллари	32.5%	12.6%
2.	Сейшел ороллари	27.2%	26.4%
3.	Багама ороллари	19.6%	28.9%
4.	Филиппин	12.4%	12.8%
5.	Таиланд	9.6%	6.3%
6.	Хорватия	10.9%	9%
7.	Черногория	10.4%	4.8%
8.	Грузия	10%	7.5%
9.	Исландия	9%	7.6%
10.	Греция	8.5%	10.1%
11.	Австрия	7.7%	9.2%

Манба: Жаҳон туристик ташкилоти маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.

Халқаро мутахассисларнинг ҳисоб китобларига кўра, туризм олдинги ҳолатига фақатгина 2023-2024 йилларга қайтади. Бутунжаҳон туристик ташкилоти пандемия шароитида ва ундан кейинги даврда туризмни ривожлантириш ва иш ўринларини сақлаб қолиш ҳақида бир қатор ташаббусларни илгари сурди. Ўзбекистонда ҳам Президент Ш. Мирзиёевнинг 28 май 2020 йилда ПФ-6002 сонли “Коронавирус пандемиясининг салбий таъсирини камайтириш учун туризм соҳасини қўллаб-қувватлашга доир кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони, 19 июнь 2020 йилда ПҚ-4755 сонли “Туризм соҳасини санитария-эпидемиологик хавфсизликнинг кучайтирилган режими талабларига қатъий риоя қилган ҳолда ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори қабул қилиниб, туризм соҳасида “**Uzbekistan. Safe travel GUARANTEED**” тизими жорий қилинди.

Хорижий давлатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, пандемиядан кейинги даврда туризмни барқарор ривожлантиришнинг истиқболли йўналишларидан бири бўлиб, туризмни кластер ёндашуви асосида ташкил қилиш ҳисобланади. Туризм кластери бу – маълум бир ҳудудда, туризм соҳасида фаолият олиб боровчи туристик ташкилотларнинг ўзаро бирлашиб, ҳамкорликда фаолият олиб боришидир.

18 июль 2019 йилда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг Туризм тўғрисидаги¹ қонунининг 19-моддаси туристик кластери деб номланиб, унга қуйидагича таъриф берилган: “комплекс туристик хизматлар ҳамда туристнинг ва экскурсантнинг эҳтиёжларини қаноатлантириш учун зарур бўлган бошқа қўшимча хизматлар кўрсатувчи мустақил ташкилотлар ҳамда яқка тартибдаги тадбиркорлар мажмуи туристик кластердир. Туристик кластерлар комплекс туристик хизматлар кўрсатиш, туристик фаолиятнинг рақобатбардошлиги ва сифатини ошириш мақсадида туристик маҳсулотни шакллантиради, тарғиб этади ва реализация қилади”.

Кластер ёндашуви асосида туризмни ривожлантиришдан асосий мақсад:

✓ **Харажатларни тежаш** – яъни, бир неча туристик компаниялар маълум бир турмаҳсулотни яратиш жараёнида ҳамкорликда ишлашлари натижасида харажатлар тежалади. Агар бирта компания ўзи турмаҳсулот ишлаб чиқармоқчи бўлса, харажати кўпроқ бўлади;

✓ **Юқори малакали кадрларни жалб қилиш** – туристик кластер иштирокчилари ҳисобланадиган ташкилотларга халқаро экспертларни жалб қилиш имконияти мавжуд бўлади. Яъни, халқаро тоифадаги маркетинг, бухгалтер, ходимларга трейнинг ўтказадиган бизнес-консультант ва бошқалар. Бирта фирма бундай қиммат хизматлардан фойдалана олмаслиги мумкин, кластер доирасида бир неча фирмалар харажатларни тақсимлаш орқали бундай хизматлардан фойдаланадилар;

✓ **Кичик ва ўрта бизнес субъектлари учун қулай имконият** – бундай фирмалар кластер доирасида бирлашиб, йирик монопол компаниялар билан рақобатлаша оладилар. Кичик ва ўрта бизнес субъектлари юқори рақобат шароитида бир ўзлари фойда кўриб, фаолият олиб боришлари қийиндир;

✓ **Молиявий жиҳатдан барқарорлик** – инвестицияларни туризм соҳасига жалб қилиш, имтиёзли кредитларни олиш ва бошқа молиявий операцияларни амалга ошириш учун туристик кластернинг имкониятлари кенгроқдир;

✓ **Ҳудуднинг туристик жозибадорлигини ошириш** – бу мақсадга эришиш учун туристик кластерлар юқори самарали восита ҳисобланиб, кластернинг иштирокчилари бир-бирлари билан ўзаро билим ва тажрибаларни алмашиш натижасида, фаолиятларини ва хизмат турларини янада бойитадилар. Бу эса, ҳудудда янги турмаҳсулотларнинг пайдо бўлишига ва сайёҳлар оқимининг ошишига олиб келади.

Ўйлаймизки, пандемиядан кейинги даврда туризмни кластер ёндашуви асосида ривожлантириш, барча туристик субъектлар учун қулай ва фойдали бўлиб, республикада туризм соҳасининг тезроқ қайта тикланишига ва сайёҳлар оқимининг олдинги даражага қайтишига ўз ҳиссасини қўшади.

¹ Ўзбекистон Республикасининг Туризм тўғрисидаги қонуни, 18 июль, 2019 йил, <https://lex.uz/docs/-4428097>

O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHIT: MUAMMO VA YECHIMLAR

Saidova Feruza Kamolovna
Buxoro davlat universiteti
“Servis sohasi iqtisodiyoti” kafedrası
o'qituvchisi

Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

“O'zbekiston Respublikasining 2025 yilgacha investitsiya siyosati strategiyasi” O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan xalqaro tajriba, respublika iqtisodiyoti, uning tarmoqlari va hududlari investitsiya jarayonlari rivojlanishidagi tendensiyalar va muammolar tahlili asosida tayyorlangan.

1-jadval

Ko'rsatgichlar	2018 yil	2019-2025 yil	2025 yil
YaIM, trln.so'm	407,5	106 %	1298,9
Investitsiyalarning YaIM dagi ulushi	30,5%		37,5
Chet el investitsiyalari va kreditlari, mlrd.dollar		30,8	11,0
Markazlashmagan investitsiyalar, mlrd.so'm		1002,5	
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	103,9	110,8	

2025 yilgacha investitsiya siyosatining maqsadi iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va muvozanatini oshirish, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini rivojlantirish, hududlarni rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish hisoblanadi.

2021 yilda 6 milliard 500 million dollarlik loyihalar ishga tushiriladi.

24 iyun kuni Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida investitsiya va eksport sohasidagi ishlar natijadorligi tahlil qilindi. Shuningdek, yil yakunigacha amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar muhokama qilindi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish, dolzarb loyihalarni mablag' bilan ta'minlash maqsadida faol investitsiyaviy siyosat olib borilmoqda. 2017 yildan boshlab barcha manbalar hisobidan 716 trillion so'm (83 milliard dollar) yoki oldingi davrga nisbatan 2 baravardan ziyod investitsiyalar o'zlashtirilgan. Shundan qariyb 27 milliard dollarini xorijdan jalb qilingan mablag'lar tashkil etadi.

O'zlashtirilgan investitsiyalarning deyarli 65 foizi sanoat va infratuzilma loyihalariga to'g'ri keladi. Natijada, so'nggi 4 yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoatning ulushi 25 foizdan 33 foizga, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi esa 1,3 baravarga o'sgan.

Ushbu davrda 441 trillion so'mlik 47 mingdan ziyod yirik, o'rta va kichik loyihalar ishga tushirilib, 680 mingdan ortiq doimiy yangi ish o'rinlari yaratilgan.

Shuningdek, so'nggi 4 yilda mahalliy sanoat, qishloq xo'jaligi va servis sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun 100 trillion so'm investitsiya yo'naltirilgan.

Tahlillarga ko'ra, ajratilgan har bir milliard so'm evaziga Namanganda 12 ta, Andijonda 11 ta, Navoiy va Sirdaryoda 8-9 tadan yangi ish o'rni yaratilgan. Bu ko'rsatkich Buxoro, Samarqand va Xorazmda 6-7 ta, Qashqadaryo va Farg'onada 5 taga to'g'ri kelgan. Qoraqalpog'iston, Jizzax, Surxondaryo, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida esa atigi 3-4 tani tashkil etgan.

Toshkent viloyatiga so'nggi 4 yilda yo'naltirilgan 950 million dollar xorijiy investitsiya va bank kreditlari hisobiga atigi 40 mingta yangi ish o'rni yaratilgan. Ya'ni bir ish o'rni 24 ming dollarga to'g'ri kelmoqda. Vaholanki, Namangan viloyatida 2 baravar kam mablag' sarflanib, 52 mingta ish o'rni ochilgan.

Shuningdek, 2 mingdan ziyod korxonalar past quvvatda ishlayotgani, ayrim tumanlarda ishlab chiqarish hajmi kamaygani qayd etib o'tildi. Prezidentimiz tarmoq va hudud rahbarlarining asosiy vazifasi investitsiyaviy faollikni kuchaytirish bilan birga, ularning samaradorligini oshirish bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga viloyat hokimlari bilan birga, har bir tuman va shaharda sanoat bo'yicha ishga solinmagan imkoniyatlarni aniqlab, manzilli investitsiya loyihalarini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Hamma joyda mebellarga talab, ularni tayyorlashga sharoit bor. Nukus, Andijon, Oltinko'l, Romitan, Qarshi, Karmana, Pastdarg'om, Uzun, Bag'dod, O'rta Chirchiq va Xonqa tumanlari, Jizzax, Qarshi, Namangan va Yangier shaharlari mebelsozlikka moslashtirildi. Ularda mebelsozlikka ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini tashkil etilib, 200 million dollarlik 450 ta loyiha joylashtiriladi va kamida 7,5 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Yurtimizdagi 5 mingdan ziyod mebel korxonalaridan 1 ming 500 tasi xonadonlarda joylashgan. Endi ularni sanoatlashtirish, mahsulotlarni va ish o'rinlarini yanada ko'paytirish mumkin.

Bunday ishlarni charm-poyabzal, elektr texnikasi, to'qimachilik, farmasevtika, zargarlik, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoati sohalarida ham amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Joriy yilda charm-poyabzal sanoatida 202 million dollarlik 112 ta loyiha, elektr texnikasi tarmog'ida 140 million dollarlik 45 ta loyiha, farmatsevtika yo'nalishida 146 million dollarlik 36 ta loyihani o'z vaqtida ishga tushirish zarurligi ta'kidlab o'tildi.

Sobiq "Andijon Mash" korxonasi negizida kichik sanoat zonasi tashkil etilib, 24 ta yangi korxonada mingdan ziyod ish o'rni yaratildi. Toshkent shahridagi "Texnopark", Farg'onadagi "Mexanika zavodi"da ham bunga misol bo'la oladi. Bugungi kunda bo'sh turgan va past quvvatlarda ishlayotgan yana 19 mingta ob'ekt bor. Joriy yilda umumiy qiymati 6 milliard 500 million dollarlik 226 ta yirik tarmoq va hududiy loyihalar ishga tushirilishi, 35 mingta yangi ish o'rni tashkil etilishi mo'ljallangan.

Ma'lumki, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar iqtisodiyot rivojida juda muhim o'rin tutadi. Joriy yilda 756 ta loyiha doirasida 7 milliard 700 million dollar miqdoridagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlarni o'zlashtirish belgilangan.

Farg'ona viloyatida 2021-2022 yillarda umumiy qiymati \$1,6 mlrd. 949 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilishi ta'kidlandi.

Muhokamalar: Bunda kimyo, to'qimachilik, charm-poyabzal, qurilish materiallari, elektrotexnika sanoati "drayver" bo'ladi.

Shahar va tumanlarni mahallabay tizimda rivojlantirish maqsadida viloyatdagi 76 ta sektorning har birida iqtisodiy kompleksning malakali xodimlaridan iborat boshqaruv ofislari tashkil etilishi aytiladi. Bu mutaxassislar mahallaga birlashtirilgan bank xodimlari bilan birga, joylardagi sharoitni o'rganib, loyihalarni shakllantiradi va amalga oshirishga ko'maklashadi. Zarur bo'lsa, ishsiz aholi, yoshlar va ayollar kasb-hunarga o'rgatiladi.

Farg'ona viloyatida 2021-2022 yillarda umumiy qiymati 17 trillion so'mlik 949 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilishi ta'kidlandi. Bunda kimyo, to'qimachilik, charm-poyabzal, qurilish materiallari, elektrotexnika sanoati "drayver" bo'ladi.

Xususan, "Farg'ona azot" aksiyadorlik jamiyatida jami 537 million dollarlik 3 ta loyiha, to'qimachilikda 154 million dollarlik 14 ta loyiha amalga oshiriladi.

Viloyatda yer resursi cheklangani sababli cho'l joylar, yaylov va adirliklarda 33 ming gektar yer o'zlashtiriladi. Bunga sarflanadigan 350 milliard so'mlik xarajatlarning 110 milliard so'mi subsidiya hisobidan qoplab beriladi.

2-jadval

Investitsiyalar va qurilish faoliyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari

	2019	2020 yil yanvar-dekabr	2021 yil yanvar-mart

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar - jami, mlrd. so'm	195927,3	202000,1	35592,4
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushi, % da	38,3	34,8	27,7
Uy-joylarning umumiy maydoni ming m ²	15501,5	12677,4	2523,0
umumta'lim maktablari, ming o'quvchi o'rin	114,1	112,3	-
kasalxonalar, ming yotoq	7,4	4,1	-
poliklinika muassasalari, shu jumladan qishloq vrachlik punktlari, smenada ming qatnov	20,7	5,1	-
Qurilish ishlari, mlrd. so'm	71156,5	87823,8	19547,4

Mamlakatimizda investitsiya va qurilish faoliyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili quyidagicha. Asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmi 19,5927,3 milliard so'mni, 2020 yilning yanvar-dekabrda 202,000,1 milliard so'mni va 2021 yilning yanvar-martida 35,592,4 milliard so'mni tashkil etdi.

Asosiy fondlarga investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 2019 yilda 38,3%, 2020 yilning yanvar-dekabrda 34,8% va 2021 yilning yanvar-martida 27,7% ni tashkil etdi.

Uy-joylarning umumiy maydoni 2019 yilda 15501,5 ming kvadrat metr, 2020 yil yanvar-dekabrda 12677,4 ming kvadrat metr va 2021 yil yanvar-mart oylarida 2523,0 ming kvadrat metrni tashkil etadi.

2019 yilda qurilish ishlari 71 156,5 milliard so'm, 2020 yil yanvar -dekabr oylarida 87 823,8 milliard so'm, 2021 yil yanvar -mart oylarida esa 19 547,4 milliard so'mni tashkil etdi.

Ijtimoiy sohalarni, infratuzilmani rivojlantirish chora-tadbirlari belgilandi. Joriy yilda viloyatning 11 ta joyida 105 ta ko'p qavatli uylar barpo etilishi ta'kidlandi. 312 milliard so'm markazlashgan mablag'lar hisobidan 503 kilometr yo'llarni ta'mirlash bo'yicha vazifa qo'yildi.

Joriy yilda Farg'ona viloyatidagi 19 ta tuman va shaharlarda bittadan Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi tashkil etilishi, "Yoshlar: 1+1" loyihasi doirasida 8 mingdan ziyod ihsizlar tadbirkorlik va kasb-hunarga o'qitilishi belgilandi. Xotin-qizlarning o'z ishini ochishiga ko'maklashish, muhtojlarning uy sotib olishi uchun boshlang'ich badal pullarini to'lab berish, ajralishlarning oldini olish muhimligi ta'kidlandi.

O'zbekiston va Janubiy Koreya rahbarlari EDCF bilan hamkorlik bo'yicha 1 milliard dollarlik bitimni imzoladi.

Sammit yakunida "To'rtinchi sanoat inqilobi"ga ko'maklashish maqsadida raqamlashtirish sohasidagi hamkorlik to'g'risida memorandum, EDCF bilan hamkorlik bo'yicha uch yilga mo'ljallangan bitim, zamonaviy ko'p tarmoqli klinika va loyihaviy institut – Kimyoviy texnologiyalar markazini qurish loyihalari bo'yicha zayom bitimlari imzolandi.

Joriy yilda janubiy koreyalik hamkorlar ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida jami 400 million dollargacha investitsiyalarni o'zlashtirish kutilmoqda.

Bundan tashqari, yuqori texnologik sohalarda, shu jumladan energetika, neft-gaz, kimyo va neft-kimyo, farmatsevtika, qayta ishlash sanoati, qishloq xo'jaligi, infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport va logistika, turizm va ko'plab boshqa tarmoqlarda qiymati jami 3,4 milliard dollardan ziyod bo'lgan 55 ta yangi loyiha tayyorlanmoqda.

Ikki tomonlama ustuvor dasturlarni amalga oshirishda Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish fondi (EDCF) va Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan samarali sheriklik olib borilayotgani yuksak baholandi.

Prezident Mun Chje In O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi masalasiga har tomonlama ko'maklashishini yana bir bor tasdiqladi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining 2021 yilga mo'ljallangan hisobotiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar hajmi 10,5 mlrd dollarni tashkil etadi

Shundan 7,6 mlrd dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'ladi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 2020 yilning yakunlari bo'yicha asosiy vositalarga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2019 yilning shu davriga nisbatan 101,5%ni yoki 6,6 mlrd dollarni tashkil etdi. Investitsiya dasturi doirasida 197 loyiha amalga oshirildi va shuning hisobiga 38 ming ish o'rni yaratildi. Bundan tashqari, hududiy investitsiya dasturlari doirasida jami 59,1 trln so'mlik 10 586 loyiha amalga oshirildi va bu 131,5 mingga yangi ish o'rni tashkil etilishiga imkon berdi.

Tashqi savdo faoliyati ko'rsatkichlari ko'rib chiqildi – jumladan, 2020 yil yakunlariga ko'ra, eksport hajmi 15,1 mlrd dollarni tashkil etgani ta'kidlandi. Shu bilan birga, 47 turdagi yangi mahsulotlarni eksportga yetkazib berish yo'lga qo'yildi va bir qator mamlakatlarning yangi istiqbolli bozorlariga chiqishga erishildi.

Asosiy fondlar tarkibiga kiritilgan aktivlar miqdori, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha% da, quyidagicha o'zgardi. Umuman olganda, O'zbekistonda 2019 yilda vaziyat 138,1%ni tashkil etib, 38,1%ga o'sdi. 2020 yilning yanvar-dekabrida bu 91,8%ni, 2021 yilning yanvar-martida-96,5%ni tashkil etdi. Pandemiya sharoitida 2020 yilda 8,1 foizga, 2021 yilda esa 3,5 foizga kamaydi.

Mamlakat hududlarida, 2019 yilga kelib, asosiy fondlarga kiritilgan aktivlar miqdori,% Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qashqadaryo viloyatida, 2019 yilda - 194,9%, eng kichik - Jizzax viloyatida kuzatilgan. 95,9%.

3-jadval

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar
(o'sish sur'ati, % da)**

	2019	2020 yil yanvar-dekabr	2021 yil yanvar-mart
O'zbekiston Respublikasi	138,1	91,8	96,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	100,3	80,4	99,6
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	129,0	100,5	138,2
Buxoro	95,9	96,7	151,6
Jizzax	194,9	152,5	103,2
Qashqadaryo	131,2	74,1	52,7
Navoiy	144,3	78,7	73,4
Namangan	131,1	87,9	93,1
Samarqand	134,5	117,9	141,1
Surxondaryo	144,0	76,3	97,2
Sirdaryo	186,0	111,0	108,5
Toshkent	158,5	82,8	122,6
Farg'ona	132,0	116,4	108,2
Xorazm	150,7	114,5	102,0
Toshkent sh.	145,8	96,5	96,2

2020 yil yanvar -dekabr holatiga ko'ra, asosiy vositalarga kiritilgan aktivlar miqdori% bilan Qashqadaryo viloyatida eng katta - 152,5%, eng kichik - Navoiy viloyatida 74,1%ni tashkil etdi.

2021 yil yanvar -mart oylarida asosiy vositalarga kiritilgan aktivlar miqdori bo'yicha,% bo'yicha, mintaqalarda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax viloyatida kuzatildi - 151,6%, eng past - Navoiy viloyatida 52,7. %.

So'nggi yillarda O'zbekistonda birinchi chorakdan tashqari asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari tezlashmoqda. 2020 yil pandemiya oqibatlarini tufayli biroz pasayish yuz bergan. Shuningdek, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining YaIMga nisbati, shu jumladan 2018 – 30,6%, 2019 – 37,1% da o'sish kuzatilmoqda.

Asosiy omillar orasida asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlaridagi xorijiy investitsiyalardir. Masalan, 2019 yil yakunlari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi jami investitsiyalarning 31 foizini tashkil etdi, bu esa 2018 yilga nisbatan 3,9 barobar ko'p. Pandemiyadan keyin investitsiyalar hajmini yanada oshirish va ichki iqtisodiyotni tiklash, shuningdek, moliyaviy ahvoning yomonlashuvi vaqtida xorijiy investorlarni jalb qilish mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash uchun yangi mexanizmlar va yondashuvlarni talab qiladi. Bunday imkoniyat O'zbekistonda joriy yilning oxirigacha amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan yangi 3-bosqich monitoring mexanizmi bilan ta'minlanadi.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib, mamlakatimizdagi investitsion muhitni rivojlantirish buyicha quyidagi taklif va mulohazalarni bildirmoqchimiz:

1. Tarmoqlar va sohalar kesimida investitsiya siyosatini takomillashtirish, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga 2022-2026 yillarda amalga oshiriladigan yirik investitsiya loyihalarini aniqlashtirish, davlat xususiy sherikligini kengaytirish.
2. Turistik sanoat xizmatlarini elektron usul orqari tijoratini tashkil etish va xorijiy va mahalliy sayyohlarning sifatli infratuzilma ob'ektlari va turistik resurslar haqida ma'lumotni jamlagan hududning interfaol turistik xaritanani yaratishga investitsiya jalb qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A. Axmedov, I.U. Nematov "Investitsiya va lizing asoslari" T. 2015 y
2. R.H. Alimov "Investitsiya faoliyatini baholash" T. 2015 y
3. B. Mamatov, D. Xo'jamqulov. "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" T. 2014 y
4. <https://lex.uz/docs/-4664142>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Investitsiya>
6. <https://xs.uz/uz/post/investitsiyalar-va-investitsiya-faoliyati-togrisida>
7. <https://lex.uz/docs/-32450>
8. <https://uzeng.uz/uz/documents/2516/28069/>
9. <https://chamber.uz/page/2288>
10. <http://invest-in-uzbekistan.org/uz/novosti-uzbekistana/sovershenstvuetsya-poryadok-predostavleniya-investitsionnoj-vizy/>

ISH BILAN BANDLIK XIZMATI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Dilmonov Qudrat Baxtiyorovich

Buxoro Davlat Universiteti

"Turizm va mexmonxona xo'jaligini boshqarish" kafedrasida katta o'qituvchisi

Ushbu maqolada ish bilan bandlik xizmati, mamlakatimizdagi ishsizlik darajasi, ish bilan bandlik darajasi, milliy iqtisodiyotga ishsizlik darajasining va ish bilan bandlik darajasining ta'siri aniqlangan. Tadbirkorlik sub'ektlari va o'zini o'zi band qilgan fuqarolarga mehnat stajini hisobga olish va rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi berilish jarayoni bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha takliflar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mehnat organlari tuzilmasini takomillashtirish va fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish hamda mehnatini muhofaza qilish tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 20 avgustdagi PQ-3913-son qarorini ijro etish, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga yuklangan vazifalar ijrosi samaradorligini oshirish, vazirlik faoliyatini takomillashtirish, shuningdek, mehnat, aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni samarali amalga oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qilindi.

Joriy yilning iyun oyida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Respublika bandlik va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi tomonidan Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan metodika bo'yicha respublikaning 101 ta shahar va tumanlarida navbatdagi ijtimoiy so'rov o'tkazildi. Unda 490 ta fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari, 4,9 mingta uy xo'jaliklari hamda 25,9 ming nafar fuqaro qamrab olindi.

Vazirlik xabariga ko'ra, SOVID-19 pandemiyasi davrida koronavirus infeksiyasi tarqalishini oldini olishga qaratilgan karantin chora-tadbirlari mehnat bozoriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari respublikada ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholining 13,2 foiz tashkil etganligini ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich 2019 yilning shu davrida 9,1 foizga teng bo'lgan. Ishga muhtoj bo'lganlarning umumiy soni 1,9 mln kishini tashkil etadi (16-30 yoshgacha bo'lganlar o'rtasida ishsizlik darajasi- 20,1 foiz, ayollar o'rtasida ishsizlik darajasi esa - 17,4 foiz).

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra mehnat resurslari soni 19 mln kishini tashkil etib, 2019 yilning shu davriga nisbatan 0,6 foizga ko'paygan bo'lsa SOVID-19 pandemiyasining iqtisodiyot sub'ektlari faoliyatiga salbiy ta'siri natijasida iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 foizga yoki 671 ming kishiga kamayib, 12,7 mln kishini tashkil qildi.

Tadbirkorlik sub'ektlari va o'zini o'zi band qilgan fuqarolarga mehnat stajini hisobga olish va rag'batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi berilishi norasmiy sektorda bandlar ulushini kamaytirish imkoniyatini bermogda.

Respublikada iqtisodiy nafaol aholi soni 2019 yil mos davriga nisbatan 4,5 foizga oshgan. Ushbu ko'rsatkich o'tkazilgan tadqiqot davomida tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish sohasi vakillari karantin chora-tadbirlari davrida vaqtinchalik o'z faoliyatlarini to'xtatib turishlarini va cheklovlardan so'ng qayta tiklash niyatini bildirib, boshqa faoliyat bilan shug'ullanmaslikni afzal ko'rayotganligi sababli oshganligini ko'rsatdi.

2020 yilning yanvar-iyun oylarida, ayniqsa SOVID-19 pandemiyasining mehnat bozoriga salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida mehnat organlari tomonidan 588,2 ming(30 yoshgacha bo'lganlar 159,9 ming va ayollar 229,4 ming) ishsiz va band bo'lmagan aholiga xizmatlar ko'rsatildi.

Xususan, 501,1 ming nafari doimiy ish o'rinlariga ishga joylashtirish va jamoat ishlariga jalb qilish orqali bandligi ta'minlandi, 15,0 ming nafar ishsizlar kasb-hunarga o'qitildi, 27,0 ming nafar ishsiz shaxslarga Bandlikka ko'maklashish jamg'armasidan 10,1 mlrd. so'm ishsizlik nafaqasi to'lab berildi.

Shuningdek, Bandlikka ko'maklashish jamg'armasidan ajratiladigan subsidiyalar hisobiga 24,8 ming nafar fuqaro shaxsiy tomorqalarida, 15 ming nafar fuqaro qishloq xo'jaligi, tikuvchilik va hunarmandchilik kooperativlarida a'zo sifatida birlashtirilib, band qilindi, 3 ming nafar fuqaro tadbirkorlikka jalb etildi, 256 ta ish beruvchiga mehnat organlari yo'llanmasi bilan ishga olingan 2,3 ming nafar ishsizlarning kasbiy malakasini oshirganligi va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini ishga olganligi uchun moddiy ko'mak ajratildi.

Yanvar-iyun oylarida ishsizlik darajasi 13,2% ni tashkil etdi. Ish bilan ta'minlanishga muhtojlar soni 1,94 mln kishigacha ortdi. Karantin choralari mehnat bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Murojaat qilganlardan 362 874 nafari ishga joylashtirildi, 571 732 nafari jamoat ishlariga jalb qilindi, 52 222 nafar ishsiz shaxslar kasbga o'qitildi va 89 651 nafar shaxsga ishsizlik nafaqasi tayinlandi. 2020 yilda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan 69 970 nafar band bo'lmagan aholiga jami 173 158,3 mln. so'm subsidiyalar ajratildi. Xususan, ish beruvchilarga – aholi bandligiga ko'maklashish markazlari yo'llanmasi bo'yicha ishga qabul qilingan 4 481 nafar xodimlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga sarflanadigan xarajatlarni qoplash uchun 10,2 mlrd. so'm subsidiya ajratildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra mehnat resurslari soni 19 142,3 ming kishini tashkil etib, 2020 yilning shu davriga nisbatan 0,7 foizga ko'paygan. Iqtisodiyot tarmoqlarida band

bo‘lganlar soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 foizga yoki 301,5 ming kishiga kamayib, 13 296,4 ming kishini tashkil qildi. Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarining rasmiy sektorda band bo‘lgan aholi soni 5 732,4 ming kishini tashkil qilib, o‘tgan yil shu davrga nisbatan 0,4 foizga yoki 20,3 ming kishiga oshdi.

Jadval-1

Ishsizlik darajasi to‘g‘risida ma‘lumot, %da

	2018	2019	2020
O‘zbekiston Respublikasi	9,3	9,0	10,5
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	9,5	9,1	10,5
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	9,6	9,2	10,9
Buxoro	9,0	8,9	10,6
Jizzax	9,4	9,2	11,0
Qashqadaryo	9,7	9,3	11,1
Navoiy	8,7	8,5	9,4
Namangan	9,5	9,1	10,6
Samarqand	9,7	9,3	11,0
Surxondaryo	9,5	9,3	11,1
Sirdaryo	9,6	9,3	11,0
Toshkent	9,0	8,9	10,5
Farg‘ona	9,7	9,3	10,9
Xorazm	9,5	9,1	10,9
Toshkent sh.	7,9	7,4	8,0

Rasmiy sektorda ishlovchilar sonining oshishi pandemiya vaqtida cheklovchi chora-tadbirlar bosqichma-bosqich yumshatilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlaridagi yuridik shaxslarda band bo‘lganlar 3,6 foizga yoki 174,7 ming kishiga, yuridik shaxs tashkil qilmasdan ishlayotgan yakka turdagi tadbirkorlik subektlari 5 foizga yoki 10,8 ming kishiga oshgan. Shuningdek, ish haqi to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilingan ishsizlar soni 43,5 ming kishini tashkil etdi.

Jadval-2

Mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nafaol aholi bo‘yicha taqsimlanishi (ming kishi)

	2018	2019	2020
Jami mehnat resurslari	18829,6	18949,0	19142,3
Shahar	10032,5	10052,7	
jamiga nisbatan foizda	53,3	53,1	
Qishloq	8797,1	8896,3	
jamiga nisbatan foizda	46,7	46,9	
iqtisodiy faol aholi	14641,7	14876,4	14797,9
Shahar	7682,0	7838,2	
jamiga nisbatan foizda	52,5	52,7	
Qishloq	6959,7	7038,2	
jamiga nisbatan foizda	47,5	47,3	
iqtisodiy nafaol aholi	4187,9	4072,6	4344,4
Shahar	2350,5	2214,5	
jamiga nisbatan foizda	56,1	54,4	
Qishloq	1837,4	1858,1	

jamiga nisbatan foizda	43,9	45,6	
------------------------	------	------	--

2020-yil yakuni bo'yicha O'zbekistonda ishsizlik darajasi 10,5 foizni tashkil etdi. 2020-yilning dekabr oyida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Respublika aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi tomonidan respublikaning 108 ta shahar va tumanlarida ijtimoiy tadqiqot amalga oshirildi. Tadqiqot davomida fuqarolarning 490 ta o'zini-o'zi boshqarish organlari, 4,9 mingta uy xo'jaligi va 26,0 ming nafar fuqaro qamrab olindi.

Jadval-3

Mehnat bozori ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2020 yil 1-chorak	2020 yil 2-chorak	2020 yil 3-chorak	2020 yil 4-chorak ¹⁾
Ish bilan band aholi (bir davrda o'rtacha; ming kishi)				
Iqtisodiy faol aholi	14838,3	14680,7	14847,8	14797,9
shundan: ish bilan ta'minlangan	13438,6	12736,6	13205,3	13239,6
shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3498,0	3811,2	3749,1	3560,0
Sanoat	1787,3	1605,2	1705,4	1789,7
Qurilish	1283,8	1110,4	1208,7	1267,8
Savdo	1416,7	1137,3	1358,4	1364,4
Tashish va saqlash	644,2	523,7	634,5	623,0
Ta'lim	1154,0	1124,9	1151,6	1160,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	639,5	616,1	641,7	652,1
Boshqa turlari	3015,1	2807,8	2755,9	2822,5
Davlat sektori	2549,0	2572,6	2594,6	2497,0
Nodavlat sektori	10889,6	10164,0	10610,7	10742,5
Mehnat idoralarida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar	32,1	73,2	33,7	37,1

Aholi bandligiga ko'maklashish markazida ro'yxatdan o'tgan, tadbirkorlik qilishni xohlovchi 6 491 nafar ishsiz shaxslarga – yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tish, kichik korxonalar va mikrofirmalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, tadbirkorlikka o'qitish va kredit olishda sug'urta polisi to'lovi uchun - 1,5 mlrd. so'm subsidiya ajratildi. 507 nafar ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – 1,1 mlrd. so'm subsidiya ajratildi. engil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish, urug'liklar, ko'chatlar va sug'orish vositalari xarid qilish uchun 35 557 nafar tomorqa yer egalari – "Tomorqa xizmati" MChJ, aholi bandligiga ko'maklashish markazi va tomorqa yer egalari o'rtasida tuzilgan uch tomonlama shartnomalar asosida 109,5 mlrd. so'm subsidiya ajratildi.

Jadval-4

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha mehnat resurslari va aholi bandligi (ming kishi)

	Soni		
	mehnat resurslari	iqtisodiy faol aholi	iqtisodiyotda bandlar
2019			
O‘zbekiston Respublikasi	19142,3	14797,9	13239,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1069,0	781,7	699,3
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1752,9	1387,3	1236,7
Buxoro	1070,4	876,7	783,6
Jizzax	774,6	598,9	533,1
Qashqadaryo	1817,6	1334,2	1186,7
Navoiy	556,3	446,2	404,3
Namangan	1579,5	1205,3	1078,0
Samarqand	2130,4	1585,4	1410,9
Surxondaryo	1457,6	1104,1	982,0
Sirdaryo	485,7	375,1	333,7
Toshkent	1614,9	1336,5	1195,6
Farg‘ona	2068,5	1613,9	1438,3
Xorazm	1042,4	800,8	713,7
Toshkent sh.	1722,3	1351,8	1243,7
2020			
O‘zbekiston Respublikasi	18949	14876,4	13541,1
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1063,0	782,2	711,3
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1741,7	1413,9	1284,5
Buxoro	1081,0	875,4	797,1
Jizzax	764,1	590,3	536,2
Qashqadaryo	1813,8	1345,3	1220,0
Navoiy	555,8	450,9	412,7
Namangan	1573,9	1214,7	1104,6
Samarqand	2117,1	1604,2	1455,8
Surxondaryo	1456,9	1128,8	1024,2
Sirdaryo	484,5	385,9	350,1
Toshkent	1607,3	1353,5	1232,9
Farg‘ona	2052,1	1644,8	1492,6
Xorazm	1029,6	810,0	736,5
Toshkent sh.	1608,2	1276,5	1182,6

O‘tgan vaqt davomida tuman va shahar aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari tomonidan ish beruvchi va ishsiz fuqarolar murojaati bo‘yicha 2 141,8 mln. so‘mlik subsidiyalar berildi, natijada 2 493 nafar ishsif fuqaroning bandligi ta‘minlandi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan atroflicha tahlil o‘tkazish, mehnat resurslari soni va sifatini xolis va sifatli baholash, shuningdek, aholini ishga joylashtirish va bandligini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar samaradorligiga erishish maqsadida mehnat bozorini muntazam o‘rganish ishlari davom ettiriladi.

**Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni
(yil oxiriga, jami aholiga nisbatan ulushi, foizda)**

Jadval-5

	2018	2019	2020
O‘zbekiston Respublikasi	59,5	58,8	58,2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	60,3	59,8	59,5
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	59,6	58,8	58,0
Buxoro	60,6	59,9	59,5
Jizzax	58,8	58,1	57,6
Qashqadaryo	59,1	58,5	58,2
Navoiy	60,5	59,8	59,1
Namangan	60,2	59,4	58,6
Samarqand	58,4	57,7	57,2
Surxondaryo	59,1	58,5	58,0
Sirdaryo	60,9	60,4	59,9
Toshkent	59,4	58,8	58,0
Farg‘ona	59,9	59,1	58,4
Xorazm	60,4	60,0	59,7
Toshkent sh.	58,4	57,8	56,2

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida tuman va shahar aholi bandligiga ko‘maklashish markazlariga ishga joylashtirishda yordam so‘rab **404 569** nafar shaxs murojaat qilgan bo‘lib, ulardan **138 173** nafarini 16-30 yoshgacha bo‘lgan shaxslar tashkil etdi. Murojaat qilganlardan **167 713** nafari ishga joylashtirildi, **139 679** nafari jamoat ishlariga jalb qilindi, **10 085** nafari kasbga qayta o‘qitishga yo‘naltirildi, **31 938** nafar shaxsga ishsizlik nafaqasi tayinlandi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida yiliga qariyb 280 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratiladi. Demografik sabablarga ko‘ra esa har yili deyarli 600 mingta ish o‘rni tashkil etilishi kerak. Har oyda ishsiz fuqarolar tarkibini mahallalar kesimida o‘rganib chiqib, ish bilan bandligi ta‘minlashga ko‘maklashish. Ish bilan bandlikka ko‘maklashuvchi tashkilotlar tomonidan alohida sayt tashkil qilib, ishsiz aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish.

O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni

Jadval-6

	Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi	ulardan:		Aholining iqtisodiy faollik darajasi, foizda	Aholining bandlik darajasi, foizda	Ishsizlik darajasi, foizda
		iqtisodiyot da bandlar	ishsizlar			
2019						
O‘zbekiston Respublikasi	14797,9	13239,6	1558,4	73,9	66,1	10,5
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	781,7	699,3	82,4	68,5	61,3	10,5
<i>viloyatlar:</i>		0,0	0,0	0,0		
Andijon	1387,3	1236,7	150,6	75,3	67,1	10,9
Buxoro	876,7	783,6	93,1	75,9	67,8	10,6
Jizzax	598,9	533,1	65,8	74,1	66,0	11,0
Qashqadaryo	1334,2	1186,7	147,5	69,2	61,5	11,1
Navoiy	446,2	404,3	42,0	74,7	67,6	9,4

Namangan	1205,3	1078,0	127,3	71,9	64,4	10,6
Samarqand	1585,4	1410,9	174,5	70,6	62,8	11,0
Surxondaryo	1104,1	982,0	122,0	71,4	63,6	11,1
Sirdaryo	375,1	333,7	41,4	73,1	65,0	11,0
Toshkent	1336,5	1195,6	140,9	77,2	69,0	10,5
Farg'ona	1613,9	1438,3	175,5	72,5	64,6	10,9
Xorazm	800,8	713,7	87,2	71,2	63,5	10,9
Toshkent sh.	1351,8	1243,7	108,1	90,4	83,2	8,0
2020						
O'zbekiston Respublikasi	14876,4	13541,1	1335,3	75,0	68,3	9,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	782,2	711,3	70,9	69,2	63,0	9,1
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	1413,9	1284,5	129,4	77,2	70,2	9,2
Buxoro	875,4	797,1	78,3	76,2	69,3	8,9
Jizzax	590,3	536,2	54,1	74,0	67,2	9,2
Qashqadaryo	1345,3	1220	125,3	70,7	64,1	9,3
Navoiy	450,9	412,7	38,2	75,9	69,5	8,5
Namangan	1214,7	1104,6	110,1	73,2	66,5	9,1
Samarqand	1604,2	1455,8	148,4	72,1	65,4	9,3
Surxondaryo	1128,8	1024,2	104,6	74,0	67,2	9,3
Sirdaryo	385,9	350,1	35,8	76,1	69,0	9,3
Toshkent	1353,5	1232,9	120,6	78,5	71,5	8,9
Farg'ona	1644,8	1492,6	152,2	74,5	67,6	9,3
Xorazm	810	736,5	73,5	72,8	66,2	9,1
Toshkent sh.	1276,5	1182,6	93,9	86,9	80,5	7,4

O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH YO'LLARI VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Rajabova M.A.

Buxoro davlat universiteti

"Servis sohasi iqtisodiyoti"

Kafedrasi o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosati xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun yanada qulay shart-sharoitlarni ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni ishonchli huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmini barpo etish, mana shu asosda mamlakatdagi investitsiya muhitini yanada yaxshilashda MDH mamlakatlari orasida yetakchi hisoblanadi.

Qabul qilinayotgan sohaga oid hujjatlar quyidagilarni ham o'z ichiga oladi:

- yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish;
- ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish;
- xorijiy investorlar bilan ishlashdagi turli byurokratik g'ovlar va to'siqlarni bartaraf etish;
- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo'l qo'ymaslik.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2018 yildagi 30,5 foizdan 2025 yilda 37,5 foizga o'sishi kutilmoqda. Shuningdek, 2025 yilda jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar miqdori 11 milliard AQSh dollarga yetkaziladi, bu ko'rsatkich 2018 yilda 1,6 milliard AQSh dollari tashkil qilgan.

Mamlakatimizda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi quyidagicha o'zgardi.

O'zbekiston Respublikasi 2019 yilda 5 834,6 milliard so'm, 2020 yil yanvar-dekabrda 5 900 900 milliard so'm, 2021 yil yanvar-mart oylarida 1027,9 milliard so'm sarflaydi.

Xususan, aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi mamlakat hududlari bo'yicha quyidagicha taqsimlangan. Qoraqalpog'iston Respublikasida 2019 yilda - 4644,4 milliard so'm, 2020 yilning yanvar -dekabrda - 4873,7 milliard so'm, 2021 yilning yanvar -martida - 726,3 milliard so'm. Natijada 2021 yilga borib 370,7 mlrd. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar kamaygan.

Mamlakat hududlarida, 2019 yilga kelib, aholi jon boshiga asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha, eng katta hududlar 17855,2 milliard so'mni tashkil etib, Navoiy viloyatida kuzatildi. so'mni tashkil etib, 2336,2 mlrd.

2020 yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi Toshkent viloyatida eng yuqori bo'lib, 17062,5 milliard so'mni, eng past ko'rsatkich esa Andijon viloyatida 2772,4 milliard so'mni tashkil etdi.

2021 yil yanvar -mart oylarida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori darajasi mintaqalarda kuzatildi, bu 2854,5 milliard so'mni, eng past esa 2854,5 milliard so'mni tashkil etdi. U Xorazm viloyatida kuzatilgan va 490,1 mlrd.

Mamlakatimizda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2019-2021 yillar davomida quyidagicha o'zgargan.

Investitsion siyosat strategiyasining amalga oshirilishining natijasi respublikaning hududiy va sanoat rivojlanishini har tomonlama ta'minlash, shuningdek mahsulotlarning xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan qiymat zanjirlarini shakllantirish, mavjudlarini mustahkamlash va yangi hududlararo va tarmoqlararo aloqalarni shakllantirish, sohalar, hududlar, davlat organlari va xususiy biznes o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'ladi.

2021 yilda 7,5 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar(m.s.)

1-jadval

	2019	2020 yil yanvar-dekabr	2021 yil yanvar-mart
O'zbekiston Respublikasi	5834,6	5900,9	1027,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4644,4	4273,7	726,3
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	2406,0	2772,4	568,8
Buxoro	5429,3	5812,1	1369,6
Jizzax	5778,9	9291,9	1169,3
Qashqadaryo	7534,6	6032,2	801,3
Navoiy	17855,2	15954,9	2816,4
Namangan	4344,1	4220,5	758,8
Samarqand	2674,9	3431,7	631,9
Surxondaryo	4552,8	3737,3	640,4
Sirdaryo	7002,9	8404,0	1397,3
Toshkent	6970,0	6399,9	1410,9
Farg'ona	2336,2	2990,0	522,5
Xorazm	2718,4	3544,6	490,1
Toshkent sh.	16710,5	17062,5	2854,5

Kelasi yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va eksport hajmini 17 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilmoqda.

O'zbekistonda yil yakuni bo'yicha jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi avvalgi yildagiga nisbatan oshib, 6,6 milliard dollarga yetishi va eksport ko'rsatkichi 15,1 milliard dollar miqdorida bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Dunyoda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdorining 40 foizga pasayishi va 2020 yilda jahon savdosi hajmining 25 foizga kamayganiga qaramay, mamlakatda yirik investitsiya loyihalar ishga tushirilgan.

«Kelgusi yilda 7,5 milliard dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va eksport hajmini 17 milliard dollarga yetkazish rejalashtirmoqda. Bunda ustuvor soha eng yuqori iqtisodiy samaraga ega bo'lgan iqtisodiyot sohasi bo'ladi», — deyiladi vazirlik xabarida.

Mamlakatimizda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi mintaqalar bo'yicha quyidagi tartibda o'zgardi. O'zbekiston Respublikasi 2019 yilda 195927,3 milliard so'm, 2020 yil yanvar-dekabrda 202,000,1 milliard so'm, 2021 yil yanvar-mart oylarida 35592,4 milliard so'm sarflaydi.

Xususan, mamlakat hududlari o'rtasida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi quyidagicha taqsimlangan. Qoraqalpog'iston Respublikasida 2019 yilda 8 75050,6 milliard so'm, 2020 yilning yanvar-dekabrda 8 167,4 milliard so'm, 2021 yilning yanvar-mart oylarida 1398 so'm, 5 milliard so'm. Natijada, 2021 yilga kelib, 583,2 mlrd. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar kamaygan.

Mamlakat hududlarida, 2019 yilga kelib, aholi jon boshiga asosiy kapitalga qo'yilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha, viloyatlar bo'yicha eng kattasi Toshkent viloyatida kuzatildi, 42458,1 milliard so'mni, eng kichigi esa 42458,1 milliard so'mni tashkil etdi. so'mni tashkil etib, 5 032,0 mlrd.

2020 yil yanvar -dekabr holatiga ko'ra, aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning eng katta hajmi 44778,8 milliard so'mni, eng kichiki esa 44778,8 milliard so'mni tashkil etdi. U Xorazm viloyatida kuzatilgan va 6663,2 mlrd. so'm.

2021 yil yanvar -mart oylarida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning eng katta hajmi, mintaqalarga investitsiyalar hajmi Toshkentda kuzatildi, bu 7722,4 milliard so'mni, eng kichik miqdori - 7722,4 milliard so'mni tashkil etdi. Bu Xorazm viloyatida kuzatilgan va 929,2 mlrd.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (joriy narxlarda, mlrd. so'm)

2-jadval

	2019	2020 yil yanvar-dekabr	2021 yil yanvar-mart
O'zbekiston Respublikasi	195927,3	202000,1	35592,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8750,6	8167,4	1398,5
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	7452,1	8755,1	1816,9
Buxoro	10366,6	11248,7	2670,1
Jizzax	7900,9	12974,2	1652,8
Qashqadaryo	24462,5	19921,7	2678,1
Navoiy	17646,3	16042,6	2859,5
Namangan	12084,9	11982,5	2180,0
Samarqand	10266,7	13426,0	2499,4
Surxondaryo	11835,1	9923,0	1720,8
Sirdaryo	5869,1	7174,5	1205,2
Toshkent	20353,9	18994,4	4206,0
Farg'ona	8685,4	11320,0	1999,6
Xorazm	5032,0	6663,2	929,2
Toshkent sh.	42458,1	44778,8	7722,4

Buning uchun milliy eksportchilar bilan ishlashda quyidagi yo‘nalish kuchaytiriladi:

- eksportdan oldin moliyalashtirish,
- mahalliy tovarlarni xalqaro elektron tijorat saytlarida joylashtirish va ro‘yxatdan o‘tkazish;
- o‘zbek brendlarini jahon bozorlariga olib chiqish.

Eslatib o‘tamiz, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi O‘zbekistonda 2020 yilning yanvar–iyun oylarida o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning umumiy hajmi 4,8 milliard dollarni, shu jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar – 3,2 milliard dollarni va davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar — 1,6 milliard dollarni tashkil etganini ma’lum qilgandi.

Aylanma mablag‘larni to‘ldirish maqsadida eksport qiluvchilarga berilgan kreditlar miqdorining 50 foizigacha bo‘lgan qismini kafolatlash tartibi ham yo‘lga qo‘yildi.

Prognozga asosan, xorijiy investitsiyalar hajmi 10,5 mlrd dollarni tashkil etadi, shundan 7,6 mlrd dollari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir. O‘z navbatida, 226 ta yirik, yuqori iqtisodiy ahamiyatga ega sanoat loyiha ishga tushiriladi va 34 mingta ish o‘rni tashkil etiladi.

Hududiy investitsiya dasturlari doirasida 94,8 trln so‘mlik mablag‘ o‘zlashtirilishi va 7106 investitsiya loyihasi ishga tushirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, buning natijasida qariyb 162 mingga yangi ish o‘rni yaratiladi.

2021 yilda qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, ipakchilik, elektrotexnika va boshqa sohalarda eksport hajmining sezilarli darajada oshirilishi hisobiga eksportning kutilayotgan miqdori 17 mlrd dollardan ortiq bo‘lishi ta‘minlanishi ma’lum qilindi. Shu bilan birga, 2 mingdan ziyod yangi korxonalarni eksport faoliyatiga jalb etish va 120 yangi turdagi tayyor mahsulot eksportini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilganligi to‘g‘risida ma’lumot berildi.

ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA RAQAMLI MARKETINGNING NAZARIY ASOSLARI VA XUSUSIYATLARI

Tolipov Muhammadali Ulug‘bekovich
Buxoro Davlat Universiteti magistranti

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida Prezident Farmoni doirasida bir qator vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, 2020 — 2022-yillarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish doirasida: aholi punktlarini Internet tarmog‘iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini 2,5 milliongacha ko‘paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78 foizdan 95 foizga yetkazish, 2022-yil yakuniga qadar har bir aholi punkti 10 Mbit/sdan kam bo‘lmagan ma’lumotlarni uzatish tezligidagi Internet tarmog‘iga ulanish imkoniyati bilan ta‘minlash, 2023-yil yakuniga qadar barcha tuman va shaharlarda o‘quvchilarning ijodiy rivojlanishi va kompyuter dasturlash asoslarini o‘rganishi uchun mavjud ta‘lim muassasalari negizida 200 dan ortiq informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etish vazifalari belgilab berilgan [1].

So‘ngi vaqtlarda "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi juda ko‘p marta qo‘llanilmoqda. Darhaqiqat, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta‘sir o‘tkazgan. Jamiyat hayotida raqamli iqtisodiyot muhim rol o‘ynaydi. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi nisbatan uzoq bo‘lmagan vaqtda, 1995-yili Massachusetts universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan [2]. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o‘tishda, qanday o‘zgarishlar ro‘y berishi mumkinligini aytib o‘tgan. Raqamli iqtisodiyot - bu xo‘jalik faoliyatini yuritish bo‘lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko‘rinshidagi ma’lumotlar bo‘lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash natijasini tahlil qilish yordamida har xil turdagi

ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimga nisbatan samaraliroq yechimlar tadbiriq qilishdir. Boshqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron to'lovlar amalga oshirish, internet savdo, internet banking, yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir [2].

Raqamli marketing - bu elektron pochta, veb -saytlar, onlayn forumlar va yangiliklar guruhlar, interaktiv televideniye, uyali aloqa va boshqalar kabi interaktiv texnologiyalardan foydalangan holda elektron shaklda iste'molchilarni sotuvchilar bilan bog'laydigan to'g'ridan-to'g'ri marketing shakli.[3]

Amerikalik olim Filipp Kotlarning ta'kidlashicha "Tashkilotning marketing vazifasi iste'molchilar yoki jamiyat farovonligini saqlaydigan yoki kuchaytiradigan tarzda, maqsadli bozorlarning ehtiyojlari, istaklari va manfaatlarini aniqlash va raqobatchilarga qaraganda kerakli natijalarga erishishdir". Filipp Kotlarning raqamli marketing nazariyasiga bergan ta'rifida raqamli marketing 5D atrofida aylanadi degan nazariyada to'xtaladi, bular esa raqamli qurilmalar(digital devices), raqamli platformalar(digital platforms), raqamli media(digital media), , raqamli ma'lumotlar (digital data), and raqamli texnologiyalar (digital technology)[3].


1-jadval

An'anaviy iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyot ko'rinishlari¹

Bozor iqtisodiyoti	Blokcheyn texnologiyasi
Zavodlar	Ma'lumotlar bazasi
Katta ko'cha do'konlari	Internet sayti
Gazeta reklamalari	Ijtimoiy tarmoqlar marketingi
Tashish	Elektron savdo-raqamli qabul qilish
Banklar va kassa punktlari	Elektron bank xizmatlari
Maktabkar , darsliklar	Elektron ta'lim , elektron kitoblar
Ish joyida ishlash	Uyda onlayn ishlash
Jismoniy aktivlar	Google reytinglari
Qurilish	Veb-sayt ishlab chiqish
Ko'chmas mulk	Tarmoq egaligi
Naqd pul bilan to'lov	Elektron to'lov ,naqd pulsiz jamiyat
Mehnat va kapital	Avtomatlashtirish
Shaharlarni sayohat qilish	Onlayn muzeylar ko'rgazmalari

Amerikalik olim Jim Boykinning fikricha, "Raqamli marketing -bu brendlar va potentsial mijozlar o'rtasidagi raqamli(internet va boshqa) aloqa turlaridan foydalanishni rag'batlantirishdir. Bu nafaqat elektron pochta, ijtimoiy media va veb-reklama, balki marketing kanali sifatida matnli va multimediyali xabarlarni ham o'z ichiga oladi.Ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing faoliyatini olib borish biznes uchun kuchli vositadir,istiqbollu xaridorlarga erishish uchun keng ko'lamdagi ijtimoiy tarmoqlar va ijtimoiy media platformalari orqali kompaniya imijini oshirishda raqamli marketing 4ta bosqichga bo'linadi degan nazariyani ilgari suradi [4].

¹ Manba:Ilmiy izlanishlar natijasida muallif tomonidan tayyorlandi



1-rasm. Raqamli marketingning bosqichlari¹

Valensiya sayyohlik texnologiyalari institutining Professori Devid Ginerning fikricha, 2020 yilda koronavirus pandemiyasi Ispaniya iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri - turizmni tanazzulga uchratdi. Bu 2020 yil Ispaniyani atigi 20 million chet ellik sayyoh tashrif buyurdi, bu o'tgan yilga nisbatan 76 foizga kam (2019 yilda 83,5 million xorijlik sayyoh keldi). [5] Bu pandemiyadan eng ko'p zarar ko'rgan tarmoqlardan biri uchun katta yo'qotishlarni bildiradi. 2022 yilda turistlar sonini oldingi ko'rsatkichlar miqdoriga yetkazish rejalashtirilgan bo'lib, sayyohlik salohiyati imkon qadar ko'p turist jalb qiladigan turistik obyektlar uchun raqamli marketing strategiyalaridan foydalanilinish maqsadga muvofiq [5].

Pandemiyadan so'ng turistlar sonini oshirishda, sayohatchilare'tiboriga bir -biri bilan raqobatlashadigan barcha shaharlar yoki hududlar raqamli marketing platformasini yaratilishni muallif taklif etadi. Bu maqsadga erishish uchun restoran, mehmonxona, turistik obyektlar, turizm sohasidagi davlat organlariva boshqa turizm sohasidagi vakillar bilan birgalikda strategiya belgilanishi kerak bo'ladi.

Professori Devid Ginerning bir yil oldin bashorat qilganidek, superdigitalizatsiya barcha sohalarni qamrab oladi. Turizm sektori ham bundan mustasno emas. Agar turistik obyekt innovatsion boshqaruv modelini ishlab chiqa olmasa, u kelajakda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Darhaqiqat, ba'zi sayyohlik tashkilotlari an'anaviy marketing texnikasi endi yaroqsiz ekanligini allaqachon anglab yetishgan. Hozirgi maqsadlar raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun hozirgi vaziyatga moslashishga va raqamli rejimga o'tishga majbur bo'lmoqda. Shu sababli, sayyohlar maksimal bo'lishi mumkin bo'lgan diqqatga sazovor joylar raqamli texnologiyalardan foydalanish kerak [5].

Turizmدا xaridorlarning xulq -atvori tubdan o'zgardi, bu asosan Internetning rivojlanishi bilan bog'liq. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon Sayyohlik Tashkiloti (UNWTO)ning ma'lumotiga ko'ra, dunyo aholisining qariyb 4 milliardga yaqini Internetning turli shakllari va ishlatilishining faol foydalanuvchilari (masalan, qidiruv tizimi, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, bron qilish portali, to'lov portali va boshqalar). Sayyohlik marketingida AIDA klassik nazariyasidan foydalangan holda, ko'rinib turibdiki, barcha bosqichlarda sayyohlar raqamli (yoki internet) texnologiyalardan foydalanishgan, garchi har

¹Manba: Jim Boykinning Internet Marketing kitobidagi nazariy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi

xil ustunlikka ega bo'lishsada. Ogohlantirish(awareness) va qiziqish(interest) bosqichlarida, taxminan 77% Internetdan ma'lumot qidiradi. Xohish(desire) bosqichida bu 65%atofida, aksiya(action) bosqichida bron qilish va to'lash 34%ga etadi. Garchi bu past ko'rinadigan bo'lsa ham, atigi 34%, lekin Internet -bronlashning o'sishi hayratlanarli: oxirgi 3 yilda (2012-2015) 244% ga oshadi. Raqamli marketingning tendensiyasi va kelajagini hisobga olgan holda, hozirda mamlakatlar, sayyohlik joylari va sayyohlik agentliklari raqamli marketingdan foydalanmoqdalar. OTA (Online traveling agency) ning o'sishi ham, soni ham hajmi bo'yicha nihoyatda yuqori. Raqamli marketingdan foydalanishning bir qancha muhim afzalliklari bor, xususan, oflayn marketingda topib bo'lmaydigan xususiyatlar globalroq, shu bilan birga ko'proq shaxsiy bo'ladi. Ya'ni, raqamli marketing yordamida sotuvchilar global auditoriyaga hech qanday to'siqsiz kira oladilar va shu bilan birga, muloqot juda individual bo'lishi mumkin, ular alohida maqsadlar uchun, hatto individual darajagacha mo'ljallangan bo'ladi[6].

Zamonaviy axborot texnologiyalari internet tarmog'idan foydalanishni kengaytirish, vositachilarning yangi turlarini shakllantirish, xizmatlarni farqlash va individuallashtirishning yangi imkoniyatlari paydo bo'lishi va xabarlarini internet orqali etkazib berish orqali turizm sohasida sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Bugungi kunda mehmondo'stlik va sayyohlik sohasida yangi texnologiyalar va internetning ta'siri kun sayin oshib bormoqda. Bu o'z navbatida tadbirkorlik faoliyatini, yetkazib beruvchilar va potensial xaridorlar o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartiradi va xizmat ko'rsatish qulayligi, tezligi va sifati to'g'risida mutlaqo yangi g'oyani shakllantiradi. Jahon iqtisodiyotining o'zgarishida texnologiya, globallashtirish, atrof-muhitga e'tiborning kuchayishi kabi ko'plab omillar ta'sir etmoqda. Xususan, zamonaviyraqamli davrga quyidagi individual omillar xosdir [7].

1.Internetning jadal rivojlanishi

2.Shaxsiylashtirish

3.Yangi turdagi vositachilar

4.Raqamli kontent(takliflar)

Bugungi kunda biz an'anaviy bo'lmagan, balki raqamli turizm biznesi haqida fikrlashamiz. Har xil turdagi ma'lumotlarni (audio, video, foto, matn) ko'rishda raqamli namoyish etish imkoniyati turizm sohasida ulkan imkoniyatlarni ochmoqda. Bunda shaxsiy kompyuterlarni bir-biriga tarmoq orqali ulash, mijoz va korxonalarini yaxlit birlashtirishga imkon berdi. Internet nafaqat foydali savdo kanali, balki korxonalar va tayyor mahsulot va xizmatlar iste'molchilari o'rtasidagi aloqa vositasidir. Zamonaviy bozor sharoitida raqobatbardosh bo'lish uchun korxonalar Internet texnologiyalarini o'z strategik maqsadlariga moslashtira olishlari lozim, aks holda raqobatda ortda qolish xavfi mavjud [7].

Raqamli iqtisodiyotga bugungi kunda xo'jalik faoliyatini yuritishda aholi ehtiyojlari yuqori ekanligi aniqlanib, uning xarajatlar kamayishi, ko'proq va tezroq ma'lumot olish, iste'molchilar bilan fikr almashish xususiyatlari mavjud. Turizmga raqamli marketing turistik obyektlarini oshirishga qaratilgan virtual olamdagi onlayn faoliyat bo'lib, uning ijtimoiy media marketing, virusli marketing, elektron pochta xabarnomalari, qidiruv tizimlarida sahifalarni reklama qilish shakllari borligi aniqlandi. O'zbekistonda turizmga raqamli marketingni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalangan holda, "O'zbekistonga xush kelibsiz", "Buxoro tarixiy obidalari", "Onlayn turistik shahar" kabi raqamli platformalar yaratilishini amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ayupov R.H. Raqamli Iqtisodiyot Asoslari. Toshkent 2020-yil. 17-31 bet.

2. <https://lex.uz/docs/-5030957>. "Raqamli O'zbekiston—2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. Toshkent PF-6079 05.10.2020. 2-bob.

3. James C. Makens, John T. Bowen, and Philip Kotler Marketing for Hospitality and Tourism Book. published in 1996 year. P.44-68.

4. Jim Boykin. Internet Marketing. The Internet Marketing Academy & Ventus Publishing. 2011 year. Page 101-114.

5. David Giner. Social media marketing in tourism destinations. International publishing house. January 10, 2018. Page 21-46.
6. Mathis Stock. Progress in French Tourism Geographies. Springer International Publishing. 2021 year. Page 11-19
7. Xurramov O.K Raqamli marketing strategiyasi va turizm. Buxoro davlat universitetining ilmiy-amaliy jurnali. Buxoro. 27.04.2020 6-10 bet.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi (jami foizda)

3-jadval

	Korxonalar va aholining o'z vositalari	Qabul qilingan mablag'lar	ulardan:			oli mi ng ga n		ulardan:		
			davlat byudjeti	banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	chet el investitsiyalari va kreditlari			davlat byudjeti	banklarning kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	chet el investitsiyalari va kreditlari
O'zbekiston Respublikasi	34,6	65,4	6,5	14,1	42,9	41,3	58,7	4,0	12,0	40,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	34,1	65,9	10,9	7,0	46,0	48,9	51,1	6,0	18,0	25,4
Andijon	39,1	60,9	6,8	12,9	40,0	44,8	55,2	7,7	14,2	31,7
Buxoro	34,7	65,3	5,9	9,5	49,5	35,4	64,6	3,7	10,0	49,1
Jizzax	31,6	68,4	5,4	15,2	45,6	50,3	49,7	1,6	3,7	41,8
Qashqadaryo	23,4	76,6	3,6	4,5	66,8	39,6	60,4	1,2	4,7	52,4
Navoiy	17,7	82,3	1,9	7,6	70,8	19,1	80,9	2,1	2,5	74,9
Namangan	37,8	62,2	5,2	24,4	31,7	33,7	66,3	3,2	18,0	43,4
Samarqand	43,5	56,5	6,8	18,9	29,4	61,3	38,7	4,7	11,9	20,3
Surxondaryo	21,2	78,8	6,9	8,7	62,1	30,2	69,8	2,3	17,5	47,8
Sirdaryo	30,2	69,8	7,5	16,3	43,4	27,1	72,9	3,2	25,3	42,3
Toshkent	47,5	52,5	10,1	8,0	30,8	68,4	31,6	2,0	6,1	21,7
Farg'ona	29,0	71,0	6,3	24,3	39,6	33,1	66,9	1,6	24,1	38,8
Xorazm	41,7	58,3	7,0	21,2	27,0	44,0	56,0	1,6	12,2	37,0
Toshkent sh.	40,9	59,1	6,6	19,0	31,5	35,8	64,2	7,0	14,0	42,2

Investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini kunlik monitoring qilish va ularning tarmoqlar va hududlar kesimidagi joriy holati bo'yicha haftalik hisobot tizimi yaratilishi muhokama etildi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirining o'rinbosarlari, tegishli tarmoq idoralari va mahalliy hokimiyat organlari rahbarlariga loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirilishi uchun shaxsiy javobgarlik belgilangan.

**O‘zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti
(Joriy narxlarda, mlrd.so‘m)**

4-jadval

Iqtisodiy faoliyat turi	2020			2021	
	yanvar-mart	yanvar-iyun	yanvar-sentyabr	yanvar-dekabr	yanvar-mart
YaIM	112 503,3	254 964,5	412 600,1	580 203,2	128 556,8
shu jumladan:					
Yalpi qo‘shilgan qiymat	101 886,5	234 849,7	381 034,1	535 831,0	116 765,2
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	14 717,5	56 606,1	104 862,6	151 251,0	17 440,1
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	6 956,9	12 232,4	16 667,8	23 139,8	6 663,2
Ishlab chiqaradigan sanoat	23 965,7	51 264,7	81 181,1	116 839,3	28 690,8
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	3 002,2	6 037,2	8 570,9	11 768,7	3 174,1
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish	206,4	444,8	691,5	980,2	348,3
Qurilish	7 401,0	18 296,0	27 766,6	37 488,5	8 446,6
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash	7 916,5	15 484,3	24 453,3	34 060,4	9 230,3
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	812,3	1 493,1	2 250,0	3 134,0	1 005,6
Tashish va saqlash	7 366,9	13 421,4	21 302,6	29 719,3	7 806,0
Axborot va aloqa	1 966,7	4 017,9	6 358,6	8 812,2	2 352,2
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	5 693,9	12 642,8	22 733,9	29 244,2	6 656,6
Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	3 065,1	5 909,1	9 079,4	12 345,8	3 424,2
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	1 266,2	2 246,6	4 237,4	6 719,2	1 577,7
Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish	1 743,6	3 169,3	4 992,1	6 991,8	2 053,7
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta‘minot	5 727,4	11 271,6	17 412,8	23 371,8	7 097,3
Ta‘lim	8 354,9	17 347,7	23 196,1	32 390,7	9 151,1
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	3 587,9	7 325,0	12 093,4	17 049,0	4 261,0
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	482,7	914,0	1 377,7	1 899,1	571,6
Boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish	1 532,4	2 738,1	4 380,1	6 088,4	1 845,4
Bilvosita hisoblanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari (-)	-3 879,7	-8 012,6	-12 573,8	-17 462,4	-5 030,6

O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining tarkibi (hozirgi narxlarda, milliardlab dollar) quyidagicha o'zgardi.

2021 yilda yalpi ichki mahsulot quyidagicha o'zgardi. Yanvar-dekabrda 580,203,2 milliard so'm, yanvar-iyun oylarida 128,556,8 milliard so'mni tashkil etdi.

Shu jumladan:

Yalpi qo'shilgan qiymat 2021 yilda quyidagicha o'zgargan. Yanvar-dekabrda 535 831,0 mlrd. So'm, yanvar-iyun oylarida 116 765,2 mlrd.

2021 yilda qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi quyidagicha o'zgardi. Yanvar-dekabrda 535 831,0 mlrd. So'm, yanvar-iyun oylarida 116 765,2 mlrd.

2021 yilda ochiq usulda qazib olish va qazib olish hajmi quyidagicha o'zgardi. Yanvar-dekabrda 151 251,0 mlrd. So'm, yanvar-iyun oylarida 17 440,1 mlrd.

2021 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi quyidagicha o'zgardi. Yanvar-dekabrda 23 139,8 milliard so'm, yanvar-iyun oylarida 6 663,2 milliard so'mni tashkil etdi.

2021 yilda elektr, gaz, bug' va havoni tozalash bo'yicha xizmatlar ko'lami quyidagicha o'zgardi. Yanvar-dekabrda 116,839,3 milliard so'm, yanvar-iyun oylarida 28,690,8 milliard so'mni tashkil etdi.

Suv ta'minoti; 2021 yilda kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish xizmatlari hajmi quyidagicha o'zgardi. Yanvar-dekabrda 11 768,7 mlrd. So'mni, yanvar-iyun oylarida 3174,1 mlrd.

Ulgurji va chakana savdo; 2021 yilda avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi quyidagicha o'zgardi. Yanvar-dekabrda 34 060,4 milliard so'm, yanvar-iyun oylarida 9 230,3 milliard so'mni tashkil etdi.

2021 yilda uy -joy kommunal xizmatlari hajmi quyidagicha o'zgardi. Yanvar-dekabrda 3 134,0 mlrd. So'm, yanvar-iyun oylarida 1005,6 mlrd.

2021 yilda tashish va saqlash xizmatlari hajmi quyidagicha o'zgardi. Yanvar-dekabrda 29 719,3 mlrd. So'mni, yanvar-iyun oylarida 3 424,2 milliard so'mni tashkil etdi. 2021 yilda axborot -kommunikatsiya xizmatlari hajmi quyidagicha o'zgardi. Yanvar-dekabrda 8 812,2 milliard so'm, yanvar-iyun oylarida 2352,2 milliard so'mni tashkil etdi.

2021 yilda moliyaviy va sug'urta xizmatlari hajmi quyidagicha o'zgardi. Yanvar-dekabrda 29 244,2 milliard so'm, yanvar-iyun oylarida 6 656,6 milliard so'mni tashkil etdi.

2021 yilda ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlar hajmi quyidagicha o'zgardi. Yanvar-dekabrda 12 345,8 milliard so'mni, yanvar-iyun oylarida 3 424,2 milliard so'mni tashkil etdi.

2021 yilda professional, ilmiy va texnik xizmatlar hajmi quyidagicha o'zgardi. Yanvar-dekabrda 6 719,2 mlrd. so'mni, yanvar-iyun oylarida-1 577,7 mlrd.

2021 yil uchun boshqaruv faoliyati va yordamchi xizmatlar hajmi quyidagicha o'zgardi. Yanvar-dekabrda 23 371,8 mlrd. So'm, yanvar-iyun oylarida 7 097,3 mlrd. yanvar-iyun oylarida 7 806,0 mlrd.

Xulosa: Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib, mamlakatimizdagi investitsion faollikni oshirish rivojlantirish buyicha quyidagi taklif va mulohazalarni bildirmoqchimiz:

3. Soliq inspeksiyalariga ishga qabul qilish jarayonlari jiddiy konkurs talablari bo'yicha ochiqdan-ochiq amalga oshirilishini ta'minlash.

4. «Xufyona iqtisodiyot» «gullamasligi» uchun qonunlar hozirgi kun talabidan orqadan qolmasligi shart.

5. Inflyatsiya va bank stavkalari o'rtasidagi bog'liklikning egiluvchanligini ta'minlash tadbiri (inflyatsiya 11% deyiladi-yu, bank stavkasi 25%)

6. «Yashil texnologiyalar» kiritayotgan va qo'llayotgan korxonalarini, biznes ob'ektlarini bojxona bojlari va soliqlardan 5-10 yilga ozod qilish zarur. Investorlar uchun bunday imtiyozlar raqobat muhiti va sanoat siyosatining samarasini beradi.

7. Korrupsiyani yuqori boshqaruv eshelonlarida yo'qotish va qonun ustivorligini majlislarda emas amalda ta'minlash, inson huquqlarini hurmat qilish.

Adabiyotlar ro'yxati

1. I.A. Axmedov. I.U. Nematov “Investitsiya va lizing asoslari” T. 2015 y
2. R.H. Alimov “Investitsiya faoliyatini baholash” T. 2015 y
3. B. Mamatov. D. Xo’jamqulov. “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” T. 2014 y
4. <https://lex.uz/docs/-4664142>
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Investitsiya>
6. <https://xs.uz/uz/post/investitsiyalar-va-investitsiya-faoliyati-togrisida>
7. <https://lex.uz/docs/-32450>
8. <https://uzeng.uz/uz/documents/2516/28069/>

AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI

N.Ravshanova

*QarMII Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot yo’nalishi
I-161-18 guruh talabasi*

Aholining munosib va rasmiy ish bilan bandligini ta’minlash maqsadida “O‘zbekiston Respublikasining 2021-2030 yillarda aholi bandligiga ko‘maklashish strategiyasi” ishlab chiqildi. Ushbu strategiyani amalga oshirish natijasida erishiladigan maqsadli ko‘rsatkich va indikatorlar 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar samarali va munosib ish bilan bandlikni oshirish asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o‘zgarishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub maqsadi – bu inson farovonligi, uning munosib turmush darajasini ta’minlash hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida davlat tomonidan aholining samarali ish bilan band bo‘lishiga barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi, shu jumladan, tadbirkorlar uchun qulay biznes yuritish muhiti, investitsiya, soliq siyosati, shaffoflik, sud-huquq tizimining adolatli bo‘lishi kabi omillarga bog‘liq.

Chunki, mamlakatimizda yaratilayotgan ish o‘rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to‘g‘ri keladi va aynan iqtisodiyotning taraqqiyoti kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi bilan bog‘liq. Mamlakatimizda boshlangan tub islohotlarning asosini 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tashkil etadi va unda aholining ish bilan bandligi masalasi alohida o‘rin tutadi. O‘zbekistonda demografik holatning keskinligi, aholi sonining yuqori sur‘atlarda o‘sishi va har yili 500 mingdan ortiq yoshlarning mehnat bozoriga kirib kelishi aholining barqaror ish bilan bandligi masalasini o‘ta dolzarb qilib qolmoqda.

O‘zbekistonda 2021 yil 1 yanvar holatiga mehnat resurslari 19,1 mln. kishi, iqtisodiy faol aholi 14,8 mln. kishi, jami ish bilan bandlar 13,2 mln. kishi, shundan iqtisodiyotning rasmiy sektorida 5,7 mln. kishi (43,3%), iqtisodiyotning norasmiy sektorida 5,6 mln. kishi (42,8%), ishga joylashtirishga muhtoj shaxslar 1,6 mln. kishi (10,5%) va chet elda ishlash uchun ketganlar 1,8 mln. kishini tashkil qildi. O‘tgan 5 yil ichida mehnat sohasida ham aksariyat jarayonlarni raqamlashtirish, mehnat statistikasini Xalqaro mehnat tashkiloti standartlariga moslash, uning real ko‘rsatkichlarini ta’minlash, ish bilan bandlikning yangi shakllarini rivojlantirish va keng foydalanish, shaffoflikni ta’minlash va mumkin qadar aholiga barcha xizmatlarni elektron platformalar orqali qulay va tezkor amalga oshirishga erishildi.

«Aholi bandligi to‘g‘risida»gi Qonunning yangi tahriri 2020 yilda qabul qilindi va u to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilish kuchiga ega Qonun bo‘ldi. Unda davlatning bandlik sohasidagi asosiy tamoyillari aks etib, hozirgi zamon mehnat huquq normalariga asoslangan. Jumladan, mehnat bozorini tartibga solishning yangi vositalari xususan, tadbirkorlikni rag‘batlantirish, o‘zini o‘zi band qilish, ishsizlarni kasb-hunarga o‘qitish, malakasini oshirish, ish tajini hisobga olish, ishsizlik nafaqasini to‘lash, ishga joylashtirish bo‘yicha agentliklar, respublikadan tashqarida vaqtinchalik mehnat faoliyati amalga oshirayotgan fuqarolar va boshqa muhim yo‘nalishlardagi masalalar qamrab olindi. Shuningdek, Mehnat kodeksi ham ilg‘or mamlakatlar

tajribasi asosida qayta ishlandi va turli muhokamalardan o'tib, 2021 yilda qabul qilinishi belgilangan. Unda mehnat munosabatlarini tartibga solishning zamonaviy usullari, ish beruvchi va yollangan xodim o'rtasida, ijtimoiy sherikchilik, yakka tartibdagi mehnat munosabatlar va boshqa masalalar o'z yechimini topgan. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi passiv choralardan (ishsizlik nafaqalarini to'lash) faol bandlik siyosatiga o'tmoqda (ayniqsa, yoshlar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar) va ishsizlarni kasbga, tadbirkorlikka o'qitish, mikrokreditlar va subsidiyalar ajratish orqali ularning ish bilan bandligiga ko'mak berishni keng yo'lga qo'ydi. Ilk bor mamlakatimizda norasmiy mehnat bilan bandlik va yashirin iqtisodiyot muammolari ochiq muhokama qila boshlandi va davlatimiz tomonidan uning ko'lamini kamaytirish bo'yicha keng chora-tadbirlar qabul qilindi. Aholining norasmiy mehnat bilan bandligi hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham mavjud bo'lib, u nafaqat salbiy balki ba'zi muhim ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni bajaradi. Iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish topa olmagan inson resurslarini ish bilan va natijada daromad olishlarini ta'minlab, ishsizlikni kamaytiradi (nochor qolganlar uchun haqiqiy ijtimoiy himoya vositasi), qashshoqlikni oldini oladi hamda o'z daromadlarini rasmiy sektorda sarflab, ichki talabni oshishi va YaIMning o'sishiga turtki bo'ladi. Norasmiylik ko'p hollarda biznes boshlashning bir usuli sifatida rasmiy sektorga o'tishga qadam hisoblanadi. Norasmiy mehnat bilan bandlik butun dunyoda keng tus olgan hodisa bo'lib, uning ko'lamini kamaytirish davlatning bu sohada tizimli kompleks siyosat olib borishini talab qiladi. Xalqaro mehnat tashkilotining hisobotiga ko'ra, dunyoda 10 ta ishchidan 6 ta (ish bilan bandlarning 61%) va 5 ta korxonadan 4 tasi yashirin iqtisodiyotda norasmiy faoliyat yuritadi. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6098-son "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, 2020 yil 8 iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-son va 2020 yil 11 avgustdagi "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4804-son qarorlari yashirin iqtisodiyot va norasmiy bandlik darajasini kamaytirishga qaratilgan. Yangi texnologiyalar elektron ro'yxatga olish, integratsiyalashgan va avtomatlashgan holda xizmat ko'rsatish sifatida inson omili, uning ishtirokini imkon darajada kamaytirib, iqtisodiy birliklarning transaksion xarajatlarini kamaytirishga, iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish imkonini beradi. Raqamli iqtisodiyot yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, kasbiy malaka va bilimlarning moslashuvchan, izchil va uzluksiz rivojlanishini talab qiladi hamda aholining ish bilan bandligini, xususan mehnat munosabatlarini raqamli elektron platformalar yordamida ro'yxatga olish va qulay rasmiylashtirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Raqamli iqtisodiyotning jamiyat hayotiga keng kirib kelishi barcha sohalarda mehnat faoliyatida internetdan foydalanish "haqiqiy" va "virtual" dunyo bilan uzviy bog'lanish sharoitida bo'lishni taqozo etmoqda. O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirishning mehnat bozoriga ta'sirini 2020 yilda "Yagona milliy mehnat tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksini joriy etilishida ko'rish mumkin. Ushbu elektron axborot tizimida idora va tashkilotlarda band bo'lganlar, shaxsga oid, vakant ish joylari, to'g'risidagi ma'lumotlar to'plangan. O'zbekistonda 2020 yilda norasmiy mehnat bilan bandlik darajasi 2001 yilga nisbatan 52,6 foizga oshgan, iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlik 3,3 foizga kamaygan. Hisobot davrida respublikadan chet elda ishlash uchun ketganlar soni 8 martaga, ishsizlik darajasi 42 martaga, iqtisodiy faol aholi esa 62 foizga oshgan. Iqtisodiy faol aholining jami mehnat resurslariga nisbati 2001 yilda 71,6 foiz va 2020 yilda 77,3 foizni tashkil qilgan.¹

Norasmiy mehnat bilan bandlik darajasiga iqtisodiy, huquqiy omillar bilan bir qatorda ijtimoiy-demografik omillar ham ta'sir qiladi. Aksariyat hollarda mehnat bozorida aholining huquqiy savodxonligi bo'lmagan, o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli, o'z kasbi va malakasi bo'yicha iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish topa olmagan guruhlari norasmiy mehnat munosabatlariga kirishadilar.

¹ <https://review.uz/uz/post/2016-2021-yillarda-mehnat-bozorida-amalga-oshirilgan-ishlar-va-erishilgan-natijalar-sharhi>

O‘zbekistonda norasmiy mehnat bilan bandlarning ijtimoiy-demografik holatini tahlili ularning 32,1 foizi – umumiy o‘rta, 61,1 foizi – o‘rta–maxsus va 6,8 foizini – oliy ma‘lumotli shaxslar tashkil qilishi aholining ma‘lumot va malaka darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, mehnat bozorida norasmiy mehnat bilan bandlik darajasi mos holda kam bo‘lishini ko‘rsatmoqda.¹

COVID-19 pandemiyasining iqtisodiyotga salbiy ta‘siriga qaramay, iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishi, aholining daromad manbai bo‘lgan ish bilan bandligini saqlab turish, ommaviy ishdan bo‘shatilishlarni oldini olish, xodimlarni masofaviy ish usulida bandligini ta‘minlash va boshqa keng chora-tadbirlar asosida ishsizlik darajasining oshib ketmasligiga erishildi

XXI asrda iqtisodiy taraqqiyot uchun inson kapitali muhim omil bo‘lib, uni rivojlantirish, oliy va professional ta‘limning sifatini oshirish har qanday mamlakat oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi. Barcha yetakchi, ilg‘or davlatlar tajribasi faqat inson kapitalini to‘laqonli rivojlantirish orqali iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli, 2020 yilda mehnat bozorini yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar bilan ta‘minlash, professional standartlar, tarmoq malakalar ramkalari va malaka talablarining ishlab chiqilishi hamda yangilab borilishi, malaka va bilimlarni baholash milliy tizimining xalqaro miqyosda tan olinishini ta‘minlash maqsadida Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq va hududiy kengashlar tashkil etildi. Aholini kasb-hunarga o‘qitish va qayta tayyorlashning uch bosqichli tizimi:

1) band bo‘lmagan aholiga xizmat ko‘rsatuvchi hududiy «Ishga marhamat» monomarkazlari;

2) mamlakatning barcha hududlarida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tasarrufida tuman va shahar kasb-hunarga o‘qitish markazlari;

3) mahalla aholisini kasb-hunarga o‘qitish maskanlari tashkil etildi. Mehnat bozori, bandlik, demografiya, mehnat migratsiyasi, malaka tizimi va kasbiy standartlarni takomillashtirish va mehnatni muhofaza qilish yo‘nalishlarida ilmiy-amaliy ishlar, tadqiqotlarni amalga oshirish hamda erishilgan ilmiy natijalarni amaliyotga keng joriy etish va sohada ilmiy salohiyatni oshirish maqsadida, Respublika bandlik va mehnat muhofazasi ilmiy markazi Mehnat bozori tadqiqotlari instituti etib qayta tashkil etildi. Jahondagi globalashuv, mamlakatlarning o‘zaro integratsiyalashuvi mehnat bozorida ishchi kuchining erkin harakatlanishi va ularning o‘z mehnat potensialidan samarali foydalanish imkoniyatini yaratdi. 2000 yildan boshlab, O‘zbekistondan chet elga mehnat faoliyati yuritish uchun chiqish doimiy xususiyatga aylandi va bu jarayonga ancha vaqt yetarli e‘tibor qaratilmadi. Mamlakatimizda ishchi kuchining profitsiti mehnat bozorida vaziyatni yumshatish, iqtisodiy rivojlanishning dastlabki davrida tashqi mehnat migratsiyasining muhim ahamiyatga ega ekanligi va ushbu jarayonlarni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyulda “O‘zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada PQ-3839-son va 2020 yil 15 sentyabrda takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4829-son qarorlari qabul qilindi. Natijada, xorijda ishlayotgan mamlakatimiz fuqarolariga nisbatan munosabat tubdan o‘zgardi, ularni qo‘llab-quvvatlash hamda huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi. 2020 yilda COVID-19 pandemiyasiga qaramay, mehnat migrantlari tomonidan O‘zbekistonga 6 mlrd. AQSh dollardan ortiq pul jo‘natmalari o‘tkazildi va shundan 4,3 mlrd. AQSh dollar Rossiya Federatsiyasi hissasiga to‘g‘ri keldi. Bundan tashqari mehnat migrantlari Qozog‘iston Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Koreya Respublikasi va Yevropa mamlakatlarida mehnat faoliyatlarini amalga oshirib, ularni mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun potensial investor, malakali mutaxassis, yangi ish joylari yaratuvchi tadbirkor sifatida qabul qilish lozim. So‘rovlarga ko‘ra, mehnat migrantlarining **20 foizi** chet elga ishga ketish sababi deb, o‘z biznesini ochishga, tadbirkorlik uchun dastlabki sarmoyani jamg‘arish deb ma‘lum qilgan. O‘zbekiston 2020 yilda WorldSkills International – xalqaro notijorat assotsiatsiyasiga a‘zo bo‘ldi va bu standartlari asosida ishchi kasblarni

¹ <https://review.uz/uz/post/2016-2021-yillarda-mehnat-bozorida-amalga-oshirilgan-ishlar-va-erishilgan-natijalar-sharhi>

ommalashtirish va kasb malakalarini baholash, kasbga tayyorlash hamda jahon mehnat bozoriga malakali, **professional standartlarni** olgan raqobatbardosh ishchi kuchini eksport qilish imkoniyatini va tashqi mehnat migratsiyasidan keladigan **Rossiyadan tushumni ikki baravardan ko'proq** bo'lishi (10 mlrd. AQSh dollari) imkonini beradi.¹ Inson resurslarining mamlakat ichida samarali mehnat mobilligini ta'minlash aholini ish bilan bandligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda mamlakatimizda viloyatlararo ichki mehnat migratsiyasining ko'lami iqtisodiy faol aholining **14,1 foizini** 2 mln. kishi, (viloyat ichida esa **6,6 foizini** (969 ming kishini) tashkil etib, ularni rasmiy bandligi, ijtimoiy himoyasini ta'minlash va qo'llab-quvvatlashning tashkiliy- ma'muriy mexanizmlarini yaratishni talab qiladi.

Aholining munosib va rasmiy ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasining 2021-2030 yillarda aholi bandligiga ko'maklashish strategiyasi" ishlab chiqildi. Ushbu strategiyani amalga oshirish natijasida erishiladigan maqsadli ko'rsatkich va indikatorlar 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar samarali va munosib ish bilan bandlikni oshirish asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Mehnatga layoqatli aholi sonining jadal o'sib borishi yaqin istiqbolida mehnat bozorida ishchi kuchi taklifining keskin o'sishini va aholi bandligini ta'minlash masalasi mamlakat oldida turgan eng dolzarb muammoga aylantiradi.

Respublikamizda 2020 yilda ish bilan band aholi soni 13,2 mln. kishini va shundan iqtisodiyotning rasmiy sektorida 5,7 million kishi (43,3%) tashkil qilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, respublikada 2030 yilga kelib, aholi soni 2020 yilga nisbatan 20,7% yoki 7017,9 ming kishiga, mehnat resurslari 21,9% yoki 4192,1 ming kishiga, ish bilan band aholi 16% yoki 2125,5 kishiga oshishi va norasmiy mehnat bilan bandlar ulushi 20%ga tushishi kutilmoqda. Bu ko'rsatkichlar istiqbollashtirish davrida band aholining yiliga o'rtacha 1,15%dan oshishi va keng qamrovli kompleks tadbirlarni amalga oshirish natijasida norasmiy mehnat bilan bandlar sonining yiliga o'rtacha 5%ga kamayishi natijasida ro'y beradi.²

АВТОМОБИЛ ТРАНСПОРТ ХИЗМАТЛАРИ РАҚОБАТДОШЛИГИНИ ОШИРИШ УСУЛЛАРИ

Г.С.Нарзуллаева

Бухоро давлат университети
Иқтисодиёт кафедраси ўқитувчиси

Г.Х.Ибрагимова

Тошкент давлат иқтисодиёт университети профессори

Ўзбекистоннинг транспорт хизматлари бозорида автомобиль транспорти тизими етакчи мавқега эга бўлиб, унинг ривожланиши нафақат ягона транспорт тизими, балки мамлакатнинг иқтисодий тараққиёт даражасини кўтаришда ҳам истикболли йўналишлардан бири ҳисобланади.

Транспортнинг ушбу тури зиммасига умумий ташилаётган юкларнинг 90 фоиздан, йўловчиларнинг 97 фоиздан кўпроғи тўғри келади.

Бугунги кунда тармоқ корхоналарида замонавий ҳаракат воситалари билан етарли даражада таъминланмаганлик ҳамда улардан фойдаланиш унумдорлигининг пастлиги соҳанинг рақобатдошлигига салбий таъсир этибгина қолмай, хизмат кўрсатиш таннархи ва баҳосининг ошишига ҳамда иқтисодиётда яратилаётган маҳсулот ва хизматлар таннархида транспорт ташкил этувчисининг юқори бўлиб қолишига ҳам олиб келмоқда[3].

Шунинг учун, ташиш ҳажмларини ошириш, истеъмолчиларни юк ва йўловчи ташишга бўлган эҳтиёжларини кафолатли қондириш билан бирга, миллий автотранспорт

¹ <https://mehnat.uz/oz/pages/worldskills-uzbekistan>

² <https://www.gazeta.uz/oz/2020/08/03/ishsizlik/>

операторлари фаолияти иқтисодий самарадорлигини таъминлаш бугунги кунда нинг энг долзарб вазибаларидан бири ҳисобланади.

Транспорт хизматлари кўрсатиш бозоридаги рақобат шароити унда иштирок этувчи операторлар фаолиятини самарали ташкил этиш ва бошқаришнинг услубий асос ва воситалари, уларнинг амалий эҳтиёжларини тўлиқ қондирувчи самарали бошқарув қарорлари, иқтисодий механизмларини излаш, ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этишни талаб этади[1,2].

Автомобиль транспорти корхонасининг рақобат устунлиги мижозлар томонидан кўрсатилаётган транспорт хизматларига қўйиладиган сифат ва ташиш баҳосининг оқилона нисбати билан таъминланади. Шуни алоҳида қайд этиш керакки, транспорт хизматларинининг баҳоси ташиш харажатларини қоплаш билан бирга автомобиль транспорти корхонасига даромад олиб келиши, хизмат кўрсатиш сифатининг ўзгарувчан бозор талабларига мослашувчанлигини таъминлаши лозим.

Йирик автомобил транспорти корхоналари сонининг камайиб, хусусий транспорт операторлари фаолияти кенгайиб бораётган шароитда автомобиль транспорти хизматларини кўрсатувчи операторлардан самарали техник, технологик ва иқтисодий кўрсаткичларга эга бўлиши талаб этилади. Эндиликда нафақат замонавий техник-технологик воситаларга эга бўлиш, балки улардан самарали фойдалана олаётган автотранспорт корхоналаригина рақобат шароитида яшовчанлик қобилиятига эга бўлишлари мумкин.

Ушбу тадқиқот мазмунидан келиб чиқиб, автомобил транспорти хизматлари рақобатдошлигини ошириш усулларини тизимлаштиришга бўлган ёндашув амалга оширилди.

Илмий адабиётлардаги шарҳлар ва муаммоларнинг таҳлили натижасида рақобатдошликни оширишнинг уч асосий йўналишдаги усулларини эътироф этиш мумкин:

1. Базовий;
2. Инвестицион;
3. Инновацион усуллар.

Базавий усулда корхонанинг мавжуд рақобат устунликлари ҳисобига ташишни ривожлантириш динамикаси сақлаб қолиниб, ҳар бир корхона бўлимлари ташиш хизматидан нисбатан алоҳида фаолият юритиши билан таснифланади.

Инвестицион усул қисман фаол усул ҳисобланиб, автотранспорт корхоналарининг рақобат устунликларидан ташқари янги бошқарув услуб ва усулларини қўллаган ҳолда инвестицияларни жалб қилиш ҳамда ҳаракатдаги таркиб техник характеристикаларини модернизациялаш ёки қисман ўзгартириш орқали рақобатдошликни ошириш таъминланади.

Инновацион усул энг фаол усул ҳисобланиб, унда замонавий фан тараққиёти воситалари, электрон ва ахборот технологиялари янгиликларидан юқори даражада фойдаланиш, инвестицион жозибадорликни ошириш ҳамда жаҳоннинг илғор ташиш усуллари ва воситаларидан фойдаланиш орқали транспорт хизматлари рақобатдошлигини оширишга эришилади. Рақобат кураши шиддатли тус олаётган ҳозирги шароитда инновация корхона хўжалик фаолиятининг асосий элементи ва ҳаракатлантирувчи кучи ҳисобланади ҳамда унинг ривожланишини таъминлайди. Инновацион фаолиятни оқилона бошқариш ва моддий-ресурслар базасидан самарали фойдаланиш билан боғлиқ муаммоларни ҳал қилиш самарали ташкилий-иқтисодий механизмлардан фойдаланишни талаб этади. Бунда янгиликларни излашни рағбатлантириш ва уни ўзлаштириш учун шароит яратиш муҳим аҳамият касб этади.

Фикримизча, иқтисодий самарадордик ва рақобатошликка эришиш учун кўриб ўтилган усуллар билан биргаликда, хизмат кўрсатишнинг юқори сифати ҳамда нарҳсиз рақобат услулларини самарали қўллаш механизмларини ҳам тадқиқ этиш талаб этилиб,

унда автотранспорт корхонаси учун тўғридан-тўғри рақобат, новаторлик позицияси ва рақобат курашининг юқори интенсивлиги инобатга олиниши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. МинькоЭ.В. Качество и конкурентоспособность / Э.В. Минько, М.А. Кричевский. – СПб. : Питер, 2004. – 268 с.
2. Мазилкина Е.И., Паничкина Г.Г. Управление конкурентоспособностью/Учебное пособие. – М.: Омега-Л, 2009, 328 с.
3. Қодиров Т.У. Автомобиль транспорти рақобатдошлиги: ташкилий-иқтисодий механизмлар. Монография. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2013. 256 б.

МЕВА-САБЗАВОТ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВА СОТИШ СОҲАСИДА МУЛКЧИЛИК ВА БОШҚАРУВ ШАКЛЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ

Алимова Муниса Юлчиевна,
“Инновацион иқтисодиёт” кафедраси ассистенти, ҚамИИ
Равшанов Хуршид Холиқбердиевич,
“Иқтисодиёт” факультети 2-босқич магистранти

Ўзбекистон Республикасида етиштирилган мева, сабзавот ва узум маҳсулотларнинг сифати, истеъмол қиймати узок йиллар давомида хорижий мамлакатлар бозорларида жуда кадрланади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Олий Мажлисга Мурожаатномасида таъкидлаганидек, “мева-сабзавотчилик, ғаллачилик ва чорвачиликда ҳам 500 га яқин кластер ва кооперациялар фаолияти йўлга қўйилди. Бунинг натижасида, пандемиянинг салбий таъсирига қарамасдан, 1 миллиард долларлик мева-сабзавот экспорт қилинди”.¹

МДХ ичида Ўзбекистон боғдорчилик, сабзавотчилик, полизчилик ва узумчилик ҳамда улардан қайта ишланган товарларни тайёрлаш бўйича юқори ўринларни эгаллайди. Ишлаб чиқарилган маҳсулотларни ярмиси Ўзбекистон аҳолисини истеъмол талабани қоплайди, қолган катта миқдордаги маҳсулотлар республикамиздан ташқарига экспорт қилинади, ҳамда, уларнинг бир қисми консерва саноати орқали қурилади, турли ассортиментдаги сабзавот консервалари, болалар таомлари, вино, ароқ ва коньяк маҳсулотлари ҳамда захирада сақлаш учун йўналтирилади.

Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида боғдорчилик, сабзавотчилик, полизчилик ва узум етиштиришни янада ривожлантириш, товар ишлаб чиқаришни интенсификациялаш, экспорт потенциалини кенгайтириш билан бир қаторда импорт ўрнини босувчи товарлар ишлаб чиқарилишини амалга оширилади. Мамлакатимизда ташқи бозорларга харидоргир ва рақобатбардош бўлган ҳўл ва қайта ишланган мева-сабзавот маҳсулотларини экспорт қилиш, унинг ҳажмини ва экспорт географиясини кенгайтириш бугунги кунда долзарб масала бўлиб қолмоқда. 2021 йилнинг январь-март ойларида Ўзбекистондан қиймати 133,8 млн.АҚШ долларига тенг бўлган 218,0 минг тонна мева ва сабзавотлар экспорт қилинган. Уч ойлик экспорт қийматида мева ва резаворлар 28,8 минг тонна, қурилган мева ва резаворлар 18,8 минг тонна, сабзавотлар 163,7 минг тонна, қалампир 4,3 минг тонна, узум 2 минг тонна, майиз 11,6 минг тонна, ерёнғоқ 7,3 минг тонна, тарвуз-қовун 309,8 тоннани ташкил этади.² Мамлакатимизнинг экспорт салоҳиятидан янада тўлиқ ва самарали фойдаланиш, жаҳон бозорларини маркетинг жиҳатдан чуқур тадқиқ қилиш асосида ташқи бозорларда харидоргир бўлган рақобатдош янги ва қайта ишланган мева-сабзавот маҳсулотларини экспортга етказиб бериш ҳажмлари ва турларини кўпайтириш,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 14 мартдаги Мева-сабзавотчилик соҳасида қишлоқ хўжалиги кооперациясини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4239-сонли Қарори.

² <https://ufia.uz/archives/date/2021/04>

шунингдек, маҳсулотларни экспортга чиқаришнинг замонавий талабларга мос савдо-логистика инфратузилмасини жадал ривожлантириш мақсадида:

«Ўзбекиз-овқатхолдинг» ХК таркибида янги ва қайта ишланган мева-сабзавот маҳсулотларини экспорт қилувчи акциядорлик жамияти шаклидаги ихтисослаштирилган «Ўзагроэкспорт» ташқи савдо компаниясини ташкил этилиши мамлакатимизда ушбу маҳсулотларни ягона ва тизимли халқаро андозаларга мос экспортини ташкил қилиш имконини бермоқда.

Аҳоли сонининг ортиб бориши билан озиқ-овқат маҳсулотларига бўлган талабни ортиб бориши ва уни ишлаб чиқариш учун зарур бўлган ер ва сув ресурсларини тақчиллигини эътиборга олган ҳолда, озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқаришга бўлган муносабатни тубдан ўзгартириш давр тақозосига айланиб бормоқда. Жаҳон қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат маҳсулотлари бозоридаги конъюнктура кескин ўзгаришлари оқибатида вужудга келган йўқотишлар ва баҳони кескин кўтарилиши ҳамда тақчилликлардан келиб чиққан сабоқларга асосланиб, қисқа муддатли тренд ўзгаришлар асосида глобал қишлоқ хўжалиги озиқ-овқат маҳсулотлари бозори тенденцион ўзгаришларини таъминлаш бефойдалиги аниқланди.

Сўнги йилларда давлатлар иқтисодиётини ривожланиши учун муҳим аҳамият касб этган қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари савдосини юқори суръатларда ўсиб бориши ва уни аксарият ривожланаётган давлатлар иқтисодиётида катта наф кўриши кўзда тутилган бўлсада, амалда ривожланган Голландия, Германия, АҚШ ва Шарқий Европа давлатлари каби давлатларда катта фойда кўриши кузатилмоқда. Бунда, биринчидан қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқишда замонавий технологияларни жорий этишга давлат томонидан катта субсидиялар ажратилиши бўлса, иккинчи томондан, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлашда соҳага чакана савдо супермаркетлари билан ҳамкорликда ишлаш эвазига харажатларни камайтиришга сабаб бўлди.

Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари савдосини охириги ўттиз йиллар ичида таркиби юқори биологик қийматга эга бўлган чорва, ёғ-мой маҳсулотларидан ташқари боғдорчилик маҳсулотлари томонга кескин ўзгариб бориши мамлакатимизда олиб борилаётган ислохотларни ривожланган мамлакатлар мева-сабзавотлар ишлаб чиқаришида тенденцион ўзгаришларига ўхшашлик аломатларини борлигини тасдиқлайди.

Ўзбекистонда ҳар йили дунёнинг 80 дан ортиқ давлатларига 180 дан ортиқ турдаги сархил мева-сабзавот ва уларни қайта ишлаш асосида тайёрланган маҳсулотларни экспорт қилмоқда. Мева-сабзавот маҳсулотлари экспорти географиясини кенгайтириш масаласида —Ўзбек-озиқ-овқатхолдинг ХК ва —Ўзагроэкспорт АЖ билан боғлиқ бўлган муаммолар хал қилинди ва эндиликда Ўзбекистон Республикасининг чет давлатлар билан боғлиқ бўлган мева-сабзавот маҳсулотларини экспорти жараёнини тартибга солувчи халқаро ташкилий, ҳуқуқий ва фитосанитария масаласи бўйича давлатлар ўртасида икки ва ундан ортиқ томонлама ҳукуматлараро келишувларга асосланган муаммоларни хал қилишга киришилди. Ушбу муаммоларни хал қилиш қуйидаги ишларни босқичма-босқич амалга оширишни кўзда тутуди, яъни:

- мева-сабзавот экспортини кенгайтириш билан боғлиқ бўлган ташкилий-ҳуқуқий масалаларни хал қилиш;

- давлатлараро фитосанитария келишувлари ва карантин масаласи;

- экспорт ҳажмини ва географиясини кенгайтириш бўйича тадбирларни белгилаш каби масалаларни кўзда тутуди. Мева-сабзавот экспорти географисини кенгайтириш масаласи халқаро ҳукуматлараро иқтисодий келишувлар ва бир неча вазирлик ҳамда идоралар ўртасида музокаролар асосида хал бўладиган вазифа бўлиб, уни мувофиқлаштириш учун тааллуқли вазирлик ва идоралар раҳбарлари ўртасида ушбу масала юзасидан келишувларни —Махсус комиссия асосида хал қилишни талаб этади. Буни амалга ошириш учун аввало қуйидаги: ташкилий, ҳуқуқий, фитосанитария келишувлари ва экспортнинг географисини кенгайтириш масалаларини хал этиш лозим.

Мева-сабзавотлар экспортини фитосанитария карантини ва стандартлаштириш ва сертификатлаштириш масаласида:

- экспорт географиясини кенгайтириш билан боғлиқ муносабатларни тартибга солиш учун Давлат фитосанитария инспекцияси томонидан мева-сабзавот маҳсулотлари экспортини перспектив давлатларга (Европа Иттифоқи, Хитой, Япония, Корея, Ҳиндистон, Бирлашган Араб Амирликлари, АҚШ, Буюк Британия, Исроил, Австралия, Шимолий Африка, Шимолий ва Жанубий Америка қитъаларидаги давлатлар) йўналтириш учун аввало улар билан Фитосанитария масаласи бўйича икки томон, яъни экспортёр ва импортёр давлатлар ўртасида фитосанитария объекти, карантин зоналари бўйича келишув шартномалари имзолашини ташкиллаштириш;

- Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Ўсимликлар карантини бош давлат инспекцияси мамлакатимиз мева-сабзавот маҳсулотлари экспорти учун перспектив бўлган давлатлар билан ўсимлик маҳсулотлари экспорти ва импорти бўйича фитосанитария келушувларини аниқ белгиланган график асосида узлуксиз (муддати тугашининг олдини олиб, олдиндан қайта тузиб бориш шarti билан) тузиб бориши;

- Ўзбекистон Республикаси —Ўзстандарт агентлигига мева-сабзавот маҳсулотларини экспорти бўйича перспектив давлатлар (Халқаро —ISO22000:2005, —FSSC 22000 ва Европа бозорлари учун қишлоқ хўжалиги амалиёти —Global GAP) стандартлари талабларига мувофиқликни солиштириб, мавжуд камчиликларни бартараф қилиш ва миллий стандарт талабларини уларга уйғунлаштириш;

- мева-сабзавот маҳсулотларини экспорт қилинаётган давлатлар эстетик ва гигиена талаби асосида маркировкалаш ва кодлаштириш;

- маҳсулот таркибидаги захарли моддалар қолдигини Республика давлат санитария-эпидемиология назорат маркази томонидан экспорт қилинаётган давлатлар талаби асосида келишув шартномаларини тузган ҳолда, санитария назорати тартибларини олиб боришни ташкил этиш;

- Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Ўсимликлар карантини бош давлат инспекциясига фитосанитар сертификатларни беришда экспортёр корхоналарга —ягона дарча усулини қўллаган ҳолда вазибалар юклатилиши керак. Мева-сабзавот маҳсулотларини экспорти географиясини кенгайтиришда:

Маълумки, мева-сабзавот маҳсулотларини экспорти географиясини кенгайтириш масаласи, асосан, 2 йўналишни қамраб олади: хўл мева экспорти ва қайта ишланган мева-сабзавоти маҳсулотлари экспортини қамраб олади. Жаҳон бозорида хўл ва қайта ишланган мева маҳсулотлари экспортини географик тарқалишини мақсадли сегментларини ўрганиб, салоҳиятли бозор бўйича маҳсулотларни позициялаш (жойлаштириш) бўйича маълумотлар базасини ташкил қилиш ва уни ўрта ва узоқ давр учун стратегиясини ишлаб чиқишдан, хўл мева маҳсулотлари экспорти йўналишлари бўйича сотиш картасини тузиш ва у асосида экспорт кенгайтириш ва камайиши мониторингини олиб бориш, мева-сабзавот маҳсулотлари экспорти ассортиментини кенгайтириш учун замонавий тара, қадоқлаш ва белгиловчи (маркировка) технологияларини мамлакатимизга олиб кириш ва 5 йил мобайнида фойдаланишда молиявий, божхона ва солиқлар масаласида имтиёзлар бериш (молиявий ресурслар ва банк кредитлари беришда) ва рағбатлантириш ҳамда унга халқаро донорлар маблағлари ҳамда инвестицияларни жалб этишдан иборат.

Ушбу таклифлар асосида мамлакатимиз мева-сабзавот маҳсулотларини экспорт салоҳиятини такомиллаштириш Ўзбекистон Республикаси Президенти фармон ва қарорларини ҳамда Вазирлар Маҳкамаси қарорларида қўйилган мамлакатимиз экспорт салоҳиятини ошириш билан боғлиқ вазибаларни хал қилиш имконини беради.

ЎЗБЕКИСТОНДА АГРОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЯНГИ НОРМАТИВ- ХУҚУҚИЙ ИМКОНИАТЛАРИ

Жўраева Зилола Туробовна

Бухоро давлат университети катта ўқитувчиси

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 9 февралдаги ПФ-6265-сонли «Ўзбекистон Республикасида ички ва зиёрат туризмни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Фармони» эълон қилинди.

Мазкур фармон Ўзбекистон Республикасида туризмнинг энг асосий турларидан ҳисобланадиган ички туризм соҳасини ривожлантиришда қўйилган қадамлардан бири, деб айтиш мумкин. Чунки, ички туризмни ривожлантирмай туриб, халқаро миқёсда туристларни жалб қилиш имконияти бўлмайдди. Ички туристик имкониятларимиз анча кенгдир.

Шуни таъкидлаш керакки, мазкур фармон 2020 йил 10 июлдаги 433- сонли «Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини тиклаш ва ривожлантириш учун қулай шарт-шароитларни яратиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорнинг мантиқий давоми сифатида хизмат қилади.

Фармон 26 бўлимдан иборат бўлиб, республикада туризм бозорининг турли сегментларига йўналтирилган туризм маҳсулоти ва хизматларини диверсификация қилиш, уларнинг рақобатбардошлигини янада ошириш, мақбул ва қулай ички ва халқаро зиёрат туризми муҳитини яратиш, транспорт йўналишларини кенгайтириш, транспорт хизматлари сифатини ошириш, туризм маҳсулотларини кенг тарғиб қилиш, шунингдек, мамлакатимизнинг саёҳат ва дам олиш учун хавфсиз манзил сифатидаги имижини мустаҳкамлаш мақсадида бир қатор вазифаларни амалга оширишни кўзда тутди.

Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғини ривожлантириш учун реал имкониятларга эга. Юртимиз тарихий ёдгорликлари, бой маънавий ва маърифий мероси билан машҳур бўлиб, 7500 дан ортиқ тарихий объектлар ЮНЕСКО рўйхатидан ўтказилган.

Бухоро вилоятида туристларга хизмат кўрсатувчи мавжуд асосий инфраструктура объектлари ҳақидаги маълумотларни таҳлил этадиган бўлсак, 2020 йил бошида меҳмонларни жойлаштириш воситалари 337 та, транспорт воситалари 179 та, овқатлантириш объектлари 73 та, 360 та масжид ва 80 та мадраса фаолият юритади. Бу объектлардан самарали фойдаланиш учун имкониятлар мавжуд.

Рақамларга эътибор қаратадиган бўлсак, 2019 йилда аввалги йилга нисбатан Бухоро вилоятига ташриф буюрувчилар сони 3640918 кишини ташкил этиб, олдингига нисбатан 45 фоизга ўсиш бўлган. 2020 йилда эса бутун дунё миқёсида туризм катта зарар билан чиқди.

Коронавирус пандемияси даврида нафақат халқаро, балки ички туризмнинг нафақат фойда кўриши, балки аксинча, зарарга ишлаши оқибатларини бартараф этиш, туризмни аввалги кўрсаткичларини тиклаш мақсадида бу фармоннинг амалда қўлланилиши катта аҳамиятга эга, деб ҳисоблаймиз.

Айниқса, агротуризм имкониятларини очиб беришда мазкур фармон муҳимдир. Чунки, туризмнинг мазкур йўналишида халқимизнинг тажрибаси анча юксакдир. Бевосита туристларга хизмат кўрсатиш билан шуғулланувчи тадбиркорлик субъектлари фаолиятини рағбатлантириш мақсадида иқтисодий қўллаб-қувватлаш чораси сифатида туроператорлар, турагентлар, жойлаштириш воситалари учун қўйидаги имтиёзлар берилиши кўзда тутилган бўлиб, қишлоқ туризмни рағбатлантиришда ҳам ўз ўрнига эгадир:

- фойда солиғи ставкасини белгиланган ставкага нисбатан 50 фоизга камайтириш;
- 10 кишидан иборат хорижий туристик гуруҳлар учун Ўзбекистон Республикасида тур ташкил этиш ва уларнинг жойлаштириш воситаларида камида беш кеча тунаб қолиши

шарти билан туроператорларнинг авиа ва темир йўл чипталари бўйича харажатларини чипта нархининг 30 фоизи миқдорида қисман субсидиялаш;

➤ юридик шахслардан олинадиган ер солиғи ва юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқни тўлашдан озод қилиш;

➤ улар томонидан тўланадиган ижтимоий солиқни камайтирилган ставкада 1 фоиз миқдорида белгилаш;

➤ 2021 йил 1 мартдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ва Ўзбекистон Республикасида доимий яшовчи фуқаролиги бўлмаган шахслардан жойлаштириш воситасида, улар яшаган ҳар бир кун учун Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланадиган миқдорда туристик (меҳмонхона) йиғим ундирилади. Бунда, туристик (меҳмонхона) йиғим ички туризмни тарғиб қилиш ва рағбатлантириш, туризм мавсуми паст бўлган даврда жойлаштириш воситаларининг бандлигини таъминлашга қаратилган чора-тадбирларни молиялаштиришга йўналтирилади;

➤ хорижий авиакомпанияларнинг Индонезия, Бангладеш ва Малайзия мамлакатларидан хорижий туристларнинг Ўзбекистон Республикасига саёҳатларини ташкил этишга қаратилган ҳамда “Умра+” дастури доирасидаги Ўзбекистон Республикасига авиапарвозлари, кўниш ва учиб хавфсизлиги қоидаларидан ташқари, тўсқинликсиз амалга оширилади;

➤ 2021 йил 31 декабрга қадар туроператорлар, турагентлар ва жойлаштириш воситаларига нисбатан ташқи савдо операциялари бўйича муддати ўтган дебитор қарздорлик учун жарималар қўллаш тўхтатилади.

Аҳолининг халқаро ва ички туризмга жалб қилиниш салоҳиятини ошириш учун миллий ва умумхалқ байрамларни нишонлаш тизимида имкониятларни кўпайтириш мақсадида:

➤ Наврўз умумхалқ байрами, Мустақиллик куни ва Янги йил байрами ҳамда Рамазон ҳайити (Ийд ал-Фитр) ва Қурбон ҳайити (Ийд ал-Адҳа) диний байрамларини нишонлаш даврида қўшимча ва кўчириш ҳисобига ишланмайдиган кунлар уч кундан кам бўлмаган муддатга белгиланади. Бунда дам олиш кунларининг кўпайишига ҳисобига кейинчалик самарали ишлаш имконияти ошишига эришилади.

➤ Беш иш кунидан кам бўлмаган “оилавий саёҳат таътили” тизими жорий қилинади. Бу эса ўз навбатида ҳам кадриятларнинг чуқурлашувига, ҳам қариндошлар, коллектив аъзолари ўртасида иноқликнинг кучайишига ёрдам беради.

Фармонда кўзда тутилган тадбирлар орасида эътиборга молик яна қуйидаги жиҳатларни таъкидлаш ўринлидир:

➤ 2021 йил 1 мартдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси ҳудудига кирган кундан эътиборан 10 кунлик муддатга ўз ёки учинчи мамлакатга учиб авиачиптасини тақдим қилган Баҳрайн Қироллиги, Қатар Давлати, Қувайт Давлати, Уммон Султонлиги ва Хитой Халқ Республикаси, шу жумладан Хитой Халқ Республикасининг Гонконг ва Макао махсус маъмурий ҳудудлари фуқаролари учун визасиз режим жорий этилди.

➤ Фармонда кўзда тутилган тадбирларни амалга ошириш мақсадларига ёрдам берувчи етук мутахассис кадрларни тайёрлаш масаласига катта эътибор қаратиш лозим. Шу мақсадда 2021/2022 ўқув йилидан бошлаб “Ипак йўли” туризм халқаро университети, Тошкент давлат иқтисодиёт университети, Бухоро ва Термиз давлат университетларида “зиёрат туризми”, “транспорт логистикаси” ва “ижодий саноат” (creative industry) магистратура мутахассисликларида кадрлар тайёрлаш тизимини йўлга қўйиш тўғрисидаги таклифи маъқулланди.

Биз бунга қўшимча сифатида агротуризм соҳасида магистрантлар тайёрлаш дастурларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш зарурлигини таъкидлаймиз.

Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси, Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Дин ишлари бўйича қўмита, Фанлар Академияси, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Ўзбекистон халқаро ислом академияси ва Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази билан биргаликда уч ой муддатда буюк аллома ва уламоларимиз, айниқса, Имом

Бухорийнинг бебаҳо меросини кенг кўламда оммалаштириш ва тарғиб қилиш мақсадида, индонез, бенгал, малай, турк, араб, ҳинд, урду, пушту ва бошқа хорижий тилларда “Имом Бухорий” зиёрат туризми йўлдош телеканални ташкил этишга келишилди. Мазкур телеканалда ҳам агротуризм субъектлари ўз имкониятлари ҳақида тўлиқ маълумотлар беришлари мумкин бўлади.

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, Ўзбекистон Республикаси Президентининг мамлакатда ички туризмни янада ривожлантириш чора-тадбирлари ҳақидаги янги Фармони республика агротуризми ва иқтисодиётини ривожлантиришда ўз ҳиссасини қўшади, деб ҳисоблаймиз.

MAMLAKATIMIZDA MEHNAT RESURSLARI VA MEHNAT SALOHİYATI KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH SAMARADORLIGI

Rajabova M. A.

“Servis sohasi iqtisodiyoti”

kafedrası o‘qituvchisi

G‘afurov Ro‘zjon Hakim o‘g‘li

3-2-IQT-20 guruhi talabasi

Buxoro davlat universiteti

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Davlat mehnat inspeksiyasining (keyingi o‘rinlarda Inspeksiya deb ataladi) mehnat, aholi bandligi, mehnat muhofazasi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish, jumladan ularga ijtimoiy infratuzilma ob‘ektlaridan to‘sqinliksiz foydalanildi. Shuningdek, barcha turdagi transportlardan, transport kommunikatsiyalaridan, umumiy foydalanishdagi aloqa va axborot vositalaridan foydalanish uchun mehnat shart-sharoitlarini yaratish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etish masalalari bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek, ish beruvchilar bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan ijro etilishi shart.

Iqtisodiyot tarmoqlarining rasmiy sektorda band bo‘lgan aholi soni 5,5 mln kishini tashkil qilib, o‘tgan yil shu davrga nisbatan 0,2 foizga yoki 12,4 ming kishiga kamaydi.

Bunda koronavirus infeksiyasi tarqalishini oldini olishga qaratilgan ayrim cheklov chora-tadbirlar sababli yakka tartibda tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchilar soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 167,5 ming (46,4 foiz)ga kamayib ketganligi hisobiga yuzaga kelgan bo‘lsa, 131,2 ming ishsizlarni haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish hisobiga rasmiy bandlar soni keskin kamayish oldi olindi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, respublikadan tashqariga xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketganlar soni 2 mln kishini tashkil etgan, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 553,2 ming, 2020 yilning 1-chorak yakuniga nisbatan esa 232,1 ming kishiga kamaygan.

Norasmiy sektorda band bo‘lganlar soni (xorijda ishlayotgan mehnat migrantlarini hisobga olmaganda) o‘tgan yilga nisbatan 2,1 foizga yoki 105,3 mingga kamayib, 5,1 mln kishini tashkil etmoqda. Bunda asosan vaqtinchalik bir martalik va mavsumiy ishlarni bajaruvchilar (108,4 mingga kamaygan), mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmasdan oilaviy korxonalarda va tadbirkorlarda ishlovchilar (87,6 ming), ro‘yxatdan o‘tmasdan va tegishli ruxsatnomasiz faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlar (110,6 ming) soni kamaydi.

Shu bilan birga, karantin chora-tadbirlari davrida uyda o‘tirgan fuqarolar soni oshganligi hamda fuqarolarning shaxsiy tomorqalarni rivojlantirish uchun Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasidan subsidiyalar berish dasturi hajmi keskin ortganligi uchun dehqon va shaxsiy tomorqalarda band bo‘lganlar soni 201,1 mingga ortgan.

Jadval-1**Mehnat resurslari tarkibi (ming kishi)**

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020
Mehnat resurslari	18829,6	18949,0	19142,3
doimiy aholiga nisbatan, foizda	57,1	56,4	55,9
shu jumladan:			
mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi	18712,1	18857,6	19052,0
doimiy aholiga nisbatan, foizda	56,8	56,2	55,7
mehnat resurslariga nisbatan, foizda	99,4	99,5	99,5
mehnatga layoqatli yoshdan kichik va katta yoshdagi ishlovchilar	117,5	91,4	95,1
doimiy aholiga nisbatan, foizda	0,3	0,3	0,3
mehnat resurslariga nisbatan, foizda	0,6	0,5	0,5

Tadqiqot natijalariga ko'ra respublikadan tashqariga xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketganlar soni 1 838,2 ming kishini tashkil etgan, bu joriy yilning mos davriga nisbatan 128,3 ming yoki 6,3 foizga kamaygan. Norasmiy sektorda band bo'lganlar soni (xorijda ishlayotgan mehnat migrantlarini hisobga olmaganda) o'tgan yilga nisbatan 5,6 foizga yoki 300,7 mingga oshib, 5 668,9 ming kishini tashkil etmoqda. 2020 yilda tuman va shahar aholi bandligiga ko'maklashish markazlariga ishga joylashtirishda yordam so'rab 1 080 667 nafar shaxs murojaat qilgan.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan atroflicha tahlil o'tkazish, mehnat resurslari soni va sifatini xolis va sifatli baholash, shuningdek, aholini ishga joylashtirish va bandligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligiga erishish maqsadida mehnat bozorini muntazam o'rganish ishlari davom ettiriladi.

Jadval-2**Bandlik darajasi to'g'risida ma'lumot, % da**

	2018	2019	2020
O'zbekiston Respublikasi	67,4	68,3	66,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	62,9	63,0	61,3
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	69,6	70,2	67,1
Buxoro	70,7	69,3	67,8
Jizzax	61,6	67,2	66,0
Qashqadaryo	64,8	64,1	61,5
Navoiy	69,2	69,5	67,6
Namangan	63,8	66,5	64,4
Samarqand	66,3	65,4	62,8
Surxondaryo	65,2	67,2	63,6
Sirdaryo	70,5	69,0	65,0
Toshkent	71,4	71,5	69,0
Farg'ona	66,0	67,6	64,6
Xorazm	64,6	66,2	63,5
Toshkent sh.	77,5	80,5	83,2

O'tkazilgan tadqiqot natijalari respublikada ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholiga nisbatan 10,5 foiz tashkil etganligini ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich joriy yilning uchinchi choragiga nisbatan 0,6 foizga kamaydi. Ishga joylashishga muhtoj aholi soni 1 558,4 ming shaxsdan iborat

bo'lib, yoshlar orasidagi (30 yoshgacha) ishsizlik darajasi 16,4 foizni, ayollar orasida esa 14,1 foizni tashkil etdi.

Bandlik tizimida iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lganlar soni o'sgani va norasmiy sektordagi bandlikning kamayganligi kuzatilmoqda. Xususan, iqtisodiyot sohalarida band bo'lganlarning umumiy soni **13 408,4 ming** kishiga yetdi, bu 2018-yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga qaraganda **1,4 foizga** ko'proqdir. Bunda iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lganlar soni O'zbekiston tarixida birinchi marta **326,3 minga** yoki **6,2 foizga** ortib, **5 593,6 ming** kishiga yetdi. Norasmiy sektorda band bo'lganlar soni esa aksincha, **137,7 minga** yoki **1,7 foizga** kamayib, **7 814,8 mingni** tashkil etdi. Bu bevosita norasmiy tadbirkorlik faoliyati va ish o'rinlarini legallashtirish chora-tadbirlari natijasidir. Shuningdek, tadqiqot natijalari chet elga mehnat migratsiyasiga ketgan shaxslar soni 2019-yil mos davri bilan qiyoslaganda **1,9 foizga, 2 644,1 mingdan 2 594,1 minga** pasayganligini ko'rsatdi.

Jadval-3

Ish haqi

Ko'rsatkichlar	2020- yil 1- chorak	2020- yil 2- chorak	2020- yil 3- chorak	2020- yil 4- chorak
O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi, so'm	2584908,7	2560576,2	2583135,9	2673284,5
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha hisoblangan oylik ish haqi				
Sanoat	3532618,5	3462184,5	3485596,8	3679179,6
Qurilish	3050850,8	3023786,8	3147852,9	3311790,1
Savdo	2522088,8	2447085,8	2555550,6	2766943,9
Tashish va saqlash	3377542,6	3365582,2	3304805,8	3409753,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1866565,6	1639069,6	1793631,8	1839536,5
Axborot va aloqa	4169588,3	4235397,0	4306162,6	4390482,5
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	5412883,9	5487711,1	5814233,7	6270653,2
Ta'lim	2089908,4	1967186,7	1939415,6	1980329,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	1811339,5	1779432,4	1799364,7	1811171,7
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	2272731,1	2197992,9	2216990,2	2262525,7
Boshqa turlari	2602220,1	2682130,2	2715390,5	2729630,5

Xitoy tajribasi bo'yicha bugungi kunda respublika bo'yicha 471 ta kooperativlarga 22,9 ming nafar ishsiz, kam ta'minlangan va kambag'al oila a'zolari biriktirildi va ularga kooperativlarning ustav fondiga a'zolik ulushi sifatida 50,7 mlrd.so'm subsidiya ajratildi. 2020 yilda kasb-hunar ta'limi muassasalariga - 744 nafar band bo'lmagan shaxslarni, ayniqsa, mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolar, kam ta'minlangan oilalarda yashovchi xotin-qizlarni 1 oydan 3 oygacha bo'lgan kurslarda kasbga qayta o'qitish uchun 798,7 mln. so'm grant mablag'lari ajratildi.

2020-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonda ishsizlik darajasi 9,1 foizni tashkil etdi, O'zbekiston tarixida birinchi marotaba iqtisodiyotning rasmiy sektorida band kishilar soni 300 mingdan ortdi.

2020-yil iyun oyida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Respublika aholi bandligi va mehnatni muhofaza qilish ilmiy markazi tomonidan respublikaning **104 ta shahar va tumanlarida** ijtimoiy tadqiqot amalga oshirildi. Tadqiqot davomida **fuqarolarning 462 ta o'zini-o'zi boshqarish organlari, 4 880 ta uy xo'jaligi va 25 925 nafar fuqaro** qamrab olindi.

Tadqiqot natijalarining tahlili **iqtisodiy faol aholiga nisbatan ishsizlik darajasi 9,1 foiz** ekanligini ko'rsatdi, bu 2018-yilning mos davri ko'rsatkichiga qaraganda **0,2 foizga** kamdir. Qashqadaryo, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida eng yuqori ishsizlik darajasi qayd etildi – **9,4 foiz**, eng kam ko'rsatkich esa - Toshkent shahrida (**7,7 foiz**).

Ishga joylashishga muhtoj aholi soni **1 342,6 ming** shaxsdan iborat bo'lib, yoshlar orasidagi (30 yoshgacha) ishsizlik darajasi **15,1 foizni**, 15-25 yoshdagilar o'rtasida – **16,8 foizni**, ayollar orasida esa **12,7 foizni** tashkil etdi.

Jadval-4

Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni (yil oxiriga, ming kishi)

	2018	2019	2020
O'zbekiston Respublikasi	19791,8	19951,6	20111,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1127,0	1136,0	1144,9
<i>viloyatlar:</i>			0,0
Andijon	1827,4	1837,7	1848,0
Buxoro	1148,6	1153,3	1158,1
Jizzax	795,1	803,6	812,2
Qashqadaryo	1897,7	1918,4	1939,2
Navoiy	592,4	595,9	599,5
Namangan	1656,0	1668,8	1681,6
Samarqand	2218,6	2237,5	2256,5
Surxondaryo	1519,7	1536,8	1553,8
Sirdaryo	505,8	510,9	515,9
Toshkent	1723,0	1729,1	1735,1
Farg'ona	2205,3	2218,7	2232,1
Xorazm	1108,9	1119,3	1129,7
Toshkent sh.	1466,3	1485,6	1504,9

Mehnat resurslari soni **18 964 ming** kishi bo'lib, 2018-yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1 foizga** ortgan. Iqtisodiy faol aholi soni 2018 yil mos davri ko'rsatkichlariga qaraganda **181,5 mingga** yoki **1,2 foizga** o'sgan. Iqtisodiy nafaol aholi soni **4 213,0 kishini** tashkil etdi (**0,1 foizga** ortgan), bunday ko'rsatkich homiladorlik ta'tili, tug'ish ta'tili yoki 2 yoshgacha bo'lgan bolalar parvarishidagi ayollar sonining **4,4 foizga** oshishi bilan izohlanadi. Ta'kidlash joizki, o'z xohishiga ko'ra band bo'lmaganlar soni keskin kamayib, **805,6 mingdan 734 ming (8,9 foiz)ga tushgan, bu esa aholining mehnat va tadbirkorlik faolligi ortganligini bildiradi.**

Xulosa: Iqtisodiyotda har yili yaratilayotgan ish o'rinlari mehnat bozoriga kirib kelayotgan yangi ishchilarni band qilish uchungina ikki baravar oshirilishi lozim. Aksariyat ish o'rinlari yangi korxonalarini tashkil etish hamda mavjud korxonalarini yanada kengaytirish hisobiga yaratilishi zarur. Yuqorida bildirilgan fikrlarni inobatga olgan biz quyidagicha xulosaga keldik. Biz bu jarayonda quyidagicha takliflarni kiritmoqchimiz.

1. Mamlakatimizdagi ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi tashkilotlar ish faoliyatlarini tubdan ko'rib chiqish va shaffofligini ta'minlash.

2. Ish bilan bandlik ko'rsatkichlarini hisoblash jarayonini takomillashtirish

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda "Moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"da Pq-4068-sonli qarori

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5781-son Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6165 -son Farmoni

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti O'ZDST_3220_2017" turistik xizmatlar. Turar joy inshootlari. Umumiy talablar".

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi

DAVLAT INVESTITSIYA SIYOSATINING MAQSADI, MOHIYATI VA USTIVOR YO'NALISHLARI

Quliyev N.X.

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafaedrasi dotsenti

Investitsiya faolligini rag'batlantirish va qulay investitsiya muhitini yaratish uchun puxta o'ylangan investitsiya siyosatini amalga oshirish zarur. Davlatning investitsiya siyosati bu kapital va moliyaviy investitsiyalarni shakllantirish va ulardan foydalanish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi farovonligini oshirish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan usul va uslublar to'plamidir.

Davlat investitsiya siyosatining asosiy vazifasi jismoniy va yuridik shaxslarning jamg'armalarini rag'batlantirish va ularni investitsiyalarga aylantirishdir. Amalda ushbu vazifani amalga oshirish ko'plab omillar va vujudga kelgan vaziyatlarga ham bog'liq. Masalan, hozirgi paytda O'zbekistonda molibdenning 1,1 foisi, tabii gazning 12 foisi, ruchning 21 foisi, misning 25 foisi, meva-sabzavotlarning 20 foizi, ip-kalavanning 46 foisi qayta ishlanmoqda, xolos. Agar bu xom-ashyolar chuqur qayta ishlansa, qo'shimcha qiymatni 5 baravarga oshirish mumkin. Bunday vaziyat investitsiyalarni yangi taxnik vositalar va texnologiyalarga yo'naltirishni taqozo qiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunida O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investorlar tomonidan qonun xujjatlariga zid bo'lmagan tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari ob'yektlariga aksariyat foyda (daromad) olish maqsadlarida kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlarning jami turlari, shu jumladan, intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olinadigan har qanday daromad chet el investitsiyalari sanaladi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, investitsiyalarning harakatidan kelib chiqib zamon va makonining almashtirilishi va o'z iqtisodiyotga kirib borishi namoyon bo'ladi. Investitsiyalarning turli shakllarda o'zga iqtisodiyotlarga kirib borishi yangidan investitsiya faoliyatini yo'lga qo'yishda, ularning turi va shakllaridan qat'iy nazar, yangitdan safarbar etilishini va bog'lanishini bildiradi. Ma'lumki, hozirgi paytda mamlakat iqtisodiyotiga chet-el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriy etish va investitsion muhitni yanada yaxshilash juda katta ahamiyatga ega.

Odatda investitsiya siyosati quyidagilarga qaratiladi:

- har bir davr uchun tegishli hajmlardagi investitsiyalarni aniqlash;
- sanoat, ishlab chiqarish, texnologik, hududiy va mulk shakllari bo'yicha investitsiyalarning tarkibi aniq belgilash;
- investitsiyalarning ustuvor yo'nalishlarni tanlash;
- investitsiyalar samaradorligini oshirish va boshqalarga.

Davlat investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari va umumiy qoidalari (sanksiyalar, imtiyozli kreditlash shartlari va boshqalar) har bir davlatda Iqtisodiy rivojlanish vazirligi, ba'zi mamlakatlarda esa moliya vazirligi tomonidan uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyaning qoidalarini hisobga olgan holda belgilanadi. Masalan O'zbekistonda 2035 yilgacha ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi qabul qilingan. Ushbu hujjatga muvofiq mintaqaviy hokimiyat transportning qulayligi, investitsiya uchun tayyorlangan ob'ektlarning mavjudligi, malakali

mehnat resurslari, imtiyozlar va mavjud axborot ta'minotini hisobga olgan holda investitsiya siyosatiga qo'shimchalar kiritmoqda. Bunday chora-tadbirlar investitsiya resurslaridan maqsadli foydalanishni ta'minlash va natijalar monitoringini olib borishga qaratilgan. Mazkur konsepsiyaga belgilanishicha 2035 yilgacha dunyoning rivojlangan 50 ta mamlakati qatoriga kirish uchun O'zbekistonga taxminan 1 trillion AQSh dollari miqdoridagi sarmoyalar zarur.

G'arbda moliyaviy omillardan foydalanishga asoslangan Amerika-Ingliz konsepsiyasi hukmronlik qilmoqda. Ushbu kontsepsiyaga muvofiq, jamg'arma kreditlar va depozitlar bo'yicha foiz stavkalari, davlat iste'molining ulushi, investitsiya rolini ko'paytiradigan multiplikator effektidan foydalanish bilan belgilanadi [2]. AQSh-ingliz kontsepsiyasining kaliti rag'batlantirish usullarini qo'llashdir, bunda davlat jamoat ishlariga sarflanadigan xarajatlar asosiy rag'bat hisoblanadi. Ular sizga investitsiyalarni ko'paytirishga, ishlab chiqarish jarayonida qo'shimcha ish kuchini jalb qilishga imkon beradi, ya'ni. bandlik va shu sababli daromad va iste'molni ko'paytirish.

J. Shumpeter tomonidan ishlab chiqilgan ikkinchi kontsepsiya tadbirkorlik funksiyasiga markaziy o'rin ajratadi. Ushbu kontsepsiya "samarali raqobat" nazariyasiga asoslanadi: undagi bozor mexanizmi monopoliyalar kuchlari va raqobatning innovatsiyalarga asoslangan, iqtisodiy rivojlanishga alohida dinamizm beradigan samarali o'zaro ta'siri sifatida qaraladi. Shu bilan birga, asosiy kapitalga katta miqdordagi sarmoyalar farovonlikning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi va ma'lum sohalarida yangiliklarni rag'batlantiradi [3].

Germaniya Federativ Respublikasi Iqtisodiyot vaziri L. Erxard ijtimoiy bozor iqtisodiyoti kontsepsiyasini ishlab chiqdi va amalda qo'lladi. Konsepsiyaning asosiy qoidasi erkin tadbirkorlikni rivojlantirish va mamlakatni tiklash va fuqarolarning qobiliyatlari va tashabbuslarini amalga oshirish uchun mas'uliyatdir.

Kontsepsiyani tanlash quyidagi omillar bilan belgilanadi: iqtisodiyotning rivojlanishi, iqtisodiy rivojlanish bosqichi, hukumatning milliy xususiyatlari va boshqalar.

Investitsiya siyosatining mohiyati davlatning ichki va tashqi iqtisodiy jarayonlarga aralashuviga, ushbu siyosatning moliyaviy va kredit, litsenziyalash, soliq, narxlar, daromadlar va ish bilan ta'minlash, jalb qilish siyosatini o'z ichiga olgan boshqa sohalar bilan muvofiqlashtirish darajasiga bog'liq. chet el investitsiyalari va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosati xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun yanada qulay sharoit yaratish, xorijiy investitsiyalarni ishonchli huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizimini barpo etish, mana shu asosida mamlakatdagi investitsiya muhitini yanada yaxshilashda MDH mamlakatlari orasida yetakchi hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatini tashkil etishda har bir mulk egasi ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni mohiyatini chuqur anglagan holda ish yuritishi lozim. Investitsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi mulk egasi tez o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti va uning ko'pqirrali munosabatlarini har tomonlama ang'ay bilishi lozim. Investitsiya faoliyatini yuritishda iqtisodiy axborotga tayangan soha bir butun iqtisodiyot va mamlakat miqyosida marketing bililariga ega bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Chunki barqarorlashmagan iqtisodiyotda investor pul muomalasi, moliya kredit va banklar, soliq siyosati mohiyatini chuqur bilmay turib, investitsiya faoliyatini tashkil etish tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lib, qisqa davr ichidagi inqirozga uchrashi mumkin.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston respublikasi prezidentining "Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi ishtirokida "qishloq xo'jaligini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish" loyihasini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori. Toshkent sh., 2020-yil 15-sentabr, PQ-4830-son.

2. Доклад «О мировых инвестициях 2021». Организация Объединенных Наций. 2021 год.

ОСОБЕННОСТИ ВЕДЕНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯ

М.Х. Уракова

Старший преподаватель
кафедры Экономика, БухГУ

Без эффективного развития сельского хозяйства Узбекистана невозможно современное развитие экономики страны. Сельское хозяйство – это один из важнейших видов экономической деятельности, который играет стратегически важную роль в национальной экономике и призван обеспечить производство продуктов питания, сырья для переработки промышленности в необходимых объемах и в результате чего гарантирует продовольственную безопасность страны.

В международном стандарте финансовой отчетности — МФСО 41 «Сельское хозяйство» — под сельскохозяйственной деятельностью понимается управление биотрансформацией биологических активов в целях продажи, получения сельскохозяйственной продукции или производства дополнительных биологических активов.

К биологическим активам можно отнести живые растения или животных, а так же биотрансформация. Под биотрансформацией понимается процесс роста, перерождения, производства и воспроизводства, которые вызывают качественные или количественные изменения биологического актива.

Все это определяет целый ряд особенностей деятельности сельскохозяйственных предприятий, которые оказывают существенное влияние на организацию и ведение бухгалтерского учета и проведение экономического анализа на сельскохозяйственных предприятиях. Таким образом, при постановке бухгалтерского учета и проведении экономического анализа на предприятиях, имеющих ярко выраженную отраслевую особенность, необходимо учитывать их влияние. Основной особенностью деятельности сельскохозяйственного предприятия является то, что их производство связано с землей и живыми организмами.

Основные особенности бухгалтерского учета на сельскохозяйственных предприятиях представлены на рисунке.

Следующим аспектом, который необходимо учитывать при ведении бухгалтерского учета на сельскохозяйственных предприятиях является нормативно-правовое регулирование ведения бухгалтерского учета. В значительной степени это касается документов, регулирующих порядок формирования учетной политики. Все это обуславливает деление на нормативно-правовые документы в бухгалтерском учета на группы:

- документы общего характера, которые используются не зависимо от отрасли к которой принадлежит предприятие;
- отраслевые документы, приоритетной задачей которых выступает регламентация порядка бухгалтерского учета в зависимости от отраслевой специфики, разработанной Министерством сельского хозяйства Республики Узбекистан
- В состав второй группы входят методические рекомендации с учетом особенностей отрасли, которые были разработаны Министерством сельского хозяйства Республики Узбекистан..

Сельскохозяйственные предприятия могут быть акционерными обществами, товариществами, обществами с ограниченной ответственностью, кооперативами, унитарными предприятиями (муниципальными и государственными), крестьянскими (фермерскими) хозяйствами и их ассоциациями. Анализируя вышесказанное можно сделать вывод, что система бухгалтерского учета имеет зависимость от организации аграрного производства, организационно-правовой формы и специализации хозяйства, но при в ней так же имеются черты, которые характерны для учета в любой отрасли

народного хозяйства: учет строится по единому унифицированному Плану счетов, применяются типовые регистры бухгалтерского учета и формы, а также методы организации учетных работ, порядок применения которых предприятия не имеют право видоизменять.



Рисунок 1 – Особенности бухгалтерского учета на сельскохозяйственных предприятиях.

Ярко выделяется зависимость сельскохозяйственного производства от природно-климатических факторов, которые оказывают влияние на экономическую эффективность этих предприятий.

На сегодняшний день немалое количество сельскохозяйственных предприятий, занимающихся как растениеводством, так и животноводством, являются убыточными. В связи с этим государство и региональные органы власти стараются оказывать им финансовую поддержку в виде субсидий, которые могут быть на безвозвратной и возвратной основе.

Бухгалтерский учет получаемых субсидий регулируется «Учет государственной помощи» и ведется на счете «Целевое финансирование». Есть два пути учета субсидий :

- по мере возникновения права на субсидию;
- при ее фактическом получении.

Сельскохозяйственное предприятие может выбрать любой из вариантов, порядок отражения которых в учете представлен в таблице 1.

Таблица 1

Бухгалтерские записи по учету целевого финансирования

№		Дебет	Кредит
Первый вариант			
1	Признаны средства господдержки	7610	8820
2	Поступило финансирование	5110	7610
Второй вариант			
1	Получена господдержка	5110	8820

По мере освоения субсидий ее сумма будет списываться со счета 8820. Данный порядок будет напрямую зависеть от расходов на которые выделялась субсидия – капитальные или текущие.

Если государственная поддержка выделялась на текущие затраты, то списываться она будет в периоды признания соответствующих расходов. При этом сумма субсидии учитывается в качестве доходов будущих периодов в момент принятия к бухгалтерскому учету сырья и материалов.

Что касается средств на финансирование капитальных расходов, то они будут списываться на протяжении срока полезного использования внеоборотных активов по мере того как будет начисляться амортизация

Все это предопределяет необходимость изучения порядка правильного ведения учета в части отражения финансовой поддержки сельскохозяйственных товаропроизводителей, как одной из проблем данного вида учета .

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ОБОРОТНЫХ СРЕДСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ

М.Ж. Бауетдинов,

Тошкент давлат иқтисодиёт
университети

Совершенствование практики финансирования оборотных средств предприятий хозяйствующих субъектов позволяет обеспечить непрерывность их деятельности, повысить уровень инновационной активности в объеме производимой продукции.

В практике развитых стран при финансировании оборотных средств предприятий широко используются деньги, полученные от кредитов коммерческих банков и продажи ценных бумаг. Однако уровень использования кредитов коммерческих банков предприятиями республики невысок. Кроме того, эмиссионные операции, осуществляемые ценными бумагами предприятий не развиты.

Приведенные выше случаи свидетельствуют о необходимости научного исследования вопроса совершенствования практики финансирования оборотных средств предприятий.

Согласно выводам группы ученых-экономистов (А.Ковалева, М.Лапуста, Д.Скамай), изучение состава и динамики оборотных средств по основным источникам финансирования, их доли в общем составе финансовых активов, позволяет определить показатели финансового риска [1].

По мнению Е.Стоянова, изменения в структуре оборотных средств в акционерных обществах могут быть результатом сезонности в составе покупательского спроса на товары. В связи с этим при формировании системы управления оборотными средствами необходимо будет определить сезонность или иную периодичность, возникающую с учетом разницы между минимальным и максимальным объемом оборотных средств в течение финансового периода [2].

По мнению Г.Просветова, рациональный подход к управлению оборотными средствами в акционерных обществах предусматривает полное обеспечение потребности в полном составе оборотных средств и формирование соответствующих страховых резервов в условиях временных разрывов в процессе осуществления деятельности предприятия [3].

На современном этапе развития экономики Республики Узбекистан обеспечение конкурентоспособности экономики страны за счет модернизации и диверсификации предприятий реального сектора экономики является основным приоритетным направлением экономической политики государства.

Особое внимание уделяется перевооружению деятельности предприятий с технической и технологической точек зрения, обеспечению реализации программ локализации и созданию Свободных экономических зон в целях выполнения задач, поставленных в рамках данного направления.

По состоянию на 1 января 2019 года в 10 регионах Республики Узбекистан создано и действует 14 свободных экономических зон. В 2018 году в стране налажена деятельность 12 свободных экономических и 45 промышленных зон, что способствует ускоренному развитию наших регионов. Ведется работа по организации в ближайшем будущем еще 50 новых промышленных зон [4].

Создание благоприятной инвестиционной и деловой среды в Республике Узбекистан, внедрение рыночных правил регулирования валютных отношений, создание равных условий для всех хозяйствующих субъектов на валютном рынке оказывают положительное влияние на развитие деятельности Свободных экономических зон.

Стоит отметить, что деятельность созданных в республике свободных экономических зон нельзя назвать достаточно эффективной.

Как отметил Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзияев по свободной экономической зоне «Навои» За прошедшие 8 лет реализовано лишь 24 проекта с крайне низкой долей прямых иностранных инвестиций. Трудоустроены всего 900 человек. В прошлом году объемы производства снизились на 24 процента [5].

А также, в Постановлении Президент Республики Узбекистан от 7 августа 2017 года № ПП-3175 “О мерах по усилению координации и повышению ответственности министерств, ведомств, органов государственной власти на местах за эффективное функционирование деятельности свободных экономических зон” отмечен отсутствие четких принципов и подходов к развитию СЭЗ на среднесрочную и долгосрочную перспективу, определяющих конкретные цели их создания и функционирования, включая экономические, социальные, научно-технические и другие, а также специализацию СЭЗ [6].

Развитие внешнеэкономической деятельности хозяйствующих субъектов является одним из приоритетных направлений государственной экономической политики в Республике Узбекистан.

В “Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017 — 2021 годах” утвержденный Указом Президента Республики Узбекистан от 7-февраля 2017-года № УП-4947 “О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» отмечены конкретные меры по поэтапному внедрению современных рыночных механизмов валютного регулирования, обеспечение стабильности национальной валюты [1].

А также Указом Президента Республики Узбекистан от 25-мая 2017-года №УП-5057 “О мерах по дальнейшему стимулированию экспорта и обеспечению конкурентоспособности отечественных товаров на внешних рынках» с 1 июня 2017 года предоставлены следующие права хозяйствующим субъектам:

1. Осуществление экспорта товаров собственного производства, за исключением свежей плодоовощной продукции, винограда, бахчевых культур, а также сырьевых товаров, указанных в приложении № 2 к Указу Президента Республики Узбекистан от 10 октября 1997 года №УП-1871 «О дополнительных мерах по стимулированию экспорта товаров (работ, услуг)», за иностранную валюту без предварительной оплаты, открытия аккредитива, оформления гарантии банка и наличия полиса по страхованию экспортного контракта от политических и коммерческих рисков при соблюдении следующих условий:

сумма контракта не должна превышать в эквиваленте 100 тыс. долларов США;

обязательное поступление валютной выручки должно быть обеспечено в течение 90 дней со дня фактического экспорта товаров.

Определить, что последующий экспорт товаров собственного производства может осуществляться в соответствии с условиями настоящего подпункта только при отсутствии

у организации-экспортера дебиторской задолженности по экспортным поставкам, ранее осуществленным на указанных в настоящем подпункте условиях;

2) осуществление экспорта предметов и продукции, предусмотренных в приложении № 4 к Указу Президента Республики Узбекистан от 10 октября 1997 года № УП-1871 «О дополнительных мерах по стимулированию экспорта товаров (работ, услуг)», на основании решений Президента Республики Узбекистан или Правительства Республики Узбекистан [2].

В настоящее время существуют проблемы, связанные с финансированием внешнеэкономической деятельности хозяйствующих субъектов в Республике Узбекистан. Одна из таких проблем заключается в том, что основная часть документированных аккредитивов, открытых банками, состоит из обеспеченных аккредитивов.

В настоящее время аккредитивы, которые предоставляются коммерческими банками в общем объеме документально подтвержденных аккредитивов, открытых для импорта, занимают высокое значение. Сумма аккредитива снимается с текущего счета клиента и депонируется на отдельный счет. Это негативная ситуация, во-первых, определенная часть валютных средств, принадлежащих импортерам, покинет их экономический оборот; во-вторых, коммерческие банки будут лишены возможности получать большой объем дохода от операций, связанных с открытием аккредитивов.

Причина широкого использования обеспеченной аккредитивной формы международных расчетов в развивающихся странах заключается в том, что эти страны признаны экспертами международных базелинговых и других влиятельных международных организаций зоной высокого риска. Поэтому в международных экономических отношениях с этими странами они используют формы международных расчетов, при которых платежи гарантированы и существует высокая вероятность обеспечения гарантии платежа.

Еще одной актуальной проблемой, связанной с финансированием внешнеэкономической деятельности хозяйствующих субъектов в республике, является затягивание процесса перевода денежных средств хозяйствующих субъектов в иностранную валюту. Некоторые предприятия перевели необходимые для майнинга денежные суммы со счета кредитов коммерческих банков на блокчейн республиканской валютной биржи. В результате удлинения процесса добычи эти хозяйствующие субъекты несут двойные убытки. С одной стороны, они фактически выплачивают проценты за неиспользованный банковский кредит; с другой стороны, в результате девальвации суммы по отношению к иностранным валютам они вынуждены перечислять дополнительные деньги на блок-счет. В результате это негативно сказывается на платежеспособности и финансовой устойчивости предприятий.

Еще одной актуальной проблемой в этой связи является отсутствие практики бонификации кредитов, предоставляемых банками экспортерам.

Внедрение практики бонификации позволяет увеличить объем кредитов, предоставляемых коммерческими банками экспортерам. Несоблюдение показателей установленного экспортного плана свидетельствует о наличии факторов, негативно влияющих на внешнеэкономическую деятельность хозяйствующих субъектов.

В целях повышения уровня финансирования промышленных предприятий за счет кредитов коммерческих банков необходимо повысить уровень кредитоспособности за счет обеспечения стабильности их денежного потока.

Для этого, во-первых, необходимо реалистично оценить их денежный поток, используя метод оценки денежного потока, основанный на сравнении входных и выходных денежных потоков; во-вторых, необходимо достичь разумного соотношения между притоками и оттоками денежных потоков.

В международной практике путем деления общего денежного потока предприятия на сумму всех долговых обязательств определяется его кредитоспособность (таблица № 1).

Определение платежеспособность предприятий по уровню их совокупного денежного потока относительно их совокупных обязательств [8]

Норма совокупного денежного потока по отношению к совокупным долговым обязательствам	Классы платежеспособности кредитных платежей
0,75	I
0,50	II
0,30	III
0,25	IV
0,20	V
0,15	VI

Как видно из данных таблицы 1, чем выше уровень совокупного денежного потока предприятия по отношению к совокупным долговым обязательствам, тем выше уровень его платежеспособности.

2. Необходимо добиться увеличения объема источников финансирования их оборотных средств за счет обеспечения инвестиционной привлекательности ценных бумаг промышленных предприятий.

Для обеспечения привлекательности инвестиций в ценные бумаги промышленных предприятий необходимо, во-первых, не допустить снижения реальной стоимости инвестиций в эти ценные бумаги под влиянием финансовых рисков; во-вторых, необходимо обеспечить умеренный и стабильный уровень рентабельности предприятий.

3. Для того чтобы уменьшить размер должников на промышленных предприятиях, необходимо установить оплату проданных ими токенов через документально подтвержденные аккредитивы и чеки.

В настоящее время более 60 процентов безналичных расчетов между предприятиями приходится на долю платежей, произведенных через платежные поручения. Об этом свидетельствует отсутствие совершенствования практики использования безналичных расчетных форм, которые осуществляются через аккредитивы.

Влияние аккредитивов, используемых в практике нашей республики, на объем безналичных платежей очень невелико. Кроме того, основная часть документированных аккредитивов приходится на вклад обеспеченных аккредитивов. В результате этого определенная часть средств, принадлежащих субъектам экономики, выпадает из их хозяйственного оборота.

Несвоевременная доставка токенов приведет к снижению реальной стоимости внесенных средств. При этом учитываются изменения уровня инфляции и девальвации.

Использование необеспеченных и безотзывных форм документированных аккредитивов позволяет коммерческим банкам получать большой доход, снижая объем неплатежеспособности между предприятиями.

Список использованных литератур

1. Ковалева А.М., Лапуста М.Г., Скамай Л.Г. Финансы фирмы.– М.:ИНФРА – М, 2013. – С. 159.
2. Стоянова Е.С. Финансовый менеджмент: теория и практика.– М.: Перспектива, 2015. – С. 219.
3. Просветов, Г. И. Бизнес-планирование: задачи и решения. – М.: АльфаПресс, 2014. – С. 132.
4. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису. – Ташкент: Узбекистан, 2018. – 8-с.

5. Мирзияев Ш.М. Критический анализ, жесткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности каждого руководителя. – Ташкент: Узбекистан, 2017. – 27-с.

6. Постановлении Президент Республики Узбекистан от 7 августа 2017 года ПП-3175 “О мерах по усилению координации и повышению ответственности министерств, ведомств, органов государственной власти на местах за эффективное функционирование деятельности свободных экономических зон”. www.lex.uz

7. Банковское дело. Под ред. проф. О.И. Лаврушина. Учебник. – М.: КНОРУС, 2008. – С. 387.

8. www.stat.uz – Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси.

АНАЛИЗ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ

Игамова Шахиния Зикриллоевна

преподаватель БухГУ

Жамилова Эзола Вахобжонова

Студент курса 3-1Бух-20

Сегодня во всех городах и селах Узбекистана наблюдается масштабные объемы строительства. В свои очередь из-за мультипликативного эффекта строительная индустрия развивает и смежные отрасли, такие как производство строительных материалов, транспорт, торговля и другие. На заседании Президиума Совета при президенте Республики Узбекистан от 27 ноября 2020 года No УП-6119 по модернизации, ускоренного и инновационного развития строительной отрасли Республики Узбекистан на 2021- 2025 годы, среди приоритетных направлений в государственной политике поддержки инноваций, для обеспечения инновационного развития строительной отрасли, было отмечено внедрение энергоэффективных технологий, на основе комплексного применения энергосберегающих решений и инновационной системы учета энергоресурсов. В развитии инновационных процессов в строительстве важное место отводится применению современных строительных материалов, изделий и конструкций [2].

2021 год демонстрирует деловую активность в строительном секторе. Настроение предпринимателей постепенно восстанавливается до докризисного уровня. Последние два года оказались непростыми для строительного сектора. Профессиональному сообществу потребовалось проделать большую работу, чтобы удержать рынок и сохранить стабильность. Вопреки эпидемиологической ситуации, после непродолжительного застоя, при поддержке власти, была восстановлена работа на стройплощадках по возведению жилья и коммерческих объектов. Благодаря этому стройка устояла и сегодня продолжает вытягивать экономику страны. Впрочем, это не означает, что отрасль полностью вышла из кризиса, который начался еще до пандемии.

На сегодняшний день в отрасли насчитывается около 1,5 млн строителей. По состоянию на 1 июня 2021 года количество предприятий и организаций в строительном секторе достигло 43,3 тыс. ед., что на 5 тыс. больше по сравнению с аналогичным периодом прошлого года. Из общего количества строительных предприятий 56,9 % относятся к строительству зданий и сооружений, 9,9 % – к строительству объектов гражданского назначения, 33,2 % осуществляют специализированные строительные работы.

По данным Госкомстата, затраты на строительные работы за первое полугодие 2021 года составили 48,6 трлн сумов. По сравнению с прошлым годом темпы роста составили 100,1%. При этом госорганизации выполнили строительные работы в объеме более чем 1 трлн 971 млрд сумов. Таким образом, их доля в республике составляет 4,1%.

Локомотивом строительной отрасли остается жилищное строительство. К слову, именно жилищная сфера быстрее всего вышла в фазу восстановительного роста, «отбивая» потери пандемического 2020 года. В настоящее время в Узбекистане действует около 12,5 тыс. предприятий по производству строительных материалов, количество видов которых превысило 180. К 2020 году принято 626 международных стандартов производства качественных и безопасных строительных материалов. По состоянию на 1 июля 2021 года, количество предприятий строительства и организаций, относящихся к сфере строительства, по сравнению с аналогичным периодом в 2019 году возросло на 135,0 % и является одним из секторов со стабильными темпами роста.

Основным фактором, повлиявшим на возросшую численность предприятий в строительной отрасли на 1 июля 2021 года на 113,0 %, если сравнить с соответствующим периодом 2020 года, является рост количества действующих предприятий в сфере строительства зданий и сооружений на 56,9 % (от общего количества предприятий в строительной отрасли) (темпы роста 111,0 %), объектов гражданского назначения – на 9,9 % (темпы роста – 115,9 %), специализированных строительных работ – на 33,2 % (темпы роста – 115,7 %). Объем строительных работ, выполненных крупными строительными организациями, в январе-июне текущего года составил 12114,5 млрд. сумов. По сравнению с соответствующим периодом 2020 года, в рассматриваемое время темпы роста строительных работ достигли 85,7 %, а их доля в общем объеме уменьшилась на 4,5 % и составила 24,9 %.

Больше всего строительных компаний в Ташкенте – 19,7% от общей доли в республике. Меньше всего строительных компаний действует в Сырдарьинской и Навоийской области – 3,6% и 3,7% соответственно. Между тем наиболее высокая доля в объеме строительных работ, выполненных крупными строительными организациями, отмечена в Ташкенте (27,8 % от общего объема строительных работ в данном регионе, или на 128,1 %, чем в соответствующем периоде 2020 года), Навоийской области (22,7 % от общего объема строительных работ в этом регионе, или 87,7 % к аналогичному периоду 2020 года) и Кашкадарьинской области (21,3 % от общего объема строительных работ в регионе, или на 166,2 %, чем в соответствующем периоде 2020 года). Объем строительных работ, выполненных малыми предприятиями и микрофирмами, по сравнению с другими организациями, в январе-июне 2021 года увеличился, их доля составила 56,7 % от общего объема, что на 2,3 % больше, если сопоставить с аналогичным периодом прошлого года. Таким образом, объем выполненных ими строительных работ составил 27545,9 млрд. сумов, по отношению к январю-июню 2020 года, темпы роста достигли 104,5 %. Существующие технологии производства работ в строительстве дают огромный выбор направлений применения инновационных материалов и их сочетаний для того, чтобы обеспечить энергоэффективность при строительстве и эксплуатации возведенных зданий и комфортное проживание в них. Результатом внедрения инновационных разработок в строительстве является снижение стоимости готовой строительной продукции, уменьшение затрат на эксплуатацию зданий и сохранение ограниченных природных ресурсов.

Актуальность энергосберегающих технологий и скорость, с которой они реализуются, предопределяет необходимость проведения постоянного мониторинга современных решений по этим вопросам в целях сокращения затрат на отопление, вентиляцию, освещение и прочие нужды. По экспертным оценкам системная реализация только энергосберегающих мероприятий при возведении жилых зданий позволяет сократить эксплуатационные энергозатраты в жилищном секторе в 2,0–2,5 раза.

Совершенствование градостроительных и архитектурно-планировочных решений, а также конструктивных систем зданий позволяет сократить энергозатраты на 8–10 %; до 15 % и 25 % соответственно. Эксплуатация современных инженерных систем, включая систему вентиляции, и установка приборов учета, контроля и регулирования тепло-, водо- и электропотребления приводят к сокращению потребления электроэнергии до 30 % и 20

% соответственно [3]. На ближайшее будущее за приоритетными направлениями минимизации теплопотерь в зданиях останутся использование энергоэффективного оборудования, регулируемых и нетрадиционных систем энергообеспечения, применение новых теплоизоляционных материалов, используемых в ограждающих конструкциях для утепления подвальных и чердачных перекрытий, трубопроводов, при устройстве фундаментов зданий и сооружений и установке оконных блоков. Основные строительные материалы, изделия и конструкции, наиболее широко используемые в Бухарской области при возведении зданий и сооружений.

2021 год демонстрирует деловую активность в строительном секторе. Настроение предпринимателей постепенно восстанавливается до докризисного уровня. Последние два года оказались непростыми для строительного сектора. Профессиональному сообществу потребовалось проделать большую работу, чтобы удержать рынок и сохранить стабильность. Вопреки эпидемиологической ситуации, после непродолжительного застоя, при поддержке власти, была восстановлена работа на стройплощадках по возведению жилья и коммерческих объектов. Благодаря этому стройка устояла и сегодня продолжает вытягивать экономику страны.

Впрочем, это не означает, что отрасль полностью вышла из кризиса, который начался еще до пандемии. Если строительному сектору удалось перейти к компенсационному росту и «отыграть» падение 2020 года, то проблемы с нехваткой квалифицированных кадров, коррупцией и нарушением норм строительства, отсутствием четкой политики и стратегии в области строительства все еще не решены.

Основные проблемы в строительной отрасли – незаконное строительство, недостаток финансирования, нехватка квалифицированных кадров, коррупция, устаревшая законодательная база и отжившие нормативно-технические документы, технологическая отсталость, плохой менеджмент. Системные проблемы и недостатки сдерживают развитие отрасли. Кроме того, многие застройщики используют в своей деятельности «серые схемы», например, экономят на стройматериалах и привлекают неквалифицированных работников, что в конечном итоге сказывается на качестве проекта. К примеру, недавно Минстрой назвал пять компаний, которые возводят в столице многоэтажные дома и коммерческие объекты с нарушениями. В их число вошли Humo-Sarbon, Insoft Invest, Sheyx AJ Invest, Uchtepa Qalqon и Zarafshon Buildings. Было установлено, что строительно-монтажные работы ведутся некачественно, без уведомления стройинспекции и оформления необходимых документов. Плачевная ситуация наблюдается и в регионах республики. Регулярно в СМИ появляются сообщения об обрушениях в новостройках, которые не так давно были сданы в эксплуатацию. Например, в январе 2021 года стало известно, что в Джизаке обрушилась часть многоэтажного дома, который также строился незаконно.

Для устранения многих проблем важно, чтобы для строительных компаний приоритетными направлениями деятельности стало совершенствование управления, учет требований рынка, использование качественных технологий и материалов. В свою очередь, правительству необходимо усилить контроль качества возводимых в республике объектов и объявить серьезную борьбу с коррупцией.

Большой проблемой можно обозначить низкое качество производимых строительных материалов, не соответствующих современным требованиям экологичности, сейсмичности, противопожарным и другим нормам. Эта проблема перекликается с проблемой реализации на внутреннем рынке контрафактной продукции. К примеру, компания «Кнауф» изменила дизайн одного из наиболее востребованных своих продуктов.

Для повышения уровня инновационности строительной отрасли и производства строительных материалов необходимо использовать комплексный подход. Совместное участие смежных отраслей, поставляющих продукцию для строительства, позволит устранить технологические барьеры, препятствующие реализации накопленного

инновационного потенциала, их разработок в готовой строительной продукции и снизить транзакционные издержки.

Библиографический список

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 27.11.2020 г. N УП-6119 "Об утверждении Стратегии модернизации, ускоренного и инновационного развития строительной отрасли Республики Узбекистан на 2021-2025 годы"

2. Теличенко В.И. Инновации в строительстве – все впереди // Промышленное и гражданское строительство. 2013. № 7. С. 88–92.

3. Бондаренко А.А. Процесс формирования механизма управления инвестиционно-строительным комплексом // Инновации и Инвестиции. – 2014. – № 11.

4. Богомоллов А.О., Дмитриев С.Г. Основные направления инновационного развития промышленности строительных материалов // [Электронный ресурс].

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА СОЛИҚҚА ТОРТИШ ТИЗИМИДА ТАДБИРКОРЛАРГА БЕРИЛАЁТГАН ИМТИЁЗЛАР

Агзамов А.Т.

ТДИУ Солиқлар ва суғурта иши
кафедраси доценти, PhD

Исмоилов Муслимжон Қамбарали ўғли –
ТДИУ Магистратура талабаси

Президентимиз ташаббуси билан мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш борасида комплекс тарзда институционал ва таркибий ислохотлар амалга оширилмоқда. Жумладан, республикада давлатнинг иқтисодиётдаги иштирокини камайтириш, тадбиркорлик субъектлари ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, хусусий мулкнинг - устуворлигини янада кучайтириш, бизнес ташаббусларни қўллаб-қувватлаш йўналишларида изчил ишлар қилинмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимиз тадбиркорлари билан 2021-йил 20-августдаги очик мулоқоти бўлиб ўтди. Бу мулоқотда куйидаги фикрлар айтилиб ўтилди:

Кейинги йилларда тадбиркорлар иқтисодиётимиз ва ислохотларимиз таянчига ҳамда локомотивига айланди, ишнинг кўзини биладиган, ишбилармон юртдошларимиз тимсолида Янги Ўзбекистон бунёдкорларини кўрамиз.¹

Бу ҳақда сўз юритганда, мамлакатимизда ҳар йили яратилаётган иш ўринларининг 90 фоизи хусусий сектор ҳиссасига тўғри келишини таъкидлаш лозим. Ҳозирги кунда ушбу тармоқда 5 миллиондан зиёд аҳоли, айниқса, ёшларимиз меҳнат қилаётгани унинг нафақат иқтисодий, балки ижтимоий ҳаётимиздаги ўрни ҳам ортиб бораётганини кўрсатади. Шу боисдан ҳам агар биз иқтисодиётимизни, ижтимоий соҳани янада юксалтирамиз десак, тадбиркорликни ривожлантириш учун барча имконият ва шароитларни яратиб беришимиз зарур.

Албатта, кейинги 3-4 йилда тадбиркор учун кредит ва субсидия олиш, лицензия, кўчмас мулк ва ресурсларга ега бўлиш, экспорт каби масалаларда кўплаб янги имконият ва шароитларни яратдик. Ортиқча текширишлар, нақд пул, валюта ва хомашё бўйича мавжуд чекловлар, тўсиқ ва ғовларнинг аксариятига барҳам берилди.

Энг асосийси, эл-юртимиз ўртасида ва давлат идораларида тадбиркорларга нисбатан муносабат ўзгарди, жамиятда уларнинг обрўси ва мавқеи кун сайин тобора ортиб бормоқда. Натижада ички ва ташқи бозорда ўз мустаҳкам ўрнига, нуфузи ва брендига ега бўлган ҳақиқий тадбиркорларимиз синфи шакллана бошлади.

¹ www.prezident.uz

Кейинги 2 йилнинг ўзида фақатгина хотин-қизлар ва ёшлар тадбиркорлигини ривожлантиришга 500 миллион доллар маблағ йўналтирилди. Улар ўз бизнесини бошлаши, жумладан, касб ва тадбиркорликни пухта ўрганиши учун барча шароитлар яратилди.

Сўнги 5 йилда мамлакатимизда ёш тадбиркорлар 5 баробар кўпайиб, уларнинг сони 500 мингдан ошди.

Бюджетдан ташқари жамғармаларга мазкур йиғимларни бекор қилиш ҳисобидан 7 мингга яқин корхоналар ҳар йили ўртача 6 триллион сўм солиқ тўлашдан озод бўлди. Мол-мулк, даромад солиғи ва ижтимоий солиқлар ставкалари 2 баробар камайтирилди.

Аниқ мисоллар билан гапирадиган бўлсак, транспорт соҳасида солиқ юки – 3 баробар, озиқ-овқат саноатида – 2 баробар, тўқимачилик ва электр техникаси саноатида еса, 20 фоизгача камайди.

Пандемия даврида харажатларимиз кескин ошганига қарамасдан, қўшилган қиймат солиғи 20 фоиздан 15 фоизга туширилди, кўпроқ зарар кўрган тармоқларга ижтимоий солиқ 12 фоиздан 1 фоизга пасайтирилиб, мол-мулк ва ер солиқлари тўловларидан буткул воз кечилди. Бу еса, ўз навбатида, тадбиркорлар ихтиёрида қолган 2 триллион сўм маблағни бизнес фаолиятига сарфлаш имконини берди.

Шунингдек тадбиркорларга энгиллик яратиш мақсадида бир қатор қонун ҳужжатларга ўгартиришлар киритилмоқда. Хусусан 2021-йил 14-октябрда “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Қонун қабул қилинди.¹

Мазкур ҳужжат билан Солиқ кодексининг 99, 100, 101, 243, 312, 378, 483-моддаларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилди.

Жумладан, эндиликда Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси Солиқ кодексининг 17-моддасида кўрсатилган солиқларни, шунингдек айланмадан олинadиган солиқни 11-бобда белгиланган тартибда мол-мулкни гаровга бермаган ҳолда, кафиликсиз ёки банк кафолатисиз бўлиб-бўлиб тўлаш имкониятини тақдим этишга ҳақли (жисмоний шахслардан олинadиган даромад солиғи, ижтимоий солиқ, тўлов манбаида олинadиган фойда солиғи ҳамда солиқ агенти сифатида тўланадиган қўшилган қиймат солиғи бундан мустасно). (Солиқ кодексининг 99-моддаси биринчи қисмининг 1-банди)

Бундан ташқари, солиқларни тўлашни кечиктириш ёки бўлиб-бўлиб тўлаш имкониятини бериш шартлари яна бир банд билан тўлдирилди. Унга кўра уч йилдан ортиқ вақтдан буён фаолият юритиб келаётган ҳамда ҳисобланган солиқларни ўз вақтида тўлаб келган, аммо молиявий аҳволига кўра солиқ қарзини белгиланган муддатларда тўлаш имкониятига эга бўлмаган солиқ тўловчиларга солиқларни тўлашни кечиктириш ёки бўлиб-бўлиб тўлаш имконияти берилadi (100-моддаси 2-қисми 3/1-банд).

Шунингдек, Қонун билан солиқларни тўлашни кечиктириш ёки бўлиб-бўлиб тўлаш имкониятини бериш тартибига қўшимча киритилди. Яъни, уч йилдан ортиқ вақтдан буён фаолият юритиб келаётган ҳамда ҳисобланган солиқларни ўз вақтида тўлаб келган, аммо молиявий аҳволига кўра солиқ қарзини белгиланган муддатларда тўлаш имкониятига эга бўлмаган солиқ тўловчиларга солиқларни тўлашни кечиктириш ёки бўлиб-бўлиб тўлаш имконияти берилadi. Бунда муддати кечиктирилиши ёки бўлиб-бўлиб тўланиши лозим бўлган сумма охириги уч йил давомида тўланган солиқ суммаларининг 50 фоизидан ошмаслиги лозим (101-модда 10-қисм).

Қонун билан эндиликда қимматбаҳо металлдан ишланган банк ва ўлчовли қўймаларини, қимматбаҳо металлдан ишланган қўйма (инвестиция) тангаларни (нумизматика мақсадлари учун фойдаланиладиган тангалардан, шунингдек қимматбаҳо металлдан ишланган чет эл тангаларидан ташқари), заргарлик буюмлари билан биргаликда қимматбаҳо металлларни ишлаб чиқариш жараёнида ҳосил бўладиган парчаларни ва чиқиндиларни, қимматбаҳо ва ярим қимматбаҳо тошларни, шунингдек,

¹ Lex.uz

қимматбаҳо металллардан ва қимматбаҳо тошлардан ясалган ярим тайёр маҳсулотларни реализация қилиш бўйича айланма ҳам ҚҚСдан озод этилади (243-модда 18-банд).

Қонун билан фойда солиғини ҳисоблашда илмий тадқиқотларга ва (ёки) тажриба-конструкторлик ишланмаларига доир харажатлар чегириб ташлаш тартиби қайта таҳрирланди. Яъни, солиқ тўловчининг илмий тадқиқотларга ва (ёки) тажриба-конструкторлик ишланмаларига доир харажатлари, амортизация қилинадиган активларни олишга оид харажатлардан ташқари, тегишли илмий тадқиқотлар ва (ёки) тажриба-конструкторлик ишланмаларининг натижасидан қатъи назар, ушбу моддада назарда тутилган тартибда бундай тадқиқотлар ва ишланмалар (хизматларнинг алоҳида босқичлари) тугалланган ва (ёки) қабул қилиш-топшириш далолатномасини тарафлар имзолаганидан кейин 2 коэффициент қўлланилган ҳолда чегириб ташланади (312-модда 2-қисми).

Яна бир киритилган ўзгартиришга асосан жисмоний шахсларнинг Ўзбекистон Республикасининг профессионал ташкилотларида (олий ва ўрта-махсус таълим ташкилотларида) таълим олиш учун тўлов тўловлари ҳам жисмоний шахслардан олинadиган даромад солиғидан озод этилиши белгилаб қўйилди.

Олдинги таҳрирга асосан фақат Ўзбекистон Республикасининг олий ўқув юртларида таълим олиш (ўзининг, йигирма олти ёшга тўлмаган фарзандларининг ёки эрининг (хотинининг) таълим олиши) учун тўлов ушбу солиқ тўловидан озод этилган эди (378-модда 16-бандининг).

Қонун билан вақтинчалик Солиқ кодекси билан белгиланган вақтинчалик солиқ имтиёзларига ҳам кўшимчалар киритилди. Уларга мувофиқ, Хунарманд уюшмасининг аъзоларига берилган солиқ имтиёзлари “Ўзбекзаргарсаноати” уюшмасининг аъзолари бўлган заргарлик буюмларини ишлаб чиқарувчи ЯТТларга нисбатан 2023-йил 1-мартга қадар бўлган давр учун татбиқ этилади (483-модда 7- қисми).

Шунингдек, Оролбўйида инновацияларни қўллаб-қувватлаш учун жамғармаси учун белгиланган тартибда шакллантириладиган рўйхатлар бўйича Ўзбекистон худудига олиб кириладиган мамлакатда ўхшаши ишлаб чиқарилмайдиган илмий-лаборатория асбоб-ускунаси, реагентлар ва сарфлаш материаллари 2024-йил 1-январга қадар бўлган давр учун ҚҚСдан озод этилади (483-модда 8- қисми).

Республикада инвестицион муҳитни янада яхшилаш, маҳаллий ва хорижий инвесторларга қулай шарт-шароитлар яратиш, шунингдек, тадбиркорларнинг муаммо ва тақлифларини бевосита ўрганиш ҳамда тадбиркорликни келгусида ривожлантиришнинг асосий йўналишларини белгилаб олиш бўйича 2021 йил 20 август куни ўтказилган Ўзбекистон Республикаси Президентининг тадбиркорлар билан очиқ мулоқоти доирасида белгиланган масалалар ижросини таъминлаш мақсадида 2021-йил 2-ноябрда Президентимиз томонидан **“Маҳаллий ва хорижий инвесторлар томонидан солиқларни тўлашни кечиктириш механизмларини такомиллаштириш тўғрисида”** ПҚ-5274 сон қарор қабул қилинди.¹

Бу қонунга асосан қуйидагилар белгиланди:

2022 йил 1 январдан бошлаб тадбиркорлик субъектларига (бундан давлат улуши 50 фоиздан юқори бўлган корхоналар, ер қабридан фойдаланувчилар ва акциз ости маҳсулотлари ишлаб чиқарувчилар мустасно) умумий майдони 1 000 квадрат метрдан ортиқ бўлган ер участкаларига ва (ёки) бино ва иншоотларга нисбатан мулк ҳуқуқини қўлга киритганда мол-мулк солиғи ва ер солиғи бўйича ҳисобланган солиқларни тўлашни олти ой муддатга кечиктириш ҳуқуқи берилди.

Бунда, кечиктирилган солиқлар суммаси давлат рўйхатидан ўтказилган ер участкалари, бино ва иншоотлар қийматидан келиб чиқиб ҳисобланган солиқлар миқдорида белгиланади.

Шунингдек, солиқларни тўлашни кечиктириш ҳуқуқи ер участкалари, бино ва иншоотларга бўлган мулк ҳуқуқи давлат рўйхатидан ўтказилган кундан бошлаб уч ой

¹ www.lex.uz

муддат ичида давлат солиқ хизмати органларини хабардор қилган ва унинг тўланишини таъминлаш (гаров) талаб этилмаган ҳолда амалга оширилади;

солиқларни тўлашни кечиктиришнинг амал қилиш муддати давлат солиқ хизмати органларига белгиланган тартибда хабарнома юборилган кундан бошлаб ҳисобланади ҳамда унинг тугаган санасидан бошлаб кечиктирилган солиқ суммаси ҳисобланган фоизлар билан бирга тенг улушларда бир йил давомида тўлаб берилади. Бунда, солиқ тўлаш муддатларини ўзгартириш имкониятини беришдан фойдаланганлик учун фоизлар солиқлар кечиктирилган санадан бошлаб Марказий банк асосий ставкасининг 50 фоизи миқдорида ҳисобланади;

ер участкаси ва (ёки) бино ва иншоотлар солиқ тўловларини кечиктириш муддати давомида реализация қилинган ёки ижарага берилган тақдирда, мол-мулк солиғи ва ер солиғи бўйича кечиктириш муддати давомида ҳисобланган солиқ суммаси тўлиқ миқдорда ундирилади;

солиқ қонунчилигини бузиш хавфи юқори бўлган солиқ тўловчилар гуруҳига киритилган тадбиркорлик субъектларига солиқларни тўлашни кечиктириш тақдим этилмайди.

Жумладан, “Солиқчи – кўмакчи” тамойили доирасида солиқ турлари бўйича 31 135 та субъектнинг 3,4 трлн. сўм мавжуд ортиқча тўлов суммаси қайтариб берилган.

3 141 та субъектнинг 26,6 млрд. сўмлик солиқ мажбуриятлари уларнинг дебитор қарздорликлари ҳисобидан ундирилиши ҳал этилган.

Ортиқча харажатлар ва қонун бузилишларидан сақлаш мақсадида 54,7 мингта тадбиркорга ҳисобот тўлдириш ва топширишга кўмаклашилган.¹

Давлат солиқ хизмати органлари томонидан ҳозирги кунгача жами келиб тушган мурожаатларнинг 23 265 таси тўлиқ назоратга олиниб, 15 611 та ҳолатда мурожаатчиларга тегишли тушунтиришлар берилган. 6 391 та мурожаат бўйича аниқ чоралар кўрилган бўлса, асослантирувчи фактлари бўлмаган 320 та ариза тегишли тартибда рад этилган. Айни пайтда яна 943 та мурожаат кўриб чиқилмоқда.²

Солиқ тизимида амалга оширилаётган ислохотлар натижасини рақамларда кўрадиган бўлсак 2016-йилда ялпи ички маҳсулотда яширин иқтисодийнинг улуши 59%ни ташкил этган бўлса, 2020 йилга келиб 11% га пасайтирилиб ёки 48%га туширилган. Бу ўз навбатида, солиқ тушумларининг ошишига ижобий таъсир кўрсатиб, 2016 йилга нисбатан 2020 йилда тушумлар 3,3 баробарга ўсган.

Хулоса ўрнида шуни кўришимиз мумкинки тадбиркорларга берилаётган енгилликлар ўз натижасини бермоқда, мамлакатимизда янгидан янги иш ўринлари яратилмоқда, мамлакатимиз иқтисодий кўрсаткичлари яхшиланмоқда. Шунингдек солиқ хизмати ходимлари томонидан тадбиркорлар дуч келаётган муаммолар имкон қадар ҳал этилмоқда, буларнинг барчаси давлат органлари томонидан “Халқ давлат идораларига эмас, балки давлат органлари халқимизга хизмат қилиши керак” тамойили асосида олиб борилаётганлигига мисол бўлади.

¹ Soliq.uz sayti

² <https://soliq.uz/press-services/news/show/murozhaatlar-bilan-ishlash-soliq-tolovchilarga-hizmat-korsatishning-muhim-omili>

УЙ-ЖОЙ КОММУНАЛ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Юлдошева Шахрибону Анвар қизи

ҚарМИИ “Инновацион иқтисодиёт” кафедраси ассистенти

Турсунова Фаёза Зариповна

ҚарМИИ 4-курс талабаси

Инатова Гули Отабек қизи

ҚарМИИ 1-курс талабаси

Марказий Осиё ҳудудида тарихий манбаларда қуриб ишга туширилган муддатлари олдинги минг йилликгача бўлган даврни ўз ичига олувчи, ўнлаб муҳандислик иншоотлари мавжуд бўлиб, уларнинг барчаси узоқ ўтмишда Ўрта Осиё ҳудудидаги қадимий шаҳарлар ва доимий (ўтроқ) аҳоли яшаш манзилларида уй-жой хўжалиги ва деҳқончиликда сув таъминоти иншоотлари барпо этилганлигидан ва уй-жой-коммунал хўжалиги соҳасининг яратилишида айнан Ўрта Осиёда асос солинганлигидан далолат беради. Бугунги инновацион иқтисодиёт ривожланаётган шароитда Ўзбекистонда уй-жой сиёсатига алоҳида эътибор қаратилиши долзарб вазифа ҳисобланади.

Уй-жой коммунал хўжалиги – бу мураккаб ижтимоий-иқтисодий тизим бўлиб, у аҳоли ҳаётий эҳтиёжларини қондиради. Уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида иқтисодиётнинг турли тармоқларига тегишли бўлган корхона ва ташкилотлар томонидан аҳоли турмушида газ, сув, иссиқлик энергияси каби зарур бўлган ресурслар етказиб берилиши билан бирга уларда катта миқдордаги меҳнатга лаёқатли аҳолини иш ўринлари билан таъминлайди.

Уй-жой коммунал хўжалиги тизими аҳоли турар жойлари, маъмурий ва ишлаб чиқариш бинолари, ноишлабчиқариш ва ижтимоий соҳада фойдаланилаётган бинолар, иншоотлар, ҳудудлар ва узатувчи магистралларга хизмат кўрсатувчи, фойдаланишни ташкил этувчи, қурилиш-таъмирлаш, транспорт, энергия ишлаб чиқарувчи ва бошқа турли товар ва хизматларни амалга оширувчи корхоналардан ташкил топган, кенг қамровли фаолиятининг пировард натижаси инсон ҳаёт фаолиятини ташкил этувчи, шаҳар инфратузилмасини ривожлантирувчи ва экологик муҳитни яхшилашга хизмат қилувчи соҳа ҳисобланади.

Уй-жой коммунал хўжалиги тизимининг ўзига хос хусусияти унинг кўп тармоқлилиги ва турли-туман хизматлардан ташкил топганлигидадир. Кўп соҳа ва тармоқлардан ташкил топган уй-жой коммунал хўжалиги тизими ўз навбатида, турли ташкилий-ҳуқуқий ва иқтисодий асосдаги ишлаб чиқариш ва ноишлабчиқариш соҳаси корхона ва ташкилотларига хизмат кўрсатади. Уй-жой коммунал хўжалиги аҳолини фаровон ҳаёт кечириши учун шарт-шароитларни яратиш билан боғлиқ экан албатта, аҳоли яшайдиган шаҳар ва қишлоқларда турли хилдаги коммунал хизматларга эҳтиёж мавжуд бўлади. Доимий яшаш жойларида аҳоли сонининг кўпайиб бориши ўз навбатида коммунал хизматларга эҳтиёжнинг ортиб боришига олиб келади. Масалан, ҳозирги кунда чекка ҳудудларда жойлашган кичик қишлоқда фақат электр энергияси таъминоти ташкил этилган, қишлоқ жойлари ва аҳоли яшаш марказларида (посёлкалар) электр энергияси, газ ва ичимлик суви таъминоти тизими фаолият кўрсатса, шаҳарларда эса коммунал хизматларнинг турли-туман шакллари мавжуд. Коммунал хўжалик тизими ва коммунал хизматларнинг ташкил этилиш даражаси аҳолига фаровон яшаш учун яратилган шарт-шароитни кўрсатади. Аҳоли сонининг кўпайиб бориши маълум ҳудуд чегараларининг кенгайиб боришига, коммунал хизматлар тизимининг такомиллашиб боришига ва вақт ўтиши билан қишлоқ жойларининг аҳоли яшаш марказларига, аҳоли яшаш марказларини эса шаҳарларга айланишига олиб келади.

Шаҳар бу йирик аҳоли яшовчи маъмурий ҳудуд бўлиб, у ишлаб чиқариш, савдо ва маданият маркази ҳисобланади. Шаҳар коммунал хўжалик тизими нафақат аҳолининг фаровон яшаши учун шарт-шароит яратувчи, балки барча турдаги ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш корхоналари, ижтимоий соҳа ва маъмурий бошқарув тизими корхона ва

ташкilotларига турли коммунал хизматлар кўрсатувчи корхоналар мажмуасидан ташкил топади. Юридик мавкега эга бўлган ҳар қандай корхона ўз фаолиятида коммунал хизматларнинг у ёки бу турларидан фойдаланади.

Уй-жой коммунал хўжалиги тизими таркибига кирувчи корхона ва ташкilotлар, кўрсатадиган хизмат турларидан келиб чиқиб, асосан қуйидаги гуруҳларга бўлинади:

- Уй-жой мажмуасига хизмат кўрсатиш ва уй-жой фондини таъмирлаш-қурилиш ташкilotлари;
- Иссиқлик энергияси таъминоти хўжалиги;
- Газ таъминоти хўжалиги;
- Электр энергетика таъминоти ва кўчаларни ёритиш хўжалиги;
- Сув таъминоти ва оқова-қувур хўжалиги;
- Муҳандислик тизимлари ва иншоотлари (лифт, ҳавони шамоллатиш - совитиш ва бошқалар)га хизмат кўрсатиш корхоналари.

Уй-жой коммунал хўжалиги шаҳар хўжалигининг асосий қисмини ташкил этиб, шаҳар хўжалиги инфратузилмасида уй-жой коммунал хўжалиги билан бевосита боғлиқ бўлган ва коммунал хўжалиги тизимининг ажралмас қисми ҳисобланувчи соҳаларга қуйидагилар киради:

- Йўл хўжалиги ва шаҳар аҳоли ташиш транспорти;
- Алоқа хизмати ва муҳандислик коммуникациялари, хабар берувчи ва ёнғин хавфсизлигини таъминловчи хизматлар;
- Кўкаламзорлаштириш ва ободонлаштириш;
- Санитария-гигиена ва экологик ҳимояни таъминлаш ҳамда назорат қилиш хизматлари;
- Истироҳат боғлари, хиёбонлар, чўмилиш ҳавзалари ва бассейнлари;
- Ҳайкаллар ва тарихий обидаларни сақлаш;
- Меҳмонхона хўжалиги;
- Ҳаммомхона ва кир ювиш хўжалиги;
- Ижтимоий соҳа ва маиший хизмат кўрсатиш корхоналари.

Ишлаб чиқариш кучлари, турар жой худудлари ва транспорт тизимларининг жойлашиши коммунал хўжалиги корхоналарининг ташкил этилиши ва самарали фаолият кўрсатишга таъсир кўрсатади. Шу сабабли ҳар бир шаҳарда ўзига хос коммунал хўжалиги тизими шаклланади. Амалиётда коммунал-хўжалиги тизими фаолияти маҳаллий ҳокимият томонидан координация қилинади.

“Бугунги кунда уй- жой қурилиши ва иқтисодиётнинг мазкур соҳа билан боғлиқ тармоқларини ривожлантириш молия тизимини шакллантириш ва барқарор ривожлантиришнинг энг муҳим бўғинларидан бири ҳамда банклар активлари ва ишончли ресурс базасининг мустаҳкам манбаи бўлиб қолмоқда. Аксарият давлатларнинг тарихий тажрибаси шундан далолат берадики, уй-жой қурилиши ва инфратузилма соҳасини тараққиётнинг устувор йўналиши сифатида белгилаш миллий иқтисодиётни қайта тиклашнинг ҳал қилувчи воситаси бўлиб хизмат қилади”¹.

Мамлакатимизда давлатнинг уй-жой сиёсати Ўзбекистон Республикасининг Уй-жой Кодексида акс эттирилган бўлиб, у 1998 йил 24 декабрдаги 713-І-сонли Ўзбекистон Республикаси Қонуни билан қабул қилинган ва 1999 йил 1 апрелдан амалга киритилган.

Ўзбекистон Республикасининг Уй-жой кодекси 11 та бўлим ва 141 та моддадан иборат. Ўзбекистон Республикасида уй-жой сиёсати уй-жой тўғрисидаги қонун ҳужжатлари асосида тартибга солинади. Уй-жой тўғрисидаги қонун ҳужжатлари Уй-жой кодексидан ҳамда бошқа қонун ҳужжатларидан иборат. Айрим уй-жой муносабатлари уй-жой тўғрисидаги қонун ҳужжатларида тартибга солинмаган бўлса, уларни республикаимизда ерга оид қонун ҳужжатлари ҳамда архитектура ва шаҳарсозлик соҳасидаги қонун ҳужжатларининг ана шу муносабатларни тартибга солишга тааллуқли

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Уй-жой мулкдорлари ширкатларининг фаолиятини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-3038 сонли Фармони Халқ сўзи, 2002 йил 26 февраль.

қисми қўлланади. Уй-жой тўғрисидаги қонун ҳужжатлари фуқаролар, юридик шахслар, давлат бошқарув органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг қуйидаги масалалар бўйича муносабатларини тартибга солади¹:

- турар жойларга мулк ҳуқуқи, эгалик қилиш ва фойдаланиш ҳуқуқининг юзага келиши, амалга оширилиши, ўзгариши ҳамда бекор бўлиши;
- уй-жой фондини ҳисобга олиш;
- уй-жой фондини сақлаш, қараш ва таъмирлашни таъминлаш;
- фуқароларнинг уй-жой ҳуқуқларига риоя этилиши ва уй-жой фондидан мақсадли фойдаланиш устидан назорат қилиш.

Уйларни қуриш, турар жойларни қайта қуриш ва ўзгартириш, муҳандислик қурилмаларидан фойдаланиш, коммунал хизматлар билан таъминлаш билан боғлиқ муносабатлар Уй-жой Кодекси ва бошқа қонун ҳужжатлари билан тартибга солинади. Агар қонунда ёки Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида бошқача тартиб белгиланган бўлмаса, уй-жой тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг қоидалари чет эл фуқаролари, фуқаролиги бўлмаган шахслар, чет эл юридик шахслари иштирокидаги уй-жой муносабатларига нисбатан қўлланилади.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг уй-жой муносабатларини тартибга солиш соҳасидаги ваколатларига қуйидагилар киради:

- Уй-жой фондидан фойдаланиш ва унинг асралишини таъминлаш соҳасидаги давлат сиёсатини юритади, уй-жой соҳасини ривожлантиришнинг давлат комплекс дастурларини қабул қилади.
- Уй-жой хўжалиги ва коммунал хизмат кўрсатиш бўйича давлат бошқарув органлари фаолиятига раҳбарлик қилади.
- Турар жойларни тақсимлаш ҳамда аренда, ижара шартномалари бўйича фуқароларга бериш, шунингдек уларни алмаштириш ҳамда сотиш тартибини ишлаб чиқади ва тасдиқлайди.
- Уй-жой ва коммунал хизматлар учун ҳақ тўлаш тизимини тартибга солади.
- Компенсация, кредит ҳамда ссудалар бериш тартиби ва шартларини тартибга солади.
- Қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ваколатларни амалга оширади.

Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг уй-жой муносабатларини тартибга солиш соҳасидаги ваколатларига қуйидагилар киради:

- уй-жой тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг ижросини таъминлаш;
- уй-жой фондини ва коммунал объектларни бошқаришни ташкил этиш;
- ўз тасарруфидаги ҳудудда коммунал хизматларга оид тариф сиёсатини белгиланган тартибда шакллантириш;
- уй-жой фондини ҳисобга олиш;
- давлат уй-жой фондидаги турар жойларни тақсимлаш ва фуқароларга ижара шартномаси шартлари асосида бериш;
- давлат уй-жой фондидаги турар жойларни улардан белгиланган мақсадда фойдаланиш учун юридик шахсларга аренда шартномаси шартлари асосида
- уй-жой фондидан фойдаланилиши ва унинг асралиши, аҳолига кўрсатиладиган коммунал хизматлар сифати устидан назоратни таъминлаш;
- аҳолининг ижтимоий жиҳатдан ҳимояланмаган ва кам таъминланган тоифалари орасидан уй-жой шароитларини яхшилашга муҳтож бўлган фуқароларни ҳисобга олиш ҳамда уларни аниқ мақсадли коммунал уй-жой фондидан уй-жой билан таъминлаш;
- фуқароларнинг ижтимоий жиҳатдан ҳимояланмаган ва кам таъминланган тоифалари учун уй-жой қуриш; уй-жой қурувчиларга уй-жой қуриш учун, шунингдек хусусий уй-жой мулкдорларининг ширкатларига доимий фойдаланишга белгиланган тартибда ер участкалари бериш;

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Уй-жой кодекси”, 1998 йил 24 декабрдаги 713-И-сонли Ўзбекистон Республикаси Қонуни.

- уй-жой фондига хизмат кўрсатувчи коммунал хизмат кўрсатиш, ижтимоий ва транспорт инфратузилмаси объектларининг лозим даражада сақланиши ҳамда ривожлантирилишини таъминлаш;
- давлат уй-жой фондининг турар жойларини бронлаштириш ва алмаштириш;
- қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ваколатларни амалга ошириш.

Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари уй-жой муносабатларини тартибга солиш соҳасида:

- фуқароларга уй-жой фондидан фойдаланишда ҳамда унинг сақланишини таъминлашда кўмаклашади;
- қуриш ва уй ён атрофини сақлаш қоидаларига риоя этилиши устидан жамоатчилик назоратини амалга оширади;
- фуқароларнинг маиший-уй-жой шароитларини яхшилаш тўғрисида тегишли органларга таклифлар киритади ва қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ваколатларни амалга оширади.

Президентимиз Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Эҳтиёжманд оилаларни уй-жой билан таъминлаш бўйича олиб бораётган ишларимиз кўлами янада кенгайтирилади. Бунда 27 мингта ёки бу йилга нисбатан 2,5 баробар кўп оиланинг ипотека кредити бўйича дастлабки бадалларини тўлаш ва кредит фоизларини субсидиялаш учун 2,4 триллион сўм йўналтирилади.”¹

Хулоса ўрнида такидлаш мумкинки, инновацион иқтисодиёт шароитида Ўзбекистонда уй-жой сиёсатининг асосий мазмунини ҳамда уй-жой коммунал хўжалигини ривожлантиришда қуйидагиларга эътибор қаратиш лозим: - уй-жой коммунал хўжаликларида бошқарув тизимини янада такомиллаштириш ва тартибга солишнинг замонавий механизмларини қўллаш;

- уй-жой коммунал хўжаликларида мавжуд имкониятлардан максимал даражада фойдаланган ҳолда техник-технологик янгилаш ишларини олиб бориш;
- уй-жой коммунал хўжаликлари билан ўзини-ўзи бошқариш органи ҳисобланган маҳалланинг ўзаро узвий алоқаларини йўлга қўйиш;
- уй-жой коммунал хўжаликларида исрофгарчиликка йўл қўймасдан, қатъий тежамкорлик асосида фаолиятни йўлга қўйиш;
- аҳолида ўзига хос коммунал маданиятни шакллантириш;
- қишлоқларда қурилаётган уй-жойларни коммунал тизимининг мукамал вариантини ишлаб чиқиш.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, Халқ сўзи, 29.12.2020 йил

4-SHO'BA. AGROKOOPERATSIYA VA INTEGRATSIYA MUNOSABATLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA AMALIYOTGA JORIY QILISH YO'NALISHLARI.

ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА АҚШ ДУНЁДАГИ ЕТАКЧИ МАМЛАКАТ СИФАТИДАГИ ТАЖРИБАЛАРИ

и.ф.д., проф. Ф.Х. Назарова, и.ф.д., доц. Н.И.Саидахмедова

Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда бу борада катта муваффақиятга эришган ривожланган ва ривожланаётган мамлакатлар тажрибасини ўрганиш ҳамда қўллаш муҳим аҳамиятга эга. Бу борада айниқса АҚШнинг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш механизми ва тажрибаси диққатга сазовордир.

АҚШ иқтисодий ривожланган мамлакат сифатида аҳоли жон бошига озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш бўйича дунёдаги етакчи мамлакатлар сирасига киради. Шу боис, АҚШда озиқ-овқати хавфсизлигига миқдор жиҳатдан эриши масаласи долзарб саналмайди. Аксинча, аҳолининг озиқ-овқат маҳсулотларига иқтисодий жиҳатдан эришиши, сифат ва хавфсизлик, шунингдек хавфсизликни барқарор сақлаш муаммолари долзарб саналади. Ушбу ижобий натижаларга эришишда мамлакатдаги ҳуқуқий асослар билан таъминланганлик даражаси билан ҳам боғлиқдир. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш бўйича Америка қонунчилигидаги муҳим ҳуқуқий ҳужжатлардан бири бу 1985 йилда қабул қилинган “АҚШ озиқ-овқат хавфсизлиги тўғрисида”ги Қонунни айтиш лозим. Ушбу қонуннинг амалиётга жорий этилиши мамлакат экспорт салоҳиятини ошириш имкониятларини яратди.

2008 йилда “Озиқ-овқат, тупроқ муҳофазаси ва энергетикани ривожлантириш” бўйича қонун қабул қилинга бўлиб, ушбу қонунда АҚШнинг замонавий аграр сиёсатини ривожлантиришнинг учта устувор йўналиши - мамлакат аҳолисининг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва тупроқ унумдорлигини таъминлашни рағбатлантириш, шунингдек, аграр секторни ривожлантириш истиқболи сифатида алтернатив энергия манбаилардан фойдаланиш мақсадида энергия таъминотини диверсификациялаш белгиланган.

2011 йилда эса “Озиқ-овқат истеъмоли хавфсизлигини модернизация қилиш тўғрисида”ги қонун қабул қилинган бўлиб, аҳоли истеъмолидаги импорт маҳсулотларнинг хавфсизлигини, тегишли стандартларга жавоб беришлилигини таъминлаш, ушбу маҳсулотлар импорти улушини камайтириш тадбирларини амалга оширишга хизмат қилди. Ушбу қонун асосида тегишли назорат хизматларининг ваколатлари сезиларли даражада кенгайтирилди.

Америка Қўшма Штатларида озиқ-овқат хавфсизлиги ҳолатини баҳолаш ва уни мониторингини юритиш тизими ҳам эътиборга молик саналиб, асосан уй хўжаликларида ўтказилган сўров натижаларидан кенг фойдаланилади.

Ушбу сўровнома содда тарзда тузилгани ҳолда, уй хўжаликлари аъзолари бўйича умумий маълумотлар, озиқ-овқат учун минимал талаб қилинадиган харажатлар; озиқ-овқат ёрдам дастурида иштирок этиш; очлик бошланишининг олдини олиш ёки юмшатиш усуллари; овқатнинг етарлилиги каби саволлар асосида хулоса қилинади. Саволлар сони уй хўжалигининг таркибига боғлиқ бўлиб, болалари бўлмаган оила учун - 10, вояга етмаган болалари бўлган уй хўжаликлари учун 18 тани ташкил қилади, холос.

Ушбу сўровномалар асосида озиқ-овқат хавфсизлиги даражалари аниқлаб уй хўжаликлари гуруҳлаштирилади ҳамда аҳолини озиқ-овқат хавфсизлигини тавсифловчи кўшимча аҳолининг демографик ва ижтимоий хусусиятлари: ёши, жинси, ирки, келиб чиқиши, оилавий аҳоли, фахрийлик мақоми, маълумоти, касби ва даромади

бўйича тегишли маълумотлар тўпланади. Натижада, қайси ижтимоий гуруҳлар муаммоларга дуч келаётгани ҳақида маълумот олинади ва ушбу маълумотлар ҳукумат учун таҳлилилий маълумотлар асосида мақсадли чораларни кўриш тадбирари амалга оширилади. Шу асосда амалга оширилган сўровномаларда 2008 йилда АҚШ уй хўжалиқларининг 55 фоизи Федерал озиқ-овқат таъминоти, озиқ-овқат маҳсулотларини истеъмоли, мактабда овқатланиш каби йирик дастурларда иштирок этган.¹

Кейинги вақтларда АҚШда жамиятда ижтимоий барқарорликни сақлаш мақсадида оилавий фермер хўжалиқларини субсидиялаш амалга оширилади. Бунинг оқибатида фермаларнинг ўртача ер майдонлари 200 гектарга яқинни, йирик ўсимчилик фермер хўжалиқлариники эса бир неча минг гектарни ташкил этмоқда. Умумий қишлоқ хўжалиги корхоналарининг атиги 8 фоизни ташкил этувчи йирик хўжалиқлар ҳисобига қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг 65% тўғри келмоқда².

АҚШда қишлоқ хўжалигининг жадал ривожлантириш, бунинг учун қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини экспорт қилишни ҳамда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларини субсидиялаштириш тадбирлари амалга оширилмоқда. Мамлакат жаҳон савдосида озиқ-овқат ва озуқабоп экинлар, шу жумладан, буғдой, маккажўхори, соя ва мевалар экспортидаги улуши анча каттадир.

АҚШда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш мақсадида кам таъминланган аҳолини, болалар, пенсионерларни озиқ-овқатлар билан таъминлашга қаратилган ижтимоий дастурлар ҳамда оқилона рационал овқатланиш ва соғлом ҳаёт тарзи дастурлари амалга оширилади. Мамлакатда ҳар йили 35-40 млрд. доллар маблағ аҳолига озиқ-овқат ёрдами дастурларини амалга оширишга йўналтирилади (1-жадвал).

1-жадвал.

АҚШда озиқ-овқат дастурлари³

Дастур	Тавсифи	Шаклланиш принциплари
Кўшимча озиқ-овқат ёрдами дастури	Барча федерал озиқ-овқат дастурлари умумий бюджетининг 72%, 68,3 млрд доллар йўналтирилган	Озиқ-овқат ёрдами пластик карталари номли дебетларига маблағ йўллаш. Тўловларни автоматик ҳисобга олишнинг ихти-сослашган тизими
Текин ва имтиёзли мактаб нонушталари, тушлиқлари дастури	13,7 млрд долл. 43 миллион болалар	Молиялаштириш мактаб нонушта ва тушлиқлари учун озиқ-овқатлар ҳариди учун тўғридан-тўғри пулли субсидиялар бериш орқали амалга оширилади
Ҳомиладор ва 5 ёшгача болалари бор бўлган аёллар учун кўшимча овқатланиш дастурлари	6,7 млрд доллар 9 миллион болалар	Молиялаштириш федерал грантлар шаклида амалга оширилади

Озиқ-овқат ёрдами дастурлари жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози шароитида катта аҳамият касб этди. 2009 йил март ойида озиқ-овқат талонларидан 33,157 млн. киши фойдаланди. Бу февраль ойига нисбатан 600 минг киши ортиқдир. Июнь ойи бошларига келиб ҳар тўққизинчи америкалик озиқ-овқат талонлари асосида маҳсулот олишга эришдилар. Ўртача бир ойда ҳар бир озиқ-овқат талонлари дастури иштирокчисига 114

¹ АҚШ Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг сайти [Электрон манба]. URL: <http://www.ers.usda.gov>

² Ускова Т.В. Продовольственная безопасность региона // <https://econ.wikireading.ru/4505>

³ Ўша манба.

доллар тўғри келди. АҚШ Конгресси томонидан дастурларни молиялаштириш учун 2009 йилда 54 млрд. доллар, 2010 йилда 60 млрд. доллар маблағ ажратилди¹.

Канаданинг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш борасидаги тажрибаси ҳам диққатга сазавордир. 2016 йилги дунё мамлакатларининг озиқ-овқат хавфсизлиги рейтингда Канада 7-поғонани эгаллаган. 1998 йилда “Канаданинг озиқ-овқат хавфсизлиги бўйича ҳаракатлар режаси” ишлаб чиқилиб, амалга оширилиб келинмоқда. Бу режага мувофиқ ҳукумат идоралари ва жамоат ташкилотларининг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш борасида жаҳон ҳамжамиятининг фаолиятида иштирок этишининг аниқ чора-тадбирлари белгиланган².

Канадада озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг долзарблиги шу билан изоҳланадики, унинг аҳолисининг 10% (3 миллиондан ортиқ киши) паст даражада даромад олади. Шунингдек, ҳар ўнинчи 6 ёшгача боласи бор оилалар етарли даражада озиқ-овқат билан таъминланмаган. Оилалар умумий сонининг 8 фоизга яқини, яъни 800 мингта оила озиқ-овқат хавфсизлиги даражасидан паст даражада яшайди. Аҳолининг 2/3 қисми вазн бўйича муаммоларга эга. Мамлакатнинг туб ерли аҳолисининг катта қисми узок территорияларда яшашади ва соғлом ҳамда қиммат бўлмаган озиқ-овқат маҳсулотларини олиш имкониятларига эга эмас³. Шунинг учун Канада давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири мамлакатнинг шимолидаги ва арктика ҳудудларида яшовчи аҳолини озиқ-овқат билан таъминлашни қўллаб-қувватлашдан иборатдир. 2007 йилда ҳукумат “Канаданинг шимолий стратегияси” номли беш йиллик дастур қабул қилиб амалга оширган. Мазкур дастур асосида узок аҳоли пунктларида яшовчи кишилар учун озиқ-овқат буюртмалари учун давлат субсидиялари берилган. Мазкур имтиёздан мамлакатнинг Юкон, Шимолий-ғарбий ва Нунавит ҳудудларининг ҳамда мамлакатнинг шимолий қисмидаги бошқа аҳоли пунктларида яшовчи аҳоли фойдаланади⁴.

Канадада кам таъминланган аҳоли қатламларини ижтимоий ҳимоя қилиш мақсадида ойига 900 доллардан кам даромад олувчи кишилар солиқлардан озод қилинган⁵. Бу билан уларнинг озиқ-овқат билан таъминланишларига имкон яратилади.

ЕИ мамлакатларининг аграр сиёсатининг бош мақсади ички озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ҳисобланади. Бу сиёсат ўтган асрнинг ўрталаридан бошланган эди. 1950 йиллардан 1970 йилларнинг ўрталаригача бўлган даврда Ғарбий Европа мамлакатларида ўзини ўзи озиқ-овқат билан таъминлаш мақсадида қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчиларига техника харид қилиш, қурилиш ва қайта жиҳозлашга тўғридан-тўғри субсидиялаш амалга оширилган. Бу сиёсат натижасида озиқ-овқат билан тўлиқ таъминланишга эришилган.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакатнинг озиқ-овқат хавфсизлигини янада таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2018 йил 16 январдаги ПФ-5303-сонли Фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2016-2020 йилларда мева-сабзавот ва гўшт-сут маҳсулотларининг хомашё базасини янада ривожлантириш, уларни қайта

¹ Ускова Т.В. Продовольственная безопасность региона // <https://econ.wikireading.ru/4505>

² Строков С.Н. Механизмы обеспечения внутренней продовольственной безопасности Канады/ С.Н. Строков// Никоновские чтения. – 2014. – №19. – С.331-332.

³ Продовольственная и сельскохозяйственная организация ООН (ФАО): официальный сайт [электронный ресурс] – Режим доступа: <http://www.fao.org> (дата обращения: 28.10.2018).

⁴ Строков С.Н. Механизмы обеспечения внутренней продовольственной безопасности Канады/ С.Н. Строков// Никоновские чтения.- 2014.-№19. – С.331-332.

⁵ Абзалбек М.С. Мировой опыт обеспечения продовольственной безопасности и его использования в Казахстане// Московский экономический журнал. №1. 2017. – С.106.

ишлашни чуқурлаштириш, озиқ-овқат товарлари ишлаб чиқариш ва экспорт қилишни кўпайтириш чора-тадбирлари тўғрисида“ги 2016 йил 5 мартдаги ПҚ-2505-сонли Қарори.

4.Абулқосимов Ҳ.П., Расулов Т.С. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш йўллари. Рисола. – Т.,”Fan va technologiya”, 2015. –88 бет.

5.Шагайда Н.И., Узун В.Я. Продовольственная безопасность в России: мониторинг, тенденции и угрозы.-М.: Издательский дом “Дело”, РАНХ и ГС при Президенте РФ, 2015. – 110 с.

6. <http://www.uzland.uz>.

7. www.economyta-culty.uz. – Экономика Узбекистана

КЛАСТЕРЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШДА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ

Гиязова Нозима Баязовна

БухДУ, Иқтисодиёт кафедраси катта

ўқитувчиси

Толибова Азиза Тўлқин қизи

3-2IQТ-20 гуруҳ талабаси

Жаҳон иқтисодиётида интеграция жараёнларини глобаллашуви ва чуқурлашуви аграр бизнесни ички кучли ва заиф томонларини ҳам, унинг бозордаги ташқи имкониятлари ва ҳавф-хатарларини ҳам ҳартомонлама чуқур ўрганишни тақозо этмоқда. Айнан ана шу имкониятлардан бири агросаноат гуруҳини **кластер модели** бўйича ташкил этишдир.

Кластер модели жаҳон амалиётида иқтисодий гуруҳни, минтақани, бутун мамлакатни рақобатбардошлилигини кўтариш инструменти сифатида кенг қўлланилади. Кластер моделини асосий белгилари: гуруҳни ташқи бозордаги улушини ошириш имкониятига эгаллиги; жойлашган ҳудудда қулай шароитлар (ҳомашё, малакали персонал, инфраструктура, ўқув марказлар, илмий муассасалар ва б.)ни мавжудлиги; гуруҳни давлат томонидан кучли қўллаш эвазига қатнашувчиларнинг гуруҳда самарали иштирок этиш имкониятларини кенглиги ва бошқалар.

“Кластер” атамаси французча сўз бўлиб, ўзбекча таржимаси “боғлам”, “гуруҳ”, “тўпланиш” маъноларини беради.

1980 йиллардан кейин “Кластер назарияси”нинг ривожланишида 3 та муҳим (Америка, Британия ва Скандинавия ва бошқа) илмий мактаблар ютуқларни кўришимиз мумкин.

Қўшимча қиймат ва кластерлар занжири уйғунлиги, минтақаларни ўқитиш концепциялари ҳам шу гуруҳдан ўрин олган.

“Кластер” назарияси эволюциясидан унинг икки фундаментал тавсифини ажратиб кўрсатишимиз мумкин.

Биринчиси – кластерга уйғунлашган корхона ва фирмалар фаолияти аниқ бир хил турдаги товарлар бозори билан боғлиқ бўлиши зарур. Бундай боғлиқлик вертикал (харид ва сотиш занжири) ва горизантал (қўшимча бўлимлар ва хизматлар, шунга кетадиган махсус сарфлар, технологиялар ёки институтлар ва бошқа алоқалардан фойдаланиш).

Иккинчиси – кластерлар географик яқин жойлашган ўзаро боғлиқликдаги корхоналар гуруҳи бўлиб, улар ўртасидаги ўзаро иқтисодий - ижтимоий муносабатларни барқарорлашиши натижасида рақобатбардошликнинг ривожланиши, кўпроқ қўшимча қийматни яратишга ва бозорда сотилишига имкониятлар яратишдир.

Саноат кластерлари, аввало, шу тармоқ ичидаги рақобатга маҳаллий ва жаҳон бозорларида бардош беради.

Шунинг учун иқтисодиётни инновацион тараққий эттиришда, айниқса, иқтисодий ривожланишнинг анъанавий усуллари етарли даражада фойда бера олмаётган ҳозирги даврда, Кластер назариясини амалиётга татбиқ этиш энг мақбул йўл ҳисобланади.

Кластерлаштиришни корхоналар инновацион фаолиятини тезлаштириш асосида рақобатбардошлигини ошириш ва уларнинг глобал рақобатнинг кучли таъсирига қарши

туришдаги миллий ва минтақавий ривожланиш талабларига тўла жавоб берадиган янги иқтисодий тизим деб ҳам қараш мумкин.

Кластерларнинг шаклланишида давлатнинг роли муҳим ўрин тутди.

Ривожланган мамлакатларда инновацион иқтисодиётни шакллантириш ва бошқаришда кластерлардан фойдаланиш бўйича маълум тажриба тўпланган.

АҚШни барча штатларида илғор технологияларга эга агросаноат кластерлари кенг тарқалган. Йирик агрокластерлар Вашингтон, Ок–лахома, Луизиана штатларида, вино ишлаб чиқариш Калифорния штатида жойлашган. Юқори самарада фаолият кўрсатаётган клас–терларни Силикон водийсидаги “Ахборот технологиялар”, Голливуддаги “Кинофикация” кластерлари мисолида ҳам кўриш мумкин. Европада (Германия, Франция, Италия, Болгария, Греция, Голландия, Англия, Швейцария, Дания ва бошқа давлатларда) юқори технологияли агрокластерлар кенг ривож топган.

Францияда аграр корхоналар, таълим ва илмий тадқиқот муассасалари фаолиятини мувофиқлаштириш асосида европа ва жаҳон технология ва новация бозорларига чиқиш мақсадида 1986 йили Монпелье шаҳрида “Агрополис” уюшмасини тузишди.

Англияда 2001 йилдан бошлаб инновацион агросаноат кластери – Стокбридж технологик марказ ёпиқ грунтда деҳқончилик, боғдорчилик ва сабзавотчилик соҳаларида тадқиқотлар ва таълим программаларини ўтказишмоқда. Ушбу марказ 70 гектар суғориладиган ерга, 40та компьютер орқали бошқариладиган 12 дан 1000 кв.метр гача худудга тенг майдончаларда жойлашган замонавий иссиқхоналар ҳамда юқори технологиялар билан жихозланган лабораторияларга эга.

Австрияда ҳам кластерларни ихтисослаштиришга, агросаноат ва илмий-тадқиқот корхоналарининг ўзаро алоқаларини рағбатлантиришга, инновация программаларини бошқариш тартибидаги тўсиқларни камайтириш ҳамда рақобатбардош марказларни шакллантиришга кўпроқ аҳамият беришади.

Дания қишлоқ хўжалигида чорвачилик деҳқончилиikka қараганда устувор аҳамиятга эга, деҳқончилик маҳсулоти кўпроқ озуқага ишлатилади, чорвачиликда сут йўналишининг роли гўшт соҳасига қараганда юқорироқ ҳисобланади, шунинг учун ҳам сут маҳсулоти кластерлари (масалан таникли «Молочная вертикаль» кластери) кенг тарқалган.

Чили ҳукумати кейинги 30 йил ичида виночилик соҳасида интеграциялаш ва замонавий технологиялар билан жихозланган йирик компаниялар сафини кенгайтириш билан жаҳон бозорида ўз улушини оширишга дадил қадам қўйди. Шу мақсадда виночилик кластери тузилди. Унинг таркибига тармоқ ичидаги ўзаро бир бирига боғлиқ уюшмалар, таълим муассасалари, давлат ташкилотлари ва агентликлар, илмий-тадқиқот марказлари, тармоқ оммавий ахборот воситалари, поставшиқлар ва подрячиклар кирди. Европали таникли майпазлар мамлакатга ўз сармоялари, янги технологиялари, маҳсулотни маркетинги ва экспортга жўнатиш имкониятлари билан қайтиб келишди. Натижада вино экспорти бўйича Чили жаҳон бозорида бешинчи ўринни эгаллаб турибди.

Россияда ҳам иқтисодиётни барча соҳаларида, ш.ж. агросаноат комплексида, кластерларни шакллантириш ва ривожлантириш бўйича 200 дан кўп лойиҳалар амалга оширилмоқда. Иқтисодий тараққиёт вазирлиги 2008 йилда қабул қилган «Худудий-саноат кластерларини ривожлантириш Концепцияси» уч блокдан иборат: кластерларни институционал тараққиётга ёрдам бериш; кластерда қатнашувчиларни рақобатбардошлилигини кўтариш; кластерларни тараққиёт этиши учун қулай шароитларни яратиш.

Хозирги кунда Томск областининг ”Биокомплекс” кластерида (буғдойни янги ҳосилдор ва замбуруғ касалликларига чидамли юмшоқ ва остист навлари яратилди, кейнчалик донни чуқур қайта ишлаш, биотехнология, нефткимё ишлаб чиқариш тармоқларини ичига олган “АгроПАРК”ни тузиш мўлжалланган), Тула областидаги “Балтика” кластери (илмий-тадқиқот станциясининг 672 тажриба-экспериментал майдончаларида сулини пиво пиширишга ярайдиган (Россия ютуқлари реестрига киритилган) 17 навини етиштиришга эришишди, Кемерово областида “КалинаМалина”

агросаноат бренди (7та фирма-магазинлар ва 40та фермерлар билан бирга), Вологда областида “Биотехнология” кластери (ОАО “ФосАГРО” билан бирга) ва б. регионларда шу каби замонавий агрокластерларни барпо этиш жараёни анча жадаллашди.

Кластерлар Буюк Британия, Голландия, Германия, АҚШ, Дания, Франция, Италия, Финляндия, Ҳиндистонда яхши ривожланган. Дания, Финляндия, Швеция саноатини кластерлар тўла эгаллаган.

Кластер тузилмалари Швейцария, Австрия, Италия, Дания, Ҳиндистон, Корея, Покистон, Хитой, ва Туркия давлатлари энгил саноатида, Германияда кимё ва машинасозлик, Францияда озиқ-овқат ва косметика саноатларида муваффақиятли ишламоқда.

Кластерларни шакллантириш жараёни Жануби-Шарқий Осиё, Хитой, Сингапур, Япония, ва бошқа мамлакатларда фаоллашиб бормоқда.

Масалан, Германияда яқин вақтгача минтақавий кластерлар ривожланиши давлат аралашувисиз кечар эди. Бироқ 2003 йилда ҳукумат кластер ташаббусларига жиддий эътибор қаратди. Бу, биринчи навбатда, юқори технологияли соҳаларни лойиҳалашда амалга оширилди. Давлат нафақат маҳаллий, балки бошқа манбалар ҳисобидан саноат ва илмий марказлар куч-ғайратини бирлаштиришни кўзда тутмоқда.

Шундай қилиб, хорижий ва маҳаллий тадқиқотчиларнинг таҳлилларида “кластер” тушунчасига қуйидаги таърифлар берилган:

- кластер-битта соҳага бирлашган ва бир-бири билан узвий алоқа бўлган корхоналар гуруҳи.

- кластер – битта географик ҳудудда жойлашган ва битта тармоқни ташкил қиладиган корхоналар гуруҳи.

- кластер – махсус соҳалар бўйича битта географик ҳудудда фаолият юритаётган, бир-бири билан боғлиқ бўлган ва бир-бирини тўлдирувчи компаниялар, институтлар гуруҳи.

- кластер – горизонтал ва вертикал равишда функционал боғлиқ бўлган корхоналар гуруҳи.

- кластер – жамоавий, хусусий ва ярим жамоавий кўринишда бир-бири билан боғлиқ ва ўзаро бир-бири тўлдирувчи корхоналар, тадқиқот ва ривожланиш институтлари гуруҳи.

- кластер – тижорат ва нотижорат ташкилотлари гуруҳи, бўлиб, у гуруҳда фаолият юритаётган ҳар бир корхонаниг рақобатбардошлигини таъминлашга хизмат қилади.

- кластер – ҳудудий концентрациялашувга асосланган ва технолгик занжирга боғланган товар ва хом ашё етказиб берувчилар, асосий ишлаб чиқарувчиларни бирлаштирган индустрлашган мажмуа.

YASHIL LOGISTIKA

Tadjiyeva Sayyora Uralovna

Buxoro davlat universiteti, Servis sohasi iqtisodiyoti kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Zamonaviy logistika bir nechta muhim elementlar va harakatlardan iborat bo'lib, ular doimiy ravishda ishlatilishi va optimal logistikaga erishish uchun mos ravishda birlashtirilishi kerak. Bu optimal narx, vaqt yoki energiyani tejashda ifodalanishi mumkin. Zamonaviy avtomashinalar, yuk tashish uskunalari, zamonaviy omborxonalar va “vaqt-vaqtiga” va “eshikma-eshik” tushunchalari zamonaviy logistikaning asosiy elementlari hisoblanadi. Barcha elementlarni birlashtirish - ishlab chiqarishda boshlanib, sotuvchining rafida tugaydigan ta'minot zanjirini boshqarish masalasi. Bu oldinga taqsimlashni tashkil etishga qaratilgan an'anaviy logistika kontseptsiyasi edi. Atrof-muhit nuqtai nazarining rivojlanishi va qayta ishlash jarayonlariga bo'lgan ehtiyoj bilan butunlay yangi logistika kichik sektori paydo bo'ldi: teskari logistika. Teskari logistika teskari taqsimotdan iborat bo'lib, ishlatilgan materiallarni tashish va chiqindilarni tashishni o'z ichiga oladi.

Rivojlangan mamlakatlarda logistika raqobatning eng muhim omillaridan biridir. Shunday qilib, zamonaviy logistika tobora ko'proq da'vogar iste'molchilarga va yakuniy

mahsulot iste'molchilariga qaratilgan. Shunday qilib, logistika mijozlar ehtiyojlarini optimallashtirish va qondirishning yangi usullarini topish uchun doimiy bosim ostida. Teskari logistika jamiyatning turli sohalarining talab va ehtiyojlari ortib borishi natijalaridan biridir. Atrof-muhitga bosim juda kuchli bo'lib, kislotali yomg'ir va global isish tufayli atrof-muhitning buzilishi aniq bo'ldi.

1990-yillarning boshida teskari logistika rivojlangan mamlakatlarda jamiyatning mas'uliyatiga aylandi. Ushbu yangi logistika bazasi logistika chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash sohasiga kirganida yaratilgan. 90-yillarning oxiridagi asosiy harakatlar teskari logistikani barcha logistikaning teng elementiga aylantirdi. Bundan tashqari, bu teskari logistikadan ham kengroq tushuncha bo'lgan yashil logistikani rivojlantirish uchun boshlang'ich nuqta edi. Teskari logistika chiqindilarni foydalanuvchilardan qayta ishlash zavodlariga ko'chirish va tashish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Umuman olganda, teskari logistika faoliyatini to'rtta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1. to'plash,
2. tekshirish, tanlash va saralash jarayonlari,
3. qayta ishlash va nihoyat
4. qayta taqsimlash.

Yashil logistika, shuningdek, noto'g'ri logistika jarayonlari va eski va atrof-muhit uchun zararli transport texnologiyalaridan foydalanish natijasida yuzaga kelgan ifloslanish va atrof-muhitning buzilishi kabi ekologik muammolar bilan shug'ullanadi. Chiziqli iqtisod alternativi bilan solishtirganda, ishlab chiqaruvchilar materiallarni qayta tiklash va qayta ishlash kabi qo'shimcha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shunday qilib, foydalanishdan keyingi bosqich uchun teskari ta'minot zanjirini qo'shimcha muvofiqlashtirish teskari ta'minot zanjirini boshqarishni talab qiladi. Bu ta'minot zanjiri boshqaruviga mutlaqo yangi yondashuv.

Oddiy qilib aytganda, yashil logistika operatsiyalarning barqarorligini oshirishga qaratilgan har qanday biznes amaliyotini o'z ichiga oladi. Ekologik logistika deb ham ataladi, u an'anaviy logistika asoslariga asoslanadi. An'anaviy logistika operatsiyalarga e'tibor beradi, lekin atrof-muhitga ahamiyat bermaydi. Yashil logistikaning maqsadi ham biznes operatsiyalarini, ham tashkilotning barqarorligini yaxshilashdir. Logistika logistika faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini o'lchash va minimallashtirishga qaratilgan barcha urinishlarni tavsiflaydi. Bu kelib chiqish nuqtasi va iste'mol nuqtasi o'rtasidagi mahsulotlar, ma'lumotlar va xizmatlarning oldinga va orqaga oqimlari bilan bog'liq barcha faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Maqsad - iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlarni muvozanatlash orqali barqaror kompaniya qiymatini yaratish. Yashil logistika 1980-yillarning o'rtalarida paydo bo'lgan va operatsiyalar davomida atrof-muhitga etkazilgan zararni minimallashtirish uchun ilg'or texnologiya va uskunalardan foydalanadigan logistika tizimlari va yondashuvlarini tavsiflovchi kontseptsiya edi.

Barqaror logistika kontseptsiyasi uchta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: jamiyat, iqtisodiyot va atrof-muhit, turli faoliyat turlari:

1. Jamiyat: xavfsizlik, sog'liq, kirish, adolat.
2. Iqtisodiyot: bandlik, raqobatbardoshlik, samaradorlik, o'sish, tanlash.
3. Atrof-muhit: havo sifati, shovqin, erdan foydalanish, biologik xilma-xillik, chiqindilar va iqlim o'zgarishi.

“Yashil” logistika sohasiga energiya tejovchi texnologiyalar va ekologik toza qurilish materiallaridan foydalangan holda omborlar qurish bo'yicha ekologik loyihalar kiradi; xavfsizlikni ta'minlash va tovarlarni yuklash va tushirishni ta'minlashda issiqlik energiyasiga sarflanadigan xarajatlarni minimallashtirish; qayta ishlatiladigan idishlar va qadoqlardan foydalanish; transport vositalarining yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish; teskari ta'minot zanjirlari shaklida qayta ishlash jarayonlarini ta'minlash (chiqindilarni yig'ish va saralash, ularni tarqatish omborlariga etkazib berish, chiqindilardan olingan tayyor mahsulotlarni tarqatish tarmog'iga etkazib berish va boshqalar).

Logistika faoliyatidagi asosiy "yashil" texnologiyalarga quyidagilar kiradi:

- qayta tiklanmaydigan resurslarning eng past narxiga ega xom ashyo yetkazib beruvchilarni tanlash;
- saqlash joylariga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish uchun zaxiralarni qisqartirish;
- zararli gazlar chiqindilarini kamaytirish maqsadida yuklarni tashish yo'nalishlarini optimallashtirish;
- ekologik toza transport turlariga (dengiz, suv, temir yo'l) o'tish va avtomobil transportini qisqartirish;
- oraliq saqlash va yuklash punktlarini logistika zanjiridan chiqarib tashlash;
- qog'oz bilan ishlash jarayonini qisqartirish.

Zamonaviy logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi logistika evolyutsiyasida yangi davrga kirdi. Barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilish zamonaviy biznes muvaffaqiyatining asosidir. Ishlab chiqarish va logistika faoliyatiga yashil texnologiyalarni joriy etish bo'yicha xalqaro va milliy institutsional muhit shakllantirilmoqda, tabiiy sohalarga zararli ta'sirlarni hisobga olish va korxonalarining atrof-muhitni ifloslanishdan muhofaza qilish borasidagi sa'y-harakatlari samaradorligini baholash tizimi takomillashtirilmoqda. Dunyo bo'ylab tobora ko'proq kompaniyalar qayta tiklanmaydigan resurslarning o'ziga xos qiymatini tushunib, tashkilot, jamiyat va tabiat ehtiyojlari o'rtasidagi maqbul muvozanatni qidirmoqdalar. Mahsulotning hayot aylanishi bosqichlari va atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirish yo'nalishlari bo'yicha "yashil" texnologiyalarni tasniflashga matritsali yondashuv ularning biznesini barqaror rivojlantirish siyosatini eng samarali tarzda qurishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Виеру А. И. Зеленая логистика //Электронный периодический рецензируемый научный журнал «SCI-ARTICLE. RU». – 2019. – С. 97.
2. Rodrigue J. P., Slack B., Comtois C. Green logistics //Handbook of logistics and supply-chain management. – Emerald Group Publishing Limited, 2017.

CHARACTERISTICS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF LIGHT INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE CONDITIONS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT

Khodzhaeva Dilbar Khurshidovna
*senior lecturer of the Department of
Economics of the Service Industry, BSU*

This industry works to provide the required level of supply of foods that are widely consumed by people. The number of finished products must fully satisfy the need for it of the population. All industries that make up the light industry can be conditionally divided into 3 groups. The first of them includes enterprises for the production of raw materials. The second group includes industries producing semi-finished products and semi-finished products. They work to supply light and other industries with their products. The third group includes the production of finished products. The finished goods industry specializes in the production of shoes, clothing, carpets and other products.

Much attention is paid to completion processes. The appearance of the product plays an important role. Therefore, appropriate requirements are imposed on the selection of personnel (for example, the presence of taste). Enterprises in this area of activity are usually small in size. They work dynamically, constantly changing the assortment. This constant change in fashion depends on the wishes of the consumers. Mostly women are employed in these areas. The final consumer is mostly natural persons. These features are taken into account in the process of organizing production cycles.

Table-1**Industrial production by type of economic activity (billion soums)**

Indicators	2018	2019	2020
Industrial production volume, billion rubles sum	235340,7	322535,8	367078,9
Manufacture of textiles	24835,2	29946,6	36230,8
Manufacture of wearing apparel	7732,2	9165,8	10212,2
Manufacture of leather and related products	1647,9	1588,8	1654,6
Manufacture of wood and foam products (excluding furniture), straw and textile materials.	1600,6	1596,0	1327,4

It can be seen from the table above that the volume of industrial production in 2018 will reach 235,340.7 billion dollars. soums, in 2019 - 322,535.8 billion soums and by 2020 compared to 2019 44,543.1 billion soums and amounted to 367,078.9 billion soums. soums. The volume of textile production in 2018 amounted to 24,835.2 billion soums, in 2019 - 29,946.6 billion soums, and in 2020 - 36,230.8 billion soums.

The volume of clothing production in Uzbekistan in 2018 amounted to 7,732.2 billion soums, in 2019 - 9,165.8 billion soums, in 2020 - 10,212.2 billion soums. The volume of production of leather and leather products in 2018 amounted to 1,647.9 billion soums, in 2019 - 1,588.8 billion soums, and by 2020 - 1,654.6 billion soums.

There are great investment opportunities in our country. This is due to the presence of a large number of unused production facilities. Due to the high turnover and quick return on investment, it is profitable for investors to invest their funds in such production. In addition, the represented industries do not require large capital investments. Full rotation process more than twice a year. It also talks about the benefits of investing.

Equipment installation takes several months. Consequently, in the first year of operation, such enterprises can generate income. Investors can invest temporary surplus funds in more than 30 different sectors of the economy. Many of them are very new and promising. The raw material base of light industry in our country is well developed. It fully satisfies the needs of enterprises in wool, flax, artificial yarns and fibers, leather and fur products. Raw materials are supplied by enterprises of agriculture and chemical industry. Its price is reasonable. This allows us to manufacture products that are acceptable to different categories of consumers.

Manpower is also an important factor when locating businesses. Most of these areas are women. Therefore, it is recommended to build specialized factories in areas where heavy industry enterprises are located. They mainly use male labor. This will make it possible to use the labor resources of the region as efficiently as possible. Textile production is the largest light industry. It specializes in the production of fabrics for the population and other industries (footwear, clothing, food processing, mechanical engineering, etc.). The cotton industry is the leading industry in Uzbekistan. Supplied with imported natural raw materials (Central Asian countries, Azerbaijan, Egypt, Syria).

Table-2**Share of small business and private entrepreneurship (% of the total)**

Year	GDP	Industry	Construction	Employment	Exports	Imports
2017	63,4	41,2	64,8	78,0	22,0	53,6
2018	60,4	37,4	73,2	76,3	27,2	56,2
2019	54,2	25,8	75,8	76,2	27,0	61,6
2020	53,9	27,5	72,4	73,8	20,5	51,8

The textile industry is also an important component of the textile industry. By its composition, the production of technical fabrics is more important than household goods.

In the textile industry, the first place in terms of gross output is occupied by wool processing enterprises. This is due to the high cost of raw materials. The value of fixed assets is high only in the cotton industry. Such enterprises produce yarns, fabrics and finished products.

Light industry products would not be complete without leather, footwear and fur. Natural and artificial leather, fur, sheepskin, film materials are processed here. The company produces footwear, leather goods, clothing and much more.

Table-3

Manufacturing industry structure,%

Indicators	2018	2019	2020
Industrial production volume, billion rubles sum	100	100	100,0
Manufacture of textiles	13,1	11,8	11,9
Manufacture of wearing apparel	4,1	3,6	3,4
Manufacture of leather and related products	0,9	0,6	0,5
Manufacture of wood and foam products (excluding furniture), straw and textile materials.	0,8	0,6	0,4

According to 2018, the volume of textile production in the country's manufacturing industry increased by 13.1%, clothing - by 4.1%, leather and leather goods - by 0.6%, excluding wood and foam (furniture), production volume straw and textile materials accounted for 0.9%.

In the structure of the manufacturing industry, the volume of textile production in 2019 increased by 11.8%, clothing - by 3.6%, leather and leather products - by 0.6%, wood and foam products (without furniture), straw production and textile materials - 0.8%.

In the structure of the manufacturing industry, the production of textiles by 11.9% in 2020, clothing by 3.4%, leather and leather products by 0.5%, wood and foam (without furniture),. The volume of production of straw and textile materials. amounted to 0.4%.

Our country ranks 8th in the world in terms of the number of products manufactured. In recent years, this indicator has slightly decreased. The production of fur products has no analogues in the world. It is export oriented.

Table-4

The share of regions in the structure of the manufacturing industry of the republic,%

Industrial production volume, billion rubles sum	Bukhara region	Navoi region	Samarkand region	Total
Manufacture of textiles	5,5	18,1	5,6	100
Manufacture of wearing apparel	8,5	3,0	9,8	100
Manufacture of leather and related products	5,5	7,7	5,8	100
Manufacture of wood and foam products (excluding furniture), straw and textile materials.	0,5	2,6	12,1	100
Industrial production volume, billion rubles sum	2,2	3,1	1,3	100

Conclusion: On the eve of the 30th anniversary of independence, Uzbekyengilsanoat plans to launch 18 enterprises worth \$ 99 million and export potential of \$ 43.1 million. More than

a thousand jobs will be created at these enterprises. At the end of 2018, 770 thousand pieces of clothing were sold, in 2019 this figure was 835 thousand, and in 2020 - 935.4 thousand. This year it is planned to sell 985 thousand school and sportswear.

References

1. <https://xs.uz/uz/post/investitsiyalar-va-investitsiya-faoliyati-togrisida>
2. <https://mineconomy.uz/uz/info/2894>
3. <https://review.uz/uz/tag/investitsiya>
4. <https://review.uz/uz/post/2021-yilda-6-milliard-500-million-dollarlik-loyihalar-ishga-tushiriladi>
5. <https://review.uz/uz/post/2017-yildan-buyon-ozbekiston-iqtisodiyotiga-83-milliard-dollar-investitsiyalar-jalb-qilingan>
6. <https://review.uz/uz/post/v-ferganskoy-oblasti-budut-realizovan-pochti-950-investproektov-na-16-mlrd>
7. <https://review.uz/uz/post/glav-uzbekistana-i-yujnoy-korei-podpisali-soglashenie-po-realizacii-programm-s-fondom-edcf-na-1-mlrd>
8. <https://review.uz/uz/post/mivt-proanalizirovalo-rezultat-eksporta-v-uzbekistane-za-2020-god>

INVESTITSION-INNOVATSION RIVOJLANTIRISH – DAVR TALABI, ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA

A.I.To'raxo'jayeva

*QarMII Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi
I-161-18 guruh talabasi*

Rossiya iqtisodiyotining rivojlanishning innovatsion yo'liga o'tishi global muammolarga qarshi turish va milliy xavfsizlikni ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan asosiy muammodir. Bilimlar iqtisodiyotini yaratish xalqaro tendentsiyalarga mos keladi va qulay sarmoyaviy muhitda davlat, tadbirkorlik sektori, olimlar va amaliyotchilar jamoalarining maqsadli sa'y-harakatlarini talab qiladi. Rossiya iqtisodiyotida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish va innovatsion jarayonlarni "pastdan" boshlash hal qilinmagan muammodir. Hokimiyat, ishbilarmon doiralar, siyosatchilar va olimlar tomonidan e'tirof etilgan nomutanosiblik shakllandi: ulkan tabiiy resurslar imkoniyatlari, inson rivojlanishining yuqori indeksi, noyob geosiyosiy pozitsiya va texnologik holat bilan belgilanadigan iqtisodiy o'sish uchun zarur shart-sharoitlar o'rtasidagi nomuvofiqlik. iqtisodiyotning real sektori. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda Rossiyaning innovatsion rivojlanishi jarayonida bozorning o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari amalda ishlamaydi.

Innovatsion o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyoj hech kim tomonidan e'tirof etilmaydi, ammo Rossiyada innovatsion ishlab chiqarishning past darajasi va biznes tuzilmalarining innovatsion loyihalarga sarmoya kiritishni istamasligi bilan tavsiflangan innovatsion inhibitsion holati saqlanib qolmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'pchilik G'arbiy Evropa mamlakatlari va AQSH uchun davlat va xususiy kapital o'rtasida ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar (ITI) uchun moliyaviy resurslarning taxminan teng taqsimlanishi bilan ajralib turadi. Mutaxassislar biznesning innovatsion rivojlanishga past qiziqishini turli sabablarga ko'ra tushuntiradilar, ular orasida quyidagilar nomlanadi: har bir narsadan oldin odamga xos bo'lgan qo'rquv, yangisini joriy etish mavjud vaziyatga tahdid sifatida qabul qilinganda; rossiya korxonalariga yangi texnologiyalarni joriy qilishning hojati yo'q, chunki hozirgi bosqichda bunday texnologiyalar raqobatda vosita emas; investorlarning e'tiborini avvalgi loyihalardan qo'yilgan investitsiyalarni qaytarish.

Davlatning innovatsion modelga o'tishining belgilari innovatsion korxonalar sonining ko'payishi, innovatsion mahsulotlar hajmining ko'payishi va sifat jihatidan yangi bozorlarning yaratilishidir. Davlat, biznes va fanning o'zaro hamkorligini ta'minlaydigan milliy innovatsion tizimni yaratish va uning faoliyati muqarrar muammodir. Hozirgi vaqtda Rossiya iqtisodiyotida innovatsion tizim shakllanmagan, uning elementlari rivojlanmagan yoki barqaror o'zaro ta'sir holatiga keltirilmagan. Qiyin vaziyatga qaramay, Rossiya iqtisodiyotining zamonaviy davri

davlat tomonidan boshlangan institutsional o'zgarishlar bilan birga keladi. Bu G.M. tomonidan qayd etilgan ekstremal pozitsiyalardan birini rad etadi. Zagidullina, I.R. Nizomova o'z ishida innovatsiyalarni tijoratlashtirish jarayoniga davlat aralashuvi samarasiz ekanligini ta'kidlagan. Innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan boshqarish federal okruglar doirasidagi hududlarning innovatsion siyosatini muvofiqlashtirishga asoslanadi va milliy innovatsion ustuvorliklarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ustuvorliklari va global texnologik rivojlanish tendentsiyalari bilan bog'liqligiga asoslanadi. Birinchidan, Rossiya iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan texnologik orqada qolish bilan ajralib turadi, bu islohotlardan keyingi davrda ortdi. 90-yillar boshidagi tub bozor islohotlari ilm-fanni talab qiluvchi va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning qulashiga olib keldi. Natijada, Rossiya iqtisodiyoti tarkibida an'anaviyga shartli ravishda bog'lanishi mumkin bo'lgan 3 va 4-texnologik rejimlarga mos keladigan tarmoqlarning ustunligi mustahkamlandi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarishning an'anaviy va innovatsion turlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Investitsiya jarayonlari eskirgan texnologik tuzilmalarni takror ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lsa, innovatsion ishlab chiqarish esa iqtisodiyotni yuqori texnologik darajaga olib chiqishga, fan va texnika yutuqlaridan ishlab chiqarishda foydalanishga yo'naltirilgan. Natijada investitsiya va innovatsion jarayonlarni boshqarish tubdan farqli yondashuvlardan foydalanishni talab qiladi.

Uchinchidan, Rossiya biznesi bozorda barqaror talabga ega bo'lgan tovarlar, ishlar, xizmatlarning keng rivojlangan ishlab chiqarilishi bilan bog'liq bo'lgan o'rtacha darajadagi xavf bilan tez qoplanadigan loyihalarga sarmoya kiritishga intiladi. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar tushunchasidagi innovatsiyalar hali xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligini oshiradigan omil maqomini olgani yo'q. Demak, xususiy sektorning ustun mavqei, bu tizimli va tizimli bo'lmagan xatarlarning kuchayishi ta'siriga duchor bo'lgan innovatsion loyihalarni amalga oshirishdan qochishda ifodalanadi.

Innovatsiyalarga investitsiya qilish Rossiya qonunchiligida alohida tartibga solinadi. Birinchi marta Rossiya iqtisodiyotining barqaror iqtisodiy o'sish, aholi farovonligini oshirish, milliy xavfsizlikni ta'minlash va ishlab chiqarish sektorini texnologik rivojlantirishga qaratilgan innovatsion rivojlanish modeliga o'tish uzoq muddatli kontseptsiyada e'lon qilindi. Rossiya Federatsiyasining 2020 yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Ushbu siyosiy hujjat Rossiyaning iqtisodiy tizimini o'zgartirishda davlatning etakchi rolini belgilab berdi. Shu bilan birga, hozirgi bosqichda innovatsion jarayonlarga bosqichma-bosqich integratsiyalashgan investitsiya jarayonlari dolzarbligicha qolmoqda. Hududlarning investitsiya siyosati tamoyillaridan biri investitsiya investitsiyalarining innovatsion yo'nalishi ekanligi oxirgi holatni tasdiqlaydi. Agar qonunchilik darajasida investitsiyalarning mazmuniga bo'lgan yondashuvlardagi o'zgarishlarni orqaga qarab ko'rib chiqsak, biz innovatsion tarkibiy qismning ushbu iqtisodiy toifasi ta'rifini bosqichma-bosqich "yuvish" ni topishimiz mumkin. Hozirgi vaqtda Rossiyada investitsiya shartlari va huquqiy tartibga solish tartibi mavzu va maqsadlarga bog'liq bo'lib, ularni ikki yo'nalishga bo'lish mumkin: to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni tartibga solish va portfel investitsiyalarini tartibga solish. Bunday bo'linishga bo'lgan ehtiyoj to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar natijasida yuzaga keladigan investitsiya risklari portfel investorining risklaridan sezilarli darajada farq qilishi bilan oldindan belgilanadi. Investor kim ekanligiga qarab, Investitsion huquqiy munosabatlarning quyidagi toifalarini ajratib ko'rsatish mumkin: 1) davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan davlat investitsiyalari; 2) milliy xususiy investorlar - Rossiya Federatsiyasi jismoniy va yuridik shaxslari hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalar; 3) xorijiy jismoniy shaxslar hisobidan amalga oshirilgan xorijiy investitsiyalar.

Jozibadorlik, foydalanish haqida paydo bo'ladigan jamoatchilik bilan aloqalar investitsiya va innovatsion faoliyat sohasida amalga oshiriladigan investitsiyalar ustidan nazorat, shuningdek investorlarning o'z harakatlari uchun javobgarligi bilan bog'liq munosabatlar qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan investitsiya huquqiy munosabatlarini ifodalovchi fuqarolik-huquqiy tartibga solish sohasida amalga oshiriladi. muayyan mamlakat, shuningdek, xalqaro normalar tomonidan qabul qilingan. Potentsial investorlarni rag'batlantirish choralari tartibga solish

darajasida birlashtirish ayniqsa muhimdir, bu esa rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish va ularga kafolatlangan xususiyatni berish imkonini beradi. Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solishga e'tibor mintaqaviy darajaga ko'chdi.

Amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimi investitsiya faoliyati sub'ektining mavqeini belgilaydi, huquqiy javobgarlikni o'rnatadi, investitsiya faoliyatidan turli xil foydalanishni belgilaydi va ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarni, shu jumladan, davlat bilan munosabatlarni nazorat qiladi. Keyinchalik moliyaviy yo'qotishlarga va jinoiy javobgarlikka olib keladigan xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun investitsiya sub'ekti qonun hujjatlarining barcha asosiy qoidalarini bilishi muhimdir. Asosiysi, barcha huquqiy normalar ruxsat beruvchi, taqiqlovchi, majburiy yoki rag'batlantiruvchidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida huquqiy tartibga soluvchilarning asosiy maqsadi milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun investitsiya jarayonini rag'batlantirishdan iborat.

Iqtisodiyot fanidagi "mexanizm" tushunchasining o'zi sezilarli darajada noaniqlik bilan tavsiflanadi, chunki ilmiy muomalada uning mohiyatiga oid fikrlar va talqinlarning keng doirasi mavjud. Ushbu maqola doirasida turli darajalarda amalga oshirilgan mexanizmlarning uchta turini ajratib ko'rsatish tavsiya etiladi:

- iqtisodiy mexanizmlar - iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qilish, ularni tartibga solish usullari va vositalarining yig'indisi;

- loyihalarni amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari - loyihalash materiallarida qayd etilgan loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakli (va me'yoriy hujjatlardagi ba'zi holatlar) maqsadga muvofiqligini ta'minlash uchun6;

- boshqaruv mexanizmlari - odamlarning harakatlariga, xatti-harakatlariga ta'sir qilish, ular ishtirok etadigan munosabatlar jarayonlarini tartibga solishning o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirli usullari va vositalarining majmui.

Rossiya iqtisodiyotining texnologik rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan, hal qilish katta vaqt va moliyaviy resurslarni talab qiladigan bir qator tizimli muammolar mavjudligiga qaramay, innovatsion o'sish uchun zarur shart-sharoitlar barqaror ravishda shakllanmoqda. Bunga butun islohotdan keyingi davrda rekord darajada past inflyatsiya darajasi, qayta moliyalash stavkasini bosqichma-bosqich pasaytirish hisobiga Rossiya iqtisodiyotining investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishi yordam beradi, bu esa inqiroz ko'rinishlarini engib o'tishni ta'minlaydi. muayyan ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik.

O'ZBEKISTONDA TUG'ILADIGAN TAQCHILLIKNI BARTARAF ETISH YO'LLARI **Ashurova Muborak Xayrulloevna, BuxDU**

Jahon banki O'zbekistonni pandemiya inqirozida ham iqtisodiyoti o'sayotgan dunyodagi kam sonli davlatlar ro'yxatiga kiritdi. Mamlakatdagi nodavlat tashkilotlar o'tkazgan tadqiqotlar esa aholi yanada qashshoqlashayotganidan darak beradi.

“Global iqtisodiy tanazzulga qaramasdan, O'zbekiston 2020-yilda iqtisodiy o'sishni namoyish etadigan Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi ikkita davlatdan biri bo'lishi prognoz qilinmoqda”, - deyiladi Jahon bankining Toshkentdagi vakolatxonasi tomonidan 7-oktabr kuni tarqatilgan xabarda.

2021-yilga doir prognoz yanada umidli ko'rinadi: “Mamlakat bo'ylab karantin qayta kiritilmasa, 2021-yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishi 4,8 foizdan 5,0 foizgacha bo'lishi” kutilmoqda.

Shu bilan bir qatorda Jahon bankining ta'kidlashicha, koronavirus O'zbekiston uchun mustaqillik davomidagi eng yirik iqtisodiy zarba bo'lgan, aholi farovonligi, daromadi pasaygan.

Yuzaga kelgan bu tanglik oltin ishlab chiqarish ko'paygani, qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish hisobiga bir qadar yumshatilgan.

“Mavjud sinovlar va qiyinchiliklarga qaramay, iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlariga erishish va fuqarolarning turmush farovonligini oshirish maqsadida mamlakat rahbariyati iqtisodiyotning muhim tarmoqlarida islohotlarni davom ettirishni qat'iy niyat qilganligini

tasdiqladi. Pandemiya tugagandan so'ng iqtisodiy tiklanishni ta'minlash va uni yanada barqaror va inklyuziv qilish juda muhimdir", - deydi bankning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Marko Mantovanelli.

Jahon bankining pandemiya inqirozi sharoitida ham O'zbekiston iqtisodiyoti o'sayotganiga doir prognozi mamlakatda karantin bekor qilinishi, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish barqarorligi, shuningdek, pul o'tkazmalarining qisman tiklanishiga asoslanadi.

Bu ko'rsatkichlar "2020-yilning ikkinchi yarmida birinchi yarim yilga nisbatan kuchliroq iqtisodiy faollikka olib keladi", deya xulosa qiladi bank.

Xalqaro moliyaviy tashkilotning o'zbekistonliklarning kundalik turmushi, xarid qobiliyatiga bevosita ta'sir o'tkazuvchi inflatsiyaga doir qarashlari quyidagicha:

"O'rta muddatli istiqbolda inflyatsiya sekinlashadi, ammo narxlarni yanada isloh qilish natijasida yuqori darajada saqlanib qoladi".

"Amerika Ovozi"ga kelayotgan murojaatlarda pandemiya O'zbekiston aholisi, ayniqsa kam ta'minlangan oilalar sharoitini jiddiy og'irlashtirgani, oziq-ovqat mahsulotlari bahosi keskin ko'tarilayotgani qayd etiladi.

"Najot" inson huquqlari tashkiloti yaqinda Xorazmdagi ijtimoiy holatni, viloyat bozorlaridagi narx-navoni, aholi turmushiga doir vaziyatni o'rgangan.

Tashkilot rahbari Hayitboy Yoqubovga ko'ra, iyul-sentabr oylaridagi vaziyatni qamrab oluvchi tadqiqot natijasi viloyatda asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bahosi keskin ko'tarilgani, bu esa shundoq ham pandemiya bois ishsiz, pulsiz qolgan aholida jiddiy e'tirozlar uyg'otayotganidan darak bermoqda.

Uning qayd etishicha, bozorlar to'kin-sochin, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan to'la, ammo aholida naqd pul kam, mehnat muhojirlari yuborayotgan mablag' hajmi qisqargan, xorijdan qaytayotgan mehnat muhojirlari hisobiga ishsizlar soni yanada ko'paymoqda.

Inson huquqlari tashkiloti oziq-ovqat mahsulotlariga doir narx-navo tahlili kam ta'minlangan, ijtimoiy nochor oilalarda kundalik ehtiyoj uchun lozim boshqa mahsulotlar olishga imkon qolmayotganini ko'rsatayotganiga diqqat qaratadi.

Jahon bankining O'zbekiston iqtisodiga doir tadqiqotida ta'kidlanishicha, hukumat pandemiya inqiroziga qarshi katta mablag' sarflagan:

"Davlat byudjetiga tushumlarning kam yig'ilishi va inqirozga qarshi katta xarajatlar 2020-yil birinchi yarmida byudjet kamomadi Yalpi ichki mahsulotning 5 foizgacha o'sishiga olib keldi. Yalpi ichki mahsulotning 2,5 foizi sog'liqni saqlash sohasiga qo'shimcha xarajatlar, kam ta'minlanganlar uchun pul o'tkazmalarining ko'paytirilishi, jamoat ishlarining kengayishi va korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirildi".

O'zbekiston hukumatining inqirozga qarshi kurashi, xususan pandemiya inqiroziga qarshi kurash uchun tuzilgan jamg'arma doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning qanchalik samarali bo'lgani mutaxassislar tomonidan ancha bahsli baholanadi.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar, jumladan Jahon banki va xorij davlatlaridan olingan qarz hisobiga tashkil qilingan bu jamg'armada to'plangan 1,5 milliard dollarga yaqin mablag'ning pandemiya bois inqirozga tushgan davlat tashkilotlari, monopol korxonalarini qo'llab-quvvatlashga sarflangani, ijtimoiy muhofaza uchun ajratilgan bir martalik yordam pullarining talon-taroj qilinishiga doir holatlar jiddiy tanqidiga uchragan edi.

Hukumatning inqirozga qarshi kurash choralari haqida "Amerika Ovozi" bilan suhbatlashgan ekspertlar qarzga olingan mablag'larning bu qadar samarasiz sarflanishini o'ta achinarli baholashgan.

Jahon banki o'z hisobotida mamlakat tashqi qarzi bilan bog'liq holatga ham to'xtab o'tgan. O'zbekistonning holati nisbatan mo'tadil baholanadi.

Boshqa mamlakatlardagi kabi, COVID-19 pandemiyasi O'zbekistonning ham iqtisodiy barqarorligini jiddiy sinovlar ostiga qo'ydi. Oqibatda, jahon iqtisodiyoti tarixdagi eng chuqur retsessiyalardan biriga uchradi. Jahon bankining tahlillariga ko'ra, 2020 yilda umumjahon daromadlar darajasi 1870 yildan buyon ilk marotaba boshqa davrlarga nisbatan ko'proq pasayadi. Pandemiya butun dunyo bo'ylab 70 milliondan 100 million nafargacha

odamlar o'ta qashshoq bo'lib qolishiga olib keladi. O'zbekistonliklar uchun ushbu inqirozning hajmi qanday bo'ladi?

“O'zbekiston fuqarolarini tinglab” (Listening to Citizens of Uzbekistan, L2CU) tadqiqotini o'tkazish davomida yig'ilgan ma'lumotlar ushbu savolga javob beradi. Loyiha 2018 yildan beri Jahon banki tomonidan “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi bilan hamkorlikda aholining farovonligi va hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar bo'yicha jamoatchilik fikrini baholash uchun amalga oshirilmoqda.

BUDJET TAQCHILIGINI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Boltaeva Mohichehra Sharipovna, BuxDU

«Qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o'tishimiz shart», — Shavkat Mirziyoyev.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 7 dekabr kuni O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 28 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirdagi nutqida mamlakat boshlagan islohotlarni qat'iy davom ettirishini ma'lum qildi.

«Agar biz yurtimizda barqaror iqtisodiyot qurmoqchi bo'lsak, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar kabi boy va farovon yashamoqchi bo'lsak, yuzaki emas, balki qanchalik qiyin va murakkab bo'lmasin, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o'tishimiz shart. Yagona yo'limiz shu. Bu — Asosiy qonunimiz talabi. Boshqa yo'l yo'q. Biz boshlagan islohotlarimizni qat'iy davom ettiramiz va ular albatta o'zining ijobiy natijasini beradi», — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yaxshi yashash uchun eng avvalo yaxshi mehnat qilish, huquq va erkinlik bilan birga javobgarlik va mas'uliyatni ham chuqur his etish zarurligini ta'kidladi. Yoshlarning ilmga intilishini kuchaytirish, tadbirkorlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, xorijiy mamlakatlar bilan turli sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish bundan buyon ham islohotlar markazida bo'lishini qayd etdi.

«Chunki bilimli avlod — buyuk kelajakning, tadbirkor xalq — farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa — taraqqiyotning kafolatidir!» — dedi davlat rahbari.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida O'zbekistonning birinchi Prezidenti I. Karimovning bevosita tashabbusi va rahbarligida har tomonlama puxta o'ylab ishlab chiqilgan taraqqiyotning “O'zbek modeli”ni izchil amalga oshirish orqali iqtisodiyotimiz misli ko'rilmagan katta muvaffaqiyat va natijalarga erishdi. Jumladan, mustaqillik yillarida milliy xo'jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan meros bo'lib qolgan bir tomonlama xomashyo ishlab chiqarish bo'yicha rivojlanish, paxta yakkahokimligi va inqiroz holatidan chiqarildi; iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohaları o'rtasidagi muvozanatlik va mutanosiblik kuchaydi; bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirilib, rivojlantirildi. Soliq, byudjet va tashqi iqtisodiy faoliyat sohalarida, bank tizimi faoliyatida mustahkam barqarorlik, davlat qarzini nisbatan past darajada ushlab turish ta'minlanib mamlakatimizning jahon miqyosidagi obro'-e'tiborini yuqori darajaga ko'tarishga erishilmoqda. Iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan modernizatsiya, tarkibiy o'zgarish va diversifikatsiya natijasida yangidan-yangi zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish quv atlari ishga tushirilmoqda. Bu o'zgarishlar va xalqimizning fidokorona mehnati natijasida yaratilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmat turlarining ko'payib, sifati tubdan yaxshilanib borishiga, aholi daromadlari va turmush darajasining keskin o'sishi, ularning ertangi kunga bo'lgan ishonchining tobora oshib borishiga olib kelmoqda. Ma'naviy jabhada ham tub o'zgarishlar qilinib, jamiyat a'zolari ongida milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi shakllantirildi.


Albatta O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun jadal tezlikda odimlamoqda. Bu o'sish jahon mamlakatlari etirofiga sazavor bo'lib kelmoqda va o'zining realligini real hayotda

ko'rsatib bormoqda. Buning uchun hurmatli birinchi prizidentimiz I.A Karimovdan va hozirgi prezidentimiz SH.M Mirziyoyev olib borgan va olib borayotgan siyosatlarini tahsinga loyiq.

Tashqi qarz hajmining muntazam o'sib borishi natijasida ushbu qarzlarning bo'yicha mamlakatlar joriy to'lovlarini to'lay olmasligi mumkin. Davlatning tashqi qarzi va to'lov qobiliyatini tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi: - tashqi qarzda qisqa muddatli qarzlarning ulushi; - tashqi qarzlarning eksportga va YalMga nisbati; - tashqi qarzga xizmat ko'rsatishning eksportga nisbati; - rasmiy zaxiralarning tashqi qarzga nisbati. Jahon banki mamlakatlari ko'rsatishicha 1997—2007-yillarda rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari tashqi qarz yuki yengillashgan. Tahlillar ko'rsatishicha qisqa muddatli qarzlarning tashqi qarzda ulushi deyarli kamaymagan va 2007-yilda ushbu ko'rsatkich 24 %ni tashkil qildi. Davlat tashqi qarzlarning o'zgarishi uning to'lov qobiliyati, iqtisodiy va moliyaviy barqarorligi bilan bevosita bog'liq. Tashqi qarz va uni to'lash qobiliyati mamlakatning xalqaro kapital bozori dastaklaridan foydalanish imkoniyatini belgilaydi. Bu borada nufuzli 204 xalqaro reyting agentliklari mamlakatning tashqi qarz ko'rsatkichlari bilan birgalikda hukumat tomonidan xalqaro iqtisodiy, valuta, kredit munosabatlari sohasida qabul qiladigan qarorlarini ham kuzatib borishadi va mamlakatlar reytingiga tegishli o'zgarishlar kiritishadi. Shu sababli hukumatlar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun tashqi qarz ko'rsatkichlarini belgilangan me'yorlardan oshib ketmasligini ta'minlashga harakat qilishadi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar, jumladan, AQSh uchun davlat qarzlarning oshishi va bu qarzlarni moliyalashtirishda norezidentlar ulushining o'sishi mamlakat milliy valutasining xalqaro iqtisodiy munosabatlarda tutgan o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tashqi qarzlarni davlat yoki xususiy sektor hisobidan o'sib borishi va belgilangan me'yorlardan oshib ketishi aksariyat mamlakatlarda tashqi qarzga xizmat ko'rsatish jarayonining murakkablashishiga olib keladi. To'lovning kechiktirilishi esa yangi qarzlarni olish imkoniyatini kamaytiradi. Xorijiy kreditorlar xalqaro sudga murojaat etish orqali davlatning iqtisodiy hududidan tashqarida bo'lgan mulkini musodara qilishlari mumkin. Tashqi qarzlarning bo'yicha to'lovlarning kechiktirilishi qarzdor mamlakatlarni kreditorlar bilan muzokara olib borishga majbur qiladi. Ayrim hollarda kreditor qarz bo'yicha to'lovlarni kechiktirishi mumkin va ushbu operatsiya prolongatsiya, deb nomlanadi. Rasmiy tashqi qarzlarning katta qismi Parij klubiga a'zo mamlakatlarda mujassamlashgan. Xususiy sektor tashqi qarzlari katta bo'lgan mamlakatlar esa London klubiga a'zo bo'lishadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi qarzlarni keng miqyosda tartibga solish birinchi marta 1980-yillarda amalga oshirilgan. Tashqi qarz muammosini tartibga solish davlatlarning, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning siyosati obyektiga aylandi. O'z maqsadlaridan kelib chiqqan holda kreditorlar tashqi qarz muammosini xalqaro forumlarga olib chiqishni boshlashgan. Bunday forumlar Parij va London klublari faoliyati doirasida tashkil qilinadi. Parij va London klublarining asosiy maqsadi rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari tomonidan kechiktirilgan tashqi qarzlarning bo'yicha kreditorlarning umumiy strategiyasini ishlab chiqish va kreditorlar faoliyatini tartibga solishdan iborat.

Mamlakatlarning ushbu klublar bilan kelishuvlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: - tashqi qarzlarni restrukturalashtirish; - qarzlarning bir qismini obligatsiyalarga almashtirish; - qarzlarning bir qismidan voz kechish. Parij klubiga a'zo bo'lmagan mamlakatlarning kredit munosabatlari ikki tomonlama muzokaralar orqali tartibga solinadi. Parij va London klublarining tashkil qilinishi rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarning tashqi qarz muammosini yengillashishiga olib keldi. Chunki tashqi qarz muammosini hal etish jarayoni tartibli, tizimli ko'rinishga keltirildi va qarzdor mamlakatlar o'zlarining tashqi kredit munosabatlarini barqarorlashtirish imkoniga ega bo'lishdi. Parij klubi va boshqa xalqaro moliya institutlari tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlar rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari tashqi qarzlarning kamayishiga olib keldi.



1- rasn. Daromadlar darajasi bo'yicha 2000-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasi axolisining tabaqalanishi

2021 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonning davlat qarzi 23,3 mlrd dollar ekvivalentini tashkil etmoqda. Shundan 21,1 milliard – davlat tashqi qarzi. Davlat tashqi qarzi so'nggi 2 yil ichida 2 barobarga oshdi. Tashqi qarz miqdori 21 milliard dollardan oshdi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 2021 yil 1 yanvar holatiga O'zbekiston nomidan va uning kafolati ostida jalb qilingan qarz qoldig'i (davlat qarzi) 23,3 milliard dollar ekvivalentini yoki yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatan 40,4 foizni tashkil etdi.

2020 yil yakuni bilan taqqoslaganda, davlat tashqi qarzi 5,4 milliard dollarga yoki yil boshiga nisbatan 34,4 foizga oshib, 2021 yil 1 yanvar holatiga 21,1 milliard dollarga yoki YaIMga nisbatan 36,5 foizga yetdi. Shundan respublika nomidan jalb qilingan tashqi qarz 15,1 milliard dollarni, davlat kafolatlagan tashqi qarz 6 milliard dollarni tashkil etdi. Davlat ichki qarzi 23,3 trillion so'm (2,2 milliard dollar) yoki YaIMga nisbatan 3,9 foiziga teng. Shundan 4 trillion so'm (0,4 milliard dollar) – davlat qimmatli qog'ozlari, 19,3 trillion so'm (1,8 milliard dollar) – davlat kafolatlagan ichki qarz.

O'zbekiston Respublikasi davlat tashqi qarzining hajmi 2021 yilning 1 yanvar holatiga 21,1 milliard dollar yoki YaIMga nisbatan 36,5 foizni tashkil etdi. Bunda respublika nomidan jalb qilingan tashqi qarz 15,1 milliard dollar ekvivalenti yoki jami davlat tashqi qarzining 71,4 foiziga to'g'ri keladi. Shuningdek, mamlakat kafolati ostida jalb qilingan tashqi qarz 6 milliard dollar ekvivalenti yoki davlat tashqi qarzining 28,6 foizini tashkil qilmoqda. 2020 yilda jami davlat tashqi qarzining 17,5 foizi yoki 3,7 milliard dollar davlat budgetini qo'llab-quvvatlashga sarflandi. Shuningdek, o'tgan yili:

- 2,6 mlrd dollar energetika sohasiga;
- 2,9 mlrd dollar elektr-energetika sohasiga;
- 2,4 mlrd dollar transport va transport infratuzilmasiga;
- 2,3 mlrd dollar uy-joy kommunal xo'jaligi sohasiga;
- 1,7 mlrd dollar suveren xalqaro obligatsiyalarga;
- 1 mlrd dollar kimyo sanoatiga;
- 0,7 mlrd dollar ta'lim va sog'liqni saqlashga;
- 0,3 mlrd dollar moliyaviy sohaga;
- 0,2 mlrd dollar kommunikatsiyalarga;
- 1,1 mlrd dollar boshqa sohalarga yo'naltirildi.

Davlat tashqi qarzining katta qismi uzoq muddatga va imtiyozli foiz stavkalarida olingan.

Davlat tashqi qarzi portfeli valuta tarkibining 70 foizi – dollar, 11,3 foizi – yapon iyenasi, 9,5 foizi – SDR (maxsus qarz olish huquqlari), 5,1 foizi – yevro, 4,1 foizi – boshqa valutilardagi tashqi qarz hissasiga to‘g‘ri keladi.

- Moliya vazirligi hisoboti davlat qarzigaga oid bo‘lib, undan xususiy tashqi qarzlari o‘rin olmagan. Xususiy tashqi qarz haqida Markaziy bank so‘nggi marta 2020 yil 1 oktyabr holati bo‘yicha ma‘lumot bergan, o‘shanda xususiy sektor qarzi 10 milliard dollardan oshgani ma‘lum bo‘lgandi.

- Markaziy bank O‘zbekistonning 2020 yil uchun to‘lov balansi, xalqaro investitsion pozitsiyasi va tashqi qarzi ko‘rsatkichlarining hisobotini 2021 yil mart oyida taqdim etadi.

ОСОБЕННОСТИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА ПРОЦЕССОВ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ

М.Х. Уракова

Бух.ДУ. “иктисодиёт” кафедраси катта ўқитувчиси

В настоящее время одним из основных недостатков организации учета инновационной деятельности является то, что не существует единой системы счетов и регистров бухгалтерского учета для отражения расходов, доходов и финансовых результатов научно-исследовательской деятельности. На предприятии, имеющиеся учетные регистры, бухгалтерские счета не предоставляют достоверных для проведения анализа инновационной продукции и ее влияния на финансовые результаты деятельности предприятия. В таблице приведены возможные варианты учета затрат на научно-исследовательскую деятельность на предприятии, которое самостоятельно разрабатывает и внедряет инновации.

Таблица 1.1

Отражение затрат на инновационную деятельность на счетах бухгалтерского учета

Варианты зачета затрат на инновационную деятельность	Корреспонденция счетов бухгалтерского учета
А	1
Распределение затрат на стадии научных исследований и разработок по элементам затрат Ввод в эксплуатацию нематериального актива	Д-т 0880 «Выполнение научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ» К-т 1000 «Материалы», 05 00 «Износ нематериальных активов», 6710 «Расчеты по оплате труда», 6910 «Расчеты по социальному страхованию и обеспечению», 6010 «Расчеты с поставщиками» и др. Д-т 0400 «Нематериальные активы» К-т 0800 «Приобретение (создание) нематериальных активов»
Отнесение затрат на научно-исследовательские работы к текущим затратам предприятия	Д-т 2010 «Основное производство», 2310 «Вспомогательные производства», 44 00 «Расходы на продажу» К-т 0880 «Выполнение научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ»
В случае получения отрицательного результата и невозможности использования результатов инновационной деятельности	Д-т 9120 «Прочие расходы» К-т 0880 «Выполнение научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ»

В свою очередь в связи с тем, что отсутствует четкое представление об инновационном продукте как об объекте учета, формирование системы бухгалтерского учета затрат на инновационные мероприятия должно быть ориентировано на выполнение следующих принципов, определяющих направления его развития:

- рассмотрение инновационного продукта как объекта бухгалтерского учета с учетом свойств его измеримости и обособленности;
- отражение инноваций на счетах бухгалтерского учета как количественно определенных и обособленных объектов;
- накопление на счетах бухгалтерского учета «инновационных» затрат по этапам инновационной деятельности;
- расширение содержания и перечня объектов «инновационного» учета путем расширения понимания инвестиций как вложений не только в основной капитал и в нематериальные активы, но и в научные исследования и разработки, в человеческий капитал.

На данный момент существующий план счетов предполагает лишь накопление затрат по инновационной деятельности на субсчете 0880 «Выполнение научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ».

Учет затрат на одном счете не дает возможность разделения понесённых расходов по направлениям инновационной деятельности, что безусловно важно для оценки эффективности полученного результата. Для обеспечения отдельного учета расходов по инновационной деятельности, которая является составным элементом хозяйственной деятельности организации, мы предлагаем открыть счета второго порядка к счету 0880 «Выполнение научно-исследовательских, опытно-конструкторских и технологических работ»: 0881 «Расходы на выполнение научных исследований» и 0882 «Расходы на выполнение научных разработок».

Данные счета предназначены для накопления затрат, связанных с инновационной деятельностью. В целях организации учета затрат по этапам становления инновационного продукта можно предположить следующую группировку инновационных затрат:

- маркетинговые исследования;
- научные исследования или разработки;
- инновационное проектирование;
- инновационное производство;
- коммерциализация продукции;
- прочие расходы.

Для отражения вышеперечисленных групп затрат целесообразно формировать аналитические статьи расходов соответствующим счетам «Расходы на выполнение научных исследований» и «Расходы на выполнение научных разработок». Аналитические статьи расходов позволят обобщать информацию о затратах, понесенных на каждом этапе формирования инновационного продукта, анализировать состав, динамику и структуру затрат, выявить отклонения плановых показателей затрат от фактических на каждом этапе становления инновации.

В целях более глубокой детализации группы инновационных расходов могут подразделяться на виды инновационных затрат исходя из специфики деятельности организации и потребности в аналитической информации. Оценка рыночной привлекательности инновационного продукта является первостепенно важной в системе разработки и реализации нововведения. Аналитическая статья расходов «Научные исследования или разработки» предназначена для обобщения информации о затратах на генерацию идей, исследование возможности и целесообразности практической реализации отобранных идей, оценку приобретаемых дополнительных выгод от их внедрения в практику, поиск способов превращения идей в практику. По аналитической статье расходов «Инновационное проектирование» отражаются затраты, связанные с непосредственной разработкой четкого плана действий, расчетом плановых показателей

проекта, патентование изобретения. Аналитическая статья расходов «Инновационное производство» предназначена для отражения информации о затратах на производство инновационного продукта. По статье «Коммерциализация продукта» накапливаются затраты, связанные с доведением созданного продукта до потребителя: расходы на рекламу, маркетинговые услуги, расходы по продвижению и сбыту продукта, прочие коммерческие расходы.

По аналитической статье расходов «Прочие расходы» можно отражать затраты на подготовку и переобучение персонала, подготовку и покупку технологической документации (лицензии, сертификаты). Приведенные аналитические статьи позволяют обобщать информацию о прямых затратах, имеющих прямое отношение к осуществлению инновационной деятельности.

Таким образом, рассмотренные аналитические статьи расходов синтетических счетов позволяют постепенно накапливать информацию о затратах, осуществленных по этапам становления инновации, а в совокупности отражать информацию о стоимости произведенного инновационного продукта. Приведенная система учета затрат на инновации позволяет систематизировать и анализировать информацию об инновационных расходах, обеспечивает формирование фактической стоимости инновационного продукта по этапам его становления, способствует рациональному учету затрат на инновационные мероприятия, что в комплексе обеспечивает достоверную оценку эффективности инноваций.

МОЛИЯВИЙ АКТИВЛАРНИ БОШҚАРИШ ТАҲЛИЛИ.

Зайнутдинов Исмоил Самариддин ўғли
Тошкент давлат иқтисодиёт университети,
муस्ताқил изланувчи

Тадбиркорлик субъектлари барқарор ривожланишини таъминлаш операция фаолиятнинг асосий объекти ҳисобланган жорий активларни самарали шакллантириш ва унинг оптимал нисбатларини таъминлашга боғлиқдир. Жорий активлар меҳнат предметларини ўзида мужассамлаштириб, бир операция цикл мобайнида ўз қийматини товар шаклидан пул шаклига ёки пул шаклидан товар шаклига ўзгартириш хусусияти билан тавсифланади.

Молиявий менежмент тизимида акциядорлик жамиятлари жорий активларини бошқариш соҳасини операция молиявий менежмент деб аталиб, уларнинг функционал элементлари узоқ муддатли активларга нисбатан фарқланади.

Америкали иқтисодчи профессор Р. Мертон ҳар қандай молиявий активни бошқаришнинг асосий молиявий мезони сифатида улар учун талаб қилинадиган даромадлиликка таъсир этувчи қуйидаги омилни таъкидлаб ўтади: Рисксиз рентабеллик даражаси (Risk free rate). Хусусан, бунда капиталнинг бозордаги ўртача қийматини ўзида мужассамлаштирувчи фоиз даражаси назарда тутилиб, ушбу қиймат рисксиз даромадлилик даражаси сифатида қабул қилинади. Одатда бундай даромадлиликка эга бўлган молиявий актив сифатида давлат облигацион заёмлари инобатга олинади.

Фикримизча, иқтисодчи ушбу фикрида молиявий активларни бошқариш объекти сифатида тури қимматли қоғозлардан ташкил топган активларни бошқаришда инобатга олиннадиган омилларга урғу бериб ўтган.

Россиялик иқтисодчи олимлар А.А. Адаменко, Т.Е. Хорольская ва В.С. Горшковлар¹ молиявий активларни бошқаришнинг умумий принципларига тўхталиб, аввало молиявий активларни бошқариш корхоналарнинг ягона бошқарув тизими билан интеграцилашуви таъминланишини кераклигини таъкидлайди.

¹ Адаменко А.А., Хорольская Т.Е., Горшков В.С. Финансовые активы: понятие и оценка // Вестник Академии знаний №34 (5), 2019

Пул маблағларини бошқариш самарадорлигининг бош индикаторларидан бири бўлган ликвидлилик масаласи аксарият иқтисодчи олимлар томонидан ҳам эътироф этиб ўтилади. Масалан, хорижлик иқтисодчиларда бири Мишель Алмен-Уорднинг фикрича, пул маблағларини бошқариш жорий ликвидлиликни кўллаб қувватлаш, фондларнинг ҳаракатчанлигини ва ликвидлиликни оптималлаштириш мақсадида қисқа муддатли ресурсларни бошқаришга оид фан сифатида шаклланиб бораётган санъатдир¹.

Корхоналарда жорий активларнинг муомаласи айланма ишлаб чиқариш фондларини сотиб олиш учун пул шаклида маълум бир қиймат мавжуд бўлган тақдирдагина амалга оширилиши мумкин. Шунинг учун, акциядорлик жамиятлари жорий активларини бошқариш, уларнинг ишлаб чиқаришдаги функционал ролига боғлиқ равишда жорий активлар ишлаб чиқариш жараёнида товар-моддий захиралар ва пул маблағлари ҳаракатини акс эттириб, улар айланма ишлаб чиқариш ва муомала фондлари шаклида намоён бўлади.

Таҳлил базаси кетма кетлигига асосланган ҳолда партиянинг оптимал миқдорини аниқлашнинг(ЕОQ) бир қатор моделлари мавжуддир.

1. Уилсон модели². Ушбу модел захираларнинг оптимал ҳажмини аниқлашнинг таянч модели ҳисобланади. Ушбу модел захиралар ва товарларнинг оптимал ҳажмини аниқлашга хизмат қилувчи модел ҳисобланади. Бунда захираларга қилинадиган харажатлар 2 турга ажратилади: товарлар партиясининг қиймати ва уларни сақлаш харажатлари. Бунда захираларни минималлаштиришга харажатлар натижасидаги иқтисод қилинган маблағлар уларни омборларда сақлашга сарфланишини назарда тутади.

2. ABC модели³. Ушбу модел доирасида ҳажм ва қиймат таҳлили амалга оширилади. Бунда захиралар 3 турга ажратилади: А гуруҳ фойдаланиш цикли нисбатан узоқ давом этадиган қиймат маҳсулотлар; В гуруҳ узлуксиз ишлаб чиқаришга таъсири нисбатан паст бўлган захиралар; С гуруҳ паст қийматли захиралар ва уларнинг молиявий натижаларга таъсир паст даражада бўлади.

3. MRP модели. Ушбу модел компьютер дастурий маҳсуллари асосида ишлаб чиқилган бўлиб, қуйидаги функционал секцияларга асосланади: захираларни қайта ишлаш; захиралардан фойдаланиш графиклари⁴.

Демак, тўлов қобилиятининг мазмунан 2 қисми яъни актив ва пассив жиҳатлари мавжуддир. Актив жиҳатлари, керакли ҳажмдаги пул маблағларининг мавжудлиги ва пассив жиҳати кечиктирилган кредиторлик қарзларининг мавжуд эмаслиги каби белгиларидадир.

Ўтиш даврига хос иқтисодий муҳитга мувофиқ инвестицион ресурсларга бўлган юқори эҳтиёж тадбиркорлик субъектлари пул маблағларини бошқариш сиёсатини такомиллаштириш учун муайян имтиёзларни яратади. Бу аввало монополистик рақобатнинг кучайиши шароитида бизнесга сармояларга бўлган эҳтиёжнинг ортиши билан изоҳланади. Замонавий шароитларда пул маблағларини бошқариш кўпроқ менежерларни қизиқтираётгани аниқ бўлса-да, аксарият компанияларда нима учун операцион фойдани юқори тўпланиш даражаси шароитида пул маблағларини тўплаш имконияти паст даражада қолмоқда? Том маънода айтадиган бўлсак, ушбу саволни “Нега аксарият компанияларда фойда юқори даражада лекин пул маблағлари йўқ” деган ҳақли саволни қўйиш мумкин. Ушбу ҳолатни биз таҳлил қилаётган корхонада ҳам кузатишимиз мумкин. Чунки, корхонанинг амалдаги рентабеллиги шароитида, пул маблағларининг жорий активлар таркибидаги паст улуши юқоридаги саволимизнинг мантиқий жиҳатдан асосли эканлигига яққол мисол бўла олади.

Фойдаланилган адабиётлар:

¹Allman-Ward M. Essentials of managing corporate cash. -New Jersey: John Wiley&Sons Inc., 2003.-264 p.

² Дзюба, С. А. Управление запасами: верна ли формула Вильсона?/ С. А. Дзюба // Менеджмент в России и за рубежом. — 2011. — №4. — С. 3-12

³ Bramel J., Simchi-Levi D. The logic of logistics: theory, algorithms, and applications for logistics management. – New York: Springer-Verlag, 1997. – 282 p.

⁴ Гаврилов Д. А. Управление производством на базе стандарта MRP II, 2-е изд. — СПб.: Питер, 2005, 416 с.

Markowitz H. M., Mean Variance Analysis in Portfolio Choice and Capital Markets. Basil. Blackwell. 1990

Allman-Ward M. Essentials of managing corporate cash. -New Jersey: John Wiley&Sons Inc., 2003.-264 p..

Оксана Езерская Управления денежными средствами: nepозволительная роскошь или вкнужденная необходимость? <https://bizentropy.biz/articles/50>- сайти маълумотлари.

Дзюба, С. А. Управление запасами: верна ли формула Вильсона?/ С. А. Дзюба // Менеджмент в России и за рубежом. — 2011. — №4. — С. 3-12

Bramel J., Simchi-Levi D. The logic of logistics: theory, algorithms, and applications for logistics management. – New York: Springer-Verlag, 1997. – 282 p.

Гаврилов Д. А. Управление производством на базе стандарта MRP II, 2-е изд. — СПб.: Питер, 2005, 416 с.

Адаменко А.А., Хорольская Т.Е., Горшков В.С. Финансовые активы: понятие и оценка // Вестник Академии знаний №34 (5), 2019.

ПУЛ МАБЛАҒЛАРИНИ БОШҚАРИШ ТИЗИМИ

Зайнутдинов Исмоил Самариддин ўғли

Тошкент давлат иқтисодий университетини,
мустақил изланувчи

Пул маблағларини бошқариш орқали унга бўлган реал эҳтиёжни аниқлаш, эркин пул маблағлари ёки реал эҳтиёж частотасига мувофиқ бўш пул маблағларини қисқа муддатли активларни инвестициялашга шарт шaroит яратиш, ушбу инвестициялар ҳисобига қўшимча даромад олиш имкониятлари шаклланади.

Демак, юқоридаги фикрларни умумлаштирган ҳолда таъкидлаш жоизки, пул маблағлари аввало жорий мажбуриятларни қайтариш орқали тўлов қибилитини яхшилашга хизмат қилади. Унинг таркиби ва динамикасига асосланган ҳолда пул маблағларининг ушбу вазифасини қай даражада бажарилиш ҳолатига баҳо бериш мумкин.

Россиялик иқтисодчи Оксана Езерская эса, аксарият компанияларда пул оқимларини бошқаришга нисбатан тушунган ҳолдаги тизимли ёки интуитив тарздаги ёндашувлари натижасида тез тез пул маблағлари тақчиллиги ёки ортикчалик ҳолатларига дуч келишмоқда¹.

Пул маблағларини оптималлаштириш йўналишлари орқали кўриладиган бўлса, кассадаги, банклардаги ҳисоб рақамларда мавжуд бўлган пул маблағларига реал эҳтиёжни аниқлаш оптималлаштиришнинг асосий шартларидан бири ҳисобланади.

Муомала фондлари қуйидагилардан иборат:


- омборда мавжуд бўлган ва реализация учун мўлжалланган тайёр маҳсулот;
- юклар жўнатилган ва пули тўланмаган маҳсулот;
- жорий ҳисобварақдаги маблағлар, депозит ҳисобварақлар, нақд ва ҳисоб-китоблардаги (дебиторлик қарзлари) ва қисқа муддатли қўйилмалар.

Такрор ишлаб чиқариш жараёнининг узлуксизлигини таъминлаш учун зарурий жорий молиявий эҳтиёжлар жорий активларни юқорида тилга олинган туркумлари бўйича (айланма ишлаб чиқариш ва муомала фондлари) оптимал нисбатларда бошқаришни талаб қилади.

Чунки айланма ишлаб чиқариш фондлари такрор ишлаб чиқариш жараёнидаги реал меҳнат предметларига бўлган эҳтиёжни таъминлаш функциясини бажарса, муомала фондлар ушбу реал эҳтиёжларни ликвидлиликни таъминлаш позициясида молиявий таъминлаш ва товарлар реализация жараёнини тезлаштириш функциясини бажаради.

¹Оксана Езерская Управления денежными средствами: nepозволительная роскошь или вкнужденная необходимость? <https://bizentropy.biz/articles/50>- сайти маълумотлари.

Шунинг учун ҳам ушбу туркум жорий активлар доимий равишда оптимал нисбатлардаги бошқарувни талаб қилади.



1-расм. “Навойдонмахсулотлари” акциядорлик жамияти жорий активлари улуши тўғрисидаги маълумот¹.

Таҳлил қилинаётган даврда жами жорий активлардаги товар-моддий захиралар улушининг максимум кўрсаткичи 80,3 %дан 2017 йилда 34,6 % диапазонида тебранган. 2017 йилдаги кескин пасайиш асосан 47,7 % улушдаги пул маблағларининг кескин ўсишига тўғри келган.

Товар моддий захиралар молиявий ҳисоботларда моддий ресурсларни жалб қилиш харажатларини яъни кредитга олинган қийматлик бўйича фоизларни, устамаларни, комисион мукофотларни, боғлар, транспорт харажатлари ва сақлаш билан боғлиқ харажатларни ўзида мужассамлаштирувчи фактик таннархи бўйича ҳисобга олинади.

Умуман шуни алоҳида таъкидлаш жоизки жорий молиявий активлар жорий активларнинг элементи сифатида ўзаро ўхшаш сифат белгиларига эгадир. Агар, жорий активлардан самарали фойдаланишнинг асосий детерминантларидан бири молиявий циклнинг давомийлиги ҳисобланса, қанчалик ушбу цикл давомийлиги кўп бўлса, шунчалик молиявий эксплуатацион эҳтиёжлар кўпайиб боради. Табiiй равишда молиявий циклнинг давомийлиги жорий активлар элементи ҳисобланган дебиторлик қарзларига ҳам боғлиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

Markowitz H. M., Mean Variance Analysis in Portfolio Choice and Capital Markets. Basil. Blackwell. 1990

¹ “Навойдонмахсулотлари” акциядорлик жамияти йиллик молиявий ҳисоботлари асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

Allman-Ward M. Essentials of managing corporate cash. -New Jersey: John Wiley&Sons Inc., 2003.-264 p..

Оксана Езерская Управления денежными средствами: непослужительная роскошь или вынужденная необходимость? <https://bizentropy.biz/articles/50>- сайты маълумотлари.

Дзюба, С. А. Управление запасами: верна ли формула Вильсона?/ С. А. Дзюба // Менеджмент в России и за рубежом. — 2011. — №4. — С. 3-12

Bramel J., Simchi-Levi D. The logic of logistics: theory, algorithms, and applications for logistics management. – New York: Springer-Verlag, 1997. – 282 p.

Гаврилов Д. А. Управление производством на базе стандарта MRP II, 2-е изд. — СПб.: Питер, 2005, 416 с.

Адаменко А.А., Хорольская Т.Е., Горшков В.С. Финансовые активы: понятие и оценка // Вестник Академии знаний №34 (5), 2019

РАЗВИТИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА С ИННОВАЦИОННОМ РОСТОМ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНЕ

Кайимова З.А

ст.преподаватель кафедры «Экономика» БухГУ

Амонов С. Б.

магистр 2 курса магистратуры БухГУ

Нужно уделить внимание, что наша экономика в посткризисное состояние отличилась в этом году, чтоб перейти на новый этап нужно возобновить инновационную деятельность малых предприятий и использование технологий на высоком уровне. С восстановлением национальной экономики этого сложного и капиталоемкого структурного сдвига в сфере малого бизнеса в значительной степени будет, иметь огромное значение развитие темпов и качеств, для освоения малыми предприятиями выпуска наукоемкой продукции с прибавлением дополнительной стоимости.

Но, есть проблемы, который можем столкнуться с нехваткой инвестиционных ресурсов ограничений состава надежных и профессиональных партнеров заинтересованных в расширении масштабов технического обновления и технологического развития малых предприятий и улучшение взаимоотношений между партнерами, во сферах деятельности касающейся малых предприятий с инновацией.

Активная деятельность малых инновационных предприятий с целью инновационного роста в нашей республике началась в 2017 году, когда в рамках Стратегии Действия Узбекистана на 2017-2021 годы во всех регионах республики начали создаваться формы пространственной организации инновационного бизнеса.



Спектр появившихся в последнее время центров инновационного роста регионов, способных оказать эффективную помощь в повышении технологического уровня малых предприятий, представлен на рис. 1.

Основные формы функционирования центров инновационного роста на уровне регионов Узбекистана В настоящее время в регионах страны действует более 80 крупных производственно-технических кластеров²³ в структуре которых успешно работают сотни малых предприятий. Примером служит Инновационный научно-производственный фармацевтический кластер в Зангиатинском районе Ташкентской области. В скором времени планируется открытие узбекско-корейского фармацевтического технического университета для современного многофункционального высоко-технологичного производства лекарственных средств. Следует учесть что ещё в различных регионах республики функционирует 156 малых промышленных зон которые заинтересованы в налаживании тесных кооперационных связей с малым бизнесом в вопросах создания наукоемкой технической продукции для нужд субъектов региональной экономики. Для повышения технологического уровня малых предприятий открываются широкомасштабные возможности в сотрудничестве с техническими парками, бизнес-акселераторами и испытательными полигонами.

Скоро планируется открывать инкубационные центры в различных технопарках во всех регионах республики для поддержки стартапов действующих в 10 высших учебных заведениях Узбекистана.

Однако решающим преимуществом сотрудничества с центрами инновационного роста регионов для малых предприятий выступает то обстоятельство что большинство из них в силу имеющегося у них знания современных технологий и высококвалифицированного персонала являются обладателями ноу-хау владельцами лицензий на инновационные продукты или практического опыта организации производства эксклюзивной продукции.

Таким образом, своевременно сформированный и эффективно работающий механизм вовлечения малого бизнеса в орбиту центров инновационного роста в условиях посткризисного развития сам по себе приобретает особое значение для устойчивого социально-экономического развития регионов Узбекистана, так как органично увязывает большие технические возможности центров инновационного роста значительный предпринимательский потенциал малого бизнеса и растущие потребности органов регионального управления в инновационном развитии производительных сил территорий.

Самое выгодное преимущество центров инновационного роста- это расширение масштабов и качества сотрудничества с малым бизнесом ,потому что позволяет использовать предпринимательский потенциал частных предпринимателей для решения узких производственных вопросов реализаций сложных коммерческих проблем дополнительно продвижения соевей продукций на внутренние и зарубежные рынки.

Основные критерии эффективности углубления интеграции центров инновационного роста с малыми предприятиями

Эффект сотрудничества малого бизнеса с центрами инновационного роста

- Повышение уровня технологичности малого
- Повышение инвестиционной привлекательности
- Повышение уровня самообеспеченности бюджетов
- Ускорение модернизации производительных сил регионов
- Формирование высоко конкурентной среды
- Нарращивание экспортного потенциала
- Инновационное развитие территорий
- Создание высокооплачиваемых рабочих мест

В итоге конструктивное решение проблемы повышения уровня, технологической оснащённости малых предприятий за счёт углубления их сотрудничества с центрами

инновационного роста открывает качественно новые возможности для модернизации производительных сил территорий.

Однако, реализация его потенциала требует и качественно нового уровня работы органов регионального и местного управления, которые должны стать модераторами процесса вовлечения малого бизнеса в орбиту центров инновационного роста являющихся драйверами кардинального инновационного обновления территорий. Мы понимаем, что своевременная реализация потенциала данного механизма должна позволить превратить центры инновационного роста и работающие в их орбите малые предприятия в опорные звенья регионально-производственных систем.

TURIZMDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA AHAMIYATI.

**«Iqtisodiyot» kafedrası katta o'qituvchisi Qayimova Z.A
BuxDU 2- kurs magistri Xamroeva F.Q.**

Ayni paytda biz mehmonxona va turizm biznesida axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minotning jadal rivojlanayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Bu ularning to'g'ri ishlatilishi bilan olinadigan ta'sirga bog'liq. Zamonaviy axborot texnologiyalari korxonalar ishini maksimal darajada samarali tashkil etishga imkon beradi. Zamonaviy mehmonxonalar uchun bronlash jarayonini, mehmonlar, agentlar, turoperatorlar va biznes faoliyati bilan hisob-kitoblarni kompleks avtomatlashtirish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi shov-shuv mehmondo'stlik sanoatini tobora ko'proq jalb qilmoqda. Amadeus, Galileo, Saber, Worldspan, Fidelio kabi global buyurtma tizimlariga (GDS) yangi agentliklarning ulanishining jadal o'sishi buning isboti. O'tgan yilning o'zida ushbu GDS-lar foydalanuvchilar sonini deyarli ikki baravarga oshirdi. Bu asosan Internetning tobora ommalashib borishi bilan bog'liq. Va bu chegara emas. Darhaqiqat, XXI asr - kompyuter texnologiyalari asrida ofisingizni avtomatlashtirish juda muhimdir. Telefon va faks hozirda mehmonxonalar xonasi, samolyot yoki mashinada bo'lishidan qat'i nazar, rezervasyonlarni tez va samarali bajarishga yordam beradigan kompyuter uskunalari bilan aloqani yo'qotayotganini unutmang. Ushbu ish bag'ishlangan tadqiqotning ahamiyati shundaki, u raqamli iqtisodiyotning turizmdagi rolini o'rganadi.

Zamonaviy sharoitda raqamli shaklda taqdim etilgan ma'lumotlar XXI asr iqtisodiyotining rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, texnologiya asosiy rol o'ynaydi. Dunyoda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi davlatlar, tarmoqlar, korxonalarining raqobatdoshligini oshirishni ta'minlaydi. Raqamlashtirishning keng miqyosli darajasi biznesni tashkil etish jarayonida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bugungi tendentsiya – bu raqamli texnologiyalarni xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida global texnologiyalardan foydalanish, axborot jamiyatini va umuman raqamli iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan barcha sohalarga ta'sir etuvchi raqamli o'zgarish. So'nggi o'n yilliklarda raqamli texnologiyalarni joriy etish muammolarini o'rganish keng qamrovga ega bo'ldi. Raqamli iqtisodiyot uchun uchinchi sanoat inqilobidan to'rtinchi sanoat inqilobiga o'tish xarakterlidir.

Raqamli iqtisodiyot XX asrning ikkinchi yarmida raqamli hisoblash va aloqa texnologiyalarini rivojlantirish natijasida ro'y bergan tub o'zgarishlarni aks ettiradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy ishlab chiqarish va iste'molning barcha sohalarida raqamli kompyuter texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilish jarayonlariga bevosita bog'liq bo'lgan iqtisodiyotni ko'rib chiqing.

Qoida tariqasida, u onlayn xizmatlar va tovarlarni, xususan, elektron to'lov xizmatlari va elektron tijorat xizmatlari, Internet-tijorat va narsalar Interneti (IoT - narsalarning Interneti), kassa yig'ish, Internet-banking va boshqa sohalarni qamrab oladi. Raqamlashtirish va raqamli

iqtisodiyot, Big Data texnologiyalari, bulutli xizmatlar va sun'iy intellekt (neyron tarmoqlar), aqlli texnologiyalar va joylashuv texnologiyalari, narsalarning Interneti, shuningdek narsalarning sanoat Interneti (IIoT - narsalarning sanoat Interneti) platformasi sifatida faoliyat ko'rsatadigan so'nggi raqamli texnologiyalar orasida ajralib turadi. 3D bosib chiqarish. Raqamlashtirish va infratuzilmaning mavjudligi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining to'liq o'zaro ta'sirini ta'minlaydi. Raqamli iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari shaxsiylashtirilgan xizmat ko'rsatish modellarining mavjudligi, shuningdek, birgalikda iste'mol va birgalikda xizmat ko'rsatish iqtisodiyotini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Raqamlashtirish jarayoni ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasi uchun dolzarbdir. Savdo va transport kompaniyalari, sayyohlik va mehmondo'stlik sanoati korxonalari, umumiy ovqatlanish korxonalari maqsadli auditoriyani kengaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va jadal sur'atlar bilan rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lishdi, chunki global raqamli iqtisodiyotdaarsenalini ko'proq jalb qiladiganlar g'olib bo'lishadi. va raqamli platformalarning sifati.

Hozirgi kunda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot davlat rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda turizm davlatning tarixiy va madaniy merosini, shuningdek, hududiy rivojlanish va aloqa sohasidagi eng zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zida mujassam etgan alohida ijtimoiy-madaniy hodisaga aylandi. Raqamli texnologiyalarni joriy etgan va O'zbekistonda turizmni rivojlantiradigan bozor subyektlarini qo'llab-quvvatlash uchun davlat subsidiyalar berishni rejalashtirmoqda. Booking.com ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab sayyohlarning uchdan bir qismi avvalgi qidiruvlari, to'lov usullari va miqdori va boshqa imtiyozlarni hisobga olgan holda sun'iy intellekt asosida rejalashtirilgan sayohatni afzal ko'rishadi.

Respondentlarning yarmi, agar istaklar to'liq hisobga olingan bo'lsa, ular bilan sayohatni muhokama qiladigan odamga – suhbat botiga yoki tirik odamga ahamiyat bermaydilar. Agar sun'iy intellekt tomonidan taklif qilingan variantlar sayohatchining xohish-istaklariga mos bo'lsa, rezervasyon o'tkazish uchun motivatsiya kuchayadi, bu respondentlarning katta qismi tomonidan tasdiqlangan. Hozirda ishlatilayotgan turizmni raqamlashtirish vositalarining ko'pi ilovalardir.

Sayyohlar uchun birinchi raqamli xizmatlar 2000-yillarning boshlarida paydo bo'lgan va uyjoylarni bron qilish va chiptalarni sotib olishga qaratilgan: Booking.com – mehmonxonalar agregatori potentsial mijozlarga butun dunyo bo'ylab kichik mehmonxonalarni ko'rishga imkon berib, ularga mijozlar bazasidan keng foydalanish imkoniyatini yaratdi; AirB & B – ijara kvartiralar uchun yangi bozorni yaratib, Booking.com muvaffaqiyatini takrorladi; Uber, Gett - taksi agregatorlari, ko'plab odamlarni kichik biznesga jalb qilishdi, ularga o'zlarining shaxsiy avtomashinalari yordamida pul topish imkoniyatini berdi va shu bilan birga taksi xizmatlarini ancha arzonlashtirdi. Turizm va mehmondo'stlik sanoatida kichik biznesni rivojlantirish uchun raqamlashtirish potentsiali har bir alohida sub'ekt va umuman sohaning moliyaviy va texnologik imkoniyatlariga bog'liq. Bir nechta muhim texnologik imkoniyatlar mavjud.

- Sun'iy aql - sayohatni rejalashtirganda eng moslashtirilgan natijani beradi. Boshqa sayohatchilar tomonidan foydalaniladigan yechimlarni taklif qiladigan mijozlarning imtiyozlari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, AI-tizimlari ta'tilni yoki sayohatlarni tashkil qilishni sezilarli darajada soddalashtiradi va pulni tejashga yordam beradi.

- Narsalarning Interneti - xizmatning "muammosiz" sayohatni ta'minlovchi asosiy elementi - uchish, o'tkazish, mehmonxona, rezervasyon avtomobillar. Ma'lumotlar almashish orqali qurilmalar har xil muammolarni - to'xtash joyi etishmasligidan tortib notanish shaharga yo'nalishni yo'qotishni oldini olish orqali kutilgan natijalarni kamaytirishi mumkin.

1. Robotizatsiya - odamlar uchun tushunadigan va ular bilan ishlashga qodir bo'lgan robot-robotlar texnologiyasi haqiqatga yaqinlashmoqda. Tozalash robotlari allaqachon maishiy texnikaning eng keng tarqalgan elementidir. Kadrlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirgan holda, ushbu uslub, masalan, parvarish qilishni sezilarli darajada osonlashtirishi mumkin Turizm bilan bog'liq kompaniyalar, yangi yo'nalishlar ta'siri ostida, biron bir tarzda reklama takliflarini shaxsiylashtirish uchun o'z mijozlarining operatsiyalari to'g'risida ma'lumot to'plashga harakat qilmoqdalar. Aviakompaniyalar, mehmonxonalar agregatorlari va boshqa

turistik xizmatlarning e'tiborini blockchain texnologiyasi jalb qilgani mantiqan. Ehtimol, u turistik xizmatlar ko'lamini butunlay o'zgartirishi mumkin - sayohatchilarning sayohatlarni rejalashtirishda ishonchliligi to'g'risidagi so'rovi oilaviy mehmonxona biznesi tomonidan qondiriladi.

2. Ovoz texnologiyasi - nutqni samarali aniqlash ko'plab jarayonlarni optimallashtirishga imkon beradi. Ularning yordami bilan, hatto kichik oilaviy mehmonxona ham mijozlarga kechayu kunduz xizmat ko'rsatishi va til to'siqlarini bartaraf qilishi mumkin.

3. Blockchain - "ishonchli raqamli muhit" ni yaratish, bu buyurtmalar, rezervatsiyalar va to'lovlarning ishonchliligini sezilarli darajada oshirishi, ma'lumotlar va xizmatlarning sharhlarining aniqligini ta'minlashi mumkin. faqat blockchain yordamida. Chiptalarni sotib olish, mehmonxonalarni bron qilish va sodiqlik dasturlari to'g'risidagi ma'lumotlar bitta raqamli makonda mavjud bo'lib, xizmatlarni taqdim etishda qatnashgan barcha tomonlarga bir safar davomida yordam berishga, mijozlarning haqiqiy ma'lumotlariga e'tibor berishga va ularning xohish-istaklarini bashorat qilishga yordam beradi. Mehmondo'stlik sanoatida raqamli texnologiyalarni rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- moliyaviy va iqtisodiy faoliyatni raqamlashtirishga katta mablag 'sarflash juda qiyin va ushbu yo'nalishda ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun imtiyozlar va dasturlar ta'minlanmagan);

- tartibga solish (raqamli makonga o'tishda sub'ektlarning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi aniq sohaning yo'qligi, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, hisoblar va taqdim etilgan ma'lumotlarning haqiqiyiligini nazorat qilish);

- umumiy beqarorlik (mamlakatning raqamli makoniga integratsiya qilish uchun mintaqalarning moliyaviy va siyosiy imkoniyatlaridagi tafovut);

- yuqori texnologiyali sohalarga investitsiyalarning etishmasligi, sanksiyalarning ta'siri - bu birinchi navbatda texnologiyalarni uzatish va tayyor echimlarni import qilish imkoniyatlarining cheklanganligi;

- mamlakat aholisining turmush darajasi pastligi (sayohat paytida pulli kontent va Internet-rouming xizmatlaridan foydalangan holda, eng zamonaviy funktsional uskunalarni sotib olish imkoniyatining yo'qligi);

- aholining raqamli savodsizligi (ba'zilar raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari haqida bilishmaydi yoki juda yuzaki bilishadi).

Ushbu sohaning rivojlanishini va uning tarkibidagi raqamlashtirish jarayonlarini qo'llabquvvatlovchi omillar toifasiga quyidagilar kiradi:

- texnologiyani uzatishdan izolyatsiya qilish, biznesni O'zbekistondagi ishlanmalarni moliyalashtirish va joriy etishga majbur qilish;

- axborot texnologiyalarini modernizatsiya qilish va joriy etish orqali biznes jarayonlarini sezilarli darajada optimallashtirishga imkon beradigan "past bazaning" ta'siri;

- yangi xizmatlarning yaratilishini belgilaydigan biznes modellarini o'zgartirish istiqbollari.

Yaqin kelajakda aksariyat sohalar biznes modellari, etakchilar, yangi innovatsiyalarning o'zgarishi bilan bog'liq sezilarli o'zgarishlar bilan ajralib turadi. Yangi tendentsiyalarni hisobga olgan holda, sayyohlik xizmatlari bozorida ishtirokchilar global miqyosda raqamlashtirish natijasi bo'lgan raqamli makonda mijozlar uchun kurashishni rejalashtirmoqdalar va bu savolni: "Yoki kompaniyalar bozorga moslashadi yoki tark etadilar" degan savol tug'diradi. Yechim sifatida ikkita variantdan birini tanlash mumkin. Birinchisi faqat yirik turoperatorlarga mavjud bo'lib, ular mehmonxonalar yoki aviakompaniyalarni o'zlarining xarajatlarini kamaytirib, raqobatlasha olish uchun o'zlarining aktivlari sifatida o'z qo'llariga to'plashlari mumkin. Ikkinchisi kichikroq - bu onlayn rejimga o'tishni va global savdo kanallariga qo'shilishni anglatadi. Bunday holda, aniq afzallik shundaki, turizm xizmatlarini etkazib beruvchilarning sheriklarga bog'liqligi kamayadi, chunki onlayn formatda ular hech kimga foyda keltirmay, to'g'ridan-to'g'ri mijozlaridan pul olishlari mumkin. Yaqin kelajakda

eski turdagi kompaniyalarni meta-qidiruv provayderlari tomonidan siqib chiqarilishi, mijoz bilan o'zaro aloqani ta'minlaydigan yangi texnologiyalarni joriy etishda davom etadi.

Agar bugungi kunda O'zbekiston va chet elda bozorni keng miqyosda raqamlashtirish tezligini bashorat qilish qiyin bo'lsa, bitta haqiqat ravshan - oflayn ofislar tizimida ishlaydigan aksariyat turoperatorlar xavf ostida va yaqin kelajakda o'z faoliyatini to'xtatishi mumkin. Har yili minglab agentliklar yopilmoqda, lekin ko'pchilik mijozlar buni sezmaydilar, chunki ularga yanada qulay alternativa taklif etiladi. Hozirgi bosqichda O'zbekistonda turizm sohasidagi "biznesni raqamlashtirish" tendentsiyasini ta'kidlash mumkin, bu biznesni kengaytirish, yangi texnologik echimlarni qo'llash, real vaqtda dinamik qadoqlash tizimlaridan foydalanish, yangi bron xizmatlari, individual sayyohlarni to'g'ridan-to'g'ri sotish uchun onlayn xizmatlar. o'z-o'zini loyihalashtirish imkoniyati bo'lgan xizmatlar va ta'til paketlari, mehmonxonalarni boshqarish tizimlari, talabni bashorat qilish va narxlarni boshqarish uchun Big Data asosida echimlar. Sayyohlik xizmatlari bozoridagi afzallik sayohatchiga eng moslashtirilgan jarayonni taklif

qiluvchi kompaniyalar tomonidan beriladi. Faqat shu tarzda mijozlarning sodiqligi va biznes foydasi saqlanib qoladi, konversiya kuchayadi va xavfsizlik kuchayadi.

ИННОВАЦИОННЫЙ И ИНВЕСТИЦИОННЫЙ ПУТЬ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

**Кайимова З.А ст.преподаватель кафедры
«Экономика» БухГУ**

Шаропов Фарход магистр 2 курса магистратуры БухГУ

В настоящее время Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым все большее внимание уделяется поддержке научно-инновационной деятельности, на государственном уровне принят ряд постановлений, относящихся к научной и инновационной сфере, которые успешно реализуются.

Модернизация экономики, заявленная одной из основных целей макроэкономической политики нашего государства, предполагает преодоление ускоряющегося технологического отставания страны от мировых инновационных лидеров. Инновационность становится неотъемлемой характеристикой современной экономики, это в равной мере относится к государствам и их сообществам, так и к отдельным компаниям. Инновационная направленность – императив не только сегодняшнего дня, но и ближайшего будущего человеческой деятельности в любой сфере.

На совместном расширенном заседании Сената Олий Мажлиса и Парламента Республики Узбекистан Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев отметил, что ... «Сегодня мы переходим на путь инновационного развития, направленного на коренное улучшение всех сфер жизни государства и общества. И это закономерно. Ведь кто выигрывает в нынешнем стремительно развивающемся мире? Только то государство, которое опирается на новую мысль, новую идею, инновацию. Если мы сегодня начинаем строить наше великое будущее, то должны делать это прежде всего на основе инновационных идей, инновационного подхода».

Руководство страны с 2017 взяло курс на модернизацию отраслей экономики, а также стимулирования экономического роста за счет активизации человеческого капитала и стимулирования инновационной деятельности. Так, в частности Указом Президента Республики Узбекистан УП-5544 от 21.09.2018 г. в стране утверждена Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2019-2021 годы основная цель, которой – вхождение Республики Узбекистан к 2030 году в состав 50 передовых стран мира по рейтингу Глобального инновационного индекса.

В результате, Узбекистан с 2018 года предпринимал активную работу по вхождению и улучшению своих позиций в международных рейтингах таких как Глобальный

инновационный индекс (ГИИ) и Глобальный индекс конкурентоспособности (ГИК), и другие. В 2020 году, Узбекистан был включен в данный рейтинг и занял 93 позицию, по сравнению со 122 местом в 2015 году. Таким образом реформы, происходившие в стране с 2017 года, позволили продвинуться Узбекистану на более чем 25 позиций в мире, опередив такие страны как Египет, Парагвай, Эквадор и другие. Более тщательный анализ профиля Узбекистана в данном индексе показывает, что данный прогресс был обусловлен улучшением по таким показателям как время и число процедур для открытия бизнеса (8-е место в мире), издержки при открытии бизнеса, сложность при подключении к электросетям (36 место в мире), защита миноритарных инвесторов (37 место в мире), обеспечение исполнения контрактов (22-е место), расходы на образование (31-место в мире), соотношению учеников и преподавателей (38-е место), число патентов к уровню ВВП (45 место в мире), доля выпускников в науке и инженерии (7-место).

Для нашей страны сегодня особенно актуален переход к инновационному типу развития экономики, требующему полноценного раскрытия национального научно-технического потенциала. Цель, задачи государственной политики в области развития инновационной системы страны, механизмы и основные меры по ее реализации в настоящее время определены в основных направлениях инновационной политики в области развития инновационной системы, рассматриваемой как совокупность субъектов и объектов инновационной деятельности, взаимодействующих в процессе создания и реализации инновационной продукции и осуществляющих свою деятельность в рамках проводимой государством политики в области развития инновационной системы, — это составная часть государственной научно-технической и промышленной политики.

Она представляет собой комплекс осуществляемых государством социально-экономических мер, направленных на формирование условий для развития производства конкурентоспособной инновационной продукции на базе передовых достижений науки, технологий, техники и повышение доли такой продукции в структуре производства, а также системы продвижения и реализации продукции и услуг на отечественном и мировом рынках. Политика Республики Узбекистан в области развития инновационной системы базируется на равноправном государственно-частном партнерстве и направлена на объединение усилий и ресурсов государства и предпринимателей страны для активизации инновационной деятельности.

В рамках инновационно-инвестиционной стратегии предстоит целеустремленная, интенсивная и масштабная реализация важнейших задач:

- ✓ ускоренное формирование национальной научно-инновационной системы, центральным ядром которой должна стать фундаментальная наука, а стержневым каркасом — научно-инновационные циклы по разработке приоритетных критических технологий;

- ✓ предоставление бесплатно всем слоям населения всеобщего универсального среднего и профессионально-технического образования, позволяющего самостоятельно осуществлять поиск знаний и повышать свой культурный уровень;

- ✓ обеспечение всем желающим гражданам, имеющих способности к самостоятельному научно-инновационному творчеству, социально-правовых предпосылок для получения высшего и послевузовского образования преимущественно бесплатно;

- ✓ организация законодательно организованной различной среды и инфраструктуры на внутривнутриреспубликанском рынке и стимулирование выхода на мировые рынки с изобретениями, открытиями, ноу-хау.

Состав основных элементов национальной инновационной системы схематично представлен на рис.1.

Инновационная система Республики Узбекистан в настоящее время включает:

1) воспроизводство знаний, путем проведения фундаментальных и поисковых исследований в республиканской академии наук, других академиях наук, имеющих государственный статус, а также в университетах страны;

2) проведение прикладных исследований и технологических разработок в государственных научных центрах страны и научных организациях промышленности;




Рис.1. Состав инновационной системы РУз.

1) внедрение научно-технических результатов в производство;

2) промышленное и сельскохозяйственное производство конкурентоспособной инновационной продукции;

3) развитие инфраструктурной составляющей отечественной инновационной системы;

4) подготовку кадров по организации и управлению в сфере инновационной деятельности.

Реализация основной цели научно-инновационной политики и концептуальных задач по переходу к инновационной экономике предусматривается в трех этапах:

Первый этап – предполагает обоснование системно-инновационной стратегии и приоритетов развития науки, макротехнологий и инноваций; формирование национальной научно-инновационной системы; создание законодательно-правовых механизмов развития инновационной экономики и увеличения целевого финансирования инновационно-производственной сферы до 20% ВВП на основе государственной поддержки целевых программ, а также повышения доли бюджетного финансирования фундаментальной науки до 6.5 % в ВВП.

Второй этап – состоит из диверсификации структуры экономики на базе структурно-инвестиционного маневра по обеспечению приоритетного развития наукоемких производств и инновационных технологий с дальнейшим расширением социально-инновационной инфраструктуры на основе развития национальной НИС и развертывания отечественного рынка инноваций и технологий (РИТ), формированием инвестиционно-стимулирующей налоговой системы.

Третий этап – рассматривает переход к структурно-воспроизводственному инновационно-инвестиционному маневру с развертыванием завершенных циклов расширенного инновационного воспроизводства на основе интеграции научного и инновационного потенциалов, восстановления высококвалифицированного кадрового и научного потенциала путем введения всеобщего высшего образования, рассматриваемого в качестве базиса формирования будущего социально-научного сообщества в РУз.

Так в Республике Узбекистан целевые ориентиры инновационного развития экономики на период 2016 – 2020 гг. развития инновационной активности и представлены в таблице 1.

Таблица 1

**Инновационное развитие экономики
за период 2016-2020 гг.**

Показатели	2015 г.	2016- 2020 гг.
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>
Доля затрат на научные исследования к ВВП, %	1,0	3,0
Доля высокотехнологичных отраслей (в % к общему объему ВВП)	15,0	31,0
Доля инновационной продукции (в % к общему объему ВВП)	15,0	22,0
Доля затрат на инновационную деятельность (в % к объему продукции)	2,8	5,0
Доля экспорта инновационной продукции в общем экспорте, %	15,0	28,0
Доля приема студентов по естественным наукам и инженерному образованию, %	40,0	45,0

www.stat.uz

Для достижения намеченных целей должны быть созданы социально-экономические предпосылки и механизмы по решению следующих основных задач:

- 1) обеспечение опережающего развития фундаментальной науки, важнейших прикладных исследований и разработок;
- 2) предоставление государственного программного финансирования научных исследований;
- 3) совершенствование нормативно-правовой базы научной, научнотехнической и инновационной деятельности;
- 4) рациональное сочетание государственного регулирования и рыночных механизмов;
- 5) совершенствование системы подготовки научных и инженерных кадров высшей квалификации в области науки и технологий;
- 6) разработка и модернизация оборонных инноваций;
- 7) повышение экономической и инновационной безопасности в стране.

2020 году принята разработанная Министерством инновационного развития Узбекистана Концепция развития науки Республики Узбекистан до 2030 года, которая определяет основы научного и инновационного развития страны на среднесрочную и долгосрочную перспективу. В концепции определен план поэтапного развития научной сферы в Узбекистане по таким показателям, как:

- ✚ увеличение доли средств, направляемых на науку с 0,2 до 2% от ВВП;
- ✚ увеличение доли Узбекистана в общем количестве статей, опубликованных в международных научных журналах, индексируемых в международной научной базе данных Scopus и Web of Science, с 0,008 до 0,2%;
- ✚ увеличение вовлеченности молодых специалистов в науку и доведение среднего возраста ученых до 39 лет;
- ✚ увеличение состава молодых научных специалистов высшей категории от 11 до 30% в общей численность соискателей в возрасте до 39 лет;

✚ увеличение доли стоимости машин и оборудования со сроком эксплуатации до пяти лет в общей стоимости имеющихся машин и оборудования в научно-исследовательских и реализующих разработки организациях с 12 до 50%.

С учетом существующего инновационного потенциала и вызовов, которые стоят перед системой образования и наукой в Узбекистане в среднесрочной перспективе актуальной остается работа по следующим направлениям:

- популяризация результатов научной деятельности среди населения и вовлечение молодежи в научную деятельность, с учетом повышения генерного равенства в STEM дисциплинах;

- стимулирование научной деятельности высоко-продуктивных ученых и научных коллективов с акцентом на повышение публикаций в передовых и наиболее авторитетных научных журналах Web of Science. Это позволит значительно сократить количество научных статей в изъятых “хищнических” журналах;

- повышение научного потенциала молодых ученых, за счет создания мини лабораторий, работающих по наиболее актуальным узким научным темам, которые имеют возможность публиковать результаты своей научной деятельности в передовых индексируемых научных журналах;

- совершенствование системы финансирования науки и научной деятельности и диверсификация источников финансирования;

- стимулирование инновационной активности на уровне регионов и поиск точек роста для инновационного экономического развития

- создание национального инновационного механизма, представляющего собой систему организационно-экономических и правовых мер и реализацию определенных инновационных проектов, что обеспечит оперативное внедрение результатов исследований в реальный сектор экономики и процесс реализации новой продукции потребителям.

Работа по данным направлениям позволит полноценно использовать потенциал отечественной науки и обеспечить выход на мировой рынок современных технологий, в том числе путем осуществления трансфера и коммерциализации научно-технических разработок.

В целом можно сделать вывод, что Узбекистан обладает базовыми условиями для перехода к инновационному типу развития экономики, сформированы необходимые элементы национальной инновационной системы. Мощным импульсом для развития инновационной деятельности в республике может послужить вовлечение в данную сферу частного, корпоративного и иностранного капитала.

Список использованной литературы

1. Гулямов С.С., Абдуллаев А.М. и др. Инновационный потенциал и его влияние на конкурентное развитие экономики страны - Т.: Фан ва технология, 2016 – 884 с.

2. Абдуллаев А.М. и др. Устойчивое экономическое развитие Узбекистана в условиях глобализации. - Т.: Фан ва технологии, 2016 – 280 с.

3. Управление инновационными проектами / Под ред. В.Л.Попова. - М.: ИНФРА – М.2009.

4. Бальдина К.В. Инвестиции : системный анализ и управление. - М.: Корпорация Дашков и Ко. 2012-288с.

**КОРХОНА ХОДИМЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ
РАЎБАТЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ РАҚОБАТБАРДОШЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ
ОМИЛЛАРИ.**

Турдиева Муқаддас Умаровна
Бухоро Давлат Университети
Иқтисодиёт кафедраси ўқитувчиси
1-босқич таянч докторанти,
Илмий раҳбар и.ф.д., проф
Назарова Фотима Ҳакимовна .

Замонавий иқтисодий шароитда, албатта, инновацион жараёнларни ўз ичига оладиган, ички рақобатбардошликнинг ўсишини таъминлайдиган, интенсив омиллардан устун фойдаланиш орқали минтақаларнинг иқтисодий ўсиш суръатларини ошириш зарур бўлмоқда. Бунда компаниялар асосий макроиқтисодий кўрсаткичларни ошириши ва узок вақт давомида аҳоли турмуш даражаси ўсиши, инновацияларни рағбатлантириш механизмлари билан танлаган замонавий рақамли иқтисодий шароитларга мос келиши ва аниқ ёндашувлар, тамойилларга асосланган стратегия эга бўлиши керак бўлмоқда. Шу боис Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон фармонида ҳам белгиланган вазифалар орасида рағбатлантириш тизимини ишлаб чиқишга катта эътибор қаратилганг.

Ходимларни инновацион фаолиятини рағбатлантириш, сифат жиҳатидан янги маҳсулот, янги технологиялар, ахборот мониторинги, билим ва янги ғоялар, ишланмаларни тақдим этишга қаратилганлиги муҳим аҳамият касб этади. Бу эса ўз навбатида интеллектуал фаолиятни янада юқори даражадаги ижодий натижаларни кенгайтиришга олиб келмоқда. Замонавий шароитда инновацион корхоналар ходимларнинг томонидан яратилган инновацияларни рағбатлантириш даражасини аниқлаш ва уларни рағбатлантириш тизимини ишлаб чиқиш билан боғлиқ бўлган бошқарув тизимини такомиллаштириш зарурлигини эътироф этмоқдалар. Инновацион фаолият шаклланишида мотивлар, эҳтиёжлар ва манфаатларидан келиб чиқиб ташкилотлар томондан рағбатлантириш, вазият омилларининг таъсири, яъни шахсий эҳтиёжлар, муносабат, қизиқишлар, интилишлар, истаклар ва бошқалар билан боғлиқ бўлган ички шароитлар ҳам аҳамиятга эга бўлмоқда. Шунга кўра, бугунги кунда ҳар бир корхонани олдида турган энг муҳим вазифа - ходимларининг фаолиятини ривожлантириш, илғор хорижий тажрибаларни тадбиқ этиш, ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда замон талабларига кўра мутахасисларни ижтимоий кўллаб қувватлашдир.

Мотивация дейилганда шахс ёки корхона фаоллигини ўйғотувчи ва унинг фаолият йўналишини аниқлаб берувчи омиллар жамламаси тушунилиши лозим. Мазкур масалаларни тадқиқ этиш бўйича кўпгина олимларнинг ёндашувлари инновацион фаолият мотивациясининг натижаларини белгилаб беради, бу эса маъмурий, иқтисодий, ижтимоий ва психологик каби асосий масалаларнинг инновацион фаолиятига нисбатан персоналнинг мотивация шакллари ва методларини ажратиб ва классификациясини умумлаштириб беради. Маълумки ички инновацион фаолият шахс ёки корхонанинг мотивлари сабаблари, омиллари, эҳтиёжлари ва манфаатлари билан мотивацияланади, ташқиси эса - рағбатлантирувчи омиллар ёрдамида мотивацияланади, шунингдек вазиятли омиллар ҳаракатининг натижаси бўлиб ҳисобланади. Бундан ташқари, фаолиятга нисбатан субъект эҳтиёжларининг қондирилиши билан боғлиқ бўлган фаолиятга ундаш мотиви, маълум бир кучнинг предметли йўналтирилган фаоллиги, ҳаракатлар ва иш тутишларни танлаш асосида ётувчи аниқланган сабаб каби таърифлар ҳам мавжуд. Мотив тушунчасининг таърифи инсоннинг ўз эҳтиёжларини қондиришга бўлган ички хоҳиш-истаклари сифатида, рағбатлантирувчи омил эса - маълум бир ҳаракатларни бажариш эвазига ўз

эхтиёжларини қондириш воситаларига эга бўлиш имконияти сифатида тушунилади. Кўпинча мотивлар муддати ва стимулни синонимлар сифатида қараб келишади. Бироқ мотив - ички ундовчи куч, интилишдир, стимул эса - маълум бир мақсадли ташқи жўшқинлик. Шунинг учун эҳтиёж - англандан ва англандан муҳтожлик бўлиб, инсон уларга нисбатан ўз организмнинг ҳаёт фаолияти ва шахсияти ривожини учун зарурлигига боғлиқ ҳолда муҳтожлик сезади, манфаатлар эса - бу эҳтиёж бўлиб, у одамларда алоҳида шахсларнинг ва ижтимоий гуруҳлар ва бирлашмалар аъзоларининг эҳтиёжи сифатида бир бутун элемент сифатида юзага келади, уларни умуммиллий, ҳудудий, маҳаллий ва шахсий кўринишларга ажратишади. Умуман айтганда эҳтиёж ва манфаатларни мақсадга мувофиқ равишда турли поғоналарда ўзгартириш ва шакллантириш мумкин. Бироқ эластик ва ноэластик эҳтиёжлар ва манфаатларни фарқлаш лозим бўлади.

Яна бир асосий масалалардан бири рағбатлантирувчи омил ҳисобланади, бу ундаш бўлиб, унинг самараси инсоннинг руҳиятига, унинг қарашларига, ҳиссиётлари, кайфияти, қизиқишларига боғлиқ бўлади. Шахснинг ёки корхонанинг хатти-ҳаракатларига таъсир кўрсата олишга қодир бўлган - вазиятли омилларни ҳам ҳисобга олиш зарур. Турли хил воқеа ҳодисалар ва вазиятларни, масалан, персонал менежменти нуқтаи назаридан - бу вазифанинг мураккаблиги, раҳбарнинг босими, талаблари, вазиятнинг муҳимлигидир, маркетинг нуқтаи назаридан эса - истеъмолчи ва товар ўртасидаги ўзаро таъсирларнинг тасодифий ва кўзда тутилувчи вазиятлар бўлиб, улар бошланишга ёки истеъмол ҳажмларини кенгайтиришга ундайди. Инновацион фаолият мотивациясининг рационал типи фаолиятнинг иқтисодий самарадорлик кўрсаткичларига асосланади, мотивациянинг ахлоқий типи эса - ахлоқий мажбурият ҳислари ва ҳамдардликка асосланади, бунда шахс ёки инновацион фаолият субъекти ўз шахсий ахлоқий тамойилларига амал қилади, бу тамойиллар эса уларни корхонани ёки мамлакат иқтисодиётини ривожлантириш масъулятини зиммасига юклайди.

Мамлакатимиз бизнесининг жиддий муаммоларидан бири ғоялардан тортиб то уларни бозорга киритилишигача бўлган инновацияларнинг амалга оширилишида бўлмоқда. Одатда, бу инновацион фаолликни мотивацияловчи тадбирларнинг паст сифатда эканлиги билан боғлиқ бўлади. Мамлакатимизнинг кўпгина ташкилотлари ўз ўринларини кўрсата олишга ва етарлича ресурсларни жалб қила олишга қодир эмаслар, ўз инновацион таклифларини илгари суришнинг замонавий технологияларидан фойдалана олишга тайёр эмаслар. Фаол инновацион фаолият учун шарт-шароитлар яратиш, инновацион фаолиятни фаоллаштириш ва рағбатлантириш учун шарт-шароитларга қулай заминни шакллантириш кўпроқ даражада ундан фойдаланишнинг ташкилий шакли билан белгиланади. Энг муҳим жиҳатлардан яна бири маҳсулот ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатишнинг ҳар бир ҳаётий цикл босқичларида инновацион жараёнлар мотивациясини таъминлашдан иборатдир. Инновацион мотивациянинг позитив ҳолати - ходимларнинг ўз меҳнатининг мақсадларини, унинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини, маданият ва билим даражасини, шахсга оид сифатлари, жорий ва истиқболлий мақсадларини, меҳнат шарт-шароитлари, корхоналардаги вазият ва шароит аҳволлари ва б. ларни тушуниб етишлари, шунингдек объектив илмий-техник, иқтисодий ва ташкилий шарт-шароитлар ва омиллар билан таъминланиши лозим бўлади.

Корхона ходимларининг инновацион фаолиятини фаоллаштириш ва рағбатлантириш муаммосига мос ҳолдаги сифат ва рақобатбардошлик гуруҳларини яратишдан иборат бўлиб, бунда инновацион мотивациялаш, ташкилий-тузилмавий мотивация концепцияси - корхона бошқарувининг ташкилий тузилмасида сифат ва рақобатбардошлик гуруҳини яратишда, шунингдек бир ёки бир нечта бўлинмалар ходимларини ўзига хос жамоатчилик ташкилий-тузилмавий шакллантиришда ҳисобга олиниши зарур бўлади. Сифат ва рақобатбардошлик гуруҳларини шакллантиришнинг асосий мақсади - умумий ҳолда корхона фаолиятининг бош мақсадларига эришиш учун чиқарилаётган маҳсулотларнинг сифат ва рақобатбардошлигини ошириш вариантларини излаш ишларини фаоллаштириш энг муҳим вазифадур. Шунинг учун сифат ва рақобатбардошлик гуруҳларига максимал

микдорда ташкилот ишчиларини жалб этиш зарур бўлади, бу эса ихтиёрийлик тамойилларига, жамоавий иштирок этиш ва раҳбарият томонидан қўллаб-қувватланиш, гуруҳнинг ҳар бир аъзосини тизимли равишда ўқитиб бориш ва малакасини ошириш тамойилларига таянмоғи зарур. Бундай гуруҳларда ижод ва мусобақа руҳи қўллаб-қувватланиши, инновацион фаолиятни фаоллаштиришнинг илғор методлари кенг қўлланилиши лозим. Сифат ва рақобатбардошлик гуруҳларини ташкилий-методик бошқаришни корхона раҳбарлари ёки махсус тузилган кенгаш амалга оширади. Сифат ва рақобатбардошлик гуруҳлари ишининг самарадорлиги кўпроқ ишчи-ходимларнинг оммавий иштирокига боғлиқ бўлади, бу эса ташкилотчиларнинг ғайратли ва режавий ишлашлари билан таъминланади. Шундай шарт-шароитлар яратилиши зарурки, бунда ходимлар ва ҳар бир ишчи-ходим алоҳида тарзда, уларнинг мансубликларидан қатъий назар ўзларининг шахсан кераклилиги ва талаб этиладиганлардан эканликларини ҳис этишлари, уларнинг меҳнатлари шарафли ҳисобланишини ва юқори сифатли иш ҳурматга сазовор бўлишини ва адолатли тўлов билан мукофотланишини тушунишлари аҳамиятли бўлади. Фақат шундай ҳолатдагина барча категориядаги ходимлар ўзларининг ва ўзгалар меҳнатининг сифатли бажарилишига талабчан бўлишади. Корхоналарда инновацияларни сифатли тарзда бошқариш учун стратегик йўналишга эга бўлиш зарур, бу эса уларнинг фойдаланилишида ташкилотнинг ҳолатига сифат жиҳатдан ва одатда узоқ муддатли тарзда таъсир кўрсатиши олдиндан белгиланган бўлади, шунинг учун вазиятли таҳлил билан ва илмий-техник потенциалнинг ташқи ва ички омиллар истиқболи билан бевосита алоқа зарур.

Бугунги кунда инновацион фаолиятни ривожлантиришнинг нафақат ижобий томонлари, балки уни тўхтатиб (ушлаб) турувчи томонлари ҳам мавжуд. Масалан, инновацион фаолиятни амалга оширишда тажрибаларнинг етарли эмаслиги, инновацион фаолият соҳасидаги номукамал меъёрий-ҳуқуқий база, инновацион фаолиятни амалга оширувчи корхоналар учун имтиёз ва преференцияларнинг йўқлиги ёки чегараланганлиги, юқори малакали мутахассислар тайёрлаш ва қайта тайёрлаш муаммолари, ноқулай инвестицион муҳит, ривожланган инновацион инфратузилманинг йўқлиги, саноат корхоналарининг эскирган моддий-технологик базаси ва ҳ.к. Шунинг учун компаниялардаги инновацион фаолиятнинг ривожланишига тўсқинлик қилувчи, иқтисодий таназзул натижалари ва асосратларига таъсир кўрсатувчи омиллар таҳлилининг ўтказилиши зарур, шунингдек инновацион лойиҳаларни амалга ошириш учун шахсий молиявий маблағларнинг ҳам етарли эмаслиги шулар жумласидандир.

Шунга кўра, инновацион фаолиятни рағбатлантириш мотивациянинг асосий ташкил этувчи функцияларидан бири ҳисобланиб, уларнинг ягона мажмуа кўринишида бўлишини, ўзароалмашинувчан ва ўзаротўлдирувчи қобилятга эга бўлишини тақазо этади, бу эса ўз навбатида барча мотивлар ва стимуллар тизимини бир бутунлик даражасида қайта кўриб чиқиш зарурлигини белгилаб беради. Инновацион фаолият мотивацияларининг бундай бир бутун тизимини яратишдаги дастлабки қоидалар унинг амалга оширилишидаги ёндашув, шакл ва босқичларни аниқлаб олишдан иборатдир. Бизнинг фикримизча, инновацион фаолият билан шуғулланувчи корхоналар ишчи-ходимларини мотивациялаш ва рағбатлантириш замонавий иқтисодиёт шароитида ўта муҳим ўрин эгаллайди. Ташкилот ичкарисида ишчи-ходимларнинг инновацион фаолиятини рағбатлантириш икки тарафламалик асосга эга бўлиб, бу уларнинг меҳнат фаолиятларини моддий ва номоддий рағбатлантиришга нисбатан ҳам, инсон фаоллигига таъсир кўрсатувчи ички ва ташқи таъсирларга нисбатан ҳам тааллуқлидир, бундай ҳолатлар эса кўпинча мотивация тушунчаси билан ва унинг амалга оширилишидаги шахсий-хулқий ёндашув билан бевосита боғланади. Хозирги вақтда, мавжуд бўлган халқаро ташкилотлар томонидан фойдаланилувчи ишчи-ходимларни мотивациялаш тизимлари комбинациялар вариантлари ва ўзига хос ёндашувларнинг турличалиги билан фарқланади. Бугун дунёнинг деярли барча мамлакатлари билимлар ва иқтисодий амалиётларнинг янгиланиб борилаётган мураккаб даврга, рақамлаштириш, ахборот-

коммуникация технологиялари даврига кириб келмоқда, бундай даврда эса интеллект жамиятнинг барча ҳаётий шарт-шароитлар комплексига, айниқса корхоналар фаолиятига муҳим таъсир кўрсатади. Бу ўринда халқаро тажрибалардан фойдаланишда корхоналарнинг ўзига хос жиҳатлари ва хўжалик юритиш муносабатларининг рақамли ахборот-коммуникация каналларини ривожлантириб боришга асосланувчи замонавий босқичларни ҳисобга олиш зарур. Айнан халқаро ташкилотлар учун характерли бўлган ходимлар мотивациясининг ўзига хос масалаларини такомиллаштириб борилишида кўпгина бундай тузилмалар аввалданок ишчи-ходимлар меҳнатига ҳақ тўлашнинг етарлича юқори поғонасини мўлжаллашган бўлиб, холбуки ишчи-ходимларнинг аксарияти малакали мутахассислар ҳисобланишади. Инновацион ташкилотлар доирасида бугунги кунда ўзида ҳам экстенсив, ҳам интенсив элементларни мужассам этувчи ходимларни мотивациялашнинг мураккаб тизимидан фойдаланилиб келинмоқда. Бу ўринда солиштирма ҳиссаси сезиларлича катта ҳажмга эга бўлмоқда, бу эса шу тарздаги ўлчамлар ва йўл тутишлар оқибатида келиб чикувчи яна ҳам узокроқ муддатли натижа билан ҳам ва шунингдек моддий рағбатлантиришларнинг табиий тарзда чегараланиши билан ҳам тушинтирилади. Шунингдек таъкидлаш зарурки, борган сари яна ҳам мураккаброқ ва шунинг учун ҳам кўпроқ амалий натижа берувчи мотивация тизимларининг пайдо бўлиши инновацияларни яратувчи ва амалга оширувчи ходимларни бошқаришда моддий ва номоддий мотивацияларнинг аҳамиятини кетма-кет изчил тарзда ошириб борилишини билдиради, бу эса корхоналардаги мотивациялаш курулларидан бирига айлади деб ҳисоблаймиз.

Хулоса қиладиган бўлсак, миллий рақобатбардошликни ошириш учун инновацион муҳитда ваколат асосида жамоат ва хусусий манфаатларнинг яқинлашишини рағбатлантирувчи тизимни долзарб ҳолатда шакллантириш ва сақлаш муҳим аҳамиятга эга. Шундай қилиб, инновацион фаолиятни рағбатлантириш, иқтисодий ва ижтимоий эҳтиёжларни олдиндан белгиланиши, корхоналарнинг инновацион ривожланишига олиб келади. Бу эса ўз навбатида инновацион фаолиятни молиялаштириш давлат томонидан яъни, банк кредитлари, инвесторлар таклиф этган маблағлари, инновацион маблағлар, инвестиция ва венчур фондлари, "бизнес фаришталари" маблағлари, краудфандинг ва корпоратив фойда каби манбалар ҳисобидан амалга оширилиши мумкин эканлигини таклиф сифатида айтиб ўтиш мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Мирзиёев Ш.М. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 48 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 28 апрелдаги “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-4699-сонли қарори

3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. // Халқ сўзи, 2017 йил 15 январь.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли фармони

5. Ильин, Е. П. Мотивация и мотивы / Е. П. Ильин. - СПб: Питер, 2013. - 225 с.

6. Литвинова, А. В. Формы стимулирования инновационной деятельности и принципы их реализации / А. В. Литвинова, М. В. Парфенова // Друкерровский вестник. - 2015. - № 1. - С. 53-63.

7. Digital Economy and Society Index 2017 [Electronic resource]. - URL: <https://ec.europa.eu/digital-singlemarket/en/desi> (access date: 10.01.2019).

8. <https://reserchjet.academiascience.org/index.php/rjai/article/view/264>

ОСОБЕННОСТИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРОЕКТОВ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА

Пулатова Д

ТГЭУ, старший преподаватель кафедры
«Корпоративная экономика
и бизнес аналитика».

В настоящее время в Узбекистане проводятся крупномасштабные реформы, требующие привлечения значительных финансовых ресурсов, в том числе из государственного бюджета. В то же время как показывает мировой опыт, для финансирования инфраструктурных проектов можно привлечь средства частного бизнеса на условиях государственно-частного партнерства. Инструменты государственно-частного партнерства за счет внебюджетных источников способны привлечь финансирование в капиталоемкие долгосрочные проекты.

Мировой опыт реализации инвестиционных проектов, связанных с развитием инфраструктуры, проектированием, реконструкцией, строительством спортивных сооружений или с эксплуатацией объектов капитального строительства, а также с возведением социально значимых объектов, также показывает, что наиболее эффективной формой является государственно-частное партнерство (ГЧП). Как правило, такие проекты сопровождаются подписанием концессионного соглашения или соглашения о ГЧП. Однако для формирования и развития государственно-частного партнерства требуется принятие в Узбекистане специального Закона о государственно-частном партнерстве, который позволит развиваться нормативно-правовой базе реализации проектов в условиях ГЧП.

Принятие закона могло бы конкретизировать нормы, установленные на государственном уровне, а также определить конкретные механизмы взаимодействия органов государственной власти и инвесторов - инициаторов ГЧП-проектов. Кроме того, закрепление в законе порядка применения ГЧП-инструментов позволило бы снизить правовые риски, разрешить правовые коллизии, восполнить пробелы, устранив тем самым правовую неопределенность в толковании отдельных норм закона. Это способствовало бы существенному повышению доступности финансовых ресурсов на банковских и фондовых рынках, а, значит, большей привлекательности ГЧП - проектов для частных инвесторов.

К моделям проектного финансирования в практике ГЧП относятся:

- государственные бюджетные кредиты на возвратной основе или бюджетные ассигнования на безвозмездной основе;
- различные виды кредитных линий и банковских кредитов;
- корпоративное финансирование, заключающееся в покупке ценных бумаг или участия в уставном капитале предприятия;
- размещения кредита среди инвесторов методом секьюритизации;
- эмиссии и размещение «проектных облигаций» без права регресса.

Важная роль в проектом финансировании отводится непосредственно анализу инвестиционного проекта на предмет окупаемости, гарантированности денежного потока.

Если при обычных кредитных операциях банк первостепенное значение придает изучению кредитной истории заемщика, оценке его финансового и экономического положения, включая оценку имущества, используемого в качестве залога, то при проектом финансировании основное внимание уделяется проектом анализу. Его объектом является проектная документация, в качестве которого используется технико-экономическое обоснование проекта, и он имеет своей целью определить финансовую и экономическую эффективность инвестиционного проекта, уточнить затраты, источники кредитования, оценить риски и т.д.

Особое внимание в проектном анализе уделяется выявлению и оценке рисков, связанных с реализацией инвестиционного проекта. Для этого используются такие методы, как оценка чувствительности проекта, определение «точки безубыточности» и другие.

Существуют различные источники финансирования ГЧП-проектов, однако некоторые из них могут быть использованы лишь на определенном этапе проекта, в то время как другие являются основой для начала работ.

Как у любой коммерческой организации источники финансирования можно разделить на внутренние и внешние. К внутренним источникам относятся полученная прибыль и формируемые из неё фонды в виде амортизационных отчислений, страховых возмещений, предоставляемых земельных участков, основных фондов и др.

Внешние источники финансирования ГЧП проекта зависят от состава и размера привлекаемых средств, направленности проекта, объемов предстоящих работ и затрат и других факторов.

Часть средств включается в состав собственного капитала проектной компании. Это могут быть акционерный капитал; средства учредителей; государственные субсидии; средства, выделяемые в рамках государственных целевых программ, и др.

Остальные источники финансирования привлекаются в виде заемных банковских займов, основными из которых являются: займы, предоставляемые небанковскими организациями (например, ломбардами, кредитными союзами и др.); облигационные займы; государственные займы; коммерческие кредиты; лизинг и др.

Отдельное внимание хотелось бы обратить на всё ещё недостаточно развитую, но эффективную форму привлечения источников – лизинг, и некоторые возможности привлечения средств, редко используемые в настоящее время в Узбекистане.

При лизинге лизингодатель предоставляет материальные ценности лизингополучателю в аренду на разные сроки без перехода прав собственности. Лизингополучателем может выступать государство, частный бизнес или проектная компания. При этом в случае использования финансового лизинга по окончании срока аренды лизингополучатель имеет право выкупить объект лизинга по остаточной стоимости. При использовании операционного лизинга лизингополучатель не намерен приобретать арендованное имущество. Использование лизинга вместо кредита на покупку оборудования позволяет сократить ежемесячные платежи, а также уплачивать меньший размер налогов за счет отсутствия на балансе компании имущества, с которого уплачивается налог.

Инфраструктурные облигации позволяют частному капиталу участвовать во взаимовыгодных проектах с государством, снижая бремя последнего по несению расходов на строительство и содержание общественной инфраструктуры для снятия ограничений экономического роста в стране.

Теперь дадим характеристику каждому виду приведенных выше финансовых инструментов. Интерес к становлению государственного частного партнерства проявляется в настоящее время Узбекистан.

Одним из основных механизмов привлечения инвестиций для успешного развития государственно-частного партнерства является финансирование инфраструктурных проектов посредством выпуска и размещения инфраструктурных облигаций, когда выпуск облигаций осуществляется под поручительство государства.

Инфраструктурными облигациями являются облигации, эмитируемые специальной проектной компанией (SPV -special purpose vehicle) с целью привлечения денежных средств, предназначенных для финансирования создания или реконструкции объектов инфраструктуры (автомобильных дорог, железных дорог, аэровокзалов, линий электропередач и т. д.), исполнение обязательств по которым обеспечено в размере и порядке, предусмотренном законодательством.

Важно отметить несомненные преимущества выпуска и размещения инфраструктурных облигаций. Данный вид облигаций имеет определенные преимущества, к числу которых относятся следующие:

- привлечение негосударственного финансирования для инвестиций в объекты государственного значения;
- сокращение государственных расходов на содержание (эксплуатацию) объектов инфраструктуры;
- разделение рисков проекта между государством и частными инвесторами;
- обеспечение экономически эффективного управления реализацией проекта путем передачи управленческих функций частному инвестору;
- привлечение современных, высокоэффективных технологий в развитие инфраструктуры.

Все инфраструктурные облигации можно разделить на две группы: на облигации общего покрытия и облигации, которые обеспечены доходами от проектов. Второй тип облигаций заслуживает особого внимания, так как выпускаются они в расчете на доходы от реализуемых проектов.

К выпуску и размещению инфраструктурных облигаций государство прибегает тогда, когда оно заинтересовано в частных инвестициях при сохранении за собой собственности на объект. Среди достоинств выпуска и размещения инфраструктурных облигаций важно отметить его универсальность: оно может использоваться в большинстве отраслей экономики, с его помощью можно развивать железнодорожный, подземный транспорт, возводить объекты инженерной, коммунальной инфраструктуры, энергетики, телекоммуникации, объекты здравоохранения, образования, культуры, туризма и спорта.

Другим видом альтернативных инструментов привлечения денежных средств под ГЧП проект является мезонинный кредит. Мезонин представляет собой некий симбиоз долгового финансирования и финансирования собственным капиталом. Как известно, долг - это самые дешевые деньги, а собственный капитал - самые дорогие деньги. Мезонинное финансирование занимает промежуточное положение: предоставляемый финансовый ресурс стоит дороже долговых денег, но дешевле собственных.

Мезонинным кредитом считается необеспеченный кредит, т.е. кредит предоставляемый без залога имущества или имеющий глубоко субординированную структуру обеспечения. Последнее характеризуется тем, что залоговое право имеет на имущество третьей очереди, но без права регресса в отношении заемщика. Такой кредит предоставляется на срок не менее 3-5 лет с погашением тела кредита в конце срока. Суть и смысл мезонина состоит в том, чтобы позволить компаниям — инициаторам проектов осуществлять большие инвестиции, не обладая при этом значительным капиталом. Кредиторы по мезонинным кредитам, совмещая в одном лице и кредитора, и инвестора, обычно предпочитают заемщиков с мощным потенциалом роста. При этом инвестор несет повышенные риски по сравнению с обычным банковским финансированием и, соответственно, рассчитывает на повышенную доходность от своих инвестиций. С точки зрения условия финансирования мезонин является гибридом между долговым финансированием и прямыми инвестициями, а его использование может позволить оптимизировать условия параллельного получения банковского займа под определенный проект.

Говоря упрощенно, мезонинное финансирование представляет собой некий промежуточный финансовый инструмент финансирования проекта. Мезонинный долг будет взыскан раньше, чем долг по акционерному капиталу, но позже чем долг по заемному финансированию.

Мезонинное финансирование занимает промежуточное положение, предоставляемый финансовый ресурс стоит дороже долговых денег, но дешевле собственных. Существуют различные виды мезонинного финансирования, каждый из

которых обладает уникальными характеристиками. Наиболее распространенными формами мезонинного финансирования являются субординированный кредит, совместный кредит, «спокойное» участие, участие в прибыли и конвертируемые облигации.

Таким образом, финансирование ГЧП проектов имеют свои характерные особенности. Прежде всего, можно использовать средства государственного бюджета, однако в современных условиях, когда бюджет ограничен, требуется найти инновационные источники финансирования ГЧП проектов. В последние годы в зарубежных странах широкое распространение получили инновационные инструменты финансирования, к числу которых относятся: инфраструктурные облигации, мезонинные облигации и мусорные облигации.

В связи с реализацией в Узбекистане структурных реформ, определенных Стратегией действий по пяти приоритетным направлениям развития страны на период 2017-2021 годы широкое развитие получит государственно-частное партнерство. Реализация ГЧП проектов потребует значительных финансовых ресурсов, источниками которых могут быть инновационные инструменты. Однако для этого потребуются внести изменения в Закон Республики Узбекистан «О ценных бумагах». Кроме того, важно изменить стиль мышления местных инвесторов. Чтобы они поверили в легитимность инновационных инструментов, используемых для привлечения средств в ГЧП проекты.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ОБОРОТНЫХ СРЕДСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ

М.Ж. Бауетдинов,

PhD, Тошкентский государственный экономический университет

Совершенствование практики финансирования оборотных средств предприятий хозяйствующих субъектов позволяет обеспечить непрерывность их деятельности, повысить уровень инновационной активности в объеме производимой продукции.

В практике развитых стран при финансировании оборотных средств предприятий широко используются деньги, полученные от кредитов коммерческих банков и продажи ценных бумаг. Однако уровень использования кредитов коммерческих банков предприятиями республики невысок. Кроме того, эмиссионные операции, осуществляемые ценными бумагами предприятий не развиты.

Приведенные выше случаи свидетельствуют о необходимости научного исследования вопроса совершенствования практики финансирования оборотных средств предприятий.

На современном этапе развития экономики Республики Узбекистан обеспечение конкурентоспособности экономики страны за счет модернизации и диверсификации предприятий реального сектора экономики является основным приоритетным направлением экономической политики государства.

Особое внимание уделяется перевооружению деятельности предприятий с технической и технологической точек зрения, обеспечению реализации программ локализации и созданию Свободных экономических зон в целях выполнения задач, поставленных в рамках данного направления.

В настоящее время существуют проблемы, связанные с финансированием внешнеэкономической деятельности хозяйствующих субъектов в Республике Узбекистан. Одна из таких проблем заключается в том, что основная часть документированных аккредитивов, открытых банками, состоит из обеспеченных аккредитивов.

В настоящее время аккредитивы, которые предоставляются коммерческими банками в общем объеме документально подтвержденных аккредитивов, открытых для импорта, занимают высокое значение. Сумма аккредитива снимается с текущего счета

клиента и депонируется на отдельный счет. Это негативная ситуация, во-первых, определенная часть валютных средств, принадлежащих импортерам, покинет их экономический оборот; во-вторых, коммерческие банки будут лишены возможности получать большой объем дохода от операций, связанных с открытием аккредитивов.

Причина широкого использования обеспеченной аккредитивной формы международных расчетов в развивающихся странах заключается в том, что эти страны признаны экспертами международных базелинговых и других влиятельных международных организаций зоной высокого риска. Поэтому в международных экономических отношениях с этими странами они используют формы международных расчетов, при которых платежи гарантированы и существует высокая вероятность обеспечения гарантии платежа.

Еще одной актуальной проблемой, связанной с финансированием внешнеэкономической деятельности хозяйствующих субъектов в республике, является затягивание процесса перевода денежных средств хозяйствующих субъектов в иностранную валюту. Некоторые предприятия перевели необходимые для майнинга денежные суммы со счета кредитов коммерческих банков на блокчейн республиканской валютной биржи. В результате удлинения процесса добычи эти хозяйствующие субъекты несут двойные убытки. С одной стороны, они фактически выплачивают проценты за неиспользованный банковский кредит; с другой стороны, в результате девальвации суммы по отношению к иностранным валютам они вынуждены перечислять дополнительные деньги на блок-счет. В результате это негативно сказывается на платежеспособности и финансовой устойчивости предприятий.

Еще одной актуальной проблемой в этой связи является отсутствие практики бонификации кредитов, предоставляемых банками экспортерам.

таблица № 1

Определение платежеспособность предприятий по уровню их совокупного денежного потока относительно их совокупных обязательств [8]

Норма совокупного денежного потока по отношению к совокупным долговым обязательствам	Классы платежеспособности кредитных платежей
0,75	I
0,50	II
0,30	III
0,25	IV
0,20	V
0,15	VI

Внедрение практики бонификации позволяет увеличить объем кредитов, предоставляемых коммерческими банками экспортерам. Несоблюдение показателей установленного экспортного плана свидетельствует о наличии факторов, негативно влияющих на внешнеэкономическую деятельность хозяйствующих субъектов.

1. В целях повышения уровня финансирования промышленных предприятий за счет кредитов коммерческих банков необходимо повысить уровень кредитоспособности за счет обеспечения стабильности их денежного потока.

Для этого, во-первых, необходимо реалистично оценить их денежный поток, используя метод оценки денежного потока, основанный на сравнении входных и выходных денежных потоков; во-вторых, необходимо достичь разумного соотношения между притоками и оттоками денежных потоков.

В международной практике путем деления общего денежного потока предприятия на сумму всех долговых обязательств определяется его кредитоспособность (таблица № 1).

Как видно из данных таблицы 1, чем выше уровень совокупного денежного потока предприятия по отношению к совокупным долговым обязательствам, тем выше уровень его платежеспособности.

2. Необходимо добиться увеличения объема источников финансирования их оборотных средств за счет обеспечения инвестиционной привлекательности ценных бумаг промышленных предприятий.

Для обеспечения привлекательности инвестиций в ценные бумаги промышленных предприятий необходимо, во-первых, не допустить снижения реальной стоимости инвестиций в эти ценные бумаги под влиянием финансовых рисков; во-вторых, необходимо обеспечить умеренный и стабильный уровень рентабельности предприятий.

3. Для того чтобы уменьшить размер должников на промышленных предприятиях, необходимо установить оплату проданных ими токенов через документально подтвержденные аккредитивы и чеки.

В настоящее время более 60 процентов безналичных расчетов между предприятиями приходится на долю платежей, произведенных через платежные поручения. Об этом свидетельствует отсутствие совершенствования практики использования безналичных расчетных форм, которые осуществляются через аккредитивы.

Влияние аккредитивов, используемых в практике нашей республики, на объем безналичных платежей очень невелико. Кроме того, основная часть документированных аккредитивов приходится на вклад обеспеченных аккредитивов. В результате этого определенная часть средств, принадлежащих субъектам экономики, выпадает из их хозяйственного оборота.

Несвоевременная доставка токенов приведет к снижению реальной стоимости внесенных средств. При этом учитываются изменения уровня инфляции и девальвации.

Использование необеспеченных и безотзывных форм документированных аккредитивов позволяет коммерческим банкам получать большой доход, снижая объем неплатежеспособности между предприятиями.

КОРХОНАЛАРДА ИННОВАЦИЯЛАРНИ СОҶА ТАРМОҚЛАРИДА САМАРАЛИ ЖОРИЙ ЭТИШ СТРАТЕГИЯСИ

Назарова Умида Авазовна
мустақил тадқиқотчи

Миллий иқтисодий тизимнинг ривожлантириши муҳим йўналишларидан яна бири инновацияларни соҳа тармоқларига самарали жорий этишдир. Инновацияларни жорий этиш бир қатор назарий ва амалий тавсифга, шунингдек маълум таваккалчиликка эга бўлган мураккаб жараён эканлигини таъкидлашимиз мумкин. Шу билан бирга, бу ҳолат кишиларни инновацион тизимини яхшилаш йўлидан тўхтатмаслиги лозим, ақс ҳолда у анча вақтгача эскирган усуллардан фойдаланиш ҳавфини юзага келтиради, ҳамда ижтимоий ва маданий ривожланиш даражасининг пасайишига олиб келиши мумкин. Шунинг учун инновацион тадбиркорликни жадал ривожланишида самарали фаолият кўрсатиш учун инновацион тизим шароитини яратиш муҳим. Тадбиркорлик субъектлари сони ортиб бораётган, жадал бизнес юритишда инновацион ғояларни ривожланишида илмий ва технологик фаолиятини юритиш талаб этилади.

Инновацион тадбиркорлик деганда техник ва технологик янгиликларни тижоратлаштириш мақсадида яратиш ва улардан фойдаланиш деб тарифланади. Инновацион тадбиркорлик фаолият юритишда махсулот ишлаб чиқариш ва хизматлар соҳасидаги инновацияларга асосланади ҳамда сифат жиҳатидан турлича бозорни шакллантиришга, янги имкониятларни очиб беришга ёрдам беради. Бу эса инновацион тадбиркорликнинг ўзига хос воситаси бўлиб хизмат қилади. Инновацион тадбиркорликни сифат жиҳатидан янгиликларни яратишдаги махсус инновацион жараёни, шунингдек

инновацияларни доимий равишда изланиши, инновацион таркибий қисмга йўналтирилган иқтисодий жараён сифатида ҳам таъриф этиш мумкин. Бу тадбиркорларнинг янги бизнес-лойиҳани амалга оширишда, таваккал қилишда, шунингдек маънавий, молиявий ва ижтимоий маъсулияти кай даражада эканлиги ва тайёрлиги билан боғлиқ. Шу боис инновацион тадбиркорликни оммавий техник ва иқтисодий жараён деб талқин қилишимиз мумкин, уни амалга оширишда инновацияларни амалий синовлари орқали энг яхши ва сифатли янги маҳсулотлар, ишлар, хизматлар ва технологияларни яратишдаги мақсадлар деб ҳисоблашимиз мумкин.

Олимлар томонидан яратилган иқтисодий адабиётларда инновацион соҳада тадбиркорликга хар хел карашлар келтирилган, масалан ташқи ташкилий тизимга асосланган инновация соҳасидаги тадбиркорликдаги инновацион маҳсулот ёки технологияларни шакллантириш ва сотишга буюртма бериш учун учинчи томон корхоналари ўртасида шартномалар тузиш орқали деб карашса, айримлари самарали фойдаланиш учун меҳнат унумдорлигини ошириш, хом ашё ва бошқа ресурсларни тежашга йўналтирилган корхонанинг ишлаб чиқариш потенциалини доимий равишда янгиланиб турадиган инновацион технологиялар деб карашади. Бази олимлар эса, технологик янгиликлардан фойдаланишда корхона даромадлари ҳажмини ошириш, корхона ишчиларининг техник жиҳозларини яхшилаш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш чораларини кўриш, компаниянинг ички ахборот тизимларидан самарали фойдаланиш имкониятлари деб кайд этадилар. Физни фикримизча ишлаб чиқилгани инновацион маҳсулотларни корхона томонидан маҳсулотларни сотиш бозорларини доимий ва сифат жиҳатидан янгиланган туриш, корхона бақркарорлиги учун етарли шарт-шароитларни таъминлашда янгича ёндашув, олинган фойда ҳажмини ошириш, бозор сегментини янада кенгайтириш ва миқдорлар билан самарали ҳамкорлик қилиш усулларини замонавийлаштириш орқали иш ўринлари ташкил этиш.

Инновацион тадбиркорликни амалга оширишда янги ғояларни фаол излаш ва уларни ҳаётга татбиқ этиш даражасини таҳлил этиш орқали бизнес-режани тугри шакллантириш, фаолият учун зарур манбалар билан таъминлаш, инновацион компанияни бошқариш механизминини яратиш, инновацион ғоялар ва улар истиқболини белгилаш, инновацион маҳсулот ишлаб чиқариш ва уларни бозор шароитида синаш тажрибаси утказиш ва бозорга олиб чиқиш мувофиқ деб билам. Инновациялар соҳасидаги юқорида кўрсатилган тадбиркорлик фаолиятида янги навларини яратиш ва ривожлантириш, ишлаб чиқариш, қадриятлар ва имтиёзларни ривожлантиришга асосланганиши лозим. Шу боис инновацион тадбиркорликнинг асосий тамойили илмий-техник маҳсулотлар, ишлар ва хизматлар, ахборот тадбирлари, интеллектуал қадриятларни яратиш ва ишлаб чиқаришдир.

Инновация соҳасидаги тадбиркорлик, бошқа соҳаларига қараганда кўпроқ таваккалчиликнинг юқори даражаси билан боғлиқ, чунки кўпинча инновацион соҳада муваффақиятли натижаларга эришиш учун тўлиқ кафолатлар мавжуд емас. Компания ва ташкилотларда бундай хавф, шубҳасиз, анча паст бўлади, чунки у асосан ташкил этилган ва диверсификация қилинган иқтисодий фаолиятнинг асосий тури миқёсида каралади. Инновацион таваккалчилик қанча юқори бўлса, инновацион лойиҳа шунчалик маҳаллийлаштиришга қаратилади. Шу боис ўхшаш бир нечта лойиҳалар олиб борилаётган бўлса ва улар диверсификацияланган бўлса, асосан хавф кискаради ва инновация соҳасида муваффақиятли тадбиркорлик эҳтимоли ошади. Бундай ҳолатларда корхона ва ташкилотларда инновацион технологияларга катта қизиқиш уйғанади. Бунда инновацион хавфлар, инновациялар соҳасидаги лойиҳани нотўғри танлаш ва молиялаштиришнинг этишмаслиги билан боғлаш мумкин. Шу билан биргаликда мавжуд ресурсларни етказиб беришда маркетинг хатарлари, шартнома шартларига риоя қилмаслик хавфи, кутилмаган харажатлар ва даромадларнинг камайиши, рақобатнинг кучайиши, кадрлар сиёсатининг етарли даражада эмаслиги, инновацион лойиҳага мулк ҳуқуқини бермаслик хавфлари ҳам булиши мумкин.

Инновациялар соҳасидаги хатарларнинг асосий сабаблари қуйидагилар:

- компаниянинг инновацион стратегиясининг энг муҳим йўналишлари аниқланганда, инновацион лойиҳани тўғри танлашга катта аҳамият бериш лозим;

- мутахассисларнинг компаниянинг жорий молиявий ҳолатини таҳлил қилиш ва уни инновацион бозорда янада ривожлантириш истиқболларини нотўғри ҳисоблашлари. Эҳтимол, инновацион лойиҳани ишлаб чиқишда белгиланган параметрларни қайта кўриб чиқиш керак бўлади. Шу сабабли инновацияларни жорий этиш мақсади ресурс ва энергия тежайдиган технологияларни ривожлантиришдан иборат бўлиши керак. Шу билан бирга, компания инновацион лойиҳанинг асл мақсадини амалга ошириш учун маълум харажатларни талаб қилиши мумкин ва агар инновацион лойиҳанинг табиати ўзгарса, бу харажатлар ортиқча бўлади ва бундан ташқари, илгари тақдим этилмаган кўшимча харажатларга эҳтиёж пайдо бўлади.

- инновацион маҳсулотни истеъмол қилиш бозорини нотўғри таҳлил қилиш ва баҳолаш. Ушбу ҳолат олимлар томонидан индивидуал равишда ишлаб чиқилган "муаллифлик" инновацион лойиҳаларига хосдир.

Умуман олганда, ҳар қандай бошқа тадбиркорлик фаолиятида бўлгани каби, инновацион тадбиркорлик фаолиятида таваккалчиликни бутунлай четлаб ўтиш ҳақиқат эмас, чунки инновациялар ҳар доим юқори даражадаги таваккалчилик билан боғлиқ. Юқорида айтиб ўтганимиздек, инновацион фаолият юқори даражадаги ноаниқликка эга. Қайси аниқ янгилик бозорда муваффақиятли бўлишини ва қайси янгилик умуман талаб қилинмаслигини олдиндан айтиш жуда қийин. Шундай қилиб, инновацион корхоналар, биринчи навбатда, ҳатто лойиҳани танлаш босқичида мумкин бўлган хатоларга йўл қўймаслик учун инновацион бизнес лойиҳаларини синчковлик билан таҳлил қилишлари ва баҳолашлари керак.

Инновацион хавфни камайтиришнинг асосий усуллари қуйидагилардан иборат:

- бир-бири билан бевосита боғлиқ бўлмаган турли хил инновацион лойиҳаларни амалга ошириш мақсадида инновацион корхонанинг инновацион саъй-ҳаракатлари ва инвестициялари тарқалишидан иборат бўлган инновацион тадбиркорликни диверсификация қилиш;

- топширувчи ва қабул қилувчи томонлар учун ўзаро фойдали бўлган шартнома тузиш орқали хатарларни ўтказиш;

- бошқарилиши мумкин бўлган хавф омилларига тўғридан-тўғри самарали бошқарув таъсири (инновацион лойиҳани таҳлил қилиш ва баҳолаш; инновацион лойиҳани амалга ошириш учун потенциал шерикларни аниқлаш; инновацион фаолиятни режалаштириш ва прогнозлаш: инновацион фаолиятни амалга оширишга жалб қилинган ходимларни танлаш ва бошқалар);

- потенциал ёки мавжуд шериклар тўғрисида маълумот тўплаш ва таҳлил қилиш учун ўз тизимингизни яратиш. Бундай ҳолда, модел сифатида фирибгарликдан ҳимоя қилишда қўлланиладиган "еътибор" моделидан фойдаланиш мумкин;

- инновацион корхонанинг инновацион фаолиятини режалаштириш ва прогнозлаш самарадорлиги;

- инновацион корхона ишчиларини пухта танлаш;

- корхонада тижорат сирларига риоя қилиш;

- инновациялар соҳасида таваккалчиликларни суғурталаш.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 29 августдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги "Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакил тўғрисида" ЎРҚ-440-сонли Қонуни.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 майдаги "Иқтисодиёт тармоқлари ва соҳаларига инновацияларни жорий этиш механизмларини такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-3698- сонли қарори

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 январдаги ПФ-5308-сон Фармони. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта

устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили»¹да амалга оширишга оид давлат дастури.

4.Кадомцева М.Е. Особенности развития инновационных процессов в агропродовольственном комплексе. Информационная безопасность регионов.-2014. №2-С.103-109.

5.Мамай О.В. Методологические основы инновационного развития аграрного сектора региональной экономики. Под научной редакцией Г.Р. Хасаева / О.В. Мамай. – Самара: Изд-во СГЭУ, 2009. – 111 с.

6.Никсон Ф. Инновационный менеджмент/ Ф.Никсон.-М.: Экономикс, 1997-240 с.

7.Савенко В. Г. Формирование системы освоения инноваций в сельском хозяйстве. (теория, методология, практика). Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва. 2005. 338 стр.

8.Санто Б. Инновации как средство экономического развития. М.Прогресс, 2001.-295 с

9.Ушачёв И.Г., Оглоблина Е.С., Санду И.С, Трубилина А.И. Инновационная деятельность в агропромышленном комплексе. Монография.-М.: “Экономика и информатика”, 2006.-374 с. (14-15с)

10.Шумпетер Й. Теория экономического развития/Й.Шумпетер М.: Прогресс, 1982.-455с.

ЭЛЕКТРОН САВДОНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

Хамраева Сайёра Насимовна,

Инновацион иқтисодиёт кафедраси мудири, и.ф.д.

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти,

Аманқулова Мухлиса,

ҚарМИИ талабаси, Логистика йўналиши 2-курс

Жаҳон иқтисодиётида интеграциялашув жараёнининг тобора чуқурлашиб бориши, ахборот технологияларининг жадал ривожланиши ва Интернет тармоғидан тижорат мақсадларида фаол фойдаланиш жараёнида электрон савдо ҳажмининг ошиб бориши кузатилмоқда. Электрон савдо хизматининг дунё микёсидаги ўрни ва роли йилдан-йилга ўсиб бораётган бўлиб, бугун ушбу соҳа дунё аҳолисининг қўллаб қисмини ўз доирасига қамраб олмоқда.

Электрон савдо хизматини ривожлантириш мамлакатлар учун бекиёс даражадаги имкониятларни тақдим этади. Глобал алоқа тармоқлари ва биринчи навбатда, Интернетнинг пайдо бўлиши электрон тижорат фаолиятини ташкил қилиш ва амалга ошириш соҳасида ҳақиқий инқилобга олиб келди. Натижада нафақат бизнес юритишнинг янги йўналишлари пайдо бўлди, балки мавжуд йўналишлар ҳам тубдан ўзгарди. Технологияларнинг ривожланиши халқаро бизнесга жуда ҳам самарали тарзда ёрдам бермоқда. Ҳозирги кунда дунё бўйлаб миллионлаб кишилар электрон савдо хизматларидан фойдаланишни ўзлари учун қулай деб ҳисобламоқдалар. Бу танлов эса электрон савдо хизматидан фойдаланаётган корхоналар учун юқори даромад оқимини таъминламоқда. Сўнгги йилларда ушбу тенденциялар тобора аниқроқ намоён бўлмоқда.

Тадқиқотларга кўра, 2020 йилда дунёда рақамли технологияларни сотиб олувчилар сони 2,05 миллиард кишига етиши кутилмоқда, бу дунё аҳолисининг чорак қисмини ташкил этади. Ушбу рақам 2014 йилда 1,32 миллиард нафарни ташкил этган бўлса, 2021 йилга келиб, 2,14 миллиард нафарга етиши кутилмоқда¹. Қулайлик ва харажатларни тежаш каби омиллар одамларни электрон тижоратга мослаштиришга ундайди, юқори интернет тезлиги ва арзон қурилмалар каби омиллар бу жараёнга ёрдам беради.

Электрон савдонинг тезкор ривожланиши икки омилга боғлиқ. Сотувчи учун электрон тижорат чакана савдо соҳасида бизнесни юритишнинг энг арзон усуллари

¹ <https://99firms.com/blog/ecommerce-statistics/#gref>.

биридир. Харидор учун бу товарларнинг янада жозибадор нархлари туфайли пулни тежаш, шунингдек, уйингизга қулай вақтда товарларни етказиб бериш орқали вақтни тежаш имкониятидир. Он-лайн дўконларнинг афзалликлари, шунингдек, уларнинг кечаю кундуз ишлашини ва харидор учун қулай бўлган ҳар қандай усулда сотиб олиш ёки хизмат ҳақини тўлаш қобилиятини (турли хил электрон тўлов тизимларидан фойдаланиш, етказиб бериш пайтида курьерга нақд пул бериш, қабул қилиш пункти ёки омборда ишлайдиган ходимлар) ўз ичига олиши керак. Виртуал тижорат электроника, маиший техника, мебель, кийим-кечак ва пойабзал, уй-рўзғор буюмлари сегментларида кенг намоёниш этилган. Таъкидлаш жоизки, ҳозирги вақтда озиқ-овқат маҳсулотларининг он-лайн савдоси бозори, айниқса, йирик шаҳарларда, асосан, уйга озиқ-овқат сотиш ва етказиб бериш хизматларининг ривожланиши туфайли жадал ривожланмоқда.

Ҳеч бир мамлакат глобал иқтисодиётнинг устуворликларини ҳисобга олмасдан, иқтисодий сиёсатни оқилона шакллантиришни амалга ошира олмайди. Айниқса, ахборот-коммуникацион технологияларнинг жадал ривожланиши глобаллашувнинг объектив жараёнлари билан узвий боғлиқ равишда иқтисодий фаолиятнинг янги турини – электрон тижорат ёки электрон савдони шакллантиришга олиб келди. Савдо ташкилотлари ва мижозлар ўртасидаги муносабатларда товарларни тақсимлаш жараёнларини бошқариш, бозорни мониторинг қилиш, етказиб берувчилар, бизнес шериклар ва давлат идоралари билан самарали муносабатларни ривожлантиришда электрон тармоқларнинг, биринчи навбатда, Интернетнинг имкониятларидан фаол фойдаланилмоқда.

Кейинги йилларда жаҳон электрон савдо айланмаси барқарор ўсиб бормоқда, eMarketer¹ маълумотларига кўра, 2018 йилда у 2,9 трлн. АҚШ долларини ташкил этган, 2019 йил якунларига кўра, глобал электрон тижорат айланмаси 3,5 трлн. АҚШ долларидан ошиши, 2023 йилга келиб эса бу кўрсаткич 6,5 трлн. АҚШ долларига етиши кутилмоқда.

Ўзбекистонда ҳам мамлакатда жорий этилган карантин натижасида бир қатор супермаркетлар турли хил мессенжерлар орқали электрон-савдони йўлга қуймоқда. Аммо электрон платформа ва интернет тизимларнинг етарли даражада ривожланмаганлиги он-лайн-савдонинг барча ҳудудлар бўйича тарқалишига тўсиқ бўлмоқда.

Замонавий бозор иқтисодиётидаги электрон тижорат анъанавий савдо усулларига хос бўлган моддий харажатлар ва вақт харажатларининг катта қисмини камайтириш орқали истеъмолчи учун шиддатли рақобатда ғолибликни таъминлаш воситаси сифатида пайдо бўлди. Шу маънода тўлақонли электрон савдо ривожланган бозор иқтисодиётида юқори даражадаги рақобат шароитида пайдо бўлади, яшайди, ривожланади ва бозор муносабатларининг моҳияти сифатида савдо-сотик операцияларини ўтказиш шакл ва усулларини такомиллаштиришни тақозо этади.

Шу билан бирга, электрон-савдонинг салбий оқибатларини ҳам кўрсатиб ўтиш лозим. Айрим тадқиқотларга кўра, дунёда он-лайн-тижоратнинг кескин ўсиши жиддий иқтисодий ва ижтимоий муаммоларни келтириб чиқарди. Интернет асрида ривожланган мамлакатлар аҳолиси энди дўконларга эҳтиёж сезмайдилар. Вазиятнинг бошқа томони шундаки, харид қилиш марказидаги дўконнинг одатий форматида қолиб, ўз вақтида Интернетга кира олмаган сотувчилар банкротлик хавотирга эга. АҚШда 2017 йил давомида 3500 дан ортиқ дўконлар ёпилди. Таҳлилчиларга кўра, беш йилдан сўнг АҚШда савдо марказларининг ярми ёпилиши мумкин. Бу эса ўз навбатида, ишсизлик даражасининг ортишига олиб келади. Сабаби битта оператор бир вақтнинг ўзида бир нечта сотувчиларнинг ўрнини боса олади. Шунингдек, электрон савдо орқали хизматлар амалга оширилганда, маҳсулотларни сақлаш учун катта омборхоналар, музлаткичларга бўлган талабни пасайтиради.

Миллий электрон тижоратнинг ривожланиши савдо операцияларини тайёрлаш ва ўтказиш вақтини камайтиради, маҳаллий ишлаб чиқарувчилар ўртасидаги рақобатни кучайтиришга ижобий таъсир кўрсатади, маҳсулот ва хизматларга нархларни

¹ Global Ecommerce 2019 / eMarketer. [электронный ресурс]. Режим доступа: <https://www.emarketer.com/content/globalecommerce2019> Дата обращения: 29.11.2019.

пасайтиришга ёрдам беради, маҳсулотлар ва хизматларнинг сифатини яхшилайти ва ривожланиш орқали янги иш ўринларини яратади.

Ўзбекистонда ўртача дунё кўрсаткичларидан паст бўлган рақамли иқтисодиётнинг асосий йўналишларидан бўлган электрон тижорат кўрсаткичлари тўғрисидаги маълумотларни таҳлил қилганимизда қуйидагилар аниқланди (1-жадвал).

1-жадвал

Электрон тижорат индикаторлари¹

Т/р	Молиявий фойдаланиш омиллари	Ўзбекистон, %	Дунё мамлакатлари, %
1.	Молиявий институтларда ҳисоб рақамига эга кишилар сони	37	69
2.	Кредит картага эга инсонлар сони	0,6	18
3.	Мобил пул ҳисоб рақамига эга кишилар сони	р/д	4,4
4.	Он-лайн савдо қилади ва ёки ҳисобларни он-лайн тўлайди	7,1	29
5.	Кредит картага эга аёллар сони	0,6	17
6.	Кредит картага эга эркеклар сони	0,5	20
7.	Он-лайн келишувларни амалга оширувчи аёллар сони	4	28
8.	Он-лайн келишувларни амалга оширувчи эркеклар сони	10	30

Рақамли иқтисодиёт замонавий жамиятда кундалик воқеликка айланади, ундан фойдаланиш туфайли барча тармоқлар самарадорлиги ортади. Замонавий компьютер технологияларидан фойдаланиш имкониятлари сифат ва сон жиҳатидан ортади, компьютер орқали деярли барча операцияларни амалга ошириш: пул тўлаш, чиптага буюртма бериш, керакли ахборот қидириш мумкин ва ҳоказо. Рақамли иқтисодиёт даврида ахборот энг муҳим роль ўйнайти, у улкан қийматга эга бўлган асосий номоддий активга айланади.

Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, савдо соҳасида электрон ахборот технологияларидан фойдаланиш бозор товар-пул муносабатларининг асоси ва моҳияти сифатида ишлаб чиқарувчидан товарлар (хизматлар) ҳаракатида воситачилар сонини (яъни товар айирбошлаш) қисқартириш ҳисобига товарлар (хизматлар) бозорининг самарадорлигини сезиларли даражада ошириши мумкин. Истеъмолчига капитал айланишини тезлаштириш, транзакцион харажатларни сезиларли даражада пасайтириш, минтақавий хўжалик-иқтисодий комплексларни қайта куриш жараёнларини фаоллаштириш имконини беради.

**ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ХАЛҚАРО ТУРИСТИК
ТАШКИЛОТЛАРНИНГ ЎРНИ**

А.А.Қодиров

БухДУ мустақил изланувчиси

Бутун жаҳон туристик ташкилоти маълумотларига кўра, бутун дунёда экотуризм туристлар орасида 12-15% талаб мавжуд ва бу кўрсаткич ҳар йили 30% ўсиб бормоқда. Ички туризм соҳасида кўп сонли жараёнларга боғлиқ, яқин келажақда ушбу статистик маълумотларда ўзбек туристларнинг улуши пайдо бўлишини кутиш мумкин. Ушбу

¹ Deloitte. 2019 Global Blockchain Survey. [https:// www. 2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/se/Documents/risk/ DI.2019](https://www.2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/se/Documents/risk/DI.2019).

ҳолатга 2 та тенденция кўмаклашади: Ўзбекистон Республикасида экологик вазиятнинг ёмонлашиши, бу эса табиий қўриқланадиган объектларга махсус эътиборни талаб қилади ва замонавий истеъмолчиларда янги эҳтиёжларнинг пайдо бўлиши, масалан дунёқарашининг “экологизация”си каби: атроф-муҳит носозилигини ва экологик муаммоларни тушуниш, шу билан бирга, уларнинг инсон жамияти билан узвий алоқаси.

Экологик туризмни ривожлантириш ва бошқариш соҳасида халқаро туристик ташкилотларнинг жаҳон миқёсида тутган ўрнини тадқиқ этиш мақсадида экотуризмни тарқалиш географиясини кўриб чиқиш муҳим аҳмият касб этади.

Халқаро экологик туризмга талаб мавжуд бўлган асосий ҳудудлар – Шимолий Америка ва Ғарбий Европа мамлакатларидир. Экологик туризмнинг америка мактабига хос бўлган қирраси, экотуризмни – табиий ва қўриқланадиган ландшафтлар билан антропоген таъсирдан нисбатан ўзгармаган табиий муҳитга саёҳат ва дам олиш. Бу ерда экотуризмнинг муҳим қирраси, америка мактабига биноан – экологик таълимдир. Экотуризмнинг европа мактаби, биринчи навбатда, экотуризмнинг табиатга йўналтирилган асосини таъкидлаган ҳолда, кўпроқ урғуни туризмнинг маҳаллий аҳоли олдида ижтимоий жавобгарлигига беради ва дестинация ҳудудида экотуризм ёрдамида иқтисодий муаммоларнинг ечимига қаратилгандир.

Экологик туризм соҳасини ривожлантириш ва бошқариш халқаро тажрибани янада синчиклаб тадқиқ этиш учун экотуризм ривожланишига нисбатан халқларо сиёсат соҳасини кўриб чиқишни тақоза этади.

Экологик туризмни ривожлантириш учун Бутунжаҳон ёввойи табиат Фонди, Табиий ресурслар ва табиат муҳофазаси Халқаро иттифоқи каби Халқаро ташкилотлар фаолияти жалб этилмоқда. Бундан ташқари халқаро ва ҳудудий даражада конгресслар, симпозиумлар ва семинарлар ўтказилмоқда, экотуристлик фирмалар сони ошиб бормоқда, туризмнинг барча турларига нисбатан экологик туризм афзал кўрилмоқда¹.

Экологик туризмни ривожлантиришнинг халқаро битимлар ва дастурларни амалга ошириш учун турли халқаро молиявий ташкилотлар ўзининг махсус ҳиссасини кўшиб келмоқдалар: Ёввойи табиатни муҳофаза қилиш бутунжаҳон фонди(WWF); Қайта куриш ва тараққиёт халқаро банки (IBRD); Глобал экологик фонди (GEF).

Ривожланаётган давлатларда махсус қўриқланадиган табиий ҳудудларни узоқ муддатли молиялаштириш мақсадида Траст табиатни муҳофаза қилиш фондлари ташкил этилади ва фаолият юритади, улар қўриқхоналар ва миллий паркларга ҳамда буларнинг табиатни муҳофаза қилиш фаолиятининг алоҳида турларига молиявий ёрдам кўрсатадилар.

Экологик туризмни ривожлантириш муаммоларга ихтисослашган бир қатор ташкилотлар мавжуд, улар экотуризмнинг жаҳон миқёсида ривожланишига кўмаклашадилар: Экотуристлик жамият (The Ecotourism Society), жамият бирлашмалари “Нейче-Консерванси”, “Одубонов жамияти” ва б.

Давлатлараро даражада экологик туризмни ривожлантириш бўйича сиёсатнинг келишилганлигига ҳудудий туристик ташкилотлар ва махсус давлатлараро иттифоқлар орқали эришилади. Экотуризмни ривожлантириш масалаларида Европа Иттифоқининг туристик сиёсати, масалан, локал тор соҳадаги масала сифатида кўрилмайди, балки экологик ва ҳудудий сиёсат, ҳамда кичик ва ўрта корхоналарга нисбатан сиёсат каби иттифоқ сиёсатининг аспектидан келиб чиқадиган комплекс характерга эга кўп сонли ечими мавжуд бўлган масалалар қаторида кўриб чиқилади. Европа ҳудудий сиёсатининг мақсади нафақат Европа Иттифоқи ҳудудида экологик туристик маҳсулотнинг сотуви билан банд бўлган аҳолининг ҳаёти ва меҳнат қилиши учун тенг шароитлар яратиш, балки умуман туристик индустрияни ва хусусан туристик ҳудудларни қўллаб-қувватлашдир. Туристлик индустрияни қўллаб-қувватлаш ҳудудий сиёсатининг қуйидаги молиявий

¹ Мўминов Азизбек Зиёвидинович, Экологик туризм – тараққиётнинг муҳим омили <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-3-35>

воситалари ёрдамида қўллаб-қувватлаш амалга оширилади: Европа сармоялар банкининг заёмлари, европа фондларидан дотациялар ва ҳ.

Охириги йилларда ушбу сиёсат доирасида ҳозирги вақтда мавжуд бўлган туристик ҳудудларда экологик туризмни ривожлантиришга катта эътибор қаратиляпти. Бу Европа Иттифоқи давлатларида экологик туризм ривожланишини кенг сармоявий қўллаб қувватлашни изоҳлаб беради.

ЕИ давлатларида экологик туризмни ривожлантиришга кўмаклашувчи асосий молиявий воситаларга қуйидаги ихтисослашган фондларни киритадилар: Қишлоқ хўжалигига йўналтириш ва қафолатлаш Европа фонди; Европа ижтимоий фонди; Европа ҳудудий ривожланиш фонди.

Евроиттифоқнинг ташаббус дастурлари туристик сиёсатининг амалдаги молиявий воситаларни доимий тарзда тўлдириб боради. Бундай воситалар сирасига қуйидаги дастурларни киритиш мумкин:

- чегарадош ҳудудларнинг ҳамкорлик ва қўллаб-қувватлаш дастури, шу билан бирга аграр туризм соҳасида ҳамда чегарадош ҳудудларда атрофдаги табиий муҳитни муҳофаза қилиш ва табиий қўриқхоналар ташкил этиш (INTERREG);

- туристик ҳудудларда атрофдаги табиий муҳит ҳолатини яхшилаш мақсадида амалга ошириладиган дастур(ENVIREG)/

Шундай қилиб, Европа иттифоқида экологик туризм соҳасида ҳудудлараро ва ҳудуд даражасида сиёсатни мувофиқлаштириш махсус ташкил этилган давлат органлари, жамият туристик ташкилотлари ва институлари орқали амалга оширилади.

Экологик туризм соҳасида давлат бошқаруви ва меъёрлаштириши турли ривожланган давлатларда фарқланиши унчалик катта эмас: одатда, у рағбатлантирувчи солиқ тизимини яратишни, атроф- муҳитни муҳофаза қилишнинг қонуний таъминотини ҳамда умуман экотуризмни ривожлантириш жараёнини ва табиий ҳудудларнинг захиралар потенциалидан фойдаланиш жараёнини меъёрлаштиришнинг оптимал механизмларини танлашни назарда тутди.


Шундай қилиб, ривожланган давлатларда экотуризм соҳасида давлат бошқаруви ва тартибга солиш схемасининг таҳлили шуни кўрсатадики, ушбу давлатларда тартибга солиш давлат даражасида амалга оширилади, инфратузилмани ва экотуризмнинг бошқа компонентларини ривожлантиришга ва қўллаб-қувватлашга қилинган катта харажатлар ўзини оқлайди ва даромад олиб келади, маҳаллий аҳолининг ижтимоий мавқеини кўтаришга кўмаклашади, маҳаллий қабилаларни ривожлантиради, иш ўринларини беради ва ушбу дестинацияларнинг жозибадорлигини оширади, бу эса ҳудудий ва маҳаллий ҳукуматларнинг фаолиятини баҳолашга билвосита ижобий таъсир кўрсатади.

QISHLOQ TURIZMI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA KLASTER USULINI QO`LLASH

Rustamov Rajab

BuxDU turizm mutaxassligi 2 bosqich magistranti

Hosirgi vaqtda jahon turizmida “qishloq turizmi” deb ataladigan yo`nalish jadal rivojlanib kelmoqda. “National Geographic Traveler” jurnalining 2016 yilda ommaviy sayohat turlari o`rtasida eng yaxshi turizm yo`nalishlarini tanlash bo`yicha tanlov o`tkazish natijasiga (1-rasm) ko`ra “Agroturizm” nominatsiyasi turli davlatlarda har xil o`rinlarga ega bo`lgan. Belarusiya, Italiya va Rossiya Federatsiyasida ushbu turizm yo`nalishining salmog`i yuqori – 24 fois, 22 foiz va 18 foiz tegishli davlatlarda qaror topgan. Agroturizmning past hissasini Vengriya, Slovakiya va Estoniya davlatlariga kuzatish mumkin.



1-rasm. "Agroturizm" nominatsiyasi bo'yicha tanlov natijalari [1]

O'zbekistonda hozirgi kunda jami 38 mln. kishi aholi tarkibida qishloq aholisining ulushi 49,4 foizni [2] tashkil etishini inobatga olsak, mamlakatimizda qishloq turizmi muhim ahamiyat kasb etadi, deb xulosa chiqarsak bo'ladi. Chunki, qishloq turizmi - turizm sohasining qishloq joylarning tabiiy, madaniy-tarixiy va boshqa resurslaridan foydalanishga, uning o'ziga xos xususiyatlarini integratsiyalashgan holda turizm mahsulotini yaratishga yo'naltirilgan sector hisoblanadi.

Qishloq turizmini tashkil etishning turli modellari mavjud. Shri-Lankada, okean qirg'og'idan uzoqda joylashgan qishloqda, orolning markaziy tog'li qismida "*madaniy markaz*" deb ataladigan joy mavjudki, u yerda qishloq turizmi tashkil etiladi. Rossiya Federatsiyasida turistik biznesida "VIP-qishloq" deb ataladigan sayohlik maskanlar vujudga keltirilgan va ularda qishloqlardagi barcha sharoitlar yaratilgan. Malayziyada agroturizm g'oyasi birinchi navbatda agroparklarni yaratishga qaratilgan bo'lib, ular asosan milliy qishloq xo'jaligini rivojlantiruvchi va turizmdan daromad keltiradigan davlat tashkilotlari hisoblanadi. Dunyodagi birinchi bo'lib 1986 yilda Malayziya davlat agroparki (maydoni 1295 gektar) Qishloq xo'jaligi vazirligi tashabbusi bilan qishloq xo'jaligini rivojlantirish va ommalashtirishga ko'maklashish maqsadida doimiy ko'rgazma, turizm va tadqiqot markazi sifatida tashkil etilgan [3].

Qishloq turizmini tashkil etishda *klaster usulini* qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, klasterning quyidagi tamoyillari asosida sayyohlik faoliyatini tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lardi:

Birinchiidan, mahalliy konsentratsiya. Bu klaster tamoyiliga ko'ra bir nechta yaqin joylashgan qishloqlardagi sayohlik imkoniyatlaridan foydalangan holda qishloq turizmini yo'lga qo'yishni nazarda tutadi.

Ikkinchiidan, xizmatlar zanjirini yaratish. Qishloq turizmi jarayonida zarur bo'lgan barcha asosiy (tunash, ovqatlanish, transport, holdiq chiqarish) va qo'shimcha (animatsiya, ko'ngilochar, suvenirlar savdosi va b.q.) xizmatlarni ko'rsatishini tashkil etish.

Uchinchiidan, turistik infra- va infotuzilmani tashkil etish.

To'rtinchiidan, fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari negizida klaster boshqaruvini shakllantirish.

Ushbu tamoyillar asosida qishloq turizmi klasterini yaratish evaziga odamlar istirohatining "*MBD*" (manzara, bilim, dam olish) g'oyasini amalga oshirish imkoni yaratadiki, bunday sayohat uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek muhim vazifani bajaradi.

Xulosa qilib, qayd qilmoqchimizki, klaster usulida qishloq joylarda turistik faoliyatini tashkil etish natijasida agar, bir tomondan, shahar aholisi uchun dam olish sharoitlarini kengaytirish imkoni yaratilsa, boshqa tomondan, qishloqlar obod bo'lib, qishloq aholisining bandligi oshadi va ular orasida kambag'allik kamayadi.

Adabiyotlar:

1. National Geographic Traveler Awards [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.nat-geo.ru/ngtawards-2016/nomination/> (дата обращения: 20.02.2017).
2. Арабов Н.У., Насимов Д.А. Ўзбекистон Республикасида демографик вазият шаклланишининг хусусиятлари // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. –Т., 2018. - № 2, 1-13 б.
3. Шилова С.Г., Терехова Н.Я., Образцова О.Ю., Буйволова М.И., Васильева Н.А. Зеленый дом: методическое пособие по организации сельского туризма. – Красноярск, 2010. – 104 с.

КООПЕРАЦИЯ МУНОСАБАТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАЛАРИ

Туробова Х.Р.

БухДУ Иқтисодиёт кафедраси катта ўқитувчиси

Иқтисодиётдаги глобал ўзгаришлар шароитида қишлоқ хўжалигида кооперациянинг турли шакллари самарали ташкил этиш муҳим масала ҳисобланади. Ҳозирги вақтда кооператив ҳаракат тажрибаси барча жиҳатлардан диққат билан ўрганилиш ва амалий фойдаланишга лойиқ, чунки кооперация инсон фаолиятининг интернационал ҳодисаси. Чет элда кооператив фаолиятни ўрганишнинг амалий аҳамияти яна шундаки, у халқаро нуқтаи назаридан ўзаро фойдали ва ўзаро манфаатли ҳамкорликни яхшироқ амалга оширишга имкон беришдан иборат.

Хориж тажрибасини ўрганиш асосида кооперациявий муносабатлари тўғрисида хулоса қилиш мумкинки, бу давлатларда кооперациянинг турли хил самарали йўналишларидан фойдаланиш асосида иқтисодиётнинг барча соҳаларида айниқса, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг самарадорлигини оширишда муҳим механизмлардан бири сифатида фойдаланиб келинмоқда.

Жаҳон кооператив ҳаракати кўплаб олимлар ва мутахассислар томонидан ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан ўрганилган. Кооперация муносабатлари ўрганилган сари унинг янги қирралари очилаверади. Биз ҳам кооператив муносабатларни ўрганишимиз мобайнида турли давлатларда унинг кўринишлари турли хил шаклда бўлишлигига эътиборимизни қаратдик.

Америка Қўшма Штатларида кооперативларни қуйидаги йўналишларда фаолият юритаётганлиги кузатиш мумкин¹. Улар бозор миқёсига қараб кооперативларни маҳаллий кооперативлар, минтақаларо ва миллий кооперативлар ва халқаро кооперативларга бўладилар. Мулкчилик таркибига кўра марказлашган, федератив, гибрид, бошқа бизнес таркиблар ва янги авлод кооперативларига бўлинади.

1. Марказлашган кооперативлар тўғридан-тўғри ўзининг аъзоларига хизмат қилади. АҚШда кўпгина кооперативлар шундай кооперативлардир.

2. Федератив кооперативлар. Кооперативлар мулки асосида ташкил этилган ва уни кооперативлар назорат қилади.

3. Гибрид кооперативлар. Бир қанча катта кооперативлар ҳар иккала йўналишда ҳам тузилган бўлади. Яъни марказлашган ва федератив кооперативларнинг аралашмасидан. Бундай кооперативларни гибрид кооперативлар деб аташ мумкин.

4. Бошқа бизнес таркиблар. Бунга қўшма корхоналар, холдинг компаниялар, инфорацион улушли ташкилотлар.

5. Янги авлод кооперативлари. Янги авлод кооперативлари “янги тўлқин ва қўшилган қиймат кооперативлари” деб номланади. Уларда 2 та хусусият бўлиб, бошқа турдагиларидан марказлаштирилган қишлоқ хўжалиги кооперативлари ажралиб туради. Биринчидан ЯАҚда “етказиб бериш ҳуқуқи” аъзолик ҳуқуқи тенг. Аъзолар улушларини

¹ Kimberly A.Zeuli, Robert Cropp. Cooperatives: Principles and practices in the 21st century. Электрон ресурс. <https://learningstore.uwex.edu>.

сотиб олишлари яъни кооперативга маҳсулотни жорий миқдорини сотиш ҳуқуқларини ва мажбуриятларини беришади. Мисол учун, бир улуш асосий аъзо ҳар йили кооперативга 1000 бушел бўғдойни етказиб бериши зарур. Агар етказиб беришда муваффақиятсизликка эришса, кооператив ортирилган харажатларни қоплаш учун аъзога тўловни (бадални) баҳолаб, ундириб олиш ҳуқуқига эгадир. Иккинчи хилида, аъзолик чегараланган ёки ёпиқ бўлади. Етказиб бериш ҳуқуқи сотилиши орқали кооператив аъзолар сонини ва аъзолардан қабул қилинадиган маҳсулотни миқдорини чегаралайди. Аъзоликни бошланғич бадали маҳсулот бирлиги сонига кўра аъзолардан зарур капиталга тенг умумий миқдорда ажратиш бўйича аниқланади.

Яна АҚШда ишчиларга тегишли кооперативлар учрайди. Бу кооперативлар ишчилар мулки асосида ташкил этилган. Кўпинча бу кооперативлар қайта ишлаш ва сервис соҳаларида фаолият юритади. Бундай кооперативлар ишчилар томонидан иш жойларини ҳимоялаш, ўзлари учун ишлаш шароитларини, иш ҳақларини ва унумдорликни ошириш ҳамда ўзларига демократик муҳитни яратиш мақсадида ташкил этилган. Ҳозир АҚШда бу типдаги кооперативлар 300 дан ортиқ.

Кооперативларнинг ҳуқуқий мақоми борасида биз ЕИнинг учта мамлакатлар тажрибасини келтириб ўтамиз, хусусан Голландия, Франция ва Руминия.

а) Нидерландияда қишлоқ хўжалиги кооперативлари ва кооператив бирлашма деганда "фермерлар ёки боғбонлар доимий иш олиб борадиган ва қисман қўшма иқтисодий фаолият олиб борадиган (одатда тижорат функцияси) таваккални қабул қиладиган ва тақсимлайдиган иқтисодий ташкилот тушунилади. Хўжалик фаолиятини иложи борица фойдали равишда ўтказиш ва бошқа функцияларнинг моҳиятини сақлаб қолиш шунингдек, ўзини ўзи таъминлайдиган хусусиятини сақлаб қолган корхона". Аслида улар нафақат муносабатларни осонлаштирадиган ва бошқарадиган оддий тузилмалар балки одатда шартномавий ёки иштирокчилар томонидан тақдим этилган капитал улушига эга бўлган ташкилий тузилма томонидан қўллаб-қувватланади.

б) Францияда кооператив жамият номи билан ишлатилади, бу "жамият" категорияси фуқаролик жамиятлари ва иқтисодий соҳада биргаликда ишлаб чиқарувчи родини бажарадиган компаниялардан фарқ қилади. Ушбу фаолиятнинг мақсади фермерлар кооперативларини енгиллаштириш учун барча зарур воситалар билан алмашиш ёки иқтисодий фаолиятни ривожлантириш, операциялар натижаларини яхшилаш ёки оширишдан иборат.

с) Руминияда қонунга мувофиқ кооперативлар ва уларнинг ҳудудий ва миллий даражадаги бошқа уюшма шакллари томонидан бошқарилади. Қишлоқ хўжалиги кооперативлари «кооператив аъзоларига қарашли қишлоқ хўжалиги ерларини биргаликда ободонлаштириш ишларини амалга ошириш, умумий механизмдан фойдаланиш ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш ва эксплуатация қилиш учун биргаликда фойдаланиладиган шахслар бирлашмаси» тушунилади.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, кооперативлар бозор рақобатбар-дошлигини таъминлаш учун зарур инвестицияларни қондириш учун харажатларни камайтириш бўйича ҳаракатларни бирлаштиришга мажбурдирлар¹.

Профессор Ш.Эргашходжаеванинг "Қишлоқ жойларида кооперацияни ривожлантиришнинг маркетинг стратегияси" номли монографиясида хорижий давлатларда ташкил этилган кооперативлар фаолияти чуқур ўрганилган бўлиб, унда ҳозирги вақтда аксарият мамлакатларда кооперациялашган хўжаликлар шакллари куйидаги асосий турлари ривожланганлигини таъкидлаб ўтади²:

¹ Gabriel Popescu. Cooperative phenomenon in European context\MPRA Paper No. 53618, posted 12. February 2014 14:39 UTC// <http://mpr.ub.uni-muenchen.de/53618/>

² Эргашходжаева Ш.Ж. Қишлоқ жойларида кооперацияни ривожлантиришнинг маркетинг стратегияси. –Т.: 2006. –Б. 140

- “соф кооперативлар” - уларда бошқариш ва фойдани тақсимлашда пайчилар тенглиги ўрнатилган корхоналар;

- “акциядорлик туридаги кооперативлар” - уларда акциядорлик жамиятининг элементлари устунлик қиладиган, бошқаришда ҳуқуқларнинг тенглиги таъминланган ҳолда пай миқдорига мутаносиб равишда дивидендлар кўринишида тақсимланадиган ва одатда юқори чегара билан чекланган корхоналар. Лекин бундай корхоналар бошқа турдаги корхоналарга қараганда камдан - кам ҳолларда устунликларга эга ва хусусий компаниялардан деярли фарқ қилмайди;

- “соф кооперативлар” ва “акциядорлик туридаги кооперативлар” ўртасида оралик мавқени эгаллаган корхоналар.

Профессор О.Олимжонов «Фермерлик фаолиятининг ҳуқуқий ва молиявий асослари» номли китобда кооперативлар учга яъни ишлаб чиқарувчи, истеъмол ва хизмат кўрсатувчи кооперативларга бўлинишини илмий жиҳатдан асослаб берган¹.

Россиялик олимлар ва мутахассисларнинг илмий ишларини кузатишимизга кўра, кооперативлар иккига бўлиб ўрганилади яъни истеъмол ва ишлаб чиқариш кооперативлари. Бу турдаги кооперативлар бир-биридан ўз мақсади билан фарқ қилади.

Бозор муҳитининг глобаллашуви, рақобат босимининг кучайиши, истеъмолчилар талабанинг устунлиги, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва қайта ишлаш технологиясини ўзгариши ва бошқа сабаблар маҳсулот ишлаб чиқарувчиларни бозорда мустаҳкам ўринга эга бўлиш учун ҳаракатланишнинг янги моделларини ва замонавий стратегияларини излаб топишга мажбур қилади.

DEVELOPMENT OF INNOVATIVE TYPES OF SERVICES IN THE HOTEL INDUSTRY

Istamkhuja Olimovich Davronov

PhD student, Economy and Tourism faculty
Bukhara State University

Hotels make a benefit essentially by giving inn services. For some explorers in their get-away, visit or excursion for work, hotels are places they stay when out of the home. As a developing industry, the hotel's business presently incorporates a wide range of housing from rich 5-star inns to youth lodgings.

Other than room services, most lodgings likewise offer an assortment of accessorial services, including yet not restricted to food, drink, clothing and valet services. Also, the undeniable level hotels can offer meeting rooms, pools, beauty parlors, wellness centers and numerous different facilities to both business and relaxation explorers.

The hospitality business continually changes and advances even with new industry and customer patterns. Remarkable financial changes likewise direct the direction of the market. Investigators and industry managers persistently give figures to give organizations an approach to construct their upper hand. The business never stops.

Client assistance is at the center of innovation and great strategic policies. This is the case regardless of where the business goes. All things considered, the future in the hospitality area straightforwardly lies in the possession of visitors and clients, so it's basic that you generally wonderful your client support.

To do that, you need to be inventive and receive new just as attempted and-tried arrangements into your activity. It's basic to have this equilibrium to meet the assumptions for your millennial clients and take your business forward in general.

Yet, it seems surprising that for many hoteliers something as simple as defining innovation can be a challenge.

¹ Олимжонов О. ва бошқалар. Фермерлик фаолиятининг ҳуқуқий ва молиявий асослари . -Т.: 2005, -Б. 212




Figure-1. Process and outcome of innovation

In the hotel industry, like in most service activities, the interplay between customers and firms broadens the scope of innovation and departs from the narrower technology-driven innovation dominant in manufacturing.

However, not only developing truly innovative concepts (i.e. ideas that add value to an existing service) and embedding them within a hotel's operations, present their own sets of challenges - but as true innovations often breed copycats, creating strong differentiators and barriers to inhibit imitation, can be daunting for hotel operators¹.

Innovation needs to more strategic. This was the overwhelming conclusion drawn from the study. **One leading innovation factor: highly innovative firms have typically engaged in non-technological innovation.** Research results show that technological innovation **alone** will not be sufficient to hold competitive advantage over the long term, so harnessing the non-technical kinds of innovations (in organizational innovation, workplace, marketing strategy or business models) is critical.

One example: investing in technological innovations along with 'creative workspaces' where employees are empowered to develop new ideas and test new concepts.

In the short-medium term, innovation is what will determine the productivity performance and competitiveness of hospitality companies, whether independent hotels or national or multinational chain hotels².

The hotel, which is involved in the innovative process of goods / services, can choose one of the following options:

- information on new goods / services and (or) obtaining a production permit under a contract or license;
- development (invention) of a new product / service;
- modernization of goods produced by the company;
- involve a partner to jointly develop a new product.

The balance of competition in the lodging industry, including among hotels serving business travelers, is consistently expanding. New inns are being assembled each year, and despite expanding contest, hoteliers are compelled to continually search for better approaches to build the intensity of their ventures.

One of the main directions of innovative technologies in the hotel and the introduction of multimedia technologies in the tourism business, in particular, directories, booklets, catalogs. Currently, travel agencies, hotels produce books and catalogs books and catalogs, information and catalogs on laser discs on the Internet. Electronic catalogs The hotel allows you to travel

¹ <https://hospitalityinsights.ehl.edu/industry-report-hospitality-innovation>

² <https://hospitalityinsights.ehl.edu/industry-report-hospitality-innovation>

almost around different categories, restaurant halls, convention centers, provides detailed information about the hotel business, the system of services and discounts offered.

The concept of “new product” involves significant changes in its consumer properties. functionality, or in form, design, or even packaging that makes sense to the consumer. Thus, the main criterion of innovation is that the new product should be so different from the existing product that the resulting differences can serve as a reliable basis for shaping the attitude of buyers to it.

Each facility has a standard set of technologies for day-to-day operations and guest service. But their presence does not give the enterprise a competitive advantage. That’s why every major hotel management is trying to find new technological developments for their projects. If a few years ago such technological innovations were associated with a possible change in operation without the intervention of computer technology, now this process cannot be imagined without the latest developments in the field of informatics. Many products are emerging in the market, such as automated management systems that facilitate the work of employees and increase efficiency.

Austrian scientist I. Shumpetse identified five common changes:

- support (purchase - sale) of new equipment, new technological processes or a new market for production.
- introduction of products with new features.
- use of new raw materials.
- organization of production and its material regulations.
- the emergence of new trade markets.

The use of multimedia technology allows you to quickly provide potential information about the hotel, thereby allowing you to quickly and accurately select the hotel product that your guest needs.

The development of management programs for hotels, restaurants and other divisions of the hotel company will lead to significant changes in management and improve the quality of service.

Every year, more than four billion people traveling to and from our planet, both inside and outside the country of residence, need to be at night and demand a high level of security, previously, often on different continents in connection with terrorism. It is very important that hotel businesses take safety precautions before taking safety precautions.

To make due in the current states of furious rivalry, the hotel should opportune and satisfactorily react to changes in the outer environment and innovation for this situation is a beneficial arrangement.

Imaginative innovation is unquestionably a useful asset in improving the seriousness of the hotel, addressing the requirements of visitors and expanding pay.

In spite of the incredible open doors that open up for the endeavor, there are additionally numerous dangers related with the absence of return on development. When turning to such an apparatus as innovation, it is important to obviously work out the motivation behind their presentation, the chance of execution, the accessibility of capital, and furthermore to anticipate the time of their recoupment and further advantages.

References

1. Vladimirov Z., Williams A. Hotel innovations and performance–The mediating role of staff related innovations //Tourism management perspectives. – 2018.
2. Olimovich D. I., Bakhtiyorovich T. M., Salimovna N. G. Improving of personnel training in hotel bussines //Academy. – 2020. – №. 2 (53).
3. Nicolau J. L., Santa-María M. J. The effect of innovation on hotel market value //International Journal of Hospitality Management. – 2013. – T. 32. – C. 71-79.
4. Olimovich D. I., Kudratovna F. S., Sayfitdinovich I. B. The importance of marketing analysis for predicting the prospects of restaurants in Bukhara hotels //Economics. – 2020. – №. 1 (44).

5. Olimovich D. I., Khabibovna K. M., Samadovich R. S. Improving tourist season in Bukhara region //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 1-2 (79).
6. Davronov I. O. Innovative ways of improving excursion service around the touristic destinations //Мировая наука. – 2019. – №. 4. – С. 508-510.
7. Olimovich D. I., Temirkulovich U. J., Bakhodirovna M. M. Mechanisms of improving staff training //Academy. – 2020. – №. 2 (53).

QISHLOQ XUJALIGI SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRILGAN MEVA QURITISH QURILMASINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.

To‘xliiev M.M.

“Fizika va elektronika” kafedrası

assistent o‘qituvchisi

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Yil davomida yerga tushayotgan quyosh energiyasining umumiy miqdori $62 \cdot 10^{16} kVt/m^2$ tengdir. Bugungi kunga kelib quyosh kollektorlari, quyosh energiyasidan foydalanishdagi eng samarali qurilma bo‘lib xizmat qiladi. Agar fotoelektr panellar o‘ziga tushayotgan Quyosh energiyasining 14 – 18% dan foydalansa, quyosh kollektoridagi ushbu samara 70 – 80% ga yetadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, PQ-4422 sonli qarorida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni yanada rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan [1]. Jahonda uzum va boshqa mevalarni quritishda energiya-resurslar sarfini kamaytirishni ta‘minlashga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: uzumni quritish va blansirlashga tayyorlashda nam-issiqlik bilan ishlov berish vositalari ishlab chiqilgan (Kishinev politexnika instituti, Moldova Respublikasi); uzum va olxo‘ri sirtining gidrofilligini o‘zgartirish maqsadida yuza-aktiv moddalarni qo‘llash, o‘simlik hujayrasining kvazistatsionar strukturasi parchalashning samarali usullaridan biri sifatida uzum mevasiga elektro-fizik ta‘sir ko‘rsatish orqali quritish qurilmalari yaratilgan (Krasnodar texnika universiteti va Moskva oziq-ovqat sanoati instituti, Rossiya Federatsiyasi); birlamchi quritish maqsadida uzumga birlamchi aerazol ishlov berish usullari ishlab chiqilgan (University of California, Washington State University, AQSh; Editions of the University of Barcelona, Ispaniya; Dry Fruits Australia Inc., Avstraliya); uzumni quritish bilan bir vaqtda qayta ishlashning yangi samarador texnologiyalari va texnik vositalari yaratilgan (Universite de Bordeaux, National School of Agricultural Sciences, Fransiya; Polytechnic Institute of Viseu, Portugaliya; Yildiz Technical University, Turkiya; China Agricultural University, Xinjiang Agricultural University, The Chinese Agricultural Research Center, National Natural Science Foundation of China, Xitoy; Junagadh Agricultural University, ICAR-Indian Institute of Horticultural Research Bangalore, Hindiston).

Hozirgi vaqtda mahsulotni uzoq vaqt saqlashga imkon beradigan takomillashtirilgan texnologiyalar ishlab chiqilgan. Bu borada kimyo, fizika, biokimyo, biotexnologiya, biofizika, fiziologiya, o‘simlikshunoslik, agrokimyo, mikrobiologiya, mevachilik, qishloq xo‘jalik mashinalari, fitopatologiya, entomologiya, o‘simliklarni himoya qilish kabi bir qator fanlarning yutuqlaridan ijobiy foydalanilmoqda.

O‘zbekiston sharoitida hanuzgacha qishloq xo‘jalik meva - sabzavot hosilini yig‘ishtirish, quritish, saqlash va qayta ishlash masalalari chuqur o‘rganilmayapti, bu boradagi fan-texnika yutuqlari ishlab chiqarishga keng joriy etilmayapti. Quyosh energiyasidan turli texnologik jarayonlarda foydalanish bo‘yicha Pittman Ch.U.,Prakash N.,Kravchenko G.M., Moxan D. va boshqa olimlarning amaliy xizmatlari kattadir. Bizning mamlakatimizda ham olimlar tomonidan keng tadqiqot ishlari olib borilgan. 1960-yillarda professor G.A.Grinevich, akademiklar S.A.Azimov, G.Y.Umarovlar tomonidan boshlab berilgan bu ishlar O‘zbekiston Fanlar

Akademiyasining akademigi R.A.Zohidov va professor R.R.Avezovlar tomonidan davom ettirildi [2]. Bu sohada an'anaviy energiya bilan birga qayta tiklanuvchi energiyadan kompleks foydalanish va natijada elektr hamda issiqlik energiyalari hosil qilishning optimal oson usullari taklif etilishi xalq xo'jaligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyosh kollektoridan isitish yoki issiq suv olish mevalarni quritish maqsadlarida samarali foydalanish mumkin. Bizning yurtimizdagi yerlarning $1m^2$ yuzasiga tushadigan quyosh nurining energiyasi taxminan $1 kVt/m^2$ ga teng [3]. Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti "Muqobil energiya manbalari" kafedrasida poligonida

Olib borilgan izlanishlar asosida qishloq xujaligi sharoitida takomillashtirilgan meva quritish qurilmasini samaradorligini oshirish qurilmasining laboratoriyasi yaratildi. (1-2 rasm)



Tavsiya etiladigan takomillashtirilgan meva quyosh quritish qurilmasi quyidagi afzalliklar larga ega [4]:

- geliokollektorni yasash uchun, kam xarajat va kamroq mehnat talab qilinadi.
- elektr va yoqilg'i energiyasi sarflanmaydi;



- tog', cho'l, shahar va bog'larning ochiq maydonlarda yasash mumkin.

Qurilmada akkmulyatsiya uchun qo'yilgan toshlar pastki qismdagi steklovatalarga tegmasligi uchun tosh bilan steklovata orasiga $6,5 sm$ qalinlikdagi reyka taxtalar paraldel qilib joylashtirilgan. Parallel reyka taxtalar orasiga aerodinamika qonunlariga binoan qizigan havo harakatlanadi. Har bir qavat toshlar orasiga qizigan havo harakatlanishini ta'minlasak qavatlar orasidagi temperaturalar farqi kamayadi, kollektor ichidagi hamma toshlar bir xil temperaturada qizish imkoniyati mavjud bo'ladi va kollektor ichidagi

temperatura oshadi. Kollektor ichidagi temperaturani sovishi ham tosh qavatlar orasidagi harakatlanuvchi havoning tezligiga bog'liq bo'ladi. Toshlar orasidagi harakatlanuvchi qizigan havo orqali kollektor ichidagi temperaturani barqaror saqlab turish mumkin. Quyosh kollektori



ichiga yasalgan suv qizitgichning umumiy yig'ilgan jami issiqlik miqdori quyidagicha hisoblash mumkin:

$$\sum Q_{yig'} = Q_{suv idish} + Q_{tos sirti} + Q_{kollektor ichi} + Q_{alyumen quvur} \quad (1)$$

$\sum Q_{yig'}$ - suvning qizishi uchun jami yig'ilgan issiqlik miqdori; $Q_{suv idish}$ -suv idishning olgan issiqlik miqdori; $Q_{tosh sirti}$ -tosh sirtini qizishi natijasida alyumen quvurning olgan issiqlik miqdori; $Q_{kollektor ichi}$ -geliokollektorning ichki temperaturasi oshishi natijasida suv idishni va alyumeniy quvurning

olgan issiqlik miqdori; $Q_{alyu\ quvur}$ -aluminium quvur ichidagi suvning, quyosh radiatsiyasi orqali olgan issiqlik miqdori; (1) formuladagi issiqlik parametrlarini (kattaliklarni) oshirish orqali geliokollektor ichidagi suvning temperaturasini oshirish mumkin. Quyosh kollektorining foydali ish koeffitsienti quyosh nurining kollektor qabul qiluvchi yuzasiga tushgan energiyaning foydali issiqlik energiyaga aylangan qismiga teng bo'ladi. Kollektorning qabul qiluvchi yuzasi esa, quyosh nuri effektiv ta'sir qilgan sirtga teng bo'ladi. Kollektor yuzasiga tushgan nurning bir qismi akslanish ta'sirida orqaga qaytadi. Biz kollektorga tushgan nurlanish va absorberda issiqlik energiyasiga aylangan nurlanish quvvati orasidagi munosabatdan foydalanib, takomillashtirilayotgan quyosh kollektorida yo'qotiladigan jami issiqlik miqdorini quyidagicha hisoblash mumkin

$$\sum Q_{yuq} = Q_{plyon} + Q_{beton\ devor} + Q_{tag} + Q_{tir} \quad (2)$$

Q_{plyon} - plyonka yuzasi orqali yo'qoladigan issiqlik miqdori;

$Q_{beton\ devor}$ - kollektorning beton devoriga yutiladigan issiqlik miqdori;

Q_{tag} - kollektorning tagiga (yer qismiga) yutiladigan (yo'qoladigan) issiqlik miqdori;

Q_{tir} - kollektorning tirqishlar orqali yo'qotiladigan issiqlik miqdori.

Takomillashtirilgan quyosh kollektoriga;

Q_{tag} - kollektorning tagiga yo'qoladigan issiqlik miqdori bilan beton devorga yutiladigan issiqlik miqdori.

$$\begin{aligned} Q_{beton\ devor} &\approx 0 \\ Q_{tag} &\approx 0 \end{aligned}$$

nolga yaqin bo'ladi, deyarli issiqlik kollektorning tag qismi bilan beton devorga yutilmaydi u holda (2) formula quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\sum Q_{yuq} = Q_{plyon} + Q_{tir} \quad (3)$$

(3) formuladagi Q_{plyon} -plyonka yuza orqali yo'qoladigan issiqlik miqdorini kamaytirish uchun kechki vaqtda tashqi temperatura pasayganida kollektorni sirtini issiqlik o'tkazuvchanligi kam bo'lgan material bilan yopib qo'yiladi.

$$Q_{plyon} \approx 0$$

$$\sum Q_{yuq} \approx Q_{tir} \quad (4)$$

foydalangan holda Quyosh kollektorlarini samaradorligini oshirishini bilishimiz mumkin. Mazkur quyosh kollektorida foydali ish koeffitsienti 65% dan 75% gacha oshadi [5]. Pastki qismi (yer) ga issiqlik energiya yutilmasligi uchun suyuq stiklovata, betum bilan ishlov berilgan va quritilib ustidan nur qaytaruvchi folgali shisha g'ilofi bilan yopilgan natijada yer bilan izolyatsiyalangan.

Akkmulyatsiya uchun atayin sharsimon tosh qayroqlar joylashtirilganki, ularning sirt chegaralarida Bernulli qonuniga asoslangan aerodinamik kuchlar yuzaga kelib, qizigan havoni bo'shliq kanallar orqali harakatlantiradi. Har bir qavat toshlar orasiga qizigan havo harakatlanishini ta'minlanadi va qavatlar orasidagi temperaturalar farqi kamayadi, kollektor ichidagi hamma toshlar deyarli bir xil zichlikda tanlangan, amorflik yo'q deb olinadi va bir xil temperaturada qiziydi natijada kollektor ichidagi temperatura oshadi va bunda issiqlik energiyasining zichligi orta boradi. Kollektor ichidagi temperaturani sovishi ham tosh qavatlari orasidagi harakatlanuvchi havoning tezligiga bog'liq bo'ladi. Toshlar orasidagi harakatlanuvchi qizigan havo orqali kollektor ichidagi temperaturani barqaror saqlab turish mumkin. Kollektor ichiga akkmulyatsiyalash uchun foydalaniladigan qum, qayroq toshlar, suv, aftol, mazut va boshqa materiallar va moddalardan mavsumiy foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buni qoraga bo'yalgan qayroq toshlar misolida qarasaq bu toshlardan akkmulyatsiya uchun foydalanilsa, har bir toshlarni hajmiga, toshlarning ko'pligiga, necha qavat bo'lib joylashishiga, orasidagi havo aylanish aerodinamikasiga bog'liq bo'ladi [9-10]. Olingan eksperimental tajribalar shuni ko'rsatadiki akkmulyatsiyalashda foydalaniladigan qoraga bo'yalgan toshlarning har bir qavatida 24 soat davomida temperaturalar farqi kuzatildi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki akkmulyatsiya uchun foydalaniladigan toshni sirti qanchalik katta va yassi bo'lsa o'ziga shunchalik ko'p issiqlik energiyasini yig'adi. Bu qayroq toshlardan quyosh radiatsiyasi yuqori bo'lganda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tajriba o'lchash ishlari 19-may 2021-yil

Qarshi muhandislik- iqtisodiyot instituti “Muqobil energiyalari” kafedrasining poligonida o‘tkazildi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, akkumuliyatsiya uchun ishlatiladigan materiallar va moddalar kam sarf-harajatli bo‘lishi bilan birga kunning sovuq vaqtlarida qish, oylarida muzlamasligi, yog‘ingarchilik kunlarda foydalaniladigan materiallarni zanglamasligi, korroziyaga uchramasligi, chirimasligini oldini olish kerak. O‘zbekiston mintaqasida qayta tiklanuvchi energiya resurslarini tahlil etib aytilish mumkinki, elektr va issiq suv ta‘minotida quyosh energiyasidan foydalanish, O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy jihatdan to‘liq o‘zini oqlaydi. [12].

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, PQ-4422 sonli qarori.

2. Zaxidov R.A. Vozobnovlyаемые istochniki energii: sostoyanie i perspektivy. // Uzbekskiy jurnal “Problem informatiki i energetiki” №4, c. 41-46. (2002).

3. Uzoqov G‘.N., Xo‘jaqulov S.M., Uzoqova Yu.G‘. “Muqobil energiya manbalaridan foydalanish asoslari”. Toshkent // Fan va texnologiya. (2017). 45-48 bet.

4. Uzoqov G‘.N., Davlonov. “Gelioissiqxonalarining energiya tejamkor isitish tizimlari” . //Vorish-nashriyot. (2019).

5. Avezova N.R. i dr. Modelirovanie nestatsionarnogo temperaturnogo rejima gelioteplis s Iratkosrochnm akkumulatorom tepla i yego eksperimentalnaya proverka. // Geliotexnika.- 1993.- №4.-s. 24-28.

6. Sodiqov S, Xayriddinov B, “Quyosh energiyasini akkumulyatsiyalash”// Toshkent Fan (1986) . 55-58 betlar

7. Zaxidov R.A. Energetika stran sentralnoy Azii i rol vozobnovlyaemx istochnikov energii. //Geliotexnika, 2008. - №3-s.68-74.

8. Valov M.I. Ispolzovanie solnechnoy energii v sistemax teplosnabjениya.- M // MEI, 1991 g.

ОБОБЩЕНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА КЛАСТЕРИЗАЦИИ АПК

А.Д. Кудратов
Преподаватель БухГУ

Для выработки действенной модели и целесообразного механизма кластеризации отечественного АПК важно знать накопленный опыт, особенно зарубежный, поскольку кластеризация экономики в ряде развитых стран приобрела широкие масштабы и является бесспорным примером для иных государств.

Известно, что основоположником кластерной концепции считается профессор Гарвардской школы бизнеса м. Портер. Однако одной из самых ранних попыток интерпретации настоящего феномена является исследование а.маршалла, изложенное в книге «Принципы политической экономии» (1890 г.), где обобщено развитие промышленных районов Великобритании.

Так, а.маршалл провел исследование того, насколько существенную экономию можно получить путем концентрации большого числа однородных предприятий в одной местности и какая степень такой экономии может быть достигнута производством в крупном масштабе.

Кластерная концепция образно определена в работе м. Портера «конкуренция», где автор определяет кластеры как сконцентрированные по географическому признаку группы взаимосвязанных компаний, специализированных поставщиков, а также поставщиков услуг, фирм и связанных с их деятельностью организаций (например

научных организаций, торговых объединений) в определенных областях, конкурирующих, но при этом ведущих совместную работу. говоря о конкретных преимуществах кластерного механизма, м. Портер отмечает, что он помогает на-ращивать производство, оптимизировать издержки, увеличивать экспорт, а также привлекать ино-странные инвестиции.

Теоретическими и практическими аспектами формирования и функционирования кластеров в настоящее время занимаются многие зарубежные исследователи, в числе которых – е. Дахмен, И.Толенадо, Д.Солье, Е.Лимер, Р.Вайбер и др. в их трудах нашли отражение многие актуальные вопросы создания и повышения конкурентоспособности кластеров в зависимости от специфики страны, экономики, отрасли, региона и местности. активно в направлении изучения и освоения кластерной концепции продвигается в Узбекистане. Применительно к ее условиям исследованием кластеров занимаются такие ученые, как а.мигранян, т. Цихан, м.афанасьев, в.третьяк и др. в част-ности, последний в своей фундаментальной работе «кластеры предприятий» показал, что по характеру возникновения кластеры могут образовываться как «снизу вверх» (спонтанно) или по инициативе от-дельных сильных предприятий и частных лиц, так и «сверху вниз» (искусственно) – по инициативе властей.

Для создания и развития кластеров во многих странах и регионах разрабатываются разнообраз-ные стратегии: стратегия предпринимательства, региональная стратегия, отраслевая, инновацион-ная, сбытовая и т.п. в ряде стран кластерный подход используется для стимулирования экономи-ческого развития на основе специальных стратегий – инвестиционной (привлечение инвестиций), оптимизационной (оптимизация числа участников), технико-технологической (совершенствование техники и технологий) и пр. например в странах евросоюза эти стратегии являются частью на-циональной стратегии повышения конкурентоспособности экономики или частью региональной программы стабилизации отраслевого или территориального развития. в восточноевропейских странах – членах ескластерный подход в основном используется для ускорения изменений и сти-мулирования бизнеса к инновациям.

Характерно, что внедрение кластерной стратегии практически во всех развитых странах происходит как на национальном (а в европейском союза и на межнациональном), региональном, отраслевом и межотраслевом и местном (территориальном) уровнях. так, национальные кластерные стратегии широко используются во Франции, Финляндии, Италии, германии; региональные кластерные стратегии – в Бельгии, Испании, Венгрии; национальные границы для региональных и отраслевых стратегий – в Австрии, Швеции, Великобритании, Болгарии, Чешской Республике.

Например кластеры Италии традиционно возникали на основе личных контактов и долгосрочных коммерческих отношений, которые создавали инвестиционный капитал в форме взаимного дове-рия участников. кластеры развиваются на основе широкой и в основном неформальной сети свя-зей. Формальные структуры и централизованные регуляции здесь не одобряются.

Тем не менее в большинстве работ западных авторов кластерная стратегия рассматривается как инструмент государственной политики повышения конкурентоспособности компаний, фирм, предприятий, их объединений и экономики в целом.

Освещая мировой опыт использования кластерных стратегий, необходимо знать, что ни одна страна не является конкурентоспособной во всех сферах. в развитых странах международная конкурентоспособность изначально обреталась и укреплялась в рамках отдельных кластеров, влияние которых поэтапно усиливалось, и в сферу кластеризации постепенно вовлекались другие террито-рии, отрасли и предприятия. Это замечание весьма важно для Узбекистана, подступающей к необходимости кластеризации экономики и ставящей задачу наращивания конкурентоспособности.

Изучение показывает, что в экономической литературе выделяются 3 мировых центра (региона) кластерного развития – североамериканский, западноевропейский и азиатский. Так, для северо-американского региона (США, Канада) характерна исторически сложившаяся ориентация на политику «малого вмешательства федерального правительства в процессы кластерного развития». Государственная стратегия и политика в отношении развития кластеров в различных областях деятельности официально не формируется и не оформляется в виде правительственных документов и законодательных нормативов. Аналитическую работу по инициированию создания кластеров в основном ведут научные центры и университеты. Поэтому в деятельности кластеров преобладают инновационные подходы, хотя вся работа по организации кластеров основана на принципах партнерства.

Характерно, что первые масштабные кластерные программы появились в США в 1970-х–1980-х годах. Разрабатывались кластерные стратегии отдельных территорий и отраслей, формировались комиссии по инициированию новых кластеров, создавались благоприятные условия для проникновения кластерной стратегии в различные сферы бизнеса. в настоящее время в стране действует более 400-т различных кластеров – в сфере высоких технологий, производства интеллектуальных потребительских товаров, в индустрии сервиса, добычи природных ресурсов и др. В США также развито большое количество агропромышленных и агропродовольственных кластеров, имеющих как глобальное и общенациональное, так и местное значение.

В Канаде кластерная стратегия является частью национальной инновационной стратегии страны. координацию данной стратегии осуществляет национальный исследовательский совет – ведущее федеральное агентство по научно-исследовательскому развитию. основной целью инновационной стратегии канады является вовлечение существующих научных наработок из сферы науки, образования и инноваций в практическую деятельность органов управления, объединений и фирм для повышения общего инновационного потенциала экономики страны и уровня знаний. Для этого были задействованы так называемые технологические кластерные инициативы как ответная реакция на недостаточный уровень корпоративной научной деятельности и необходимость подъема региональной и отраслевой экономики. Результаты стали появляться сразу же с принятием стратегии.

В Азиатском регионе присутствуют некоторые черты европейского региона (например выраженное государственное регулирование), в то же время есть и чисто азиатские особенности. так, государство призвано не только поддерживать развитие, но и обеспечивать защиту от рискованной конкуренции со стороны иностранных поставщиков, а также оказывать помощь в экспансии на внешних рынках. Развитие кластеров осуществляется как за счет собственных средств участников, так и посредством зарубежных инвестиций и активной государственной поддержки.

Таким образом, на базе изложенного можно сделать следующие выводы и предложения. Регионы и территории, где сформировались кластеры, приобретают устойчивые темпы развития, причем преимущества кластерных организаций проявляются во всех сферах деятельности, а не только в инвестиционно-инновационной. При группировке хозяйствующих субъектов в кластеры происходит оптимизация структуры производства, концентрация ресурсов на приоритетных направлениях, модернизация производственно-технологических процессов, минимизация внепроизводственных затрат. Возникает эффект масштаба, в основе которого находится рациональная специализация и целесообразное размещение основного и вспомогательного производств. в итоге кластеры становятся одной из наиболее эффективных форм кооперации и интеграции производственного, инвестиционного и квалификационного капитала, обеспечивающей формирование многих конкурентных преимуществ. Поэтому кластерный подход в настоящее время вполне правомерно принять в качестве методологической основы стратегического инновационного развития.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОЗДАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО КЛАСТЕРА КАК ПЕРЕДПОСЫЛКА РАЗВИТИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

С.С. Давлатов

Старший преподаватель, БухГУ

Последние десятилетия характеризуются существенной активизацией глобализационных процессов и становлением глобальной экономики. Это существенно сказывается на характере конкурентной борьбы, обуславливает изменения в формах организации производства и приводит к появлению новых форм кооперации и интеграции, а именно: альянсов, партнерства, сетей, кластеров и т.д.

Современное мировое конкурентное производство базируется на процессах интеграции научных, инновационных и производственных предприятий различных типов, а научно-технологическое развитие обеспечивается объединениями, группами предприятий, кластерами и сетями с горизонтальными, вертикальными и региональными связями. Именно поэтому для Узбекистана кластеризация различных отраслей национального хозяйства, в том числе и в области образования – это путь к укреплению и развитию национальной экономики, поддержания ее на должном уровне в глобальной экономической системе.

Проблема кластеризации различных отраслей национальной экономики сегодня является чрезвычайно актуальной и поэтому привлекает внимание как зарубежных, так и отечественных ученых, о чем свидетельствует значительное количество публикаций. Весомый вклад в исследование данного вопроса внесли такие западные ученые, как А. Маршалл, М. Портер, В. Прайс, М. Энрайт и другие. В Узбекистане изучению кластерной модели взаимодействия посвящены труды А.Ж. Абдуллоев, К.Шадиметов, Т.Х. Фармонов, Н.Аскарлов и др.

Проблеме социального партнерства в образовании уделено внимание в исследованиях П. Анисимова, Е. Корчагина, А. Костина, А. Мартякова, Г. Мухаметзянова, И. Смирнова, А. Ткаченко, Ю. Шуберта и др.

Однако остается нерешенным ряд теоретико-методологических вопросов особенностей механизма развития высшего образования на основе кластерного подхода и его роли в этом развитии. Наличие нерешенных научных проблем предопределяет дальнейшие исследования в этом направлении.

Понятие кластера в научный оборот было введено американским ученым М. Портером в его фундаментальном труде «Конкурентные преимущества стран» (1990). Оно возникло на основе системного исследования информации о деятельности успешных американских и европейских корпораций. Кластер – это группа географически близких взаимосвязанных компаний и родственных учреждений в определенной сфере деятельности, характеризующихся общностью и взаимным дополнением друг друга. Кластеры обычно формируются в регионах доступных трудовых ресурсов, коммуникаций и логистики.

Кластеры являются естественным проявлением роли специализированных знаний и навыков, инфраструктуры и тех отраслей, которые играют роль дополнительного фактора в повышении производительности труда. Их значение возрастает с изменением характера конкуренции. Следует отметить, что кластеры определенным образом влияют на конкурентную борьбу, а именно: путем повышения общей производительности с привлечением к ним новых фирм и отраслей; за счет увеличения способности к инновационной деятельности и, таким образом, к росту конкурентоспособности; через стимулирование новых бизнес - образований, которые поддерживают инновации и расширяют границы кластера.

Влияние кластеров на конкуренцию в определенной степени зависит от межличностных отношений, личных контактов, взаимодействия учебных заведений, бизнеса, общественных организаций и власти в регионе. Несмотря на то, что

существование кластера облегчает развитие указанных отношений и повышает их эффективность, этот процесс не является автоматическим. Формальные и неформальные организационные механизмы и культурные нормы часто имеют большое значение для развития и функционирования кластеров.

Мировой опыт показывает, что темпы роста объемов производства в кластере значительно выше, чем в среднем по отрасли. Именно поэтому кластеры целесообразно рассматривать как точки роста экономики в целом. Наличие кластеров в стране является весомым фактором влияния на производительность национальной экономики. Чем больше развиты кластеры в отдельной стране, тем выше уровень конкурентоспособности ее экономики, а как следствие – уровень жизни населения.

Кластеры в образовании – это особый тип взаимодействия учебных заведений с субъектами и институтами рынка труда, региональными органами исполнительной власти и общественными организациями. Такое взаимодействие направлено на достижение оптимального понимания и реализации интересов всех участников кластера. Это означает не только практику совместного принятия решений, но и согласованность взаимной ответственности.

Ключевым фактором развития образовательных кластеров являются интеграционные процессы, которые обуславливают сочетание возможностей кадрового, производственного и образовательного потенциала региона для решения задач, направленных на подготовку конкурентоспособных специалистов. Внедрение образовательных кластеров предполагает формирование партнерских связей между учебными заведениями, предприятиями и экономикой области. Таким образом, кластерный подход основан на конструировании взаимодействия нового типа социального диалога и социального партнерства.

Страны Европейского Союза (ЕС) широко используют кластерные стратегии и рассматривают их как один из важнейших инструментов инновационного развития национальных экономик. Так, в рамках кластеров работает более 50 % предприятий, в которых доля произведенного ВВП превысила 60 %. В странах ЕС насчитывается более 2 тыс. кластеров, в которых занято 38 % его рабочей силы. Такое развитие кластеров имеет под собой весомое правовое основание. В частности, в 2006г. ЕС был принят «Манифест кластеризации в ЕС», а в декабре 2007г. одобрена рекомендация по утверждению «Европейского кластерного Меморандума», который был окончательно утвержден 21 января 2008г. в Стокгольме на Европейской президентской конференции по инновациям и кластерам. Поддержку процессам кластеризации стран с переходной экономикой продемонстрировал состоявшийся в Праге 7-10 мая 2009г. саммит ЕС «Восточное партнерство». Основная цель принятых документов – увеличить «критическую массу» кластеров, что может повлиять на повышение конкурентоспособности как отдельных стран, так и ЕС в целом.

В пользу создания именно образовательных кластеров свидетельствует их эффективность, прежде всего в области инноваций. Ведь вузы имеют необходимый научный и методологический потенциал для разработки и обоснования инноваций. В отличие от традиционных промышленных кластеров, образовательные кластеры – это система тесных взаимосвязей как между фирмами, их поставщиками и клиентами, так и «институтами знаний», среди которых значительные исследовательские центры и университеты. Будучи генераторами новых знаний и инноваций, они обеспечивают высокий образовательный уровень региона.



Рис. 1. Эффективность образовательного кластера

В кластере все элементы взаимодействия регулируют многоуровневую систему подготовки специалистов необходимой квалификации. Работодатель определяет требования к образованию, учебные заведения – подходы к обучению, а местная власть обеспечивает интеграцию образования с производством. При этом в процессе подготовки востребованных специалистов начинается их профессиональная адаптация.

Обобщая пользу от деятельности образовательных кластеров, покажем эффективность их создания на двух уровнях: элементарном (выгода по конкретному элементу кластерного образования) и сложном (выгода на уровне региона или страны) (Рис.1).

Подводя итог, можно сказать что регионы, на территории которых создаются образовательные кластеры, становятся лидерами экономического развития и именно такие регионы-лиде-ры определяют конкурентоспособность национальных экономик. Поэтому при-менение кластерного подхода к модернизации высшего образования в Узбекистане является необходимым условием для повышения эффективности инновационного развития регионов, достижения высокого уровня экономического развития и конкурентоспособности национального хозяйства.

Создание образовательных кластеров становится предпосылкой и мотивом для возникновения деловых структур благодаря лучшей информированности о благоприятных возможностях организаций, предприятий и вузов.

МУНДАРИЖА

Хамидов О.Х. Табрик ва кириш сўзи 3

I ШЎЪБА. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИДА КООПЕРАЦИЯ МУНОСАБАТЛАРИНИ УСТУВОР ЙЎНАЛИШ СИФАТИДА РИВОЖЛАНТИРИШ ТАЖРИБАЛАРИ ...6

Б.Н.Навруз-Зода. Кластерларни шакллантиришнинг назарий асослари	6
Фарманов Тўлқин Хайитмуродович, Абдуллоев Аслидин Жунайдуллоевич. Ихтисослашган қишлоқ хўжалиги кластерлар фаолиятини ривожлантириш	8
Явмутов Д.Ш., Б.М. Юлдошева. Современные проблемы орошаемого земледелия в Узбекистане и пути повышения эффективности в отрасли	10
A.J. Abdulloyev. Agroklastarlarni shakllantirish masalalari	12
М.А.Орипов. Ўзбекистонда биоиктисодиёт соҳаларини ривожлантиришнинг зарурат ва имкониятлари	13
Qayimova Z.A., Qosimova X. J. Vuxoro viloyati qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarining iqtisodiy tahlili.....	17
Д.Ш.Явмутов, М.Д.Шойимардонкулов. Бошқарув механизмларни такомиллаштириш – қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши самарадорлигининг муҳим омили	19
Rakhmatullaeva Firuza Mubinovna, Tairova Masuma Muxammedrizayevna. Development of agricultural cooperation in modern economic conditions	21
Қурбонов Алишер Бобоқулович, Журақулов Азим. Агросаноат мажмуида ишлаб чиқаришни ташкил этиш йўналишлари	23
О.Дж.Хусаинов, М.Қ.Мелсов. Чорвачилик соҳасини барқарорлигини таъминлашда хизмат кўрсатувчи инфратузилмани ривожлантириш омили	25
Gafurova Sh.K., Odayeva N.F. Prospects for the development agriculture in the republic of Uzbekistan.....	28
Ш.Ш.Болтаев. Инновацион иқтисодиёт шароитида корхонада харажатлар самарадорлигини бошқаришда тежамкорлик режимига амал қилишнинг асосий йўналишлари.....	30
Очиллов Назрилло Файзиллоевич. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва унинг рақобатбардошлигини оширишнинг устувор йўналишлари	33
Taylakova Dilafro'z Baymamatovna, Jomurodova Charos Qahhor qizi. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda xizmatlar sohasining o'rni	37
O.K. Xudayberdieva. Raqamli iqtisodiyotda agrosanoat klasterlarining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari	39
Isomov B.S. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning harakatlar strategiyasi asosida investitsiyalarni jalb etishning ustuvor vazifalari.....	42
Балташев Журсинбай Муратбаевич. Қорамолчилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш самарадорлиги	44
Ш.Ш.Болтаев. Инновацион иқтисодиёт шароитида асосий воситалар билан боғлиқ харажатлар самарадорлигини бошқаришда тежамкорлик режиминига амал қилиш масалалари	47
Очиллов Назрилло Файзиллоевич. Тараққий этган мамлакатларда қишлоқ хўжалиги рақобатбардошлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари.....	51
Сайфуллаева М.И. Направления сельскохозяйственных реформ в Узбекистане.....	55
Ш.Ш.Болтаев, А.Д. Кудратов. Инновацион иқтисодиёт шароитида хом ашё ва материаллар билан боғлиқ харажатлар самарадорлигини бошқаришда тежамкорлик режиминига амал қилиш масалалари	56

II ШЎБА. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ИХТИСОСЛАШГАН КЛАСТЕРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ҲОЛАТИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ... 61

Бозорбоева Зарнигор Гулмирза қизи. ҒАЛЛАЧИЛИК КЛАСТЕРИ ТИЗИМИДА ХАРАЖАТЛАР ҲИСОБИНИНГ ТАШКИЛИЙ –УСЛУБИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	61
Д.Ш.Явмутов. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК КЛАСТЕРЛАРИ – ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ШАКЛИ СИФАТИДА	63
Hamroyev Halim Roziqovich. O‘ZBEKISTONDA KLASTERLASH SIYOSATINING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI.....	65
A.J.Abdulloev. QISHLOQ XUJALIGIDA KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVASION OMILLARI.....	67
Бобожонов Дилшод Маҳмудович. БУХОРО ВИЛОЯТИДА ПАХТА-ТЎҚИМАЧИЛИК КЛАСТЕРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ	71
Амиркулов Шухрат Олимович. АГРАР СОҲАДА ИНСОН КАПИТАЛИНИ ШАКЛЛАНИШ ВА РИВОЖЛАНИШ АЛГОРИТМИ.....	73
Давлатов Сухроб Сайитжонович. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ МОҲИЯТИ ВА ЗАРУРИЯТИ.....	75
Сайфуллоев Ойбек Олимович. АГРОТУРИЗМ КЛАСТЕРЛАРИ - ҚИШЛОҚ ҲУДУДЛАРИНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА	79
Niyozova I.N., Toyirov N. RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA AGROSANOAT KLASTERLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	81
Рахмонова Барно Сохибжонова. МИНТАҚАМИЗДА ЁНФОҚЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	83
Fuzaylova Nigina Khakimovna. SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF AGRO-TOURISM IN FOREIGN COUNTRIES AND UZBEKISTAN.	86
Sayfullayeva Madina Sirojiddinovna. ESTABLISHMENT OF AGRITOURISM CLUSTERS IN UZBEKISTAN BASED ON THE PRINCIPLES OF SUSTAINABLE TOURISM.....	87
Qulliyev Oxunjon Anvar o‘g‘li. KLASTER-RAQOBATDA YUTIB CHIQISHNING ENG OQILONA YO‘LI.....	89
Bababekova D. Sh., Aminova N. B. IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TURISTIK LOGISTIKA	90
Kamolov X.Z. QISHLOQ XO‘JALIGINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISH	92
Dilmonov Q.B., Hakimova Sh. JONDOR TUMANIDA PAXTACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS YO‘LLARI.....	94
Yuldasheva Komila. QISHLOQ XO‘JALIGIDA IXTISOSLASHGAN KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISH HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	97
Гиязов Б. Б. ЎЗБЕКИСТОНДА АГРОКЛАСТЕРЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЗАРУРАТИ	99
Шодиев Бекзод Тўлқинович. ҚОРАКЎЛЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ ТАШКИЛИЙ, ИҚТИСОДИЙ, ҲУҚУҚИЙ, ИЖТИМОЙ ВА ЭКОЛОГИК ЖИҲАТДАН УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ	101
Bakayeva M.A., Abdullayeva H. N. Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish holati va rivojlantirish istiqbollari.....	104
Қосимов Жаҳонгир. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА МЕВА-САБЗАВОТ КЛАСТЕРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАРИ.....	105
Boltayeva Sh.B., Mardonova Ozoda. Klaster nazariyasi va ularning faoliyati	108
Normamatov I.B., Pardayeva M.U. QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA KLASTER MODEL VA UNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI... ..	109
М.М.Яхяев. МАМЛАКАТИМИЗДА ЯЙЛОВ ЧОРВАЧИЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЗАРУРИЯТИ ВА УНДА ҚОРАКЎЛЧИЛИКНИНГ ЎРНИ	112
С. Ф. Салимова. ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЕ КЛАСТЕРОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ	114

Аминов Ф.Б. ПУТИ РАЗВИТИЯ КЛАСТЕРОВ В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ	116
Файзиёва Ширин Шодмоновна, Маматов Абдувайт Олимжон ўғли, Ибрагимов Иброҳим Ҳамро ўғли. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА АГРОКЛАСТЕРЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	117
Гиязова Нозима Баязовна. ЎЗБЕКИСТОН ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИДА КЛАСТЕРЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	121
Хужамуродова Сурайё Ибрагимовна. ПАРРАНДАЧИЛИК КЛАСТЕРИ ТИЗИМИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ БОШҚАРИШНИНГ АХБОРОТ ТАЪМИНОТИ	123
Saidova Feruza Kamolovna, Buranov Daler. BUXORO VILOYATIDA TURISTIK KLASTERLARNI TASHKIL ETISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	124
I.G.Djabborov. MAMLAKAT ERKIN IQTISODIY HUDUDLARI KESIMIDA TURISTIK ZONALARNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI	130
Собир Хасанов. МЕВА-САБЗАВОТЧИЛИК ТАРМОҒИ РИВОЖИДА КЛАСТЕРЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	136

III ШЎЪБА. ПАНДЕМИЯДАН КЕЙИНГИ ДАВРДА ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИ ВА ИНФРАТУЗИЛМА СУБЪЕКТЛАРИ ЎРТАСИДА КООПЕРАТСИЯГА АСОСЛАНГАН ЛОГИСТИКА ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

А.Кучаров. ҚАЙТА ИШЛАШ БОЖХОНА РЕЖИМИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТОВАРЛАРИНИ РАСМИЙЛАШТИРИШ ТАЛАБЛАРИНИ СОДДАЛАШТИРИШ	139
Садуллаев Аминбой, Ваисов Дилшод, Мадраимов Ҳабибулла. ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА МИНТАҚА ЧОРВАЧИЛИГИДА КИЧИК БИЗНЕСНИНГ РИВОЖЛАНИШ МУАММОЛАРИ	141
Xodjayev Anvar Rasulovich, Amonov Mirzohid To'ymurodovich. QISHLOQ XO'JALIGIDA LOGISTIKA INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	144
И. Х. Собиров, Б.Асқаров. АРХИТЕКТУРА ВА ҚУРИЛИШ СОҲАСИНИ ИННАВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ	145
Xushvaqтова Zarnigor Anvar qizi. AHOLINING UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARI KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	147
Нарзиев Мирфайз Махмуджонович. ПАНДЕМИЯДАН КЕЙИНГИ ДАВРДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ	150
Saidova Feruza Kamolovna. O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHIT: MUAMMO VA YECHIMLAR	152
Dilmonov Qudrat Baxtiyorovich. ISH BILAN BANDLIK XIZMATI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	156
Rajabova M.A. O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH YO'LLARI VA SAMARADORLIGINI VAHOLASH	162
Tolipov Muhammadali Ulug'bekovich. ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA RAQAMLI MARKETINGNING NAZARIY ASOSLARI VA XUSUSIYATLARI	165
N.Ravshanova. AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	172
Г.С.Нарзуллаева, Г.Х.Ибрагимова. АВТОМОБИЛ ТРАНСПОРТ ХИЗМАТЛАРИ РАҚОБАТДОШЛИГИНИ ОШИРИШ УСУЛЛАРИ	175
Алимова Муниса Юлчиевна, Равшанов Хуршид Холиқбердиевич. МЕВА-САБЗАВОТ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВА СОТИШ СОҲАСИДА МУЛКЧИЛИК ВА БОШҚАРУВ ШАКЛЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ	177
Жўраева Зилола Туробовна. ЎЗБЕКИСТОНДА АГРОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЯНГИ НОРМАТИВ- ҲУҚУҚИЙ ИМКОНИАТЛАРИ	180
Rajabova M. A., G'afurov Ro'zijon Hakim o'g'li. MAMLAKATIMIZDA MEHNAT RESURLARI VA MEHNAT SALONIYATI KO'RSATKICHLARINI VAHOLASH SAMARADORLIGI	182

Quliyev N.X. DAVLAT INVESTITSIYA SIYOSATINING MAQSADI, MONIYATI VA USTIVOR YO'NALISHLARI	186
М.Х. Уракова. ОСОБЕННОСТИ ВЕДЕНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	188
М.Ж. Бауетдинов. АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ОБОРОТНЫХ СРЕДСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ	190
Игамова Шахиния Зикриллоевна, Жамилова Эзола Вахобжоновна. АНАЛИЗ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ.....	194
Агзамов А.Т., Исмоилов Муслимжон Қамбарали ўғли. Янги Ўзбекистонда солиққа тортиш тизимида тадбиркорларга берилаётган имтиёзлар	197
Юлдошева Шахрибону Анвар кизи, Турсунова Фаёза Зариповна, Инатова Гули Отабек кизи. УЙ-ЖОЙ КОММУНАЛ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.....	201

4-SHO'BA. AGROKOOPERATSIYA VA INTEGRATSIYA MUNOSABATLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA AMALIYOTGA JORIY QILISH YO'NALISHLARI..... 205

Ф.Х. Назарова, Н.И.Саидахмедова. ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА АҚШ ДУНЁДАГИ ЕТАКЧИ МАМЛАКАТ СИФАТИДАГИ ТАЖРИБАЛАРИ.....	205
Гиязова Нозима Баязовна, Толибова Азиза Тўлқин кизи. КЛАСТЕРЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШДА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ.....	208
Tadjiyeva Sayyora Uralovna. YASHIL LOGISTIKA.....	210
Khodzhaeva Dilbar Khurshidovna. CHARACTERISTICS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF LIGHT INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE CONDITIONS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT	212
A.I.To'raho'jayeva. INVESTITION-INNOVATION RIVOJLANTIRISH – DAVR TALABI, ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	215
Ashurova Muborak Xayrulloevna. O'ZBEKISTONDA TUG'ILADIGAN TAQCHILLIKNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	217
Boltaeva Mohichehra Sharipovna. Budget taqchiligini bartaraf etish yo'llari	219
М.Х. Уракова. ОСОБЕННОСТИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА ПРОЦЕССОВ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ	222
Зайнутдинов Исмоил Самариддин ўғли. МОЛИЯВИЙ АКТИВЛАРНИ БОШҚАРИШ ТАҲЛИЛИ.	224
Зайнутдинов Исмоил Самариддин ўғли. Пул маблағларини бошқариш тизими	226
Кайимова З.А., Амонов С. Б. РАЗВИТИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА С ИННОВАЦИОННОМ РОСТОМ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНЕ	228
Qayimova Z.A. Xamroeva F.Q. TURIZMDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING MONIYATI VA ANAMIYATI.....	230
Кайимова З.А., Шаропов Фарход. ИННОВАЦИОННЫЙ И ИНВЕСТИЦИОННЫЙ ПУТЬ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	233
Турдиева Муқаддас Умаровна, Назарова Фотима Ҳакимовна. КОРХОНА ХОДИМЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ РАҒБАТЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ РАҚОБАТБАРДОШЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛЛАРИ.	238
Пулатова Д. ОСОБЕННОСТИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРОЕКТОВ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА	242

М.Ж. Бауетдинов. АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ОБОРОТНЫХ СРЕДСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ	245
Назарова Умида Авазовна. КОРХОНАЛАРДА ИННОВАЦИЯЛАРНИ СОҲА ТАРМОҚЛАРИДА САМАРАЛИ ЖОРИЙ ЭТИШ СТРАТЕГИЯСИ	247
Хамраева Сайёра Насимовна, Аманкулова Мухлиса. ЭЛЕКТРОН САВДОНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ	250
А.А.Қодиров. ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ХАЛҚАРО ТУРИСТИК ТАШКИЛОТЛАРНИНГ ЎРНИ	252
Rustamov Rajab. QISHLOQ TURIZMI VA UNI RIVOJLANTIRISHDA KLASTER USULINI QO`LLASH	254
Туробова Ҳ.Р. КООПЕРАЦИЯ МУНОСАБАТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАЛАРИ	256
Istamkhuja Olimovich Davronov. DEVELOPMENT OF INNOVATIVE TYPES OF SERVICES IN THE HOTEL INDUSTRY	258
То‘хлиев М.М. QISHLOQ XUJALIGI SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRILGAN MEVA QURITISH QURILMASINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	261
А.Д. Кудратов. ОБОБЩЕНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА КЛАСТЕРИЗАЦИИ АПК	264
С.С. Давлатов. ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОЗДАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО КЛАСТЕРА КАК ПРЕДПОСЫЛКА РАЗВИТИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	267